

**XODJIMATOVA MAXSUMA KUCHKAROVNA**

**S A H N A N U T Q I**

**D A R S L I K**

**TOSHKENT-2019**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT ISHLARI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**XODJIMATOVA MAXSUMA KUCHKAROVNA**

## **S A H N A N U T Q I**

**Bakalavriyatning 5150300 – Aktyorlik san‘ati (turlari bo‘yicha),  
5150400 – Rejissyorlik (turlari bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishlari talabalari uchun  
darslik**

**TOSHKENT-2019**

**Annotasiya:** Mazkur darslikda sahna nutqi fanining nazariy va amaliy asoslari yoritilgan bo'lib, darslik N.Aliyeva, L.Xo'jayeva, Z.Olimjonova, M.Isroilov, A.Nosirova, I.Djumanov, G.Xoliqulova kabi Sahna nutqi fanining metodologiyasini yaratgan ustoz-pedagoglar ilmiy qarashlarining mantiqiy davomi bo'lib, muallifning ko'p yillik pedagogik tajribasi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida yaratilgan.

Darslik bakalavriatning 5150300 – Aktyorlik san'ati (turlari bo'yicha), 5150400 – Rejissyorlik (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari talabalari va keng san'at ixlosmandlari uchun mo'ljallangan.

**Аннотация:** Учебник охватывает теоретические и практические основы предмета сценической речи, освещены методики преподавания сценической речи Н.Алиевой, Л.Ходжаевой, З.Олимжоновой, М.Исроилова, А.Носировой, И.Джуманова, Г.Халикуловой. Это логическое продолжение научных разработок автора, основанного на многолетнем педагогическом опыте и современных образовательных технологиях.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата 5150300 – Актёрское искусство (по видам), 5150400 - Режиссура (по видам), а также для любителей творчества.

**Annotation:** The textbook covers the theoretical and practical foundations of the subject of stage speech; the methods of teaching stage speech N.Alieva, L.Khodjaeva, Z.Olimjonova, M.Isroilov, A.Nosirova, I.Djumanov, G.Khalikulova are covered. This is a logical continuation of the scientific development of the author, based on many years of pedagogical experience and modern educational technologies.

The textbook is intended for undergraduate students 5150300 - Acting (by type), 5150400 - Directing (by type), as well as for lovers of creativity.

**Mas'ul muharrir:**

**Hamdam ISMOILOV**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Taqrizchilar:**

**Isoqtoy DJUMANOV**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti dotsenti, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi*

**Nodira MAHMUDOVA**

*O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist*

Darslik O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Ilmiy kengashining 2019 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

## So‘z boshi

So‘z san‘ati inson uning hoxish irodasi, borliqqa, narsa va hodisalarga munosabati, orzu umidlari, maqsadu maslaklariga anglatish va erishishining eng ta‘sirchan ifoda vositasi sifatida azaliy va abadiy yo‘ldoshimizdir. U inson aql zakovati, fikru zikri, dunyoqarashi, ta‘lim tarbiyasi, ma‘naviy-ma‘rifiy shakllanishi va takomillashishida anglash va anglatish orqali mustahkamlanadigan mukammallashadigan jarayondir.

Milliy g‘oya, milliy falsafa, umuminsoniy aqidalar, vatan va vatanparvarlik hissi, umuminsoniy g‘oyalar so‘z orqali singdiriladigan ijtimoiy fikr, ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydigan, qalb, aql zakovat bilan his etiladigan murakkab jarayondir. Bu esa Sahna nutqi faninining eng birlamchi vazifalaridan biridir. Ilk saboqlaridanoq umuminsoniy fazilatlarga mehr, e‘tiqod ruhi, ularning ichki dunyosi, ishonchi, tabiati uyg‘onishi muhim ijobiy ahamiyatga ega.

So‘zning teran ma‘nosi, uning zamiridagi fikr, maqsad, hoxish iroda va buning so‘zdagi yukini his qila olish layoqatining shakllanishi ko‘p vaqt, qunt talab jarayonidir. Bunda har bir yosh ijodkorning dunyoqarashi, bilimi, tafakkuri, iqtidori borliqni anglay olishi va faol anglata olish qobiliyati, hatti-harakatidagi tabiiylik, jo‘shqinligi, munosabatdagi aniqlik, qobiliyati, uning so‘z orqali ifodadagi ta‘sirchanligini vujudga keltiradi.

Har bir talabanning shaxs sifatida kamol topishi, o‘z maqsadi, fikrini yorqin ifodalashni amaliy o‘rganish, ibrat olish va ibrat ko‘rsatishi, ularning so‘z harakatdagi ifodaviy faolligi, so‘zining aniq maqsad bilan mustahkamlangan so‘z xazinamizni boyitadi. Ularni o‘rganish o‘zlashtirish orqali yosh ijodkorlarda so‘zning kuchi, qudrati his qilishga va diqqati, tinglash, o‘zlashtirish iqtidorini shakllantirish muhimdir. Biz yashayotgan muhit, olam boy va rang-barang, betakror tabiat manzaralari, biz tanishayotgan beqiyos olam, tasviriy san‘at, kino olami, badiiy adabiyotlar asosidagi tasavvur dunyomizda uyg‘onishi va tasvirlash rang-barangligini shakllantiradi.

Bularning hammasi so‘zning yorqin betakror ifoda ta‘sirchanligini uyg‘otuvchi manbalardir. Talabalarda so‘zning qadr-qimmatini, ma‘nosi, qudratini his

qilishga ehtiyoj, qiziqish, chanqoqlik, hassos munosabat uyg‘otish, muhim ahamiyat kasb etishi undan aslo to‘xtamasligi, ortga chekinmasligi kundalik sevimli qiziqarli mashg‘ulotga aylanishi lozim.

Sahna nutqi predmetini o‘qitish uslubiyatining an’anaviy maktab doirasiga ko‘ra nutq texnikasi bilan barobar so‘zga mehr uyg‘otish, tasavvur olamimizni uyg‘otish, ma’naviyatimiz, tafakkurimizni boyitish lozim bo‘ladi. O‘zining hayotbaxsh haraktlantiruvchi vazifalari kafedramizning tajribali va yetakchi ustozlaridan biri professor v.b. Xodjimato va Maxsuma Qo‘chqorovnaning o‘zbek teatr, kino, radio, televideniye, estrada san’atida samarali faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yosh ijodkorlarni tarbiyalashga samarali ulush qo‘shgan, ko‘plab Respublika va xalqaro miqiyosda e‘lon qilingan ilmiy maqolalar qator yangi avlod adabiyotlar muallifi, “Sahna nutqi” fanining nazariy-amaliy asoslarini yoritgan bir qancha o‘quv qo‘llanmalar, darslik, hamda shular asosida multimediya yaratgan, san’at ta’limining o‘ziga xos talablari asosida zamonaviy pedtexnologiyalari va innovatsion yondoshuvlar asosida faoliyat ko‘rsatib kelayotgani yosh o‘qituvchilarimizga ibrat bo‘lib kelmoqda. U Respublikamiz teatrlari, kino san’ati, televideniye, radio, estrada san’ati yo‘nalishlarida ijod qilayotgan taniqli aktyorlar, rejissyorlar avlodini professional ijodkor mutaxassis sifatida tarbiyalashga samarali xissa qo‘shish barobarida ilmiy tadqiqot, ilmiy ijodiy, ma’naviy-ma’rifiy, ishlari bilan ham e’tiborlidir. U tomonidan yangi taqdim qilinayotgan “Sahna nutqi” o‘quv adabiyotida ham muallifning ko‘p yillar davomida sinovlardan, reyting nazoratlaridan o‘tib shakllangan va mustahkamlangan o‘quv adabiyoti sifatida o‘zining betakrorligi, mazmundorligi, yangilikka intilishi, ijodiy uslubiy yondoshishi, innovatsion yangiliklari bilan farqlanadi. Kafedramiz professor-o‘qituvchilarining ko‘p yillik ilmiy-ijodiy izlanishlari, pedagogik salohiyati, tajribasi, faolligi va tashabbuskorligi tufayli institutimiz va Respublika miqiyosida e’tibor, hurmat, e’tiroflarga munosib an’ana mavjud. M.Xodjimato va O‘zbekiston xalq artisti, professor T.Azizov, O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor M.Abdullayeva, professor L.Xo‘jayeva, S.Inomxo‘jayev kabi yetuk ustozlar yo‘lini davomchisi sifatida e’tirof etamiz. Ularning rahbarligida shakllangan ilmiy-ijodiy amaliy

tajribalari bugungi kunda yanada mustahkamlanib kelmoqda. Shuningdek M.Xodjimatovning “ustoz–shogird” tizimida kafedraga munosib yosh pedagog o‘qituvchilar tarbiyasiga ham e’tibor qaratayotganligi o‘zining samaralarini bermoqda. Kafedra professor-o‘qituvchilariga bildirgan fikr-mulohazalari o‘rinli va adolatli. Institutimiz yangidan tashkil qilinganidan keyin kafedraning salohiyatini ko‘tarishga, bo‘lgan qator harakatlari ijobiy yakunlanmoqda. Yakuniy nazorat dasturlarida o‘quv-uslubiy jihatdan to‘g‘ri yondoshilgan ishlarida aniq maqsadlar sari yo‘naltirilgan natijalar talabalarning amaliy ijodiy ifoda ko‘nikmalarini mustahkam o‘zlashtirganini e’tirof etamiz. Muallifning “Sahna nutqi” darsligida yangi zamonaviy o‘quv adabiyotlari yaratishday kafedraning ilmiy salohiyatini ko‘taradigan, ilmiy-tadqiqot, amaliy-ijodiy ishlarimizni zamon talablari darajasiga ko‘tarish vazifalarini anglaymiz.

Kafedramizning bugungi va ertangi kuni, istiqboli yo‘lida shubhasiz bu yaratilayotgan yangi adabiyotlar “Sahna nutqi” fanini yana bir muhim bosqichga ko‘taradi.

***O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar  
murabbiysi, dotsent Isoqtoy Djumanov***

## KIRISH

Tobora katta va shiddatli odimlar bilan yangilanayotgan va yuksalayotgan jamiyatimizning buguni va ertangi istiqbolining yetakchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanayotgan yoshlarimiz tarbiyasida, ularning dunyoni anglashi, hayot va jamiyat qonuniyatlarini har tomonlama idrok etishi, yer yuzidagi turli xalqlar va millatlar dunyoqarashi, g'oyasi, maqsad – muammolarini bilishi uchun hayot falsafasini keng va atroflicha o'rganishga ehtiyoj katta. Ularda mavjud va barcha yaratilayotgan yangi san'at asarlarini chuqur o'rganishga, qiyosiy tahlil qilishga, asar g'oyasi asosida milliy va umuminsoniy manfaatlariga xizmat qilish yo'llari va yechimlarini topishga yo'naltirish, bo'lg'usi ijod ahlining chuqur tafakkuri, dunyoqarashi va boy bilimlarini doimiy oshirib borishga va mukammallashtirishga safarbar qilishimiz lozimligi ko'rinadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligiga qaratilgan muhim hujjat bo'lishi bilan birga keyingi yillarda Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hayotimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan qator farmon va qarorlarini hayotga tadbqiq qilishimiz ta'lim-tarbiya o'z o'rnida ularni o'rganish va faoliyatimizga tadbqiq qilish dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

Mazkur "Harakatlar strategiyasi" mustaqillik yillarida har bir sohada izchillik bilan olib borilayotgan tub islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadi **2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning huquqiy asosidir.**

Mamlakatimizda xalq farovonligini ta'minlashning to'laqonli huquqiy asosi yaratilganligi o'zining taraqqiyot imkoniyatlarini namoyon qilib, hayotimizning turli sohalarida umidbaxsh samalarini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizning asosiy taraqqiyot yo'lini belgilagan va uni tezkor shiddatlar yuksaltirayotgan "Harakatlar

strategiyasi” qisqa muddatlar ichida katta ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bunyodkorlik nufuzi bilan o‘zining qudratini namoyon qildiki, bu dunyo siyosatchilarining qiyosiy tahliliy e’tiroflariga sabab bo‘layotganligi tanlangan bu ulug‘vor yo‘lning naqadar to‘g‘ri ekanligini anglatadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 3-avgust kuni milliy madaniyatimiz, adabiyot va san’atimizni rivojlantirish bilan bog‘liq dolzarb masalalar yuzasidan adabiyot, madaniyat va san’at hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvi bu boradagi muhim vazifalarni hal etishga qaratildi.

Mazkur uchrashuvda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida ma’ruza o‘qidi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatimiz ijod ahli haqiqatan tarixiy voqea ishtirokchisi va guvohi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvi ishtirokchilarga yangidan-yangi ijodiy muvaffaqiyatlarga erishish uchun ilhom bag‘ishladi, kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shdi, desak hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Uchrashuvda Prezidentimiz madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san’atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda juda muhim vazifalar turganini kuyunchaklik bilan ta’kidladi. Bu vijdoni uyg‘oq, o‘z ishiga sadoqat va fidoyilik bilan yondashadigan har bir san’atkorni tashvishlantirmay qo‘ymaydi.

Prezidentimiz xalqimizning ma’naviy kamolotida ijodkorlarning xizmati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida barcha sohalar vakillari qatori madaniyat va san’at ahlidan ham yanada faollik, yangi-yangi ijodiy g‘oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi talab etilayotganini ta’kidladi.

Prezidentimiz bo‘lib o‘tgan ochiq va samimiy muloqotning ahamiyati, mantiqiy natijasi haqida so‘z yuritib, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos

boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi"<sup>1</sup>, degan fikrni qat'iyat bilan ta'kidladi.

Shunday ekan, bu holat madaniyat va san'at sohasida ham o'z ijobiy va ijodiy in'ikosini topmog'i lozim. Biz O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti pedagoglari jamoasi yurtboshimiz tomonidan mazkur uchrashuvda bildirilgan fikr-mulohazalar, tanqidiy qarashlar, ulkan imkoniyatlar yaratilayotganligidan to'g'ri xulosa chiqarib, o'zbek madaniyati va san'ati rivojiga munosib hissa qo'shishni oliy maqsad deb bilamiz.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada ta'lim oluvchilarning iste'dod va qobiliyatlarini davlat tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirib borish, ixtisoslashtirilgan maktab va fan sohalarida chuqurlashtirilgan sinflarni tashkil etish, o'quvchilarning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlash maqsadida maxsus markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish tizimi shakllantirildi. Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish, bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sport maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berildi<sup>2</sup>.

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha jabhalari qatori san'at va madaniyat ta'limida ham izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, ma'naviyat, ma'rifat, milliy istiqlol g'oyalarini targ'ib qilishda, notiqlar, badiiy so'z ustalari, aktyorlar, adabiyotshunos va tilshunos olimlarning olib borayotgan samarali izlanishlari vatan

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 4-avgust.

<sup>2</sup> 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – B.38.

ravnaqi, xalq tinchligi va farovonligi, sog‘lom va barkamol avlod tarbiyasiga, dunyoqarashi, axloq-odobga qaratilgan ezgu g‘oyalar mujassam.

Bo‘lajak san’atkorlarga, jumladan aktyor va rejissyorlarga nutq texnikasi va so‘z ustida ishlashni hamda uni rivojlantirib, shakllanib borish bosqichlarini o‘rgatuvchi, tadqiq va tadbiiq etuvchi talabanning nutqi ustida ishlab, uni barcha nuqsonlarni bartaraf etib, ravon holga keltirishga va ta’sirchan ijroga erishishga xizmat qiluvchi “Sahna nutqi” fani o‘qitiladi.

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir<sup>1</sup>.

O‘zbek milliy professional teatr san’ati rivojlanishi bilan birgalikda “Sahna nutqi” fani ham rivojlandi va taraqqiy topdi. Mazkur fanning namunaviy meyorlarini M.Uyg‘ur, A.Hidoyatov, Ye.Bobojonov, Sh.Burxonov, O.Xo‘jayev, S.Eshonto‘rayeva kabi ustoz san’atkorlar ijodiy jarayonlarda amaliy jihatdan takomillashtirgan bo‘lsalar, ustoz-pedagoglar M.Uyg‘ur, Ye.Bobojonov, N.Aliyeva, L.Xo‘jayeva, S.Inomxo‘jayev, A.Sayfuddinovlar o‘zbek “Sahna nutqi” maktabining nazariy, amaliy, ilmiy-uslubiy poydevorini metodik jihatdan asoslab berganlar.

Talabalar “Sahna nutqi” fanining nazariy-amaliy jihatdan boy va ta’sirchan bo‘lgan qiziqarli, murakkab hamda riyozatli ulkan bir ijodiy jarayonini bosib o‘tadilar.

Sahna nutqi teatr san’atining ajralmas qismi va aktyorlik mahoratining asosiy ifoda vositasi sanalar ekan, u doimo san’atkorning diqqat markazida bo‘lishi, ijro jarayonining eng muhim ob’yekti sifatida ijodiy izlanishlar silsilasining barcha chig‘iriqlarida toblanishi, musaffo va sof holga keltirilishi lozim.

Sahnada so‘zning qadri, vazifasi, yuki hayotdagidan ko‘ra bir necha marotaba ortishini, uni tomoshabinga aniq va tushunarli yetkazib berish nechog‘li ahamiyatli ekanligini his qilgan pedagog ham talaba ham sahnaviy ta’sirchan nutq masalasiga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 83. (176 b)

eng ustuvor jihatlardan biri, “so‘z – sahna san’atining qon tomiri” ekanligiga amal qilib yondashmog‘i lozim.

Biz ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o‘zlikni, Vatan tuyg‘usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz<sup>1</sup>.

So‘zning ahamiyatini, qadrini barcha ijodkor, ayniqsa, adabiyot, qalam sohiblari juda yaxshi tushunadilar. So‘z ustida ishlash jarayonida har bir asar g‘oyaviy mazmunini, voqea hodisalar rivojidadagi mantiqiy izchillikni, personajlar xarakterini ochishda, uning yukini oydinlashtirishni maqsad qilgan holda badiiy asar matnini o‘rganishi va o‘zlashtirishga katta ahamiyat qaratish kerak.

Matndagi har bir so‘zning nima uchun aytilayotganini, muayyan so‘z zamirida yashirin fikrlarni topib urg‘u berish, har bir jumlaning yoki tugallangan bo‘lakning tub ma‘nosi va maqsadini aniq belgilash kerak.

Ma‘lumki talabaning so‘z ustida ishlash ijodiy jarayonining ilk bosqichi bu tasviriy adabiy parchalar hisoblanadi. Kichkina bir manzara yaratishga qo‘yilgan talablar, ya‘ni ko‘rish, his etish, munosabat bildirish kabi elementlar, keyingi bosqichda kam voqeali yoki to‘liq voqeali, tugallangan asar bo‘lsin nutq texnikasining barcha unsurlari qatori, aktyor muallif g‘oyasi, mavzuning dolzarbligi, oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat kabi tahliliy jarayonlarini, to‘g‘ri talqin qila olish malakasiga ega bo‘lishi kerak. Shundagina aktyor va rejissyorlar badiiy so‘z mukammalligiga, qolaversa spektakl sahnalashtirishda so‘z ustida ishlashning barcha bosqichlarida o‘zi mustaqil ijod qilish ko‘nikmasiga erishadi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 87. (176 b)

Yuqorida nomlari zikr etilgan o‘zbek sahna nutqi maktabi jonkuyarlarining professional teatr san’atida amalga oshirgan mustahkam an’anasini saqlash va uni bugungi kun teatr san’ati, xususan sahna nutqiga tadbiq etish, san’at ta’limi istiqbolini belgilaydi.

So‘zning bahosi, qadri, ahamiyatini to‘la anglatish, his qildirish maqsadida talabalarni birinchi bosqichda so‘zning zalvori bilan zimmalaridagi mas’uliyatni yana ham og‘irlashtirmaslik lozim.

Birinchi bosqichda o‘tilgan barcha ijodiy texnik mashqlar talabalar ijodiy tabiatining (organikligini), erkinligi, izlanuvchanligi, tasavvurga boyligi, ijro faolligi va rang-barangligini (tabiiyligini) ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, mazkur mashqlar bir vaqtning o‘zida sahnada so‘zning ahamiyatini tushunishga, so‘zdan to‘g‘ri foydalana olishga va so‘zlashuv munosabatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga o‘rgatuvchi nazariy bilim va amaliy mashqlar uchun ma’lum ma’noda poydevor vazifasini ham o‘taydi.

Mazkur darslik bakalavriyatning 5150300 – Aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha) va 5150400 – Rejissyorlik (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda fanning o‘quv dasturiga binoan barcha mavzular ilmiy-amaliy yoritilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, teatr san’atida jonli so‘z ijrochiligi bilan shug‘ullanuvchi barcha ijodkorlar aynan “Sahna nutqi” fanining tarkibiy qismlarini, xususan matn bilan ishlashdagi barcha tahliliy jarayonlarni chuqur o‘rganishlari lozim.

Mamlakatimizda inson, uning qadr-qimmati, huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy ma’naviy merosimizning barqarorligini ta’minlash, shaxsning estetik tarbiyasi borasida muhim ishlar amalga oshirilmogdaki, bugun hayotimizning o‘zi Konstitusiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo‘ymoqda. Inson manfaatlarini ta’minlash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi

bilish kerak<sup>1</sup>. Teatrda nutqning vazifasi hayotdagidan birmuncha farq qiladi. Zero “Sahna nutqi” hayotiy nutqning badiiylashgan g‘oyalar, maqsadlar, harakatlar birligining yorqin ta’sirchan ifodasidir. U birinchi navbatda hayotiy, tabiiy ifoda ta’sirchanligi bilan uyg‘un. Aktyorlarning ma’lum xatti-harakatni amalga oshirish maqsadida nutqdan foydalanish jarayoni murakkab tizimlarda kechadi. Boisi, teatrdagi tomoshaviylik so‘zlashuv munosabatining hayotdagidek to‘g‘ridan-to‘g‘ri tabiiy tashkil topishiga to‘sqinlik qiladi. Buning natijasida ko‘pchilik aktyorlar pyesadagi personajning aytadigan so‘zi uchun nutqdan foydalanadilar. Ular o‘z zimmalariga yuklatilgan vazifani chalkashtirgan holda so‘z yordamida xatti-harakat qilish lozimligini unutadilar. Sahna nutqi jismoniy harakat uchun ko‘makdosh bo‘lishi kerak. Aktyor uchun so‘z obraz timsolida o‘z maqsadiga yetish yo‘lidagi ko‘makchi vosita hisoblanadi.

Sahnaviy so‘z o‘zida chuqur mazmunli, ta’sirchan xatti-harakatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Uning ma’no, mazmun va ohangini aktyor keng qamrovli o‘rganishi va turli ta’sir etish nuqtalari - ong, tasavvur, hissiyot doirasiga yo‘naltirishni uzluksiz ravishda mashq qilishi talab etiladi.

Aktyor o‘z roli so‘zlarini ijod qilar ekan, partnyorining aynan qaysi jihatiga, ya’ni ongi, tasavvuri va yoxud hissiyotidan qaysi biriga ta’sir etishni maqsad qilganligini aniqlab olishi kerak. Partnyorining biror-bir jihatiga ta’sir etish maqsadi aniqlab olingach, aktyor o‘z nutqining mantiqli, ishonchli va ta’sirchan chiqishi uchun intilishi kerak. Buning uchun esa rol matnini aniqlab, chuqur o‘rganishi, uni qismlarga bo‘lib, har bir qism ma’no-maqsadini va nihoyat butun bir matnning mazmuni, g‘oyasini oydinlashtirib olishi kerak.

Mazkur vazifalar orasidan eng muhimi va qo‘shimcha ikkinchi darajalilarini belgilab olgach aktyor va rejissyor har bir so‘zning boshqa bir so‘zdan ma’nosi, maqsadi jihatidan farqi va muhimligini o‘rganishi ko‘p vaqt talab qiladigan, aktyordan izchil, sabr-bardosh va zehn bilan har bir so‘zdagi tag ma’no, ichki harakat tizimli vazifalarni qamrab olgan holda yondoshiladigan jarayondir. Bu esa o‘z

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 14.

navbatida ohang va urg'ulardan to'g'ri foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ushbu fikrlar yuqorida keltirib o'tganimiz ijodkorning nutqdan foydalanish borasidagi birlamchi vazifaning muhim va kerakli ekanini isbot etadi.

Aktyor sahnada partnyoriga nisbatan o'tkazuvchi ta'siri maqsadini aniq bilsagina so'zlar havoga uchmaydi, balki ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda ta'sirli ifodalanadi. Milliy teatr san'atining darg'alari O.Xo'jayev, Sh.Burxonov, S.Eshonto'rayevalarning yaratgan obrazlari hali-hanuz xalqimiz yodida saqlanib keladi. Bugungi kunda ularning ijodiy yo'llarini yo'qotmaslikka, O'zbekiston xalq artistlari T.Azizov, E.Komilov, X.Sa'diyev, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist M.Rahmatov, N.Mahmudovalar, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi O.Salimov va bir qancha so'z ustalari, rejissyorlar, diktorlar, o'z tajribalarini yosh avlodga singdirishga va buyuk teatr namoyondalari yaratgan maktabni saqlab qolish maqsadida institutimizda teatr san'ati ta'limidan saboq berib kelishyapti.

“Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi”<sup>1</sup>.

So'z san'ati – badiiy adabiyot milliy teatr san'ati va o'zbek sahna nutqi maktabida aktyorlik mahoratining shakllanishida poydevor hisoblanadi. Teatr san'atining zahmatkashlari va badiiy so'z san'ati fidoyilari bugungi kunda ham to'liq ma'nodagi millatning ko'zgusi, milliy g'oya, san'at va madaniyat, ma'naviyat va ma'rifatning targ'ibotchilari ekanligi bilan ham so'z ustida ishlash uning nutqiy texnik majmualarini mukammal o'zlashtirish vazifasi talaba va unga nazariy amaliy mashg'ulot o'tkazadigan mutaxassis ustozdan katta aql, mehr- e'tiqod, iqtidor bilan yondoshishni, so'z ilmi bilan muntazam, davomli mukammal ishlashni taqozo etadi. Zero millat ko'zgusi bo'lgan “so'z san'ati” inson va ijodkorning zamonlar osha, bugun va kelajakda ham hamma ijodiy jarayonlarni o'ziga sig'diradigan qudratli va hikmatli ifoda vositasi bo'lib qolaveradi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 139-140.

## **I BOB. FANNING NAZARIY ASOSLARI**

### **SAHNA NUTQI FANIGA KIRISH**

Insoniy faoliyatning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy hamda kundalik hayotiy, muomala-muloqot, munosabat, istak va intilishlarining asosiy ifodaviy muloqot vositasi bo'lgan tilimizning har jihatdan mazmunli va ta'sirli bo'lishi, har bir shaxs, ijodkor va mutaxassislarning tezkor taraqqiyot jarayonlariga hamohang vazifalaridan biridir.

San'at va madaniyat yo'nalishidagi bakalavr yo'nalishi talablarining "Sahna nutqi" predmeti doirasida tavsiya qilinadigan nazariy va amaliy ijodiy tushunchalar, sahna nutqining nazariy va amaliy ijodiy ijro asoslari, vazifalar, uslubiy yondoshishlar, insoniy nutqiy faoliyatning mazmunli va ta'sirchan, aniq, ravon va betakror bo'lishi hamda milliy istiqlol g'oyalarining so'z san'atidagi ifodaviy ta'sirchanligini oshirishga va mustahkamlashga qaratilgan. Teatr san'atining aktyorlik jabhasida nutqning tutgan o'rnini beqiyosdir. Muallifning g'oyasi matnda turli vositalar orqali ifodalanadi. Asarning o'ziga xos stilistik tomoni, nutqiy xarakterligi, qahramonlarning o'z fikrlarini ifodalashi sahna asari yaratilishida buyuk o'rin egallaydi. Bu xususiyat nutqning o'ziga xosligidir.

So'z san'atining ijtimoiy, ma'naviy ma'rifiy o'rnini, ahamiyati va vazifalari davriy dolzarb muammolarning olamshumul jarayonlari sabab tobora kengayib bormoqda. Ta'kid joizki, fikr va mulohazalarning tahliliy yoritilishida, sahnaviy nutqning mazmunli, go'zal, betakror, ravon va ta'sirchanligini mustahkamlashga qaratilgan maqsadlar belgilangan ekan, uni mantiqiy tizimi hamda bayonida yozma va og'zaki nutqning go'zalligi, mazmundorligi va mantiqiy izchilligiga ham e'tibor qaratiladi. So'z san'ati haqida bildirilgan va yoritilgan jonli so'zning ifodaviy shakli va mazmuni ham badiiylikka yaqin tilda bayon qilinishi maqsadga muvofiqdir.


Insoniyat aql iroda, muloqot va muomala madaniyati uyg'unligida amalga oshiriladigan sharoit bilan yuzma-yuz. Jahonning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan, har birimizni havotir va tashvishga soluvchi geopolitik xolatlar asorati asrlarga tatirli, tizginsiz raqobat oqibatlarini, qit'alarda haroratni oshirib yuborishlar, qurg'oqchilik, hosilsizlik, yong'in, suv toshqinlari, okeanlarda dovullar, to'fonlar sodir qilishga

qodir “geofizik iqlim qurollari”ning tahdidi mavjud xatardan ko‘z yumolmaymiz. Internet tizimi orqali har soniyada jahonga cheksiz-chegarasiz, kerakli-keraksiz axborot va sir-sinoat tarqalayotgani va bunda inson tabiatiga zid va yot targ‘ibot tashviqotning ta’siri mavjudligini ham inkor qilib bo‘lmaydi.

Mamlakatlararo sodir bo‘layotgan ziddiyat va kelishmovchiliklarga qudratli qurol kuchi bilanmas, “Ilohiy so‘z” qudrati bilan echim topish zarur. Shunday sharoitda voyaga yetayotgan avlodning salohiyati, dunyoqarashi, mushohadasi qaysi tomonga qarab yo‘naltirilishi ertangi kunimizni hal qiluvchi hayot-mamot masalasidir. Shak-shubhasiz o‘ta ogohlik, oqilona munosabat talab qiluvchi bunday tezkor o‘zgarishlar oqimida, so‘z san’ati, notiqlik mahorati, badiiy o‘qish, badiiy so‘z san’ati o‘zining ilohiy yaratuvchilik, muomala va munosabatlar uyg‘unligini shakllantirishga va mustahkamlashga hizmat qilishi kerak.

“Sahna nutqi” o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida, har qanday ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, interfaol usullarni joriy qilish jarayonidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ijodiy-ilmiy, kasbiy, amaliy faoliyati til zabon bilan bog‘liq aktyor, rejissyor, notiq, ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot, ommaviy axborot tizimlarida suhandon, boshlovchi va boshqa turli soha vakillari uchun ham bu muhim ahamiyat kasb etadi. Mazmunli, ta’sirchan, ravon va faol ifodaviy imkoniyatlarini o‘rganish va joriy qilish uchun, o‘z nutqini o‘stirish, faollashtirish yo‘lida nutqiy texnik ko‘nikmalar erkinligi va faolligi rang-barangligiga erishish, so‘z bilan ishlashning uslubiy amaliy ijodiy asoslarini o‘rganish sahna nutqiga erishishning asosiy omillaridan biridir.

**Sahna nutqi fanining tarkibiy qismlari.** So‘z – inson fikrining ifoda vositasi. Butun maqsad-vazifasi inson hayotini go‘zal tarzda tasvirlashga qaratilgan aktyor va rejissyorlar ijodida ham so‘zning o‘rni beqiyos. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti teatr san’at ta‘limida ham aktyorlar va rejissyorlar so‘z orqali tomoshabinlarga ijro etilayotgan asarning mazmun-mohiyatini ochib berish, yuksak ijro mahoratiga erishishda sahnaviy nutqning poydevoridan boshlab puxta o‘rganishga intiladilar.



Har bir shaxs, mutahassis o‘zi yashayotgan davr, muhitning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyot jarayonlarga sinchkov jiddiy va chuqur e’tibor, e’tiqod hamda munosabatlari, milliy istiqlol g‘oyalari bilan ruhlangani, umuminsoniy aqidalar va falsafiy qarashlar bilan mustahkamlanganining o‘rni va ahamiyati katta. O‘z o‘rnida bu xususiyatlar ijro mahoratining g‘oyaviy, falsafiy, ta’sirchanligini mustahkamlaydi. Ta’kidlash joizki, bakalavriat yo‘nalishi, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida, tinglovchilarning ijro imkoniyatlari rang-barang va ko‘pqirrali, mazmundor va ta’sirchan, aniq va ravon, maqsadli, ijodiy ijro ko‘nikmalariga erishiladi. Sahnaviy nutqning takomillashuvida fanning tarkibiy qismi bo‘lgan nutq texnikasini to‘liq o‘zlashtirishi va mustaqil tarzda doimiy takrorlab mustahkamlab borishlari tavsiya etiladi. Bu, ularning keng, chuqur va mukammal bilimga, ijodiy mushohadaga, izlanuvchanlikka, amaliy ijro mahoratiga, so‘z boyligi va notiqlik mahorati talablarini egallab borishini taqozo etadi, shak-shubhasiz bunday imkoniyatga ega iqtidor hammada ham bir hil emas. Har bir shaxsning o‘ziga hos betakror va ibratli fikrga ega bo‘lishi va o‘sha fikrning jonli, mazmunli, ta’sirchan tilda ifodalanishi azaliy va abadiy takomillashib boruvchi vazifalardan biridir.

Yosh avlodning aqliy, intellektual salohiyati, dunyoqarashi, mushohadasi klassik va zamonaviy, o‘zbek va zamonaviy badiiy adabiyotning eng nodir va

saralangan namunalariga mehr qo'yishi, o'qishi va ijodiy faoliyatiga singdirishi, vazifalari tobora yangilanib bormoqda.

Inson ruhiyatini junbushga keltiruvchi, hayolot tizginini falaj qiluvchi, ur-yiqit, buzg'unchilik va boshqa insoniyatga zid yot g'oyalar aks etgan, adabiyotlardagi, "super-boyevik" g'ayrioddiy monstrlar talqin qilingan va ular asosida, ekranlashtirilayotgan filmlar, multfilmlardan ta'sirlanib qiziqib ketishlari oqibati kutilmagan ko'ngilsizliklarga yo'l ochishi ehtimoliga loqayd qaramasligimiz hayot, zamon va davr talabidir. Bugungi kunda san'at dunyosi, badiiy adabiyot kitobxon yoki tomoshibinlarning imkon qadar ko'p va katta qatlamlarini qamrab olishga qaratilgan va unda inson tasavvuri va ongini hayratlarga, xatto larzaga solib qoyil qoldiradigan, dahshatga soladigan obrazlar yaratilayotgani va buning yosh avlodning ongiga va munosabatlariga ta'siri katta. Ta'lim tizimida eng ta'sirchan, progressiv interfaol ifoda vositalari yaratilishiga bo'lgan munosabat, ehtiyoj, talab oshib borishi tabiiy. "Interfaol ifodaviy yondoshish" ildizlari san'at va madaniyat yo'nalishlarida azaldan chuqur, keng izlanishlar jarayonda olib boriluvchi asosga ega. U teatr, kino, estrada, radio va televideniye san'atining azaliy yo'ldoshi, teatr va kino san'atining atoqli yetakchilari shakllantirgan va takomillashtirgan va o'zining hayotiy o'rni ahamiyatini topgan maktab doirasida jamlangan.

Sahna nutqi fanida interfaol yondoshish belgilangan mavzu-auditoriyadagi barcha tinglovchilarni qamrab oluvchi, o'tkazuvchi shart-sharoitlar tanlash, mavzuni yoritadigan va tinglovchiga o'tkazadigan savollar tuzish, tarqatma materiallar tayyorlash, tarqatish, mavzuni yoritishda elektron vositalar orqali shakllar, tasvirlarni tadbiq qilib, mavzuning o'zlashtirilishida hammani faol fikr-tushuncha, tahlil xulosa bilan yondoshishga erishishidir.

Teatr, kino, televideniye, estrada, radio, qo'g'irchoq teatri san'atida professional malakali kadrlar tayyorlashda, ilk bosqichdanoq tinglovchi va ustoz orasida muloqot-munosabatning shakllanishi hamda mustahkamlanishi, interfaol asosga, ya'ni muayyan modul uning qonun-qoidalari tinglovchiga turli tarzdagi faol tasavvur, fikr, tushuncha, ko'nikmalar qabul qilish, chuqur anglash, ta'sirlanish, fikrlash va uni faol munosabat tarzida partnyoriga, tinglovchilarga yetkazish

tarzining, turli, betakror ifoda vositalariga ijobiy yondoshilgan holda taqdim qilishga qaratilgani va bunda interfaol ifoda vositalarisiz, ularni tasavvur qilish qiyin.

Gumanitar, ijtimoiy Modullarda bugungi kunda keng joriy qilinayotgan, masofali o'qitish, internet orqali jahon ta'lim tizimidagi eng yangi, eng so'nggi yutuq va namunalardan keng foydalanish, tadbiiq qilish, o'qitish jarayonida ko'rgazmali, tasvirli, tarqatma materiallardan keng foydalanishni joriy qilish, muayyan Sahna nutqi fani modul doirasidagi eng sara ibratli namunalari tanlab, tinglovchilar orasida chuqur tahlil qilish, uni singdirish, tanlangan mavzuni tarqatma material sifatida taqdim qilib, tegishli adabiyotlar, savollarni ko'rsatib dars mashg'ulotlarida mavzuni yorituvchi, uning mazmun-mohiyati haqida tinglovchida aniq tasavvur-tushuncha, xulosa hosil qiluvchi savollar-javoblar, muhokama, tahlil bilan mavzuni o'zlashtirishga erishish va boshqa bir qator uslubiy yondoshishlar orqali namoyon qilinishiga qaratilgan.

Sahna nutqi fanida har bir tinglovchiga talaffuz mukammalligi, ovoz jozibasi, tembri, jarangdorligi, nafas, artikulyatsiya, diksiya, tana mushaklarini bo'shatish va uning erkinligiga erishi orqali ovozda tabiiylik, erkinlik va jarangdorlikka erishish, so'z ustida ishlash, uni tahliliy mantiqiy betakrorligiga erishish, tinglovchida mustaqil fikr, tasavvur boyligiga erishtiruvchi shart-sharoit, vaziyatlar vazifalar tizimi bilan jalb qilish, ruhan quvvatlantirish, fikr, tasavvur-maqсад uyg'unligidagi, ta'sirchan ifodaviy vositalarni topish, singdirish va turli janrlardagi adabiy matnlarni muallif g'oyasi, falsafasi, maqsadini anglash va anglatish iqtidorini mustahkamlash, asarning ruhiy emotsional badiiy ta'sirchan imkoniyatlaridan ruhlantirib, har qanday qatlamni qamrab oladigan energetik tug'yonni mujassam qilguvchi, ijodiy ijro mahoratini shakllantirishni belgilaydi. Bu teran va keng qamrovli ijodiy izlanuvchanlikni talab qiluvchi interfaol yondoshuv hamda mas'uliyatli vazifadir.

Jahon san'at maktablarida sahna nutqi va uning zamonaviy rivojlanish tizimlarida sahna nutqining o'rni, ahamiyati va vazifalari haqida fikr yuritilar ekan buning so'z san'ati, uning ta'sirchanlik omillari hamda ifodaviy xususiyatlari haqida teran nazariy va amaliy asoslarini uyg'unlikda o'zlashtirish lozimligini ta'kidlash joiz. Sahna nutqi fani bo'yicha xorijiy adabiyotlarni o'rganish va fanga bu jiddiy va

mas'uliyatli vazifada o'qitishning interfaol asoslarini yanada zamonaviy shart-sharoitlar va talablar darajasida faollashtirish vazifasi maqsadlar mushtarakligidagi omillardan biridir. Talabalar oldida chuqur bilim nutqning nazariy asoslari uning amaliy yechimi barobarida ularning ijodiy izlanishlar, malakasini doimiy oshirib borish vazifalari turganligi ma'lum.

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy hayot sohalaridagi tub o'zgarishlarda sahna nutqining ifodaviy xususiyatlarining vazifalari belgilanar ekan, ta'lim doirasida so'z san'ati bilan bog'liq teatr, kino, radio televideniye, estrada san'ati yo'nalishlarida tashkil qilingan ijodiy ishlar, festivallar, master-klasslar, taqdimotlar va ijodiy uchrashuvlarida faol ishtirok etish, aktyor, rejissyor, mohir so'z ustalarining va boshqa mutaxassisslarning fikr-mulohaza va ijodiy chiqishlarini kuzatish, tahlil qilish, o'rganish va qo'llash, sahnaviy nutq mahoratiga taalluqli hamma aktyorlik, rejissyorlik o'quv treninglarda nutq texnikasi bo'yicha o'zlashirilgan eng sara ibratli namunalar hamda adabiy parchalar, she'r, masal, g'azal, monologlar ijrosi bo'yicha eng to'laqonli namunalarni o'rganish vazifalari ham belgilanadi, shuningdek, o'qituvchi kuzatuvida "Sahna nutqi" modulining hamma yo'nalishlarida nutq texnikasi va so'z ustida ishlashning tahliliy ifodaviy jarayonlarida ishtirok etishlari, o'zlashtirib borishlari muhim ahamiyatga ega.

Sahna nutqining ifodaviy xususiyatlari takomillashib borish vazifasi yetuk, tajribali pedagog, olimlar uzluksiz va uzviylik ta'lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, jamiyatimizning ma'naviy, intellektual salohiyatini kengaytiradigan, davlatimizning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtiradigan, ishlab chiqarishning barqaror rivojini ta'minlaydigan, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir shaxs o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatini yaratadigan izlanishlar, tahlillar, ilmiy xulosalar olib borish vazifalarini belgilanib pedagogik tajribada, zamonaviy pedagogik texnologiyalariga tinglovchilarni qiziqtirish, mustaqil ishlashida faolliklarini oshirilishida ekanligi ham ma'lum.

Ta'limning bugungi vazifasi tinglovchilarni axborot ta'lim muhiti sharoitida, mustaqil faoliyat ko'rsata olishiga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga

o'rgatishdan iborat deb belgilangan. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, modul, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimiga amal qilishga erishishdir. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda tinglovchilarni tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilar edi. Bu usul tinglovchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorliklarini so'ndirishi kuzatilgan. Hozirgi kunda ta'lim interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib ta'lim samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik yaratish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda tinglovchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol uslublardan foydalaniladi. Interfaol (“Inter”-bu o'zaro, “act” - “Harakat qilmoq”) kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi.

Ya'ni o'qitishning interfaol uslubiyatlari: bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning mahsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar. Uslubning o'ziga xosligi tinglovchi dars davomida mustaqil, faol fikrga, ijod qilishga, izlanishiga yo'naltiriladi, tinglovchi o'quv jarayonida doimiy Modulga qiziqishi ta'minlanadi, tinglovchi mustaqil har bir masalaga qiziqishi, ijodiy yondoshish kuchayadi, ustoz va shogirdning hamkorligidagi faoliyat doimiy mustahkamlanadi.

Pedagogik texnologiya aniq ketma-ketlikdagi jarayon bo'lib, u tinglovchi va pedagogning ehtiyojidan kelib chiqib, bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan, natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Inson va insoniyatning tengsiz qudrat, muazzam hikmat, sahovatu himmatga erishishida ibtido va abadiyat oralig'ida ne-ne benazir xususiyatlarni sodir qilishga qodir oliy ahd, ezgu tilak, maqsad, xohish, iroda, fikr tuyg'ularimizni anglatuvchi lutfimiz-zabonimiz, jonimiz, jahonimiz, zaminu zamonimiz barobarida o'zligimizning asl siyrati va suvrati ramzi sifatidagi so'z san'atining qimmati va qudrati millatni birlashtiruvchi, uni taraqqiyotga, komillikka, yuksaklikka chorlovchi, ruhlantiruvchi, quvvat beruvchi, yetaklovchi tabiati haqida, fikrlar, munozara va

muloqatlarga doimo ilhaqmiz. Zero, soʻz mukammalligini, adabiy tilimiz hazinasini asrash, har birimizda mavjud iroda va ifodadadir.

Boʻlgʻusi yosh mutahassislarning bu borada oʻz maqsadlari va uning amalga oshirilishida aniq belgilangan vazifalari boʻlishi ahamiyatlidir. Avvalo, sahna nutqi fanida mustahkam amaliy ijodiy ijroviy imkoniyatiga ega boʻlishi uchun soʻz ijrochiligi uchun tanlanadigan mashqlar majmui matnlarning tanlanish, tahlil va talqin xususiyatlari hamda uning yuksak badiiy ijro darajasiga erishishning tamoyillari shakllantirilishi lozim. Sirdan qaraganda bu oʻz-oʻzidan sodir boʻladigan kundalik hayotiy jarayonday tuyuladi, ammo uzoq yillik pedagogik tajriba, kuzatuvlar va tahlillar shuni koʻrsatadiki, soʻz sanʼatining hayotbaxsh qudrati va hikmatiga erishish katta mehr, eʼtiqod va iroda uygʻunligida erishiladigan qunt, sabr, bardosh intiluvchanlik, mehnat mahsulidir. Soʻz ummonining bitmas tunganmas ibratli manzaralarini his etish va yaratish zavqi, faoliyati soʻz sanʼati bilan bogʻliq har bir sohibi davron uchun oriyat va gʻurur timsoli boʻlib qolishi lozimdir. Sahna nutqi texnikasi va ijro mahoratini takomillashtirish uchun yaratilgan koʻplab mashqlar, maxsus murakkablashtirilgan xolatda tuzilgan matnlar toʻplamlari va ularning tahliliy asoslari hamda ijro xususiyatlari takrorlanishi oʻrinliligini eʼtirof etamiz. Taʼkidlash joizki, har bir ijodkor shaxsning, sahna nutqi mahoratini keng va chuqur oʻzlashtirishi, bugungi va ertangi kunimizning muhim vazifalaridan biridir. Soʻz ustida ishlash uni turli rang-barang texnik mashqlar bilan mustahkamlab takomillashtirib borishda soʻz ustida ishlashning eng samarali yoʻllarini yaratishda oʻz maqomi ishonchi tajribalariga ega, ancha muncha tajriba, nazariy, amaliy ijodiy yondoshishda suyagi qotgan tajribali ustoz, tajribali soʻz ustasi, ijodkor aktyorlar bilan teatr tili, kino tili, radio va televedeniya tilida mustahkam koʻnikmaga ega mutahassisilar bilan qanday tilda, qanday fikrda, qanday tushunchalar bilan muloqatda boʻlishimiz mumkin? Avvalo bugungi kunda soʻz va uning ifodaviy olami, ifodaviy qatlamlaridagi taʼsirchanlik, mazmundorlik, betakrorlik, ishontirarlik, qiziqtirarlik, esda qolarlik, maqsad muddaoli qatlamlarini tahlil qilish, va talqinga koʻchirishda birgalikda fikrlashimiz lozimligi koʻrinadi. Buning uchun bugungi kunda har birimizning va biz taʼlim berayotgan yosh avlod nutqidagi soʻz boyligi, uni

ifodalashdagi ta'sirchanlik mahorati, iqtidori, iste'dodi qanday darajada? Agar darajasi bugungi kun talablariga javob bera olmasa uni mustahkamlash va takomillashtirish uchun qanday vazifalar, yuklar qo'yilishi kerak? Buning uchun qancha vaqt, qancha kuch, qancha iroda, qancha mehr, qancha ehtiyoj sarflanishi kerak degan savollar-u muammolar yechimiga sabab bo'la oladigan uslubiy yo'l yaratishimiz lozimligi ko'rinadi.

***Tayanch iboralar.** Sahna nutqi, nutq texnikasi, artikulyatsiya, diksiya, nafas, ovoz, orfoepiya, tembr, intellekt, interfaol, modul, innovatsiya, kommunikativ, metafora, maqsad, muddaolik, mushtaraklik.*

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sahna nutqi tarkibiy qismlari haqida tushuncha bering?
2. Sahna nutqi fanining shakllanishi va takomillashishidagi asosiy omillar nimalardan iborat?
3. Sahna nutqida tadbiq qilinadigan ilg'or pedagogik texnologiyalar?
4. So'z san'atining davr muhit, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot jarayonlari bilan mushtarakligi?
5. Sahna nutqining teatr, kino, TV va radio san'atidagi vazifalari?
6. Jahon san'at maktablarida sahna nutqi va uning zamonaviy rivojlanish tizimlari?

## ORFOEPIYA. O‘ZBEK ORFOEPIYASINING ASOSIY QOIDALARI

**Orfoepiya** so‘zi yunoncha (ortphos – to‘g‘ri, epos - nutq) to‘g‘ri gapirish to‘g‘ri talaffuz demakdir. Adabiy talaffuz normalarini belgilab beruvchi qoidalar majmuasiga orfoepiya deyiladi.

Orfoepiya adabiy tilning talaffuzini o‘rganish yoki adabiy til qoidalariga muvofiq talaffuz qilish fanidir. Bu uning nutq madaniyati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki nutqning ikki, yozma va og‘zaki formalari mavjudir. Yozma nutq formasini orfografiya fani o‘rganadi. Og‘zaki nutq shaklini esa orfoepiya o‘rganadi. Demak orfoepiya talaffuz va to‘g‘ri gapirish qoidalarini belgilaydi. Orfoepiyaning yuzaga kelishida ikkita faktor muhim rol o‘ynaydi. Bulardan biri orfografiya, ikkinchisi xalq og‘zaki nutqining turli ko‘rinishlari va turli xil sheva talaffuzlaridir. Taraqqiyotining ta‘sirida orfoepiyaning yangicha normalari paydo bo‘ladi. Respublikamizda istiqomat qilayotgan boshqa millat vakillarining til ta‘sirida ham o‘zbek tili orfoepiyasi o‘ziga xos o‘zgarishlar yasadi. Shu bois tilshunoslarimizning o‘zbek adabiy tilini shakillanishida katta xizmatlari mavjud. Bundan tashqari respublikamizning barcha xududlarida yashayotganlarning o‘zlariga xos so‘zlashuv ko‘rinishlari mavjuddir. Ana shu tilimizning shevalari adabiy tilimiz normalaridan farq qiladi. Ularning talaffuzlari ham adabiy talaffuz normalariga mos kelmaydi. Lekin bu shevalar yagona umumxalq tilining quyi formalari sifatida juda ko‘p umumiylikka ega bo‘lganidek, o‘zbek tilining orfoepik normalarini qoidalari yaratiladi.

Mustaqillikka erishildi. Barcha jabhalarda xususan teatr san‘atida, TVda, radioda, matbuotda erkin demokratik katta qurish boshlandi. Texnik taraqqiyot bu sohalarda ham o‘zining shahdam qadamlarini odimlayapti. Ammo adabiy tildagi erkinlik, biroz bo‘lsada g‘alizlikka olib keladi. Respublikamizdagi mavjud shevalar, teatr, TV, radio va xattoki matbuotga ham kirib keldi. Bu og‘zaki nutq va yozma nutq normalariga e‘tiborliksiz bilan qarash oqibatida nutqda g‘alizlik vujudga keldi. Ammo haqiqiy teatr san‘ati, TV, radio va matbuotda jonli, hammabop va ta‘sirchan

nutqqa e'tiborni qaratish joiz. Sahna nutqi fanining asosiy vazifalaridan biri, har bir tovush, so'z va jumalarning talaffuzini aniq, ravon, ta'sirli, orfoepik qoidalariga javob bera oladigan bo'lishini ta'minlashdir.

Ba'zida so'z ijrochilari, adabiy talaffuz deganda nutqdagi orfografik qoidalarga to'la rioya qilishni, ya'ni kitobda qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha talaffuz etishni tushunadilar. Bu muloqot xatodir, chunki yozma nutqni jonli nutq zaminiga ko'chirish jarayonida barcha nutq tovushlarni to'liq shakllantirish emas, balki ayrimlarini zaiflashtirish, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metoteza, proteza kabi bir qator fonetik hodisalarni amalda ijodiy qo'llashga ham qobil bo'lishi kerak. Ammo bu degani so'z talaffuzida lahja ishlatish emas.

Lahjaviy nutq bu orfoepik qoida normalarini buzibgina qolmay, nutq intonatsiyasiga, uning sahnaviy xatti-harakatiga putur yetkazadi. Shu bois so'z san'ati, nutq madaniyati bilan shug'ullangan ijodkor orfoepiya qoidalarini mukammal bilishi kerak. Sahnaviy nutqning eng qimmatbaho xislatlaridan biri uning ob'ektiv voqelikning obrazli ko'rinishlarida, estetik barkamol aks etirishdir. Sahna hayotiyliigi va sahna haqiqati ob'ektiv haqiqatining in'ikosidir. Shuning uchun sahna nutqi nutqdagi hayotiylik asoslarini chuqur o'rganishi, amalda ularga qat'iy rioya qilishi shart. Bu orfoepiya o'z ichiga oluvchi adabiy talaffuz normalarini belgilovchi qoidalardir. Biroq bu nutq bilan shug'illanuvchilarning adabiy talaffuz normalarini egallashini o'zi kifoya degan gap emas. Chunki sahnaviy ijodkorlikda, personaj tili, bor. Bu masala yechimini ijodkor o'z kasbining bilimdoni bo'lish bilan yecha oladi. Ana shunday bilimdonlik dialektalogiyasi asoslarini bilishdir.

O'zbek orfoepiyasining asosiy qoidalariga o'tishdan oldin ba'zi bir fonetik qoidalarga izoh berib o'tishga to'g'ri keladi. Chunki bu fonetik xodisalar, orfoepiya qoidalarining asosini tashkil etadi. Ana shunday fonetik qoidalar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

Assimilyatsiya. Bir tovush yondosh tovushga ta'sir o'tkazishi natijasida yuzaga keladigan fonetik hodisa assimilyatsiya deyiladi. Assimilyatsiya quyidagicha ko'rinishda bo'ladi;

a) Bir undosh tovush bir undoshga ta'sir ko'rsatib uni tugal o'ziga o'xshatib oladi;

sunbul – sumbul n – m

yetdi – yetti d – t

to‘nka – to‘ngka n – ng

ketdi – ketti d – t

otdan – ottan d – t

tuzsiz – tussiz z – s

o‘tda – o‘tta d – t

Nonvoy – novvoy n – v

Sunbul – (sumbul) sochinnga gulmi, gullolami taqibsan.

**A.Po‘lat.**

Sunbulaning (sumbulaning) suvi tiniq, o‘zi soviq.

**Maqol**

Otdan - (ottan) ayrilsang ham, egar to‘qimidan ayrilma.

Bunday fonetik hodisadagi turini to‘liq assimilyatsiya deyiladi.

b) bir tovush yondosh tovushga ta’sir o‘tkazib, uni tugal o‘ziga o‘xshatib olmaydi.

Uni bir tomonigina o‘zgartiradi. Jarangsizlantiradi yoki jarangli undoshga aylantiradi.

Assimilyatsiyaning bunday turi to‘liqsiz assimilyatsiya deb ataladi.

ketgan – ketkan                      g – k

oshdan – oshtan                      d – t

tanbur – tambur                      nb – Mb

kitobga – kitopka                      bg – pk

qizcha – qischa                      z – s va xakazo.

Tanbur – (tambur) chalib o‘ltirsam, do‘stim keldi yonimga.

Qizcha – (Qischa) kitob o‘qir ekan, ko‘zida yosh edi.

Ketgan – (ketkan) ketgan – (ketkan) bo‘ldi, ketgani nedan bo‘ldi.

Ketganing - (ketkan) ustiga – ketgan (ketkan).

**Maqol.**

i) So‘zlarda oldingi tovush keyingi tovushni o‘ziga moslashtiradi: Bu assimilyatsiyaning progressiv turidir:

o‘sdi – o‘sti                      sd – st

toshdan – toshtan	shd – sht
ekgan – ekkan	kg – kk
qishloqga – qishloqqa	qg – qq

Ali toshdan - (toshtan) toshga sakradi. Qishloqga (qishloqqa) yetib bordim. va hokazo.

g) soʻzlardagi keyingi tovush oldingi tovush oʻziga moslashtirish holati regressiv assimilyatsiya deyiladi.

mazkur – maskur	zk – sk
birta – bitta	rt – tt
shanba – shamba	nb – mb
tuzsiz – tussiz	zs – ss

Birta ham (bitta) ham eshituvchi qolmadi.

Shanba (shamba) kuni tuzsiz shoʻrva ichdim.

Tuzsiz (tuzsiz) xamir tandirda turmas.

Maqol.

Mashgʻulotlarda ana shunday koʻrinishlarga eʻtibor bilan qarash kerak.

**Dissimilyatsiya.** Soʻz tarkibidagi biror tovushning oʻz holatidan koʻchishiga dissemilyatsiya deyiladi. Bu holdagi fonetik oʻzgarish ayniqsa, bolalar tilida, nutqiy nuqsonga ega boʻlgan shaxslar tilida koʻproq uchraydi.

zarar – zalal	r – l
karidor – kalidor	r – l
zarur – zaril	r – l
birorta – bironta	r – n

**Spirantizatsiya.** Soʻz sostavidagi asli portlovchi tovush, sirgʻaluvchi undoshga aylanadi.

toʻqson – toʻhson
maktab – maytab
chiqdi – chihdi
sakson – sayson
toʻqtamoq – toʻhtamoq.

**Metateza.** oʻz ichidagi ayrim tovushlarining oʻrin almashish holatidir.

Supra – surpa, tuproq – turpoq, Nazrulla – Narzulla, la’nat – na’lat, daryo – dayro.

**Proteza.** So‘zning oldiga biron unlini qo‘shib aytish holati.

Stol –ustol, shtraf – ishtraf, stakan – ustakan.

**Epenteza.** So‘zda ikki undoshning o‘rtasida qo‘shilib kelish holati.

Aql – aqil, traktor – tiraktor, arslon – arislon, mehr – mehir, qabr – qabir, sabr – sabir, va hokazo.

**Dierez.** So‘zdagi ayrim tovushlarni talaffuz vaqtida tushib qolish holati. Past – pas, rost – ros, Toshkent – Toshken, artist – artis, kelsangiz – kesangiz, va hokazo.

Sahna nutqi, nutq madaniyati bilan shug‘illanuvchi ijodkorlar o‘zbek tilining fonetik o‘zgarishlarini chuqur bilimdoni bo‘lishlari shart. Aks holda adabiy tilda so‘zlashaman deb o‘zbek tilshunosligida yaratilgan orfoepik normalarga putur yetkazib qo‘yadilar.

Respublikamizning ma’lum hududlarida yashovchi kishilar nutqiga xos bo‘lgan, ammo adabiy til normalariga kirmaydigan so‘zlar dealektal leksikani tashkil qiladi. Ma’lum dealekt va sheva vakillarigina qo‘llaydigan bunday so‘zlar dialektzmlar deb yuritiladi.

### **Masalan:**

karvich (xorazm) – g‘isht.

shoti (farg‘ona) – narvon.

g‘o‘z (xorazm) – yong‘oq va xakazo.

Quyidagi jadvalda keltirilgan adabiy til va ayrim dealektlarga xos so‘zlarga e’tibor bering<sup>1</sup>.

№	Toshkent dialekti	Farg‘ona dialekti	Buxoro dialekti	Samarqand dialekti	Xorazm dialekti	Adabiy tilda
1	Narvon	Shoti	Narvon	narvon	zangi	narvon
2	Do‘ppi	do‘ppi	Kallapo‘sh	qalpoq	taxya	do‘ppi
3	Jila	Hech	Hech	hech	-	hech
4	Ustara	ustara	Poku	poku	poki	ustara
5	Varrak	varrak	Bodparak	shaxii	bodrak	varrak
6	Garimdori	qalampir	Qalampir	qalampir	muruch	qalampir
7	Hovli	Eshik	Hovli	hovli	uy	Hovli

<sup>1</sup>SH.Shoabduraxmonov, M.Asqarova, A.Xojiyev, I.Rasulov, H.Doniyorov. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» Toshkent «O‘qituvchi» 1980 yildan olindi.

8	Sigir	Sigir	Inak	inak	sigir	sigir
9	Mushuk	mishiқ	Pishak	pishak	pishiқ	mushuk
10	Chumoli	chumolik	Mo'rcha	mo'rcha	qorinja	chumoli

Badiiy adabiyotda, sahna asarlarida personaj nutqlarida individuallashtirish uchun dialektizmlardan foydalaniladi. Lekin bu qo'llash bilan dialektal so'z adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi.

Ba'zi so'zlar adabiy til va dialektda qo'llanilgani holda adabiy tilda boshqa, shevada boshqa ma'noni berishi mumkin.

Masalan: irkit so'zi adabiy tilda kir, iflos ma'nosini bersa, shevada «ayron xalta» ma'nosini beradi. Ana shunday hollarda dialektal so'zlarni ishlatishda ehtiyot bo'lish kerak.

O'zbek orfoepiyasi asosiy qoidalari. O'zbek tovush tizimida unlilar o'ziga xos talaffuz etish bilan farqlanadi. Ularda ayrimlari talaffuzda uzunroq, ayrimlari qisqaroqdir. Bu holatda urg'u bilan bog'liq bo'lib, reduksiyalashadi va ular qisqa talaffuz etiladi. Bu holat son jihatdan reduksiyalashadi. Sifat jihatdan ham bu ko'rinish mavjud bo'lib, tovush talaffuzida harakatga asoslanadi va uning talaffuzi aniq va ravondir. Urg'usiz hollarda unlilar reduksiyalashadi va ularning talaffuzida ham sifat o'zgarishi bo'ladi.

O'zbek tili so'z sostavida biror bo'g'in yoki gap sostavidagi biror so'z talaffuzida ajralib, urg'u berib, zarb bilan aytiladi. Bu hol odatda ovozning ko'tarilishi cho'ziqligining ortishi yoki intonatsion taktning kuchayishi kabi fonetik vositalar bilan ifodalanadi. Bo'g'in yoki so'zning biron vosita orqali ajratilib zarb bilan aytilishi urg'u deb ataladi. Urg'u ikkiga bo'linadi; gapda biron bir so'zni ta'kidlash intonatsion urg'u, biron bir bo'g'inni ta'kidlash esa so'z urg'usi deyiladi. Odatda urg'u haqida gapirganda asosan so'z urg'usi nazarda tutiladi. Nutqda gap urg'usi yoki intonatsion ( mantiqiy) urg'u gapdagi so'zni mazmun jihatdan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Biz sahnaviy nutqning xatti-harakatiga erishish uchun shaklan urg'uga yondoshsakda mazmunan so'zlovchining maqsad, xohish, istagini so'z orqali ifodalaymiz. Maqsad aniq qo'yilsagina so'z ijrochilik mohiyati ochiladi. Shu bois

orfoepiya qoidalarini mukammalligiga erishibgina qolmay soʻzning tub mohiyati, maʼno va mazmuniga mantiqan yondoshishimiz nazarda tutiladi.

Masalan: Qodir Lolaga soʻzsiz tikildi. U aytar soʻzini ifodalay olmadi. Shu bois “Soʻzsiz tikildi” Ana shu holatda ham u oʻz xatti-harakati orqali (lol boʻldi, soʻz topildi, qilgan ishidan afsuslandi va hokazo) unga tikildi. Sahnaviy nutqni mukammalligiga erishish uchun har bir tovush, boʻgʻin, soʻz birikmalari talaffuzini aniq, ravon jozibali boʻlishini taʼminlash uchun oʻzbek tili orfoepiyasining asosiy qoidalarini mufassal egallashni taqazo etadi.

Shu bois biz tovushlarni ayrim xususiyatlarini quyidagicha oʻrganamiz.

### **A – unlisi.**

**a)** A. – unlisi ayrim soʻzlarda E tovushga moyilroq talaffuz etiladi. Bu holatda a unlisi oʻz asli talaffuziga koʻra oldingi qatorida paydo boʻladi. Shuning uchun ham uni til oldi yoki oldingi qator unlisi deb ataladi.

**Masalan:** aka, taʼna, daftar, uka, gal, bilgan.

Aka ukaga taʼna qilmaydi.

Men bilgan uka bu gal indamadi.

**b)** Chuqur til orqa undoshlari q, gʻ, x lar bilan birga kelganda «a» tovushi orqaroqda «qattiq» aytiladi.

**c) Masalan:** qalam, qarchigʻay, qanaqa, xabar, xat, xafa, gʻalaba, gʻalva, gʻarib, gʻaltak, gʻazab va hokazo. Qalam olib oʻzim xatimda xabar bera boshladim. Xafa koʻringan qalam qoshligim birdan kulib yubordi.

**d)** V undoshi bilan yonma- yon kelganda a tovushi o ga moyilroq talaffuz etiladi, avj, avliyo, avom, avval, avzo, avlod.

Kavak, kavush, saviya, savob, savod, xavf, va hokazo.

Avvallo avj pardasidan boshlangan qoʻshiq sekin-asta tindi.

Avliyo otaga kavushda borgan maʼqul.

### **O tovushi.**

**a)** O tovush aksariyat soʻzlarda aslicha talaffuz etiladi.

Masalan: Ot, dono, bahor, omon, qor va hokazo.

Qor yogʻayapti, omon boʻlsak bahorga chiqib olamiz.

Dono inson maqbul soʻzlaydi.

**b)** Oʻzlashtirilgan soʻzlarda u ga moyil talaffuz etiladi. Nota, vagon, organ, tonna, orden, norma, futbol va hokazo.

Bir necha tonna sabzavot yetkazgan dehqonlarni xushnud qildik. Futbol musobaqasi boshlandi.

### **I tovushi.**

a) Ayrim soʻzlarda I tovushi qisqa talaffuz etiladi. Masalan: tilak, sira, biroq, sigir, yigit, tish, til va hokazo.

Yigit sira yigʻlamaydi.

Tish ogʻrigʻi azobdir.

b) q, h, gʻ tovushlari bilan yondosh kelganda ular taʻsiridan qisqa va qattiqroq talaffuz etiladi.

Qir, qirgʻoq, qiz, gʻisht, gʻilay, gʻirrom, xina, xira, mix, qiliq va hokazo.

Qirgʻoq boʻylab ketayotgan qiz oʻksib, oʻksib yigʻlar edi.

Mix bolgʻa zarbidan taqaga sanchilar edi.

v) Birinchi boʻgʻinda oʻ tovush boʻlgan soʻzlardagi I tovushi u ga moyilroq talaffuz etiladi.

Oʻyin, koʻmir, toʻqqiz, oʻttiz, boʻgʻin, oʻyil, oʻksish, choʻmich, qoʻriq, oʻrim, oʻgʻil, toʻliq, toʻlqin va hokazo.

Oʻgʻil oʻttizga kirsam ham bola.

Toʻlqin mavjlanadi. Oʻksik koʻngil bezovta.

g) Ayrim soʻzlarda ikki undosh oraligʻiga qisqa I qoʻshilib aytiladi.

Aql, makr, sehr, qabr, sabr. nasl, fasl, qadr, ilm, jabr, naʼl, aql va hokazo.

“Makr va muhabbat” sahna asarini koʻrib, katta taassurotga ega boʻldim.

Ilm sehrlab qoʻydiki, aql bovar qilmaydigan oʻzgardim.

d) Ayrim soʻzlarda y i tarzida talaffuz etiladi: Noila, doim, doira sharoit, oid, oila, shoir, Naima, Saida, mushoira va hokazo.

Noila, Naima va Saidalar mushoira qurdilar.

Shoir mushoiraga oid axborot berdi.

### **E tovushi.**

a) Ayrim soʻzlarda (y+ye) tarzida talaffuz etiladi. Poeziya, duet, duel, va hokazo.

Duet aytayotganlar negadir jimib qolishdi.

Poeziya bu sehrlab oluvchi ziynatli soʻzdir.

b) Oʻzlashtirilgan soʻzlarda y tarzida aytiladi. Aeroport, aerodinamika, aerodrom, aerostat va hokazo.

Aeroportda uchrashamiz akasi – dedi Qodir.

Aerodromdan oʻtilsa, bizning qishloq koʻrinadi.

### **Oʻ tovushi.**

a) g, k, y tovushlari bilan yonma-yon kelganda oʻ unlisi oldingi qatorda talaffuz etiladi.

**Masalan:** goʻdak, goʻja, goʻlax, goʻr, goʻzal, goʻsht, goʻyo, koʻl, koʻmak, koʻprik, koʻngil, koʻrik, koʻch, koʻshn, koʻhlik, koʻhna, yoʻl, yoʻriq, yoʻlbars, yoʻq, yoʻgʻon va hokazo. Koʻprikdan oʻtib, goʻzal yoʻl yoqalab koʻlga duch kelasiz.

Yoʻlbars koʻprik ustida yoʻgʻon panjalarini koʻtardi.

b) q, gʻ, x undoshlari bilan kelganda oʻ tovushi chuqur va qattiq talaffuz etiladi. Masalan: oʻq, oʻqish, qoʻbiz, qoʻy, qoʻpol, qoʻrqqoq, qoʻsh, qoʻshin, qoʻshiq, gʻoʻla, gʻoʻza, gʻoʻra, gʻoʻr, gʻoʻrasha, xoʻrda, xoʻja, xoʻp, xoʻra, xoʻroz, xoʻsh, xoʻrsik va hokazo.

Qoʻshiqchi gʻoʻla ustida oʻtirib qoʻbiz chalib kuyladi.

Xoʻroz Xoʻjaning gʻoʻzapoyasi ustida qichqirdi.

### **B tovushi.**

a) B tovushi bilan boshlangan soʻzlarda va biror soʻzga qoʻshilib kelganda v tovushiga moyil talaffuz etiladi:

belbogʻ – belvogʻ, kabob - kavob, soyabon – soyavon, qoʻychibon – qoʻychivon, dorboz – darvoz, ishqiboz – ishqivoz, tarozibon – tarozvon va hokazo.

Kabobchi belbogʻiga pichoq osib olgan edi.

Tarozibon soyasiz oftobda oʻtirardi.

b) Ayrim soʻzlarda jarangsiz P undoshi tarzida talaffuz etiladi.

**Masalan:** kitob – kitop, tartib – tartip, hisob – hisop, xasib – xasip, bichdim – pichdim, javob – javop, olib – olip va hokazo.

Kitob – bilim manbai.

Javob olib uyga jo‘nadim.

v) ayrim so‘zlarda M tarzida talaffuz etiladi. Masalan: buncha – muncha, bunday – munday, bunchalikka – munchalikka.

Siz bunchalikka bormang.

Bunday bo‘lish sizga yarashmaydi.

### **T tovushi.**

a) T jarangsiz undoshi o‘z xoliga talaffuz etilishi bilan bir qatorda ayrim qo‘shimchalar qo‘shilganda ch ga aylanish xodisasi (assimilyatsiya) uchraydi. Tish – chish. tushundik – chushundik, tishlab – chishlab, yigit – yigichcha, harakat – harakachchan, uyat – uyachchan, oriyat – oriyachchan va hokazo.

b) Ayrim hollarda t tovushi eshitilar – eshitilmas talaffuz etiladi va ba’zida tushib qoladi. Go‘sh – go‘sh, rost – ros, do‘st – do‘st, g‘isht – g‘isht, musht – mush, to‘rt – to‘rt va hokazo.

v) ayrim hollarda, ya’ni affikslar qo‘shilganda t tovushi tushib qolish hodisasi yuz beradi: dastro‘mol – dasro‘mol, amalparast – amalparas, daraxtzor – daraxzor, pastlik – paslik.

Uyatchang kuyov go‘sh t yemas ekan.

Dastro‘molini olib pastlik sari odimladi.

Do‘st achitib aytar, dushman kuldirib.

Daraxtzorda hech kim yo‘q edi.

### **D tovushi.**

a) D tovushi ayrim hollarda jarangsiz t undosh shaklida yoki umuman tushib qolish ko‘rinishida talaffuz etiladi. Bahramand – bahramant, baland – balan, xursand – xursant, bahramand – bahramant, baland – balan.

b) Ba’zi bir so‘zlarga affikslar qo‘shilganda ham d talaffuz etilmaydi. Balandlik – balanlik, xursandlik – xursanlik, baxramandlik – baxramanlik.

c) Ayrim hollarda assimilyatsiya natijasida d tovushi yondosh tovushga aylanadi. Podsho - poshsho, maslahatdosh – maslahattosh, va hokazo.

d) Ko‘p hollarda so‘z oxirida jarangsiz jufti t tarzida talaffuz etiladi. Obod-obot, ozod-ozot, maqsad-maqsat, shogird-shogirt, daromad- daromat, savod-savot va hokazo.

Xursandchilikdan bahramand bo‘lish podsho.

Maqsadli daromad boylikdan bahramandlik.

Podsho maslahatdoshiga mamnun qarab qo‘ydi.

### **H – tovushi.**

Bu tovushni ayrim sheva vakillari x tovushi bilan (Toshkent shevasi, Andijonda) almashtiradilar. Ammo bu holat adabiy talaffuz normalariga to‘g‘ri kelmaydi.

a) H – bo‘g‘iz tovushi o‘zining yumshoqligi nafisligi bilan ajralib turadi: muhabbat, handalak, suhbat, hayajon, mehribon, mahkam, sahro, sahna, fahm, tahsil va hokazo.

b) X-Hni bir xilda talaffuz etilishi so‘z ma‘nosini o‘zgartirib yuboradi. Shoh – shox, hil-hil – xil-xil, hol-xol, shohi-shoxi va hokazo.

c) Ayrim hollarda h tovushi assimilyatsiya natijasida o‘zidan keyingi tovush kabi aytiladi yoki butunlay tushib qoladi. Dehqon – deqon, mahsi-massi, mahkam-makam, dahliz-daliz va hokazo.

### **Q-tovushi.**

a) Q tovushi bilan tugagan so‘zlar egalik qo‘shimcha qo‘shilganda, g‘ tovushi tarzida aytiladi. Tayoq – tayog‘im, boshog‘- boshog‘im, o‘rtoq- o‘rtog‘im, botiq-botig‘li.

b) Ayrim so‘zlarning o‘rtasi va ohirida kelgan q tovushi g‘ tarzida talaffuz etiladi. Baliq-balig‘, sovuq-sovug‘, issiq-issig‘, chumchuq-chumchig‘, yoqdan-yog‘dan, tariq-tarig‘, buyoqda – buyog‘da va hokazo.

c) Ayrim hollarda q tovushi x tarzida talaffuz etiladi. Maqsad-maxsat, to‘qson-to‘xson, vaqt-vaxt, maqtov-maxtov, maqsud-maxsut va hokazo. Maqsudov o‘rtog‘ini

maqsad sari mahkam odimlayotganini ko‘tarib quvonadi. To‘qson kirdi, demak chilla chiqdi. Baliq faqat suvda yashaydi.

O‘zbek orfoepiyaning bir butun qoidalariga daxldor fan bu filologiyaning tilshunoslik jabxasidir. Biz sahnaviy nutqda e‘tiborga mo‘lik komponentlarining ayrimlariga qisman to‘xtaldik.

Chunki sahnaviy nutq bu jonli nutq uning ya‘ni og‘zaki va yozma nutqning orfoepiyasini mustaqil o‘zi o‘rganadigan sohadir. Bu, faqat uni o‘rganishga kichkina yo‘lchadir. Ijodkor mukammallikka erishishi uchun mashaqqatni o‘z zimmasiga olgani ma‘qul. Shu bois murabbiyning nazoratida «O‘zbek tili orfoepiyasi» qonun qoidalarini sahnaviy nutqdagi o‘rnini talaba tamonidan mustaqil o‘zlashtirilishi kerak. Bu jonli so‘z bilan ishlash jarayonida, texnik mashqlarni qaytarish amaliyotida va texnik mashqlarni qaytarish amaliyotida olib borish e‘tiborga molik.

Orfoepiya so‘zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o‘zak va qo‘shimchalardan iborat so‘z formalarini to‘g‘ri talaffuz qilish meyorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi bo‘limi ham *orfoepiya* deyiladi.

Orfoepik meyorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz ko‘rinishlaridan adabiy til an‘analariga, taraqqiyot traditsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, o‘zbek shevalarida bir so‘z turlicha talaffuz qilinadi: *yo‘q-jo‘q, ko‘z-go‘z, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe‘li qo‘shimchasi shevalarda – yap(ti), -op(ti), -utti, -vot(ti) shakllarida qo‘llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo‘q, ko‘z, ota, aka, anor, boryapti* variantlari adabiy talaffuz me‘yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

To‘g‘ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to‘g‘ri yozish qanchalik muhim bo‘lsa, to‘g‘ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham o‘quvchi va talabalarda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarining shakllantirilishiga ta‘limning barcha bosqichlarida jiddiy e‘tibor beriladi.

Unli tovushlar orfoepiyasini adabiyotshunoslik nazariyasi bilan yanada chuqurroq o‘rganilganda:

I *unlisi*: 1) bir bo'g'inli so'zlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til, tish, bil, sir* kabi; 2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: *qish, g'isht, xil* kabi; 3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi: *chiy, kiy, ming* kabi; 4) h bilan yondosh bo'lganda ham bir oz cho'ziq va ingichka talaffuz qilinadi: *hid, hind, his* kabi; 5) ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida kuchsiz va qisqa (*bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, viqor* kabi), urg'uli bo'g'inda esa kuchliroq va cho'ziqroq (*nozik, alik, rostlik* kabi) talaffuz etiladi; b) so'z oxiridagi ochiq bo'g'inda bir oz kengayadi ("i"dan kengroq, "e"dan torroq unli tarzda talaffuz qilinadi): *tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi* kabi.

U *unlisi*: 1) bir bo'g'inli so'zlarda va ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa (*tush, tus, pul, buloq, bug'doy* kabi), urg'uli bo'g'inida esa kuchliroq va cho'ziqroq (*bulut, yetuk, popuk* kabi) talaffuz etiladi; 2) k,g,y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), q, g', x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. qiyos qiling: *kul* va *qul, atirgul* va *norg'ul, yuk(yuk)* va *xulq* kabi; 3) *-uvchi, -uv* affikslari tarkibida cho'ziqroq aytiladi: *yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv* kabi.

o' *unlisi*: 1) bir bo'g'inli so'zlarda, shuningdek ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: *bo'r, to'r, ro'mol, so'roq* kabi; 2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urg'uli bo'g'inda) cho'ziq talaffuz qilinadi: *ko'p-ko'p, zo'r-zo'r, mo'l-mo'l* kabi; 3) sayoz til orqa k,g, til o'rta y va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng yumshoq (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng qattiq va yo'g'on (orqa qator) unli tarzda talaffuz etiladi. qiyos qiling: *ko'l* va *qo'l, go'r* va *g'o'r, ho'l* va *xo'r, yo'l* va *qo'r* kabi.

E *unlisi*: 1) so'z va bo'g'in boshida kengroq (*erkin, ekin, eslamoq* kabi), bo'g'in ichida bir oz torroq (*kecha, beda, tekin, sekin* kabi) talaffuz qilinadi.

A *unlisi*: 1) sayoz til orqa k,g undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (*kam, katta, gap, gal, gazlama, kayfiyat* kabi), chuqur til orqa q,g',x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'on unli tarzida (*qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat* kabi) talaffuz etiladi.

O unlisi: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: *tosh, bahor, somon, shamol* kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urg'usiz bo'g'inda "a"ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *samon, davon* kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik meyor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k,g undoshlaridan so'ng yumshoq, chuqur til orqa q,g',x undoshlaridan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi. qiyos qiling: *kosib* va *qoshiq, kotib* va *qolip, komil* va *qobil, gov* va *g'ov, govmish* va *g'ovlamoq* kabi; 3) urg'uli bo'g'inda kuchliroq va bir oz cho'ziq talaffuz etiladi: *bog'bon, obod* so'zlarining birinchi va oxirgi bo'g'inlaridagi o unlisi talaffuzini qiyoslang; 4) y va h undoshlari bilan yondosh qo'llanganda ham o unlisi bir oz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi. qiyos qiling: *yor (yor)* va *qor, hokim* va *xolis* kabi.

Undosh tovushlar orfoepiyasini adabiyotshunoslik nazariyasi bilan yanada chuqurroq o'rganilganda: Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi. Xususan: 1) b,d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun meyor hisoblanadi: *kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot* kabi; 2) b,d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda assimilyatsiyaga uchrab, p,t holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz meyori hisoblanadi: *ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti*; 3) j, z undoshlarining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh,s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun meyordir: *ijtimoiy> ishtimoiy, mazkur>maskur* kabi; 4) b,q undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi v,g' undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz meyoriga xilof emas: *bora ber>boraver, keta ber>ketaver* kabi.

So'z qismlari talaffuzi.

1.q, K bilan tugagan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda *qishloq> qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'i; telpak> telpagim, telpaging, telpagi* kabi. Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *o'q>o'qi, tok>toki* kabi (*yoq, yo'q* so'zlari bundan mustasno).

2. q, K, G, g' bilan tugagan otlarning jo'nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: *qishloq+ga>qishloqqa, chelak+ga>chelakka, tog'+ga>toqqa, pedagog+ga>pedagokka* kabi. Boshqa barcha holatlarda: a) jarangsiz undoshlardan so'ng –ka, jarangli undoshdan va unidan so'ng –ga talaffuz etiladi: *otka, oshka, qopka, ammo uyga, ovga, tolga, tomga, bolaga, akaga* kabi.

3. Fe'lllarda: a)*ong+la>angla, son+a>sana, yosh+a>yasha* kabi; b)*ek+gan > ekkan, ket+gan > ketkan, oq+gan > oqqan, tush+gan>tushkan* kabi.

4. Olmoshlarda: *u+n+da>unda, bu+n+da>bunda, shu+n+da>shunda* (bir "n" orttiriladi), *men+ning>mening, sen+ning>sening* (bir "n" tushirib qoldiriladi).

5. *Bir* so'zidan *dona* son yasalganda, o'zakdagi "r" undoshi "t"ga o'tadi: *bir+ta>bitta* kabi.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.

1. Turkiy tillarda, ma'lumki, f undoshi bo'lmagan, shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi "f"ni "p" deb talaffuz qilish hollari uchraydi: *ulfat>ulpat, faner>paner, ferma>perma* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni "f" bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

2. So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos bo'lmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuziga ham ta'sir qilgan – jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf>ishkop, stakan>istakon, plan>pilon, traktor>tiraktir* kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *aql>aqil, fikr>fikir, ilm>ilim, hukm>hukum* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik me'yor sanaladi. Bunday meyor shu tipdagi so'zlarning yozuvdagi shaklini (imlosini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi.

3. Umumturkiy so'zlarda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan *oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa* kabi so'zlar talaffuziga ta'sir qilgan: *oila, doir, rais* so'zlarida bitta "y" orttirilgan (*oyila, doyir, rayis* kabi), *maorif, saodat, mutolaa* so'zlari esa unlilarning diftonglashuviga – *mo:rip, so:dat, mutola:* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tilidan so'z

o'zlashtirishning faollashganligi, ruscha o'zlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo meyorlarini o'zbek tiliga aynan singdirish tendensiyasining ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unlining so'z tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik meyorga aylantirdi: *biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya* va boshqalar. Bu hol arabcha o'zlashmalarda (*oila, doir, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini meyor darajasiga ko'tardi.

4. Arab tilidan o'zlashtirilgan *ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi unlilar bo'g'iz artikulyatsiyasi bilan cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda "i" unlisi o'zbek tilining "i" unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *tish* (o'zb.) – *tip>ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) – *tir>ti:r* (rus.) kabi.

6. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz ochiq bo'g'indagi "i" o'zbekcha "i"dan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *bilan* (o'zb.) – *bilet* (rus.), *kinoya* (o'zb.) – *kino* (rus.) kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarning so'nggi ochiq, urg'uli bo'g'inida "i" unlisi o'zbekcha "i"dan tor va cho'ziq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *maxsi*(o'zb.) – *taksi*(rus.), *tepki*(o'zb.)- *konki*(rus.) kabi. Urg'uli bo'g'inning boshqa tiplarida (yopiq, to'la yopiq bo'g'inlarda) ham ruscha "i" o'zbekcha "i"dan cho'ziqroq va torroq talaffuz qilinadi. qiyos qiling: *metin* (o'zb.) -*nikotin>nikoti:n* (rus.), *ovsin* (o'zb.) - *apelsin>apelsi:n* (rus) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashtirilgan bir bo'g'inli so'zlarda "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan cho'ziqroq va kuchliroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *dud*(o'zb.) – *dub>du:b*(rus), *pul*(o'zb.) – *puls>pu:ls*(rus.), *tush*(o'zb.) – *tush>tu:sh*(rus.) kabi.

9. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'uli bo'g'inida "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan ancha cho'ziq va bir oz yo'g'onroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *bu-da*(o'zb.) – *budka* (rus.), *mangu* (o'zb.) - *mangusta* (rus.), *mavzu* (o'zb.<arab.)-*meduza* (rus.) kabi.

10. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi "u" qisqa talaffuz qilinadi, ammo o'zbek tilidagi "u" ayni shu fonetik pozitsiyada ruscha "u"dan ham qisqaroq bo'ladi. qiyos qiling: *dushman*>*d'shmen*(o'zb.)-*turbina*(rus.), *muzday*>*m'zdey*(o'zb.)-*muzei*(rus) kabi.

11. So'z boshidagi berkitilmagan, urg'usiz bo'g'inda "u" unlisi ruscha so'zlarda yo'g'onroq, o'zbekcha so'zlarda ingichkaroq (yumshoqroq) talaffuz etiladi. qiyos qiling: *uklad*(rus.) – *uxlamoq* (o'zb.), *uzual* (rus.)-*uzum* (o'zb.) kabi.

12. Ruscha leksik o'zlashmalarda "u" unlisi yumshoq undoshdan so'ng o'ta ingichka (old qator unli tarzida), qattiq undoshdan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Imloda ingichka "u" tovushi "yu" harfi bilan ifodalanadi. qiyos qiling: *abajur* va *manikyur*(*manik'yr*), *ultimatum* va *kostyum* (*kast'ym*), *plug* va *salyut*(*sal'yut*) kabi. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarda yumshoq undoshdan keyin kelgan "u" o'zbekcha "u"dan ham ingichkaroq va yumshoqroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *gul* (o'zb.)-*tyul*>*t'yl* (rus.) kabi.

13. Ruscha leksik o'zlashmalarning urg'usiz bo'g'inidagi "e" unlisi o'zbekcha "e"dan ancha tor ("i"ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon*>*tilifon.*, *televizor*>*tiliviz'r*, *adres*>*adris* kabi.

14. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda "a" unlisi o'zbekcha "a"dan yo'g'onroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *kana*(o'zb.)-*kanal* (rus.) kabi.

15. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlardagi o'rta keng, lablangan "o" unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan "o"dan kengroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *ton* (rus.) -*to'n* (o'zb.), *tok* (rus.) -*to'q* (o'zb.), *tort* (rus.)-*to'rt* (o'zb.) kabi. Urg'usiz bo'g'inda esa ruscha "o" reduksiyaga uchrab, o'ta kuchsizlanadi va "qisqa" "i" yoki "a" tarzida talaffuz qilinadi: *traktor*>*t'rakt'r*, *samolyot*>*samal'ot* kabi.

**Tayanch iboralar.** Orfoepiya, fonetika, assimlyatsiya, dissimlyatsiya, spirantizatsiya, metateza, proteza, epenteza, dierez, dialekt.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Orfoepiya tushunchasini qanday izohlaysiz?
2. Fonetika o'zgarishlarini qanday tushunasiz?
3. Assimilyatsiya nima? Misol keltiring!
4. Dissimilyatsiya nima? Misol keltiring!
5. Spirantizatsiya, metateza, proteza, epenteza, dierez – nima ularga misol keltiring!
6. Dialekt haqida tushunchangiz?
7. O'zingiz yashayotgan viloyat, hudud shevasi va adabiy tilda misollar keltiring?
8. Sahna asarlarida nima uchun dialektal so'zlardan foydalaniladi?

## NUTQ TOVUSHLARI VA TALAFFUZ MEYORI

O‘zbek adabiy tili g‘rammatikasining bir bo‘limi bo‘lgan fonetika (grekcha – tovush) tilimizdagi nutq tovushlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Biz so‘zlashish jarayonida tovushlar orqali ish ko‘ramiz, ularni talaffuz qilamiz, eshitamiz. Ana shu talaffuz qilinadigan, eshitiladigan tovushlar nutq tovushlari deb yuritiladi. Masalan, a, b, o, g, f, l, m kabi. Ular o‘zlaricha yakka olingan holda biror ma’no tashish xususiyatiga ega bo‘lmaydi, o‘zaro birikib, so‘zlarni tashkil etganda, ma’noli xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, nutq tovushlari so‘zning kichik bir bo‘lagi, uning ajralmas qismidir. Barcha unililar va undoshlar nutq tovushlaridir. Ammo tovushni fonemadan farqlash lozim bo‘ladi. Fonema so‘z ma’nolarini ifodalash va farqlash uchun xizmat qiladigan nutq tovushlaridir. Bu ko‘proq biz ushbu bo‘limda ko‘rib chiqadigan unililarga xos xususiyatdir. Masalan, bor, ber, bir, bo‘r, bur, bas kabi. Ular tarkibidagi unililar tufayli ma’no ajratish xususiyatiga ega bo‘ladi. Ayrim undoshlar ham ma’noni farqlashi ko‘zga tashlanadi: qir-kir, qiyiq-kiyik, tarz-tars, har-xar kabi.

Nutq tovushlari nutq organlari ishtirokida hosil qilinadi. Ularning har biri hosil bo‘lish o‘rin va xususiyati bilan bir-biridan ajralib turadi.

Nutq tovushlarini hosil qilishda har bir nutq a‘zosi o‘ziga belgilangan vazifani bajaradi. Aytaylik «P» nutq tovushini hosil qilishda lablarning harakati kuchli bo‘lsa, «X» nutq tovushini yuzaga keltirishda bo‘g‘zning harakati aniq sezilib turadi.

Xullas, nutq tovushlarini hosil qilishda, ularning harakati, ishtiroki bir xil emas. Ularning biri faol bo‘lsa, boshqa biri birmuncha sustroq. Nutq tovushlarini hosil qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo nafas yo‘li – kekirdak orqali bo‘g‘izga, undan og‘iz yoki burun bo‘shlig‘iga o‘tib tashqariga chiqadi. Shu yo‘l bilan turli nutq tovushlari paydo bo‘ladi.

### UNLILAR

Endi navbat nutq tovushlarini turlarga bo‘lib o‘rganishga keldi. O‘pkadan chiqqan havo to‘siqqa uchrash-uchramasligiga qarab, nutq tovushlari ikki turga

bo‘linadi. Unli tovushlar va undosh tovushlar. Biz avval unli tovushlar hosil bo‘lishi va aytilish holatini ko‘rib chiqamiz.

Unli tovushlarning hosil bo‘lishida bo‘g‘izda ko‘ndalang joylashgan tovush paylarining xizmati kattadir. Ular ovoz-un hosil qiladi. Shunga ko‘ra un-ovozga ega bo‘lgan nutq tovushlari guruhini unli tovushlar deb yuritiladi. Ularning paydo bo‘lishida o‘pkadan chiqayotgan havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramasdan o‘tadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unli tovushlar miqdori oltita.

### **I-E-A-O-O‘-U**

Ba‘zan unli larni o‘nta deb belgilanadi: ye-yo-ya-yu. Buni tilshunos olimlar mutlaqo noto‘g‘ri deb topdilar. Chunki ye-yo-ya-yu harflarining har biri ikki tovushni bildiradi.

Uhli tovushlarni paydo bo‘lishiga ko‘ra quyidagicha guruhlarga bo‘lib o‘rganish har jihatdan qulaydir:

1. Tilning yotiq holatiga ko‘ra (gorizontal);
2. Tilning tik holatiga ko‘ra (vertikal);
3. Lablarning ishtirokiga ko‘ra.

Unli tovushlar tilning yotiq holatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

- 1.1. Til oldi yoki old qator unli lilar A-I-E.
- 1.2. Til orqa yoki orqa qator unli lilar O-U-O‘.

Tilning tik holatiga ko‘ra unli lilar uch guruhga bo‘linadi:

- 2.1. Yuqori ko‘tarilish yoki tor unli lilar I-U;
- 2.2. O‘rta ko‘tarilish yoki o‘rta keng unli lilar E-O‘;
- 2.3. Quyi ko‘tarilish yoki keng unli lilar A-O.

Lablarning harakatiga qarab ham unli lilar ikki turga bolinadi:

- 3.1. Lablangan unli lilar U-O‘;
- 3.2. Lablanmagan unli lilar I-E-A-O.

O‘zbek adabiy tilidagi unli lilar jadvalga quyidagicha joylashtiriladi:

Tilning vertikal (tik) harakatiga ko‘ra	Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga va lablarning ishtirokiga ko‘ra
---	---

	Old qator, lablanmagan	Orqa qator, lablangan
1. Yuqori tor unlilar	I	U
2. O'rta keng unlilar	E	O'
3. Quyi keng unlilar	A	O

Sahna nutqi texnikasining nutq tovushlari, xususan unlilar bo'limini o'rganishdan maqsad har bir tovushning artikulyatsiyasi holatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, yuqorida aytib o'tganimizdek (nutq tovushlari bo'limida), o'zbek adabiy tilidagi fonemalarning o'ziga xosligi va ularning talaffuz paytida talaffuz a'zolarining ma'lum bir holati bilan chambarchas bog'liqligini tushunib etishdir. Bir qaraganda talabalarda bu tovush shunchaki toza, talaffuz qilish oson degan fikr uyg'onishi mumkin. Lekin unlilarni o'rganishda boshlang'ich elementidan to so'z-jumla tuzilishidagi o'rni va mohiyatini sinchkovlik bilan o'rganmaguncha, kelgusida kichik-kichik she'riy matnlar, ertak-dostonlar, manzarali parchalarga murojaat qilinganda qo'yilgan vazifalarni aniq va to'g'ri yo'nalishda ijro etishda, birgina tovushning noto'g'ri talaffuzi butun bir jumlaning ma'nosini o'zgartirishi mumkin.

Nutq texnikasi yo'nalishida unli tovushlar talaffuzini o'rganishdan yagona maqsad talaffuz organlarining ish faoliyatini yaxshilash va faollashtirishdir. So'z bilan shug'ullanuvchilarning toza talaffuziga, ohangdorlik, ajib bir jilo beruvchi ham ana shu unli tovushlardir.

Bizga unli tovushlar artikulyatsiyasi «Sahna nutqi texnikasi» o'quv qo'llanmalaridan ma'lum, shuning uchun biz ikkinchi bo'limda ularning mashq jarayoniga o'tamiz. Multimediya ham berilgan.

Unli tovushlarning aytilishidagi nutq a'zosi faoliyati va ularning artikulyatsiyasini o'rganish bilan bu yo'ldagi ishni to'xtatib qo'ymaslik kerak. Kelgusida uni yanada mustahkamlash lozim, buning uchun esa tinimsiz mehnat qilmoq kerak. Mashq mobaynida nutq a'zolaridan siqqlikni mutlaqo olib tashlash kerak. Shunday qilib, mashqlarni boshlaymiz:

**1-mashq:** I-E, I-E, I-E, I-E.

**2-mashq:** E-A, E-A, E-A, E-A.

**3-mashq:** A-O, A-O, A-O, A-O.

**4-mashq:** O-U, O-U, O-U, O-U.

**5-mashq:** O'-U, O'-U, O' -U, O'-U.

**6-mashq:** U-I, U-I, U-I, U-I.

Bu mashq yuqorida ko'rsatilgan tartibda, avval tovushsiz (artikulyatsiya bilan) talaffuz qilinadi.

Sekin-astalik bilan tovush qo'shib, pichirlayotgandek talaffuz etiladi, jadvalni yaxshi o'zlashtirib, yodlab olingandan so'ng, uning aniq va ravon, shu bilan birgalikda talaffuz sur'atini (tezligeni) oshirib borish kerak. Ushbu bo'limda yana bir uslubiy fikr tavsiya qilinsa, bu kelgusida talaba uchun unli tovushlar jarangini topishda biroz yengillik berib, qo'l kelishi mumkin.

Bular:

a) yuqoridagi jadval bo'yicha unlilar talaffuz qilinganda o'rganuvchining har bir tovushni yig'iq talaffuz etilishini ta'minlash lozim, aks holda yoyiq, keyinchalik ochiq talaffuz qilish ko'nikmasi paydo bo'lmasin;

b) hozirda texnik vositalardan foydalanish yaxshi yolga qoyilgan, shuning uchun ham talaba unli tovushlar va boshqa tovushlarning talaffuzini magnit tasmasi yoki boshqa ovoz yozish moslamasiga yozib olib eshitishi mumkin;

d) unli tovushlarni talaffuz etishdagi keng va maxsus topshi-riqlarni ovozni yo'lga qo'yish bolimida batafsil aytib o'tish kerak. Talabaga birinchi qadamdan oq amaldagi ishlarda to'g'ri va sof talaffuzni o'rgatub borish lozim.

Mashqlarda har xil variantlarni qo'llash mumkin. Masalan: bir talaba ro'paradagi ikkinchi talabaga o'zi aytayotgan tovushni jonliroq, urg'ulab aytishi mumkin, bunda «Men sendan chiroyli ham toza talaffuz qilaman», vazifasini qo'yish mumkin.

**I-'E, E-'I, I-'A, A-'O, O-'O, O-'U.**

Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan hamma mashqlarni har gal artikulyatsiya mashqlaridan keyin bajarib borish lozim.

Bu mashqlarni yaxshi o‘zlashtirib olgach, unli tovushlarning tartibi bo‘yicha hamda ular ko‘proq ishtirok etgan so‘zlar topib, talaffuz qilinishini tekshirib ko‘ramiz. Sir emaski, ko‘pchilik talabalarda nutq a‘zolari to‘g‘ri ishlab, ovozi jaranglab tursa ham shevaga bog‘liq ekanligi ko‘rinib turadi. Shunga ko‘ra ishni avval unli tovushlarning toza aytilishidan boshlaymiz.

Ko‘pchilik (Surxondaryo, Qashqadaryo, umuman voha viloyatlaridan o‘qishga kelgan talabalar, I tovushini E tovushiga qo‘shib aytishadi, natijada shu ikki tovush oralig‘idagi bir g‘aliz tovush paydo bo‘ladi (buni amalda eshitib turib xulosa qilish mumkin).

Avval bunday talabalarga tovushining to‘liq artikulyatsiya holatini tushuntirish kerak.

Talaffuz paytida lablar ikki yonga yengil tortiladi, tish qatorlari ozgina ko‘rinib turadi. Til uchi pastki tish qatorlariga salgina tegib, o‘rtasi baland ko‘tarilib qattiq tanglayga yaqin-lashadi. O‘pkadan chiqqan havo ovoz paychalaridan o‘tgach, og‘iz bo‘shlig‘idagi ma‘lum shaklga ega boigan oraliqda L tovushini hosil qiladi.

Talaba bu tovushning artikulyatsiyasini to‘liq o‘zlashtirib olgandan keyin talaffuz qila boshlaydi. Bunda shoshmasdan, har bir topilgan so‘zni aniq, burro, unllilarni cho‘zib, yana o‘zini-o‘zi diqqat bilan eshitib, kerak bolsa magnit tasmasiga yozib olib eshitib ko‘rishi shart, chunki kelgusida she‘riy va nasriy asarlar bilan ishlaganda shu – birgina tovushdagi kamchilik sezilib turishi aniq.

**Unli «I»** tovushi bilan boshlangan so‘zlarga misollar:

ibrat, islom, imon, iltifot, imorat, iltimos, ishkom, Inobat, Ilhom, Ikrom va hokazo. She‘riy matnlarda mustahkamlash mumkin.

**Ularga misollar:**

Ipsiz igna ishlamas,

izmalar ixtiyorsiz.

Isirg‘a-yu, isiriq,

it, ilon e‘tiborsiz.

Idigir, irtish daryo

irmoqlardan iborat.

I harfisiz yo‘q, demak,  
inson, irmoq, imorat.

**E tovushining** aytilishida ham birmuncha chalkashliklar bor. Bular asosan tovushning o‘rnini almashtirib qo‘yishdir. Masalan: **echki** so‘zini **ichki** yoki **eshik** so‘zini **ishik** deb talaffuz qilinishi, yoki e tovushini qattiq talaffuz qilish. (Bu to‘g‘risida orfoepiya bo‘limida batafsil aytib o‘tamiz). Buni bartaraf qilish uchun ham eng avval uning artikulyatsiya holatini bilish joiz.

**E** tovushini talaffuz qilganda lablar i tovushidagi kabi, jag‘ undan sal pastda, tilning o‘zagi va o‘rtasi qiyaroq yoy hosil qilib, qattiq tanglay va til oralig‘i masofasi biroz kengayadi.

Asosan e tovushi bilan boshlangan so‘zlar talaffuzi:

Masalan, erkin, ergash, ermat, e‘tibor, erk, el, ertak, elak, eman, elchi.

**She‘riy matnlar:**

1. Echki dedi uloqqa: «Ketib qolma uzoqqa»,

2. Eshik oldida buloq. Undan suv ichar uloq.

3. Erkin arqon esholmas,

Ergash yurar etiksiz.

Egar urib echkiga,

Elga oshkor etibsiz.

**A unlisi** – til oldi (yumshoq), keng, lablanmagan unli. Talaffuz paytida og‘iz salgina ochiq, tilning uchi pastki tish qatoriga tegib turadi, tilning o‘rta qismi va o‘zagi kichikroq yoy hosil qiladi.

Ko‘pchilik talabalar **A** unli tovushining talaffuz qilish o‘rnini tushunib yetmay, aniq aytish kerak deb, juda yoyiq talaffuz qiladilar, bu mutlaqo noto‘g‘ri. **A** unlisining artikulyatsion holatini to‘liq o‘rganib olib, talaffuz qilinsa ham yo‘naltirish, ham talaffuz etish holati to‘g‘ri bo‘ladi.

**A** unlisini to‘g‘ri talaffuz qilishni avval so‘zlardan boshlaymiz. Masalan, Aziza, Abdulla, Alisher, Andijon, asal, asar, aka, alla, anor, anjir.

Agarda A adashsa,           Avtobus yo‘lda to‘xtab,

Andijon, Asakani,           Ayrobus parvoz etmas.

Ariqni, Anhorlarni, Axror, Ali o‘z ismin,  
Atardik ne deb qani. Aniqroq anglab yetmas.

**O unlisi** – keng unli, lablangan, til orqa tovushi. **O** unlisini talaffuz etish vaqtida lablar xuddi doira shakli ko‘rinishida yig‘iq va salgina oldinga chiqqan, til biroz orqaga tortilgan, uchi pastki milklarga tegar-tegmas, o‘zagi biroz ko‘tariladi. Avval **O** tovushi bilan boshlangan va **O** tovushi ishtirok etgan so‘zlarni talaffuz qilib ko‘ramiz.

Masalan: Olim, Ozoda, Oydin, olam, oltin, ota, orom, olma, oftob, ona.

**She’riy matn:**

1. Qor nega oppoq,

Qor nega yumshoq?

Surkasharmi yo

Osmonga bo‘yoq.

2. Ochig‘ini aytsam, oshna,

Osmonu, oydan tortib,

Ofarin, olqish olgan

**O** tovushin qadri ortiq.

Otam va onajonim

Ona til qilgan tortiq.

**O‘ unlisi.** Lablangan, o‘rta kenglikdagi unli. Talaffuz paytida lablar cho‘chchayib, til o‘zanida kichik yoy hosil qiladi.

**O‘ unlisi** talaffuzini o‘rganish Buxoro, Navoiy va Samarqandlik, Qashqadaryolik talabalarda qiyinroq kechadi. Ular yuqori labni pastga tortib, pastki lab esa biroz ichkariga kirgan holda talaffuz qiladilar. Buning (yuqoridagi) to‘g‘ri artikulyatsion holatiga erishmoqlik kerak.

**O‘** tovushi ishtirokidagi so‘zlar:

O‘tkir, O‘ktam, O‘sh, O‘tin, O‘rtoq, O‘zbek, O‘n, O‘t, O‘rmon, O‘ratepa.

**She’riy matn:**

O‘rgimchak, hoy o‘rgimchak,

To‘qishni o‘rgat jindak.

**U unlisi**, lablangan tor unli, talaffuz vaqtida tishlar oralig‘i birmuncha ochiq, lablar oldinga cho‘chchaytiriladi, jag‘ ozgina pastga tushib, yumshoq tanglay ko‘tariladi.

U unlisi ishtirokidagi so‘zlar:

Uyg‘un, Uchqun, Uyg‘ur, Uchuq, Uzum, Uzun, Ulkan, Ummon, Umid, Urchuq.

**She‘riy matn:**

Unsin momo qiynaldi,

Uyin topmay uzzukun.

Umri opam un elab,

Unutibdi uzugin.

## **UNDOSHLAR**

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi undoshlar soni 23 ta bo‘lib, ular quyidagicha:

B, D, F, G, H, J, K, L, M, N, P, Q, R, S, T, V, X, Y, Z, G‘, SH, CH, Ng.

Undoshlarni hosil qilishda o‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ida turli to‘siqlarga uchraydi va u to‘siqlardan o‘tishi natijasida shovqin paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham undosh tovushlarning hammasida shovqin bo‘ladi. Ularning ba‘zilarini hosil qilishda un-ovoz ham ahamiyatlidir. So‘zlarni hosil qilishda unli tovushlarning ahamiyati qancha muhim bo‘lsa, undoshlarning ahamiyati ham shuncha yoki shunga yaqin deb qarash lozim. Chunki faqat unli tovushlarning o‘zidan so‘zlarni hosil qilib va ma’no anglatib bo‘lmaydi. Buning uchun undosh tovushlar ham bo‘lishi lozim. Xullas, unli va undoshlar o‘zaro birikkan holda so‘zlarni hosil qiladi va ma’no anglatadi:

**Ota, ona, ot, ish, olma, lochin** kabi.

### **Undosh tovushlar jadvali**

Undosh tovushlar shovqin va ovozning ishtirokiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: sonorlar va shovqinlilar. Har ikkala holatda ham tovush paychalarining ishtiroki muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham jarangli va jarangsiz deb ikkiga bo‘linishini tovush paychalarining harakati va holatiga ko‘ra yuz berishi deb ham

yuritiladi. Jarangli undoshlar shovqin va ovozning qo‘shiluvidan hosil qilinadi. Ular **b, v, g, d, j, z, y, g.**

Jarangsiz undoshlar faqat shovqindangina iborat bo‘ladi.

Ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra		Artikulyatsiya (hosil bo‘lish usuliga ko‘ra)		Artikulyatsiya (hosil bo‘lish) o‘rniga ko‘ra						
				Lab undoshlari		Til undoshlari			Bo‘g‘in undoshlari	
				Lab-lab	Lab-tish	Til oldi	Til o‘rta	Sayoz til orqa	Chusqur til orqa	
<b>Shovqinilar</b>	Ja-rangli	Portlovchilar	Sof portlovchilar	B		D		G		
	Jarang-siz			P		T		K	Q	
	Ja-rangli		Qorishq portlovchilar			Ch				
	Jarang-siz									
	Ja-rangli	Sira-tuvchilar		V		J Z	Y		G‘	
	Jarang-siz			F		S SH			X	
<b>Sonorlar</b>		Portlovchilar	Burun tovushlari	M		N				
			Yon tovush			L				
			Titroq tovush			R				

Ular: **k, p, f, t, s, sh, ch, x, q, h.**

Sonorlar **m, n, l, r, ng.**

Biz yuqorida tovush paychalarining harakati va holatiga ko‘ra jarangli va jarangsiz undoshlarga ajratdik.

Nutq a‘zolarining ishtirokiga yoki paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra, guruhlariga bo‘linishini ko‘rib chiqamiz: lab, til oldi, til o‘rta, til orqa va bo‘g‘iz.

1. Lab undoshlari. Ularning ikki turi mavjud: a) lab-lab; **p-b**; b) lab-tish; **v-f**.
2. Til oldi undoshlari: **t, d, s, z, sh, j, ch, n, l, m, r.**
3. Til o‘rta undoshi: **y.**
4. Til orqa undoshlari: **k, g, q, x.**

5. Bo‘g‘iz undoshi: **h**.

Undosh tovushlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra quyidagicha:

1. Portlovchilar: **b, d, g, p, t, k, q**.
2. Sirg‘aluvchilar: **v, z, j, y, f, g‘, s, sh, x**.
3. Burun tovushlari: **m, n**.
4. Qorishiq tovushlar: **ch**.
5. Yon tovushi: **l**.
6. Titroq tovush: **r**.

Undosh tovushlar talaffuzini o‘zlashtirishda jufti bor tovushlarni birgalikda keltirib, yuqorida ajratilgan guruhlar bo‘yicha har birini alohida mashq bilan ko‘rib chiqamiz.

P, B undoshlari

**P** – jarangsiz, lab-lab undoshi. Bu tovushni aytgan paytda talaffuz a‘zolari quyidagi holatda bo‘ladi: lablar jipslashgan, til uchi pastki milk atrofida erkin, qattiq tanglay va til sathi oralig‘i keng, yumshoq tanglay ko‘tarilgan, havo oqimi kelib, lablarni yorib chiqadi va shovqinli **P** – jarangsiz undoshi paydo bo‘ladi.

**B** – jarangli, lab-lab undoshi. Artikulyatsiya holati xuddi **p** tovushi talaffuzidagidek, faqat talaffuzda shovqin bilan birga ovoz ham ishtirok etadi.

Bu tovushlar talaffuzini takomillashtirish uchun quyidagi mashqlarni qo‘llash mumkin:

**1-mashq.** Jarangsiz – *p* va jarangli – *b* tovushlarining aytilishidagi farqlarni bilib olish uchun navbatma-navbat bir necha bor qaytariladi: P-B, P-B, P-B... va h.k. Talaffuz paytida bu tovushlarga hech qanday unli tovush qo‘shilib ketmasligi kerak. Mashqni yaxshi o‘zlashtirib olgandan so‘ng keyingisiga o‘tiladi.

**2-mashq.** Undoshlarga unlilar qo‘shilib bo‘g‘in tarzida talaffuz etiladi:

ni-ne-na-no-no‘-nu-ni;

bi-be-ba-bo-bo‘-bu-bi.

Endi **P** va **B** tovushlarini mustahkamlash uchun har ikkala tovush ishtirok etgan so‘zlarni qo‘llash mumkin:

piyola            kitob

peşhin	to‘n
patir	savob
poliz	arab
po‘lat	ko‘p
pushaymon	oftob
pop	ajab

### **3-mashq.**

Birinchi bo‘g‘indagi unlilarga urgu berib talaffuz etish:

- a) pippi, peppe, poppo, po‘ppo‘, puppu, pippi;
- b) bibbi, bebbe, babba, bobbo, bubbu, bibbi;
- d) pib-bip, peb-bep, pab-bap, po‘b-bo‘p, pub-bup;
- e) bip-pib, bep-peb, bap-pab, bop-pob, bo‘p-po‘b, bup-pub...

Mashqlarni to‘liq, ongli ravishda, tartibi bilan to o‘zlashtirib olinguncha qaytariladi.

Qo‘shaloq tovushlarning talaffuzini mustahkamlash uchun avval so‘zlarni, so‘ng jummalarni qo‘llash mumkin.

Masalan:

oppoq	Abbos
do‘ppi	tibbiy
shippak	labbay
lo‘ppi	muhabbat
ko‘ppak	murabbo

Bu va shunga doir navbatdagi mashqlarni talabalar juft bo‘lib bajarishlari mumkin (partnyor bilan). Masalan bir talaba p tovushiga paxta so‘zini aytsa, ikkinchi talaba esa bola so‘zini aytadi. Mashq davomida so‘z topish ularning, avvalo fikirlashga, qofiyadosh so‘z topishga harakat qiladilar.

Natijada talaba topgan so‘zini to‘g‘ri talaffuz qilishga va partnyoriga biron maqsadni o‘ylab gapirishga o‘rgana boshlaydi.

Yuqorida berilgan mashqlarni har xil usulda (koptok bilan sakrogich bilan, aylana bo‘ylab yurib va h.k.) bajarib bo‘lgach, mazkur so‘z va bo‘g‘inlar ishtirokidan parcha, folklor asarlaridan kichik-kichik matnlar olib qo‘llash mumkin.

#### **4-mashq.**

**P, B** tovushlari ko‘proq ishtirok etgan tez aytishlar talaffuz qilish

*Tez aytish*

Bir juft cho‘p ko‘pmi, qo‘sh juft cho‘p ho‘pmi?

*She‘r*

Chittak kelar chip-chip-chip,

Qanot qoqib lip-lip-lip.

O‘zim seni boqaman,

Kel, chittakjon, chip-chip-chip.

**F, V undoshlari** sirg‘aluvchilar guruhiga kiradi.

**F** – jarangsiz lab-tish undoshi, talaffuz vaqtida pastki lab yuqori tishlarga juda yaqinlashadi. Til uchi erkin ko‘tarilgan, havo tish va lab orasidan sirg‘alib chiqadi va jarangsiz **F** undoshini hosil qiladi.

**V** – **sirg‘aluvchi**, jarangli, lab-lab undoshi. Artikulyatsion holati xuddi **F** undoshiga o‘xshash bo‘lib, shovqin bilan birgalikda ovoz ham ishtirok etadi.

**F, V** tovushlarining toza talaffuzini egallash uchun **P, B** undoshlariga tavsiya etilgan mashqlarning barchasi qo‘llaniladi.

Demak, yuqoridagi mashqlar bo‘g‘in tarzida, qo‘shaloq undosh bilan, urg‘ulash bilan aytilib talaffuz chiniqtirib olindi. endi shu tovushlar ishtirokidagi so‘zlar va jummalarni ko‘rib o‘tamiz:

favvora	vafodor
farovon	Vatan
faromush	visol
fonus	viloyat
fazo	vazifa
fan	viqor
Fargona	vasvasa

Feruza	varrak
Fazliddin	vodiy
Farrux	Vohid

*Tez aytish*

Fonus misdan,  
Chovli simdan.

*She'r*

Fil zavqlanar:

«Vah-vah-vah, bulbuljon,

Ovozing shirin biram».

Bo'ri der: «vah, ehtimol

Mazalidir go'shting ham...»

**T, D undoshi** (til oldi, **T** – jarangsiz, **D** – jarangli). Talaffuz vaqtida til uchi yuqori tish qatorining old tomoniga yopishadi, yumshoq tanglay ko'tarilgan. Til uchi bir oz tushirilib, shu paytning o'zida tilning old qismi yuqori alveolalarga salgina tegib turadi. Havo to'lqini zarb bilan chiqishi natijasida **T, D** undoshlari paydo bo'ladi.

**T, D** tovushlarning talaffuzini mustahkamlashni mashqlarda ko'rib chiqamiz:

**1-mashq.** Navbatma-navbat talaffuz qilinadi: T-D, T-D, T-D...

**2-mashq.** Bo'g'in tarzida:

Tu-Du, Te-De, Ta-Da-To-Do-To'-Do'-Tu-Du.

**3-mashq.** Birikma tarzida:

tiddi-ditti, tedde-dette, tadda-datta, toddo-dotto, to'ddo'-do'tto', tuddu-duttu.

**4-mashq.** So'zlarda talaffuz qilinishi:

taxt Davron

Toshkent Dildora

Tohir dard

terak dala

tol dori

to‘rt dim

*Tez aytish*

To‘ychi tog‘asi Turdi,

Tomiga tovuqxona qurdi.

Bu tutcha, shunday tutcha,

Oq tutcha, kumush tutcha.

*She‘r*

Do‘st bilan obod uying,

Gar bo‘lsa u vayrona ham.

Do‘st qadam qo‘ymas esa

Vayronadir koshona ham

(E.Vohidov).

**K, G undoshlari** – til orqa portlovchi undosh; **K** – jarangsiz, **G** – jarangli. **K, G** undoshi hosil bo‘lishida til beli yoysimon egilib qattiq tanglayga yopishadi. Havoto‘lqini to‘siqni yorib chiqish oldidan til uchi pastda, pastki tish qatoriga tegar-tegmas holatda bo‘ladi. **G** undoshida esa ovoz qo‘shiladi.

**K, G undoshlari** talaffuzini mustahkamlash uchun mashqlardan foydalanamiz:

**1-mashq.** Navbatma-navbat aytiladi:

K-G-K-G-K-G...

**2-mashq.** Bo‘g‘in tarzida: ki-gi, ke-ge, ka-ga, ko-go, ko‘-go‘, ku-gu.

**3-mashq.** Birikma tarzida: kiggi, urg‘u birinchi bo‘g‘inda – gikki, kegge-gekke, kagga-gakka, koggo-gokko, ko‘ggo‘-go‘kko‘, kuggu-gukku.

Ushbu birikmalarga yana bo‘g‘inlar sonini qo‘shib, cho‘zib talaffuz qilish va o‘rnini almashtirib mashq qilish mumkin.

*Tez aytish va she‘r*

Qorni to‘ymay tulkinining qovurilgan suyakka,

Termuladi suq bilan semiz oshpaz o‘rdakka.

Gulandomni qutlashga Gulnoraning gapi yo‘q.

Gulzor bo‘m-bo‘sh, demakki, gulsiz so‘zning nafi yo‘q.

**Q, G‘ undoshlari.** **Q** – chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh. Talaffuz vaqtida tishlar oralig‘i bir barmoq kengligida ochiq bo‘lib, lablar erkin holatda turadi.

Tilning orqa qismi yuqori tishlar qatoriga hamda o‘zagi bilan birga yoysimon egilib, yumshoq tanglayga tegib turadi. Bunda til o‘zak tomon tortilib, til bilan qattiq tanglay orasidagi masofa torayadi. Havo oqimi toraygan masofani yorib chiqib shovqinli **Q** tovushini hosil qiladi.

**G** – til orqa jarangli portlovchi undosh. Talaffuz vaqtida tishlar oralig‘i **Q** tovushi vaqtidagidan kengroq ochilib, til uchi pastki tishlar qatoriga tegib turadi. Lablar **Q** tovushidagidek ikki yonga biroz tortiladi. Qattiq tanglay bilan til yuzasi oralig‘idagi masofa bir tekisda bo‘lmaydi. Chiqayotgan havo oqimi til orqa qismi va yumshoq tanglay orasidan sirg‘alib chiqib, ko‘tarilgan yumshoq tanglayni tebratadi, natijada **G** tovushi hosil bo‘ladi.

Mazkur tovushlar talaffuzini mustahkamlovchi so‘zlar:

qahramon      gizg‘izon

qalin            g‘aliz

qog‘oz          g‘oz

qalam           g‘am

qamchi         g‘aynoli

qishloq        g‘ayrat

qalliq          g‘alvir

qopqoq        g‘urur.

*Tez aytish*

1. Qalin qorga qora qarg‘a

Zo‘rg‘a qo‘ndi ana, qara.

2. Taqa, toqqa, baqa, boqqa.

Qara qator to‘rtta qarg‘a.

*She‘r*

Qahhor, Qodir qaydan topar

Qatiq, qimiz, qaymoqni?

Qanday qilib yozamiz  
Qulupnayni, quymoqni?

Qushcha sayrar o‘z tilida  
Qizcha boqadi hayron.  
Qizcha kuylar o‘z tilida  
Qushcha boqadi hayron.

Mehmonlar yoqut-javohirdir, sohibi xona,  
Suhbatdan dur termoqqa dasturxon bir bahona.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,  
Haykal ham qo‘yingiz bamisli xayol.  
Shundaylar bo‘lmasa agar dunyoda,  
Bu qadar muhtaram bo‘lmasdi ayol!

**Ch undoshi** – portlovchi, jarangsiz, til oldi, qorishiq yuqori undosh. Talaffuz etilayotganda lablar biroz cho‘chchayadi, tilning oldingi qismi milkka tegadi, og‘iz bo‘shlig‘iga kelgan havo sirg‘alib chiqib **Ch** undoshi hosil qiladi.

**Ch** tovushi talaffuzini mustahkamlash uchun mashq va misollardan foydalanamiz:

**1 - mashq.** Bir necha marta talaffuz etiladi:

ch-ch-ch-ch-...

**2 -mashq.** Unlilarga boglab bo‘g‘in tarzida:

chu-che-cha-cho-cho-chu.

**3-mashq.** Qorishiq undosh bo‘lganligi uchun t va j tovushlari bilan birga, lekin har birini aniq talaffuz qilishga erishiladi:

tchi-tche-tcha-tcho-tcho-tchu;

dchi-dche-dcha-dcho-dcho-dchu;

jchi-jche-jcha-jcho-jcho-jchu.

**So‘zlarda ko‘rib chiqamiz:**

chinor	charos
chimildiq	chaman
chumchuq	chivin
chittak	chuchmoma

*Tez aytish*

Chumchuq chirqillab chug‘urchuqni cho‘qimasa, chug‘urchuq chug‘urlab chumchuqni cho‘qimaydi.

*She’r*

Turnalar, hoy turnalar,

Pastlab uchingiz.

Bizning ko‘l va daryolar

Bag‘rin quchingiz (I.Muslim).

**S, Z** – jarangsiz til oldi undoshlari. Talaffuz vaqtida lablar iljaygansimon ochiq; pastki va yuqori tishlar esa bir-biriga tegar-tegmas holatda bo‘ladi, ya’ni tilning sathi bilan qattiq tanglay orasidagi masofa torayib boradi, yumshoq tanglay esa biroz ko‘tariladi. Havo oqimi til va yuqori milkdan sirg‘alib chiqadi.

**Z** tovushining talaffuzi ham xuddi **S** tovushining artikulyatsion holatidek, faqat unga ovoz qo‘shiladi.

Mazkur tovushlar to‘g‘ri talaffuzini takomillashtirish uchun ham P-B tovushlariga berilgan mashqlardan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, ko‘pchilik talabalar **S** va **Z** tovushlarini noto‘g‘ri talaffuz qilishadi. Xuddi erkalanishga moyildek yumshoq talaffuz qilish, ba’zi hollarda umuman tuzatib bo‘lmaydigan, ya’ni jag‘ning chiqib ketishi oqibatida yuzaga kelgan kamchilikdir. Buning oldini olish va toza talaffuzga erishish uchun mashqlarni har xil variantlarda qo‘llab bajarish mumkin:

**1-mashq.** **S** tovushining avval bo‘g‘in tarzida, unli bilan birga, so‘ng birikmada o‘rtada va oxirida kelishi.

su-se-sa-so-so-si-si;

isi-ese-asa-oso-oso-usu-isi;

is-es-as-os-os-us-is.

**2-mashq.** Z tovushining talaffuz etilishi:

zi-ze-za-zo-zo'-zu-zi

izi-eze-aza-ozo-o'zo'-uzu-izi

uz-ez-az-oz-o'z-uz-iz

**3-mashq.** S va Z tovushining aniq talaffuzini soʻzlarda tekshirib koʻramiz:

Saida	Zamira
sabo	zakot
sabr	ziynat
sariq	zirak
salla	zulm
sanam	zulf
samo	Zulxumor
sabzi	zakovat
sandiq	zamin
sadaf	zilol
safsata	zargar
sas	Zarafshon
sir	zanjir
sut	zavq
saroy	zehn
sira	ziyo
simob	zobit
sahar	zanjir
Sevara	zebo
Samarqand	zamon

**4-mashq.** S va Z undoshlarining qoʻshaloq kelishini soʻzlarda mustahkamlash mumkin.

assalom            muassasa

Muazzam      lazzat,  
hassa          Jizzax  
essiz          jizza  
Rossiya        izzat  
issiq

### **5-mashq.**

*Tez aytish*

Asad, Samad, Sur'at, Samarqandda asl asal sotishar.

*Topishmoq*

O'zi qizil go'zal biram,  
Qirga yozar zar-zar gilam.

**Sh, J undoshlari** – til oldi, jarangsiz, shovqinli sirg'aluvchi. Talaffuz paytida lablar biroz cho'chchayadi, yuqori va pastki tishlar bir-biriga juda yaqinlashadi, til uchi muallaq holatda bo'lib, salgina qisqaradi va yozilib tepa tishlar tomonga ko'tariladi, pastki jag' esa jipslashadi. Til uchi va tishlar oralig'idan sirg'alib chiqqan havo to'lqini **Sh** tovushini vujudga keltiradi.

**J** – jarangli undosh. Talaffuz paytida pastki tishlar qatori bir oz pastga tushiriladi, til uchi tanglay tomon ko'tariladi, ovoz paychalari jipslashgan holatda bo'lib, yengil titraydi.

**Sh** va **J** tovushlarini talaffuz etishda ko'proq jag'ning yaxshi ochilmasligi, jipslashuvi xalal berishi mumkin. Bunday nutq a'zosi kamchiligini bartaraf etish uchun ko'proq jag' mashqlarini bajarib borish tavsiya etiladi.

**1-mashq.** Jarangli va jarangsiz undoshlarni farqlash uchun bir necha marta ketma-ket talaffuz etiladi: sh-j, sh-j, sh-j...

**2-mashq.** Sh, J tovushlarining turli birikmalarda bo'g'in tarzida talaffuz qilinishining o'zlashtirishga qarab tezligini oshirib borish mumkin:

shi-she-sha-sho-sho'-shu

ji-je-ja-jo-jo'-ju

shijj i-shejje-shajja-shojj o-shojjo‘-shujj u  
jishshi-jeshshe-jashsha-joshsho-jo‘shsho‘-jushshu  
shti-shte-shta-shto-shto‘-shtu  
j di-j de-j da-j do-j do‘ -j du  
shti-jdi, shte-jde, shta-jda, shto-jdo, shto‘-jdo‘, shtu-jdu.

*So‘zlar:*

Sharof	shimol
Sherzod	she‘riyat
Jamol	Jasur
Jamila	jigar
shabada	janub
shisha	jar
shalola	jazo
shabnam	jabr
shakar	javob

jo‘ja

*She‘r*

Xabarkash ola hakka

Tarqatdi qiziq mish-mish.

Ko‘k g‘orda yangi shinam

Oshxona ochilganmish.

## SONORLAR

Sonor – lotincha so‘z bo‘lib, «ovoz», «jarang» degan ma‘noni bildiradi. Sonorlarga tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo‘lgan tovushlar kiradi. Bular m, n, ng, l, r tovushlari bo‘lib, ushbu tovushlar nutqimizga jilo beruvchi, ohangdorlik hamda jarangni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Sonor tovushlarning paydo bo‘lish o‘rni va artikulyatsion holatini ko‘rib chiqamiz:

**M – jarangli** undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra burun tovushi hisoblanadi. Talaffuz etganda lablar jipslashgan, tish qatorlari salgina ochiq, til erkin yotgan holda

uchi pastki tishlarga yengilgina tegib turadi. Yumshoq tanglay erkin tushiriladi. Havo oqimi burun bo'shlig'i orqali chiqadi va lab-lab **M** tovushini hosil qiladi.

**N** tovushi talaffuzida esa til birmuncha faolroqdir, til uchi yuqori tish qatori tagiga tegib turadi. Yumshoq tanglay pastga tushiriladi. Havo oqimi burun bo'shlig'i orqali o'tib, **N** tovushini hosil qiladi.

**M, N** tovushlariga berilgan mashqlarni bajarishda chiqayotgan tovush yengilgina burun va og'iz (tishlar) atrofida jaranglab turishini ta'minlash zarur.

**1-mashq.** **M, N** tovushlari avval alohida artikulyatsion holatiga ko'ra talaffuz etiladi:

M-N, M-N, M-N, M-N...V

**2-mashq.** Talabaga ham tushunarli, ham qiziqarli bo'lishi uchun **m-n** tovushlari ishtirokida ohang bilan (go'yoki chaqaloqni qo'lga olib, ikki tomonga tebratib uxlatayotgandek) bajarish mumkin.

**3-mashq.** Avval bo'g'in tarzida, so'ng birikma usulida aytiladi:

mi-me-ma-mo-mo'-mu.

Ni-ne-na-no-no'-nu.

Mni-mne-mna-mna-mno'-mnu.

**4-mashq.** Birikmalarda **M** va **N** tovushining qo'shaloq va yakka tarzdagi talaffuzini taqqoslab talaffuz etish:

mimi-mimmi, meme-memme, mama-mamma, momo-mommo, mo'mo'-mo'mmo', mumu-mumu.

Nini-ninni, nene-nenne, nana-nanna, nono-nonno, no'no'-no'nno', nunu-nunnu.

**5-mashq.** Har bir birikmada **M-N** tovushlarini talaffuz etish:

mni-nmi, mne-nme, mna-nma, mno-nmo, mno'-nmo', mnu-nmu.

**6-mashq.** **M-N** tovushlari talaffuzini takomillashtirish uchun so'z, she'r va jumladan foydalanish mumkin. Masalan:

Mansur	Nosir	mamlakat	Nigora
Ma'ruf	Nozim	mamnun	Namangan
mard	non	Muhammad	Navoiy
malak	nozik	mamnun	Narvon

### *Tez aytish*

1. Nonvoy Norvoy non yopar,

Nonin novvot deb sotar.

2. Mushukcha, tugma, osma,

yana, shama ham juma.

**Ng** tovushini talaffuz etganda til uchi milklar ustida joylashgan alveolalarga taqaladi. Tilning beli va o‘zagi yoysimon shaklda egilib, yumshoq tanglay bilan jiplashadi, natijada tovush to‘lqini burun bo‘shlig‘i orqali chiqib turib, jarangli, til orqa burun tovushini hosil qiladi.

**Ng** tovushi talaffuzini takomillashtirish uchun so‘zlar:

Tong chang

Bong tajang

Tangri ohang

**L, R** – sonor sirg‘aluvchi til oldi undoshlari. Talaffuz vaqtida til uchi yuqoriga ko‘tarilib, alveolalarga qattiq tegadi va biroz zarb bilan pastga tushadi, o‘rtasi yoy shakliga kiradi, orqa qismi biroz ko‘tariladi. Natijada L yon tovushi hosil bo‘ladi.

Talaffuz vaqtida **L** tovushi hosil bo‘lmasa, **lambda izm**, agar talaffuz vaqtida boshqa tovush bilan almashtirilsa esa, bunday holat **paralamb datsizm** deyiladi. Masalan, so‘z boshida kelganda lola-yoya, so‘z o‘rtasida tilsim-tiysim, so‘z oxirida kelganda kulol-kuyoy kabi. Bu kamchiliklarni logopediya usullari yordamida tuzatish mumkin, buning uchun logopedlar maxsus mashqlar orqali tovushning artikulyatsion o‘rni va hosil bo‘lishini o‘rgatadi.

Boshqa tovushlardan farqli o‘laroq **L-R** tovushlaridagi kamchilik yaqqol sezilgani bois, tuzatish birmuncha mushkuldir. Birinchi bo‘limda aytib o‘tganimizdek, bu nuqsonlar maktab davrida tuzatilishi lozim, agar o‘sha paytda e‘tiborsiz qolib ketgan bo‘lsa, uni bartaraf qilish birmuncha qiyin kechadi.

**R** – sonor, titroq, til oldi undoshi. Talaffuz vaqtida til uchi alveolalar tomon ko‘tariladi, buning natijasida biroz chuqurcha paydo bo‘ladi, shu chuqurchadan chiqqan havo oqimi til uchini titratib o‘tadi va titroq **r** tovushi hosil bo‘ladi.

Logopediyada **R** tovushining talaffuzidagi kamchiliklari **rotatsizm** deb yuritiladi (grekcha ro harfi nomidan olingan bo‘lib, **R** tovushini bildiradi). **R** tovushini boshqa tovushlar bilan almashtirilishi **pararotatsizm** deyiladi.

Masalam: Ravshan – Yavshan, Shuhrat – Shuhyat kabi.

Rotatsizmga anatomik kamchiliklardan – til tagidagi yuganchaning kaltaligi; tor va baland tanglay, haddan tashqari ingichka til sabab bo‘lishi mumkin.

Bunday nuqsonlarni tuzatish va **R** tovushining to‘g‘ri artikulyatsiyasini ta‘minlash uchun 2 xil usuldan foydalaniladi:

- 1) tilni kerakli to‘g‘ri holda ushlab turish, kerakli holatlarga keltirish;
- 2) tilda tebranish hosil qilish.

Nutq texnikasida har ikkala usul ham juda zarur hisoblanadi. Quyida beriladigan mashqlar asosan til uchida tebranish (titroq) hosil qilishga qaratilgan.

**1-mashq.** Li-le-la-lo-lo‘-lu

ri-re-ra-ro-ro‘-ru.

**2-mashq.** Lri-lre-lra-lro-lro‘-lru

rli-rle-rla-rlo-rlo‘-rlu.

**3-mashq.** Lili-lilli, lele-elle, lala-lalla, lolo-lollo, lo‘lo‘-lo‘llo‘, lulu-lullu.

Riri-rirri, rere-rerre, rara-rarra, roro-rorro, ro‘ro‘-ro‘rro‘, ruru-rurru.

**L, R** tovushini mustahkamlash uchun misollar. So‘z boshida hamda qo‘shaloq kelganda:

Latofat	Musallam
Lobar	muallim
Lola	aqlli
lol	silliq
Laylak	mahalla
lagan	chilla
Rohat	arra
roman	zarra
rubob	muharrir
ruxsat	barra

ro‘mol	muqarrar
radio	parranda

*Tez aytish va she‘r*

1. Kasbi doim taqir-tuqir,  
Qayda ilon cho‘qir-cho‘qir.
2. U senga ko‘rsatdi Hidoyat yo‘lin,  
Yurgil yo yurmassan, o‘zing bil, inson.  
Balki sen tutgaysan Iblisning yo‘lin,  
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon (*A.Oripov*).
3. Kitoblar qadrdon hamroh sanalur,  
Satri birla dilga tasalli bo‘lur.  
Kitob shunday do‘stki, g‘am keltirmas hech,  
Orom baxsh etar u, ertayu kech (*A.Jomiy*).

**Tutuq belgisi** (‘) kirilcha alifbodagi ayirish belgisi o‘rnida ishlatiladi. O‘zbek adabiy tilida ayirish belgisi asosan o‘zlashgan so‘zlarda, ya’ni arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda qo‘llanib keladi. Tutuq belgisi tovush bildirmaydi, unlidan so‘ng kelganda shu unlining cho‘ziqroq aytilishini bildiradi. Masalan: sa’va, e’lon, ne’mat; ayirish belgisi undosh tovushdan so‘ng kelganda uning keyingi unlidan ajratib talaffuz qilinishini bildiradi. Masalan, san’at, mash’al, Tal’at.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, tutuq belgili tovush sahna nutqi texnikasida unli, undoshlarni o‘rganish va qo‘llash borasida, ularning talaffuz etishda muhim ahamiyatga ega. Unga bo‘lgan e’tiborsizlik so‘z ma’nosining tubdan o‘zgarishiga olib keladi.

Ra’no, Ma’suda, ma’no, qat’iyat, bid’at, a’lo, ma’lumot, ta’lim.


**Tayanch iboralar.** Unlilar, fonemalar, tasnif, lablar, vertikal, gorizontal, fonologik, tilshunoslik, vokalizm, kombinator, pozitsion, ottenkalar.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
2. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
3. Lablarning ishtirokiga ko‘ra unlilarning turlari?
4. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko‘ra unlilarning turlari?
5. Tilning gorizontal harakatiga ko‘ra unlilarning turlari?
6. Tasnifga asos bo‘lgan qaysi belgilar fonologik xarakterda?
7. Qaysi belgi o‘z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
8. O‘zbek tilshunosligida hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo‘lib qolmoqda?
9. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?

## IFODALI O‘QISH QOIDALARI. TINISH BELGILARI VA ULARNING MOHIYATI

Ifodali o‘qish ijodkor uchun asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tushunishda, badiiy xususiyatlarini ochishda katta ahamiyatga ega. Barcha janrdagi asarlar bir xilda o‘qilmaganidek, hamma ham bir xilda ifodali o‘qiy olish qobiliyatiga ega emas. Ayniqsa, oliy o‘quv yurtlarining ko‘pchilik talabalari uzoq vaqt o‘zlari mansub bo‘lgan sheva ta‘sirida bo‘ladilar. Sheva ta‘sirida “ifodali” o‘qilgan asar mazmuniga esa putur yetadi, uning badiiy-estetik (go‘zallik) ta‘sirchanligi susayadi. Shuning uchun talabalarni shevalar ta‘siridan qutqarish, ularni ifodali o‘qishga o‘rgatish tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega, asar mazmunini puxta o‘zlashtirishda, uning badiiy mohiyatini ochishda yaqindan yordam beradi. Ifodali o‘qishning asoslari va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fikrlariga tayangan holda filolog olimlar aktyorlik kurslarida dars beruvchi pedagoglar o‘zlarining ko‘p yillik ish tajribalaridan kelib chiqib, talabalar uchun ko‘plab qo‘llanmalar yaratib kelmoqdalar.



Bugungi kunda ifodali o‘qish nafaqat san‘at va madaniyat tarmoqlarida, balki boshqa tarmoqlarda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Radio, televideniye, teatr, ommaviy bayram tomoshalarida, pedagogikada, xattoki rahbar xodimlar faoliyatida ifodali o‘qish katta rol o‘ynamoqda.

1989-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi, 1998-yil 26-martda qabul qilingan “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni sahna san’ati ufqlarini yanada kengaytirib yubordi. 2016-yil 13-mayda qabul qilingan “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ham o‘zbek tili va adabiyotini, uning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash asosiy vazifalardan biri deb belgilandi. Demak, o‘zbek tilining nufuzini oshirishda ijodkorning roli katta ekan, avvalo ifodali o‘qish qoidalarini mukammal bilish talab etiladi.

“O‘zbekistonda ishlovchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart. O‘z faoliyatiga ko‘ra aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shaxslar xizmat vazifasini bajarish uchun davlat tilini zarur bo‘lgan darajada bilishlari lozim.” Davlat tili haqidagi Qonunning ushbu 4-moddasi ham shuni taqozo qiladiki, o‘zbek tili ifodali o‘qish qoidalarisiz to‘liq egallanmaydi. Ona tilimizning go‘zalligini, asl tabiatini, naqadar sofligini tarannum etish ham aktyorning o‘ta mukammal, ishlangan nutqi bilan bog‘liq.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, badiiy adabiyot paydo bo‘lishi bilan uning ifodali o‘qilishi og‘zaki ijrochiligi ham maydonga keldi. Badiiy adabiyotining shakllanish bosqichlari g‘oyat murakkab, rang-barang bo‘lgani kabi, uning og‘zaki ijrochilik taraqqiyoti ham ziddiyatlidir. Jumladan, adabiyot va san’at hali muayyan ma’noda sinkretik xarakterga ega bo‘lgan qadimgi davrda badiiy va ifodali o‘qish san’ati ham sinkretik xarakter kasb etgan. Chunonchi, bu davrda badiiy adabiyot yaratuvchilari ayni choqda uning ijrochilari sifatida ham dong taratganlar.

Badiiy so‘z san’atkori xalq o‘rtasida ijodkor emas, balki ijrochi sifatida ko‘proq e’tiborga ega bo‘lgan. Jumladan, “Avesto”ning yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijrochilariga aylanib qolgan koinlar toifasi xalq orasida adiblar

sifatidagina emas, balki jonli soʻz sehri bilan moʻjizalar koʻrsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta eʼtibor qozonganlar. Zotan, oʻzbek badiiy soʻz ijrochilari sanʼatining sarchashmalari tarixning juda uzoq qatlamlariga borib taqaladi.

Adabiyotshunos olim N.Mallayev taʼkidlaganidek, badiiy soʻz sanʼati yozuv va yozma adabiyotdan koʻp zamonlar ilgari ogʻzaki ijod shaklida paydo boʻladi hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. U ogʻizdan-ogʻizga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga oʻtadi. Tarixiy taraqqiyot davomida adabiyot bilan birga ijrochilik sanʼati ham rivoj topa bordi. Masalan, Oʻrta Osiyoda shoirlar bilan bir qatorda, ularning asarlarini majlis-anjumanlarda, keng mehnatkash xalq orasida ijro etuvchi sanʼatkorlar – roviylar toifasi paydo boʻladi.

Oʻzbek badiiy soʻz ijrochiligi sanʼatiga xos boʻlgan bedilxonlik, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik bilan birga, qissagoʻylik, kulgili hikoyagoʻylikning taraqqiyoti bu sanʼatning juda qadimiy va boy tarixga, maʼlum anʼanaga ega ekanligini anglatadi. Oʻzbek pedagogikasi tajribalari, ifodali oʻqishni quyi sinflardan boshlab mashq qilishni va uni keyinchalik asta-sekin takomillashtirib borishni taqozo etadi. Bu tasodif emas, albatta. Chunki ifodali oʻqish sanʼati bolalarning badiiy didini shakllantiribgina qolmay, ularning maʼnaviy chiniqishida, xotirasining mustahkamlanishida ham yetakchi oʻrin egallaydi.

## Ifodali oʻqishning asosiy shartlari

Tinish belgilariga rioya qilish,

Mantiqqa putur yetkazmaslik,

Oʻsha materialni dona-dona va burro-burro, tushunarli qilib oʻqib berishdan iborat.

O‘tmishda she’rni tushuntirib o‘qishga katta e’tibor berilganni Alisher Navoiy quyidagicha ifodalaydi:

Yodimda mundoq kelur bir mojaro  
Kim tufuliyat chog‘i maktab aro,  
Istabon tashxisi xotir ustod  
Nazs o‘quturkim ravon bo‘lsun savod.  
Nasrdin ba’zi o‘quv ham doston,  
Bu “guliston” yanglig‘u ul “Bo‘ston”.  
Manga ul holati ta’bi bulhavas,  
Mantiqut-tayr aylab erdi multamas!

Buyuk shoir bolalik va yigitlik paytlaridayoq ellik ming bayt, ya’ni yuz ming misra she’rni yod bilgan va ulardan zavqlangan. Bu haqda shoir shunday deydi: “Bulardan dog‘i bosh yigitligim zamoni va shabbob ayyomi avonida ko‘prak she’r sehr soz va nasrda fusun parvoz shuaroning shirin ash’ori rangin adabiyotidan ellik mingdin ortiq yod tutubmen va alar za va xushg‘oligidan o‘zumni ovutubmen”.

**Nuqta va uning qo‘llanilishi** - Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o‘zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Nuqta o‘zbek tilida, odatda, quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so‘ng.

*Milliy istiqlol sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O‘zingga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rma. Farzandlarimiz doimo sog‘lom bo‘lsin.*

2. Atov gaplardan keyin.

*Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.*

3. Ismi, otasining ismi (ba’zan familiyasi ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so‘ng.

*A.Navoiy, A.Fitrat, A.Cho‘lpon kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S.Pushkin - rus poeziyasining quyoshi.*

4. Nashriyot ishlarida, lug‘at va ma’lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so‘zlarning birinchi harfi yoki bo‘g‘inidan so‘ng.

*Va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so‘zlashuv tilida); G‘.G‘. (G‘afur G‘ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); “O‘qituvchi” NMIU; 1995-y.*

5. Qo‘shma gapning birinchi qismidan so‘ng kuchli to‘xtam bo‘lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog‘lanmagan qo‘shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog‘lovchilari bilan boshlanishi mumkin.

*Bobodehqon yerga Baraka urug‘ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg‘in.*

6. Ba’zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so‘ng ham nuqta qo‘yilishi kuzatiladi: 25. 05. 2013.

7. Butunning qismlarini sanash uchun qo‘llanilgan arab raqamlaridan so‘ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.

*Tovushlar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.*

8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko‘paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi.  $3 \cdot 3 = 9$  (*uch karra uch to‘qqiz*).

**Vergul va uning qo‘llanilishi** – Vergul tinish belgisi sifatida G‘arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O‘zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi.

1. Uyushiq bo‘laklar orasida.

*Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko‘cha-ko‘yda, mahallada o‘zini tutishi, do‘stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo‘shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim.*

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi.

*Uka, o‘qishning erta-kechi bo‘lmaydi. Men Sizni, **oyijon**, juda yaxshi ko‘raman. Salom sizga, **purviqor tog‘lar!***

3. Kirish so‘z va kirish birikmalardan so‘ng.

*Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o‘rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o‘zaro munosabatlarda voyaga yetadi.*

4. Tasdiq, ta’kid, inkor va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi ha, yo‘q, rahmat, xo‘sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so‘z-gaplardan keyin kelgan bo‘laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo‘yiladi.

*Ha, hushyor bo‘lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo‘nab ketyapmiz. Xo‘sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o‘ylab ko‘rdingizmi?*

5. Ajratilgan bo‘laklar orasida.

*Onaga, eng ulug‘ zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O‘zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.*

6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga.

*Do‘sting mingta bo‘lsa ham oz, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p. Yurgan - daryo, o‘tirgan - bo‘yra.*

7. Bog‘langan qo‘shma gaplarda ham vergul ishlatiladi.

*Bilimli va tadbirkor bo‘ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetaklamasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.*

8. Undov so‘zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so‘ng vergul ishlatiladi.

*Ey, menga bir minutga qarab qo‘ying.*

9. Ko‘chirma gap darak, buyruq gap bo‘lsa, undan so‘ng vergul qo‘yiladi.

*“Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo‘lmog‘i lozim”, deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.*

**So‘roq belgisi va uning qo‘llanilishi** - So‘roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* - so‘roq so‘ziga olib borib taqaydilar. So‘roq ma’nosida mazkur so‘zning birinchi harfi “Q” ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o‘zbekcha matnlarda 1885- yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so‘ng muntazam ishlatila boshlangan.

So‘roq belgisi quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. So‘roq gaplarning oxirida.

*Navoiyning tilshunoslikka bag‘ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo‘ldim (darak gap). Vazifani bajarib bo‘ldim?(ohang o‘zgaradi). Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi?*

2. Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? Kabi so‘roq olmoshlaridan so‘ng.

*Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so‘roqlariga javob bo‘ladi.*

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so‘z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo‘lsa, undan so‘ng qavs ichiga qo‘yiladi. “Toping!” ma’nosida.

*Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” qissasida (?) o‘zbek xalqining yaqin o‘tmishi haqida hikoya qilinadi.  $5 \cdot 5 = ?$  (matematikada).*

**Undov belgisi va uning qo‘llanilishi** - Undov belgisi o‘zbek tiliga rus tilidan o‘tgan. Mutaxassislarining fikricha, u lotincha *lo* - undov so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, unga nuqta (.) ning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so‘ng qo‘yiladi.

*Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.*

- *Ana tuproq, mana tuproq! - deydi. - Bo‘rsildoq tuproq, mag‘izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan- tuproq! (Tog‘ay Murod)*

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma’nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi.

*“ - Siz ham oyoqni ishlating! - deb buyurdi. - Suv ostida o‘pqnlar ko‘p, tortib ketmasin!” (P. Qodirov)*

3. So‘z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng qo‘yiladi.

*Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o‘t, mening qo‘limni tut, belimni bog‘la, muqaddas fotihangni ber! (A. Fitrat)*

4. *Ha, yo‘q, xo‘p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so‘z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so‘ng qo‘yiladi.

- *Balli- balli! - dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi.*

- *Yo 'q! Borolmayman, - dedi qayrilib. (A. Qodiriy)*

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin.

*"Boburnoma" da tarix, etnografiya, til, adabiyot, geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.*

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo'yiladi.

*Charos kafti bilan yuzini to'sgan cha o'zini orqaga tashladi.*

- *A-a-a!!! - dedi chinqirib. (O'. Hoshimov)*

- *Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

- *Xanjarimiz qonsiragan! (A. Qodiriy)*

7. His-hayajon bilan aytilgan so'roq, shuningdek, ritorik so'roq gaplardan so'ng.

*Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog'insang, qanday baxt bu!*  
*(O'. Hoshimov)*

**Qavs va uning qo'llanilishi** - Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab "Turkiston viloyatining gazetisi" da 1873- yilda ishlatilgan.

U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Kiritma gaplarda. *O'zbekiston paxta ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o'rinda turadi), eksport bo'yicha AQShdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.*

2. Remarkalarda. *Xon (yolg'iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradir). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A. Fitrat)*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayida. *Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir. (Abdullo Avloniy) Jannat onalar oyog'i ostidadur. (Hadisdan). "Qasosli dunyo". ("Avlodlar dovoni" romanidan)*

4. Izoh ma'nosidagi so'z yoki so'z birikmalarida.

*Ro'za hayiti (Iyd al Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al Adha) ning birinchi kuni O'zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya*

yunoncha soʻz boʻlib, tarjimada xalq hokimiyati (*demos - xalq, kratos - hokimiyat*) maʼnosini bildiradi.

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. “Qutadgʻu bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”). Shuhrat (Gʻulom Aminjonovich Olimov) atoqli oʻzbek yozuvchilaridan biridir.

Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi.  $(60+16) - 25 = ?$

Koʻrinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham koʻp uchraydi. Masalan, egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda “*shah a ri, oʻr i ni, sing i lisi*” soʻzlaridagi “a”, “ i ” tovushlari qoidaga koʻra tushiriladi kabi.

**Koʻp nuqta va uning qoʻllanilishi** - Koʻp nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab oʻzbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan eʼtiboran, “Turkiston viloyatining gazetisi”da muntazam qoʻllangan.

Koʻp nuqta quyidagi oʻrinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

*Toʻra biroz oʻylab turgach, podshoning devordagi suratini, soʻngra oʻzining yelkasidagi pogonini koʻrsatdi.*

- *Mana shu imperiya... .*

*Miryoqub hech narsa anglamadi. (A.Choʻlpon)*

2. Soʻzlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

*Doʻxtir ayol ogʻiz berkitib piq-piq yigʻladi.*

- *Men... men Oʻzbekistonda besh-olti yil ishlab edim, - deya yigʻladi.*

- *Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.. (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

- *Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?*

- *Xoʻsh, xoʻsh?*

- *Ilkimdin kelguncha... - deb boshlanar edi.*

- *Ha-ha, boʻtam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X. Toʻxtaboyev)*

4. Fikr bo‘lib-bo‘lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

*Muhammadyor yolg‘iz:*

*- Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t...t...tr, - dedi-da, fikrg‘a toldi. (A. Cho‘lpon)*

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

*- Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushudingizmi?*

*- ...*

*- Tushudingizmi, deyapman? (X. Sultonov)*

6. Tushirib qoldirilgan harf, so‘z yoki boshqalar o‘rnida.

*Nuqtalar o‘rniga kerakli harfni qo‘yib ko‘chirib yozing.*

*Xayri...x, a...loq, ...abar.*

**Tire va uning ishlatilishi** - Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M.Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o‘zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan. Tire quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida.

*- Amaki, o‘ylab gapiryapsizmi? Qancha yo‘l yurib kelganimizni bilasizmi?*

*- Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo‘q.*

*- Siz tabibmisiz o‘zi?*

*- Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo‘laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo‘lmasa yo‘q.*

*- Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi? - dedi Kesakpolvon g‘ijinib.*

*- Olloh bir meniki emas, barchamizniki, - dedi chol ovozi bir parda ko‘tarib.*

*- Siz nomusulmon odamga o‘xshab so‘zlar ekansiz. (T. Malik)*

2. Bog‘lamasiz qo‘llangan ot kesim bilan ega orasida.

*Til - millatning qalbi. Yer - don, dehqon - xazinabon. Mehnating - boyliging.*

3. Uyushiq bo‘laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so‘zdan oldin.

*O‘zbek, qirg‘iz, qozoq, turkman, tojik - barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.*

4. Muallif gapi bilan ko‘chirma gap orasida.

*“Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir”, deb yozgan edi L.N.Tolstoy.*

5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida.

*1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:*

- *“Amir Temur” ordeni;*
- *“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni.*

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa.

*Olamni quyosh yoritadi, insonni - ilm.*

7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida.

*O'zbekiston Milliy sug'urta kompaniyasi - “O'zbekinvest”. Veksel - qimmatli qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.*

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida.

*Vaqting ketdi - baxting ketdi.*

9. Kirishlar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi.

*Biz - yoshlar - millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida - bir paytlari bu yerdan turib ulug' bobomiz osmon ilmini o'rgangan edi - katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.*

10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:

*Toshkent - Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.*

11. Nashr, kitobat ishlarida.

*H.Sultonov. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. - T., G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.*

Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307- 23. Bugun Toshkentda - 3 C sovuq bo'ladi.

**Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rinlari** - Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A.Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi.

Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi.

1. Ko‘chirma gap qo‘shirnoqqa olinadi.

*“Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa”, degan edi Sa’diy Sheroziy. I.V.Gyote shunday deb aytgan edi: “Donishmandlik faqat haqiqatdadir”. “Er kishiga zeb-u ziynat, degan edi Alisher Navoiy, hikmat va donishdir”.*

2. Sitatalar qo‘shirnoq ichida yoziladi.

*Buyuk yozuvchimiz A. Qahorning quyidagi gaplari halihanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q: “Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi.*

*Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko‘nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi. Yozuvchilikka cho‘g‘day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...”*

3. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo‘llanayotgan, kesatiq, piching, do‘q-po‘pisa va shu kabi ma’nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo‘shirnoq ichiga olinadi.

*...oradan yana bir necha oy o‘tib, uchinchi marta sud bo‘lgan. Bu safar Botirovning “jinoiyati” o‘n bir yillik qamoq bilan “taqdirlandi”. (T.Malik)*

*“Xalq artisti”, beliga o‘q tekkanday erta-yu kech to‘rdagi karavotga yonboshlab “Teatr” jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo‘lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A‘zamov)*

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo‘shirnoq ichida beriladi.

*“Lison ut-tayr” (“Qush tili”) asari haqida suhbatlashdik.*

*“Ma‘rifat” gazetasi, “Saodat” jurnali, “Mening oppoq kabutarlarim” spektakli, “Sohibqiron” dramasi, “Amir Temur” portreti.*

5. Korxonasi, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxonasi, kema nomlari qo‘shirnoq ichida yoziladi.

*“Bilayn” qo‘shma korxonasi, “Kochxolding” konserni, Yoshlar ittifoqi, “Istiqlol” tennis sport majmuyi, “Diyor” savdo uyi, “Ekosan” xalqaro jamg‘armasi, “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniaysi, “GM - O‘zbekiston” qo‘shma korxonasi, “O‘zbekiston” mehmonxonasi.*

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan soʻzlar, oʻsimliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qoʻshtirnoqqa olinadi.

*“Neksiya” rusumli yengil mashina, “Boing” samolyoti, “Otayo‘l” avtobusi, “Rayhon” alkogolsiz ichimligi, “Kibo” oyoq kiyimi, “Hojimatov damlamasi”.*

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qoʻshtirnoq ichida beriladi.

*“El-yurt hurmati” ordeni 1998-yil 28-avgustda taʼsis etildi. Professor Q.Gʻ.Abdullayev “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan xalq taʼlimi xodimi” faxriy unvoni bilan mukofotlandi.*

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qoʻshtirnoq ichida beriladi.

*1995-yilning 6-may kuni “Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida”gi Qonuniga oʻzgartirishlar kiritish haqida “ Qonun qabul qilindi.*

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qoʻshtirnoq ichida beriladi.

*9-“B” sinfi “Quvnoqlar va zukkolar” bahsida gʻolib chiqdi. Oʻqituvchimiz bugungi javobimga “besh” baho qoʻydi.*

**Ikki nuqta va uning qoʻllanilishi** - Ikki nuqta oʻzbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan eʼtiboran ishlatila boshlangan.

U quyidagi oʻrinlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinchisining uzviy davomi sanalgan bogʻlovchisiz qoʻshma gaplardan soʻng.

*Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga oʻtmabdi, odamlarga kerakli ekanman, hayotda iz qoldiribman. (A.Qahhor)*

2. Koʻchirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan soʻng.

*Bundan soʻng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yoʻldanoq tanchada oʻtiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:*

- *Sir ochildi! (A.Qodiriy)*

3. Uyushiq boʻlaklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi soʻzdan keyin.

*O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog‘i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.*

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so‘zlardan so‘ng.

*Mavzu: “Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni”.*

*Yuqoridagilar asosida yig‘ilish qaror qabul qildi:*

*I. Jamoaning Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.*

*II. Navro‘z - umumxalq bayramini ko‘tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.*

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta‘minlash maqsadida turli xil rasmiy ma‘lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so‘zlardan keyin.

*Toshkentda “Mustaqil O‘zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari” mavzusida uchinchi an‘anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.*

6. Sport musobaqalarida raqiblar o‘rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun.

*Sidneydagi XXVII Yozgi Olimpiada o‘yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27:21 hisobi bilan yengdi.*

*“Andijon” va “Paxtakor” jamoalari o‘rtasidagi o‘yin durang natija bilan tugadi - 2:2.*

*Hisob-kitob ishida bo‘luv alomati sanaladi - 50: 2= 25*

**Nuqtali vergul va uning qo‘llanilish o‘rinlari** - Nuqtali vergul o‘zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi.

U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi.

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo‘lmagan hollarda.

*Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o‘quvchining ko‘z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o‘ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o‘zining jafokashligi, g‘ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg‘urishi bilan sazovor bo‘lgan bir chol keladi.*  
(A.Qahhor)

2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

*Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg‘armani selga berma, elga ber!*

*Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham;*

*Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.*

3. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin.

*Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshog‘lar, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuv tillarangda; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.*

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandidan tashqari har bir bandi oxirida.

*Otabek timsoliga tavsif:*

*a) Otabek - o‘qimishli, o‘z davrining yetuk kishisi;*

*b) Otabek - mard va jasur yigit;*

*c) Otabek - o‘z ahdiga sodiq, vafoli yor.*

**Tinish belgilarining qo‘shaloq holda ishlatilish o‘rinlari** - O‘zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma’nomlarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo‘shaloq qo‘llash hollari ham uchrab turadi. Ularning qo‘llanilishidagi asosiy o‘rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq gaplar oxirida so‘roq va undov belgilari ketma-ket qo‘yiladi.

- *Axir, ablah, - derdi Yunus, - birovning uyiga oyog‘ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg‘atgani ibo qilmaysan?! (A.Qahhor)*

2. So‘roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo‘yilishi mumkin. *Ey, purviqor tog‘lar! Nega jimsizlar, nega!!! (A.Cho‘lpon)*

3. So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi.

*“Ertaga ! - deya xotirjam dilidan o‘tkazdi va birdan to‘xtadi - xo‘sh, ertaga nima bo‘ladi?..” (N.Qilichev) Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:*

- *Topdi -mm!.. Topdi-im!.. (Sh.Bo‘tayev).*

4. Muallif gapi va ko‘chirma gaplar o‘rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin.

*“Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi”, deb yozgan edi A.Qahhor.*

**Nasriy asarlarni ifodali o‘qish** - Nasriy asarlarni ifodali o‘qish ham katta mahorat talab qiladi. Chunki, adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda oldinga surilgan fikrlar yozuvchi dunyoqarashi kabi muhim masalalari aniqlashda ifodali o‘qish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun o‘qituvchi matnni tanlashda juda ehtiyot bo‘lmog‘i lozim. Matn yuqori saviyaga, yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan, shu bilan bir qatorda ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lmog‘i kerak. Olingan parcha hajm jihatidan ham katta bo‘lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, matnda dialognutqni o‘stirish, badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini chuqur tushunish, obrazlar tizimini o‘rganish, umuman yozuvchining hayotga bo‘lgan munosabatini anglash kabi ifodali o‘qish darslari oldiga qo‘yiladigan qator talablarga javob berishi mumkin. Nasriy asarlarni ifodali o‘qishni hamma yaqin va oson bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiga mansub ertakdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

**Ertaklarni ifodali o‘qish:** Ertak xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biri hisoblanadi. Unda fantaziya va mubolag‘a kuchli bo‘lib, xalq hayoti, urf-odatlari, intilish va kurashlari, orzu-armonlari aks ettiriladi. Shunisi xarakterliki, deyarli barcha ertaklar asosida ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi keskin kurash turadi va albatta, ezgulik tantanasi bilan yakunlanadi.

Ertaklarni ifodali o‘qishdan oldin, o‘zbek xalq ertaklarida turli-tuman shaklda ishlatiladigan (traditsion) an’anaviy muqaddima namunalardan misollar keltirilib, ularning bir-biridan farqi tushuntiriladi. Masalan “Tulki bilan tovus” ertagining muqaddimasiga diqqat qiling. “Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg‘ovul qizil

ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, ola qarg'a azonchi, qora qarg'a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rag'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasavul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor..."

O'zbek xalq ertaklaridan "Oypari"ning muqaddimasi undan farq qiladi: "Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan, o'tgan zamonlarning birida Xusanboy ismli kambag'al bir bechora yigit bo'lgan ekan, uning yotarga joyi ham yo'q ekan. U tug'ulib o'sgan qishlog'idagi eski masjidning hujrasida yotib yurar ekan". E'tibor berilsa, ikkala ertakning muhaddimasi ham boshqacha-boshqacha o'qilishini sezish qiyin emas. Masalan, birinchi ertak muqaddimasi sajda yozilganligi uchun ifodali o'qiganda ritmga ham katta e'tibor beriladi: "Ertagi yo ertagi echkilarning burtagi"

Ikkinchi ertak muqaddimasi esa undan butunlay farq qiladi: "Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan..." Bu parcha xuddi muallif bayoni kabi vazmin o'qiladi.

Ertaklarning bunday xilma-xil an'anaviy muqaddimalari talabalarga to'g'ri o'qib ko'rsatilsa, ularning butun fikri-hayoli jalb etiladi, asar mazmuniga bo'lgan qiziqishlari tutib turiladi. Masalan, "Uch og'a-ini botirlar" ertagining o'qilishiga e'tibor qiling.

"Bir bor ekan (qisqa pauza), bir yo'q ekan (qisqa pauza), qadim zamonda (pauza) bir kishi bo'lgan ekan (pauza). Uning uchta o'g'li bor ekan (qisqa pauza), uchovi ham o'qigan (qisqa pauza), oq qorani tanigan (qisqa pauza), yuzlari oyday (qisqa pauza) o'zlari toyday (qisqa pauza) yomon bilan yurmagan (qisqa pauza), yomon joyda turmagan ekan (pauza). To'ng'ich yigirma bir yoshda (qisqa pauza), o'rtanchasi – o'n sakkiz yoshda (qisqa pauza), kenchasi – o'n olti yoshda ekan (pauza)".

To'ng'ichi o'rtanchasi va kenjasi kabi so'zlarni o'qiyotganda mantiqiy urg'u beriladi, bu so'zlardan so'ng tire bo'lganligi uchun qisqa bir pauza qilinadi.

"Otasi (qisqa pauza) bir kuni bularni o'z oldiga chaqirib (qisqa pauza) har birining peshanasidan silab (kichik pauza), bunday debdi (pauza):

O'g'illarim (qisqa pauza), men boy emasman (qisqa pauza), mendan qolgan narsalar (qisqa pauza) sizning turmushingiz uchun yetmaydi (qisqa pauza), endi

mendan biror narsa umid qilib o'tirmanglar (pauza). O'lganimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar (qisqa pauza), deb sizlarni o'qitdim (qisqa pauza), boqdim ko'rdim (qisqa pauza), voyaga yetkazdim (qisqa pauza), quvvatli bo'ldingizlar (qisqa pauza), yarog' ushlashni o'rgatdim (qisqa pauza), yarog' ishlatishga usta bo'ldingizlar (qisqa pauza), qo'rqitmay o'stirdim (qisqa pauza), botir bo'ldingizlar (pauza) yana uch narsani aytaman (qisqa pauza), uloqlaringizga olib (qisqa pauza), eslaringizdan chiqarmanglar, (pauza): to'g'ri bo'ling – (pauza) bexavotir bo'lasiz (pauza). Maqtanchoq bo'lmang (pauza) uyatga qolmaysiz (pauza). Dangasa bo'lmang – (pauza) baxtsiz bo'lmaysiz (pauza). Bundan boshqasini endi o'zingiz biling (pauza). Qoratoyni (qisqa pauza), saman toyni (qisqa pauza), ko'k toyni asboblari bilan tayyorlab qo'ydim (pauza). Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'lg'izdim (pauza). Baxtingiz yo'lda (qisqa pauza), uni topib olmoq uchun safarga chiqingiz (qisqa pauza) dunyoni tanimay (qisqa pauza) dunyo kishisi bo'lmaysiz (pauza). Baxt qushini ushlamoq uchun (qisqa pauza) baxt oviga chiqinglar (pauza). Xayr endi (qisqa pauza), o'g'illarim – deb so'zini tamom qilibdi (pauza).

Bu matnda mehribon otaning – qariyaning sevimli farzandlariga qilayotgan nasihati sezilib turishi kerak. Ota so'zidagi yarog' ushlashni o'rgatdim, qo'rqitmay o'stirdim, to'g'ri bo'ling, maqtanchoq, qora toyni, saman toyni, ko'k toyni kabi so'zlar xuddi yuqorida ko'rsatilgandek, alohida ta'kidlab, urg'u berib o'qilsa, ertak g'oyaviy mazmunining tinglovchi qalbiga borib yetishi osonlashadi.

**Hikoyalarni ifodali o'qish:** Hikoya epik turning kichik janri bo'lib kishi hayotidagi ma'lum bir voqeani tasvirleydi, ammo shu voqeaga qadar bo'lgan va undan keyin ro'y beradigan voqealarni batafsil bayon etmaydi. Shunisi xarakterliki, hikoyada qahramon hayotidan kichik bir epizodi olinib, unda hayotning muhim, tipik ko'rinishi ixcham shaklda tasvirlanadi.

Hikoyani ifodali o'qishda bu janrning ana shu jihatlarini e'tiborga olishi, matndagi muallif nutqi, tabiat tasviri, dialoglar hamda qahramonning ichki kechinmalarini puxta o'rganishi lozim. Masalan, quyidagi Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasining o'qilishini ko'rib chiqaylik. bu hikoyada bir-biriga qarama-qarshi ikki sinf vakillari ishtirok etgan. Ularning ma'naviy qiyofasi ham, ijtimoiy

kelib chiqishlari ham tamoman bir-biriga qarshidir. Asarda Qobil bobo obrazi xonavayron bo'lgan dehqonlarning yorqin timsoli bo'lsa, amin, pristav va ellikboshilar hukmron sinfining tipik vakillari sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun o'qish jarayonida Qobil boboning nihoyatda soddaligi, amaldorlardan madad kutishi, ularga ishonch, xo'rlanganligi, amaldorlarning esa poraxo'rliigi, ikki yuzlamachiligi, fuqaroni mensimasligi ravshan sezilib turishi kerak. Shundagina tinglovchida Qobil boboga nisbatan achinish, mehr-muhabbat, amaldorlarga cheksiz nafrat tuyg'ulari uyg'onadi. Hikoyaning boshlanish qismi muallif tavsifi bo'lganligi uchun pauzalarga bo'lib quyidagicha o'qilishi mumkin:

“Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib (qisqa pauza), ho'kizdan xabar oldi (pauza). O (pauza)!.. Ho'kiz yo'q (qisqa pauza), og'il ko'cha tomondan teshilgan (pauza)... Dehqonning uyi kuysa kuysin (qisqa pauza), ho'kizi yo'qolmasin (pauza). Bir qop somon (qisqa pauza) o'n-o'n beshta xoda (qisqa pauza), bir arava qamish (pauza) uy (pauza). Ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi (pauza).

Odamlar dod ovozigga o'rganib qolgan (pauza): birovni eri uradi (qisqa pauza), birovning uyi xatga tushadi (pauza)... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi (pauza). Qobil bobo yalang bosh (qisqa pauza), yalang oyoq (qisqa pauza), yaktakchan og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi (qisqa pauza), tizzalari bukilib-bukilib ketadi (qisqa pauza), ko'zlari javdiraydi (qisqa pauza), hammaga qaraydi (qisqa pauza), ammo hech kimni ko'rmaydi (pauza). Xotinlar o'g'rini qarg'aydi (qisqa pauza), it huradi (qisqa pauza), tovuqlar qaqag'laydi (pauza). Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi (pauza).

Qobil boboning qo'shnisi (pauza) – burunsiz ellikboshi kirdi (pauza) U og'ilga kirib teshikni (qisqa pauza), ho'kiz bog'langan ustunni (qisqa pauza) diqqat bilan ko'zdan kechirdi (qisqa pauza); negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi (qisqa pauza), so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi (qisqa pauza):

- Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi (qisqa pauza), topiladi!

**Qissalarni (povestlarni) ifodali o‘qish:** Qissalarda bir emas, bir necha personajlar qatnashadi va ular bosh qahramon atrofida guruhlashadi.

Qissalarni ifodali o‘qishga kirishishidan avval ularning janr xususiyatlariga e’tibor berish zarur. Chunki qissalarning barchasini bir xilda o‘qib bo‘lmaydi. Masalan, avtobiografik qissalarda hayot osuda, osoyishta tasvir etiladi. Bunday asar mazmunidan kelib chiqqan holda osoyishta, shoshilmay o‘qiladi. Masalan:

Bolalikda ko‘rganlarim, eshitganlarim hammasi esimda. Ayrim hodisalar, xotiralar hozir ham quyoshdan bir tomchi kabi yalt etib ketadi hayolimda.

**Tayanch iboralar.** Badiiy-estetik, adabiyotshunos, taraqqiyot, qissago‘ylik, kulguli, navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, mashrabxonlik, bedilxonlik, nuqta, poeziya, so‘roq belgisi, undov belgisi, qavs, ko‘p nuqta, tire, qo‘shirnoq, nuqtali vergul, pauza.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nuqta va uning qo‘llanilishi.
2. Vergul va uning qo‘llanilishi.
3. So‘roq belgisi va uning qo‘llanilishi.
4. Undov belgisi va uning qo‘llanilishi.
5. Ko‘p nuqta va uning qo‘llanilishi.
6. Tire va uning ishlatilishi.
7. Qo‘shirnoq va uning qo‘llanilish o‘rinlari.
8. Ikki nuqta va uning qo‘llanilishi.
9. Nuqtali vergul va uning qo‘llanilish o‘rinlari.
10. Nasriy asarlarni ifodali o‘qish.
11. Ertaklarni ifodali o‘qish.
12. Hikoyalarni ifodali o‘qish.
13. Qissalarni (povestlarni) ifodali o‘qish.

## **TASAVVUR VA FANTAZIYA. TA'SIRCHAN SO'ZGA ERISHISH OMILLARI**

Insonni kamolotga yetkazishda uning ma'naviy olamini shakllantirish va o'stirishda san'atning barcha turlari va badiiy adabiyot bilan bir qatorda teatr san'ati ham alohida mavqega ega. Dunyoda sahna atalmish tilsim paydo bo'libdiki, u bilan bog'liq muhim omillar silsilasi insonlarni o'yga toldirib, mudom yangi izlanishlarga undaydi. Zotan, sahna san'ati talab etuvchi har bir omil doimo o'sish, rivojlanish, shakllanish hamda yangi joziba, yangi qiyofa namoyon etish jarayonida, kashfiyot yaratish darajasida bo'lishi lozim.

Teatr har bir milliy madaniyatning yuksalganligi va millatning balog'atga yetib ulg'ayganligini yaqqol ko'rsatib beruvchi oynadir. Teatr san'ati voqelikni san'atning ko'pgina turlari yordamida aks ettirib, uni har tomonlama harakat va rivojlanishida ta'sirchan qilib ko'rsatar ekan bir vaqtning o'zida ko'p sonli tomoshabinlarning ruhiy olamiga chuqur ko'rib boradi. Darhaqiqat, teatr san'ati minglab kishilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali, ularning ongiga, dunyoqarashi, estetik didini shakllantirishda ishtirok etadi.

Teatr san'atining o'ziga xos xususiyati shundaki, u dramaturg, aktyor, rejissyor, rassom, bastakor, raqqos va boshqa ko'plab san'atkorlar hamkorligi tufayli yuzaga chiqadi. Shu ijodkorlar orasida bir zot borki, u sahna san'atining tabiatini, mohiyatini belgilaydi. Bu aktyordir. Teatr san'ati maktabining asoschilaridan biri K.S.Stanislavskiy "Sahnaning yagona shohi va sultoni bu istedodli aktyordir"<sup>1</sup> – degan edi. Faqat aktyorgina o'z xatti-harakati va ijodiy tasavvuri bilan sahna asariga hayot baxsh etadi. Tomoshabinni hayajonlantirib o'zi yashayotgan voqelikka olib kiradi. Shuning uchun tomoshabin asosan aktyorlar ijodi orqali hayotda bo'lib o'tgan, bo'layotgan hamda bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarning qanday jonlantirganligini va voqealarning hamda undagi qatnashuvchi personajlar siymosini ko'rish, undan ma'naviy ozuqa, estetik zavq olish va madaniy hordiq chiqarish uchun teatrga boradi.

---

<sup>1</sup> K.S.Stanislavskiy "Aktyorning o'z ustida ishlashi"

Demak, aktyor teatr san'atida yetakchi rol o'ynaydi. Binobarin, teatr san'ati aktyor ijodi tufayli tomoshabinda ruhiy bir kuch, rang-barang taassurotlar uyg'otadi.

O'zbek milliy teatr san'atining yetakchilaridan biri, atoqli rejissyor Mannon Uyg'ur asarni sahnalashtirish davomida aktyorlardan stol atrofidagi o'qishdan boshlab so'zining ravon, sof talaffuz etishini talab qilish bilan birga, uning mazmundorligi, obrazlilikiga ham katta e'tibor berganligi bejiz emas. Zero, buning uchun aktyorning o'zi kuchli tasvirlash, ta'sirlanish, boshqacha qilib aytganda obraz yaratish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.

O'zbek milliy teatrining shakllanish pallasidan boshlab adabiy tilga, xususan o'zbek sahna nutqiga jiddiy yondashilganligi bizga ma'lum. Spektakllarning ko'p yillar yashashiga sahna asarining g'oyaviy jihatdan puxtaligi, spektakl rejissyorning pishiq va mukammal badiiy yechimi aktyorlar mahoratidagi serqirra va betakror ifodaviy vositalar, so'zning kuchi va qudratidandir. Ehtimol shuning uchun ham, qahramonlar siymosi tomoshabinlar xotirasida uzoq saqlanib, ularni ta'sirlantirib kelgan. Milliy teatr sahnasida yaratilgan bir qancha tarixiy asarlar ular she'riy yoki nasriy usulda bo'lsin, asarning tili, sahna nutqi borasida ko'pgina chig'iriqlardan o'tgan, aytish mumkinki bugungi kundagi teatrning monumental, badiiy-g'oyaviy jihatdan yetuk spektakllaridagi sahna nutqining mukammalligi, teatr san'ati jonkuyarlari Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonovlar an'analari mahsulidir.

O'zbekiston xalq artisti, professor Nazira Aliyeva "San'at – mening hayotim" monografiyasida shunday ta'kidlaydi: "O'sha paytlarda to so'z to'la – to'kis o'zlashtirilmaguncha sirayam mezansenaga o'tilmas edi. Chunki mezansenaga chiqqanda, aktyor ko'proq o'z xarakatlari, ularni aniq bir maqsadga, obrazning mohiyatini asarning g'oyasini to'g'ri ochishga yo'naltirish haqida o'ylaydi, xullas, so'z va uning tub mohiyati nutqning sermazmun va jozibadorligi haqida o'ylashga vaqti va imkoniyati qolmaydi"<sup>1</sup>. Professor Lola Xo'jayeva ham o'zining teatrdagi ijodiy faoliyati davomida bunga amin bo'lganligini shunday e'tirof etadi "O'zbek Milliy Akademik drama teatrining birinchi va ikkinchi bo'g'iniga mansub A.Hidoyatov, S.Eshonto'rayeva, O.Xo'jayev, A.Turdiyev, N.Rahimov, Q.Xo'jayev,

---

<sup>1</sup> N.Aliyeva. "San'at-mening hayotim" 194-bet

O.Jalilov, M.Yusupov, X.Xo‘jayeva, M.Umarxo‘jayev, G‘.A‘zamov, Z.Sadriyeva, T.Sultonova, I.Boltayeva, M.Yoqubova singari san‘atkorlarning jozibali va mazmundor so‘zi, ravon va burro nutqi, jarangdor va betakror ovozlari teatr rejissyorlari va o‘zbek adabiy tilining jonkuyarlari Mannon Uyg‘ur va Yetim Bobojonovlarning talaffuz va so‘z ustida ishlash tajribasi spektaklning to‘laqonli badiiy mukammalikka erishish yo‘lidagi bosh omil hisoblangan”.<sup>1</sup>

1948-yil Milliy teatrda rejissyorlari Mannon Uyg‘ur va Nazira Aliyeva tomonidan sahnalashtirilgan “Alisher Navoiy” spektaklining ijodiy guruhida bevosita so‘z ustida ishlashning barcha jarayonlarini ko‘zdan kechirgan mutaxassis sifatida Nazira Aliyeva shunday deydi: “Alisher Navoiy” spektaklini o‘zbek sahna nutqi shakllanishining xal qiluvchi, yagona til va talaffuz sari burilish nuqtasi, deb dadil ta’kidlash mumkin”.<sup>2</sup> Har bir qahramonning xulq-atvoriga, ijtimoiy mavqeiga mos so‘zlash mahorati, sahnaviy keng diapozondagi jarangdor ovoz, unga monand intonatsiyasini topa bilish, Mannon Uyg‘urdek xassos rejissyorning aynan sahna nutqiga bo‘lgan e’tibori, talabi va izchil ishlashi spektaklning badiiy yetuk darajada jaranglashi, hayotiyliigi va ta’sirchanligi bizga ibrat maktabi bo‘lib qolaveradi.

Istiqlol sharofati bilan Respublikamiz teatrlari sahnasida tarixiy mavzudagi asarlarga murojaat etish, tarixiy shaxslar; davlat arboblari, shonli sarkardalar, adiblar va shoirlarning mashaqqatli va chigalliklarga to‘la hayotini yoritib o‘tmishga oid chinakam haqiqatni ochib berishga bag‘ishlangan asarlarga murojaat qilishdek xayrli ishlar kuzatilmoqda. O‘zbek Milliy akademik drama teatrida Zulxumor Soliyeva qalamiga mansub “Uvaysiy” nomli tarixiy drama rejissyor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artsit Valijon Umarov tomonidan sahnalashtirildi. Spektakl premyerasidan so‘ng san‘atshunos olimlar, adaiyotshunoslar va tarixchilar tomonidan matbuot sahifalarida, televideniye va radioda asar haqidagi tahliliy–tanqidiy fikr–mulohazalar bildirildi. Ushbu spektaklning stol atrofidagi o‘qishdan boshlab to jamoatchilikka taqdim etilishigacha nutq maslahatchisi sifatida ishtirok etib, so‘z ustida ishlash va uni mukammal talqin etish jarayonidagi bugungi kunda sahnaviy nutqda sodir

---

<sup>1</sup> L.Xo‘jayeva. Videotasmadagi yozuv. 2005 - yil

<sup>2</sup> N.Aliyeva. “San‘at-mening hayotim” 265-bet

etilayotgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida asarning sahnaviy tili ustidagi ijodiy jarayonga chuqur e'tibor qaratilib, talaffuz, so'z xatti-harakati, personajlarning nutqiy xarakterlari ustida ishlandi. Ish jarayonida nutq texnikasiga oid mashqlar har kuni repetitsiyagacha aktyorlar guruhiga muntazam ravishda o'tkazildi.

Ma'lumki asar shoira Uvaysiyning hayot yo'liga bag'ishlanganligi bois unda aruzda yozilgan g'azallar, fardlar, ruboiylar mavjud. Mumtoz she'riyatimizning ulug' vakillari aruzda bitilgan ash'orlari bilan el e'tiborini qozonganlar. Sahnalashtirish jarayonining ilk pallasidanoq aruz vaznining qoidalari, tabiati, lug'aviy so'zlar ma'nosi, xijolar talaffuzidagi o'ziga xoslik, xullas ushbu tizimining barcha yo'l-yo'riqlari, mohiyati haqida tugal bilim va tushunchalarga ega bo'lish zarurati albatta aktyorlar zimmasida edi. Yuqorida aytib o'tganimizdek asar syujeti, spektakl voqealari ko'pchilikka ma'lum. Biz e'tibor qaratadigan asosiy omil bu qahramonlar xarakteri xususiyatlari va ularning to'laqonli talqin etilishidadir. Asar qahramoni Uvaysiyning birinchidan mehribon ona qiyofasida ko'ramiz. Qolaversa zamondosh shoira dilkash Nodirabegim bilan bo'lgan suhbatlarida, shoir Zamoniyy bilan g'azallar o'qish sahnalarida ham aruz qoidalari rioya qilgan holda rejissyor qo'ygan vazifani to'la ado etishni kuzatamiz. Ikkinchidan esa saroydagi fitnalardan mamlakatdagi sodir bo'layotgan jangu-jadallardan norozi kayfiyatda o'qigan ruboiy yoki g'azaldagi so'zlarda Uvaysiyning elu-yurti odamlarga bo'lgan kuyunchakligi, uning tinchiligi yo'lidagi shashtu-shijoatida namoyon bo'ladi. Uchinchidan esa ayollarga xos latofat, ibo, shirinsuxanlik xislatlari aktrisaning (S.Rametova) o'z qahramoni xarakteri qirralarini to'la ochib bera olganligidadir. To'g'ri spektaklda lirik lavhalar bilan boyitilgan sahnalar mavjud, lekin uning zamirida xalqqa nisbatan ko'rsatilgan jabrusitamlarga yo'g'rilgan ko'rinishlar bor. Bularni oddiy g'azal o'qish bilan yoki mushoira davrasida yechimini topib bo'lmaydi. Bu borada pyesani rollarga bo'lib o'qish va personajlar tahlili jarayonida o'sha davr tilidagi so'zlar aktyorlarga bir muncha qiyinchilik tug'dirsada, takror va betinim repetitsiyalar davomida she'riy va nasriy dialoglar, monologlarni, ziddiyatli to'qnashuvlardagi keskin holatlarni ta'sirchan tarzda talqin etildi. Bunga yana bir misol birinchi sahnadagi Shayxul Islom

(T.Mo‘minov), Qozi Kalon (P.Nosirov)lar Vazir (R.Avazov)ni ikki tomondan siquvga olib uyushtirilgan fitna asosida tuzilgan hujjatga muhr bostirish sahnasida yorqin ishonarli ifoda etilgan. Taxt uchun kechayotgan kurashlarda saroy ayonlarining maxfiy rejaları asosidagi xatti-harakatlari va uni amalga oshirishdagi yuzsizliklari, keskin xarakterlar orqali ifoda etiladi. Vazirning qabix ishga muhr bosishga vijdonan qiynalib turganida Qozi bir silkinishda “Qani bo‘ling” degandek jarangdor tarzda “Hmmm...” tovushi orqali shiddat bilan aytilgan buyruq ishorasi vazirni esankiratib titroq barmog‘i bilan muhr bosishga majbur etadi. Yana bir lavha ushbu muhr oqibati ayanchli va dahshatli ekanligini so‘zsiz xolatda shunday ta’sirchan ifoda etadiki, to‘g‘rirog‘i bir yoki ikki daqiqalik sukutda O‘zbekiston xalq artisti Rixsivoy Avazov o‘zining to‘liq ichki holatini jismda mujassam eta olganligini his etamiz.

Amir Umarxonning opasi Oychipopuk obrazini (M.Xoliqova) cho‘rtkesar, takabbur, shaxsiyatparast ayol sifatida yoritgan. U har bir so‘zini kibr va viqor hamda sovuqqonlik bilan ta’kidlaydi. Uning bu xakteri asar personajlar orasidagi ziddiyatlar shitobini kuchaytiradi. Oychipopuk keskin maqsadlar ichiga yashiringan rejalarini yashirishga uringan silliq xatti-harakati, qarashlari bilan saroyda o‘zining mavqei, hukmbardor yagona xonzoda, o‘g‘lining taxt vorisi etish yo‘lida xech qanday qabihlikdan tap tortmasligini ta’kidlaganday bo‘ladi. Aktrisa xar galgi repititsiyaga o‘z qahramonidagi yangi qirralarni topa bildi. O‘sha davr saroy ayollar uchun deyarli bir xil rusumda bo‘lgan libosi, u yaratgan xulq atvorga mosligini ta’kidlash joiz. Nodirabegim, Uvaysiy va boshqa ayol qahramonlar xolatiga voqealar ketma-ketligiga qarab bir-ikki bor liboslar o‘zgartiriladi. Lirik sahnalarda, dard-alamli ko‘rinishlarda liboslarning rangi ham voqealarga mos tarzda tanlangan. Oychipopukda esa libos uning qo‘polligi va kibrliligi bois, go‘yoki qo‘rg‘oshindan tikilgandek og‘ir va sovuq ko‘rinadi. Uvaysiyini saroydan ketishga majbur etishi jarayonida aytgan so‘zlari, saroy qizlari uchun uning saboqlari va mushoiralari mutlaqo keraksiz ekanligini uqdirishi, tuhmat yog‘dirib avrash xolatlarida esa uning o‘zi, o‘tkir ko‘z qarashi hech qanday jismoniy xarakatsiz, faqat so‘zi bilan shoirani abgor qilishga qaratilgan oliy maqsadini amalga oshirish chog‘ida uning libosi ham

o‘zi ham “zaharli ilon” qiyofasiga kirgandek. O‘zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqovanning teatr repertuaridagi ayrim spektakllarda, teleseriallarda, badiiy filmlarda yaratgan zamonaviy obrazlarida insonlarda uchraydigan turli nuqsonlar va kamchiliklarni yengil kulgi ostiga olib, qahramonining samimiy, dilkash ayol, ba’zida esa sho‘x-shaddodlikka yo‘g‘rilgan xajviy xarakterini to‘la namoyon qilaganini ko‘ramiz. Oychipopuk obrazidagi ishonarli va ta’sirchan, o‘tkir, keskir xarakterni yuzaga chiqishi, eng avvalo xonzodaning maslag-maqsadini aniq belgilab, uni o‘ziga singdira olishdek zargarona, ijodiy izlanishlar mahoratiga bog‘liq. Albatta aktyorning obraz dardu–dunyosi bilan bog‘liq, uning yashash tarzi kasb-kori, kiyinishi, yuz va gavda tuzilishi, gapirishi, qadam tashlashi umuman olganda, tashqi ko‘rinishi haqidagi to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi, u yaratayotgan obrazning xarakter chizgilarini yanada jonlantiradi va boyitadi.

Spektakl taqdimotidan keyin bo‘lib o‘tgan jamoatchilik muhokamasida ishtirok etgan teatr tanqidchilari, adabiyotshunos olimlar tomonidan asardagi mavzuning yoritilishi voqealarning izchilligi va mantiqiy bog‘lanishida ju’ziy kamchiliklar borligi e’tirof etildi. Ammo ijodiy guruh tarixiy dramaning g‘oyaviy–tarbiyaviy ta’sirchanligini oshirish uchun muallifning maqsadi va g‘oyasidan kelib chiqib qahramonlar xarakteridagi ziddiyatli o‘zgarishlarni mustahkamlashda, ularning o‘ziga xos bo‘lgan xarakter chizgilarini ochishdagi ijodiy izlanishlari o‘zining ijodiy samarasini berdi.

Bo‘lajak san’atkorlarga nutq texnikasi va so‘z ustida ishlashni hamda uning rivojlantirib, shakllanib borish bosqichlarini o‘rgatuvchi, tadqiq va tadbiiq etuvchi talabanning nutqi ustida ishlab, uni barcha nuqsonlarni bartaraf etib, ravon holga keltirishga va ta’sirchan ijroga erishishga xizmat qiluvchi “Sahna nutqi” fani o‘qitiladi. Talabalar “Sahna nutqi” fanining nazariy-amaliy jihatdan boy va ta’sirchan bo‘lgan qiziqarli, murakkab hamda riyozatli ulkan bir ijodiy jarayonini bosib o‘tadilar. Sahna nutqi teatr san’atining ajralmas qismi va aktyorlik mahoratining asosiy ifoda vositasi sanalar ekan, u doimo san’atkorning diqqat markazida bo‘lishi, ijro jarayonining eng muhim obykti sifatida ijodiy izlanishlar silsilasining barcha chig‘iriqlarida toblanishi, musaffo va sof holga keltirilishi lozim.

Sahnada soʻzning qadri, vazifasi, yuki hayotdagidan koʻra bir necha marotaba ortishini, uni tomoshabinga aniq va tushunarli yetkazib berish nechogʻli ahamiyatli ekanligini his qilgan pedagog ham, talaba ham sahnaviy taʼsirchan nutq masalasiga eng ustivor jihatlardan biri, “soʻz-sahna sanʼatining qon tomiri” ekanligiga amal qilib yondashmogʻi lozim. Soʻz ustida ishlash jarayonida har bir asar gʻoyaviy mazmunini, voqea-hodisalar rivojidadagi mantiqiy izchillikni, personajlar xarakterini ochishda, uning yukini oydinlashtirishni maqsad qilgan holda badiiy asar matnini oʻrganishi va oʻzlashtirishga katta ahamiyat qaratish kerak. Matndagi har bir soʻzning nima uchun aytilayotganini, muayyan soʻz zamirida yashirin fikrlarni topib urgʻu berish, har bir jumlaning yoki tugallangan boʻlakning tag maʼnosi va maqsadini aniq belgilash kerak. Maʼlumki, talabaning soʻz ustida ishlash ijodiy jarayonining ilk bosqichi bu tasviriy adabiy parchalar hisoblanadi. Kichkina bir manzara yaratishga qoʻyilgan talablar yaʼni koʻrish, his etish, munosabat bildirish kabi elementlar, keyingi bosqichda kam voqeali yoki toʻliq voqeali, tugallangan asar boʻlsin nutq texnikasining barcha unsurlari qatori, aktyor muallif gʻoyasi, mavzuning dolzarbligi, oliy maqsad, yetakchi xatti-harakat kabi tahliliy jarayonlarini, toʻgʻri talqin qila olish malakasiga ega boʻlishi kerak. Shundagina aktyor badiiy soʻz mukammalligiga, qolaversa spektakl sahnalashtirishda soʻz ustida ishlashning barcha bosqichlarida oʻzi mustaqil ijod qilish koʻnikmasiga erishadi. Yuqorida nomlari zikr etilgan oʻzbek sahna nutqi maktabi jonkuyarlarining professional teatr sanʼatida amalga oshirgan mustahkam anʼanasini saqlash va uni bugungi kun teatr sanʼati, xususan sahna nutqiga tadbiiq etish, sanʼat taʼlimi istiqbolini belgilaydi.

Sanʼat uchun eng muhim boʻlgan narsa insoniy fazilatlar bilan sidqidildan mehnat qilishdir. Sahnada xarakterlar - obrazlar yaratishga intilayotgan, tinimsiz ijod qilayotgan aktyor va rejissyor har soatda, qolaversa, har daqiqada oʻz imkoniyatlarini his qilib, ochilmagan qirralarini kashf qilib borishga intilishi lozim. Bu ham ijodkorning xarakteriga bogʻliq masala albatta.

Tasavvur va fantaziyani ishga solish, avvalo aktyorning kelajakda professional teatr sahnasida turli xil xarakterlar yaratishda muhim oʻrin tutadi. Uni yuqori kurslarda oʻtish lozim, degan fikr juda notoʻgʻri. Chunki boʻlajak aktyorning

tasavvuri uning ilk qadamidanoq kengayib borishi kerak. Fantaziya ham tasavvur bilan birga mashqlar yordamida, qolaversa, xalq dostonlarini ko‘plab o‘qish bilan o‘stirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Xarakter – maqsadga erishish uchun kuchli intilish – kurashda qaror topadi, talant – sekin-asta yetiladi, xarakter esa hayot to‘fonlarida toblanadi. Xarakter nimaga qodir bo‘lsang shuni ro‘yobga chiqazishdan iboratdir” - Gyotening aytgan buyuk fikrlari keng mushohada qilinsa, badiiy adabiyotda yaratilgan qahramonlar xarakterlari aynan ana shu falsafaga amal qilib yaratilganliga, aynan shuning uchun ham kishilar qalbidan o‘chmas iz qoldirgan asar qahramonlarini yaratilganligini bilish mumkin.

O‘zbek teatri tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk aktyorlar ko‘plab tomoshabinlarning qalbida yaratgan obrazlarining ma‘lum qiyofalari bilan muhrlanib qolgan. Tomoshabin asarning sahnaviy talqinini tomosha qilar ekan, ijro etayotgan aktyorning hayoti, ijtimoiy kelib chiqishi haqida aniq ma‘lumotlarga ega bo‘lmasligi mumkin, biroq uning yaratgan obrazi, kiyinish madaniyati, qiyofasi, ovozi, sehrli nutqiy ifodalari bilan uzoq vaqt qalbida saqlanib, unutilmas xotira bo‘lib qolishi tabiiy. Aktyor o‘z ustida ishlab, rolni obraz darajasiga olib chiqishda, avvalo dramaturg yaratgan obrazning qay darajada yaratilganini aniqlash lozim. Ijro etish jarayonida agar mahoratli aktyor bo‘lsa, oddiy personajni ham obraz darajasiga olib chiqishi mumkin. Chunki aktyor obraz yaratish texnologiyalarin professional darajada o‘zlashtirgan bo‘ladi. Professional aktyorgina asardagi xarakterlarni o‘z o‘rniga qo‘yib o‘ynay oladi.

Xarakter grekcha – xaktere – belgi, alohida xususiyat, o‘ziga xoslik so‘zlaridan kelib chiqqan. (xolerik, melonxolik, sangvinik, flegmatik).

Adabiy xarakterlar badiiy adabiyotda ham hayotdagi insonlar xarakterining ko‘chirmasi, kopiyasi bo‘lmaydi, balki unda ijodkorning fantaziyasi, tasavvuri bilan mujassamlashtirilgan bo‘ladi. Obraz tushunchasi xarakter tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ammo bu ikki termin o‘ziga xos tafovutlarga ham egadir. Ana shu o‘ziga xosliklarni tushunmaslik ayrim xollarda obraz xarakter terminlarini aralashtirib ishlatishga olib keladi. Obraz xarakterga nisbatan keng tushuncha bo‘lib,

xarakter obrazning mukammallashtirgan, turli xususiyatlari, aniq ko‘rinib turgan, individual xususiyatlar kashf etilgan obrazdir. Har qanday obraz xarakter bo‘la olmaydi. Ammo har qanday xarakter obraz bo‘la oladi. Demak, xarakter o‘zining boshqalardan farqlanuvchi individual xususiyatlarga muayyan, qat’iy, ifodaviy yo‘nalishga ega bo‘lgan obrazdir.

Xarakterlarning g‘oyat mukammallashtirgan ko‘rinishining, ya’ni xarakterga xos xususiyatlarini butun to‘laligi bilan aks ettiruvchi individuallashtirilgan shaxs obrazi deb ataladi. Xarakter yaratish oson ish emas, ayniqsa milliy xarakterlar yaratish o‘ta mushkul masala. Milliy xarakterlar yaratish bir paytlar katta muammoga aylanib qolgan edi. Tomoshabinlar teatrga umuman bormay qo‘ygan bir paytlar ham bo‘ldi. Teatrlarda sahna asarlari asosan Yevropa asarlaridan iborat bo‘lib qolgandi. Xalqning esa teatr sahnasida milliy asarlarni ko‘rigisi kelardi. Teatr jamoasi bunday holatga rozi bo‘lib o‘tirgani yo‘q, respublikaning turli chekka qishloqlari, shaharlariga gastrol safarlariga borib, spektakllar o‘ynadilar. Bunday hollarda albatta teatr sahna qonun-qoidalari buziladi. Effekt yo‘qoladi. Spektakl yoki tomoshabinning qadr-qimmatini saaviyasiga putur yetadi. Buni hamma mutaxassis yaxshi biladi..

Stanislavskiy – gastrol safarlariga qurilgan teatrdan tomoshabin uzoqlashib boraveradi, degan edi. Gastrollarda aktyorlar teatr sahnasidagi kabi berilib o‘ynamaydi. Tomoshabin syujet tomosha qilishi mumkin. Tomoshabin ko‘z o‘ngida muhit, davr, kechinma san’ati yo‘qoladi. Faqat aktyorlarning uyini, u ham bo‘lsa to‘liq ijro etilmaydi. Bunday ishdan yuzakilik kelib chiqadi. Aktyorni sahnada ko‘rgan tomoshabin yaratgan obrazi orqali yaxshi ko‘rib qolishi kerak. Aktyor uchun yaxshi yoki yomon degan gap bo‘lmaydi. U o‘z intilishlari bilan yaratgan obrazi orqali tomoshabinni o‘ziga rom qilib oladi va shunday bo‘lishi kerak.

Aktyor tarbiyalash jarayonida guruhlariga bo‘lib ishlash juda yaxshi natija beradi. Guruhlar bir xil vazifani bajarsalar-da, dunyoqarashi, tasavvuri o‘ziga xosligi bois, yondashuv boshqacha bo‘ladi, qiziqarli bo‘ladi. Bu ijodiy yondashuvdir. Yana shunisi muhimki, bir guruhni ikkinchi guruh kuzatib o‘tirsan, kamchiliklar yaqqol ko‘rinadi va bu kamchilikni ular takrorlamasligi uchun o‘z ustida puxta ishlashadi. Vazifalarni bajarish jarayonida yangiliklar topadilar. Professor Lola Xo‘jayeva har

doim talabalarga bir savolni ko'p berar edi. "Repititsiya – bu nima?" O'zi javob beradi: "Repititsiya – bu yangilikka intilish. Ijodkor o'z ustida ishlaganida hech qachon bir xil narsani takrorlamaslik kerak. Maqsad va vazifalardan chiqib ketmagan holda topilmalarga erishish kerak. Bu albatta yangilik bo'lishi kerak". L.Xo'jayeva ish jarayonida yangilikni bolalarning tashabbuskorligi tufayli sodir bo'lishini xohlar edi. Guruhning ichida izlanuvchi bolani ajratib olib, uni albatta yangi vazifalar yuklash bilan rag'batlantirar edi. Qolgan talabalarga uni o'rnak qilib ko'rsatar edi. Aktyor sahnada rejissyordan yangi vazifa olsa, undan baxtli inson yo'qday tuyuladi. Bu haq narsa.

"Shukur Burxonov faqat emotsiya bilan ishlab tomoshabinga milliy xarakter taqdim qila olgan. U yaratgan Sulaymon otani qarang. Bu qaysi maktab, u butun vujudi bilan obrazga kirishadi. Qahramon qiyofasiga kirganda uning Shukur Burxonov ekanini butkul unutasiz. Mirzo Ulug'bek obrazida ham shunday. Vanya tog'a obrazi-chi? O'xo'!". San'atshunoslik fanlari doktori, Davlat mukofoti sovrindori, professor Muhsin Qodirov xarakter yaratishda buyuk aktyorlarning tayangan metodlari to'g'risida so'raganimda javobni aynan mana shu gaplardan boshladi. "Olim Xo'jayevning ijrosi Shukur Burxonovdan tubdan farq qiladi. Uning nutqida, xarakterida realistik ruhiyat ko'proq sezilardi. Qudrat Xo'jayevning ijrosi esa ko'proq Stanislavskiy maktabiga yaqin. U dars berib yurgan kezlarida ham teatr bilan bog'lab, talaba tarbiyalar edi. 1930 yillarda Mannon Uyg'ur studiyachilar bilan Moskvaga borganda Vaxtangovning shogirdlarini qo'liga tushgan. Bu ham ularning baxti edi. Vaxtangovning maktabi, Stanislavskiy maktabidan ancha farq qiladi.. O'zbek aktyorlarining haqiqiy ehtiros bilan etgan ijrolari tufayli o'zbek maktabida o'sish paydo bo'ldi. O'zbek aktyorlik san'ati maktabi ko'proq tasavvuf bilan bog'liq. Men shunday xulosa qilaman, agar sinchiklab bugungi ijrolarni kuzatsak, ijro masalasida ancha orqaga ketish bor. Teatrlarda yengillik bilan ijro etishlar paydo bo'ldi. Haqiqiy ijrolar kam".

San'at dargohida ta'lim tarbiya uyg'unligi tarbiya olayotgan aktyorga eng avvalo tartib-intizom qoidalariga qat'iy rioya qilish o'rgatiladi. Dunyoda aktyorlik maktablari juda ko'p Kiyinish madaniyati, so'zlashish madaniyati, ayniqsa adabiy til

meyorlariga qat'iy rioya qilish – bularning barchasi fazilatlarini oshirishga xizmat qiladi. Aktyor uchun eng kerakli narsa tashabbuskorlik.

Respublika teatrlarida sahnalashtirilayotgan sahna asarlarida qahramon xarakterini yaratish masalasida dramaturgiyada ham, rejissurada ham va aktyorlik san'atida ham qator muammolar mavjud. Rejissyor uslubi, aktyorlar bilan ishlash jarayoni, aktyorning rol ustida ishlashi murakkab bosqichlardan iborat ekanligi ma'lum. Shuning uchun bu teatr san'ati bo'yicha ko'riladigan masalalar asta-sekinlik bilan tahlil etilishi zarur. Bunday yondashuv sahna asarlarini har tomonlama mukammal yaratilishiga va tomoshabinni uzoq yillar davomida larzaga solib kelishiga sabab bo'ladi. Ammo keyingi yillarda sahna asarlariga yozilayotgan taqrizlar, tahliliy maqolalar teatr san'atiga yordam berish uchun emas, mualliflar o'z maqolalarini ko'paytirish uchun umumiy fikrdan nariga o'tolmay yozilayotganidek tuyuladi. Maqola va taqrizlarda spektaklning, chuqur tahliliga emas, umumiy tarzda yoritish holatlari ko'p uchramoqda. Shuning uchun bo'lsa kerak, bir vaqtning o'zida dramaturgiyani ham, rejissurani ham, aktyorlar ijrosini ham, rassom ishini ham tilga olib, yuzaki tanqid qilishlar natijasida yuzaga kelgan taqriz va maqolalar teatr jamoasini qanoatlantirmaydi. Aslini olib qaraganda yuqorida sanab o'tilgan dramaturgiyani, rejissurani va aktyorlik mahorati va rassom ishini yaxshi chuqur bilgan holda tahlil qilinsa, foydasi ko'proq bo'ladi.

Sahnada qahramon xarakterini yaratishning asosiy vositalari so'z, jest, harakat, grim va libosdir. Bu vositalar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ayniqsa, aktyor ijrosida so'z va harakat uyg'unligi chuqur o'rganiladigan masaladir. Bugungi kunda aktyorlik san'ati ko'pchilikning nazarida “eng oson kasb” sanalib, sahna maydoniga qobiliyati bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar o'ta mas'uliyatsizlik bilan kirib kelmoqda. Bunday holatni ko'proq kinoda kuzatish mumkin. Ammo teatr sahnalarida havaskorlarning ko'payib borayotgani professional teatrlarning saviyasiga putur yetkazishga sabab bo'lmoqda. Sahnada aktyor tomonidan so'zning buzilishi, notabiiy, ishonchsiz harakatlar qilinishi ham aktyorning aktyorlik san'atidan yiroqligidan yoki kasbni yaxshi o'zlashtirmaganidan darak beradi. Aslida san'at aktyordan tinimsiz mehnatni talab qiladigan soha. U mehnat aql va bilim orqali amalga oshiriladi. Undan tashqari

artistlik tabiati o‘zining kuchli, asoslangan qonunlariga ega. Buyuk artistlar rol ustida ishlaganda oddiy qiziqish va tahminlarga emas, aynan ijrochilikda sinalgan va o‘zgarmas qonunlarga amal qilgan holda izlanganlar va o‘z yo‘llarini topib, muvaffaqiyatlarga erishganlar. Turli xarakterlar yaratish bilan tomoshabin qalbida o‘chmas iz qoldirgan Abror Hidoyatov, Olim Xo‘jayev, Obid Jalilov, Shukur Burxonov, Razzoq Hamroyev, Sora Eshonto‘rayeva, Zamira Hidoyatova, Zaynab Sadriyeva, G‘ani A‘zamov, Yoqub Ahmedov, To‘lqin Tojiyev, Obid Yunusov, Erkin Komilov kabi ko‘plab aktyorlar shular jumlasidandir. Bu aktyorlar talanti bo‘lishiga qaramay xarakter yaratishda eng muhim ifoda vositalari bo‘lgan so‘z va harakatni yuzaga kelish qonunlarini yaxshi o‘zlashtirganlar. Tinimsiz mehnatlari tufayli tomoshabinlarda teatr san‘atiga xos bo‘lgan estetik zavq, ehtirosli kechinmalar uyg‘ota olishgan. Ular tomoshabin bilan muloqot qila olish sirlarini, qonunlarini juda yaxshi bilishgan, tomoshabinni o‘tmish va bugungi kunning badiiylashgan ma’lumotlariga ega bo‘lishiga, ong-bilimlarini oshirishga, madaniy saviyasini ko‘tarishga yordam berishgan.

Bugungi kunda-chi? Talantlar ko‘p, ammo ular orasida mehnatkash, fidoiylari kam. Ijodda oson yo‘ldan ketib, obro‘ olmoqchi bo‘lishadi. Izlanishni yomon ko‘radi. Yuzakilik bilan uch-to‘rt tomoshabinning nazariga tushgan “omad egalari” orqasidan ergashadi.

Aktyorlar tarbiyalashda ellik yildan ortiq vaqt davomida o‘qitiladigan “Sahna nutqi”, “Aktyorlik mahorati” fanlaridan o‘ziga xos tajribada sinalgan uslubiyat qonun-qoidalariga ega. Sahna nutqidan nutq texnikasi, ya’ni artikulyatsiya, diksiya, ovoz ustidagi mashg‘ulotlarga pedagog tomonidan juda ko‘p vaqt sarflanadi. Bo‘lajak aktyorlarning nutqida juda ko‘p kamchiliklar mavjud. Ular bilan ishlaganda nutqiy kamchiliklarni tuzatish, bilim ko‘nikmalarni oshirish jarayonlariga talaba tomonidan emas, pedagog tomonidan ko‘p kuch sarflanmoqda. Chunki pedagog agar fanning birinchi - texnika qismi yaxshi ishlanmasa, ikkinchi – repertuar ustida, badiiy so‘z ustida ishlash foydasiz ekanligini va bu ham ijod qonunlaridan biri ekanini yaxshi biladi. Rol ustida ishlaganda diksiya va ovozdan foydalanish yo‘llari, so‘zning qudrati, intonatsiyasi, harakatda partnyor bilan muloqot qilish yo‘llarini o‘rgatishga

afsuski, kam vaqt qoladi. Aktyor bu kamchilik bilan teatrga boradi. Teatrda ham sifat orqaga ketadi.

Ijrochilikdagi bunday kamchiliklar albatta o'z vaqtida bartaraf qilinmog'i zarur. Nima bo'lganda ham pedagog natija yaxshi bo'lishi uchun izlanishdan to'xtamaslik kerak.

Bugungi yosh-aktyorlarni tarbiyalashda qahramon xarakterini yaratishga o'rgatishda aktyorlar bilan quyidagi uch bosqichda ishlagan ma'qul. *Birinchi*dan, sahna nutqi texnologiyalarini o'rgatishda mukammal uslublardan foydalanish, diplom spektakllarda uning samarali natijasiga erishish, *ikkinchi*dan, aktyorlik mahorati, notiqlik san'ati, sahna nutqi madaniyati an'analari, buyuk teatr arboblari tajribalarini singdirish, *uchinchi*dan teatr sohasi muammolarini anglashda ilmiy-tadqiqot ishlarini doimiy olib borish, bunga yosh tadqiqotchilarni jalb etish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga, ya'ni professional teatrlarga joriy etish lozim. Bu bosqichlarni amalga oshirishda yoshlar-aktyorlarni kasbga qiziqtiradigan uslublardan foydalanilsa, kam vaqt ichida ko'p natijalarni qo'lga kiritish mumkin. Masalan, ovoz, tovushlar talaffuzining mohiyati, ularning artikulyatsiyasi, ovozni boshqarish bo'yicha bir qator texnik mashqlar amalga oshirilishi joriy qilingan. U hech qanday harakatsiz, quruq talaffuz qilish orqali amalga oshiriladi. Bu hozirgi yoshlarni zeriktiradi. Unli va undosh tovushlarning to'g'ri talaffuzini ta'minlashga yordam beruvchi kompleks mashqlar va etyudlardan foydalanish, arqondan sakrab, koptokchani yerga uloqtirib sanamalar aytish, taburetka bilan ishlashning turli qonunlariga bo'ysintirilgan usullar bilan she'rlar o'qish, aytishuvlar, tez aytish va maqollarni ravon gapirish juda yaxshi natijalarni bermoqda. Bundan tashqari etyudlardan ham unumli foydalanish mumkin. Bu etyudlar xarakter yaratishda va talabalarni qiziqishini oshishiga, o'z ustida ko'proq ishlashiga yordam bermoqda. Bularda misol tariqasida bir necha aktyorlik san'ati unsurlarini qamrab olgan yangi etyud texnologiyalarini keltirish mumkin.

Nafasni diafragma olib, "myayavv, myayavv" tovushi orqali nafas chiqariladi. Mushuklar yana nafas olib, kerishib, endi uxlamochi bo'lganlarida, ularning eng yomon ko'rgan sheriklari qarshilarida namoyon bo'ladilar. Ular birdan xurpayadilar. Ya'ni yelkalari ko'tarilib, boshini quyi tushiradilar va urishishga

tayyorlanadilar. Qarama-qarshi turgan mushuklar jangga kirishadi. Har qadamida “myayavvv!” tovushini talaffuz qilib raqiblariga yaqinlashadilar. Yaqinlashganida uchinchi mushuk ularga “myav, myav!” tovushini urishishni istamagan, ularni janjaldan to‘xtatish ohangida murojaat qiladi. Mushuklar jahldan tushadilar. Bu bir qarashda oson etyudday tuyuladi, ammo bu etyud bir semestr ishlanadi.

Artist bajarayotgan va tomoshabin ko‘rib o‘tirgan hamma narsa haqiqat tuyg‘usi bilan sug‘orilgan va ma‘qullangan bo‘lmog‘i shart, degan qonun bor. Mashq davomida aktyorlar nihoyatda voqeaga ishonishi, ko‘z qarashi va talaffuzning, ya‘ni tovushning ravonligiga ahamiyat berishi, sharoitni his qilishi, muskullarning bo‘shligini sezishi kerak. Uning ustiga har bir talaba o‘zi xarakter topa olishi lozim.

Uchinchi kursda “Mushuklar” etyudida nazarga tushgan qobiliyatli talabada “Yago” monologini o‘qimoqchi bo‘ldi. Aktyor ijroni xohlayapti-yu, ammo so‘zlarining ifodasi nihoyatda ishonarsiz chiqyapti. Yagoning pastkashligi, xuddi iblisday nayrangbozligi aktyorda namoyon bo‘lmadi. Uch oy ishladi, natija yo‘q. Keyin unga men (birinchi kurs, ikkinchi semestrda) bajargan “Mushuk” etyudini eslashga majbur qildim. Yaxshi bajardi. Endi uni mushuk emas, xamelion bo‘lishga majbur qildim. Avvaliga o‘ylanib qoldi. Bir yil oldin bajargan ishini esladi. Auditoriyada 4-5 daqiqa jimlik bo‘ldi. Talaba darrov holatga kirib, birdan o‘zgardi, u sahnani chir aylanib, ko‘zlarini katta-katta qilib, qadamlarini ham sekinlik, ammo dahshatli yurishlarini ham o‘xshata oldi. Xamelionning nihoyatda aqlli, lekin oliyjanob va insoniy fazilatlarni ko‘ra olmaydigan pastkashligini, nima bo‘lsa ham ishonuvchan Otelloning rashkini qo‘zg‘atib, maqsadida uning xonasi oldida reja tuzishga majburladim. Hayvon holatini egallab turgan holda uni ixtiyorsiz ravishda Yagoning monologini boshlab ketdi. So‘zning tug‘ilishiga to‘g‘i topilgan harakat yordam berdi. Talabalar qarsak chalib yubordi.

“Aktyor plastik san’atkordir. U o‘z san’atining yoki hunarining texnikasini o‘rganmay turib, hech qachon san’atkor u yoqda tursin, hattoki yaxshi kosib ham bo‘la olmaydi”, - degan edi Stanislavskiy tizimini mukammal o‘rgangan va dramaturgiyasida betaktor xarakterlar yaratgan buyuk rus dramaturgi N.Ostrovskiy. Darhaqiqat, qobiliyatli kishi bo‘lishi mumkin, ammo artistlik mustahkam tarbiya,

mashaqqatli mehnat, texnikani jiddiy egallashi orqali yuzaga keladi. To‘laqonli aktyor partnyor bilan munosabatta bo‘lganida uning xarakteri va ovoz ohangida shunday bir erkinlik sezilib turishi kerakki, uning maqsadga muvofiq o‘z tuyg‘u, munosabatlari rol doirasida ishonarli bo‘lsin. Asl sahna mahorati ham shundan iborat, faqat shugina qalblarni ruhlantiruvchi, uni maftun etuvchi estetik lazzat baxsh etadi. Tomoshabin aktyorning o‘zi sahnada gavdalantirayotgan odamning hayotini to‘la-to‘kis yaxlit bir tarzda boshidan kechirganini ko‘rib tursagina u teatrdan haqiqiy lazzat oladi. Pedagog ana shuning uchun ham izlanishga majbur. Talantiga ishonib yurgan dangasa, ishyoqmas talaba etyudlar jarayonida kutilmaganda o‘z qirralarini yanada boyitishi mumkin.

Xulosa qilib aytiladigan bo‘lsa, bugungi kunda yetuk asarlar va ularning jo‘yali talqinlari qatorida meyoriga yetmagan asarlarning va spektakllarning xom-xatalalari ham ko‘payib ketganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Dramaturgiya, rejissura, ayniqsa, aktyorning ijrochilik mahorati, sahna nutqi, notqlik san’ati, sahnadagi nutq madaniyati borasidagi qator muammolar mutaxassislar nazaridan mutloqo chetda qolib ketmoqda. Ovoz jarangi imkoniyatlarini mustahkamlash (qaytarg‘ichlar, rezonatorlar) sonor tovushlari, birikmalari bilan amalga oshiriladigan mashqlarni o‘zlashtirish, ovoz diapazonining kengligi, o‘zgaruvchanligi, pastki, o‘rta va yuqori qatlamlardagi jarangi va tembrini hosil qilishga erishishi, sahna nutqi mahoratini egallashda uslub va vositalardan foydalanish bilan birga tahlil orqali yangi asarlar majmuasi ustida ishlashga ko‘nikma hosil qilish kabilar alohida tadqiqotni talab etadi. Shu bilan birga bu texnologiyalar tarixini, zaruriy tomonlarini zamonaviy ilmiy-uslubiy adabiyotlar asosida o‘rganish, muntazam o‘z ustida ishlash zarurligini bilish sahna ijodkorligining muhim shartlarini belgilab beradi.

**Tayanch iboralar.** Fantaziya, xarakter, sahnaviy talqin, mahorat, obraz, mukammalashgan, effekt, tanqid, rejissura, jest, harakat, grim.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savolllar:**

1. Fantaziya haqida tushuncha.

2. Tasavvur haqida tushuncha.
3. Tasavvurning fantaziya bilan bog'liq jihatlari.
4. Tasavvur va fantaziya orqali so'zning ta'sirchanligini oshirish usullari.

## **ADABIY PARCHALAR USTIDA ISHLASHNING ILK BOSQICHLARI**

Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari avvalo insonning fikr va tasavvuri asosida tizimli jonlangan soʻz taʼsirchanligida talabaning fikrlash salohiyati, intellekti, diqqati, xohishi, intilishi, qiziqishlari, yetuklik darajasi, eʼtibori, irodasi, maqsadlari, madaniyati, maʼnaviyati, aql-zakovati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bular uning iqtidorini belgilovchi ijodiy imkoniyatlarining koʻzguvidir. U ijro mahoratidagi oʻziga hos ijodiy jarayon boʻlib, soʻz sanʼatining koʻpqirrali, katta tarbiyaviy vazifalari bilan birga, jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi, yetaklovchi omillaridan biridir.

Hayotdagi turli narsa va xodisalar, voqealar, taraqqiyot yoki tanazzul, yuksalish yoki parchalanish, ziddiyatlarda inson omilining taʼsirini inkor qila olmaymiz. Aksincha inson bu narsalarga daxldor va daxldorligini oʻz tabiati, xislati, isteʼdodi, irodasi, maqsadi, eʼtiqodi yoki munosabatini soʻz bilan ifodalashi, yoki targʻib qilishi sabab oʻz faoliyatida turli davralarda muomila, muloqot jarayonlarida soʻzning qudrati va taʼsirchan kuchiga tayanadi.

Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari fikr va jonli soʻz taʼsirchanligi har bir insonda mukammal shakllanishi uchun qunt, iroda, sabot, xohish, vaqt va mehr zarur, soʻzdagi har bir maʼno, muddaoni his etishga va anglatishga boʻlgan doimiy ehtiyojni talab qiladi.

Adabiy parchalar tasavvur, fikr va jonli soʻz taʼsirchanligida soʻzning qudrati, jozibasi, sehrini egallash uchun nutqiy texnik majmualar, soʻz va soʻz ustida ishlashning asoslarini oʻzlashtirish hamda aniq fikr, tasavvur, xotira qamrovining mustahkamligi, faolligini rivojlantirib borish kerak boʻladi. Bilamizki, har bir yetuk shaxs, oʻz aql-zakovati, tafakkuri, mushohadasi, xohish irodasi, intilishlari bilan oʻz hayoti va faoliyati davomida samarali iz qoldirishga intiladi.

Bu oʻrinda ham soʻzning asl maʼnosi uning zamiridagi mazmun, fikr muddaoni ocha bilish va tinglovchiga yetkaza olishi alohida qunt talab qiladigan jarayondir. Bu hamisha oson va erkin ketavermaydi. Har bir insonning muomala va muloqot iqtidori,

erkinligi, faolligi, soʻzamollik, hozirjavoblik, oʻz fikrini yorqin, betakror, taʻsirchan tarzda ifoda qila olish layoqati va mahorati bilan bogʻliq. Soʻzda taʻsirchanlikka erishishga intilgan har bir talaba oʻzining soʻz xazinasini boyitishi, turli mavzular, voqealar, tafsilotlar, tasvirlar bilan oʻz soʻzining imkoniyatlarini mukammallashtirib borishi kerak.

Tabiiyki, bu oʻrinda talabaning nafas meʼyorlarining mustahkamligi va kengligi, ovozining shirasi, jarangdorligi, taʻsirchanlik kuchi hamda talaffuzining aniqligi, ravonligi, benuqsonligi, muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻz oʻrnida har bir soʻzning mazmuni, taʻsirchanligi, maqsadga boʻysintirilganlik vazifasida harakat va munosabat faolligini nazarda tutgan holda ijro qilinishi, vazifalari belgilanib, uning ijrodagi darajasi nazorat qilinishi, taʻsirchan soʻzning asosi boʻlgan fikr va munosabat taʻsirchanligini mustahkamlaydi. Oʻz oʻrnida turli tovushi talaffuzining sofligini taʻminlashga yetaklaydigan turli matnlar tuzilishi va uni takomillashtirib borgan holda talabalar bilan ishlash boʻlgʻusi ijodkor ijrochilarning soʻz boyligi, xotirasi soʻzning mazmuni, vazifasi, yuki, uning tasavvuridagi jilolarini oʻzlashtirishi, singdirishi va amaliy ijro taʻsirchanligini hamda xorijiy tillardagi geografik nomlarning talaffuzi, urgʻulanish oʻrinlarini mustahkamlashga qaratiladi.

Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari ustida ishlash jarayoni nutq texnikasining turli qatlamlarini qamrab olishi, ifodada aniqlik, ravonlik, taʻsirchanlikka erishish, munosabat va nutqiy tempo-ritmik mukammallikka erishishda, ijrochining diqqati, matnga qunt bilan yondoshishi barobarida unli va undosh, chalgʻituvchi, yondosh tovushlar doirasida ham tez va soz tushunarli, aniq, ravon talaffuz qilish masʼuliyatini yuklaydi. Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari soʻz taʻsirchanligida adabiy parchalarning vazifalari belgilanishi bilan bogʻliq. Maʼlumki, aktyorlik, rejissyorlik ijodiy tasavvurining boyligi, terangligi, ijodiy fantaziyasidagi rang-baranglik, uning tayyorlagan oddiy mashqlari, etyudlar, adabiy matnlarning badiiy toʻlaqonliligi bilan mustahkamlanadi. Biri birini toʻldiradi, tasavvur bilan yukingan, boyitilgan soʻzning salmogʻi, mazasi, taʻsirchanligi oshib, takomillashishiga asos boʻladi. Adabiy parcha haqida gap ketganda, avvalo, uning badiiy kommunikatsiya (badiiy muloqot) vositasi ekanligiga toʻxtalish joiz. Adabiy-

badiiy asar muloqot asosida dunyoga keladi, ya'ni ijod jarayoni moxiyatan muloqotdir.

Har bir badiiy asarda muallif g'oyasi va badiiy so'z ijrochisining qarashlari uyg'un ketishi lozim. Badiiy asarni o'qish jarayonida badiiy so'z ijrochisi bevosita tinglovchilar bilan muloqotga kirishishi lozim. Ya'ni u avvalo nima demoqchi ekanligini anglamog'i va uni kimga yetkazayotganini aniq bilishi lozim. Bu usuldan nafaqat sahnada balki radio va televideniya ham foydalaniladi.

Badiiy o'qish ta'sirchanligini oshirish uchun badiiy o'qish qoidalariga rioya qilish lozim:

- birinchidan, ifodali o'qish qoidalariga rioya qilish, ya'ni tinish belgilari, to'g'ri talaffuzni amalga oshirish lozim. Ifodali nutq asoslarini egallashning muhim shartlari quyidagilar:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulyatsiyasi va aniq diksiya malakasini egallash.
3. Adabiy talaffuz me'yorlarini egallash.

Bunga misol qilib kichik hajmdagi ushbu adabiy parchani olamiz:

“Uyini yangitdan bezashni istagan bir yapon taxta devorning bitta tomonini olib tashladi. Yaponlarning uylari odatda taxta yoki gipsdan ishlanadi, ikkitasi yonma-yon qo'yiladi va o'rta ozgina bo'sh joy tashlanadi.

U devorning birinchi qismini buzib olgach, bo'sh joyda oyog'ini mix qisib qolgan kaltakesakni ko'rib, xayron bo'ldi. Chunki bu mix taxminan 10 yilcha oldin, uyning qurilishida qoqilgan edi. Shuncha vaqt davomida bu kaltakesak xech yerga qimirlay olmay qanday yashab qoldi ekan? Qorong'i devor orasida o'n yil joyidan jilmay yashaganiga ishongisi kelmasdi.

Odam boshqa ishlarini tashlab, kaltakesakni kuzata boshladi. Shunda qayerdandir boshqa bir kaltakesak paydo bo'ldi. Og'zida yegulik olib olib kelib, mixga qisilgan sherigiga berdi.

Bu manzarani ko'rib turgan kishi xayratdan yoqasini ushladi. Naxotki? Axir xayotning gultoji bo'lmish inson, oilasidan, yaqinlaridan mexr muxabbatini ayab

turgan zamonda, qandaydir bir kaltakesak, mixga qisilib, yarim jon bo‘lib qolgan sherigini tashlab ketmasa? Bu qanday mehr, qanday sevgi bo‘ldi?

“Ey odamlar! Ko‘nglingizdagi asl xazina – muhabbatni o‘ldirmang, sizni sevganlarni aslo tark etmang!” **E.Maxmudov “Inson qalbi”**

Ushbu qatrani o‘qiganda, avvalo, uning mazmunini, yozuvchi bu asari bilan nima demoqchi ekanligini, uning tarbiyaviy ahamiyati qanday ekanligini tushunib olmoq darkor.

Har bir asarni o‘qish bilan barobar, uni talqin etishda badiiy so‘z ijrochisi, asar qaxramonlarining ruhiy xolati, kechinmalarini to‘la anglab yetmog‘i lozim. Ana shundagina badiiy o‘qish ta’sirchanligini oshirish mumkin.

Qayd etilgan fikrlar amalida so‘zning ifodaviy xususiyatlarini shakllantirish va mustahkamlashning muhim omillaridan biri ekanligini nazarda tutib amalda nutqning ifodaviy xususiyatlarini shakllantirish va mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida o‘zlashtirishimiz zarur.

Nutqning ifodaviyligida so‘zlar, jumlar, gap bo‘laklarining talaffuzida uzviylik, izchillik, aniqlik, ravonlik, tabiiylik, intonatsion ta’sirchanlikka erishiish uchun ayrim mashqlarni tavsiya qilamiz. Turli matnlar, jumlar, birikmalar tanlanib jamlandi. Fikr va falsafiy mushohada bilan ijro qilinadi hamda takroriy takomillashtiriladi. Maxsus tuzilgan turli so‘z birikmali, tovushlar hamda tez aytish yoki saj tizimidagi qofiyali tuzilmalar bilan adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlarida o‘rinli to‘ldirishi uchun tabiiy etilishi mumkin. Nutqini charxlashi, aniqlikka, tempo-ritmik o‘zgaruvchanlikka erishish uchun trening asosida muntazam takrorlab turish talab qilinadi.

Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlarda sodda, ixcham, ammo obrazli tasavvur uchun yorqin ifodaga ega badiiy matnlar tanlangani maqsadga muvofiq. Muhammad “Osmonning ohiri qayerda?” lavhasini ko‘ramiz.

-“Osmonning ohiri qayerda?, - dedim bir donishga, u miq etmadi. Menga juda yoqdi bu javob. Osmonning oxiri yo‘q axir. Irmoqning oxiri daryo, daryoning oxiri dengiz, osmonning oxiri yo‘q. Yo‘l chetida yumalab yotgan toshni tepdim. Toshdan sado chiqmadi. Xudoga soldim degani bu. Chumoli chumolining o‘ligini tashiydi.

Biya qulunidan ko‘z uzmay o‘tlaydi. Oqibat faqat odamlarda yetishmaydi. Yer odamni boqadi kiyintiradi. Odam esa bir kuni uni sahroga aylantiradi. Suv odamning mardikori, hosil beradi. Tegirmon yurgizadi. Odam uni o‘ylamaydi. Dunyodagi hamma narsa odamga yaqinlashishi bilan o‘zligini yo‘qotadi. Odam odamga yaqinlashganida ham topganidan yo‘qotgani ko‘proqdir. Oftob qayerga botadi, deyman bobomga. Osmonning oxiriga deydi u. Oftob osmonning oxiriga borib botmaydi, balki yig‘laydi. Dunyoning barcha yo‘llarning oxiri yig‘i. Odam yig‘i nimaligini anglab yetgunicha yaqinlari olamdan o‘tgan bo‘ladi. Bilib turib odamga ozor berishdan yomoni yo‘q. O‘zing ham bilmasdan birovga yaxshilik qilishdan ortiq yaxshilik yo‘q. Odam dunyoga bir marta keladi. Shu bir kalima so‘z bilan qancha savob ishlar qilish mumkin, shu bir kalima so‘z pinjida qancha gunohga botish mumkin.

*Tayanch iboralar. Notiq Dionis Galikarnas, axborot, asr, purhikmat satr, qadr, qimmat, zarra, Wolfgang Gyote, jamoa, ma’ruza, olqish, daraja, qanoat, tavsiya, mukammal, chiniqtirish, charxlash, faollashtirish, erkinlashtirish autotrening voqeali tuzilmalar ko‘nikmalar, mustahkam.*

***Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:***

1. Adabiy parchalarning vazifalari, o‘rni va ahamiyati?
2. Adabiy parchalar va ularning tahlili qanday amalga oshiriladi?
3. Asar muhitini o‘rganish va tasvir-ifodasining ahamiyati?

## **BARMOQ VAZNIDAGI SHE'RLARNING TAHLILIIY, NAZARIY VA AMALIY IJROVIY, USLUBIY HUSUSIYATLARI**

She'riy yo'l bilan yozilgan asarlar (poema, ruboiy, qo'shiq va boshqalar) poeziya (she'riyat) deb ataladi. She'r shartli nutqdir. She'rni shartli nutqqa aylantiruvchi omillar juda ko'p. Bu – o'lchov vazn, qofiya, band kabi she'riy mazmuni muayyan shaklda ifoda etuvchi vositalardir.

O'zbek she'riyatida, asosan ikki sistema – aruz sistemasi va barmoq sistemasi mavjud. She'riyatning barmoq sistemasi o'zbek poeziyasining eng qadimiy, eng ommaviy, eng xalqchil ko'rinishlaridandir. Barmoq sistemasini asosini hijo (bo'g'in)lar sonining bir xil takrorlanishini tashkil etadi, bo'g'inlar barmoqlar bilan sanalgani uchun barmoq sistemasi deb ataladi.

Barmoq sistemasida yozilgan she'rlarni dastlabki birligi hijodir (bo'g'indir). Qolgan barcha birliklar, ya'ni turoq, rukn va misralar ana shu asosiy birlik zaminida shakllanadi. Bu birlik vazni yuzaga keltiradi. Barmoq sistemasidagi she'rning vaznini aniqlashda uni har bir misradagi bo'g'in va turoqlar sonini aniqlanadi.

Turoq bo'g'inlardan tashkil topadi. She'rdagi har bir misrada ma'no, ritm va intanatsion jihatdan o'zaro birlashib, guruhlanib keladigan so'zlar birikmasi turoq deyiladi. Masalan:

Bo'yin cho'zib,

Qarag'ay,

Yon-atrofga

Qarag'ay.

Der u:

Barcha daraxtdan

Baland akang –

Qarag'ay.

Shu she'rni bo'g'in va turoqlasak quydagi holat yuzaga keladi.

Bo'-yin cho'-zib – 4 bo'g'in 1 turoq

Qa-ra-g'ay, – 3 bo'g'in 1 turoq

Yon-at-rof-ga – 4 bo‘g‘in 1 turoq

Qa-ra-g‘ay – 3 bo‘g‘in 1 turoq

Der-u bar – cha – 4 bo‘g‘in 1 turoq

da-raxt-dan – 3 bo‘g‘in 1 turoq

Ba-land ak-ang – 4 bo‘g‘in 1 turoq

Qa-ra-g‘ay – 3 bo‘g‘in 1 turoq

Demak bu she‘r birinchi band (kuplet) da bo‘g‘inlar a, b, a-b ya‘ni (4-3-4-3) bo‘lsa ikkinchi bandda ham shoir a, b, a, b (4-3-4-3) shaklda yozgan va bir turoqli. Bu she‘rni o‘qiganda ritmik vaziyati keyingi bandda ham o‘zgarmaydi. Chunki she‘rning bo‘g‘inlari va turoq birligi she‘r ritmini vujudga keltiradi.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyorlari talabalari bilan she‘r ustida ishlaganda she‘r tuzilishi qonuniyatini o‘zlashtirgach albatta hayvonlar, parrandalar, meva va sabzavotlar haqida she‘rlardan foydalanish kerak, chunki qo‘g‘irchoqda nutq ustida ish olib berilganda qo‘g‘irchoq orqali muloqat qilish shartligi asos bo‘lib qoladi. Mevalar, sabzavot, qushlar va hayvonlar haqida she‘rlar ustida ishlash bizning qo‘g‘irchoq teatrini o‘ziga xos tomoniga e‘tibor berishimiz kerakligidadir.

She‘r texnologiyasi o‘zlashtirgach uni o‘z yo‘nalishi bo‘yicha yondashish kasbga mukammal (professional) yondashishdir. Yana bir she‘rga e‘tiborni qaratamiz:

### *Ilon va tipratikan*

Vishillardi Ilon:

– Yolg‘iz shu o‘zimga,

Ishoning so‘zimga.

Bo‘ysunar izmimga,

Qo‘rqishadi mendan,

Hatto Sher, Arslon.

Qancha yostiqlarni,

Bir-birdan quritdim.

Yodimga ne kelsa,

Amrimni yuritdim.

Boshni qaltiratib,

Vishillardi Ilon.

Shu tob quyrug‘idan,

Sekin yeya boshladi,

Oddiy tipratikan...

6 bo‘g‘inli 1 turoqli she‘rdagi bu ko‘rinish uning ritmini bir xilda ekanini ko‘rsatadi.

Safo Ochilning “Ilon va tipratikon” she‘ri ustida ishlaganda ikki uch talabaning muomilasiga qo‘yish kerak. Buning uchun birinchi talaba qo‘g‘irchoq teatri tarixidagi “Korfarmon” vazifasini bajardi. “Korfarmon” degan so‘zning ma‘nosi ish boshi, boshqaruvchidir. Bu borada teatrshunos olim M.Qodirov shunday yozadi: “Chindan ham u tomoshani boshlaydi, boshqarib boradi va tugallaydi. Korfarmon “chodir-sahna” oldida, tomoshabinlarning shundaygina biqinida o‘tirib olib, surnay (yoki doira) chaladi, qo‘g‘irchoqlar bilan suhbatlashadi, voqeaga aralashadi, ularning qo‘shiqlariga jo‘r bo‘ladi va h.k. Har holda bir vaqtning o‘zida ikki funksiyani, ya‘ni ham sozanda, ham aktyorlik vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, qo‘g‘irchoq teatri korfarmoni o‘ziga xos rejissyor hamdir. U odatda chodir ichida (yoki ortida) turib, qo‘g‘irchoq chiqarib o‘ynatayotgan aktyorga nisbatan yaxshiroq, to‘liqroq biladi, lozim bo‘lsa tomoshabinga sezdirmasdan tuzatib turadi.

Korfarmon (odam) qo‘g‘irchoqlar voqeasiga bevosita aralashadi va oqibatda qo‘g‘irchoq spektaklining o‘ziga xos qahramoniga aylanadi».<sup>1</sup> Biz yuqoridagi oddiy masal ona she‘rni yuqoridagi qo‘g‘irchoq teatr an‘analari bo‘yicha ishlaymiz. Demak she‘rni qo‘g‘irchoq teatri kichik spektakliga aylantiramiz:

Korfarmon – **1-talaba** qo‘lida doira, doirani chalib:

– Vishillaydi ilon

Shirma ustida Ilonning makri (u yoq, bu yoqqa harakati. Ovoz chiqaradi, o‘zini juda erkin sezishi va impravizasion vishillagan ovoz chiqarishi kerak).

Shirma ortidan – **2-talaba** ovozi (aktyor). Ilonga taqlid qilib:

– Yolg‘iz shu o‘zimga,

---

<sup>1</sup>Qodirov M. Halq qo‘g‘irchoq teatri. –T., 1972. 111-b.

Ishoning so‘zimga xatti-harakati.

Bo‘ysunar izmimga zo‘rligiga ishontirish,

Qo‘rqishadi mendan,

Hatto Sher Arslon.

Korfarmon – **1-talaba** (jig‘iga tegib);

– Senga ishongan xatti-harakat

Halokatga uchraydi.

Senga ishonmayman

Sen kimu

She’r Arslon kim.

Ilon – **2-talaba**:

Qancha yostiqlarni xatti-harakati,

Bir-birdan quritdim.

Dalil-isbotlar keltirish,

Amrimni yuritdim.

Korfarmon – **1-talaba**:

– Boshni qaltiratib,

Vishillardi Ilon.

**3-talaba** Tipratikon (maketi):

Ilonning dumidan tishlab olib yeya boshlaydi. Ilon qancha urinmasin qutilishning iloji yo‘q. Harakatga monand imitasion ovozlari.

Korfarmon – **1-talaba** doirasini chalib:

Shu tob quyruq‘idan

Sekin yeya boshladi

Oddiy tipratikon...

Mana shunday she’rlar ustida ishlaganda xatti-harakatlar, taqlidlar, imitasiyalardan foydalaniladi. Murabbiy kezi kelganda ovoz, nafas, diksiya va talaffuzni nazorat qiladi. She’rdagi maqsad korfarmon maqtanchoqlik, manmanlik haqida hikoya qilmoqchi, uning oqibati haqida qanchalik ilon zo‘rligi haqida dalil

isbotlar keltirmasin, oxir-oqibat bir kichkina tipratikonga yengildi. Maqol: chiranma g'oz, hunaring oz.

Quyida bir necha hayvonlar to'g'risida she'rlardan namunalar beramiz.

### *Tuya va kuchuk*

Bir chekkada yolg'iz,  
Baxtliman deya,  
Yantoq yeb turardi,  
Beozor tuya.

Kuchukcha hurardi,

Do'q qilib unga.

Tuya dedi: – Nega

Hurasan menga?

Kuchuk javob qildi:

– Bu mening Ishim.

– Baribir qo'rqmayman,

– Bu sening ishing.

### *Sher va maymun*

Sher borardi mardona,  
Daraxtlarni oralab,  
Ustidan kuldi Maymun,  
Uni ko'p masxaralab.

Shu ish etardi davom,

Har kun, har oy muttasil.

Sherning g'ururi bor-da,

G'ururiga ketdi zil.

Shervoy quvdi,

Maymun-chi,

Qildi shoxlarni panoh.

Sher dedi: – Ha, tirrancha,

Bor ekan baxtingga shox.

## KICHIK VOQEALI BADIY MATNLAR, ERTAKLAR OLAMI

Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy yuksalishi yo'lidagi olamshumul taraqqiyot jarayonlari har bir sohada o'zining ibratli tamoyillarini namoyon qilmoqda.

“Mustaqillik biz uchun avvalo o'zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz-avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, gurur va iftixorimizni tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta'kidlash zarur”<sup>1</sup>.

Moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizning beqiyos boyligi bo'lgan Vatan va xalq manfaati, yurt obodonligi, ezgulik, inson haq-huquqlarining ustuvor ifodalanayotgani istiqbolimizning eng munavvar sharaflari yutuqlaridan biri ekanligiga shak-shubha yo'q.

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi<sup>2</sup>.

Targ'ibot-tashviqot, ma'rifat, ijtimoiy-siyosiy qarash va poklik bilan yo'g'rilgan san'at va madaniyatning eng sara namunalarida xalqimizga tomoshabinlarga taqdim etilayotgan san'at asarlaridan bugungi kun nafasi, talabi va mas'uliyati ufurib turganligini his etmoqdamiz.

Shuning uchun ham biz bugungi kunda teatr, kino, radio-televideniye, badiiy adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaryoshlik san'ati hamda matbuot, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, bir so'z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan ta'lim-tarbiyaning ta'sirchan ifodaviy faoliyatimizni rivojlanishda xalqning ma'naviy ehtiyojlari zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – B. 71. (304)

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 29-30. (176 b)

Zero Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o‘z umrini o‘tab bo‘lgan eski mustabid sovet tuzumidan voz kechib, jahon tajribasini har tomonlama puxta o‘rganish, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, milliy urf-odat va an‘analarimizni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash asosida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etishga azm-u qaror kildik”<sup>1</sup>.

Bugungi kun ma‘naviyati va madaniyatini, marifatini anglash, uning kelib chiqishiga, tarixiga nazar tashlashni, uning bunyodkor xalq ijodiga e‘tibor qaratish lozim ekanligini belgilaydi. Xalqimizda uzoq o‘tmishdan yosh avlodni insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash udum bo‘lgan. Bularning barchasi dono va oqilona aytilgan, yohud yozilgan So‘z orqali bizgacha yetib kelgan.

Har bir xalq madaniyati va ma‘naviyatining eng qadimiy ko‘rinishi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida o‘sha xalqning turmush tarzi, hayoti va yashashi davomida erishgan yutuq va muvaffaqiyatlari bo‘lgani kabi, o‘zbeklarda ham o‘zining qadimiyligi, purma‘noligi bilan ajralib turuvchi boy xalq og‘zaki ijodi durdonalari mavjud.

U xalq san‘atining boshqa turlaridan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san‘atidir. Bizga ma‘lumki xalq orasida mashhur bo‘lgan maddohlar, qalandarlar, roviylar, qissago‘ylar – og‘zaki ijrochilik janri namoyondalari bo‘lib, ijodiy bisotidagi badihago‘ylik asosida aytiladigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan og‘zaki so‘z san‘ati namunalarini, sayqallab, sohir ovozda, ifodali xatti-harakatlari bilan, ijrochi ijodkor sifatida nom qozona olganlar. Keyinchalik esa tomosha san‘atining rivojiga va so‘z san‘atining shakllanishiga munosib hissa qo‘shganlar.

Istiqlol davri teatr san‘atida ham aksariyat og‘zaki so‘z san‘ati janri hamda tomosha san‘atining ayrim unsurlari asosida yaratilgan spektakllarda boy va ta‘sirchan so‘z san‘ati namunalari – tomishmoq, matal, latifa kabilar bilan yanada ifodaviyligi oshirilgan deya olamiz.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – B. 125. (304)

Shu o‘rinda O‘zbek davlat milliy akademik teatrdan ushbu janr asosida sahnalashtirilgan – “Chimildiq”, “Qalliq o‘yin”, “Qirmizi olma” kabi spektakllar yurtimiz san‘atini dunyoga tanitib, Xalqaro teatr festivallarida ham sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan asarlardir.

Xalq og‘zaki ijodi haqida fan folklorshunoslik bo‘lib, uning asl o‘zagini folklor asarlari tashkil etadi.

**Folklor** – (ing. folk – xalq, lore – bilim, donolik) – xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi U.J.Toms olib kirgan. 1880-90-yillarda folklor termini ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo‘llana boshlagan. O‘zbekistonda dastlab, «og‘zaki adabiyot», «og‘iz adabiyoti» atamaları qo‘llangan. Folklor termini 30-yillarning o‘rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning «O‘zbek folklori» xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o‘zbek folklorshunosligida mustahkam o‘rin oldi<sup>1</sup>.

**Folklorizm** – yozma adabiyotda qo‘llangan og‘zaki poetik ijod materiali. Ilmiy adabiyotlarda folklorizm «ikkinchi shakl» atamasi bilan ham yuritiladi. Yozma adabiyotda muallif yoki personaj nutqida qo‘llangan xalq maqollari, matal hamda iboralar oddiy folklorizm sanaladi. Ijodkorning folklorga xos tasvir uslubiga ergashishi, folklor materialidan o‘z asarida foydalanishi, folklorga mansub syujet yoki motivni asariga olib kirishi va boshqalar murakkab folklorizm hisoblanadi. Asqad Muxtorning «Chinor», Turob To‘laning «Suyuk momo», Erkin Vohidovning «Ruhlar isyoni», Abdulla Oripovning «Qasam dara», O‘tkir Hoshimovning «Parvona kuni» kabi asarlarida folklorizmning yorqin namunalari bor. Folklorizmlar madaniy hayot rivojining hozirgi bosqichida adabiyot va san‘atning g‘oyaviy-badiiy jihatdan uzluksiz taraqqiyotini ta‘minlovchi bosh omilga aylandi<sup>2</sup>.

**Folklorshunoslik** – xalq ijodi haqidagi fan. Folklorshunoslik turli davrlarda va turli mamlakatlarda etnografiya, adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, antropologiya va sotsiologiyaning bir qismi sifatida qaralib kelingan. Keyinchalik xalq san‘atini (xalq og‘zaki ijodi, musiqa folklori, raqsi, teatri, sirki kabi) o‘rganuvchi mustaqil va

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 9-jild. To‘ychi Hofiz – Sharshara. Tahrir hay‘ati A.Azizxo‘jayev, B.Alimov, M.Aminov va b. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 278.

<sup>2</sup> O‘sha manba. – B. 278.

maxsus fan sifatida rivojlanadi. Filologiya va san'atshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir. Folklorshunoslikning asoslari qadimiy dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi dastlabki fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Turkiy xalqlarda folklor materiallarini yozib olish bo'yicha dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko'zga tashlanadi (Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asaridagi folklor materiallari). Shu bilan birga, yozuvchi va shoirlar tomonidan ertaklar, miflar, afsona va rivoyatlarni qayta ishlash jarayoni ham boshlandi. XVIII asr va XIX asr boshlarida folklorga nisbatan ilmiy qiziqishning kuchayishi, xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish jadal rivojlanishi bilan bog'liq holda uni chinakamiga o'rganish boshlandi. Natijada Yevropa va Rossiya folklorshunosligida turli yo'nalishlar, maktablar yuzaga keldi. Shunday maktablardan biri mifologik maktab bo'lib, folklor janrlarining yuzaga kelishini qadimgi miflarga bog'laydi. Ma'rifatparvarlar esa, folklorning demokratik va sinkretik xarakterini, undagi umuminsoniy va milliy xususiyatlar birligini o'rganishga aloqida e'tibor berdilar<sup>1</sup>.

XIX asr o'rtalaridan boshlab folklori ilmiy prinsiplar asosida to'plash va nashr etishning yanada kuchayishi folklorshunoslikda yangi yo'nalish – «sayyor syujetlar» nazariyasini yuzaga keltirdi. Bu nazariya tarafdorlari o'xshash syujet, motiv va obrazlardagi murakkab jarayonlarni hisobga olmay, ularni bir xalqdan ikkinchi xalqning shunchaki o'zlashtirishi, deb talqin qildilar. Antropologik maktab tarafdorlari esa, xalq ijodidagi o'xshash hodisalarni turli millat va irqning umumiyligi bilan izohlamoqchi bo'ldilar. Ijtimoiy hodisalarni bunday biologik qonunlar asosida tushuntirishga urinish hozirgi zamon folklorshunosligida turli-tuman oqimlarni (freydizm, neomifologizm va b.) yuzaga keltirdi. Folklori xalq tarixi bilan bog'liq holda o'rganishda tarixiy maktab vakillari katta ishlar qildilar. Folklor asarlari syujetlarining tarixiy-geografik tarqalish arealini belgilash, ularni

---

<sup>1</sup> O'sha manba. – B. 278-279.

tasniflash, sistemaga solish va kataloglashtirishda fin maktabi vakillari ham birmuncha yutuqlarga erishdilar<sup>1</sup>.

Hozirgi paytda dunyoning deyarli barcha mamlakatlaridagi tegishli institutlarda folklor sektorlari mavjud. Shuningdek, turli mamlakatlarda xalqaro yoki muayyan mintaqa bo'yicha har xil jamiyatlar ham bor. Masalan, YUNESKO huzuridagi Etnologiya va folklor xalqaro jamiyati, Xalq musiqasi xalqaro kengashi, Folklor o'rtoqlik jamiyati kabilar shunday ilmiy tashkilotlardir<sup>2</sup>.

O'zbek folklori namunalarini to'plash va nashr etish ishlari XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ahyon-ahyonda ko'zga tashlanib tursa-da (H.Vamberi, N.P.Ostroumov to'plamlari, «Hikoyati Go'ro'g'li sulton», «Yusuf bilan Ahmad» kabi nashrlar), uni chinakamiga to'plash va nashr etish ishlari 1919 yildan yo'lga qo'yila boshlandi. Yangicha yo'nalishda shakllana boshlagan o'zbek folklorshunosligining dastlabki bosqichi (1918-25-yillar) o'sha davr sharqshunosligi va o'lkashunosligi erishgan yutuqlarni izchillik bilan o'zlashtirishga intilish, folklor materiallarini jadal jamlash, xalq hayoti va maishiy turmushining barcha tomonlariga kirib borishga urinish bilan ajralib turadi. Bunda G'ozim Olim, G'ulom Zafariy va Elbeklarning faoliyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab yana ham jiddiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir kabi atoqli dostonchilar aniqlandi. Ular ijrosida birinchi marta epik asarlar to'la yozib olinib boshlandi, xalq san'atkorlariga ijodkor sifatida qarab, original kuzatishlar olib borildi. Bu ishda o'zbek folklorshunosligi o'zining mustahkam ilmiy yo'nalishiga ega bo'ldi, uning asosi yaratildi<sup>3</sup>.

30-yillarda folklorshunoslikka B.Karimov, Sh.Rajabov, M.Afzalov, M.Alaviya, Z.Husainova kabi folklorshunoslar kelib qo'shildilar. Folklorni to'plash va o'rganishga, bir qancha epik asarlar hamda xalq ijodi namunalarini nashr etishga alohida e'tibor berildi, folklor bo'yicha xrestomatiya va o'quv qo'llanmalari tuzildi. Bu davrda xalq teatri, raqsi va tomosha san'ati (sirki)ni o'rganish boshlandi. G'.Zafariy, A.Qodiriy, M.Gavrilov, A.Borovkov, A.Troitskaya va boshqalar bu

---

<sup>1</sup> O'sha manba. – B. 279.

<sup>2</sup> O'sha manba. – B. 279.

<sup>3</sup> O'sha manba. – B. 279.

sohada samarali ijod qildilar. Musiqa xalq san'atini o'rganishda esa V.Uspenskiy, YE.Romanovskaya, N.Mironov, Ilyos Akbarov, Yunus Rajabiy va boshqalarning hissalarini katta<sup>1</sup>.

Ikkinchi jahon urushi yillarida jangchilarni vatanparvarlik va qahramonlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi folklor asarlariga katta ahamiyat berilganligi bu davr folklorshunosligining muhim xususiyatidir. V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning «O'zbek xalq qahramonlik eposi» kitobi yaratildi va Moskvada nashr etildi (1947, mufassal bayoni 1958 yilda Germaniyada nemis tilida ham bosilib chiqdi)<sup>2</sup>.

60-yillarning oxirlaridan boshlab, xususan, mustaqillik yillarida folkloristik ishlarning miqyoslari yanada kengaydi, ekspeditsiyalar uyushtirish doimiy ravishda yo'lga qo'yildi, nisbatan yirik, miqyosan keng, fundamental ishlarni yaratishga intilish kuchaydi. Folklorning turli janrlariga bag'ishlangan monografiyalarning yaratilishi, «O'zbek folklori ocherklari», «O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar» nomida turkum to'plamlarning yuzaga kelishi, «O'zbek xalq ijodi», «Bulbul taronalari», «Alpomish» dostonining akademik nashri kabi ulkan nashrlarning amalga oshirilishi bunga yorqin misoldir. Bu ishlarni amalga oshirishda H.Razzoqov, T.G'oziboyev, O.Sobirov, J.Qobulniyozov, M.Saidov, M.Murodov, A.Qahhorov, X.Egamov, T.Mirzayev, K.Imomov, G'.Jalolov, B.Sarimsoqov, O.Safarov, S.Ro'zimboyev, M.Jo'rayev, A.Musaqulov kabi folklorshunoslarning hissasi nihoyatda katta bo'ldi. San'atshunos olimlar F.Karomatov, M.Qodirov, R.Abdullayevlar O'zbekistonda musiqa va teatr folklorshunoslikning rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqdalar<sup>3</sup>.

Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari folklor asarlar sifatida qaraladi.

---

<sup>1</sup> O'sha manba. – B. 279.

<sup>2</sup> O'sha manba. – B. 279.

<sup>3</sup> O'sha manba. – B. 279.

Biz soʻz sanʼati sirlarini oʻrganuvchi sohada ish yuritganimiz uchun maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qoʻshiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib olamiz, tahlil qilamiz.

Xalq ogʻzaki ijodini oʻrganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Folklorshunoslik hozirgi paytda adabiyotshunoslikning tarkibiy qismidir. Badiiy adabiyot xalq ogʻzaki ijodidan boshlanadi.

Xalq ogʻzaki ijodi badiiy adabiyotning tarkibiy qismidir. Asar matnini goʻzal qilib turadigan omil esa, koʻpincha, badiiy tasvir vositalariga bogʻliq. Badiiy tasvir vositalarini mutaxassislar “badiiy sanʼatlar”, “tasvir vositalari”, “sheʼr sanʼatlari” deb ham ataydilar. Ularning sifatlash, oʻxshatish, mubolagʻa kabi oʻnlab turlari mavjud.

Aslini olganda, har bir badiiy sanʼat namunasi ham oʻziga xos kashfiyot hisoblanadi. Ertakchi tasvirlayotgan malikaning goʻzalligini oʻn toʻrt kunlik oyga oʻxshatadi. Qiz shu qadar latofatga ega boʻladiki, kulsa, atrofga gul, yigʻlasa, dur sochiladi. U yurganida oyogʻi ostidagi izlar oʻrnidan rayhon, jambillar oʻsib chiqadi. Doston qahramonlari shu qadar jahldorki, gʻazabga toʻlganida moʻylovining ustini qirov bosadi, tikilganida togʻ-toshlar qumdek maydalanib ketadi.

Soʻz sanʼatining sahna ijrochiligi bilan bogʻliq boʻlgan jihatlarni teatr sanʼati, xususan sahna nutqi texnikasi va soʻz ustida ishlash tizimi yuzasidan koʻrib chiqamiz.

Teatr sanʼati taʼlimidagi aktyorlik mahorati saboqlari anʼanasida “Sahna nutqi” fani yetakchi va asosiy fanlar qatorida turadi. Fikrni aniq va ravon soʻz bilan ifoda etishda, hamda aktyorlik mahoratining barcha elementlarini shakllanishi jarayonida sahna nutqining ham salmoqli ulushi bor albatta. Aytish joiz-ki, soʻz sahna sanʼati ijrochiligining qon tomiri hisoblanadi.

Sahna nutqi fanining oʻqitish jarayonining ilk pallasidayoq, aktyorning nutq texnikasi ustida ishlab uni yoʻlga qoʻyishda, tovushlarni ravon talaffuz etishda artikulyatsiya, nafas, ovoz, talaffuz ritm va urgʻuni oʻz oʻrnida ishlata bilishda, tovushlar ohangdorligini taʼminlashda xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Turli maqsadlar, vazifalar tizimi bilan tuzilgan mashqlar va matnlar to‘plami nutqimizning ifodaviy jozibadorligi, mazmundorligi, betakrorligi, ta’sirchanligi uchun so‘zlar, iboralar, hikmatlar, xalq maqollarini tanlay bilishga, ularni kerakli o‘rinlarda mohirona ishlata olish, nutqimizdagi fikr, g‘oya, targ‘ibot, tashviqotni ishonarli tarzda taqdim qilinishiga yordam beradi.<sup>1</sup>

Tez aytishlar nutq tovushlarining uyg‘unligiga asoslangan janr bo‘lib, u yoki bu so‘z talaffuzida chalg‘ish, yoki tutilmaslik, o‘xshash tovushli so‘zlar yoki so‘z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishiga erishish kabi ko‘nikmani shakllantiradi.

Sizga yaxshi ma’lumki, nutq texnikasining ilk bosqichida oddiy tez aytishlardan foydalaniladi. Keyingi bosqichda esa murakkab tez aytishlar ustida ish ketadi. Nafasdan noto‘g‘ri foydalanish natijasida paydo bo‘ladigan nutqdagi palapartish, chala gapirishni tuzatish uchun avvalo nafas mashqlarini puxta egallash, undan so‘ng tez aytish mashqlari ustida ish olib borish mumkin.

Nafasni ravon olish va to‘g‘ri ishlatishni nafaqat tez aytish mashqlarida, balki sahna nutqi texnikasining barcha texnik mashqlarida kuzatib borib, turli xatti-harakatli mashqlardan foydalanish mumkin.

Nafasdan unumli foydalanish natijasida ovoz jaranglab turishiga, rang-barangligiga erishiladi. Tez aytishlarni mashq qilayotganda nutqiy burrolikka erishish bilan barobar, turli maqsadlar qo‘yib gapirish o‘rinlidir.

Masalan, mashqlardan biri ikki talaba ishtirokida bajariladi. Birinchi talaba sherigiga tez aytishni xushxabar tarzida aytsa, ikkinchi talaba bunga ishonmaydi, shuning natijasida birinchi talaba tez aytishni ta’sirliroq aytmoqchi bo‘lib, hijjalab o‘z maqsadini bajarmoqchi bo‘ladi va tez aytishni o‘zi avval shu xabardan xursand ekanligini bildirib yanada ta’sirchan tarzda hattoki bo‘g‘inlab aytadi, sherigi endi tushundi, xabar unga ham yoqdi.

Tez aytishni birinchi talabadan ham yuqori ko‘tarinkilikda baralla aytadi. Bunda ortiqcha baqiriqdan qochish kerak. Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchi talabaning ovozdan to‘g‘ri foydalanishini kuzatib borishi lozim.

---

<sup>1</sup> Djumanov I. Badiiy so‘z mahorati. T: Abu matbuot-Konsalt, 2015. – B. 117.

Nutqiy kamchiliklarini bartaraf etishda, yana shuni ta'kidlash kerakki, hayotiy nutqida tez gapirishi natijasida tovushlarning yamlanishi xollari uchraydi, bunda unli tovushni ham undosh tovushlarni ham mashq mobaynida so'z oxirigacha bo'rtirib aytish kerak.

Nutq a'zolarida nuqsoni bo'lmasa ham o'zi salmoqlanib gapiruvchi talabaga mantiqni buzmasdan tez aytishni tezligini oshirib mashq qilish vazifasi qo'yiladi. Tez aytishning mashq davomidagi barcha elementlarini o'zlashtirgan talaba tezlikni oshirib bir nafasda bir necha marta aytish imkoniyatiga ega bo'lishi, kelgusida dostonlar ustidagi ijodiy ishda sajlarni ijro qilish mobaynida nafasni uzun jumalarda ham yetkaza oladi.

Bo'lg'usi ijodkorlarning nutq sur'atini oshirishda, tassavur dunyosini kengaytirishda tez aytishlar bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodining boshqa bir qancha namunalaridan foydalanishning ham aktyorlik va rejissyorlik ta'limida muomala madaniyatini o'stirish, hozirjavoblik va zukkolikni, improvizatsiyani charxlash, nutqiy xarakter yaratishni ta'minlash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Yana bir janr – sanamalardir. Sanamalardan foydalanish bo'lg'usi aktyorlarda eng zarur bo'lgan diqqatni tarbiyalaydi. Sanamalar shunisi bilan talabalarni diqqat-e'tiborini o'ziga tortadiki, o'zlashtirilgan manbalarni jamlab kompozitsion holatga keltirgandan so'ng dastur boshlanishida guruh a'zolarini ham qaddi-qomatini tiklashda, partnyorini o'z joyida ekanligiga ishonch hosil qilishda muqaddima sifatida salmoqli o'rni bor.

Sanamalarda sanash ohangi qo'l yoki oyoq yordamida aytilib, ba'zan ishtirokchining biron kuyni og'zida chalinayotganda tasdiqlanib boradi. Sanamalardagi raqamlar to'g'ri burro talaffuzni ta'minlaydi, topilgan ritmik asosni o'yin davomida yo'qotmaslikni va aytilayotgan so'zlarni partnyorga uzatishda chalg'imaslikni ta'minlaydi.

Yuqoridagi va shunga o'xshash boshqa og'zaki so'z janrida tarbiyalash, so'z san'atiga mehrni oshirish bilan barobar, bo'lajak san'atkorlar tovushlarni toza talaffuziga, ifoda vositasining barcha elementlaridan to'liq foydalanishga, ritm, ovoz, nafas, xotira, muomala, munosabat, tassavvurini kengaytirishda, urg'ularni to'g'ri

ishlata bilishda, bir soʻz bilan aytganda, ogʻzaki soʻz sanʼati namunalari sahna nutqini takomillashtirishda ijodiy manbalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham nutq texnikasining keyingi jarayonlarida oddiydan murakkabga, murakkabdan goʻzallikka qarab boyib borishi kerak.

Aslida maqsad ham kichik bir sahna asari – badiiy soʻz namunasini yaratishdagi ijodiy ishning ilk bosqichiga erishishdir. Xullas, ogʻzaki soʻz sanʼati namunalarining barcha janrlarini sahna nutqi darslarida turli usullarda – doira ritmi yordamida, yoki koptok bilan, arqonda sakrash, hakkalab sakrash usulida qoʻllash kelgusida folklor janri asosida yaratilgan sahna asarlarida talqin etish va yuqori ijro mahoratiga erishishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, xalq ogʻzaki ijodining qaysi turi yoki janri boʻlmasin, u boʻlgʻusi sanʼatkorlarni, aktyorlarni mustaqil badiiy ijod salohiyatini oʻstirishga, estetik-axloqiy qarashlarini shakllantirishga, xalqimizning boy madaniy-maʼnaviy meroslarini targʻib qilishda xizmat qiluvchi manbaa sanaladi.

Soʻz ustida ishlashning keyingi bosqichlari texnik mashqlardagi orttirilgan koʻnikmalarni qoʻllash orqali badiiy soʻz mahorati shakllanib boradi. Dostonlar, rivoyatlar va soʻz sanʼatining boshqa janrlarini mahorat bilan ijro etishda ham ilk malaka va unga erishishdagi intilishlar turadi.

**Tayanch iboralar:** Folklor, folklorizm, folklorshunoslik, xalq ogʻzaki ijodi, maqol, tez aytish, sanama, guldur-gup, topishmoq, mantiqiy mushohada, soʻz, ibora, ogʻzaki nutq, kompozitsiya, tempo-ritm, kompleks ish, sanoqlar, miqdorlar.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xalq ogʻzaki ijodi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Xalq ogʻzaki ijodi janrlarini sanab oʻting?
3. Xalq ogʻzaki ijodining tadrijiy rivojlari nimalarda aks etgan?
4. Folklorshunoslik fani asoschilari haqida maʼlumot bering?
5. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarining maʼnaviy va estetik ahamiyati haqida maʼlumot bering?

## TURLI MAVZUDAGI MATNLARDA TAHLIL VA TALQIN

Ifodali o‘qish san’ati chuqur va har tomonlama keng bilimga asoslanganligi tufayli talqin etiladigan asar muhitini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Asar muhitini o‘rganish muallifning ijodiy siymosini o‘rganishdan boshlanadi. Chunki har bir shoir yoki yozuvchi o‘z qismati, o‘z ijodiy uslubiga ega. Qariyb bir davrda yashaganliklariga, bir xil adabiy janrlarda ijod etganliklariga qaramay, A.Pushkin, M.Lermontovning ijodiy siymosi bir-biridan farq qiladi. Ular o‘z ijodining tematikasi bilan ham, uslubi bilan ham farq qiladi. Ifodali o‘qishda ana shu o‘ziga xoslikning tub mog‘iyatini anglab olish, A.S.Pushkin asarlarini pushkinona uslubda, M.Lermontov asarlarini lermontovona uslubda talqin etishga ahamiyat beriladi. Buning uchun adibning ijodiy siymosi har tomonlama o‘rganiladi.

Yozuvchining ijodiy faoliyati bilan tanishishda uning tarjimai holi, yashagan davriga, siyosiy-ijtimoiy muhitga doir ma’lumotlarni o‘rganish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ifodali o‘quvchi o‘zi tanlangan asar muallifi va uning taqdiri haqida muayyan ma’lumotga ega bo‘lishga harakat qiladi.

Muallif ijodiy siymosini o‘rganish, avvalo, uning ijodiy merosini o‘rganish demakdir. Shu sababli ifodali o‘quvchi, qaysi bir muallifga murojaat etmasin, uning ijodi bilan batafsil tanishadi. Bu, bir tomondan, ifodali o‘quvchining madaniy saviyasini boyitsa, ikkinchidan, eng muhimi, konkret asar talqiniga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham, aytaylik, H.Olimjon yoki Uyg‘unning biror asarini ifodali o‘qish uchun ularning muhim asarlari o‘qib chiqiladi, mutolaa qilinadi. Shundan keyin ifodali o‘qish uchun tanlangan asarning muallif ijodida tutgan o‘rni belgilab olinadi.

Mavzu. Har bir asarning mazmunini chuqur egallab olish uchun oldin uning mavzusi aniqlab olinadi. Mavzu – yozuvchi tanlangan va tasvirlagan hayot voqealari, aks ettirgan masalalardir. Asarda yozuvchi biror muhim masalani – mavzuni yoritish bilan birga, unga tobe bo‘lgan kichik mavzularni ham tasvirlaydi. Mavzu asarda g‘oyaviy-badiiy butunlikni tashkil etadi.

Ma'lumki, asar mavzusini uning g'oyasidan ajratib bo'lmaydi. Chunki yozuvchi tasvirlagan masala asar mavzusi bo'lsa, g'oya yozuvchining shu masalaga munosabati, unga bergan bahosidir. Demak, ifodali o'qishda asar mavzusi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmay turib, o'qishning mazmunli bo'lishiga erishish qiyin. Mavzu turli janr, turli shakldagi asarlarda turlicha namoyon bo'ladi. Masalan,

Zim-ziyo tun. Asta-sekin shivirlar yomg'ir,  
Go'dak kabi tortqilaydi shamol pardani.  
Derazaga suyangancha qiz turar mag'rur,  
Mag'rur, ammo chehrasida tashvish tumani.  
Goh jilmayar, lablariga qo'nar tabassum,  
Goho ma'sum ko'zlarida yaltiraydi yosh.  
Ho'rsiniqqa to'liq qalbi oh tortar bir zum,  
Dam o'tmayin yana asta egiladi bosh.  
Qalbidagi pinhon sirin oshkor etmas qiz,  
Ayriliqqa bardosh berar pokiza qalbi.  
Faqat asta chayqaydi bosh, chekadi afsus.  
Ammo uning, uning ismin takrorlar labi.  
Avjga minib yomg'ir yog'ar, chaqadi chaqmoq.  
Sho'x yigitlar derazani chertib o'tadi.  
Qiz bo'lsa-chi, o'z o'rnidan jilmasdan biroq,  
Iztirobda faqat uni, uni kutadi.

(H.Ibrohimova)

Bu she'rdagi asosiy mavzu ishq-muhabbat mavzuidir. Biroq ishq-muhabbat mavzui keng, serqirradir. Shuning uchun ham bu asardagi konkret mavzuni, ya'ni bu asarning mavzusini aniqlab olish kerak.

She'rda nav-nihol qiz qalbida uyg'ongan ilk muhabbatning ilk tashvishlari haqida gap boradi. Shoir aytganidek:

... qiz turar mag'rur,  
Mag'rur, ammo chehrasida tashvish tumani.

Demak, qayerdadir qiz arzimagan "xatolik"ka yo'l qo'ygan. Shuning uchun ham u "mag'rur", ammo "tashvish"li. Biroq qalbi to'lib oh tortadi va:

Uning, uning ismin takrorlar labi.

Qiz tuyg'ular daryosida kechmasin:

... faqat uni, uni kutadi.

Qiz o'z sevgisiga sodiq. U yig'laydi, kuladi, xo'rsinadi, oh chekadi, ammo pokiza sevgining alamlariga bardosh beradi, ahdiga hiyonat qilmaydi. Demak, she'rdan umuman sevgi haqida emas, balki ilk sevgining ilk tashvishlari haqida, sevgi sinovlari va sadoqat haqida gap boradi. Shulardan xulosa chiqarib, bu she'rning mavzui "ilk sevgi tashvishlari" yoki "ilk sevgi va sadoqat"dir, deyish mumkin. biror asarning mavzuini aniqlashdan maqsad talqin paytida shu maqsadni ro'yobga chiqarishdir, ya'ni ijrochilik san'atida mavzuni belgilab olish amaliy ahamiyatga ega. Boshqacha qilib aytganda, ifodali o'qishda asarning mavzui ochilishi kerak. Yuqorida keltirilgan "Ishq" she'rini ijro etganda ijrochining ham, tinglovchining ham butun borlig'i ilk muhabbatning lazzatli tashvishlari bilan band bo'lishi lozim.

Katta hajmli asardan parcha ijro etilganda, asarning mavzui umuman belgilangan holda, o'sha tanlangan parchaning konkret mazmuniga alohida e'tibor beriladi. Chunki har bir katta asarda umumiy bir mavzu bo'lishi bilan birga, bir qator kichik, yondosh mavzuchalar ham bo'ladi. Shuni nazarda tutib, har bir parchaning mavzui aniqlashtirilib olinadi.

G'oya. G'oya yuqorida aytib o'tilganidek, badiiy asarda tasvirlangan voqealarga munosabat, ular to'g'risidagi asosiy fikrdir. Badiiy asarda mavzu va kichik mavzular bo'lganligi kabi, asosiy g'oya va uni to'ldiruvchi g'oyalar ham bo'ladi. Ular asarda badiiy obrazlarda ifodalanib, yozuvchining hayotiy voqealarga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

Asarni to'g'ri talqin etish uchun uning g'oyasi ham aniqlab olinadi. Chunki g'oya va g'oyaviylik so'z ijrochiligida ham muhim mezon hisoblanadi.

Shoir Shuhrat o'zining "Yuz minglar mozori" she'rida Ulug' Vatan urushi dahshatlarini tasvirlash bilan birga, urushga bo'lgan o'z munosabatini ham bildiradi – u urushni la'natlaydi.

Yuz minglar mozori, yuz mingta qabr

Yuz mingta insonning jasadi bunda.

Bolam, deb bo‘zlagan, kutgan besabr  
Onalar armoni kezadi bunda.  
Bundadir yuz, yuz ming yetim-yesirning  
Yoshidan nam bo‘lgan tabarruk tuproq.  
Bundadir beshafqat, zolim asrning  
Qop-qora tunida yonmagan chiroq.  
Bundadir yor ila bir tun qovushmay,  
Qon qusgan benavo, navqiron yoshlik  
Bundadir bir umr otidan tushmay,  
Qilichlar o‘ynatgan o‘t, bo‘ron yoshlik.  
Bundadir farzandi mehriga qonmay,  
Ko‘z yumgan otaning muqaddas qabri.  
Bundadir qiz sevib, ishqida yonmay,  
Bemahal o‘q teshgan yigitning qalbi.  
Bundadir tuproqqa qorishgan tilak,  
Bundadir bo‘g‘izda qolgan ashula,  
Bundadir orzuga yetmagan yurak.  
Manguga bosiqdir sovuq tosh ila...  
Bundadir ... O, barin sanab bo‘lmaydi,  
Sanab bo‘lmaganidek inson xislatin,  
Xullasi, bu yerda yuz mingta shahid,  
Yuz mingta mard askar qurbon yotadi.  
Urushni la’natlab, yuz mingta yigit  
Abadiy tinchlikni talab etadi.  
Tinglagin ularning nidosin, jahon,  
Qurbonlar hech qachon yolg‘on gapirmas.  
Ularning so‘ziga kirmagan inson,  
Rost aytsam, do‘stlarim, chin inson emas.  
Bu asarda urushning barcha dahshatlari obrazli aks ettirilgan. Shoir aytganidek,  
bu qablarda yotgan yuz minglab kishilar:

Urushni la'natlab...

Abadiy tinchlikni talab etadi.

Demak, bu asarning g'oyasi urushga qarshi, abadiy tinchlik uchun kurashda iborat. Ana shu g'oya asar talqinida ham o'z ifodasini topishi kerak.

Ijrochilikda, ifodali o'qishda har bir asarning g'oyasini (shuningdek, mavzuini ham) tinglovchini to'liqlantiruvchi omillarda ifodalash kerak. Jumladan, ifodali o'qishda muhabbatni ulug'lash, urushga qarshi kurash, turmushdagi ba'zi bir illatlarni fosh etish yoki ularga qarshi kurash va hakovolar yaqqol sezilib turishi lozim.

Ifodali o'qishda asarning g'oyasini aniqlash jarayonida ijrochining o'zi ham ruhan uni o'qishga tayyorlanadi. Asar g'oyasini belgilashda uning zilgan davri, tarixiy sharoiti, adibning ijodiy poeziyasi kabi faktorlar nazarda tutiladi.

Bo'laklar. Badiiy asarlar – poetik, prozaik, dramatik asarlar, odatda, band va qismlaridan iborat bo'ladi va ularning har birida ma'lum fikr, voqea ifodalanadi, ular o'zaro uzviy birlashib bir butunlikni tashkil qiladi. Shunga ko'ra, ifodali o'quvchi asarni o'qishdan oldin uning qismlarini, ularda ifodalangan voqeani aniqlab oladi.

Masalan, H.Olimjonning "Semurg" ertagining birinchi bandini quyidagi tartibda bo'laklarga bo'lish mumkin:

Parizodaning tavsifi:

Sarvqomat Parizod

O'sdi g'amlardan ozod.

Bahor yanglig' ochildi,

Gullar kabi sochildi.

Chiroyidan ovoza

Elga tarqaldi toza.

Har yerga doston bo'ldi,

Dostonga bo'ston bo'ldi...

Bahri ochilmaydi hech,

Chehrasi kulmaydi hech.

Elchilar xabari:

Elchi bo'lib kelganlar,

Qizning sirin bilganlar

Noumid qaytadilar.

Mardumga aytadilar:

Xalq ichida Parizod

Chiqaradi yomon ot.

Ko‘rinib turibdiki, muallif tomonidan yaxlit bir band sifatida yozilgan ana shu bo‘lakning o‘zi tarkiban olti bo‘lakka bo‘linadi. Bu voqealar o‘zaro nisbiy mustaqillikka ega, chunki ularning har birida ma’lum bir kichik voqea ifodalanadi. Ifodali o‘qishda ana shu voqea alohida-alohida talqin etiladi.

Ifodali o‘qishda faqat poetik asarlar emas, balki prozaik va dramatik asarlar ham bo‘laklarga bo‘lib olinadi. Misol uchun quyidagi ertakni olaylik:

“Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i uzun ekan...

Bir zamonlarda bir ona echki bo‘lgan ekan. Shu echkning o‘rmonda kichkina uyi bo‘lib, bir necha bolasi bor ekan. U har kuni bolalarini quyug‘ sut bilan boqish uchun o‘rmonning sero‘t joylariga borib, o‘tlab kelar ekan.

Ketish oldidan bolalariga:

Eshikni mahkam berkitib olinglar! – deb tayinlar ekan.

Echki uyiga qaytib kelganida eshikni shoxi bilan taqillatib qo‘shiq aytar ekan:

Bolalarim, bolalarim,

Eshikni oching jam bo‘lib.

Onagiz keldi o‘tloqdan

Yelini ko‘p sutga to‘lib.

Echki bolalari onasining ovozi eshitib, eshikni ochar ekan, ona echki bolalarini emizib, yana ketar ekan.

Bo‘ri poylab yurib, echkning qo‘shig‘ini eshitib olibdi-da bir kun yo‘g‘on ovozi bilan kuylay boshlabdi:

Siz, bolalar, bolalar,

Uy eshigin ochinglar!

Onangiz keldi,

Sut olib keldi...

Yelini sutga to'ldi!

Echki bolalari bo'rining bu qo'shig'ini eshitib, unga shunday deyishibdi.

Eshitdik qo'shig'ingni! Ovozing onamiznikiga sira o'xshamaydi: onamiz muloyim tovush bilan kuylaydi, senga o'xshab do'rillamaydi.

Shunday qilib, bo'riga eshik ochishmabdi. Bo'ri ko'p turib, bitta ham echki bolasini yeyolmay, jo'nab qolibdi. Keyin ona echki kelibdi va aytgan so'ziga quloq solganliklari uchun bolalarini maqtabdi:

“Bolalarim, bo'riga eshikni ochmay juda yaxshi qilibsiz, bo'lmasa bo'ri sizlarni allaqachon yeb qo'ygan bo'lar edi,” - debdi.

Bu ertakni besh qismga ajratish mumkin:

1-qism: boshlanishidan “Eshikni mahkam berkitib olinglar! – deb tayinlab ketar ekan” jumlasigacha;

2-qism: shu jumladan, “yana ketar ekan” degan gapgacha;

3-qism: shu o'rindan bo'rining qo'shig'i tugallangan o'ringacha;

4-qism: shu o'rindan “do'rillamaydi” degan so'zgacha;

5-qism; “do'rillamaydi” degan so'zdan oxirigacha.

Ko'rinadiki, ana shu bo'linishning o'ziyoq ifodali o'qishda aks etishi lozim bo'lgan asosiy emotsionallikni belgilab turibdi. Zotan, ana shu o'zaro mustahkam bog'langan besh voqeani emotsional talqin etish ifodali ijro qiluvchining burchidir.

Har bir bo'lakning mazmunini aniq ifodalash maqsadida har bir bo'lakka shartli ravishda nom qo'yish mumkin.

Nutq zvenolari. Ifodali o'qish uchun tanlangan parcha yoki bir butun asar bo'laklarga ajratib olingach, navbatdagi ish har bir bo'lakning tarkibini alohida-alohida o'rganib chiqishdan iboratdir. Bunda asarning mazmuni yanada oydinlaadi. Masalan, J.Jabborovning “Qiz yig'isi” nomli voqeaband she'ri bo'laklarga ajratilsa, u quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

Prolog:

Bo'yga yetgan qizini chaqirdi-yu onasi,

Shunday deb qoldi bexos:

- Qizim, senga aytayin kelganida xonasi,

So‘zlarimga quloq os.

1. Sovchi.

Ming shukurki, oy qizim, cho‘zilib qoldi bo‘ying.

Aqlu husning binoyi,

Yolg‘iz orzumiz, bolam, tezroq bo‘lsa-yu to‘ying,

Ko‘ngillar topsa joyin.

Traktorchi Validan kecha kepti sovchilar,

Devkor, botir yigit u.

Nasib bo‘lsa, qarog‘im, baxting gulday ochilar,

Onangning orzusi shu.

2. Sir

Qiz yerga ekkancha bosh, ko‘zlariga olar yosh,

Ammo labida kulgu.

Sovchi masalasini, ona bilmas, ikki yosh

Birga hal eshitgan-ku.

3. Hayajonli onlar

- Bilishimizcha, qizim, kuyov yigit xo‘b bola,

Barvastayu mehnatkash...

Xursandlikdan qizining yuzlari bo‘lar lola,

Qallda hayajon, otash,

Ona bechora sezmas, qiz boshida ne hayol,

Qizning o‘yida Vali,

Ko‘z o‘ngida paxtazor... shodlikka to‘la visol...

Va‘da bergan mahali.

4. Qiz quvligi.

Ona der: - Otang va men oldingdan bir o‘tishni

Maslahat qildik kecha.

Bizlar rozimiz, endi o‘zing o‘yla bu ishni,

Qalay senga bu reja?

Qiz javob bermas birdan, piq-piq yig‘lagan bo‘lar,

Ko‘z yoshi bir bahona.

Qizning qayg‘usin ko‘rib, ming aylanib-o‘rgilar,

Tasalli berar ona:

Yig‘lama, oppoq qizim, jonim joningga dalda.

O‘rgilay ona qizdan.

Epilog.

Qiz yig‘lab aytar: - ona o-na-jon, hech ma-hal-da

Chiqdimmi so‘zingizdan?!

Agar “Sovchi” deb atalgan bo‘lakning tarkibiga nazar tashlansa, bir-biriga o‘xshagan, ammo bir-birini uzqiy to‘ldiruvchi fikrlar namoyon bo‘ladi. Masalan, shu bo‘lakdagi:

Ming shukurki,

Oy qizim,

Cho‘zilib qoldi

Bo‘ying

misrasining o‘zida bir-birini to‘ldiruvchi, ammo o‘ziga xos nisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan mantiqiy bo‘lakchalar bor. Ifodali o‘qish san’atida shuning kabi nisbiy mustaqil fikr, manzara va tushunchalarni o‘zi ichiga olgan misra va misra bo‘laklari nutq zvenolari yoki nutq taktlari deyiladi.

Nutq bo‘lagidan oldin va keyin pauza qilish, sukut saqlab turishga imkoniyat bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham, zvenolar bilan birga keluvchi pauzalar – mantiqiy pauzalar deb yuritiladi.

Shu talablar nuqtai nazaridan yondoshganda, “Sovchi” bo‘lagi quyidagicha tus oladi:

Ming shukurki, () oy qizim

Cho‘zilib qoldi bo‘ying,

Aqlu husning binoyi.

Yolg‘iz orzumiz, bolam, / tezroq bo‘lsa-yu to‘ying,

Ko‘ngillar topsa joyin.

Traktorchi Validan / kecha kepti sovchilar.

Devkor, botir yigit u.

Nasib bo'lsa, qorag'im, / baxting gulday ochilar.

Nutq zvenolari chiziqcha bilan ajratiladi. Nutq zvenosi tinish bilgilar bilan ajratilishi ham, ajratilmasligi ham mumkin. Shuningdek, zveno ajratiladigan o'rinlar misraning hamma yerida kelaverishi mumkin.

Har bir bo'lakni nutq zvenolariga bo'lib olish bilan uning mantiqiy yo'nalishi aniqlab olinadi, bu bilan asar talqining shaklan va mazmunan yaxlitligini ta'minlanadi.

She'riyatda ko'pincha nutq zvenolari bir misraning o'zidan iborat bo'ladi. lekin ayrim vaqtda misra ikki ikki, uch zvenodan, ba'zan, aksincha bir zvenodan iborat bo'lishi mumkin. biroq misra nutq zvenolari shaklida kelgan paytda oxiriga zvenolarni ajratuvchi belgi qo'yilmaydi.

Nutq zvenolari misraning bir qismidan yoki ikki misradan iborat bo'lgan qismlar bir zveno doirasida birlashgan vaqtda belgi, albatta qo'yiladi. Nutq zvenolariga bo'linish faqat she'riy asarlar uchun emas, nasriy asarlar uchun ham xos hususiyatdir. Chunki parchadagi har bir voqea tarkibiga bir yoki bir necha jumlakirishi mumkin. Shuningdek, jumla tarkibidagi so'zlar miqdori ham turlicha bo'ladi. Ba'zan ikki yo uch so'zdan jumla tuzilsa, ba'zan 20-30 so'zdan tuziladi. Bir jumla birgina tushunchadan iborat bo'lsa, ayrim juvlada bir necha tushuncha, fikr umumlashtiriladi. Tabiiyki, murakkab juvlalar ifodali o'quvchi uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Ularni aniq va ravon talqin etishda qiyinchilikni his etadi. Masalan, N.V.Gogolning "O'lik jonlar" poemasiidan olingan quyidagi juvlaga nazar tashlang:

"Bu so'ngi so'zlarni u Bagraton bilan Kolostronning devorga osib qo'yilgan suratlariga qarab aytdi; so'zlashib o'tirgan ikki kishi o'rtasida, odatda, shunday bo'ladi: suhbat qizib ketgan chog'da ulardan biri negadir so'zlashib turgan suhbatdoshiga qarab emas, balki tasodifan kelib qolgan, hatto tamoman tanish bo'lmagani uchinchi kishiga qarab gapira boshlaydi, bu notanish kishi uning so'ziga javobbermasligini ham, fikrini aytmamasligini va so'zini tasdiqlamasligini ham biladi-

yu, lekin shunday bo'lsa-da, xuddi uni vositachi bo'lishga chaqirayotgandek, unga ko'zlarini tikib turadi; daf'atan bir oz dovdirab qolgan notanish kishi xabari bo'lmagan bu masala to'g'risida unga nima deb javob berishini ham, odob yuzasidan indamay turib, keyin chiqib ketishini ham bilmaydi..."

Albatta, shunga o'xshash jumalarni, hatto u qadar murakkab bo'lmagan taqdirda ham, ravon va mantiqan aniq talqin etish uchun iste'dodning o'zi kifoya qilmaydi. Uni to'g'ri, aniq talqin etishning sinalgan usuli jumlaning tarkibiy bo'laklarga ajratib olishdir. Uni bo'laklarga bo'lib olish ma'no yaxlitligini saqlab qolish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham, "nutq va so'z ustida qilinadigan ishni hamisha matnning nutq taktlariga bo'lish, boshqacha qilib aytganda, mantiqiy pauza qo'yib chiqishdan boshlash kerak".<sup>1</sup>

Masalan, "Zilol bo'shliqlariga keng quloch yoygan, shivirlab o'tgan tungi yomg'irdan so'ng kelinchakdek harir libos kiyib yasangan, qoq o'rtasidan temir yo'l kesib o'tgan ko'm-ko'k vodiya bir tup sada o'rik oppoq gullagan".

(S.Azimov)

Bu jumla quyidagi tushuncha va ko'rish obektlarini o'z ichiga oladi:

Keng zilol vodiya.

Yomg'ir izi.

Harir libos kiygan kelinchak.

Temir yo'l.

Oppoq bo'lib gullagan o'rik.

Nutq zvenolariga belgi qo'yib chiqilsa, yuqoridagi jumlaning ijrochilik partiturasini quyidagicha bo'ladi:

"Zilol bo'shliqlariga keng quloch yoygan, / shivirlab o'tgan tungi yomg'irdan so'ng kelinchakdek harir libos kiyib yasangan, / qoq o'rtasidan temir yo'l kesib o'tgan ko'm-ko'k vodiya / bir tup sada o'rik oppoq gullagan".

Nutq zvenolari ko'pincha tinish belgilari bilan bir joyga to'g'ri keladi. Bunga yuqoridagi jumla ham misol bo'la oladi. Mana, yana bir misol:

---

<sup>1</sup> K.S.Stanislavskiy. Soya. 3-t. 96-97 betlar.

“Kampirlarning nolasi ham, / yigitlarning g‘azabi - / hech qaysisi yordam bermay, / qizlar bo‘ldi asira.../ Bahor ekan o‘shanda, / xo‘p ajoyib bahor!”  
(O‘.Umarbekov)

Bu aniq belgilangan qoida emas, albatta. Chunki ifodali o‘qish san’atining eng birinchi o‘lchovi mantiqdir. Mantiq va nutq tabiiyligiga ko‘ra, ayrim vaqtda zvenolar tinish belgilarisiz bo‘lishi, pauza tinish belgilari bo‘lmagan joyga ko‘chirilishi mumkin. Masalan, “O‘sha gapdan keyin / Gulsum opa, maktabni yig‘ishtirib qo‘ya qolsammikan, degan fikrga bordi-yu, tag‘in “burgaga achchiq qilib ko‘rpaga o‘t qo‘yish” bo‘lmasin deb, / Ertoevga uchrashishga ahd qildi” desak, bu jumlada chiziq bilan ajratilgan har bir guruh bir butun o‘qilib (yoki gapirilib), o‘rtadagi tinish belgilari o‘z kuchini yo‘qotadi. Chunki bu zvenolar, ayrim yaxlit tushunchalarni o‘z ichiga oladigan guruhlardir. Tinish belgilari bor joyda ularning bo‘linib qolishi ijrochilikda fikr yaxlitligiga, mantiqqa putur yetkazadi. Natijada ijrochilikda formalizm vujudga keladi. So‘z ijrochiligida tinish belgilari muhim ahamiyat kasb etsa-da, mantiq hal qiluvchi kuchga egadir.

Ba‘zan mantiq bir misraning oxiridagi so‘z bilan keyingi misraning boshlanishidagi so‘zni qo‘shib o‘qishni, bir mantiqiy guruh sifatida talaffuz etishni talab qiladi.

Ijro etishni murakkablashtirib, qiyinlashtirib yubormaslik uchun, nutq zvenolariga ajratish kerak bo‘lgan joyga, ayniqsa nuqta, vergul, undov, ikki nuqta, so‘roq belgisi bo‘lgan joyda zveno belgisini qo‘yish shart emas. Bu tartib she’riy asarlarda ham saqlanadi. Chunki she’riy asarlarda nutq zvenolari har doim misraning oxiriga to‘g‘ri keladi. Masalan,

Yo‘q, yanglishma! Sinchiklab qara,  
Kumush ipga tizilgan marjon  
Emas! Aziz oq sochlardagi  
Uyub qolgan qatra-qatra qon!  
Bu ona-ku! Bu zo‘r inson-ku!  
Xurmat, muhabbatning timsoli.  
Yurtimizning vijdoniday sof,

Jinoyatlar, dog‘lardan xoli.

(Uyg‘un)

Mantiqiy urg‘u. Har bir nutq zvenosi, misra va bandda shunday muhim so‘zlar uchraydiki, ular shu zveno, misra va bandning mag‘zini o‘zida aks ettiradiki, ular shunday, muayyan mantiqiy bo‘lakning mazmunini, mag‘zini aks ettiruvchi so‘zlar birinchi darajali so‘zlar deyilib, ularni ifodali o‘qishda u yoki bu vosita bilan bo‘rttirish – mantiqiy urg‘u deyiladi.

Mantiqiy urg‘u tushadigan so‘zlar tagiga to‘g‘ri chiziq chiziladi. Masalan,

Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan

Tarqalar bir mayus va g‘amg‘in sado.

Qo‘yningda bir quchoq oq va nafis gul,

Lekin ruhing to‘la motam va azo.

Foyda yo‘qdir, go‘zal, zolim falakdan

Qancha dod qilsangu qancha shikoyat,

Qancha yolvorsangu qancha to‘ksang yosh,

Baribir alamga bo‘lmas nihoya.

(H.Olimjon)

Parchada tagiga chizilgan so‘zlar bo‘laklardagi mazmun yo‘nalishini oydinlashtirib beradi. Mantiq esa ifodali o‘qishda ana shu so‘zlarni bir oz bo‘rttirib talaffuz etishni taqozo etadi.

Urg‘u tushgan so‘zlar ba‘zi misralarda bitta, ba‘zilarida ikki-uchta bo‘lishi mumkin. Ifodali o‘qishga kirishishdan oldin matnda birinchi darajali so‘zlarni belgilab olish va talqin paytida ularga e‘tibor berish kerak. Biroq matnda o‘rg‘uni ko‘paytirib yuborishdan ehtiyot bo‘lish zarur. Chunki urg‘uning ko‘payishi, bir tomondan, mantiq yorqinligiga putur yetkazsa, ikkinchi tomondan, nutq va talqin ravonligiga, ifodali o‘qishning estetik saviyasiga salbiy ta‘sir etadi. Shuning uchun ham mantiqiy urg‘u tushuvchi so‘zlar va bo‘laklarni belgilashda san‘atkorona did va meyor bo‘lishi kerak.

Pauza. Nutq davomidagi to‘xtamlar – pauza deyiladi. So‘zlash jarayonidagi to‘xtalishlarning harakteri, vaqt birligi (muddat) turlicha bo‘lganligi sababli, pauzalar ham, o‘rni va roliga ko‘ra, turli nomlar bilan ataladi. Ifodali o‘qish san‘atida quyidagi pauzalar mavjuddir.

Grammatik pauza. Bu pauza, asosan tinish belgilari qo'yilgan o'ringa, so'zlar o'rtasiga va misra oxirlariga to'g'ri keladi. Masalan,

Asriy chinorlar-u tonggi atirgul,  
Navoiy bog'ida nihol qomati  
Go'zallar, yasharar har qanday ko'ngil,  
Boshing uzra bargdan qo'shiq tomadi.  
Odamlaring esa g'oyat xush kalom,  
Jnin ham berguday choyga eritib.  
Sendayin muloyim bo'lsaydi olam,  
Yashardik ajinni yuzdan aritib.  
Kelsam ayrilgim yo'q, senday chamandan,  
Dunyoda bittasan, jonim Namangan.

(Y.Shomansur)

Odatda, grammatik pauzalar barchasi o'z-o'zidan ajralib turganligi uchun maxsus belgilar bilan ko'rsatilmaydi. Shunga qaramay, ifodali o'qishda so'zlar o'zaro qo'shilib ketmasligi, misralar misraligicha turishi uchun grammatik pauzalarga ham katta ahamiyat berish zarur.

Mantiqiy pauza. Bu asosan, mantiqiy faktorlar bilan bog'liq bo'lgan pauza bo'lib, qiya chiziqcha (/) bilan belgilanadi. Masalan,

Siz bilan birgaman har yerda, (/) har dam: /  
To'y va bazmlarda, /  
Og'ir kunda ham. /

Men sizsiz –

Bir otman / qayga borishin /

Bilolmay daydigan: beip, / beyugan.

(H.Saloh)

Bu parchada mantiqiy pauza zvenolar bilan bir joyda kelgan. Mantiqiy pauzalar tinish belgilari bilan (grammatik pauzalar bilan) bir joyda kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Mana, mantiqiy pauza uchun yana bir misol:

Chumoli va kaptar

(Masal)

“Kaptar ovchining to‘riga, ilinib qoldi. / Ovchi uni tutib olmoqchi bo‘ldi. / Buni bir chumoli ko‘rdi. / Ovchining ko‘ylagi ichiga kirdi. Yelkasini qattiq chaqdi. Ovchi chiday olmadi. To‘rni qo‘lidan tashlab yubordi. Chumolining yordami bilan kaptar qutilib uchib ketdi. Bir kuni / chumoli suv ichgani ariqqa tushdi. Suv to‘lqini chumolini oqizib ketdi. Kaptar buni ko‘rib, uzun bir xipchin olib keldi-da, ariqqa tashladi. Chumoli xipchin ustidan o‘rmlab suvdan chiqib oldi. Kaptarning yordami bilan / chumoli o‘limdan qutildi.”

(L.Tolstoy)

Ushbu masalni ham o‘qishdan oldin, yuqoridagi tartibda mantiqiy pauza o‘rni belgilab olinadi, chunki busiz talqin mantiqi, demak, asar mantiqi buziladi. Pauza o‘rnini oldindan belgilab olinganda mantiq yo‘nalishi ongli tus oladi.

Psixologik pauza. Emotsional chuqur, vaqt birligi jihatdan katta bo‘lgan pauza - psixologik pauza deyiladi. Psixologik pauza asarni o‘qishda personaj характери, tasvirlanayotgan voqealar rivojlanishining eng keskin, hayajonli tus olgan o‘rniga to‘g‘ri keladi va ikki chiziqcha (//) bilan belgilanadi. Masalan,

Durust, sofmen... faqat ... // baxti qaromen,

Saodatdin yiroq, motamsaromen.

Tiriklik bitdi-yu, saqlandi ismat,

Alisher, naylayin, shul bo‘ldi qismat.

(I.Sulton, Uyg‘un)

Ushbu parchada psixologik pauza belgilari qo‘yilgan joyda personajlarning his-hayajonlari, dardu alami, katta psixologik tug‘yonlari ifodalangan. Demak, ifodali o‘quvchi bu o‘rinda katta va chuqur pauza qilish bilan o‘z personajlarining harakteridagi burilish o‘rinlarini ochib beradi. Shunda emotsional tug‘yon ruhiy holat psixologik pauzada o‘z in‘ikosini topadi. Psixologik pauza personajning psixologiyasi, ifodali o‘quvchining qobiliyati kabi hal qiluvchi omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Chinakam realistik talqin san‘atiga tayanuvchi mahoratli ijrochi ayrim mantiqiy pauzalarni ham psixologik pauza darajasigacha yuksaltira olishi, teranlashtira olishi mumkin.

Lyuft pauza. Bu vaqt birligi jihatidan qisqa pauza bo‘lib, nutq zvenolari o‘rtasida, rukn va turoqlardan keyin, nafas olish zarur bo‘lgan joyda keladi va V belgisi bilan ko‘rsatiladi. Masalan,

Qizlar she'rlaringni yodlar paydar-pay,  
Muhabbat xatiday qo'yishmay qo'ldan.  
Og'a! V Sening noming hassos qo'shiqday  
Tildan tilga ko'char bizning ovulda.  
Sababi bor, albat, V bejismas bu hol, -  
Garchi ozdir mening sendan bilganim.  
Ammo o'z ko'zim-la ko'rganman bir chol  
She'rlaring tinglagach V ko'z yosh qilganim

(H.Hudoyberdiyeva)

Bu parchada lyuft pauza beligilari qo'yilgan o'rinlar qisqa to'xtalishni, fikrni bir oz aniqlab olishni talab etadi. Umuman, ifodali o'qishda pauzalarga e'tibor beriladi. Pauza talqinga, bir tomondan, muayyan mantiqiy aniqlik kiritadi, ikkinchidan, asar mazmunini to'g'ri anglashga imkon beradi.

Kompozitsiya lotincha "composition – tuzish, biriktirish" degani. Badiiy asar qismlarini yaxlit badiiy niyat (muayyan konsepsiyani shakllantirish va ifodalash, ko'zlangan g'oyaviy-estetik ta'sir) ijrosi uchun eng optimal holda joylashtirish, badiiy asardagi unsurlarni o'zaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashilladigan tarzda butunlikka biriktirish. Ya'ni kompozitsiya badiiy shaklning unsuri emas, u avvalo, shakl komponentlari badiiy mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirishga qaratilgan amal, shuni amalga oshirish prinsiplaridir. Kompozitsiya tushunchasi badiiy asarning barcha sathlariga birdek taalluqli, uning qaysi sathi haqida gap ketmasin, qurilishining ayni shu aspekti diqqat markazida turadi: matn qurilishi (bob, sarlavha, assosiy va yondosh matn), badiiy nutq shakllari (hikoyalash, tavsif, dialog), rivoya subektlari (muallif, personaj, o'zga shaxs), nuqtai nazar (roviy yoki personaj nigohi orqali ko'rish)larning maqsadli almashinib turishi, personajlar sistemasi (bosh, ikkinchi darajali va yordamchi personajlar tarzida darajalanishi, ularning shunga mos o'zaro munosabatdorlikda joylashtirilishi), syujet qurilishi, (voqealarning zamon yoki sabab-natija munosabati asosida aloqadorligi, yuz berish va hikoya qilinish vaqti, turli makon va zamonda kechayotgan voqealarning o'zaro bog'liqligi, makoniy va zamoniyl o'zgarishlarning asoslanishi) – bularning bari kompozitsiya bilan bog'liq tushunchalarning bir qisminigina tashkil

qiladi. Kompozitsiya badiiy asarning chinakam sistemasi, ya'ni qismlardan tarkib topgan, lekin barcha qismlari o'zaro mustahkam aloqadagi butunlikka aylanishini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

Yozuvchi muayyan turmush manzarasini aks ettirar ekan, o'sha manzarani o'quvchi ko'z o'ngida butun to'laligi va yaxlitligi bilan gavdalantirish uchun asarni ma'lum shaklga, qurilishga, qiyofaga ega qilib yaratadi. Adabiy asarning barcha qismlarini o'zaro birlashtirib turuvchi, muayyan hayot manzarasini yaxlitlikda va muallif nuqtai nazariga mos holda obrazli aks ettirishga yordam beruvchi qurilishi uning kompozitsiyasi hisblanadi. Hayotdagi har bir voqealik o'z kompozitsiyasiga, joylanish tartibiga ega. Aytaylik, har bir jumladagi muayyan so'zlar muayyan sintaktik tartib, ya'ni kompozitsiyada joylashib, aniq bir ma'no kasb etadi. Bordi-yu shu kompozitsiya, ya'ni shu sintaktik tartib buzilsa, gapning ma'nosi ham buziladi, o'zgaradi. Boshqa voqealıklarda ham xuddi shunday. Jumladan, kompozitor ohanglarni muayyan garmonik tartibda joylashtirib musiqa asarini yaratadi, rassom predmetlarni muayyan masofa va o'rinlarga joylashtirib, konkret asarni yaratadi. Umuman, obektiv hodisa va voqealarda ichki komponentlarning joylashuv tartibi kompozitsiya deyiladi. Kompozitsiya nihoyatda mazmundor tushunchadir. U o'zining murakkab, biroq aniq qonuniyatlariga ega. Biror asar kompozitsiyasi, ya'ni tuzilishi haqida fikr yuritish uchun undagi voqealar, hodisa va shaxslar nima maqsadda asarga kiritilgani xususida o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Maqsad aniq bo'lmasa, harakat ham, ya'ni asarga kiritilgan voqealar, ularni yaratadigan shaxslar ham tartibsiz bo'ladi. Shu sababli asar kompozitsiyasini aniqlash uchun ma'lum birlikda turgan narsa, voqea va shaxslarning nima maqsad bilan birlashganiga diqqat qilish lozim bo'ladi. Shu narsa aniqlanmasa, asardagi birlikni va uning qismlari bajaradigan vazifani anglab olish mushkul bo'ladi.

Har bir adabiy asar, katta yo kichik bo'lishidan qat'iy nazar, o'z kompozitsiyasiga ega. Ya'ni yozuvchi muayyan voqealar, xodisalar, fikrlarni konkret asar tarkibida ma'lum tartibda joylashtiradi. Ana shu tartib nechog'lik mazmunga

---

<sup>1</sup> D.Quronov, Z.Mamajanova, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati. Qayta nashr. Akademnashr. T-2013 yil. 141-bet

mos, shaklan ixcham va o‘rinli bo‘lsa, asarning kompozitsiyasi ham shunchalik mazmundor bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, asarning badiiy darajasiga ham katta ta‘sir etadi. Shu jihatdan qaraganda, asar kompozitsiyasini aniqlash yoki umuman kompozitsiya ustida ishlash ijrochilik san‘atida faqat shakl tomondan emas, balki mazmunan ham katta qimmatga ega. Shuning uchun, kompozitsiya va uning ijrochilikdagi ko‘rinishlarini yaxshi o‘zlashtirib, ulardan ongli ravishda foydalanish har bir ifodali o‘quvchining burchidir.

Adabiy kompozitsiya. Adabiy asarda hodisa, voqea hamda fikrlarning muayyan tartibda joylanishi adabiy kompozitsiya deyiladi. Ifodali o‘qish san‘atida ham kompozitsiyaning o‘rni va roli katta.

Talqin uchun biror asar tanlanganda, albatta ana shu konkret asar yoki parchaning kompozitsiyasini, kompozitsion hususiyatlarini mukammal o‘rganib chiqish kerak. Bugina emas, ijrochilik san‘atining tabiatidan kelib chiqib, muayyan asar yo parchaning kompozitsiyasi ayrim o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Masalan, V.Shekspirning “Otello” yoki H.Olimjonning “Zaynab va Omon” poemasi o‘qilsa, har biri kamida 5-6 soat vaqtni egallaydi. Buning oldini olish uchun, odatda, ijrochi o‘z oldiga qo‘ygan konkret maqsad, talqin janri hususiyati talabidan kelib chiqib, asarni qisqartiradi, juda zarur bo‘lgan qismlarini olib qoladi. Ana shu jarayonda, pesadagi yoki boshqa badiiy asardagi kompozitsiya qisman o‘zgartiriladi. Demak, asar muayyan miqdorda qisqartirilgach, uning kompozitsiyasi ham qisman o‘zgaradi. Bundan tashqari, ehtiyojga ko‘ra, mantiqqa putur yetkazmagan holda, asardagi ayrim qismlarning o‘rnini almashtirish, prolog yoki epilog qo‘shish (asarning o‘zidan olib) kabi kompozitsion o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Biroq bunda ijro uchun tanlangan asar yoki asarning adabiy kompozitsiyasi aniq va ravshan bo‘lishiga e‘tibor beriladi. Umuman, ifodali o‘quvchi biror asar talqiniga kirishishdan oldin, uning kompozitsiyasini mukammal o‘rganib chiqishi, mazmunga putur yetkazmagan holda, uni qisqartirishi mumkin. Eng muhimi, biror asar yoki undan parcha ifodali o‘qish uchun tanlanar ekan, u konkret sharoit, ijrochining vazifa hamda maqsad, talablariga ko‘ra qulaylashtirib olinishi kerak. Bu talqinning shaklan va mazmunan puxta bo‘lishini ta‘minlaydi.

Talqiniy kompozitsiya. Ma'lumki, ifodali o'quvchi asarni talqin etayotganda, unga yanada emotsionallik, estetik ta'sirchanlik kiritadi. Temp, ritm, intonatsiya, kayf-holat kabi qator faktorlar bilan bog'liq bo'lgan emotsional harakterga (vaqtli harakterga) ega. Shu tufayli ifodali o'quvchining ham har bir talqini muayyan qurilishga egadir. Talqinda kompozitsiya mavjud bo'lib, uni aniqlab olish uchun oldin ijro etilayotgan asarning qurilishi o'rganiladi. Badiiy asarning qurilishi esa prolog, tugun, rivojlanish, kulminatsiya, tushum, yechim va epilog kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ifodali o'qiladigan har bir badiiy asar bu jarayonlarga ega bo'lgani uchun talqin paytida monoton (bir xillik) bo'lmaydi, ijro go'zal, ta'sirchan bo'ladi.

Masalan,

Suv boshidan yo'rg'asida qaytardi mirob G'ani,

Xirgoyi qilib yo'lda.

Boshin silkib, ildam-ildam qadam tashlar samani

Chamanzaru o'ngu so'lda.

Daraxtlardan, bog'lardan ko'z uzmay maftuf boqar,

Dalasi yashnar, serob

Katta ariq lim-lim bo'lib tashna yerlarga oqar.

Quvonar edi mirob,

Shu tob... birdan ko'zlariga chalindi bir ajib hol.

Sekinlatdi otini.

Bir yigit-la tol tagida turar qizi Oyjamol,

Arang boqdi botinib.

Birdan jahl o'ti yoqdi ko'zlari soqqasini,

Yuzida chaqnar g'azab.

Xuddi o'tday lov etdi-yu, ushladi yoqasini:

Bu qanday nomaqul gap!

Sezmas edi sevgi bilan mastona ikki yosh qalb

Chetdan boqqanin kishi.

Muhabbatning sirlariga bo'lishgandi shuncha jalb,

Olam bilan yo'q ishi.

Mirob yonib: - Ajabo! – der, - Tovba! – dedi, - Bu ne hol?

Qamchilasinmi qizni?

Yigit qizning qora sochin silab-siypab bemalol,

Bayon etar dil so‘zin.

Mirob qarar: yigit o‘sha usta Sobirning o‘g‘li,

Shijoatkor, oqil bola.

Mirob o‘ylab: nima qilsin, ne qilsin, ne qilsa bo‘lar to‘g‘ri,

Yo qilsinmi dabdala?

Yigit qo‘yib o‘z ko‘ksiga sevgilisi boshini,

Bo‘saga cho‘zadi lab.

Bir andisha kuydiradi cholning ichu toshini:

Bu qanday noma‘qul gap?

“Hey!” – deb birdan lablarini juftlaydi qichqirmoqqa,

Yana bosar o‘zini.

Uzangiga oyoq tirab, qarab u yoq-bu yoqqa,

Yo‘qotgandi so‘zini.

Xuddi o‘tga suv sepganday jahli bosilar bir dam,

Jahldan nima foyda?

Yoshligida Oynisani, axir, uning o‘zi ham

O‘pgan-ku, hilvat joyda...

(J.Jabborov)

Bu she‘rda ikki yoshning sof muhabbati va ota-onalarning yoshlar sevgisiga munosabati go‘zal lavhalarda tasvirlanadi. Uni ifodali o‘qish kompozitsiyasi quyidagicha bo‘ladi:

Prolog: Birinchi band, ya‘ni “quvonar edi mirob” degan joygacha.

Tugun: “Shu tob...” so‘zlarida.

Rivojlanish: “Bir yigit-la...” misrasidan boshlanadi.

Kulminatsiya: “Bu qanday noma‘lum gap!”, “Hey!” kabi so‘zlarga to‘g‘ri keladi.

Tushum: “Xuddi o‘tga suv sepganday” misralaridan boshlanadi.

Yechim: Oxirgi ikki misra.

Demak, shu bilan asarning o‘zi ham muayyan kompozitsiya bo‘laklariga ajraladi. Endi ana shu har bir bo‘lakning hususiyati chap tomoniga yozib qo‘yiladi va u o‘ziga xos talqin bilan ijro etiladi. Bunda ifodali o‘quvchi-ijrochining individual mahorati muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, talqin kompozitsiya ifodali o‘qilayotgan asarning badiiy barkamolligini, mazmunini yoritishda katta ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Asar muhiti deganda nimani tushunasiz?
2. Asarda mavzu va g‘oyaning qo‘llanilishi to‘g‘risida gapirib o‘ting?
3. Asarda mantiqiy urg‘u va pauzalarning qo‘llanilishi deganda nimani tushunasiz?
4. Asarning adabiy kompozitsiyasiga batafsil to‘xtalib o‘ting?

## NUTQNI TAKOMILLASHTIRUVCHI TEXNIK MASHQLAR

Ovoz hosil qilishda nafas faol ishtirok etadi. Ovoz paydo qilishning qonuniyati nafas va ovozni rivojlantirish maktabini yaratdi. Nafas nutqiy ovoz va nutqiy tovushlarni to'g'ri talaffuziga erishishdagi asosiy vositalardan biridir. Aktyorning qanday nafas olishi, nutqiy ovozning go'zalligi, ravonligi, uning kuchi, dinamikasi, foyda berish boyligi, musiqiyliigi, nutqning ravonligi bilan belgilanadi. Nafasdan to'g'ri foydalanish va nafas olish apparatidan foydalanish sahnaviy xatti-harakatga erishda asosiy vositadir. Inson orom olish chog'ida, tinch, muloqat (so'z) qilmayotganda nafas o'pkada aylanishni ta'minlaydi. Bunday nafas ovoz hosil qilmaydi, uni gaz almashtirish holati deyiladi. Nutqiy holatda esa gaz almashuvi ovoz faoliyati bilan bog'lanadi, ya'ni ovoz va artikulyasiya apparatini ishtirok etishidir. Ana shunday nafas nutqiy nafas olish deyiladi va u ovozni paydo qiladi.

Nafas olish mashqlarida asosan talabalarni gavda holatini to'g'riligiga e'tibor berilib, uni erkin holatda harakatni ta'minlash zarur. Nafas olish usullari, ko'krak va qov aro nafas olishdir. Ammo ular bilan alohida-alohida shug'ullanmasdan, bir-birini to'ldiruvchi yo'lda olib borish joiz. Ko'krak nafas usulida, ko'krak qafasi kengayadi. Nafas olish jarayonida og'ir ko'chadi, nafas chiqarishda ravonlik yo'qoladi. Bu holatda diafragma sust ishtirok etadi va nafas ta'minoti sust bo'ladi.

Qov nafas – bunda ko'krak va qorin pastki, diafragma aralash olinadi. Nafas mashqlarini mashg'ulotlarida burundan nafas olinadi. Chuqur nafas olish har doim foydalidir. Uning natijasida havo hajmi ko'payadi va o'pkadagi havo almashinuvi bir necha marotaba ortadi. Bundan tashqari, chuqur nafas olishning yana bir afzalligi shundaki, o'pkaning eng uzoq pufakchalari – alveolalari har doimo faoliyatda bo'ladi. Shunday qilib aralash nafas olish odatiy tusga kirsam, ijrochi katta nafas bazasi bilan ta'minlangan bo'ladi. Nafas mashqlari yoki boshqacha qilib aytganda nafas gimnastikasi bilan barcha ijodkorlar uzluksiz shug'ullanib turishlari shart.

### *Nafas mashqlari*

To'g'ri nafas olishni joriy qilishda ikki o'ziga xos uslubda olib borish kerak:

1. Umumiy nafas gimnastikasi. Bunda o'pkani hayotiy zarurati yuzasidan kengaytiriladi va nafas apparatini rivojlanishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi.


2. Maxsus mashqlar. Hayot jarayonidagi zaruriy holatlarda, nutqiy nafas olishda, nutqiy nafas joriy etishdagi holatlarni tarbiyalashda, nutqiy nafas uchun zaruriy va o'ziga xosligida ya'ni nutqning ravonligini ta'minlashda joriy qilinadi.<sup>1</sup>

Mashqlarning ikkinchi guruhi K.Skraupe usuli bo'lib, quyida ana shu jadvalni keltiramiz.

### ***K.Skraupe usulidagi nafas olish mashqlari***

Shartli ko'rsatgich: – nafas olish, 2 – nafasni ushlab turish, raqam necha daqiqa ushlab turishni ko'rsatadi. (2) Qavs ichidagi raqam necha marotaba mashqni qaytarilishi. Har bir mashqdan keyin 1 minut dam olish kerak.

#### **1. Sekin nafas olishni turli bosqichi:**



#### **2. Nafas olishni kuchli bosqichi:**

33




(5) Sekin nafas olish

---

<sup>1</sup>Муравёв Б. От дыхания – к голосу. –Л., 1982. с.11.

### 3. Davomli nafas olish va chiqarish:


555



(5) Nafas olish avvalgidek


### 4. Nafasni tutib turish uchun mashq:

235810




(5) Mashqni avvalida tez nafas chiqarish,  
asta-sekin sekinga o'tiladi.

### 5. Sekin-asta nafasni ushlab turish vaqtini cho'zish kerak. So'ngra olingan nafasdagi havoni ishlatishni nazorat qilish mashqiga o'tiladi:



## 6. Nafas olish va nafas chiqarishni bo‘lib-bo‘lib bajaramiz:



va h.k.

Yuqoridagi mashqlardan keyin, so‘zlashuv jarayonidagi nafas olishga e‘tiborni qaratamiz. Undagi ritmik holatda o‘zgarish bo‘ladimi hamda nafas olishdagi uzviylik qanday bo‘ladi.

***Uxlash istagi.*** Tasavvur qiling, siz dengiz sohilidasiz. Tebranma o‘rindiqda dam olayapsiz. Stulga qulayroq o‘tirib oling, orqa suyanchig‘iga yastanib, oyoqlarni erkin, bo‘sh holatga tashlang. Badan muskullari, bo‘yin, qo‘l, yelka bo‘shashgan.

Ko‘zlar yumuq, sizni dam olishingizga hech kim monelik qilmasin. Burundan sokin va chuqur nafas oling: nafas oling, chiqaring, nafas oling-chiqaring, nafas oling-chiqaring.

Haqiqatdan ham sizda uxlashga ehtiyoj sezilsin. Ko‘zlarni ochish juda mushkul, kipriklar o‘zicha bekilib boradi. Ko‘z ochilishiga majburiy harakat qiling:

***To‘lqin sokin, shovqin ham asta***

***Uyquga torishi turgan gap...***

***Quyosh taftida uxlamoq zarar.***

***Tur!***

Bu satrlarni sho‘xchang, quvnoq o‘qimang! Siz uyqusirayapsiz. Badan va nutq a‘zolari bo‘shashgan til, lablar sust harakatda. Siz o‘ta qiyinchilik bilan she‘rni o‘qiysiz.

Endi she‘rni yana bir bor o‘qing. Endi ko‘zlarni yumilib ketishiga yo‘l qo‘ymang. Bunda uyqu bilan olishing. Bu jarayonda nafas olish yoki chiqarish vaqtini nazorat qiling.

Nafas olish jarayonida nutq qaysi vaqtda amalga oshirilayapti. Nafas olinganidan keyin gapirishni ta'minlang. Havо, she'rni birinchi satridagi so'zlar bilan birgalikda chiqsin.

***To'lqin sokin, shovqin ham asta***

So'ngra tezda nafas oldik, soniya sukut qildim va uyquga tortayotganiga e'tibor berib, nafas chiqarishda keyingi satrni o'qing:

***Uyquga tortishi turgan gap***

Aynan shunday jarayonda keyingi satrlarni ham mashq qiling. Mashqdan ko'rinib turibdiki, nutq jarayonidagi nafas olish, xotirjamlik vaqtida olinayotgan nafasdan farq qiladi. Nafas olish qisqa va tez, nafas chiqarish cho'ziqroq, oradagi nafas tutish, albatta nafas olingandan keyin bo'ladi. Bu fonasion nafas olish yo'li bo'lib, bu ovozni rivojiga va sifatiga e'tibor qaratilganligidir. Fonasion nafas – bu ovozning jismoniy asosidir. Fonasion nafas olishda qovurg'alar oro paylar, diafragma, qorin pastki paylari, bronxlarni silliq muskullari, o'pka ishtirok etadi.

***Gavdaning to'g'ri holati.*** Nafas mushaklari harakatini yengil his qilish uchun gavdani to'g'ri holatini topish kerak. Buning uchun: turamiz, bel va yelkalarini bo'sh holatga keltiramiz. Gavdani ko'tarilishini ta'minlang (ko'krak, yelka) va uni orqaga va pastga xiyol tashlab umurtqaga kiygizing, kiyimni osqichga ilib qo'yganday. Bel qattiq holatga keladi, to'g'ri qo'llar, bo'yin, yelkalar erkin holatda. Ana shu holat siz uchun doimiy bo'lishi kerak. Bu nafaqat nafas va ovoz sozlashda ishlatilmay kundalik ehtiyojga aylansin. Doimiy mashq qilish oqibatida ana shu holatni egallasangiz sahnada hamda oddiy turmush tarzida siz go'zal va yoqimtoy bo'lasiz.


***Gulzorda. Tasavvur qiling:*** cheksiz gullar makonida sayr etib yuribsiz. Gulzordagi o'zingiz yoqtirgan gulni hidlash orqali topishga harakat qiling. O'z yoqtirgan gulingizni topganingizdan keyin siz butun jismingiz bilan rohatlanasiz (nafas) va quyidagi she'rni o'qing:

***Gullarga burkangan badanin ochib***

***Ko'zimga termular bir malak – Hayot***

***Uning og'ushidan men keldim qochib,***

***Sen – go'zal she'rimni aylagani yo.***



Nafasni nutqiy sarflanishini choʻzish nazarda tutilayapti.

**Sham.** Fonasion nafas olish mashqida, qorinning pastki qismi tortish uchun shu mashqdan foydalanish mumkin.

**Vazifa:** Nafas chiqarayotganda pastki qorin mushaklar harakatini sezish.

**Bajarish:** Nafas olinadi, bir soniya nafasni ushlab turamiz. Shagʻamga qarab puflaymiz. Shagʻamni oʻchirmoqchi boʻlsak, qattiqroq puflaymiz. Yana qattiqroq. Qorinning pastki qismi mushaklar tortilishini sezamiz.

**Toʻldirish:** Shagʻam oʻchmadi! Harakatni davom ettiramiz. Nafas olishni nazorat qilamiz. Xuddi shu mashqni qisqa havoni yoʻllash orqali shagʻamga! Fu! Fu! Fu! Fu! Fu! Fu! – pufladik. Shagʻam oʻchmadi. Yana shiddatli va keskin qisqa – qisqa puflashga harakat qilamiz. Shagʻam oʻchadi. Qorin mushaklari harakati seziladi. Bu mashqni guruhli yoki yakka holda olib borilishi mumkin. Ishchi holatni turib, oʻtirgan holda, yuqoriga qarab yotgan holda va pastga qarab yotgan holatlarda belgilash mumkin.

Fonasion nafas olish jarayonida bronx mushaklari, boʻgʻiz, boʻyin, bosh, yelka, orqa kumrch, oyoq mushaklari – xullas insonni borligʻi nafas oladi. Ammo nafas jarayonida barcha nafas olishda ishtirok etayotgan aʼzolarni nazorat qilib boʻlmaydi. Harakat vaqtida qorinning pastki qismini, qoburgʻalar oro mushaklarni, diafragmani nutq jarayonida nazorat qilish mumkin. Nafas apparatini nutq jarayonidagi faoliyatini muqobillashtirish uchun nafas mushaklarini tinmay mashq qilish zarurdir.

Bir qator mashqlar qilinadikim, unda harakat va tovush bogʻlanadi. Bu holatda harakat va tovushni muvofiqlashtirish, nafas olish vaqtida ishtirok etmaydigan mushaklarni erkinligiga erishiladi.

**Ari. Dastlabki holat (ishchi holat)** Tik turgan holat. Oyoqlar yelka hajmida ochiq. Gavda umurtqa pogʻanisi ishtirokida osilgan.

**Vazifa:** Surunkali nafas olishni joriy qilish. Ovoz va fizik-jismoniy harakatni bogʻlash. Pashshani qanday qilib boʻlsa ham zabt etish.

**Bajarish:** koʻkrak qafasi ustida qoʻl kaftlari ochiq oldga choʻzilib turipti. Ovozsiz nafas olamiz. Qoʻllar tez harakat bilan yon tarafga ochiladi. Soʻngra sekin nafas chiqarayotganda qoʻllarni yaqinlashtiramiz. Kaftlar bir-biri bilan uchrashsin.

Endi mashqni z-z-z-z tovushi bilan bogʻlang. Qoʻllar (chuqur nafas olganda) yonga ketadi. Nafas chiqarishda z-z tovushi bilan qoʻllarni bir-biriga yaqinlashtiramiz. Oldingizda gʻingʻillayotgan pashshani ushlab uchun sekin harakat qilasiz. Ehtiyot boʻling pashsha juda sezgir. Uni choʻchitib yubormang. Ohista, ohista harakat qiling.

**Toʻldirish:** pashshani choʻchitmay uni zabt etish ishtiyoqida qilayotgan harakat shiddatli (intensiv) nafas chiqarishni taʼminlaydi. Xatti-harakat sizda tabiiy nafas tayanchi vujudga keltiradi. Pashshani tutib olganingizda kaftlar bir-biriga uriladi. Ana shunda nafas olish aʼzolari toʻliq erkinlashadi.

**Chillak oʻyini. Ishchi holat:** talabalar yarim doira shaklida turadi. Oʻyinda ishtirok etuvchi talabalar oʻz raqamlarini tanlab oladilar. Raqamni aytilishi bilan u harakatga keladi.

**Vazifa:** bir talaba davra boʻylab yuguradi, ovozni zu-vvv – deb bogʻlaydi. Qolganlar olingan nafasni chiqarayotganda, yugurayotganni qancha muddatga nafasni sarf etish jarayonini hisoblaydilar. 1, 2, 3..

**Toʻldirish:** guruh talabalarining oʻzaro harakatlarida uygʻunlikni taʼminlash. Nafas olish va chiqarishdagi toʻgʻri holatni tekshirish. Ovoz bilan bogʻlanishini taʼminlash. Ovozni toʻgʻri yoʻnaltirish (maskaga). Chuqur (burundan) nafas olishini nazorat qilish. Mashqdan keyin 2 soniya dam berish.

Nafas mashqlarini qisman oʻzlashtirilgach, ovozni toʻgʻri yoʻnaltirish mashqlariga oʻtiladi. Ovoz toʻgʻri jarangini topish bu ijodiy hayotingizning har kundagi mashaqatli mashgʻulotlar natijasidir.

Ovoz ustida ishlash deganda:

– fonasion (tovush bilan bog‘langan nafas olishga – fonatsion nafas deyiladi) nafas olishni joriy qilish;

– nafas yo‘lidagi barcha paylarni erkin holatini ta‘minlash;

– talabalarning o‘ziga xos (imkoniyatidagi) ovoz markazini topish va uni mustahkamlash;

– ovoz jarangini ta‘minlash;

– qaytargichlarni ishlashini ta‘minlash, ularni anglash, yengil registrlarga o‘tishni ta‘minlash;

– tovushni ravonligi, barqarorligini (hech qanday kuch va balandlikda bir xil jarangga erishish va sifatini) ta‘minlash;

– nutq tempo-ritmini (ichki, sirtqi) egallash;

– tovushning ifodaviy mag‘ziga erishish;

Asosiy maqsad mashqlarda yengil, hech qanday siqqliksiz ovoz jarangiga erishish. O‘zimizga qulay bo‘lgan, ovozni o‘rta (markaz)ni va so‘zlashuvdagi tabiiy nutq ohangini topishdir.

**Ingroq. Ishchi holat:** stulni chekasiga o‘tirasiz. Gavda «osig‘liq» holati. Suyanchig‘iga yastanmang. Belni tekis to‘g‘ri tuting.

**Vazifa:** tasavvuringizda tomog‘ingiz yoki boshingiz og‘riyapti. Og‘riqni yengillashtirish, undan holi bo‘lishingizni ta‘minlashga harakat qiling.

**Bajarish:** past ovozda ingrash. Tomoqni aslo qirmang (tomoq qirilganda ovoz qisqa bo‘ladi va ovoz paylari siqiladi). Og‘riyotganini ko‘rsatmang, og‘riqni yengib harakat qiling. Yuz mushaklari, bo‘yin, qo‘llar, oyoqlar erkin holda, yelkalar pastga tushgan, bo‘yin shunday bo‘shashganki, bosh xohlagan tomonga og‘ib ketishi mumkin. Ohista, paylarning bo‘shligiga ishonch hosil qilgach, boshni o‘ngga chapga, pastka harakat qildiring. Shu vaqtda «ingrab» nola qiling. Ingrash o‘rta balandlik ovozda (yoki biroz balandroq) o‘z nutqiy ovozingizga monand bo‘lsin. Lablar yumuq, ammo ular yengil birlashgan, jag‘lar ochiq. Ovoz erkin yo‘naltirilgan. Bu ohista nola bo‘lmog‘i kerak.

**To‘ldirish:** lablar yumuq holatida «M» tovushini talaffuz qilganday bo‘lishi kerak. Mashqni bir necha bor qaytaring va nafas gimnastikasi mashqi bilan bog‘lang.

Gavdani erkin harakatida erkin jarangga erishing. Mashqda qo'yilgan vazifani aniq bajarilishini ta'minlasa erkin jarangli ovozga erishasiz, bu esa ovoz bilan ishlashni ibtidosi ya'ni bu ovoz markazi bo'lib, ovozni pastga, tepaga rivojlantirish mumkin bo'ladi. Keyingi mashqlarda ovoz diapazonini pastga, yuqoriga qarab rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Sonor tovushlar undoshlarning jarangligidir. M, N, L, R. Og'izni erkin ochgan holda sonor tovushlarga diqqatni qaratish kerak. Sonorlar qaytargichlarni faoliyatini kuchaytiradi, ovozga jarangliylilik ato etadi. Shu bois sonor tovushlarni unlilar bilan talaffuzini mashq qilish foyda keltiradi.

Yuqoridagi ingrash tovushlarni uzluksiz talaffuz eting:

a) mmimmemmammommo'mmumm (M)

b) nninnennannonno'nnunn (N)

v) llillellallo'llull (L)

g) rrrrrrro'rrurr (R)

Ingrash vaqtidagi erkinlikni ta'minlagach, aynan shu erkinlikni so'zlashuv nutqida saqlab qoling.

Masalan: Yosh mushuk, mosh mushuk, mosh mushuk, yosh mushuk, shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk.

Mashqni quyidagicha bajarish mumkin:

a) Ingrash \_\_\_\_\_ Yosh mushuk,  
\_\_\_\_\_ mosh mushuk,  
\_\_\_\_\_ mosh mushuk,  
\_\_\_\_\_ yosh mushuk  
\_\_\_\_\_ shu mushuk  
\_\_\_\_\_ shum mushuk  
\_\_\_\_\_ shumshuk mushuk

b) ovozni «ingrash» orqali markazini topib matnni nafasni nazorat qilgan holda bajaring.

Ingrash \_\_\_\_\_ Yosh mushuk, mosh mushuk

Ingrash \_\_\_\_\_ mosh mushuk, yosh mushuk.

shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk.

v) Bir nafasda

Ingrash \_\_\_\_\_ Yosh mushuk, mosh mushuk, mosh mushuk, yosh mushuk, shu mushuk, shum mushuk, shumshuk mushuk.

Sonor va unilarni o'zaro munosabati uchun yana bir mashqni ilova qilamiz. Nafas va ovoz, jismoniy harakatni uyg'unlashuvi va ovoz markazidan yuqori va pastga harakatini ta'minlovchi mashq.

## MURAKKABLASHTIRGAN VOQELI TEZ AYTISHLAR

### Tez aytishlar

Sahna nutqi fani o'qitilish jarayonida quyidagi kamchiliklarni tuzatish mumkin:

1. Tish orasidan gapirish (jag'larni ochilmasligi tufayli);
2. Til yoki lablar xarakati sustligi natijasida tovushlar aniq ifodalanmasligi;
3. Yondosh undosh tovushlarni qorishtirib aytamiz;
4. Tez gapirish natijasida tovushlarning yamlanishi;
5. Salmoqlanib gapirish;
6. Nafasni noto'g'ri olish va chiqarish natijasida nutqni chala aytishlikka ya'ni uzun jummalarni nafasi tiqilib to'la aytolmaslik kabi nutqiy kamchiliklar.\*

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari diksion, artikulyatsion mashqlarda berildi va ishlatilajak matnlar berildi. Ammo biz yuqorida asosiy urg'uni mashqlarga berdik va so'z va so'z brikmalari ishtirokida bog'lanishni ko'zda tutdik.

Talaffuzni meyoriga erishish uchun tez aytishlar va ularni mashqlari juda yaxshi vositadir. Shu o'rinda tez aytishlarga ham bir oz fikr yuritish joiz deb bildik.

Tez aytishlar juda qadimdan mavjud bo'lib, u xamon o'z mavqeini saqlab turibdi.

Tez aytishlarsiz sahna nutqini tassavur etish mumkin emas. Chunki aktyor so'zini tomoshabinga jozibali yetkazib berar, so'z mantiqi va so'z xarakatiga ega bo'lar ekan - bu tez aytish mashqlarini puxta egallaganligidandir.

Tez aytishlar oddiy va murakkab ko'rinishda bo'ladi. Oddiy tez aytishlar qisqa jummalardan, murakkab tez aytishlar uzun jummalardan iborat bo'ladi.

Diksion burro gapirish mashqlarda tez aytish juda foydalidir. Tez aytishlar turli ko'rinishlarda bo'ladi. U oddiy, kinoyali, kuchli, o'ynoqi nozik his tuyg'ularni ifodalovchi, shu bois bo'lajak ijodkorlar ya'ni san'at, madaniyat oligohlari talabalarini qobiliyatlarni rivojlantiradi. Shuni aytish kerakki, tez aytish ustida ish olib borgunga qadar, talaba noto'g'ri talaffuz qilayotgan tovushni artikulyatsion

---

\* R.Usmonova. Nutq san'atida tez aytishning axamiyati. Toshkent 1995 y. o'quv qo'llanma.

holatini, tovush hosil bo'lish o'rnini yaxshi tushungan holda tovush, brikma, so'z jumalalarda surunkali (o'zlashtirguncha) ish olib borishi va keyin tez aytishga o'tishi shart.

Tez aytish ustida mashq boshlaganda talaba uni yod bilishi kerak. Chunki fikr so'z qidirishga ketadi va maqsad muvofiq bajarilmaydi. Tez aytishlarni ma'nosiz qiroat qilish mumkin emas. U bir xillikka olib keladi. Talaba tez aytishni mazmunini bilishi va nima demoqchiligini aniq tushunishi kerak.

Tez aytishlarni uch xil tempda, ya'ni shoshmasdan dona-dona gapirish – (diktoverka) birinchi boshlang'ich tezligi, o'rtacha gapirish – ikkinchi tezlik, tez va aniq vaqtda burro gapirish, uchinchi tezlikda mashq qilish kerak.

Mashq paytida tezlik bilan cheklanib qolmay aniq maqsad ila bajarish kerak. Yuqorida aytib o'tilganidek ba'zi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish xususida to'xtalib o'tamiz.

1. Talabaning pastki jag' xarakati sust va shu xarakat bilan bog'liq bo'lgan tovush talaffuzini mukammallashtirish zarur. Buning uchun «O» tovushi takrorlanib kelgan tez aytish mashqini qo'llaymiz.

**Masalan:** Obidjon Olimdagi olmadan olaolmadi.

Ovloqda ovchi ovini ovlar.

E'tiborni «O» tovushiga qaratsak, pastki jag' xarakati chaqqonlashganini sezamiz.

2. Til, labalar sustligi, pastki jag', hamda orqa tanglayni chiniqtirish uchun muayyan tovushlarni takror va takror keladigan tez aytishlardan foydalanib mashq qilinadi.

**Masalan:** To'p – to'p ko'k koptok

Ko'p – ko'p to'p koptok.

Til uchi sust xarakatchang bo'lganda R tovushini takrorlanib kelishini ta'minlovchi tez aytishlardan foydalanish mumkin.

Pi – rrr – pi – rrr –pirildoq.

3. Ayrim talabalar yaqin undoshlarni qorishtirib talaffuz etadilar. YA'ni sh tovushini s tovushi bilan qorishtirib aytadilar. Shu hollarda albatta SH-S tovushlari birnecha takrorlanib kelgan tez aytishlardan foydalaniladi.

Mosh tohsiz dedingizmi?

Tohsiz mosh dedingizmi?

Mashmas'halashsam ham mashmas'halashaman.

Mashmas'halashsam ham mashmas'halashaman.

4. Talabalarning ayrimlari so'z oxiridagi tovushlarni chala aytadilar yoki butunlay aytmaydir.

Toq o'rkachli bo'taloq

Rosa otdi shatoloq -ni,

Toq o'rkachli bo'talo

Rosa otdi shatalo – tarzida talaffuz etadilar.

5. Salmoqlanib gapiruvchi talabalarni tuzatish uchun uchunchi tezlikdan foydalanish kerak.

6. Nutqdagi pala – partish, chala gapirishni tuzatish uchun avvalo nafas mashqlarini puxta egallash, undan keyin esa tez aytishlar mashqini bajarish kerak.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklar bartaraf etish mumkin, ammo asliy (tug'ma) kamchiliklarni tuzatish faqat mutaxassislar orqali hal bo'lishi mumkin.

Bular nutq a'zolarining kamchiliklaridir. Bular jag' va tishlarning oldinga ketishi, tishlar orasining ochig'lig'i (bu holatlarda S-Z, SH-J va S tovushlarini talaffuzi meyoriy shaklda bo'lmaydi). Tilning yo'g'on yoki xaddan ziyod uzunligi chuchuk gapirishga olib keladi. Tilning kattaligi til uchini tishlar qatoriga ko'tarilishiga halaqit beradi. (R, SH, J, CH tovushlarni to'g'ri talaffuzini buzadi). Bunday holatlarda kamchiliklarni bartaraf etishdek vazifa logoped va stamatologlarga yuklatiladi.

## TALAFFUZ ANIQLIGI, FAOLLIGI MASHQLARI

To'g'ri talaffuzning zaruriyati. Ijro etilayotgan badiiy asar jaranglab turgan simfonik orkestrga o'xshaydi. Agar orkestrda biror cholg'u noto'g'ri chalsa yoki biror nota soxta chiqsa, albatta asar ta'sirchanligiga putur yetkazishi va uni butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Bu esa tinglovchini chalg'itadi.

San'at olamiga qadam qo'ygan kishilardagi nutqiy nuqsonlar xarakteri har xil bo'ladi. Nutq tovushlarining talaffuzi bilan aloqador bo'lgan diksion nuqsonlar asosan undosh tovushlarda ko'proq uchraydi. Masalan, **R** undoshi talaffuz etganda til uchining yetarli tebranmasligi, **S** undoshini **shsf** tarzida talaffuz etish kabi xollar uchraydi.

Unli tovushlarga oid talaffuz nuqsonlari ham xilma-xildir. Tovushlar talaffuziga oid bunday diksion nuqsonlarni bartaraf etmasdan turib, badiiy yetuk so'z san'ati asari to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Shuningdek diksiyasi mukammal to'g'ri bo'lgan kishilar ham diksion mashq bilan shug'ullanishlari shart, chunki sahna sharoiti har bir nutq tovushining oddiy turmushdagiga nisbatan aniqroq, jonliroq talaffuz etilishni taqozo etadi. Buning birdan-bir yo'li mashqlar vositasi bilan ana shu sahna haqiqatini egallashdir.

Buyuk nemis adibi, filosofi, teatr san'ati namoyondasi Iogann Gyote aytganidek, "aktyor aniq va ravshan diksiyani o'zlashtirishiga urinishi kerak, zeroki yemirilgan bir harf yoki noaniq talaffuz etilgan biror so'z butun jumlaning ikki ma'noli qilib qo'yadi va tomoshabinga singib borayotgan illyuziyani qat'iy buzib, ba'zida xatto eng jiddiy paytlarda kulishga majbur qiladi". Tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik, ulardan unumli foydalanmaslik va so'zga befarqlik ijrochilik san'atining ashaddiy dushmanlaridandir. Shuning uchun ham K.S.Stanislavskiy "tovush va hijolarni his etish, ularning mohiyatini payqab bilish kerak" deydi. Buning uchun esa har bir tovushning paydo bo'lishi va kuchlanish manbaini bilish, o'sha nutq organining yutuq va kamchiliklarini o'rganish lozim bo'lgan chog'da esa ma'lum foydali mashqlarni qo'llash lozim.

Sof talaffuz, yaxshi yo‘lga qo‘yilgan ovoz va nafasga ega bo‘lmasdan turib, so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan ijrochilik san’ati haqida fikr yuritishning o‘zi ham kulgilidir. Chunki sahnaga chiqqan har bir ijrochi, qanday harakat qilmasin va qanday ajoyib narsalarni o‘ylab topmasin barchasi ma’lum bir jumla, so‘z, parchaning tub ma’nosini, boshqacha qilib aytganda, biror maqsadni ochib berishga xizmat qiladi.

K.S.Stanislavskiy ta’kidlaganidek agar shu so‘zlar yozma shaklda bo‘lsa, xusni xati yomon bo‘lsa ham, bir iloj qilib o‘qib olish mumkin, lekin sahnada turib aytilgan noto‘g‘ri so‘zni, ayniqsa ijrochi o‘zi sezmaganligi sababli (chunki o‘zi sezsa tuzatadi) qaytarib bo‘lmaydi. Bunday hollarni oldini olish eng qulay yagona to‘g‘ri omili diksiya ustida qilinadigan tinimsiz mehnatdir.

O‘zbek tilida nutq tovushlari. Har qanday tilda ham odatda nutq tovushlariga ko‘ra ularni ifoda etuvchi belgilar harflar miqdori ancha kam bo‘ladi. Ana shu hol o‘zbek tilida ham mavjud. Masalan:

Qancha, latta kabi so‘zlar sostavidagi **a** tovushini solishtirib ko‘ring: birinchisida - chuqur **a**, ikkinchisida-oldinga qadar “yumshoq” **a**.

Iblis, mirza, qiz so‘zlari sostavidagi **i** tovushini solishtirib ko‘ring. Birinchisida **i** til oldida yumshoq. Ikkinchisidagi **i** tilning o‘rtasidagi moyil yopiqroq tor unli. Uchinchi so‘z sostavidagi **i** tilning orqa tomonida hosil bo‘ladigan tovush, ruscha “**i**” tovushiga yaqin talaffuz etiladi.

Shuning uchun ham o‘zbek grafikasida harflarning miqdori cheklangan bo‘lishiga qaramay, ular ifoda etadigan tovushlarga nisbatan nutq tovushlari ancha ko‘p va rang-barang ekanligini nazarda tutish, ularni o‘rganib to‘g‘ri qulay bilish shartdir.

#### Foydalanish uchun adabiyotlar.

1. Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari. T.: O‘qituvchi, 1973-yil
2. K.S.Stanislavskiy. Rabota aktyora nad saboy. Chast 2. str.80.
3. I.Po‘latov. “Sahna nutqi”. T.: 1994-yil

## **O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATI. TUZILISHI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI**

So‘z san‘ati asarlarni tur va janrlarga tasnif etish tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi. Antik dunyoning buyuk arbobi Aristotel “Poetika” asarida ko‘pgina janrlarining xususiyatlarini belgilagan, qoida va ta‘rifini ishlab chiqqan. O‘zbek mumtoz adabiyoti xilma – xil janr va turlarga bo‘ydir. Buni ulug‘ o‘zbek shoiri va mutaffakiri A.Navoiy ijodida to‘laroq ko‘rish mumkin.

Navoiy ijodiyoti bilan o‘zbek nazmi ham, o‘zbek nasri ham kamol topdi. Tur va janrlar jihatidan bo‘yidi. Dostonchilikda falsafiy – didaktik (“Hayratul – abror”), ishqiy – romantik (“Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”), sarguzasht (“Sab‘ayi sayyor”), qaxramonlik – jangnoma (“Saddi Iskandari”) va falsafiy (“Lisonut – tayr”) dostonlar lirikada - g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarkiband, tarji‘band, soqiynoma, qasida, ruboiy, qit‘a, tuyuq, fard, muammo va chiston va boshqalar. Bu janrlarning birmunchasi Navoiyga qadar bo‘lgan o‘zbek adiblarida bor edi. Ammo adabiy janr doirasining kengayishi va takomillashuvida xech kim Navoiychalik buyuk xikmat qilmagan. Keyinchalik Navoiy kabi so‘z san‘atkorlari mavjud janrlarning yanada rivojlanishi uchun yangi sifat va xususiyatlar bilan takomillashuvi, hamda yangi adabiy janrlarning vujudga kelishida muhim rol o‘ynaydilar. Badiiy nasrning o‘rnini kamsitmagan holda shuni ta‘kidlash kerakki, o‘zbek mumtoz adabiyotida she‘riyat yetakchi bo‘lgan, ko‘pchilik asarlar she‘riy shaklda yaratilgan. Ming yillik tarixga ega bo‘lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she‘r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Adabiyotshunos olimlarimiz “She‘riyat so‘z san‘atining to‘ng‘ich farzandidir” – deb ta‘kidlaydilar. Badiiy o‘qish jarayonida u yoki bu ijodkor salohiyati, uning yaratgan asarlari haqida so‘z borganida, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan qanday tasvirlaganiga e‘tibor qaratilgan. Adabiy asarlarda she‘riy san‘atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san‘atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan “Sahna nutqi” fani o‘qitilish mobaynida uchinchi kursning birinchi hamda ikkinchi yarim yilligi mobaynida talabalar bilan mumtoz she‘riyat, ya‘ni aruz tizimidagi she‘riy asarlar

ustida ishlash jarayonida, uning barcha nazariy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Mumtoz she‘riyatimizga xos yuksak badiiylikni chuqur anglab yetish uchun ham aruz ilmini puxta o‘rganish lozim. She‘riy asarni aruz qonun – qoidalari jihatidan yaxshi bilmagan bastakor unga kuy bastalashda nuqsonlarga yo‘l qo‘yishi mumkin, aruzda bitilgan asarlarni o‘qiy olmaydigan xonanda yoki badiiy so‘z ustasi, aktyor undagi so‘zlarni buzib talaffuz etishi tabiiy. Shu bois aruz ilmi haqida qisqacha ma‘lumot berib ketishni joiz deb topdik.

Adabiyotshunos olim Anvar Xojiahmedovning aruz ilmi haqidagi qisqacha ma‘lumoti orqali talabalar mumtoz she‘riyatning janrlariga murojaat qilganlarida ushbu ko‘rsatmadan foydalanishlari mumkin.

Adabiyotimizda ming yildan beri qo‘llanib kelayotgan aruz she‘riy o‘lchov tizimi misralarda qisqa va cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslanadi.

Qisqa unli bilan tugallangan ochiq hijolar **qisqa hiyo** sanaladi. Vafo, bozor, kitob, bezak, uzuk, o‘roq so‘zlarining birinchi hijolari ana shunday qisqa hijolardir. Ular she‘r chizmasida V belgisi bilan ifodalanadi.

Tarkibida cho‘ziq unli bo‘lgan (bog‘, yor, shod kabi), shuningdek, qo‘sh undosh bilan tugallangan (jism, mehr, ilm kabi) yopiq hijolar **o‘ta cho‘ziq hiyo** sanaladi. Ular misra ichida – v, misra oxirida esa ~ belgisi bilan ifodalanadi. Hijolarning cho‘ziq-qisqaligi she‘riy misralarning yozilishiga ko‘ra emas, balki vaznga muvofiq o‘qilishiga ko‘ra aniqlanadi.

Masalan, Boburning

*Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbati,*

*She‘r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati*

baytidagi –ba, –da, –ya hijolari qisqa, fas, –li, vas, –li, lar, ning, suh, ti, bah, –si, dar, –di, bo, ning, kay, –fi, ti hijolari cho‘ziq, yoz, yor, do‘st, she‘r, ishq hijolari o‘ta cho‘ziqdir.

Qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning turlicha birikuvidan ruknlar deb atalgan ritmik bo‘laklar tashkil topadi.

Aruz ilmi sakkiz asl ruknga asoslanadi, ulardan 5 tasi she'riyatimizda keng qo'llanilgan (maktabda o'rganiladigan she'riy asarlar ham ana shu ruknlar zaminida yaratilgan). Bular **faulun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun va maf'ulotu** ruknlaridir. Ushbu ruknlarning har birini turlicha o'zgartirilib, ularning tarmoqlari hosil qilinadi. Aruzdagi barcha o'lchovlar mazkur asosiy va tarmoq ruknlarga tayanadi. She'riyatimizda har qaysi asl running quyidagi tarmoqlaridan foydalanilgan.

### 1. Faulun asli va tarmoqlari

- |                            |                            |
|----------------------------|----------------------------|
| 1. Faulun – solim<br>V – – | 4. Faulu – maqbuz<br>V – V |
| 2. Faal – mahzuf<br>V –    | 5. Fa'lun – aslam<br>– –   |
| 3. Faul – maqsur<br>V ~    |                            |

### 2. Mafoiylun asli va tarmoqlari

- |                                     |                             |
|-------------------------------------|-----------------------------|
| 1. Mafoiylun – solim<br>V – – –     | 8. Foilun – ashtar<br>– V – |
| 2. Mafoiylun – musabbag'<br>V – – ~ | 9. Maf'ulu – axrab<br>– – V |
| 3. Mafoilun – maqbuz<br>V – V –     | 10. Faal – ajabb<br>V –     |
| 4. Mafoiylun – makfuf<br>V – – V    | 11. Faul – ahtam<br>V ~     |
| 5. Mafoiylun – maqsur<br>V – ~      | 12. Fa' – abtar<br>–        |
| 6. Maf'ulun – axram<br>– – –        | 13. Fo' – azall<br>~        |
| 7. Faulun – mahzuf<br>V – –         |                             |

### 3. Foilotun asli va tarmoqlari

- |                                     |                                      |
|-------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Foilotun – solim<br>– V – –      | 7. Foilun – maqsur<br>– V ~          |
| 2. Foiliyyon – musabbag‘<br>– V – ~ | 8. Fa’lun – maqtu’<br>– –            |
| 3. Foilotu – makfuf<br>– V – V      | 9. Fa’lon – maqtu’i musabbag‘<br>– ~ |
| 4. Foilotun – maxbun<br>V V – –     | 10. Failun – maxbuni mahzuf<br>V V – |
| 5. Foilotu – mashkul<br>V V – V     | 11. Failon – maxbuni maqsur<br>V V ~ |
| 6. Foilun – mahzuf<br>– V –         |                                      |

#### 4. Mustaf’ilun asli va tarmoqlari

- |                                   |  |
|-----------------------------------|--|
| 1. Mustaf’ilun – solim<br>– – V – | 4. Mafoilun – maxbun<br>V – V –        |
| 2. Mustaf’ilon – muzol<br>– – V ~ | 5. Mafoilon – maxbuni muzol<br>V – V ~ |
| 3. Muftailun – matviy<br>– V V –  |  |

#### 5. Maf’ulotu tarmoqlari

1. Foilun – matviyi makshuf  
– V –
2. Foilon – matviyi mavquf  
– V ~

Ana shu asl va tarmoq ruknlarning turlicha takroridan o‘zbek aruzida keng fodalaniqan 9 asosiy o‘lchov – mutaqrub, hazaj, ramal, rajaz, muzore’, xafif, mujtass, munsarih va sari’ bahrlari tuziladi.

Mutaqrub – faulun asli va tarmoqlari,  
Hazaj – mafoiylun asli va tarmoqlari,  
Ramal – foilotun asli va tarmoqlari,

Rajaz – mustafʼilun asli va tarmoqlari takroriga asoslanadi,  
 Muzoreʼ – mafoiylun va foilotun,  
 Xafif – foilotun va mustafʼilun,  
 Mujtass – mustafʼilun va foilotun,  
 Munsarih va sariʼ – mustafʼilun va mafʼulotu asllari va tarmoqlarining takroridan hosil boʻladi.

Biror sheʼriy asarning bahr hamda vaznini aniqlash uchun uning biron bayti, koʻpincha, matlaʼsi – birinchi baytni chizmasini chizib, har qaysi boʻlak oʻz tarkibi jihatidan yuqorida koʻrib oʻtilgan asl va tarmoq ruknlardan qaysilariga mos kelishi aniqlanadi. Masalan, Navoiyning “Kecha kelgumdur...” deb boshlanuvchi gʻazali matlaʼsini ruknlarga ajratib, chizmasini belgilasak,

Kecha kelgum – dur debon ul – sarvi gulru – kelmadi,  
 – V – – – V – – – V – – – V –  
 Koʻzlarimga – kecha tong ot – kuncha uyqu – kelmadi.  
 – V – – – V – – – V – – – V –

manzarasi hosil boʻladi. Chizmalar asosida har qaysi misradagi 1, 2, 3-ruknlar foilotunga, oxirgi ruknlar – foilunga tengligini aniqlaymiz. Bayt foilotun asli va uning mahzuf tarmogʻi takroriga asoslangan oʻlchovda yozilgani va uning ramal bahri ekanligi maʼlum boʻladi.

Endi sheʼr vaznini topamiz. Buning uchun avvalo **bayt** necha rukndan tashkil topganiga diqqat qilamiz. Bayt toʻrt rukndan iborat boʻlsa, **murabbaʼ** (toʻrt ruknli), olti ruknli boʻlsa **musaddas** (olti ruknli), sakkiz ruknli boʻlsa **musamman** (sakkiz ruknli) deb yuritiladi.

Yuqoridagi misralarning har biri toʻrt rukndan, bayt esa sakkiz rukndan tashkil topganini, yaʼni musamman ekanligini belgilaymiz.

Endigi vazifa bayt ruknlari tarkibini aniqlashdan iborat. Ruknlar asllardagina iborat boʻlsa, vazn **solim** sanaladi. Bayt tarmoq ruknlarga ham asoslangan boʻlsa, har qaysi rukn nomini atash bilan sheʼr vaznini belgilaymiz. Agar baytlarda asl va tarmoq ruknlar birga qoʻllangan boʻlsa, asl rukn nomi (solim)ni aytib oʻtish shart emas. Navoiyning yuqoridagi bayti foilotun asli va uning mahzuf tarmogʻi – foilunga

asoslangan. Shunga ko‘ra uning, binobarin, she‘rning asosiy vazni asosiy **ramali musammani mahzuf** ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Aruz vaznidagi asarlarning aksariyati ikki, uch, to‘rt o‘lchovda yoziladi. Aniqrog‘i, she‘rning ayrim misralari yoki baytlari asosiy o‘lchovdan salgina farqlanuvchi vaznlarda bitilishi mumkin.

Ko‘pgina she‘riy asarlar ikki vaznda yozilgan bo‘lib, ikkinchi vazn asosiy o‘lchovdan misra oxiridagi hijo jihatdangina farq qiladi. Ya‘ni asosiy o‘lchovda oxirgi hijo cho‘ziq bo‘lsa, qo‘shimcha vaznda shu hijo o‘ta cho‘ziq kelishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin. Masalan, zikr etilgan g‘azalning uchinchi misrasi oxiridagi “intizor”, 5-misrasi oxiridagi “ehtiyoj”, 7-misrasi oxiridagi “devonavor” so‘zlari o‘ta cho‘ziq hijo bilan tugallangan. Shunga ko‘ra mazkur misralarning oxirgi ruknlari foilotunning mahzuf tarmog‘i – foilunga emas, balki maqsur tarmog‘i – foilonga teng keladi. Demak, vazn nomi ham o‘zgaradi va **ramali musammani maqsur** deb ataladi. Shunday ekan, “Kelmadi” g‘azali ikki o‘lchovda – ramali musammani mahzuf va ramali musammani maqsur vaznlarida yozilganini ta‘kidlash mumkin.

Ba‘zi she‘riy asarlar 3-4 vaznda, ayrimlari hatto 8 tagacha o‘lchovda yozilishi ham mumkin. Shuni yaxshi bilib olish zarurki, she‘rda qo‘llangan xilma-xil vaznlar faqat bitta bahrgagina mansub bo‘ladi, ya‘ni asar hech qachon ikki bahr asosida yaratilmaydi. Ularda bir bahrga mansub vaznlargina almashinib qo‘llanishi mumkin.

Adabiyotimizda qo‘llangan bahrlarni ana shu jihatdan ham guruhlarga ajratish mumkin. Mutaqorib, rajaz, muzori‘, munsarix, sari‘ baxrlaridagi she‘rlar 1-2 vazndagina, hazaj va mujtass bahrlaridagi asarlar 1-4 o‘lchov asosida, ramal va xafif bahrlaridagi esa 8 tagacha vaznda yozilishi mumkinligi aniqlangan.

### I. Hazaj bahri vaznlari

1. Hazaji musammani solim.

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

V – – – V – – – V – – – V – – –

2. Hazaji musammani ashtar.

Foilun mafoiylun foilun mafoiylun

– V –      V – – –      – V –      V – – –

3. Hazaji musammani axrab.

Mafʼulu      mafoiylun      mafʼulu      mafoiylun

– – V      V – – –      – – V      V – – –

4. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf.

Mafʼulu      mafoiylu      mafoiylu      faulun

– – V      V – – V      V – – V      V – –

5. Hazaji musaddasi mahzuf.

Mafoiylun      mafoiylun      faulun

V – – –      V – – –      V – –

6. Hazaji musaddasi maqsur.

Mafoiylun      mafoiylun      mafoiyl

V – – –      V – – –      V – ~

7. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf.

Mafʼulu      mafoilun      faulun

– – V      V – V –      V – –

8. Hazaji musaddasi axrami ashtari maqsur.

Mafʼulun      foilun      mafoiyl

– – –      – V –      V – ~

## II. Ramal bahri vaznlari

1. Ramali musammani mahzuf.

Foilotun      foilotun      foilotun      foilun

– V – –      – V – –      – V – –      – V –

2. Ramali musammani maqsur.

Foilotun      foilotun      foilotun      foilon

– V – –      – V – –      – V – –      – V ~

3. Ramali musaddasi mahzuf.

Foilotun      foilotun      foilun

– V – –      – V – –      – V –

4. Ramali musaddasi maqsur.

Foilotun foilotun foilon  
– V – – – V – – – V ~

5. Ramali musaddasi maxbuni mahzuf.

Foilotun failotun failun  
– V – – V V – – V V –

6. Ramali musaddasi maxbuni maqsur.

Foilotun failotun failon  
– V – – V V – – V V ~

7. Ramali musaddasi maxbuni maqtu'.

Foilotun failotun fa'lun  
– V – – V V – – – –

8. Ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'.

Foilotun failotun fa'lon  
– V – – V V – – – ~

### III. Rajaz bahri vaznlari

1. Rajazi musammani solim.

Mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun  
– – V – – – V – – – V – – – V –

2. Rajazi musammani matviyi maxbun.

Muftailun mafoilun muftailun mafoilun  
– V V – V – V – – V V – V – V –

### IV. Sari' bahri vaznlari

1. Sari'i musaddasi matviyi makshuf.

Muftailun muftailun foilon  
– V V – – V V – – V –

2. Sari'i musaddasi matviyi mavquf.

Muftailun muftailun foilon  
– V V – – V V – – V ~

### V. Mutaqorib bahri vaznlari

1. Mutaqoribi musammani solim.

Faulun      faulun      faulun      faulun

V --      V --      V --      V --

## 2. Mutaqoribi musammani mahzuf

Faulun      faulun      faulun      faal

V --      V --      V --      V -

## 3. Mutaqoribi musammani maqsur.

Faulun      faulun      faulun      faal

V --      V --      V --      V ~

## 4. Mutaqoribi musammani aslam.

Fa'lun      faulun      fa'lun      faulun

--      V --      --      V --

O'quvchilar aruz bo'yicha test savollariga javob izlash jarayonida ushbu vaznlarning nomlari, ruknlar tarkibi hamda chizmalarini asta-sekinlik bilan o'zlashtirib ola biladilar.

San'atkorlar mumtoz qo'shiq ijrochilari, xofizlar, aktyorlar, badiiy so'z ustalari mumtoz she'riyat, xususan aruz xususiyatlarini chuqur o'zlashtirgan holdagina, yuqoridagi nuqsonlardan halos bo'lishlari mumkin.

Talabalar bilan mumtoz she'riy asarlar ustida ish boshlaganda uning ilk bosqichi bo'lgan fardlarga - ya'ni hikmatomuz she'riy baytlarga murojaat qilamiz.

**Fard** – kichik lirik asar bo'lib, yakka, yolg'iz degan ma'noni bildiradi va unda katta hayotiy, ahloqiy va falsafiy fikrni ifodalaydi. Fardlarda ijodkorlar ko'pincha o'zlarining axloqiy-tarbiyaviy fikrlarini, falsafiy qarashlarini beradilar. Shuning uchun fardlar hikmatli so'zlar, maqol, matallar darajasida bo'ladi. Ba'zi hollarda shoirlar tomonidan yaratilgan fardlardagi hikmatomuz gaplar keyinchalik xalq orasida shuxrat topgan, maqolga aylanib ketgan.

*Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon*

*Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.*

*Bo'lmasang olimda, yo ko'nghumda bo'l, yo jonda bo'l.*

*Mazgilingdur bori, ko'nghung qayda istar – onda bo'l.*

A.Navoiy

**Qit'a** – ikki baytdan o'n baytgacha bo'ladi. a-b, g-d, d-b, va hakazo tarzida qofiyalanadi. Uning asosiy xususiyati uning xikmatli, chuqur mazmunli, yuksak didaktik ruxga ega bo'lishligidir.

*Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay*  
*Qismat rizosidin anga begonaliq kerak,*  
*Desang xalos o'lay borisidin Navoiydek*  
*Bexudlug'u may ichmaku devonalig' kerak.*

A.Navoiy

Qit'a turli mavzularda yaratiladi. Shoirlar ko'pincha falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarni, odob-axloq haqidagi fikr-mulohazalarini qit'ada ifodalaganlar. Teatr san'ati insonlarni hamisha ezgulikka ma'naviy tarbiyaga yetaklagani bois talabalar bilan qit'alar tahlili va talqin jarayonlarida yuqoridagilar ta'kidlab otiladi.

**Tuyuq** so'zi tushlash va tuyuq ma'nosini bildiradi. Tuyuqning kelib chiqishi zamin ildizlari xalq poetik ijodiga borib taqaladi. A.Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida bu haqida quyidagilarni yozadi: "...Birisi "tuyug'"durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur, mundoqkim (tuyug')":

*Yo rab, ul shahdu shakar yolabmudur?*  
*Yo magar shahdu shakar yolabmudur?*  
Foilotun foilotun foilun  
*Jonima payvasta novak otqoli,*  
*G'amza o'qin qoshiga yolabmudur?*<sup>1</sup>  
Foilotun foilotun foilun

**Mumtoz janr turlaridan yana biri ruboiy** bo'lib, katta falsafiy, ijtimoiy, axloqiy mazmunli ixcham she'rdir.

Ruboiy odatda, to'rt misradan iborat bo'lib, misralar aro qofiyalanishi a-a-b-a tarzda bo'ladi.

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,*  
*Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidir,*

---

<sup>1</sup> Mallayev N.M. tahriri ostida. O'zbek klassik she'riyati janrlari. – T., 1979.

*Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' har giz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.*

Bu ruboiy a-a-b-a, tarzida qofiyalashgan. Yana bir ko'rinishi:

*Xijron aro yod etib meni shod etti,  
Mahjur ko'ngulni g'amdin ozod etti,  
Ne lutf edi ul xuri parizod etti,  
Go'yoki buzuq ka'bani obod etti.*

Bu ruboiyning qofiyalanishi a-a-a-a tarzidadir.

Yuqoridagi ruboiylarni ijrosi ustida ishlaganda faqat ohangdosh so'zlarni talaffuz ohanggi bosimini kuchaytirish natijasida erishmay, balki shoirning, fikri nima, u nima demoqchi, kabi asosiy vazifalar asosida yondoshish kerak. Boburning «Har kimki vafo qilsa» ruboiysida shoirning asosiy fikri «Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlig' hargiz» misrasida bo'lib, asosiy fikrni, maqsadni shu misraga yo'naltirish darkor. Shunda ijrochi o'z maqsadiga erishish uchun, nima qilish kerakligini ijroda ifodalaydi. Tahlil jarayonidan keyin ijrochi talaba talqinga to'g'ri yondashadi. Albatta har bir matn bilan ishlash jarayonida nutq texnikasining tarkibiy qismlari, ulardan to'g'ri foydalanish uslubi o'qituvchi tomonidan nazorat qilinib boriladi.

Bu jarayon mumtoz she'riyatning yetakchi jarayonlaridan biri bo'lmish - g'azal bilan yakunlanadi. Ma'lumki har qanday ijroda fikr birlamchi bo'lishi lozim. Lekin she'rning tashqi shakli ham o'z o'rnida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki shaklni mazmunsiz, mazmunni shaklsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, she'riy asarlar ijrosida har ikkala jihatni uyg'un qilib olib borish zarur.

Adabiyotshunoslikda she'riy san'atlarni o'rganish ikki turga, ya'ni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratiladi.

-ma'naviy san'atlar asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qiladi;

-lafziy – san'atlar asarning til jihatdan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashga yordam bergan.

Har ikkala san'atning ham o'ziga hos xususiyati va imkoniyat ko'lami mavjud. Ma'naviy san'atda ham, lafziy san'atda ham biz ijrochilikda o'rganishimiz muxim omillari mavjud.

Demak, **ma'naviy san'atlarga**: Mubolag'a, Tashbix, Tamsil, Husni ta'lil, Tajoxuli orif, Tashxis, Intoq, Talmix, Laff va nashr, Ruju', Istiora, Tansiq as-sifat, Muqobala, Kinoya, Irsoli masal, Tazmin, Savolu javob, Iqtibos, Iltifot, Muammo.

**Lafziy san'atlarga**: Tajnis, Iyhom, Tanosub, Ishtiqoq, Tazod, Ta'dil, Raddul ajuz, Tardu aks, Jam', Taqsim, Tafriq, Jam' va taqsim, Jam' va tafriq, Takrir, Mukarrar, Tazmini muzdavaj, Qitobot, Talmi', Muvozana, Tarix, Raddi matla', Insho - shunday tasniflanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan she'riy san'at turlaridan bizga, gurux ishlarida ko'proq har ikkalasi ham uchrab turadi. Mumtoz she'riy asarlar ustida ishlaganda ko'proq tashxis (ma'naviy san'at), savolu – javob, intoq (M.S), iyxom (lafziy san'at), tamsil (misol keltirish) san'at turlarini ham qiziq, ham ko'proq aktyorlik san'atiga mos keladigan, tahlil qilsa bo'ladigan deb o'ylayman.

**Tashxis** (jonlantirish) – hayvonlar, qushlar, mavhumiy narsalarga inson hususiyatini ko'chirish san'atidir.

Masalan, Xuvaydoning:

*Qoshingga sajda qildim misli mehrob,*

*Qaro zulfingga qo'ydim jomil chirmob.*

Furqatning: *O'ldururg'a bir-biri birla qoshing kengash etib,*

*Bosh qo'shib anga ikki nargis degan xunnor ham.*

**Intoq** (gapirtirish) – bu san'at turi badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatishni nazarda tutadi.

Masalan, A.Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlar odamlar kabi so'zlatilgan.

Misol: *Men qusheman qasru gulshan ziynati,*

*Naqshu rangim axli olam hayrati.*

*Suratim gulshang'a orayish durur*

*Hay'atim ko'rganga osayish durur.*

Bu san'at o'zbek adabiyotida ko'p asrli tarixga ega. Uning ilk namunalarini "Devonu lug'atit turk"dagi qish va yoz munozarasida ko'ramiz. Bu san'at turi zamonaviy she'riyatimizda ham bor.

Masalan Cho'lponning "Go'zal" she'ri:

*Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman.  
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,  
Aytadir: "Men uni tushda ko'raman.  
Tushimda ko'raman, shunchalar go'zal,  
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!"*

she'rida quyosh, oy, yulduz, tong shamoli odamlardek gapiradi. Bu san'at masallarda ham bor. Masalan, Gulxaniyning "Teva bilan bo'taloq", "Maymun bilan Najjor" masallarida ham uchraydi. Masal ijrochiligida buni yanada chuqurroq o'rganib, ijro etish maqsadga muvofiqdir.

**Savolu javob** – bu san'at turida ikki shaxs, ko'pincha oshiq bilan maxbuba o'rtasidagi savol va javobni aks ettirish usuli qo'llaniladi.

Bu san'at turidagi asarlarni ijro qilish badiiy o'qishda aktyordan katta mahoratni talab etiladi. Murakkabligi shundaki, ikki persanaj va muallif so'zlarini asar g'oyasiga putur yetmagan holatda bir – biridan ajratish, ham oshiqning so'zini, ham mashuqasining javobini eshitish va shunga yarasha javob berish yoki yanada savolni o'stirib borish – bu ijrochidan ham zukkolikni, ham burrolikni, ham shu muxitda, ya'ni savol – javob muhitidan uzoqlashmaslikni talab etadi.

Masalan: Almaiyning:

*Dedim; qulog'ingga oltin isirg'a taq, yaroshur,  
Dedi; teshuklari og'riydi, tor, mayligamu?  
Dedim; sochinga ulag'il kumush popuk, yaroshur,  
Dedi; belimga tegib og'ritor, mayligamu?  
Dedim; qo'lingga javohir uzuk solg'il, yaroshur,  
Dedi; qo'limda so'ngok yo'q, siqor mayligamu?  
Dedim; visoling-la Almaiyni qil mehmon,*

*Dedi; Oyim urushur ham sokor , mayligamu?*

**Tamsil** (misol keltirish) ma'nosini bildirib, she'r baytining birini misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir xodisani misol qilib keltirishga asoslangan san'at xisoblanadi. Mumtoz lirikaning turi bolgan gazallar kopincha tamsil san'atiga murojaat etadi. G'azallar ustida ish ketganida, albatta, har bir o'qituvchi uning nazariy jihatidan tahlil va aruz qonun – qoidalari jihatidan tushuntirish, asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, undagi lirik va epik timsollarni yorqinroq g'aydalantirishga, misralar, baytlarning nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlash kabi jihatlar haqida talabalarga tushuntirib o'tadi. Muayyan she'rning mazmuni va mohiyatini anglash uchun har bir ijrochi avval bir necha bor o'zi o'qib chiqishi lozim, shundagina undagi muallif mushohadalari, qaxramonlar kayfiyati, ruxiy kechinmalari, dardu–iztiroblari, qalb tug'yonlari-yu, jo'shqinligi, zavqu – shavqini birgina so'z zamirida yetkazib berishga erishmog'i lozim. Demak, ijrochi kechinma san'tining mashaqqatli yo'lidan borishi, so'zlar, misralarning qat-qatiga yuragi, qalbidan sizib chiqayotgan hissiyotlarni singdira bilishi, she'rni – g'azalni, nazmiy sahna asari darajasiga olib chiqmog'i kerak bo'ladi. Buning uchun esa, she'riy asarni o'rganishdagi yuqorida sanab o'tilgan amallar bilan birga, uning qaysi she'riy san'at turiga mansub ekanligini o'rganish ham muhim o'rin tutadi.

G'azal ham boshqa lirik tur janrlari singari, kishining ichki his-tuyg'ularini ifodalaydi, unda hayot voqea xodisalariga bo'lgan shoir munosabati lirik qahramon ichki kechinmalarining butun qarama-qarshiligi, to'laligi, teranligi tasviri orqali beriladi. Shuning uchun g'azal chuqur lirizm bilan sug'orilgan, bo'ladi va lirik qahramon obrazi asosiy planda turadi. G'azaliyotda lirizm obraz qalbining eng nozik tuyg'ulari tasviri, ma'shuqaning go'zal portreti va tabiatning ajoyib lavhalarini chizish va eshituvchining qalb torlarini cherta bilish orqali yuzaga chiqariladi. Yana shuni aytish joizki, g'azal musiqa san'ati bilan mustahkam aloqada yashaydi. Uning taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

A.Navoiyning "*Orazin yopg'ach...*" deb boshlanadigan g'azalida yulduzlar paydo bo'lganidan so'ng quyosh ko'rinmay qolishi xodisasi bilan 1-chi misrada

ifodalangan obrazli ifoda; mahbuba yuzini bekitgach, oshiq ko‘zidan yosh sochilishi xodisasi o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslangan. Yor obrazi bilan quyosh, oshiq ko‘z yoshi bilan yulduz qiyoslanib, birinchi misradagi fikrning yorqin badiiy tasviriga erishilgan.

Rivoyat qilishlaricha: Mavlono Lutfiy so‘z lutfida yagonai davron edi. Undan ilgari hech kim turkiy tilda she‘rni undan yaxshiorq aytaolmagan. Oliy xazrat yoshlari endigina to‘lib, yigitlik davri boshlangan paytlarda, bir kuni Lutfiy xizmatiga bordi. Lutfiy, o‘z nozik fikrlaringizning natijalaridan yuzaga chiqqan bir g‘azalni o‘qish bilan bizni baxramand qilsangiz, deb iltimos qildi. Ul xazrat bir g‘azal o‘qidi:

*Orazin yopqach, ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,  
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.*

Mavlaviy janoblari bu alangali g‘azalni eshitish bilan hayrat dengiziga cho‘mib, shunday deydi: “Volloh, agar muyassar bo‘lsa edi, o‘zimning o‘n-o‘n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g‘azalga almashtirardim va bu ishning yuzaga chiqishini zo‘r muvaffaqiyat xisoblardim”. Ushbu g‘azalning nasriy bayoni hamda lug‘ati bilan tayyorlangan “Navoiy g‘azallari (nasriy bayon, sharh va izohlar)” risolasidan to‘liq holda keltiramiz. Talabalar mumtoz she‘riyatning g‘azal ustidagi ishda ushbu jarayonlarni o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil va talqin etadilar.

*Orazin yopqach, ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,  
O‘ylakim, paydo bo‘lur yulduz, nihon bo‘lg‘ach quyosh.*

*Qut bir bodomu yerim go‘shayi mehrob edi,  
G‘orati din etti nogah bir balolig‘ ko‘zu qosh.*

*Bu damo-dam ohim ifsho aylar ul oy ishqini,  
Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.*

*Bo‘saye qilmas muruvvat asru qattiqdur labing  
Desam, og‘zi ichra aytur: “La‘l ham bor nav‘i tosh”.*

*Novaking ko‘nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin  
Kim, qilur paykonini ko‘nglum bila jonim talosh.*

*Umri jovid istasang fard o‘lki, bo‘ston Xizridur,  
Sarvkim, da‘b ayladi ozodalig‘ birla maosh.*

*Qoshi ollinda Navoiy bersa, jon ayb etmangiz,*

*Gar budur mehrob, bir-bir qo'yg'usidur barcha bosh.*

– V – –      – V – –      – V – –      – V –

Foilotun      foilotun      foilotun      foilun

Ramali musammani mahzuf

Lug'at

**Go'sha** – burchak, xilvat, chekka joy.

**Da'b** – odat, qiliq.

**Jovid** – abadiy, doimiy, mangu.

**Ifsho** – fosh qilish, ochish, oshkor qilish.

**Nav'** – tur, jins, xil.

**Nihon** – yashirin, ko'rinmas.

**Novak** – kamonning o'qi; kiprik.

**Paykon** – kamon o'qining uchi; kiprik.

**Fard** – yakka, yolg'iz.

**Qut** – yemak, ovqat, oziq.

**G'orat** – talon qilish, barbod berish.

### **Nasriy bayon**

Sevgilim yuzini yopgach, ko'zimdan tinimsiz yosh to'kiladi. Bu go'yo quyosh bekinganidan so'ng yulduzlar paydo bo'lganiga o'xshaydi.

Men uzlatga chekingan edim: mehrob burchagiga o'tirib olib, kunda bir bodom bilan oziqlanardim. Kutilmaganda qoshu ko'zi ofatijon bir go'zal uchradiyu, dinimni paymol etdi.

Dam-badam tortgan ohlarim sevgilimga bo'lgan muhabbatimni fosh etadilar. Bu bot-bot tongotar bo'lishi natijasida quyosh chiqqaniga o'xshaydi.

Lablaring juda xasisdirlar, biror marta bo'sa hadya etmaydilar, deb ginaxonlik qilsam, u pichirlab "La'l ham bir xil tosh-ku, axir", - deydi.

Sen otgan o'q ko'nglimga tekkach, jon achchig'ida to'lg'ana boshladim. (Sen buni azob deb o'ylama): ko'nglim va jonim sening o'qing uchini talashmoqdalar...

Boqiy umr istasang, yolg'iz - bo'ydoq bo'lgin. Ko'rmaysanmi: yolg'izlik va ehtiyojsizlikni odat qilib olgan sarv bo'stondagi Xizrdir.

Yor qoshini ko'rib, Navoiy jon bersa ayb qilma. Agar qosh shunaqa mo'jizakor bo'ladigan bo'lsa, barcha unga birma-bir sajda qiladi (jon fido qiladi).<sup>1</sup>

Mumtoz she'riyat ustida ish borganida har bir ijrochi uni nazariy tahlili borasida qaysi she'riy san'at turiga mansub ekanligini bilishi, o'rganishi uni ijro mahoratida bekamu-ko'st, ravon til va xis-tuyg'ular jo'shqinligida, uning janrini to'g'ri aniqlagan holda yondashmog'i lozim.

She'riy nutqning o'ziga xos vositalaridan biri bo'lmish so'z o'yinlarini o'rganishda, mag'zini chaqishda, undagi ko'chma ma'no, imo-ishora va hazillarni anglashda, obrazlarni jonli tasavvur orqali yetkazib berishda she'riy san'atlarni mukammal o'rganish, ijro mahoratini, undagi badiiylikni boyitadi.

Mumtoz she'r tuzilishini o'zlashtirgach janr xususiyatiga e'tibor berilib mashg'ulotlarni davom ettiriladi.

---

<sup>1</sup> Navoiy g'azallari (nasriy bayon, sharh va izohlar). –T., Bayoz, 2015, 153-b.

## VOQEALAR TIZIMIDA SO‘Z HARAKATI TA’SIRCHANLIGI

Xalqimizning boy madaniy meroslaridan biri xalq og‘zaki ijodi – so‘z san’ati janridir. Og‘zaki so‘z san’ati qadimiyligi, shuningdek asrlar osha boyib, tarbiyaviy ahamiyati, ma’naviy yorqin va mazmundorligi va mavqei oshib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko‘rku fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik va shaharsozlik san’ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me’morchilik, dehqonchilikka oid o‘n minglab asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir”<sup>1</sup>.

Shu o‘rinda har bir xalqning boy og‘zaki so‘z san’ati bo‘lganidek, o‘zbek xalqining ham og‘zaki adabiyoti durdonalari mavjud. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan ijod mahsulidir. Chunki ular bir kishining ongli faoliyati natijasida emas, butun bir jamoaning ijodi asosida vujudga keladi. Xalq og‘zaki ijodining mustaqil turi hisoblangan og‘zaki drama o‘z ichiga turli xil o‘yin, to‘y, sayillarni, baxshi, qissaxon, roviylarning badiiy so‘z ijrochiligi san’atini qamrab olgan.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar, 7-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B. 132. (410).

Xalq og‘zaki ijodi namunlaridan aktyorlik, rejissyorlik guruhi talabalarining nutqi hamda fikrini uyg‘otishda qo‘llaniladigan kichik janrlarga to‘xtalib o‘tamiz.

**Saj.** Xalq og‘zaki ijodining turlaridan biri bo‘lgan saj san‘ati ham so‘z ijrochiligida muhim o‘rin tutadi. “Saj” so‘zi arabcha bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi jihatidan qumri, bulbul, to‘ti kabi xushovoz qushlar tovushining bir-biriga qo‘shilib, jo‘r bo‘lib ketishini anglatadi.

O‘zbek xalq dostonlarida uchraydigan sajlarining mohir ijrochilari so‘z ustalari, baxshilar, muqallidlar, qo‘g‘irchoqbozlar, qiziqchilar asosan badihago‘ylik asosida to‘qilgan satirik uslubdagi sajleri, faqat kuldirish uchun emas, balki “kosa tagida nim kosa” yo‘lida aytilgan so‘zning tarbiyaviy ahamiyati ham muhim hisoblangan.

Sajlar o‘zbek xalq maqollarida, ertaklarda, dostonlarda ham ko‘p uchraydi. Sajlangan matn ravon o‘qiladi, ohangdorlik va kuchli emotsionallik tug‘diradi, shu bois eshituvchi tomoshabinlar xotirasida saqlanib qoladi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha Q.Imomov, B.Sarimsoqov, O.Safarov kabi olimlar ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borishgan. Shular qatorida saj bo‘yicha qiziqarli tadqiqotlar olib borgan R.Musulmonqulov: “Saj nasriy gaplar oxiridagi ikki yoki undan ortiq so‘zlarning qofiyada yoki vaznda, yoki har ikkalasida barobar kelishidan iboratdir,” deb ta‘rif beradi. Misol uchun: Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasavul ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan...

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi va yozma adabiyotida saj san‘atining quyidagi uch turi uchraydi.

1. To‘liq saj. Bir yoki bir necha gaplar tarkibidagi ayrim bo‘laklar ham vaznda, ham har bir raviyda mos bo‘ladi. Raviy mosligidan tashqari hamvaznlik ham bo‘lishi shart. Misol: “Esa, jallodlar so‘yib qo‘ymasin, tezroq borib qo‘lidan olinglar, zindonga solinglar” (“Ravshan” dostonidan).

2. Qofiyali saj. Bir yoki bir necha gapdagi ayrim bo‘laklar vaznda emas, faqat raviydagina mos bo‘ladilar. Sajning bu turini qofiyaga o‘xshatish mumkin, biroq uning tuzilishi esa qofiyadan farqlanadi. Misol: “Zulxumor oyim maynani osmonga uchirib, dod deb, faryod deb, maynasiga aytgan so‘zi”.

3. Vazndosh saj. Bir yoki bir nechta gapdagi ayrim bo‘laklar hamvazn bo‘lib, raviyda mos bo‘lmaydi. Misol “Alqissa Qoraxon podsho o‘g‘lining dardini ishqdan bilib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, qaddi bukilib, ko‘zidan yoshi to‘kilib, o‘g‘liga qarab bir so‘z aytib turibdi”.

O‘zbek xalq ertaklari va dostonlarida shunday o‘rinlar uchraydiki, ular ko‘pchilik ertak va dostonlar uchun mushtarak bo‘lib, ularda saj yetakchi rol o‘ynaydi. Bunday o‘rinlarga ertak va dostonlardagi zachinlar, peysaj va ayrim tiplar tasviridagi sajlarini ko‘rsatish mumkin. Agar saj san’atining bunday o‘rinlarda qo‘llanilishi qadimiy bo‘lmaganda edi, mazkur o‘rinlarda saj qo‘llanishi mushtarak xarakterga ega bo‘lmagan bo‘lardi.

O‘zbek adabiyotidagi saj dastlab turkiy xalqlar folklorida paydo bo‘ldi. Biroq uning keyingi rivojida boshqa xalqlar, jumladan, fors-tojik xalqlari adabiyotidagi sajning roli va o‘rni bor.

Nasriy ertaklarda saj asosiy o‘rin tutadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Faqat zachin va bog‘ tasvirlaridagina emas, balki personajlarning turli holatlarini tasvirlashda ham qo‘llanadi. Odatda, ertaklarda personajlarning quyidagi holatlari sajlanadi:

- a) personajning u yoki bu narsadan qo‘rqish holati.
- b) personajlarning sevinish, hursandlik holatlari va x.k.
- v) personajlarning xafalik holatlari ham sajlanadi.

Sajning lug‘aviy ma’nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, qushlar kabi xushovozlikka, bir-birini xis qilib turib davom etish kabi elementlar sahna san’ati uchun zarurdir.

Teatr san’ati ta’limida, aktyorlarni mutaxassislik faniga o‘qitishdagi o‘quv mashg‘ulotlarida, aktyorlik mahorati elementlarining shakllanib borish jarayonida, diqqatni jamlash, o‘zidan avvalgi aytilgan so‘zni e’tibordan qochirmaslik, badihago‘lik, so‘zamollikni oshirishda “Sahna nutqi” fanida fikr mahsuli bo‘lmish so‘zning turli maqsadlarda qo‘llashda sajlardan unumli foydalaniladi.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Sahna nutqi” kafedrasida professori I.Djumanov tomonidan yaratilgan “Sahna nutqi” mashqlar to‘plamida

muallifning o‘zi tomonidan yaratilgan bir qancha sajlar ham o‘qish jarayoniga tatbiq etib kelinmoqda.

Sahnaviy ifodali nutq, jarangdor ovoz, tomoshabinni ta’sirlantiruvchi yana bir qancha omillar borki, ularda xalq og‘zaki ijodining so‘z san’ati turli janrlari uchraydi albatta.

Aktyorlar, badiiy so‘z ustalari doimo insonlarni ezgulikka chorlovchi, vatanparvarlik hissi bilan yo‘g‘rilgan badiiy asarlar ijrosi, teatr sahnasida, televideniye va kino ekranlarida ham milliy san’atimiz va adabiyotimizning eng sara namunalari insonlarga so‘z orqali yetib boradi.

Saj mashqlari aslida deyarli barcha texnik mashqlarni birlashtiruvchi kompleks xarakterga ega ekanligi tufayli, shu xarakterning saqlab qolinishiga e’tiborni jalb etish zarur. Bunda diksiya va artikulyatsiya aniqligi, nafas mashqlari majmuasi bilan bir qatorda, ijrochilikda temp-ritmni to‘g‘ri qo‘llay olish, muomala kabi faktorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>1</sup>

### **Sajlardan namunalar**

#### **“Erali va sherali” dostonidan saj**

Erali bobosidan oq fotiha olib, duodan yo‘qlang – deb otini olib, shaharni yo‘llariga kirib, ko‘kayin kesib, tinmayin yurib, to‘ralik yuz-u xotiri bilan, darvozaxonagacha 1 necha botiri bilan, soyaparda chodiri bilan, sherali qarag‘ay botiri bilan, jilovdor shotiri bilan, manzilini ko‘zlab ketdi va manzilga borib yetdi.

#### **“Ravshan” saj**

Gulnoz ko‘p suluv, yaxshi suratli, shirin so‘zli, quralay ko‘zli, uzun boyli, keng ko‘krakli, xush xayol, zehni tez, qoshi kamon, qadami olov, nigohi o‘tli, ser fahm, aqlda tengi yo‘q. Gulnoz desa labbay deb, ko‘nglingizga qaray deb, ahvolingiz sorab, yaxshi yononni oylab, kecha kunduz hushyor, har hizmatga tayyor qiz edi.

#### **“Go‘r og‘lidan” saj**

---

<sup>1</sup> Inomxo‘jayev S. Badiiy o‘qish asoslari. -T: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1973. -B. 95.

Bibihilol oyimni ko'rib, bu kunin g'animat bilib, o'zida bor hunari bilan beli buralib, g'unchaday ochilib, tovustay tovlanib, kimhob baxmalga oralib, labini tishlab, ko'zini qisib, o'rnidan sakrab turib, bir tugun toza kiyimni olib, kelib ro'molin o'rab, zulfini tarab, qo'lga sozini olib, bo'yni buralib, bir necha shonshavkatlar bilan nozu karashma qilib, Go'ro'g'liga qaradi.

### **“Ravshanbek” dostonidan saj**

Ravshanbek bog'ning ichidagi qushlardan yorini so'rab turib edi, bir pilla piq etib bog'ning devoir ochildi. Ravshanbek qarasa, bir kampir, qo'lida ikki mo'ndi – ko'za kelayotibdi. O'zi qashqa kampir, bu kampirlardan boshqa kampir, bilmayman kiribdi necha yoshga kampir, beli bukrayib qolgan, qulog'i tikrayib qolgan, bachchag'arning tishlari omochday, sochlari polochday, manglayidan tarlon ochgan, ikki chekkasining go'shti qochgan, boyinlari tirishgan, hamma yeri qurishgan, iyaklari burishgan, ko'ringan odam bilan urishgan, agar boshqa odam erinmasa, erinmasdan urishgan kampir. Ko'zlari o'tday, manglayi cho'tday, kallasi gov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebatday kampir. Chaqadigan ilonday, qari ham bo'lda qulunday, boynin suzibbulunday, suvga kelayotibdi.

### **“Rustam” dostonidan saj**

Oqtosh viloyatida dostoni mastondan uch yuz oltmish maston bor edi. Uch yuz oltmish mastonning boshlig'i momogul maston der edi. Manzili shahardan tashqari bir g'orda edi. G'orda yotar edi, xurrakni baland tortar edi, botmon nosvoyni to'rt bo'lib otar edi, yurish-turishi odamlarga xatar edi, ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi, yaxshilikni uch pulga olmay, qayerda yomonlik bo'lsa izlab yotar edi, qanday odam bo'lsa bu kampirdan hazar qilib uzoqqa qochar edi, yomonlik izlab borgan odamning ishi shu mastondan bitar edi.

### **“Ravshan” dostonidan “oq qiz” saj**

Oq qiz shunday qiz edi: oti oqqiz, zulxumorga naq qiz, oqqiz o'zi oqqiz, o'zi to'lgan so'g' qiz, o'rta boyli chog' qiz, oynagani bog' qiz, uyqichi emas sog' qiz, eri

yo'q – ozi toq qiz, ko'p kalandimog' qiz, yaxshi tekiz bo'z bolani ko'rsa esi yo'q - axmoq qiz, qora ko'z, bodom qovoq qiz, sinli-siyog qiz, o'zi semiz – turishi yog' qiz, oyinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqo'v olayroq qiz, tanasi to'sh qoygan keng qiz, sag'risi do'ng qiz, urushqoq emas – jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz, yaxshilardan so'ng qiz, et ko'targan go'shdor qiz, biqini tor, to'shdor qiz, aqli kam xushdor qiz, oq yuzin ko'rsang, oyday. Xurkak-asov toyday, olg'ir qarchig'ayday qiz. Yuvoshligi qoyday, semiz emasmi, yoysang eriydi sarig' moyday. Shunday oq qiz edi.

### **“Alpomish” dostonidan saj**

Barchin turar hurday bo'lib, tishi gavhar durday bo'lib, jamollari oyday bo'lib, misli asov toyday bo'lib, birming qoyli boyday bo'lib, ko'zi quralayday bo'lib, ko'rganlarning ko'ngli to'lib, kanizlar bilan jam bo'lib, oyin kulgi davron surib, kanizlar ko'p xizmat qilib, biy qizi deb hurmat qilib, suqsurin ko'nglin olib, hammalari birday bo'lib, bog'da ochilgan gulday bolib, chamanda bulbulday bo'lib, o'tirib edi suhbat qurib, qalmoq bordi sherday bo'lib.

### **“Murodxon” dostonidan saj**

Murodxon qizning qadi jamolini ko'rib, aqli shoshib, taqdiridan adashib, jamoliga bo'g'inlari bo'shshib, bari yeri qaltirab, ko'zi yaltirab, mazasi ketaverdi. Yiqilsam meni ko'rar, so'ngra ishim qattiq bo'lar, deb o'lay-o'lay deb ozini bazo'r toxtatdi. Qizning boshida bir tovoq osh turibdi, u qizga hech dahl qilmay oshidan yeb, xudoga shukur deb, gullardan olib iskab. “Bugun shunchalik bo'ldim, ertan jamolini ko'rsam, yana durustroq o'zimni to'xtatib olarman, o'rganib qolarman, so'ngra shunday yotganiga yo'liqsam, buni bir sozlab ko'rarman deb, borib qaytib tag'in haligi kampirning ko'rmasiga nomoz vaqti asta kirib yotdi.

### **“Ravshanbek” dostonidan saj**

Ana endi Ravshanbek otasidan duo olib, otini yo'lga solib, o'zini yo'lga chog'lab, o'tkir isfaxon qilichini beliga bog'lab, shirvon yurtini so'roqlab,

Zulxumoroyini daraklab, Zulxumoroyga oshiq bo'lib, aytgani qo'shiq bo'lib, o'zining ishiga pishiq bo'lib, har nima deb gapirsa Zulxumor deb so'zlab, Zulxumoroydan qo'shiq aytmoqchi bo'lda, dovshini sozlab, bo'taday ostidagi jiyron qush otini tezroq borsa ekan deb borayotir.

**I. Jumanov.**

***Topqirlik mashqi rivojlantirilib, shu «o'ylab topilgan qofiya» tizimidan  
mantiqan bog'lab, voqea tuzishga urinib ko'radilar.***

*1-talaba: Tip-tiniq lojuvard osmon.*

*2-talaba: Tip-tiniq lojuvard osmon, ostida yam-yashil bog'u bo'ston.*

*3-talaba: Tip-tiniq lojuvard osmon, ostida yam-yashil bog'u bo'stonda, bahshi bobo qo'lida dutor bilan, bir doston bo'lib dostonmas, ertak bo'lib ertakmas «allambalo» so'z o'yini boshlanadi: Kim ko'p pul-pul-pul desa, ko'p pullik bo'lsin. Kim ko'p bulbul bul desa, bulbullik bo'lsin. Kim ko'p dil-dil-dil desa, nurdillik bo'lsin.*

*Kim ko'p mil-mil-mil desa, manzillik bo'lsin. Kim ko'p til-til-til desa, zo'r tillik bo'lsin. Yaqin qadim zamonda, Chamangul yurt jambul tomonda, Dunyosi eliga yoqqan Alp qomat, Barchinlar to'qqan, Olam sirlarin uqqan, Daryosi toshib oqqan, Toshganda shoshib oqqan, Shoshsada jo'shib oqqan, Toshlarni to'shib oqqan Qumlarni qo'shib oqqan, Tog'lari oppoq qorli, Qirlari archazorli, Shamollari yoqimli, Manzarasi boqimli, Tulporlari taqimli, Yigitlari navqiron, Suluvlari navnihol, Kelinlari sho'h-shaddod, Kampirlari javraqi, Chollari-chi sayroqi ekan, Ana o'sha jambulning chitti gulli, chini gulli, gulsafsar, gulibeor, mushki beor, bori bisyor o'sadigan «Jujilazambazim-Izzalamdumbul-Qayroqqum-Undaramxummor» yurtida, Tanlovlarga hushi yo'q, Pardozi bilan ishi yo'q,*

*Bo'z yigitlar tomoq qirsa, lab burgan, Humor boqqan ne ko'zlarga burun jiyirgan, Tishni asrab pista, bodom chaqmagan, Ko'z-ko'z uchun yoqut zirak taqmagan, Ishq otashiga sira ishi tushmagan, Qo'shiq bilan, ertak ilan o'z-o'zini hushlagan O'ttiz kunlik oyday oydin qirqta qiz, Chevarlikda uzun-uzun solib iz, Ko'p ko'p o'tib bahoru yoz, kuzu-qish, El og'ziga elak tutmay, tinglamay mish-mish, Kishmishlarni ko'p sevsam ham, yemay kish-mish, Boshlariga orttiribdi bir tashvish*

*Bir tashvishki allambalo ayri jish, Boshdan uchib hayolu noz, esu hush  
 Bo 'libdilar chirqillagan qirqta qush, Qirqta qushki qir adirda yetti darg'a  
 Qag'-qag' sayrab qanot qoqqan qirq qarg'a, Qirq qarg'aki tumshug'lari qayroqday,  
 Don yong'oqqa qarmoqday, Qurt qumursqa ko'rib qolsa,  
 Charhlangan yaroqday, O'tkirlangan o'roqday, Qag'illagan ovozi,  
 Qor chaqirgan karnayday, Qor-qirovga qaramay, Qag'illashi bayramday,  
 Biri olib biri qo'yib, Sayrashlari sayronday, Patlarini tarashib,  
 Goh urishib yarashib, Bir biriga o'qrayib, Qayrag'ochda qo'qqayib,  
 O'tirishi g'alati, Shuda qarg'a odati.  
 Shunda kelib bir nuroniy munajjim, Munajjimki bir dunyosi sir tilsim,  
 O'ram o'ram sallasi boshida, Selkilagan soqoliyu qoshida,  
 Donoligu bilimdonlik yoshida, Odamlarga ulashardi ezgulik,  
 Ezgulikki dilu-tilga yozg'ulik. Munajjimni der edilar Mahkam,  
 To'qson yoshni qoralagandi salkam, Mahkam bobo qarg'alarga kisht dedi,  
 Men bilganni bilolmasang kallang puch dedi, Yoshim to'qson to'qqizda, turli tilda  
 so'zlayman,  
 So'z ilmini bilganni ardoqlayman qo'llayman, Hatto qarg'a tilida, sir so'zlashni  
 bilgandim,  
 Yo'lingizni to'saman, To'qson yilda o'rgangan, To'qson tilni yo'llayman.  
 To'qson tilda gap qotib, Bilganlarim as qotib, Oxiri boshi qotib,  
 O'yyu-xayolga botib,  
 Qarg'a tilida qag'illab, olashaqshaqday shaqillab, qurbaqaday vaqillab,  
 toshbaqaday tisillab, ilonlarday vishillab, chigirtkaday chirillab, o'rgimchakday  
 o'rmalab, chayonlarday charsillab, arilarday izillab, Turli yo'llarni izlab, sehru jodu  
 ilmini,  
 Qarg'alarga qo'lladi, Ibn Sino bobomizday Tibiyotni ko'zladi. Qirq qarg'aga qarata  
 qag'illadi qarg'aday, Qarg'a tilin bilguvchi, Bir Alloma Darg'aday.  
 Ud-jvz-mdr, fkm-cthp-bd up, Chms-chqr, jg'r-jungurr-mbdrmi, Hbk-krakamachuturr  
 uvptas jfvptraka, Htkrmrl-pchtpa-kamprokashurr, Juv jumalajumbur juvara  
 jabudurum,*

*Umpalaka, ukalaka uprrr tpchrrm, Qumqo 'rg'onda qirq yong'oq, Mag'zi shirin dur yong'oq.*

*Shox butog'i shamolda, Shovullashi bir orom, Shoxlarida qarg'alar, Qag'illashi bir orom.*

*Yong'oqlarni chaqib, cho'qib, Chaynashlar bir orom.*

*Qumqo 'rg'ondagi qirqta yong'oq shoxlaridagi qirq qarg'a qirqta quroq qopchaga, qirqta yong'oq bargining kukuni, qirq dona isiriq gulining tutuni, qirq chimdan makkajo'xori qobug'ining kukuni, qirq dona qora murchning maydasi, qirqta qovoqarining qirq tomchi tupugi, qirq zarra yoz yomg'irining tomchisi, qirq dona qo'qon gilosining danagi, qirqta tipratikonning tikanidan talqon, qirq dona qantak o'rigining danagi, qirq dona oq kishmishning magizi, qirqta bedana tuxumi po'stlog'idan tolqon, qirqta toshbaqaning tirnog'i, qirqta o'rgimchak to'rining ipi, qirq qoshiq qora tarvuzning suvi, qirq quloqli mis qozonda qaynatilib, qirqta chini piyolaga solinib, yetti kun qorng'u qaznoqda sovutilib, yetti marta hidlab, yetti marta chuchkirish, yetti marta til uchida yalab qah-qaha urib kulish, yetti tomchisi ko'zga, yetti tomchisi burishgan yuzga, tomoq burun, quloq, badanga surish, yetti kundan keyin qarabsizki, yettita qarg'adan nom-nishon qolmay, nihoyatda kelishgan, nihoyatda to'lishgan, mohitobon sarviravon, shohsupada zebijahon, bodomqovoq, yubqatomoq, qalam barmoq, sadaf tirnoq, ohu ko'zli, asal so'zli og'izlari o'ymoqdek, so'zlari qaymoqdek, oybaldog'i yarashgan, nozlanishi sehrli, ko'rganlarga mehrli malikalarga aylanib qolishlarini bashorat qildi. Qizlar shoshganda shoshib, es hushi uchib, dengizday shoshib, donishmandning aytganini muhayyo qilishga oshiqib, Qumqo 'rg'onga yo'l olishdi. Qumqo 'rg'onda burro tillilar, ravon va mazmundor, ta'sirchan gapiruvchilar aro kasting ko'rik tanlovida mashmas'hali xarhas'hali, serhasham, sermazmun, jimjimador so'zlash bo'yicha tortishuv olishuv, so'zlashuv sirlashuv sinovlari bo'lib o'tdi. Sirlashuv bellashuv sinoviga quyidagi almoyi aljoyi matnlar va birikmalar taqdim qilindi.*

**Maqollar.** Texnik mashqlar o'zlashtirib olingach bevosita so'z va so'z birikmalar, tez aytish, maqollar va xalq og'zaki ijodiga e'tibor qaratiladi.

Bu tarbiyalanayotgan ijodkorni o‘qish davrining asosiy 2-bosqichida, texnik mashqlar va ular bilan bog‘liq so‘z va jumalarga qaratiladi. Jonli so‘zga erishishda, so‘z harakatiga erishishda asosan turli maqsadlar asosida yondoshiladi. Bular xabar, bahslashish, ogohlantirish, kinoyalardir. Talabalar bular bilan jonli muomilaga o‘rgatiladi.

Muomalaga o‘rgangan talaba albatta sahnaviy haqiqatga erishadi. Maqollardan olingan misollarda talaba o‘zaro muomalani faol o‘zlashtiradi va ansamblni his qiladi.

Maqollar dono fikrni, o‘tkir haqiqatni, teran mazmunni so‘z xazinasini duru javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang nutqimiz orasida eng ta’sirchan, eng esda qoluvchi kishini o‘ylashga, fikr mulohaza yuritishga beixtiyor majbur etuvchi kuchga egadir.

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so‘zlar ana shunday bebaho ma’naviy merosimiz hisoblanadi. Maqollar zamonlar osha sayqallashadi, pishiydi, mazmuni teranlashadi.

Maqollar bilan ishlaganda nafas, ovoz, artikulyatsiya meyoriy bo‘lib, talaba ikkinchi talaba bilan fikrlashadi muomila qiladi.

Aytilgan so‘z - otilgan o‘q.

Bu maqolda qayerda, kimga gapirishdan oldin, o‘ylab mulohaza qilib so‘ngra gapirishni uqtiryapti, kishining aytgan so‘zi hoh yaxshi, hoh yomon, hoh o‘rinli, hoh o‘rinsiz bo‘lsin, uni qaytarib bo‘lmaydi. Ayniqsa kesatiq, haqorat, piching, mazah, kamsitish kabi so‘zlarga extiyot bo‘lish kerak. Demak, maqol bizni gapirgan vaqtda o‘ylab gapirishga chorlayapti.

Xo‘sh, maqolning obykti aniqmi?

Ha, albatta, og‘izdan yomon so‘z aytgan odamga qarata aytilayapti. Talaba partnyorini fikrlashga chaqiryapti. Aytgan so‘zni qaytarib bo‘lmasligini uqtirayapti. Talabaning sherigida ham unga qo‘shilish yoki unga qarshi gap aytish istagi uyg‘onadi. Shu tariqa sahnadoshlar bir-biri bilan suhbatini davom etirishadi. Ya’ni

muomalaga kirishadilar. Ikki talaba o'rtasida bog'langan fikr almashishi sahnaviy nutqda o'z xati-harakatiga, ta'sirchangligiga olib keladi.

Demak talabalarning fikrlashga, bir-biri bilan bog'lanishiga olib keluvchi omil bu maqollardir. Bunda tovush, so'z, so'z birikmalarini talaffuzini takomillashtiribgina qolmay, ularni fikr yuritishga, o'zaro muomila qilishga o'rgatiladi. Quyida o'zbek xalq maqollaridan namunalar beriladi:

Ayrilmagin elingdan,  
Quvvat ketar belingdan.

Bulbul chamanni sevar,  
Odam – Vatanni.

Vatan gadosi – kafan gadosi.

Vatan uchun o'lmoq ham sharaf.

Dindan chiqsang ham, eldan chiqma.

Kiymoqqa katan yaxshi,  
Turmoqqa vatan yaxshi.

Non gadosi bo'lsang ham,  
Yurt gadosi bo'lma.

Ona yerning tuprog'i – ona sutidan aziz.

Ona yurtning – oltin beshiging.

Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas,  
Yurt qo'riganning yurti buzilmas.

El boshiga kun tushsa,  
El yaratgan er kelar.

El – qo‘ngan yerda,  
Ot – to‘ygan yerda.

Elga qo‘shilsang, er bo‘lasan,  
Eldan ajralsang, yer bo‘lasan.

Er davlati – elida.

Yurt boshiga ish tushsa,  
Er yigit hozir.

O‘zga yurtning gulidan,  
O‘z yurtningning cho‘li yaxshi.

**Tez aytishlar** vositasida talabalar ona tilidagi tovush, so‘zlarni ravon, burro, aniq talaffuz etishni, tovushlar ohangdorligini, so‘zlarning nozik ma’no ottenkalarini his va idrok qilish, anglash hamda ilg‘ab olishni mashq qiladilar.

Shu ma’noda tez aytishlar tovush va so‘zlar ustidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanadi. Tez aytishlar nutq tovushlarining uyg‘unligiga asoslangan janr bo‘lib, o‘xshash tovushli so‘zlar yoki so‘z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoki bu so‘z talaffuzida chalg‘ish yo tutilish natijasida voqe bo‘luvchi ma’no o‘zgarishi negizida yuzaga keladi: “Namanganda usta Musa puch pistafurush bor ekan. O‘sha usta Musa puch pistafurushning oltmish uch pud puch pistasi bor ekan. Oltmish uch pud puch pistasi bo‘lsa ham – o‘sha usta Musa puch pistafurush, oltmish uch pud pistasi bo‘lmasa ham – o‘sha usta Musa puch pistafurush”.

Tez aytishda savdodagi qalloblikni fosh etish – yetakchi motiv: pistaning puchligini ta’kidlovchi “p” va “ch” tovushlari – alliteratsiya asosi.

Tez aytish uchun muddao husni – motivni ifodalovchi vositaga aylangan, alliteratsiya rivojiga turtki beruvchi o‘zak ham shu iborada. Muddao husni, aslini olganda, ham she’riy, ham nasriy tez aytishlarda tugun vazifasini o‘taydi. Ular motivnigina emas, balki qaysi tovushning alliteratsiyaga solinishi, qaysi so‘zni takrorlashni belgilovchi vosita sifatida so‘z yoki birikma shaklida namoyon bo‘ladi:

Qishda kishmish pishmashmish,

Pishsa kishmish qishmashmish.

Bu tez aytishda “kishmish” so‘zi mudao husni bo‘lib, “sh” undoshining alliteratsiyasiga zamin yaratgan va qish fasliga oid ma’lumotni tashigan.

Tez aytishlar shu xildagi rang-barang tovush alliteratsiyalari, omonimlar, omofonlar, omograflar, paronimlar va tavlalogiyalarga asoslangan ma’no tovlanishlari bilan pedagoglar va bolalar e’tiborini qozonib kelmoqda.

Sahna nutqi fani o‘qitilish jarayonida tez aytishlar yordamida quyidagi kamchiliklarni tuzatish mumkin:

1. Tish orasidan gapirish (jag‘larni ochilmasligi tufayli);
2. Til yoki lablar harakati sustligi natijasida tovushlar aniq ifodalanmasligi;
3. Yondosh undosh tovushlarni qorishtirib aytilishi;
4. Tez gapirish natijasida tovushlarning yamlanishi;
5. Salmoqlanib gapirish;
6. Nafasni noto‘g‘ri olish va chiqarish natijasida nutqni chala aytishlikka ya’ni uzun jummalarni nafasi tiqilib to‘la aytolmaslik kabi nutqiy kamchiliklar<sup>1</sup>.

Talaffuzni me’yoriga erishish uchun tez aytishlar va ularni mashqlari juda yaxshi vositadir. Shu o‘rinda tez aytishlar haqida ham bir oz fikr yuritish joiz deb bildik.

Tez aytishlar juda qadimdan mavjud bo‘lib, u hamon o‘z mavqeini saqlab turibdi. Tez aytishlarsiz sahna nutqini tasavvur etish mumkin emas. Chunki aktyor

---

<sup>1</sup> Usmonova R. Nutq san’atida tez aytishning ahamiyati. – Toshkent. 1995.

soʻzini tomoshabinga jozibali yetkazib berar, soʻz mantiqi va soʻz xarakteriga ega boʻlar ekan – bu tez aytish mashqlarini puxta egallaganligidandir.

Tez aytishlar oddiy va murakkab koʻrinishda boʻladi. Oddiy tez aytishlar qisqa jumalardan, murakkab tez aytishlar uzun jumalardan iborat boʻladi.

Diksiyon burro gapirish mashqlarda tez aytish juda foydalidir. Tez aytishlar turli koʻrinishlarda boʻladi. U oddiy, kinoyali, kuchli, oʻynoqi nozik his tuygʻularni ifodalaydi, shu bois boʻlajak ijodkorlar yaʼni sanʼat va madaniyat instituti talabalarining qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuni aytish kerakki, tez aytish ustida ish olib borgunga qadar, talaba notoʻgʻri talaffuz qilayotgan tovushni artikulyatsion holatini, tovush hosil boʻlish oʻrnini yaxshi tushungan holda tovush, birikma, soʻz jumalarda surunkali (oʻzlashtirguncha) ish olib borishi va keyin tez aytishga oʻtishi shart.

Tez aytish ustida mashq boshlaganda talaba uni yod bilishi kerak. Chunki fikr soʻz qidirishga ketadi va maqsad muvofiq bajarilmaydi. Tez aytishlarni maʼnosiz qiroat qilish mumkin emas. U bir xillikka olib keladi. Talaba tez aytish mazmunini bilishi va nima demoqchiligini aniq tushunishi kerak.

Tez aytishlarni uch xil tempda, yaʼni shoshmasdan dona-dona gapirish – (diktovka) birinchi boshlangʻich tezligi, oʻrtacha gapirish – ikkinchi tezlik, tez va aniq vaqtda burro gapirish, uchinchi tezlikda mashq qilish kerak.

Mashq paytida tezlik bilan cheklanib qolmay aniq maqsad ila bajarish kerak. Yuqorida aytib oʻtilganidek baʼzi nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish xususida toʻxtalib oʻtamiz.

1. Talabaning pastki jagʻ harakati sust va shu harakat bilan bogʻliq boʻlgan tovush talaffuzini mukammallashtirish zarur. Buning uchun «O» tovushi takrorlanib kelgan tez aytish mashqini qoʻllaymiz.

Obidjon Olimdagi olmadan olaolmadi.

Ovloqda ovchi ovini ovlar.

Eʼtiborni «O» tovushiga qaratsak, pastki jagʻ harakati chaqqonlashganini sezamiz.

2. Til, lablar sustligi, pastki jag‘, hamda orqa tanglayni chiniqtirish uchun muayyan tovushlarni takror va takror keladigan tez aytishlardan foydalanib mashq qilinadi.

To‘p – to‘p ko‘k koptok

Ko‘p – ko‘p to‘p koptok.

Til uchi sust harakatchang bo‘lganda R tovushini takrorlanib kelishini ta‘minlovchi tez aytishlardan foydalanish mumkin.

Pi – rrr – pi – rrr – pirildoq.

3. Ayrim talabalar yaqin undoshlarni qorishtirib talaffuz etadilar. Ya‘ni sh tovushini s tovushi bilan qorishtirib aytadilar. Shu hollarda albatta Sh-S tovushlari bir necha takrorlanib kelgan tez aytishlardan foydalaniladi.

Mosh tohsiz dedingizmi?

Tohsiz mosh dedingizmi?

Mashmas‘halashsam ham mashmas‘halashaman.

Mashmas‘halashsam ham mashmas‘halashaman.

4. Talabalarining ayrimlari so‘z oxiridagi tovushlarni chala aytadilar yoki butunlay aytmaydir.

Toq o‘rkachli bo‘taloq,

Rosa otdi shatoloq

mazkur tez aytishni “Toq o‘rkachli bo‘talo, Rosa otdi shatalo” tarzida talaffuz etadilar.

5. Salmoqlanib gapiruvchi talabalarni tuzatish uchun uchinchi tezlikdan foydalanish kerak.

6. Nutqdagi pala-partish, chala gapirishni tuzatish uchun avvalo nafas mashqlarini puxta egallash, undan keyin esa tez aytishlar mashqini bajarish kerak.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish mumkin, ammo asliy (tug‘ma) kamchiliklarni tuzatish faqat mutaxassislar orqali hal bo‘lishi mumkin.

Bular nutq a'zolarining kamchiliklaridir. Bular jag' va tishlarning oldinga ketishi, tishlar orasining ochig'lig'i (bu holatlarda S-Z, SH-J va S tovushlarini talaffuzi meyoriy shaklda bo'lmaydi).

Tilning yo'g'on yoki haddan ziyod uzunligi chuchuk gapirishga olib keladi. Tilning kattaligi til uchini tishlar qatoriga ko'tarilishiga halaqit beradi (R, SH, J, CH tovushlarni to'g'ri talaffuzini buzadi). Bunday holatlarda kamchiliklarni bartaraf etishdek vazifa logoped va stomatologlarga yuklatiladi.

**Chandishlar** ham keng tarqalgan ma'naviy o'yinlardan bo'lib, ular so'zda laqillatish, chandib olish hisobiga "g'aflatdagi" harfni hushyor torttirish, shu asosda so'zga, so'z ottenkasiga, ohangiga sezilarlik reaksiyasini uyg'otish hamda so'zga ohangdosh hozirjavoblikka shaylash maqsadini ko'zlaydi.

Chandishlarning dialog shakli qat'iy bo'lib, ikki bola ishtirokidagina ijro etiladi. Ular o'ziga xos ilmoqdor va serjilo so'z musobaqasi hisoblanib, bolalarning so'zda bir-birlarini tutishi, chandishi asosida yuzaga keladi.

Chandishlar talabalarga so'zning xilma-xil ohang va ma'no tovlanishlarini kashf etishga, o'zlashtirishga yo'l ochadi. Eng asosiysi diqqat, eshitish, baholash, hozirjavoblik kabi elementlarni shakllantirib boradi.

Aldanmashoq – chandishlar gohida onaboshi va o'nlab o'yinchilarning she'riy savol-javobi shaklida bo'lishi ham mumkin:

- |                         |                                       |
|-------------------------|---------------------------------------|
| – Karim qayoqqa ketdi?  | – Tulki sovun yeydimi?                |
| – Ola tayoqqa kedi.     | – Tulki tovuq yeydi.                  |
| – Salim qayoqqa ketdi?  | – Balli!                              |
| – Qizil bo'yoqqa ketdi. | – Bulbul cho'lda sayrarmi?            |
| – Balli!                | – Bulbul bog'da sayraydi.             |
| – Kakku ko'kka uchdimi? | – Burgut suvda suzarmi?               |
| – Kakku ko'kka uchadi.  | – Burgut tog'da yayraydi.             |
| – Baqa ko'kka uchdimi?  | – Balli!                              |
| – Baqa ko'lga tushadi.  | – Ilon uzum yeydimi?                  |
| – Balli!                | – Ilon uzum yeydimi?                  |
| – Bo'ri uzum yeydimi?   | – E... e... e... Ahmoq shunday deydi! |

– Bo‘ri qo‘zi yeydi.

Barcha to‘rtliklar ikki savol va unga qaytarilgan javoblardan iborat. Dastlabki to‘rtlik aldab-chandimoq uchun fon, u ekspozitsiya vazifasini o‘tagan.

“K” va “Q” tovushlari alliteratsiyasi o‘yin ishtirokchilarini keyingi ilgaklar silsilasiga ro‘para qilishni ko‘zlaydi. Ikkinchi to‘rtlikning dastlabki savol-javobi ham ilgaksiz. Ammo undagi “k” undoshi alliteratsiyasi navbatdagi savolga ilgak tayyorlagan, bu “baqaning ko‘kka uchishi”ga oid mantiqsiz savolda ifodalangan.

talabalar javobda shu ilgakka qoqilmay, mantiqsizlikni tuzatadilar. Keyingi to‘rtliklardagi savollar surunkasiga mantiqsizliklarga asoslana boradi. Shu yo‘l bilan talabalarning hayot hodisalarini qay darajada anglab yetganliklari sinaladi: ular idrok etgan hayotiy hodisalar haqiqatmi yoki sarobmi – mantiqsizliklar negizidagi ilgaklar shularni aniqlashga qaratilgan.

Talabalar idrok etgan qaysi bir hayotiy haqiqatga qat‘iy va sobit bo‘lsalar, o‘sha haqiqatning chinligiga, to‘g‘riligiga ishonsalar, u yoki bu tovush alliteratsiyasi aldanish zaminini ta‘minlab turganida ham, yanglishmay, o‘sha mantiqsizlikni tuzatib, ilgakni oson va to‘g‘ri yechib beradilar.

Hayotiy haqiqat yuzaki idrok qilingan yoki anglanmagan hollarda ular yanglishganlar, javoblari noto‘g‘ri chiqqan va qarshi tomonning chandishiga uchraganlar. Bunday chandishlarni istagancha cho‘zish mumkin, ularda chandishmoq marrasi birinchi adashuvgachadir. “Ilon uzum yeydi” javobi ana shunday adashuv marrasi bo‘lib, “Ahmoq shunday deydi” – chandishning o‘zidir.

**Guldur-guplar** o‘zbek bolalar folklorida keng tarqalgan ma‘naviy o‘yin. U bolalar oldiga gapirmaslik, jim turish shartini qo‘yadi. Nutq texnikasida jim turib diqqatni keyingi mashqqa o‘tishga yordam beradi. Har tomonlama harakatda sanash, sanama ohangidan boshqa bir ma‘naviy so‘z o‘yinga – guldur-gupga ustalik bilan o‘ta olish, masalan;

Boshlovchi talaba. Dim-dim-dimmm,

Gurux talabalari. Xo‘p ishorasi bilan-dimmm(lekin so‘roq oxangida)

Boshlovchi talaba. O‘raga sichqon ko‘mdimmm.

Gurux talabalari. (havotirlanib) Dimmm (xayrat bilan)

Boshlovchi talaba. (Ogohlantirish ohangida) Gapirganning og‘ziga bir shapaloq tushirdim.

Gurux talabalari. (Avvalgi dm-lardan kuchliroq) Dim-dim-dimmmm.

Bu janrda gapirmaslik sharti qo‘yiladi. “Gapirmaslik”ni ham texnik mashqlar qatorida “oqlab”, ovozni kuchaytirish maqsadida, ya’ni rezonatorlar ustidagi ishga burish mumkin. Faqat “M” burun tovushi orqali xirgoyi qilish, tasdiqlash yoki “xo‘p gapirmayman” deb turish mumkin.

Burun bo‘shlig‘i bilan bog‘liq ovoz chiqargichga undoshlar va unlilarning tanlanishi orqali egallanishi mumkin. M xarfi bu maqsad uchun ancha qoniqtiradigan harfdir. M xarfini lablar orqali shakllanishida, ya’ni yuqorida ko‘rganimizdek, ochiq jag‘ orqali keltiriladi. Lablar har qanday holatda ham siqilgan va ta’qib qiluvchi bo‘lmasligi kerak.<sup>1</sup> Bunda talabada o‘z ovoz jarangini topiladi. Mashqlar davomida ishlatilgan matnlarni kompleks tarzda taqdim etish mumkin.

**Tarqalmachoqlar.** Bolalar hatto o‘yinni tugatib, uy-uylariga tarqalajaklarini ham qo‘shiqqa solib e’lon qiladilar:

Uy-uyingga,  
Katta to‘yingga,  
Bir xo‘rozim bor,  
Qaysi biringga!

Hayqirib aytiladigan bunday badihalar tarqalmachoqlar deb yuritiladi. Ushbu o‘yin jar janriga o‘tishda ko‘prik bo‘ladi, talabalar ovozini ochilishiga va navbatdagi ijroga ruhiy jismoniy tayyorgarlikni ta’minlaydi.

**Chorlamalar** (menimcha kerakmas)ham, cheklashmachoqlar ham, sanamalar ham bolalar o‘yin folkloriga mansub mustaqil poetik janrlar bo‘lib, asosan, o‘yin muqaddimalari vazifasini bajaradilar. Shu poetik muqaddimalarsiz bolalarning talay o‘yinlari g‘oyat g‘arib tuyulardi. Binobarin, bu xildagi poetik muqaddimalar o‘yinlar zavqu sururini ta’minlagan va ayni choqda bolalarda hayotsevarlik tuyg‘usini shakllantirgan ma’naviy vositalardir.

---

<sup>1</sup> J.Clifford Turner. Voice and Speech in the Theatre. London. 2007. 62.

**Sanamalar** keng tarqalgan o‘yinboshi badihalari bo‘lib, o‘yin boshlanishi oldidan navbatda turuvchini aniqlash, galda qoluvchini belgilash vazifasini bajaradi.

Ular o‘yinga kompozitsion asos bo‘lolmasalar-da, muqaddima sifatida uning kompozitsion uzvini tashkil etgan va o‘sha o‘yinning umumiy yo‘nalishiga poydevor solgan.

Sanamalardagi sanash ohangi qo‘l yoki oyoq harakatlari bilan to‘ldirilib, tasdiqlanib turiladi, shuningdek arqon, koptokcha yordamida va boshqa harakatli mashqlar bilan diqqatni jamlab, faollikda bajarish taqazo etiladi. Boshlovchi talaba har bir so‘zni yoki iborani sanoq ritmiga muvofiq shovqin bilan ayta, ishtirokchilari ko‘ksiga tekkiza boradi, shu asosda sanoq ritmini bo‘rttirib ta’kidlaydi va qo‘li tekkan bola davradan chiqib turadi. Eng so‘nggi so‘z kimning chekiga tushsa, o‘sha navbatda (galda) qoladi. Sanamalarda raqamlar shunchaki tilga olinmaydi, balki ritmik asosni tashkil qilish niyatida vaznga solinadi.

Bir, ikki uch... o‘n olti...

O‘n olti deb kim aytdi?

O‘n olti deb men aytdim.

Ishonmasang, sanab boq:

Birov,

Ikkov,

Uchov...

Qoch-ov!

Quyida nutq texnikasi va talaffuzni takomillashtirishga qaratilgan sanamalardan ba’zi bir namunalar keltiramiz:

Aziz ko‘chaga chiqdi,

Arobasi buzildi,

Unga nechta mix kerak?

Bir, ikki, uch, to‘rt,

Besh, olti, yetti-ketdi.

Bir, ikki, uch,

Birlikdadir kuch.

Dambir-do‘mbir,  
Dambir-do‘mbir,  
Birlikdadir kuch.

\*\*\*

Bir, ikki  
Olma dikki.  
Safar oyi,  
Sariq chumchuq,  
Bog‘da turmay,  
Tez uchib chiq!  
Bir, ikki,  
Olma dikki.  
Sariq chumchuq  
Uyga kirdi,  
San tezroq chiq!

\*\*\*

Huvva-huv,  
Ariqda suv,  
Betingni yuv!  
Huvva-huv,  
Mushuk narvonda,  
Tovuq ayvonda.  
Huvva-huv,  
Huvva-huv!  
Beshiktervatti,  
Tervatib ketdi,  
Huvva-huv,  
Betingni yuv!

\*\*\*

Boshmaldoq,

Qoramaldoq,  
O‘rta terak,  
Hojimirak,  
Kichkina bo‘bak.  
Bosh barmoq,  
Bodom barmoq,  
O‘rta terak,  
Hoji kalak,  
Gulbibishak.  
Bosh barmoq bosh keltirar,  
Bodom barmoq bol keltirar.  
O‘rta terak o‘tin terar,  
Hoji xo‘jam sut pishirar,  
Gulbishak gullar terar.

**Aytishuvlarning** kompozitsion asosini savol-javob tashkil etadi. Savol-javob bolalarning hali o‘zlariga noma’lum voqelikni o‘rganish, o‘zlashtirish, qolaversa, kashf etish yo‘llari bo‘lib, o‘ynoqi ritmga solinganligi tufayli poetik mohiyat kasb etadi, ayni choqda, qo‘shiqda voqebandlikni (syujetlilikni) yuzaga keltiruvchi vosita sifatida ritmni harakatga soladi:

- Sottivoy sotdi,
- Nimani sotdi?
- Otini sotdi.
- Sottivoy sotdi,
- Nimani sotdi?
- Molini sotdi.
- Sottivoy sotdi,
- Nimani sotdi?
- Itini sotdi.
- Sottivoy sotdi,
- Nimani sotdi?

- Bitini sotdi.
- Sottivoy sotdi,
- Nimani sotdi?
- Qo‘yini sotdi.
- Sottivoy sotdi,
- Nimani sotdi?
- Uyini sotdi.
- Sottivoy sotdi,
- E, muzlab qotdi?
- U nega qotdi?
- Ishlamay yotdi,
- Sottivoy sotdi,
- Endi ne sotdi?
- O‘zini yo‘qotdi.

E’tibor qiling-a: Sottivoy barcha narsalarini sotgan, qo‘yidan tortib itigacha sotib yegan. Hech qayerda ishlamaganidan shunday qilgan. Endi qahraton qishda muzlab qolishi – “o‘zini yo‘qotishi” aytishuvchilarni jirkantirishi ravshan. Aytishuvdagi saboq ana shu. Shu saboqqa asos bo‘lgan voqea, boshqacharoq aytilganda, hissaga asos bo‘lgan qissa tovushlarning shiddatkor uyg‘unligi zamirida harakatga kelganidan aytishuvchilarni qiynamaydi, balki ular qalbiga tez singadi, shu zaylda oson ommalashadi.

**Hukmlagichlar** ham qadimgi ajdodlarimizning totemistik e’tiqodlariga daxldor marosim qo‘shiqlarining davrlar o‘tishi bilan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ta’sirida o‘zgarishlarga uchrab, asta-sekin bolalar repertuariga o‘tib, bolalarcha mushohadakorlik asosida qaytadan sayqallanib, yangi motivlar, yangi obrazlar hisobiga to‘lishib, ularning mavsum-marosim poeziyasida barqarorlashgan namnular sanaladi.

Totemistik e’tiqod qoldiqlari bolalarning hasharotlar bilan bog‘liq hukmlagichlarida ravshanroq ko‘rinadi. Chunonchi, bolalar orasida beshiktervatni ko‘rganda, uning vositasida fol ochish an’anasi mavjud.

Beshiktervat, beshiktervat,  
Salima xolam nima tug'adi?

Beshiktervat o'ng oyog'ini ko'tarsa – o'g'il, chap oyog'ini ko'tarsa – qiz tug'ilishiga yo'yishadi.

Erta pishar xalili (chillaki) uzum xol tashlaganda xonqizi, tillaqo'ng'iz kabi hasharotlar ko'payadi. Bolalar orasida xalilipazak, hasanak nomlari bilan ham yuritiladigan xonqiziga qarab hukmlagichlar aytishadi. Sirtida nuqtasimon oq xolchalar borligi uchun unga xol deb ham murojaat qilinadi:

Xol, xol, xol,  
Otang o'ldi,  
Onang o'ldi,  
Borib xabar  
Olmaysanmi?

Rivoyatga ko'ra, xonqizi aslida podsho qizi bo'lgan, ammo qashshoq cho'ponni sevgani uchun g'azablangan otasi uni "Iloyim qumursqaga aylan!" deya qarg'agan emish. Qarg'ish tutib, u hasharotga aylanganmish. Xonqizi deyilishi shundan qolganmish. Tillaqo'ng'iz, kaltakesak, ilonga murojaat tarzidagi hukmlagichlarda totemistik qarashlar saqlangan. Qarg'a, musicha, bedana, to'rg'ay, qaldirg'och, laylak va boshqa qushlarga oid hukmlagichlarning ma'lum qismida totemizm ta'siri bir qadar sezilsa-da, taqlidiy so'zlar vositasida to'qilgan qismida bu ta'sir tamoman so'ngan. Taqlidiy so'zlar hukmlagichlarda asosiy poetik vazifa bajaradi:

– Qurvaqajon, vaq-vaqa,  
Ko'zing nega bundaqa?  
– Bugun o'sma qo'ymadim,  
Shuning uchun shundaqa.

Taqlidiy so'zlar yordamida yaratilgan hukmlagichlarning ko'pchiligi totemizm aqidalaridan xoli bo'lib, bevosita bolalar dunyoqarashini, voqelikka hayratomuz munosabatlarini, idrok va zavqlaridagi o'ziga xosliklarini aks ettiradi.

Umuman, yalinchoqlar bolalarning tabiat bilan yuzma-yuz muloqotda bo‘lishlariga yo‘l ochgan bo‘lsa, nutq texnikasida munosabat va albatta partnyorni diqqat bilan kuzatish, diqqatni tarbiyalaydi. Hukmlagichlar hayvonot olami bilan munosabatlarini ta‘minlagan, shu asosda bolalarda tabiatga, hayotga mehr-muhabbatni shakllantiruvchi estetik-axloqiy munosabat tarbiyalangan.

**Qiqillamalar.** Bolalar ilk qo‘shig‘ini 2-5 yasharliklaridayoq to‘qishadi. Harakatga uyg‘un zavqdan jilolangan bu qo‘shiqlar qiqillamalar bo‘lib, kichkintoylarning ritmini his qilishlari zamirida shovqin solib aytishlari negizida yuzaga kelgan. Bolalar ulg‘aygan sari hayotni teranroq anglay boradilar. Bu hol ularning maishiy qo‘shiqlari silsilasini tashkil etuvchi to‘rtliklari, aytishuvlari va katta qo‘shiqlarida ifodalangan. Nutq texnikasida mashk davomida guruxlarga bulinib ijro kilinadi. Talaffuz tozaligini ta‘minlash bilan bir katorida kikiillamaning tagidagi xajviy tugallanayotgan misrani jonlirok, ta‘sirchan aytilishini talaba bilishi kerak.

Birinchi talaba:

Kachchi-kachi dona,  
Dumala dugona,

Ikkinchi talaba:

Echki keladi ma‘rab,  
O‘z egasiga qarab.

Uchinchi talaba:

To‘rga o‘ting to‘ralar,  
Palovni yeng jo‘ralar.

Turtinchi talaba:

Shov-shuv etadi ariq,  
Karim ekadi tariq.

Birinchi guruh;

Atta-matta,  
Sanmi katta.

Atta-matta,  
Ikkinchi guruh;  
Menman katta.  
Umumiy karsak bilan;  
Chapak-chapak, chapakcha,  
Yotar joyi katakcha.

### **Oq sholi, ko‘k sholi**

#### **Ushbu matnni sakrogich yordamida aytish mumkin;**

Oq sholi, ko‘k sholi,  
Oq sholini oqlaylik!  
Ko‘k sholini ko‘klaylik!  
Guruchidan oyxonning  
To‘ygunicha saqlaylik!  
Xo‘p-p, - Xo‘r-r!

**Erkalamalar** xalqning o‘z farzandlariga beqiyos mehr tovlanishlarini aks ettiradi. Ularda xalqimizning bolaparvar siymosi nurlanib turadi:

O... shugina, shuginagina,  
Munchagina, tunchagina,  
Kunchagina, shunchagina,  
Yashnab turgan g‘unchagina.

Mehr xuruji ona qalbini tug‘yonga keltirganida u shu so‘zlar tizimi ritmida arzandasini ardoqlash, erkalash ohangini chuqur tuyadi. Erkalamalarda “-gina”, “-ginagina” qo‘shimchalari aktiv, ularda kichraytirishdan ko‘ra erkalash ottenkasi bo‘rtibroq tovlanadi.

Shuningdek tezlikni oshirib ham aytish mumkin, bunda ham nafasni tugri taksimlash suzlarni oxirigacha tulik talaffuz qilish lozim.

Erkalamalarning “Ha, lo‘tti-lo‘tti, lo‘tti”, “Ha, do‘rsa-do‘rsa, do‘rsa”, “Ha, kishta-kishta, kishta” singari taqlidiy va yasama so‘zlar tizimidan to‘qilgan an’anaviy satrlar bilan boshlanuvchi butun bir turkumi borki, ular ikki-uch yashar bolalarga

mo'ljallangan. Buning sababi – shu yoshdagi bolalar vaznining yengilligi. Binobarin, ularni havolata-havolata, ko'tarib-tushirish o'ng'ay. Erkalama ham xuddi shu harakat ravishigina mutanosib ohangda shovqin solinib aytiladi:

Ha, do'rsa-do'rsa, do'rsa,  
Otasi bozorga borsa,  
Go'shtu birinch kelirsa,  
Onasi pazanda bo'lsa,  
Bolasi xo'randa bo'lsa...

Erkalamalarda kichkintoylar kelajagiga daxldor orzularni kuylash yetakchi motivdir. Ular, asosan, yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga aytilsa-da, aslida bolalarni erkalash jarayoni o'n bir-o'n uch yoshga to'lgunlarigacha va hatto undan keyin ham davom etishi mumkin. biroq bu davrda erkalash poetik formada kechmay, maqtash, xatti-harakatni ma'qullash va unga minatdorchilik izhoridan iborat obrazli iboralar ("Yasha!", "Balli!", "Ofarin!", "Rahmat!" va h.k.) vositasida amalga oshadi. Umuman erkalamalar bolalarda samimiylik tuyg'usini tarbiyalaydi.

**Ovutmachoqlar** esa bolani tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi badihalardir: Mashq davomida bir talaba urtaga chikib utiradi, u kimdandir arazlagan, ikkinchi talaba esa guruhdagilarga uni ovutish kerakligini ishora kilib;

Vo'y-vo'y, shuginani kim urdi?  
Vo'y-vo'y shuginaga kim lab burdi?  
Yig'lama, oppoqqinam,  
Boshimdagi qalpoqqinam.

Ko'rinayotirki, bolaning yig'isi onada (mashq paytida talaba) uni tinchlantirish istagini tug'dirgan. Ona shu zaruriyatga ko'ra so'zga murojaat qilayotir. Bunda so'zlarni quruq takrorlayotgani yo'q, balki shu so'zni tashkil etgan tovushlar uyg'unligida tinchlantiruvchi intonatsiyaga urg'u berib, orom beruvchi, ovutuvchi ma'noni anglatishga, his etishga, tuyishga erishayotir. Ijro paytida bolani bag'riga bosib, beshik yo belanchakda tebrata turib, unga termulib, lablarini cho'chchaytirib yohud bolaning yupqagina lablarini qitiqlab ovutuvchi ma'noni uyg'unlashtirilishiga alohida e'tibor berilgan. Natijada, so'zlardagi ohang, ma'no va harakat muvofiqligi

ovutmachoqning ritmik o‘qiga aylangan. Buni his-hayajonni ifodalovchi so‘zlarning juftlashgan takrori bo‘rttirib ifodalaydi. Guruhning talaba kizlari aytishlari ham mumkin, yoki o‘yin davomida erkatoiy qizning otasi ovutayotgani kabi ugil bola talaba aytadi. Har bir qatordagi maqtoqli so‘zlarni diqqat bilan eshitib, baholab borish vazifasi qo‘yiladi;

Alla-yo, alla,  
Oppoq qizim, alla,  
Qaymoq qizim, alla,  
Go‘zal qizim, alla,  
Asal qizim, alla,  
Oqcha qizim, alla,  
Zog‘cha qizim, alla,  
Sanam qizim, alla,  
Tamtam qizim, alla,  
Erka qizim, alla,  
Serka qizim, alla,  
Chaman qizim, alla,  
Saman qizim, alla,  
Shakar qizim, alla,  
Dakar qizim, alla,  
Botmon qizim, alla,  
Shodmon qizim, alla,  
Alla-yo, alla,  
Yotsin qizim, alla,  
Shirin uxlab, alla,  
Qotsin qizim, alla,  
Alla-yo, alla.

**Aytishuv** qo‘shiqlari oshiqning vafodorligini, uning aql-zakovatda tengsizligi, ishq yo‘lida har qanday to‘siqlarni yenga olajagini ramziy yo‘sinda bayon etishi bilan

diqqatga sazovor. Qolaversa, bunday aytishuv qo‘shiqlar sevishganlarning aql-zakovatda bir-birlaridan qolishmasliklarini sinab olishning bir yo‘li hamdir.

Shu bois bunday qo‘shiqlarda poetik obrazlarning bir-birlarini mahv etish mantiqiga rioya qilish, poetik dalillash san‘atiga to‘g‘ri yondashish mahorati talab etiladi. Chunki topqirlik, so‘zamollik, hozirjavoblik kabi badihago‘ylikning tarkibiy shartlari lirik qo‘shiqlarning bunday murakkab turini yaratishda yetakchi rol o‘ynaydi.

- Yigit:        Sen soy chumchug‘i bo‘lsang,  
                      Soylarga qarab uchsang.  
                      Men tog‘ kaptari bo‘lib,  
                      Orqangdan quvib borsam,  
                      Yor, unda na qilg‘aysan?
- Qiz:            Sen tog‘ kaptari bo‘lsang, yor,  
                      Orqamdan quvib yursang.  
                      Men olg‘ir lochin bo‘lib,  
                      Changalga olib qolsam,  
                      Yor, unda na qilg‘aysan?
- Yigit:        Sen olg‘ir lochin bo‘lib,  
                      Changalga olib qolsang.  
                      Men mergan ovchi bo‘lib,  
                      Miltiqda otib olsam,  
                      Yor, unda na qilg‘aysan?
- Qiz:            Sen mergan ovchi bo‘lsang,  
                      Miltiqda otib olsang.  
                      Men bog‘da anor bo‘lib,  
                      Qizarib pishib tursam.  
                      Yor, unda na qilg‘aysan?
- Yigit:        Sen bog‘da anor bo‘lsang,  
                      Qizarib pishib tursang.  
                      Men yurgan bog‘bon bo‘lib,

Bittalab uzib olsam,  
Yor, unda na qilg‘aysan?

**Tayanch iboralar:** Folklor, xalq og‘zaki ijodi, tez aytishlar, sanamalar, maqollar, aytishuvlar, saj, so‘z, iboralar, og‘zaki nutq, nasr, nazm, qofiya, vazndosh, doston, ritm, o‘lchov.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Saj janri haqida nimalarni bilasiz?
2. Nutq texnikasi va saj janrining uyg‘unligini izohlab o‘ting?
3. Sajlarning turlariga alohida to‘xtalib o‘ting?
4. Saj janrining ijrochilik mahoratidagi o‘rni?
5. Xalq og‘zaki ijodida maqollarning qo‘llanilishini izohlab o‘ting?
6. Maqollar haqida nimalarni bilasiz?
7. Maqollar nutq madaniyati, sahnaviy nutqda qanday vazifani bajaradi?
8. Maqollardagi tovush va so‘zlarni aniq talaffuziga qanday erishiladi?
9. Maqollardan foydalanishda qanday maqsad va vazifalar qo‘ya olasiz?
10. Nutq texnikasini takomillashtirishda tez aytishlarning o‘rni?
11. Ijrochilik mahoratida sanamalarning ifodalanilishi nimalarda aks etadi?
12. Talabalardagi asliy kamchiliklar qanday ko‘rinishda bo‘ladi?
13. Asliy (tug‘ma) kamchiliklar qanday vositalar bilan bartaraf etiladi?
14. Tez aytishlar haqida nimalar bilasiz?
15. Tez aytishlarning sahna nutqidagi vazifalari nimadan iborat?
16. Tez aytishlar qanday ko‘rinishga ega?
17. Tez aytishlarga misollar keltiring va amaliy bajaring.

## SAHNAVIY ASARLARDA OBRAZLAR VA OBRAZLILIK

Ma'lumki talabalarning bitiruv malakaviy ishlari "Sahna nutqi" fanidan tugallangan asar, yirik xajmdagi she'riy kompozitsiyalar, monospektakl, shuningdek aktyorlik mahorati fanidan topshiriladigan diplom spektakllari talabalarning obraz ustida ishlash va uning tahliliy jarayonlari bosqichlaridan o'tishni talab yetadi. Teatr san'atida dramatik asar g'oyasini ochish sahna nutqining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. So'z ohangida namoyon bo'ladigan muddaoning badiiy shaklda ifodalanishi, sahna nutqining oliy maqsadidir. Bu maqsad jonli so'z ta'sirchanligini oshirish va unga estetik nafasat bag'ishlay olishga yo'naltirilgan. Sahna asarlarini tomoshabin pyesani o'qib chiqish bilan ham cheklanishi mumkin, lekin u ijrochi talqinida yanada chuqurroq, aniqroq, yorug'roq, estetik jozibador mazmun kasb etganligi uchun uni tomosha qilishga qaror qiladi. Tomosha qilish mobaynida esa aktyorning ta'sirchan, badiiy tafakkuri mahsuli bo'lmish – so'z va unga monand ko'z, qiyofa, ya'ni ruhiy va jismoniy uyg'unlikni anglaymiz.

Alisher Navoiy ta'kidlaganidek:

*Ne latofat dururki, gohi bayon,*

*Ko'zga pinhon durur, quloqqa ayon.*

Teatr san'ati badiiy so'zning eng zaruriy tarkibiy qismi sifatida qabul qiladi. Gegel aytganidek: teatr–musiqa, raqs, bezak kabi qator imkoniyatlardan bahramand bo'lgani holda "Nutq va uning nafasatiga" alohida zamin yaratadi. Qanday janrdagi sahna asari bo'lmasin aktyorning so'zi, mantiq va izchillikka, voqealarning keskinlashuvi va jadal xarakter tusiga kirishi bilan maqsadga muvofiqlashib borishi kerak. Mustahkam, mukammal badiiy obrazlar yaratish uchun, ijrochi eng avvalo badiiy so'z yuksakligiga erishmog'i kerak. Xalqimizning ma'naviy madaniyati, chuqur ildizlar, manbaalarga ega bo'lgani holda zamonaviy madaniyatning ravnaq topishida teatr san'atining hissasi katta bo'lishi lozim. Zero, buyuk ma'rifatparavar bobokalonimiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Teatr–bu ibratxonadur", - deb aytgan oqilona so'zi zamirida ham falsafiy mushohada qilishga oid jihatlar mavjudki, bular–milliy zamonamiz qahramonlari siymolarini yaratish, tarbiyaviy ahamiyatga molik

qadriyatlarimiz, milliy g‘oya va mustaqillik mafkurasini to‘laqonli aks ettirgan sahna asarlarini xalqqa bekamu– ko‘st taqdim etib borishdir.

Shuningdek teatr insonlar ongiga tez va kuchli ta’sir qila olish qudratiga ega san’at bo‘lib, unda bevosita tomoshabinlar bilan birga jonli muloqot, sahnada kechayotgan voqealar ham ko‘z oldimizda ro‘y beradi. Tomoshabinlarning spektakl qahramonlari bilan birga qayg‘urishi, shodligi va baxtiga quvonishi ham aktyor bilan tomoshabinni uzviy bog‘lovchi omildir. Albatta yuksak va ta’sirli ijro mahorati bilan yakunlangan spektakl tomoshabin qalbidan joy olib, bir necha kun, hatto oylab undan ta’sirlanish holati kechadi va ruhiy holatida o‘zgarishlar sodir etadi. Ta’sir kuchining qudrati shundaki, tomoshabin unga har doim extiyoj sezadi. Bu uzviylikni saqlab qolish esa hayotdagi voqealar ichidan sahna asari uchun xarakterli mavzular tanlab, shunga mos keladigan voqealar syujetini yaratib badiiy yaxlitlikka ega bo‘lgan, mukammal, mazmun-mohiyati chuqur, har bir zamondoshimiz ma’naviy olamiga ibrat bo‘la oladigan qahramonlar obrazini yaratish orqali erishish mumkin.

Shu o‘rinda O‘zbek Milliy akademik drama teatri sahnalashtirgan “Bir qadam yo‘l” (rej. V.Umarov, U.Azim asari), “Qirmizi olma” (rej. M.Abdullayeva, H.Abbosxon asari), “Dadajon demayman” (rej. M.Abdullayeva, S.Imomov asari), “O‘zbekcha raqs” (rej. T.Azizov, Z.Axmedova, N.Abbosxon asari), “Rustam” (rej. T.Azizov, Z.Axmedova, U.Ismoilov asari) “Ogoh bo‘ling odamlar” (rej. V.Umarov, U.Azim asari) “Oydin” (rej. V.Umarov, R.Muxammajonov asari) kabi spektakllar, yuqorida sanab o‘tilgan jihatlari bilan mustaqillik davri uchun ma’naviy xizmat qila oladigan, yuksak badiiy salohiyatga ega sahna asarlaridir.

“O‘zbekcha raqs” spektaklida millatimizga xos bo‘lgan bag‘ri kenglik, bardoshlilik va oqillik, mehnatsevarlik, bolajonlilik kabi chin insoniy fazilatlar haqida hikoya qilinadi. Spektaklning ilk varianti diplom ishi sifatida namoyish qilingan bo‘lib, uni pedagog – rejissyor, O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Azizov sahnalashtirgan. Professional sahnada bitiruvchi talabalar yetuk aktyorlar bilan bir jamoada ijod qilib taqdim etishgan. Ma’naviy qadriyatlarni ulug‘lash, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, ayol – ona har doim ham pok qalb sohibasi, oilaga sadoqat, insof va adolat hayot haqiqatining timsoli ekanligini biz Qumri obrazini

O‘zbekiston xalq artisti Dilbar Ikromova ijrosida ko‘ramiz. Spektaklni tomosha qilish davomida Qumrining hayoti mobaynida chekkan iztiroblari-yu, shodon kunlariga shohid bo‘lamiz. Aytish mumkinki, D.Ikromova rolni ijro etmayabdi, unda yashayapdi. Buni biz uning so‘zlarida, partnyor bilan bo‘lgan muloqotida va monologlarida – spektakldagi eng cho‘qqi zikr tushish sahnasida ko‘ramiz. Dilidagi qalb tug‘yonlarini farzandi, jigarbandi omon qolishi uchun Ollohga qilgan munojotlarini eshitib, qalbimiz jumbushga keladi. O‘zbek xalqining qalbi, insoniy fazilatlari uning raqsida ham o‘z badiiy ifodasini topadi. Spektakl rejissyorining sahna asarida ilgari surayotgan insonlarning millati, diniy e‘tiqodi turlicha bo‘lgan taqdirda ham insoniylikni yo‘qotmaslik, sof muhabbatni asrash va oila muqaddasligini yuksaklarga ko‘tarishdan iborat g‘oyani ifodalaydi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist V.Umarov sahnalashtirgan Rixsivoy Muhammajonovning “Oydin” asarida ham qahramonlar va ommaviy sahnalar uchun bitiruvchi talabalarni jalb qilinishi bo‘lg‘usi aktyorlarni katta sahnaga olib chiqish va tajribali aktyorlar qatorida rol ustida ,nutqiy komponentlar,obraz xaqidagi tahliliy jarayonlarni o‘rganishga ilk urinishdir. Insoniyat qismatining eng chirkin illati bo‘lgan odam savdosi va uning nohush oqibatlarini fosh etadi. Asar personajlari o‘z hayotini to‘g‘ri tanlay olmay turli aldov va xiyonat iskanjasiga tushib qolgan-adashgan va jabr ko‘rgan ayollarning achchiq qismati haqida. Spektaklda rejissyor V.Umarov o‘zbek teatr sahnalariga endi kirib kelayotgan yangi uslubdan foydalangan. Bu spektakl jarayonida qahramonlar maqsadini tomoshabinga yanada ta’sirliroq yetkazish uchun televideniya namoyish etilayotgan ko‘rsatuvni, unda ko‘tarilayotgan dolzarb mavzu–odam savdosi, insonlarni ogohlikka chorlovchi va undan qutulishdagi davlatimiz tomonidan ko‘rilayotgan chora–tadbirlarini sahnada ekran orqali yetkazish bilan boshlanadi. Reabilitatsiya markazida davolanayotgan jabrdiyda ayollar ham tomosha qilib, jurnalist bilan uchrashib boshlaridan o‘tgan barcha azob–uqubatlarni televideniya orqali yurtdoshlarimizga yetkazishni maqsad qiladilar. Asar qahramoni Oydin (Shodiya To‘xtayeva) hisoblanadi. Yana bir personaj Xurshida (Nodira Mahmudova) pul topish yo‘lida hech qanday qabihlikdan tap tortmaydigan, tovlamachi ayoldir. U Oydinning eri Samandar (Mirolim Qilichev)

orqali qizlarning oldida go‘yo o‘zini ularning dardiga sherik bo‘lgan farishtadek ko‘rsatib, “savob uchun” ularni Turkiyaga ishga jo‘natib, u yerda ko‘p pul topishi tez kunda uy – joyli va mashinaga ega bo‘lishlariga ishontiradi. Uning o‘ziga jalb qilish usuli ta’sirchan, oqibatda aziyat chekayotgan qanchadan-qancha oilalar, ayollar, ayniqsa yosh qizlar o‘zga yurtlarda xoru–zorlikda tahqirlanib, qullik azobini tortishadi. Oydin reabilitatsiya markazidagi qizlarning dardu-xasratlarini eshitib, aldangan ayollarni Xurshidaning tuzog‘iga eri Samandar ilintirib berganligini sezganidan so‘ng dunyo ko‘ziga tor ko‘rinadi. Oilasiga Samandarga bo‘lgan muhabbati kuchli bo‘lsa ham, uni qilmishlari uchun kechira olmaydi. Spektakl finalida fosh etilib qo‘lga olingan Xurshida qamalishdan qo‘rqmasligini, u faqat farzandlarining qanday bosh ko‘tarib yurishlarini o‘ylab qayg‘uradi. U guldek o‘zbek qizlarini hayotga qaytarish, oilasi va jamiyat oldida “fohisha” degan tamg‘adan oqlash va himoya qilishga intiladi. Spektaklning bosh g‘oyasi va tomoshabinni befarq qoldirmaydigan, hayajonga soladigan, ogohlikka chorlaydigan ibrati ham aslida shunda. Jabrdiyda ayol Nodiraning (Aziza Sharipova) boshidan o‘tkazgan azob-uqubatlarini eslab gapirib berishi ekran orqali yirik planda tomoshabinga ko‘rsatilayapti. Rejissyorning zamonaviy kommunikativ uslublardan foydalanishi ushbu spektaklning muvafaqiyatini ta’minlaydi. Spektakl personajlari yosh aktyorlar bo‘lishlariga qaramasdan, jamiyatni tubdan yemirib falajlantiradigan, uni ma’naviy inqirozga olib boradigan salbiy jixatlarni ochib bera oldilar. Ma’naviyatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligini har qachongidan ham ko‘proq his etish har bir insonning har bir soha egasining, ayniqsa san’at va madaniyat sohasi kishilarining eng muhim, katta mas’uliyat talab etadigan hayotiy vazifasidir.

Jahon dramaturgiyasiga e’tibor, adiblar ijodi va ularning bosib o‘tgan umr yo‘llari har bir o‘quvchi uchun qiziq ma’lumot hisoblanadi. Ayniqsa, aktyorlik yo‘nalishlari tahsil olayotgan bo‘lajak mutaxassislariga bu borada talab yanada kuchliligi bilan ajralib turadi.

Mashhur fransuz adibi sarguzashtlarga boy romanlar sahna asarlari muallifi Aleksandr Dyuma o‘z asarlari bilan o‘zbek kitobxonlari va tomoshabinlariga “Uch mushketyor”, “Graf Monte-Kristo”, “Yigirma yildan keyin” va “Vikont de Brajelon”

kabi qator romanlari, “Ov va muhabbat” kichik pesasidir. “Genrix III va uning saroyi” dramasi yozuvchiga muvaffaqiyat keltirdi. “Antoni”, “Nel minorasi” va boshqa pyesalari orqali ilgaridan tanish.

Adibning “Nel minorasi” asari “Ajal minorasi” deb nomlanib ilk bora o‘zbek sahnasida Hamza nomli akademik drama teatrida 1972 yili O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev tomonidan sahnalashtirilib katta muvaffaqiyat qozongan edi.

Kursdan tanlab olingan barcha personajlarga aktyorlar bilan alohida har bir mutaxassis ish olib borgani, ularni sahna madaniyatiga, davr ruhiyatiga hamohang tarzda mos tushishiga, liboslar bilan ishlashiga va eng asosiysi sahna nutqi aktyorlik mahoratining ajralmas bir bo‘lagi ekani e‘tiborni tortadi.

Dyumaning ushbu asarida feodal olamning dahshatli ko‘rinishlarini tasvirlab, qirol va uning atrofidagi hukumdor zodogonlar doirasining jinoyatkorona kirdikorlarini yaqqol fosh etadi. Toju-taxt, insoniy tuyg‘ulardan ustun turishi aktyorlar monolog va dialoglarida takrorlanmas tarzda ifoda etiladi.

Margarita o‘z farzandlaridan ustun qo‘ygan boylik va ayol makrini o‘ta mohirlik bilan tasvirlab beradi. Xurshida Saatova ijrosidagi Margarita o‘ta ayorona, so‘zlaridagi qat‘iylik, yuz ifodasidagi niqob tomoshabin ko‘z oldida naqadar ayol kishining “makri” har narsadan ustun turishini bir nafasda namoyish etadi. Aktrisa ijrosidagi qirolicha o‘sha davrga xos qadam tashlashi, so‘zi,viqor bilan insonlarga murojaat qilishi, kezi kelganida o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan tap tortmasligini mohirlik bilan ko‘rsata olganligi bilan ajralib turadi. U o‘ziga topshirilgan qahramonini o‘ynamadi, balki yurak bilan ijro etdi. U tomoshabinni haqiqiy taxt malikasi, ayovsiz qurbonlarni qotili bo‘lgan Margaritani ishonarli tarzda ijro etishiga muvaffaq bo‘ldi desak adashmaymiz. Ayniqsa, qimorxonaga o‘z aybi yo‘lida dalil olish maqsadida kelganida, to‘satdan sevgilisi Gotye d One bilan to‘satdan to‘qnashib qolishi va holatdan chiqish yo‘lida makkorlik bilan yuzidagi niqobini olib tashlashi va hokisor ayol qiyofasida o‘zini muloyim tutishi, nafas olishi, intonatsiyasi, vujudidagi o‘zgarish tilga chiqib so‘zlarida ham boshqa qiyofaga o‘ta olish mahorati tomoshabinni olqishiga sazovor bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, asar qaysi davrga mos tarzda yozilmasin, spektakl namoyishida tomoshabin o‘sha muhit, o‘sha

davr ichiga kirib hatto aktyor nafas olishini his qila bilishi va eng asosiysi sinchkovlik bilan tomosha qilishi lozim. Bu esa rejissyor va aktyorlik ansamblining naqadar hamohanglikda ishlaganidan, mehnat qilganidan darak beradi. Bundan tashqari spektaklda o'zining istarali chehrasi bilan tomoshabinni e'tiborini qozongan, Buridan obrazi alohida o'rinni egallaydi. Buridan italiyalik kapitan tashqi ko'rinishi bo'yi-basti kelishgan ko'rkam, yuzida istara, o'zini himoya qila oladigan, har tomonlama kuchli yigit. Ibratjon Azamatov ijrosidagi Buridan spektakl mohiyatini yanada boyitishga xizmat qilgan. Undagi sahna nutqi, so'zlarni talaffuzi, yonidagi partnyorini eshita bilishi aktyorga yuklatilgan qahramonini yanada salobatli ta'sirchanligini oshirgan. Spektakl davomidagi sodir bo'ladigan sahna janglarida undagi hatti-harakat, o'zini himoya qila bilishi ishonarli chiqqanligi bilan ajralib tursada, aktyorni yengil harakatlari tomoshabinni o'ziga tortadi. Bu har bir aktyorda kuzatilgan bo'lishi mumkin, ammo, bulardanda yuqori e'tirofni Buridan rovida ko'rinishi alohida ahamiyatlidir. Buridan qachonlardir malika Margarita bilan sof sevgi-muhabbat og'ushida yashagan, ammo taqdirning achchiq qismati undan ko'rgan ikki nafar o'g'ilning g'oyibdan yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ladi. U ishongan sof sevgi va ishongan Margaritasi, o'zi dunyoga keltirgan ikki nafar o'g'il farzandlaridan yuz o'giradi. Oradan yigirma yil o'tib ularning to'satdan to'qnashuvi, ko'p qing'ir ishlarining ochilishiga sabab bo'ladi. "Ajal minorasi" ikki nafar farzandlarining boshiga yetadi. Inson ayol, Ona degan ulug' ta'rifni bu kabi o'z manfaati yo'lida jigarbandlarini qotiliga aylinishi kechirib bo'lmas xatodir.

Spektaklda asosiy voqealar ularning chigal tus olishida qaysidir ma'noda qimorxonaning ham o'rni bordek. Orsini ismli shaxs doim tashrif buyurgan mijozlariga hurmat ehtirom ko'rsatib xizmatda turadi. Ammo, qirolicha Margarita bilan hufyona til biriktirib, qirollikka nisbatan orqadan ish ko'rishi uning naqadar hudbin, muzyurakligidan darak beradi. Bobur Mansurov ijrosidagi Orsini o'ta mug'ombir, o'zini hafa qildirib qo'ymaydigan kuchli shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Albatta, qimroxona xo'jayini biroz bukir, oyog'idan lat yeganligi sabab, lo'killab yuradi va ko'zidagi chandig'i har bir hatti-harakatlarida aktyorga ko'makchi vazifasini o'tagandek. Ovozidagi ohang, nutqiy xarakter, talaffuz, ifodaviy unsurlar,

qahramoniga xos harakatlar, gohida bukir, gohida qaddi tik jasur askarlar fe'l-atvori tahlil etib berilgan.

Spektaklda xotima achchiq yakun topadi: Margarita Orsini bilan yashirin tuzgan rejasiga ko'ra, sevgilisi bo'lgan Gotye d One (haqiqiy o'g'li)ni minoraga tuzoq qo'yib chaqirilishi va o'limiga o'zi sabab bo'lishi, uning o'g'illari qotiliga aylangani (sobiq eri) Buridan tomonidan ochiq oydin aytib beriladi. Voqealar kulminatsiyasi shu qadar tez tus oladiki, go'yo spektakl qahramonlarining taqdiri, ularning baxtli va baxtsiz kunlari olovda yonib falakka ko'tarilgandek tus oladi.

Tomoshabin yuqorida tilga olgan barcha qahramonlarga nisbatan achinish, ichdan ularni tushunishga, hatto o'g'illari qotili bo'lgan Margaritaga nisbatan ham achinishni sezasiz. Ichdagi nafrat, davrning qaqshatgich zarbalari, boylik, xiyonat, shavfqatsizlik barcha saroy ayonlarini yemirilishi olib keladi. Chunki, bir-birlariga nisbatan aldov, razolat ularni bir-birlariga bo'lgan ishonch va mehrini so'ndirganini ko'rishimiz mumkin.

Chunki, jahon dramaturgiyasidagi asarlarda qahramonlar ism sharifiga alohida e'tibor bilan talaffuz diqqatni tortadi. Tomoshabin buni ilg'amasligi mumkin. Ammo, mutaxassislar bu kabi qator kamchiliklarga sinchkovlik bilan razm soladi. Bu esa qilingan barcha mehnatga oz bo'lsada, o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun har bir yo'nalish mutaxassis pedagogi talaba bilan qayta-qayta ishlab yuqoridagi e'tirozlar yuzaga kelmasligini oldini oladi. Talaba bilan kunu-tun qayta-qayta ishlaydi. Talab qiladi. Uyqulardan kechadi. Albatta har bir tarixiy asarga alohida e'tibor, alohida mehr, alohida kuch, alohida sabr kerak ana shundagina rejissyor va uning atrofiga yig'ilgan katta guruh ko'zlagan maqsadiga erishadi.

Tarixiy asarlar doim tomoshabin ko'z oldida o'sha davrning har qanday voqeliklarini to'la-to'kis namoyon etadigan sahna asaridir. "Nel minorasi" asaridagi voqealar kimnidir to'g'ri yo'lga boshlasa, aktyor sifatida kelgusida o'z o'rnini topishiga ko'mak bersa ishonchimiz komilki, qilingan mehnat o'z samarasini topgan. Kelajakda bu kabi qator murakkab sahna asarlariga qo'l urish ular uchun maqsadga erishi yo'lida albatta yordam beradi. Zero bo'lg'usi san'atkorlarni tarbiyalashda,

ularni o‘zbek va jahon adabiyotining durdona asarlaridan xabardor qilishda o‘quv jarayoni davridayoq filmlar, o‘zbek va jahon teatr sahnalari asarlarini ko‘rish tahlil qilish va ijod amaliyotiga tadbiq etib borish san’at ta’limining professor o‘qituvchilari va talabalari zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘limida talabalar ijrosi uchun o‘zbek va jahon adabiyotining sara namunalaridan taqdim yetiladi.

## MONOLOG. MONOLOG TURLARI

Monolog (grekcha Monos – bir; logos – so‘z) – asar qahramonining suxbatdoshiga, o‘ziga, ba‘zan tomoshabinga qarata aytgan so‘zi nutqi.<sup>1</sup>

Monolog sahna asarining g‘oyasini ta’sirli ochishda, qahramonlarning ichki dunyosini, xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarni yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Monolog ustida ishlash jarayoni ijrochidan katta mas’uliyat talab qiladi. Ijrochi avvalo qaysi bir sahna asaridan olingan monolog bo‘lsa, asarni to‘liq va mufassal o‘zlashtirishga kirishadi. Asar nima uchun yaratildi? Muallif nima demoqchi? Asardagi ishtirokchi personajlar hayoti, maqsadi, g‘oyasi nimadan iborat? Monologi bilan nima demoqchi? Nimaga erishmoqchi? Shular haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lgach, monologga murojaat qiladi. Monologni mantiqiy tahlilini qilish kerak:

### **Oliy maqsad.**

Monolog ijrochisining niyati – asosiy fikriga oliy maqsad deyiladi. Har qanday ijro etish uchun olingan asar (monolog ham asardir) o‘z oliy maqsadiga ega bo‘lishi shart. Ana shu oliy maqsadning o‘zigi xos xususiyatlari bor:

a) Oliy maqsad ijrochi uchun mayoqlik vazifasini o‘taydi. Ijrochi har doim o‘shanga intiladi. Barcha qolgan vositalar unga eltuvchi yo‘lga bo‘ysundiriladi. Oliy maqsadsiz ijro etilgan asarda xulosa aniq bo‘lmaydi.

b) So‘z san’atini egallashning boshlang‘ich davri bo‘lgan ko‘rish elementi ustida ishlash paytida ham oliy maqsadni belgilab olish zarur. Bu jarayon ham oliy maqsadsiz bo‘lishi mumkin emas.

v) Oliy maqsad ko‘pincha asar g‘oyasiga mos keladi.

g) Oliy maqsad – o‘tmish davr va davr adabiyoti bilan hozirgi davr o‘rtasida bog‘lovchilik «ko‘priklik vazifasini o‘taydi».<sup>2</sup>

Demak ijrochining ijro etgan monologi qiymati uning oliy maqsadi bilan o‘lchanadi.

### **Asosiy voqea.**

---

<sup>1</sup> Намидий Н., Абдуллаева Ш., Иброхимова С. Адабиётшунослик терминлари луг‘ати. –Т., 1967. 147-б.

<sup>2</sup> Иномхо‘жаев С. Бадий о‘қиш асослари. –Т., 1973. 119-120-б.

Talabalar bilan monolog ustida ishlash jarayonida. Asarni asosiy voqeasini topib olish kerak. Oliy maqsad ijro jarayoni – ishlash jarayonida o‘zgarishi, aniqlanishi mumkin, ammo asosiy voqea esa oldindan va qat’iy aniqlab olinishi shart. Har bir asarni yoki asardan olingan parchaning monologning vujudga kelishiga va shakllanishiga turtki beruvchi voqeaga asosiy voqea deyiladi.

### **Voqealar tizimi.**

Monologni yaxlit gavdalantirmoq uchun asarni oliy maqsadi aniqlab olinadi. Ana shu oliy maqsadga erishguncha bir necha voqealarni bosib o‘tish kerak. Shuning uchun monologni bo‘laklarga voqealarga ajratib olamiz. Ammo ana shu voqealarning ichida muhim va yondosh voqealar mavjud bo‘ladi.

**Muhim voqea** – deb monologdagi eng asosiy muzmunini qamrab oluvchi bo‘lakka aytiladi. Ana shu muhim voqeani yonidagi voqealar birlashgan bo‘laklarga yondosh voqealar deb ataladi.

Xullas tanlangan asarimiz ya’ni monolog voqealarga bo‘lingach, ularning muhim va yondoshlari aniqlanadi va ularni qiymati va rang-barangligiga alohida e’tibor beriladi.

Monolog voqealarga ajratilgach, har bir voqea bo‘yicha qilinadigan ish aniqlanadi. Uning vazifasi belgilanadi.

### **Harakat.**

«Sahnada harakat qilmoq kerak, – deydi. K.S.Stanislavskiy. Drama san’ati, aktyorlik san’ati harakatga faollikka asoslangan... Sahnada ham jismoniy, ham ruhiy harakat qilmoq kerak».<sup>1</sup> Harakat matn zaminiga joylashgan ruhiy boylik, ya’ni muayyan vazifalarni bajarishga undovchi istakdir. Monologdagi har bir so‘z va jumla aniq harakatga tayanishi kerak.

Harakatlar ijrochining (talaba), birinchi shaxs tilidan aniqlanadi, fel bilan ifodalanadi.

### **Yetakchi harakat.**

---

<sup>1</sup>Станиславский К.С. Сайланма. Т.3. –М.: Искусство, 1955. 81-б.

Monolog ijrochisi o‘z oliy maqsadiga erishish uchun bir necha g‘ovlarni yengib o‘tishi kerak. Ana shu g‘ovlarning-to‘siqlarning umumiy ifodasiga yetakchi harakat chizig‘i deyiladi.

Monologdagi yetakchi harakat o‘sha personajning yetakchi harakatidan iborat bo‘ladi. Biroq ayrim asar tarzida ajratib olinganligi uchun, Ayni shu monologning mazmunini yoritib berishga xizmat qiluvchi boshqa yetakchi harakat belgilash ham mumkin.

Demak yetakchi harakat deb, ijrochi yoki personajning oliy maqsadga erishmoq yo‘lidagi eng asosiy intilishi, bajarilishi zarur bo‘lgan vazifa va kirdikorga aytiladi. Qolgan barcha harakat va boshqa elementlar ana shu harakat chizig‘iga tizilishi va shu yo‘l bilan birlashuvchi va oliy maqsadga erishmoq uchun harakat qilishi kerak.

### **Tub ma’no.**

Monologda ijrochi ko‘nglidan o‘tkazayotgan asl ruhiy holati, niyati, aytmoqchi bo‘lgan, ammo boshqa so‘zlar orqali ifoda etgan istagi tub ma’no deyiladi. K. Stanislavskiy fikricha: bu har doim matnni asoslab, jonlatirib beruvchi, ko‘zga tashlanmaydigan, ruxan seziladigan ammo matn ostida uzluksiz oqimni tashkil etuvchi «inson ruhining hayoti»dir.<sup>1</sup>

“Teatr san’ati” aktyorlari bilan monolog ustida ishlaganda yuqoridagi ko‘rsatmalarga amal qilgan holda ish olib boriladi. Ammo matnlar, yo‘nalishga monand bo‘lishi va uning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy bajarilishini ta’minlash lozim.

---

<sup>1</sup> Станиславский К.С. Актёрни о‘з устида ишлаши. –Т., 1965. 53-54-б.

## MONOLOGLAR HAQIDA. TAHLIL VA TALQIN

Personajning hayot haqida eng muhim o‘ylarini bir joyga yig‘ib, yorqin ifoda etish, personaj tomonidan hech kim yo‘qligida yoki ular jim turgan paytida aytilgan katta nutqi “monolog” deb aytiladi. Monolog “yunoncha” “bitta nutq, yakka nutq” demakdir.

Monolog personajning ichki dunyosini, uning o‘z tili bilan batafsil va hayojonli tarzda ochib beradi. Personajlarning bir birlariga “yuragida borini to‘kib solib” yozgan xatlarini ham monolog deb aytish mumkin.

Monolog personajlarning diologdagi nutqidan tashqi jihatidan ham farq qiladi: qahramon o‘z ichki dunyosini keng ochib berar ekan, ancha uzoq gapiradi. Shu sababli monologlar uzun bo‘ladi. Ammo badiiy tajribada “qisqa monolog” ancha kam uchraydi. Monologlar ham, diologlar ham voqealar syujetlari rivojiga, harakterlar mohiyatiga, qahramonlarning o‘sha vaqtdagi kayfiyatiga qarab, turlicha tarzda har xil mazmunda bayon qilinadi. Shulardan kelib chiqib, monologlar ichki va tashqi nutqlarga bo‘linadi. Agarda qahramon boshqa personajlarga qarata jiddiy nutqni izhor etsa, u tashqi monolog hisoblanadi.

Ichki monolog tafakkur ifodasi. Ichki monolog tashqi harakatga asos bo‘ladi. Qahramonni keskin harakatga solib qo‘yadi.

“Ichki monolog insonning o‘z qilmishlari, xul atvorini qaytadan boholaishi, hayotiy mavqeini tasdiqlashi, u yoki bu hodisalarga o‘z munosabatini bildirishi uchun kerak bo‘lgan hayotiy zarurat. Ichki monolog mantiqan uzviy bog‘liq chuqur g‘oyaviy ruhiy mazmun bilan to‘ldirilgan mulohazalar zanjiridir. Shuning uchun ham monologlar boy ichki dunyoga ega bo‘lgan shaxslargagina xosdir.

Tashqi monolog konkret shaxslarning ongiga ta’sir etish uchun qaratilgan. Bunday monologlar asar qahramonlarining his tuyg‘ularini samimiylashtirishga qaratilgan bo‘lib, asar qahramonlariga bo‘lgan hamdardlikka undaydi.

Adabiy asar qahramonlari monologlarini o‘rgana turib, tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoniga jiddiy e’tibor berish kerak. Muallif tushuntirishlarini, qahramonlarning ichki monologlarini baholashni o‘rganish juda muhim.

Yozuvchilarning badiiy asarlaridagi monologlar inson harakteri psixologiyasini o'rganish uchun bebaho materialdir. Monolog ustida ishlash jarayoni ijrochidan katta mas'uliyat talab qiladi. Ijrochi avvalo qaysi bir sahna asaridan olingan monolog bo'lsa, asarni to'liq va mufassal o'zlashtirishga kirishadi.

Badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z o'ziga yoki o'zgalarga qaratilgan nutqidir. Prozoik asarda monolog yetakchi rol o'ynamasa ham, ammo lirikada asosiy nutq shakli hisoblanadi. Dramada esa personajlarning ruhiy holati, ular harakterining murakkabligi ochiladi.

Dramatik asar ba'zan qahramonning monologi bilan boshlanadi. Bunday vaqtda uning ichki kechinmalari bilan birga, voqealar o'rni ham bildiriladi, monolog orqali sahnada paydo bo'ladigan shaxs yoki kutilgan voqea haqida xabar beriladi. (Adabiyotshunoslikka kirish. O'qituvchi nashriyoti. T 1984 y 122 125 betlar)

**Monolog** - badiiy asar komponentlaridan biri bo'lib, asarda ishtirok o'tuvchi shaxslarning o'z-o'ziga, o'zgalarga qaratilgan nutqi. Adabiyotda monolog personajlar ruhiy dunyosi, kechinmalarini ifodalashdagi muhim vositalaridan biri sifatida qo'llaniladi.

**Monologik nutq** – so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqni tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutqni nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatidan o'zaro bog'lik, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklida ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang (intonatsiya) muhim o'rin egallaydi, yozma monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstrukturasiga, mantiqiy urg'u tushuvchi so'zlarning joylashish o'rniga bog'liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvo-stilistik usul bo'lib, bir qancha turlari mavjud. Masalan, ta'sir qiluvchi (targ'ib qiluvchi) monologik nutq, dramatik

monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) monologik nutq. Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko‘rinishlari mavjud; ochiq monologik nutqda personaj o‘z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi: ichki monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o‘ylari shaklida namoyon bo‘ladi.

Monolog sahna asarining g‘oyasini ta’sirli ochishda, qahramonlarning ichki dunyosini, harakteridagi o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

## MONOLOGLARDA SO‘Z XATTI HARAKATI

Monolog uni ijro etayotgan aktyordan katta san’at, mahorat, mas’uliyatni talab etadi. Monolog asar qahramonlarining so‘zlari, nutqlari orqali talqin etiladi.

Monologni asarning g‘oyasi, obraz xatti-harakati hamda konfliktidan, shuningdek, ularni yuzaga keltiruvchi bosh badiiy komponent bo‘lmish – dialogdan batamom ajralgan mustaqil vosita deb bo‘lmaydi.

Agar monolog ichki kechinma bilan bog‘langan, dramatism bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, kishini toliqtirmaydi, ayniqsa qiziqishni oshiradi, obraz xarakteriga, talqin maqsadiga e’tiborni kuchaytiradi, aktyor ijrosi uchun katta material – manba xizmat qiladi.

Sahna asarlari ba’zan qahramonning monologi bilan boshlanadi. Bunda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar tarixi, boisi yoki chigalligi monolog ruhidan tasavvurimizda yaqqol gavdalanadi. Ayni chog‘da shu monologdan so‘ng sahnaga personajlardan birining kirib kelishi uchun zamin yaraladi. Shuningdek, ayrim monologlar asarning o‘rtalarida kelsa ba’zan asar monolog bilan yakunlanishi ham mumkin.

Dramatik asarlarda monologlar ikki turga, ya’ni ichki va tashqi monologlarga bo‘linadi.

**Ichki monolog** – insonning o‘z qilmishlari, xulq-atvorini qaytadan baholashi, hayotiy mavqeini tasdiqlashi, u yoki bu voqea-xodisalarga o‘z munosabatini bildirishi uchun kerak bo‘lgan hayotiy zarurat. Ichki monolog mantiqan uzviy bog‘liq chuqur g‘oyaviy–ruhiy mazmun bilan to‘ldirilgan mulohazalar zanjiridir. Shuning uchun ham monologlar boy ichki dunyoga ega bo‘lgan shaxslargagina xosdir. Ichki monolog ta’sirchanligi jihatidan inson tabiatida alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, yuksak malakali aktyor ijrosidagi ichki monolog tomoshabinlarga kuchli ta’sir etib, unda sahna bilan o‘zaro aloqa uchun zarur bo‘lgan his-tuyg‘uni uyg‘otadi. Asar muallifi monologdan bekordan-bekorga foydalanmaydi. Personajlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabati, to‘qnashuvlari oqibatida qahramonda yuzaga keluvchi iztirob, hayajon hissiyotlarini yorqin namoyon etish uchun qo‘llaydi. Bunda u qalbiga, suhbatdoshiga o‘tli monolog orqali murojaat etadi, bevosita munosabatda bo‘ladi.

**Tashqi monolog**– konkret shaxslarning ongiga ta’sir etish uchun qaratilgan. Bunday monologlar asar qahramonlarining his tuyg‘ularini samimiylashtirishga qaratilgan bo‘lib, asar qahramonlariga bo‘lgan hamdardlikka undaydi. Tashqi monologda qahramon ko‘pincha suhbatdoshiga, atrofida qilargalarga, tomoshabinga bevosita murojaat etadi, maqsadini qalbidagi murakkab kechinmalarini, maylini ochiq tushuntiradi, bunday monolog o‘z navbatida suhbatdosh raqibining unga nisbatan qarshi monolog bilan chiqishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Adabiy asar qahramonlari monologlarini o‘rgana turib, tuyg‘ularning paydo bo‘lish jarayoniga jiddiy e’tibor berish kerak. Muallif tushuntirishlarini, qahramonlarning ichki monologlarini baholashini o‘rganish juda muhim. Yozuvchilarning badiiy asarlaridagi monologlar inson harakteri psixologiyasini o‘rganish uchun bebaho materialdir. Pesani tahlil qila turib K.S.Stanislavskiyning “Tahlil bu – bilish, lekin lekin bizning tilda bilish bu – his qilishdir” degan edi. Pesada faktlar, voqealar, ishtirokchi shaxslarning o‘zaro munosabatlarini, asar qahramonlarining istak–xohishi, uning hayotiy munosabatini monologgacha o‘rganib hamda monologdan keyingi hayotini ham qilish uchun albatta u bilan birga “yashash” kerak.

Monolog ustida ishlash jarayoni ijrochidan katta mas’uliyat talab qiladi. Ijrochi avvalo qaysi bir sahna asaridan olingan monolog bo‘lsa, asarni to‘liq va mufassal o‘zlashtirishga kirishadi.


Personajlarning keskin kurashi qahramonni ba’zan shunday vaziyatga soladiki, u o‘z qalbi bilan so‘zlashib, bo‘lib o‘tgan voqealarga munosabatini, bundan keyin nimalar qilish zarurligini monolog vositasida hal qilib oladi. Bunday paytda qahramon tomoshabinga yoki o‘ziga aksariyat hollarda partnyoriga murojaat etadi, yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketish yo‘llarini axtaradi. Bu bilan muallif qahramon xarakterining ichki dunyasini chuqurroq ochish imkoniga ega bo‘ladi. Ko‘pchilik hollarda muallif qahramon monlogidan asarning burilish daqiqalarida konfliktning keskinlashish pallasida foydalanadi.

## II BOB. FANNING AMALIY ASOSLARI

### AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI YUZASIDAN TEXNIK MASHQLAR VA MATNLAR MAJMUI

#### NUTQ A‘ZOLARINING TUZILISHI

Inson nutqidagi aniq va ravon talaffuz nutq a‘zolarining sog‘lomligi va ularning to‘g‘ri faoliyatiga bog‘liq. Bir kishining nutq a‘zolari o‘ziga zos tuzilgani uchun bir-biridan ozmi-ko‘pmi farq qiladi. Shunga ko‘ra odamlarning tovushlari ham bir-biriga o‘xshamaydi – birov ingichka, birov jarangdor, birov xirildoq talaffuz qiladi.



Нутқ аъзосининг тузилиши.

- 1-бош мия;
- 2-бурун бўшлиғи;
- 3-қаттиқ танглай;
- 4-огиз бўшлиғи;
- 5-лаблар;
- 6-тишлар;
- 7-тил учи;
- 8-тил орқаси;
- 9-тил илдизи;
- 10-кичик тилча;
- 11-ҳалқум;
- 12-ҳиқилдоқ;
- 13-трахея;
- 14-ўнг бронх;
- 15-ўнг ўпка;
- 16-диафрагма;
- 17-қизилўнгач;
- 18-умуртқа;
- 19-орқа мия;
- 20-юмиоқ танглай.

Talaffuz vaqtida nutq a‘zolarining harakati ikki holatda, ya’ni ma’lum tovushni talaffuz etishga chog‘lanish va aytish «artikulyatsiya», tovush tugagach, nutq a‘zolarining o‘z joyiga (asl) qaytishi, ya’ni «rekursiya» bilan bog‘liq. Nutq a‘zolari asosan ikki turga bo‘linadi: 1) faol nutq a‘zolari – tovush paylari, lablar, til, yumshoq tanglay; 2) sust (nofaol) nutq a‘zolari – o‘pka, kekirdak, og‘iz bo‘shlig‘i, tishlar, burun bo‘shlig‘i, qattiq tanglay. Nutq a‘zosiga shuningdek, jag‘-tish qatori, kichik tilcha, ovoz paychalari, bo‘g‘iz va halqum kabilar kiradi.

Tovushning sifati, jarangdorligi nutq a‘zolarining tuzilishi va talaffuz jarayonida ishtirok etish darajasiga bog‘liq.

Quyidagi holatlar talaffuzdagi nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

## 1. Nutq a'zosining noto'g'ri tuzilishi:

a) yuqori jag' oldinga chiqib ketgan bo'lsa, buning oqibatida yuqori tishlar, pastki labni bosib turadi. Bu kamchilik nutq a'zosining artikulyasiya holatiga va noto'g'ri talaffuzga olib keladi;

b) pastki jag'ning oldinga chiqib ketish holati. Bu holat ham nutq a'zosidagi tuzilishi mushkul ko'rinishlardan biridir. Nutqdagi bunday nuqsonlar ba'zida sirg'aluvchi tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishga olib keladi. Bunga yuqori va pastki tish qatorlarining oralari ochiq joylashuvi va jag'lar yopilganda ham qisman ochiq qolishi sabab bo'ladi;

d) uzun va yo'g'on til esa til harakatining sustlashuvi va chuchuklanuviga olib keladi;

e) tilning kaltaligi (til osti pardasining pastki jag'ga yopishgan holati) – bu duduqlanib gapirish hamda «R» va «L» tovushlarini aniq talaffuz qila olmaslikka olib keladi.

2. Nutq a'zolari mutlaqo to'g'ri bo'lsayu undan noto'g'ri foydalanilsa;

3. Oliy asab sistemasining ayrim qismlari faoliyati buzilishi oqibatida.

Nutq a'zolaridagi kamchiliklarni nutq texnikasi o'quv jarayonida, ba'zilarini esa tibbiy usulda (jarrohlik yo'li bilan, tish qatorlarini to'g'rilab torttirish) tuzatishga erishiladi.



Жағ тузилишидаги камчиликлар. Юқори жағнинг олдинга чиқиши.



Пастки жағнинг олдинга чиқиши.




Юқори ва пастки жағлар жойлашганда улар орасидаги оралик масофа (олдинги тишлар ораси очик бўлади).

Ko'pincha bu usullarning barchasi qo'llanganda ham nutqni yaxshilashga yordam bera olmaydi, natijada nutq avvalgi holicha qolib ketadi. Yaxshisi bunday nuqsoni bor insonlarni san'at o'quv yurtlariga o'qishga kirmasliklarini tavsiya qilardik.

# ARTIKULYATSIYA MASHQLARIDAN NAMUNALAR

## 1. Og‘izni ochish

Aniq va yengil talaffuzga erishishning birinchi omili – bu erkin va yaxshi ochiluvchi og‘iz. Sahnada ko‘pincha «tish orasidan gapirish» hollarini ko‘ramiz, bunda aytilayotgan gap noaniq chiqib kishining g‘ashiga tegadi. Buni bartaraf qilish uchun birinchi galda mashq mobaynida og‘izni «vertikal» holda ochishga erishish darkor (pastki jag‘ tushiriladi), lab hamda jag‘lar ham siqiq bo‘lmasligi kerak. Og‘izni ochish va yopish davomidagi harakat yumshoq bo‘lishi, ya’ni til tekis yotishi va til uchi pastki tish qatorlariga yengil tegib turishi kerak. Bu mashqni bir necha bor qaytarish lozim. Bu va quyida beriladigan mashqlarni avval bajarayotgan mashq holatini aniq ko‘rib turish uchun ko‘zguga qarab, keyinchalik esa ko‘zgunsiz bemalol bajarish mumkin.



## 2. Yuqori lab mashqi

Bu mashq harakati sust, «qotib qolgan» lab uchun mo‘ljallangan. Pastki lab, yuz erkin holda turadi, yuqori lab yuqoriga – burunga tortiladi va shu tarzda bir necha bor ko‘tarilib, tushiriladi, bunda oldingi tish qatorlari milk-kacha ko‘rinishi kerak.



## 3. Pastki lab mashqi

Pastki lab ham faollikda yuqori labdan qolishmasligi kerak. Pastki labni ikki yonga tortib pastga tushiriladi, bunda pastki tish qatorlari aniq ko‘rinib turadi, pastki jag‘ qimirlamaydi, og‘iz yarim ochiq holda bo‘ladi.



## 4. 2 va 3-mashqlar navbatma-navbat qaytariladi


Bu mashq og‘iz mushaklarini yumshatib, uning yengil ochilib-yopilishini ta’minlaydi.

### **5. Lablarni yig‘iq holda avval oldinga cho‘chchaytirish, tish qatorlarni ko‘rsatmasdan ikki tomonga tortish**



Mashq lablarni qattiq siqqan holda bajariladi. Faqatgina lablar tortilib, mashq mobaynida jag‘ning qimirlamay turishi, og‘iz mushaklarining egiluvchanligiga va yengil harakatlanishiga olib keladi. Nutqdagi va qo‘shiqchilikdagi unli tovushlarning serjilo, shirali eshitilishiga aynan shu mashq orqali erishiladi.

### **6. Lablarni yumgan holda o‘ngga, chapga, yuqoriga, pastga va aylana bo‘yicha (tishlar jipslashgan holda) harakatlantirish**




Lablarni yumgan holda ushbu mashqni bajarish biroz mushkul; ko‘zlangan maqsadga erishish uchun avval har bir harakat qismini alohida bajarish mumkin, birinchi labni oldinga chiqarish va ushlab turish, keyin o‘ngga, biroz ushlab turib, chapga, so‘ng jag‘ni yopiq holda ushlab pastga, yuqoriga (iloji boricha burungacha). Shu harakatlar yana boshidan qaytariladi.

## 7. Pastki jagʻni oldinga, oʻngga, chapga, pastga va aylanma harakatlantirish

Yuqorida zikr etilgan mashqlardagi holatlarni avval guruhli darslarda talabalarga

yozdirib, kerak boʻlsa koʻrsatib berish lozim.



Keyinchalik yakka tartibda ham davom ettirish

kerak. Oʻqituvchi yakka tartibda berilgan topshiriqlarni nazorat qilish paytida, har bir talabaning talaffuzida nutq aʼzosidagi kamchilikni bartaraf etish uchun alohida vaqt ajratishi darkor.



Texnik mashqlar murakkablashgan paytda ham koʻproq yakka darsga eʼtiborni qaratishi kerak boʻladi. Hamma qayd etilgan mashqlarni har kuni 7-8 daqiqadan bajarish maqsadga muvofiqdir. Boʻlgʻusi drama, estrada, qoʻgʻirchoq teatri, musiqali teatr aktyorlari hamda rejissyorlik guruhi talabalarini oʻqitish mobaynida shunga erishmoq kerakki, ular rol ustida ishlashda, boshlovchilik qilib sahnaga chiqish oldidan bu mashqlarni bajarish zarurligini unutmasinlar. Zero, burro til, toza talaffuz, jarangdor ovoz tinimsiz mehnat tufayli yuzaga chiqadi.

## TIL MASHQLARI

Nutq a'zolarining yana biri bu tildir. Talaffuzning aniq va ravonligi tilning egiluvchanligi va ixchamligiga bog'liqdir (ba'zan boshqa a'zolar meyorida, lekin til yo'g'on yoki kalta bo'lib qolishi mumkin). Tilning talaffuz vaqtidagi holatini avval ko'zguga qarab o'rganish lozim. Tildagi nuqsonni tuzatish (masalan duduqlik, «L» tovushini «YE» deb talaffuz qilish, tilning chuchukligi) quyidagi til mashqlarini bajarib borishga bog'liq:



1. Til yassi holatda, uchi pastki tish qatoriga tegib turadi, og'iz vertikal holda katta ochiladi (xuddi esnagandek).

Bu mashq birinchi «og'izni ochish» mashqiga o'xshab ketadi, undan farqi shuki, bunda tilning holatiga ko'p-roq e'tibor beriladi, yuqoridagi mashqda esa og'iz ochilib - yopilishi mobaynida jag'ning aniq harakatlanishiga diqqat qaratiladi. Mashq kun davomida bir necha bor bajariladi.

2. Og'iz va til holati yuqoridagidek, lekin til uchi yuqori tish qatorining oldingi



qismiga ko'tarilib, yana avvalgi holiga qaytadi.



Harakat bir necha bor takrorlanadi, bu vaqtda (til uchi harakati davomida) pastki jag' qimirlamasligi kerak. Kelgusida bu mashq til osti pardasi ish faoliyatini yaxshilab, «R»




tovushini toza talaffuz qilishga yordam beradi.

3. Og‘iz yarim ochiq, til uchi yuqori tanglayga qaytarilib tegib, yuqori tish qatori bilan yuqori labga salgina tegib ozgina tashqariga chiqadi.

Bu mashq asosan «L» tovushining aytilishini mustahkamlash uchun til uchi tashqariga chiqayotgan paytda tovush qo‘shilib – LU – LO – LO‘ tallafuz etiladi.

4. «**Belkurakcha**» – til keng holda chiqarilib, bo‘shashti-riladi va pastki lab ustiga qo‘yiladi. Bunda til titramasligi kerak.



5. «**Kosacha**». – Og‘iz keng ochiladi, til keng chiqarilib yuqoriga ko‘tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib

boriladi, lekin ularga tekkizilmaydi.



6. «**Naycha**» – til keng holda chiqariladi. Uning ikki yon tomoni yuqori tomonga bukiladi. Hosil qilingan naycha-dan puflanadi.

7. «**Soatcha**» – til uzun, ingichka qilib chiqariladi. So‘ng shu holda og‘izning o‘ng burchagidan chap burchagi tomonga devor soatning kapgiri kabi harakatga keltiriladi.

8. «**Ot**» – til tanglay tomon burilib, so‘ng qo‘yib yuboriladi. Shunda til xuddi ot tuyoqlari ovozi kabi taqillagan ovoz chiqaradi. Bu mashqni sekin va tezroq bajarish mumkin.

9. «**Arg‘imchoq**» – til uzun, ingichka qilib chiqariladi, so‘ng navbatma - navbat goh burun, goh iyak tomon olib boriladi. Bu vaqtda og‘iz berkitilmaydi.

10. «**Mazali murabbo**»– til keng holda chiqariladi, so‘ng yuqori lablar yalanadi va til og‘iz ichiga olinadi.

Yuqorida qayd etilgan lab, jag‘ va til mashqlarini har kuni bir necha marta, kamida 4-5 daqiqa takrorlash lozim. Kelgusida «T», «D», «L», «R» tovushlarini talaffuz qilishga o‘tish mashqlarida ham bulardan unumli foydalanish mumkin. Talaffuz kamchiliklarini to‘g‘rilash va benuqson talaffuzni faollashtirish bo‘yicha olib boriladigan mashqlar ma‘lum izchillikda o‘tkazilishi lozim.

## TEZ AYTISHLAR

Talaffuzni chiniqtiruvchi she'riy matnlar, nafas va ovoz uchun har xil folklor - o'yin tarzidagi she'rlar ustida ishla-ganda, shu she'rning mazmun-mohiyatiga putur yetkaz-masdan nutq sur'atini zaruratga qarab o'zgartirib borishga (goh pasayib, goh tezlashib) to'g'ri keladi. Bu esa bo'lg'usi san'atkorlar oldiga nutq sur'ati masalasi bilan jiddiyroq shug'ullanish vazifasini, ya'ni tez aytishlar ustida ishlash masalasini qo'yadi.

Tez aytish nutq tovushlari uyg'unligiga asoslangan janr bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush, u yoki bu so'z talaffuzida chalg'ish yoki tutilish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi.

Tez aytishlar ustida ishlash bo'lajak aktyor va rejissyorlar, jamiki so'z san'atiga aloqador kishilarga nutq a'zolarining chaqqon va aniq, tovushlarni toza talaffuz qilishdan tortib, fikrlashga, ritmni yo'qotmaslik, urg'uni to'g'ri ishlata bilish, aktyorlik mahoratining boshlang'ich barcha elementlaridan tortib, ovoz, nafas, xotira (birinchi o'rinda), munosabat kabilar his-tuyg'ularni qo'zg'atish, tasavvurni boyitish, nutqiy xarakter yaratishda juda muhimdir. Shu bois tez aytishlar ustida ishlash, uni kichik bir «sahna asari» darajasiga yetkazish nutq san'ati, xususan so'z san'atining takomillashuvida zarur ijodiy manba hisoblanadi. Tez aytishlar ustida ishlaganda avvalo quyidagilarga amal qilmoq lozimdir:

1) matndagi talaffuzga to'liq, aniqlik beruvchi tovush va tovush birikmalari, har bir bo'g'in, so'z, jumlani, undagi unli, undosh, sirg'aluvchi va sonor tovushlarning artikulyatsion holatini o'zlashtirish;

2) tez aytishdagi bitta so'zli takror yoki chalkash aytiladigan so'zlarni avval bo'g'inlab, so'ng eng past sur'at (birinchi tezlikda) bilan ifodali o'qish;

3) shu asnoda bir-ikki bor qaytarilib, tovushlar artiku-lyatsiyasini saqlab qolgan holda avval pichirlab (xuddi sirli xabardek), nihoyat tovush chiqarib talaffuz etiladi, lekin tezlik birinchi galdagidek;

4) mana endi matn to‘liq o‘zlashtirilib, yod olingandan keyingina (agar yod olinmasa, fikr so‘z qidirishga ketadi), u tez aytishga aylandi;

5) endi, tezlikni biroz oshirib (ikkinchi tezlik), mantiqqa putur yetkazmasdan kamida uch marta qaytariladi;

6) xuddi shuning o‘zini tezlikni yana oshirib (uchinchi tezlikda), uch marta qaytariladi, bunda tezlik oshgani hisobiga tovushlar yamlanishidan, duduqlanib qolishdan ehtiyot bo‘lish kerak;

7) navbatdagi ish tez aytishni fikrga qo‘yib, biror maqsadni ko‘zlashga qaratiladi, agar tez aytish ma‘nosiz, ko‘r-ko‘rona (shunchaki tezlik uchun) aytilsa, u hech qanday amaliy natija bermaydi.

Buning uchun talaba-o‘quvchi biror maqsadni ko‘zlagan holda ro‘parasidagi talabaga yoki yonidagi talabaga murojaat etadi, masalan: bu birorta quvonchli xushxabar bo‘lishi yoki vahimali voqeani so‘zlab bermoqchi, yoki biror sirli gap bo‘lishi mumkin.

Talaba oldiga qo‘yilgan maqsadni aniq bajara olsa, uning talaffuzi ravon va aniq bo‘lib chiqsa, bevosita sherigiga ta‘sir qila oladi, o‘z o‘rnida sherigi ham (ikkinchi talaba) voqeaga qiziqib ketib, savol tariqasida bevosita o‘zidan so‘z qo‘shib yuborishi mumkin. Xuddi ana shu jarayonda tuzilgan so‘z (saviya) qanchalik jonli, tabiiy bo‘lsa, uning bergan savolidan boshqalar ham taajubga tushib, qiziqib, tez aytishni davom ettirib ketishi, kelgusida so‘z hamda kichik-kichik dialogli parchalar ustida ishlaganda «jonli», «rost» so‘z tug‘ilishiga zamin bo‘lishi aniq.

Tez aytishlarni, albatta, eng oddiydan boshlab asta-sekin (o‘zlashtirilishiga qarab) murakkabiga o‘tish, so‘ng yana bir boy imkoniyati – berilgan vazifa bilan ko‘zlangan amaliy natijani olish mumkin. Masalan, qo‘yiladigan maqsadlar quyidagicha bo‘lishi mumkin: savol (tushunmaslik), javob (uqtirish), taajub, aniqlash, baxs, maqtanish kabilar talabalarda ham qiziqarli, shu o‘rinda ko‘pchilik so‘zlarni o‘zlari topib aytish ularda ijodiy faoliyatning uyg‘onishiga olib keladi.

Katta hajmdagi she‘riy tez aytishlarda talabalarning guruh bo‘lib ishlashi, avvalo sherigini his qilishi, eshitishi, uning fikrini davom ettirishi va to‘ldirib yoki ma‘qullab xulosalashi, ya‘ni yakun yasashi ham 3-4 daqiqalik sahna asari namoyishidan darak

beradi. Bularning hammasi, albatta, o'qituvchi nazoratida bo'lishi kerak, ijrochi berilib ketib ba'zi tovushlarni noto'g'ri talaffuz etishi yoki tushirib qoldirishi, yoki oxiriga yetkazmaslik hollari yuz bersa, unda joyida to'xtatib qayta ishlash, kerak bo'lsa, yana birinchi tezlikka qaytish lozim.

Nutq texnikasi mashqlari mobaynida juda «tez gapirish» yoki aksincha, nutq a'zolari hammasi to'g'ri joylashuviga qaramay yengil, ya'ni «salmoqlanib» gapiruvchi talabalar bilan ishlaganda, tez aytishda qo'llanadigan uchta tezlik juda qo'l keladi:

birinchi tezlik – sekin, shoshmasdan dona-dona gapirish;

ikkinchi tezlik – o'rtacha, tezlikni biroz oshirib gapirish;

uchinchi tezlik – tez, shu bilan birga aniq va chaqqon talaffuz qilgan holda gapirish.

Yendi nutqi juda salmoqi bo'lgan talaba uchun uchinchi tezlikda ishlash vazifasini qo'yish darkor, bunda mantiqqa putur yetkazmaslik, tovushlarning barchasini burro aytishni o'qituvchi nazorat qilib boradi.

Tez gapiruvchilar ba'zan duduqlanib ham qolishadi, bu nuqsonni tuzatishda birinchi tezlikdan foydalanish mumkin. Shuni yodda tutish lozimki, nutqdagi har qanday tezlik biror maqsad, fikr bilan bog'liqdir.

Tez aytishning yana bir boy imkoniyatlaridan biri, undagi mazmun jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlarda mantiqiy urg'uni belgilash orqali fikrni aniq yetkaza olishdir.

**Masalan:**

Ko'k otga o't berdim,

Oq otga tert berdim.

Bu tez aytishda gap ranglar ustida borayotganligi uchun ham **ko'k, oq,** so'zlariga qo'yilgan mantiqiy urg'u bilan fikrning o'rni o'zgarib boradi. Bu **ko'chma urg'u** deb ataladi. Bunda urg'uni turli so'zga galma-galdan ishlatib, hattoki tez aytish davomida bir talaba «ko'k» va «oq» rangga qarshi chiqib, urg'uni «o't»ga va «tert»ga berishi mumkin, bu o'z-o'zidan bahsga aylanib, ijro davomida tartibga keladi, natijada talaba urg'uni turli maqsadlarda ishlatishga o'rganadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tez aytishlar bo'lg'usi aktyor, rejissyor so'z ustalarining nutqiy nuqsonlarini yo'qotish, diqqatni tarbiyalash, xotirani mustahkamlash, tasavvur qilish qobiliyatini o'stirish, munosabat uyg'otish hamda nafas va ovozdan unumli foydalanishda katta ahamiyatga ega.

Shuni eslatib o'tish joizki, murakkab she'riy tez aytishlar ustida ish olib borilganda juda ehtiyotkorlik bilan yondashmoq kerak.

*Tez aytishlardan namuna:*

1. Tez aytishni tez-tez ayt.
2. Sovuqda tustovuq sovuq qotdi.
3. Saodat soatini soatsozga sozlatdi.
4. Gulsara gul saralab, gul sotadi.
5. Boqi boqqa, soqi toqqa boradi.
6. Qush qo'lpop, qo'shovi ham bosh qalpoq.
7. Oltin o'tloq – oq o'tloq.
8. Zanjir, sarjin, anjir.
9. Jamila jiydani joyiga joyladi.
10. Erkin egatga ertaki ekinni ertalab ekdi.
11. Asad, Samad, Sur'at Asakada asl asal sotishdi.
12. Boqi, Botir buzoq boqar.
13. Pirpirak pirillaydi, chirildoq chirillaydi.
14. To'ychi tog'asi Turdi tomiga tovuqxona qurdi.
15. Chovli – simdan  
Shovgum – misdan.
16. Bu tutcha – shunday tutcha,  
Oq tutcha – kumush tutcha.
17. Oltin qoshiq, oltin tish,  
kumush tola, kumush qish.
18. Nonvoy Norvoy non yopar,  
Nonni novvot deb sotar.
19. O'zim uzib uzum yedim.

20. Qalin qorga qora qarg‘a

Zo‘rg‘a qo‘ndi, ana qara.

21. Ko‘k otga o‘t berdim,

Oq otga tert berdim.

22. Yetti to‘ti, mitti to‘ti,

etmishtaga yetdi to‘ti.

O‘zbek tili fonetikasining bir qator murakkabliklari mazkur bo‘limda ko‘rsatib o‘tildi. Yuqoridagi fonetik tovushlar xususiyatlari bilan tanishgan talabaga talaffuz usullarini egallash uchun yo‘l ochiladi. Shuningdek, she‘r va boshqa tillar ta‘sirida ro‘y berishi mumkin bo‘lgan nutqiy nuqsonlar bartaraf etiladi. Turli matnlar, tez aytishlar yordamida tovushlar talaffuzi ko‘p bora takrorlanadi va asta-sekin o‘zlashtirib boriladi.

## NAFAS, OVOZ, TALAFFUZ VA ORFOEPIYA (HARAKATLI MASHQLAR ASOSIDA)



Nafas, talaffuz, ovoz, orfoepiya bu o‘zaro aloqada bo‘lgan nutq texnikasi bo‘limlaridir. Bunday aloqalar e‘tiborni tortadi. Ma‘lumki, nutq texnikasi ustida ishlash chog‘ida faqat talaffuz bilangina shug‘ullanib yoki faqat ovoz ustida ishlabgina qolmasdan, balki to‘g‘ri nafas olishni ham yo‘lga qo‘yish zarur. Nafas yaxshi yo‘lga qo‘yilmasa, talaffuz a‘zolari to‘la ishlamaydi, nutq ohangi buziladi. Nafas mushaklarini ortiqcha zo‘riqtirish tomoqning bo‘g‘ilishi hamda jag‘ mushaklarining tortishib qolishiga olib keladi. Faqat mashq qilish asosida meyorga solingan nutqiy nafas har bir kishining ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga



hamda nutq ravonligiga olib keladi. Nafasni yo‘lga qo‘yish va talaffuz a‘zolari mushagi ishini yaxshilash ovozning jaranglilik va unli hamda undosh tovushlarni yaxshi talaffuz qilinishini ta‘minlaydi. O‘zbek tili uchun unli tovushlar muhim hisoblanadi, negaki ular undoshlardan kamroq va tilning ohangdorligi ularga bog‘liq. Undoshlar esa bu so‘z shakli, undosh olish o‘zlashtirilgan



tovushlar bilan gapira talaffuz mavjudligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, meyorga solingan nafas, tovushlarning aniq talaffuzi va ovoz ko‘nikmalarini hosil

qilish, talaffuz meyorlarini egallash omillarini biz mazkur bo‘limda audio-video darsida ko‘rib chiqamiz:


1. Qomat va mushaklar erkinligi.
2. Nafas.
3. Qaytarg‘ichlar (rezonator).
4. Yopiq jarang.
5. Ochiq jarang.
6. Keng qamrovli jarangdorlik rivoji.
7. Talaffuz mashqi.
8. Talaffuz maromi.
8. Orfoepiya.



### Mashg‘ulotni

boshlashdan avval qomat va tana mushaklari erkinligini tekshirish zarur. To‘g‘ri tutilgan qomat ichki a‘zolarining yaxshi ishlashi uchun sharoit yaratadi. Undagi har qanday o‘zgarish avvalo umurtqa va ko‘krak qafasi ishida aks etadi hamda nafas a‘zolari ishini qiyinlashtiradi. To‘g‘ri

qomat va meyorda nafas olish bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Qomatni to‘g‘ri tutish orqali nafas olishda ishtirok etadigan mushaklar rivojlanadi. Nafas olish mashqlari bilan shug‘ullanish asnosida qomatning to‘g‘ri bo‘lishiga erishiladi.



Kishilar ko‘z oldida yaxshiroq, aqlliroq, chiroyliroq va nazokatliroq bo‘lishga intilish chog‘ida mushaklarning taranglashuvi vujudga keladi. Kishilar e‘tibor markaziga tushib qolgan chog‘da mushaklar tarangligi yoki bo‘shashib qolishi (o‘zini tuta olmaslik, ichki boshqaruvni yo‘qotish hollari) turli-tuman shakllarda namoyon bo‘ladi. Xususan, bo‘yin, yelka

qismni qisib olish to'g'ri nafasning yo'lga qo'yilmaganligi va tovush a'zolarining ortiqcha taranglashuvi bilan bog'liq, pastki jag'ni siqib olish esa noto'g'ri talaffuzni vujudga keltiradi.



Mushaklar erkinligini his qilish uchun juda ko'p kuch sarflash kerak. Mashg'ulotlarning maqsadi qo'l, oyoq, bo'yin-yelka qismlaridagi ortiqcha taranglikni yo'qotish hamda tanani nafas olish va ovoz hosil qilish mashqlariga tayyorlashdan iborat. Bunga erishish uchun turli mushaklarni navbatma-navbat bo'shashtirish va taranglashtirish lozim. Tananing bunday holatga keltirish omma oldida erkin harakat qila olishni ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Agar kishi o'zini erkin tutib, uning maftunkorlik va o'zgalar e'tiborini torta olishdek tabiiy qobiliyati yuzaga chiqsa, omma bilan og'zaki muloqotda muvaffaqiyat qozonadi. Demak, mashqlarni boshlaymiz.



### **1-mashq. «Tortilish».**

Turli tomonlarga tortilinadi, esnash ham mumkin.

Bu mashq namoyish uchun emas, buni erkin bajarish, o'z tanasi mushaklarini his qilish lozim.

### **2- mashq. «Tik qomat».**

Oyoqlar to'g'ri holatda, bo'ksa tortil-gan, qo'llar erkin, yelkalar tushirilgan, ko'zlar to'g'riga qaragan, qomatni yuqoriga torting.

Shu holatda turing, so'ngra bo'sh qo'ying.

Mashqni 3-5 marta bajaring.

Diqqat: bo'yin-yelka qismining erkin bo'lishiga e'tibor bering, jag'ingizni yuqoriga ko'tarmang. Tanani tarang tortilgan tor sifatida tasavvur qiling: «tovon-qomat».

### **3-mashq. «Qizdirish».**

Kaftlarning aylanma harakati bilan qo'llarni kaftdan tirsakka, tirsakdan yelkaga, undan bo'yinga, ko'krak qafasi, diafragma, qorin, qobirg'alararo hamda bel va oyoq mushaklari, to'piqdan tizzagacha, tizzadan bo'ksagacha uqalab chiqiladi.



#### **4-mashq. «Yegilish».**

O‘z tanangiz atrofida gorizontal, vertikal, diagonal bo‘yicha egiling:

gorizontal – «kaft uchi»;

vertikal – «tovon - kaft»;

dioganal – «kaft - kaft».

#### **5-mashq. «Temir odam».**

Bir deganda – yuz mushaklaridan tortib butun tana mushaklarini taranglashtiring;



ikki deganda – butun mushaklarni bo‘shashtiring;

Diqqat: bo‘yin-yelka qismi erkinligiga e‘tibor bering.

Mashqni 3-5 marta takrorlang.

#### **6-mashq. «Yelkalar ko‘tariladi».**



Bir deganda – yelkalarni quloqlar qadar ko‘taring;

ikki deganda – shu holatda turing;

uch deganda – mushaklarni bo‘shashtiring va tanani dastlabki holatga keltiring.

Diqqat: mashqni 3-5 marta takrorlang. So‘ngra bo‘yin-yelka qismining erkinligini tekshiring, jag‘ni oldinga cho‘zmang.



### **7-mashq. «Boshni yonga egish».**

Bir deganda – o‘ng quloq o‘ng yelkaga tekkiziladi;

ikki deganda – shu holat saqlanadi;

uch deganda – mushaklar bo‘shashtiriladi.

Diqqat: mashqni 3-5 marta takrorlang.

Mashqni bajarayotganda «quloq yelkaga» tekkizilishi lozim, yelka quloqqa emas. Bo‘yin-yelka qism mushagi erkinligini, albatta, tekshiring.

### **8-mashq. «Tik bel».**

Bir deganda – tanani oldinga eging. O‘zingizni arqonga ilingan qo‘g‘irchoq deb tasavvur qiling;

ikki deganda – o‘ngacha sanab, asta ko‘tariling, umurtqa pog‘onasini dastlabki holatga keltiring.

Diqqat: mashqni 3-5 marta takrorlang. Bo‘yin erkin, bosh osilgan, tizzalar bir oz egilgan bo‘lishiga e‘tibor bering.



To‘g‘ri nafas olish faqat «nutq texni-kasi» asosigina emas, balki sog‘lom hayot tarzi hamdir. Nafas olishingizni kuzating, uni his qiling va tartibga soling, nafas olish maromingizni tanlang (shoshilmang, ortiqcha harakat qilmang, o‘zingizni

erkin tuting). Maromli, aniq harakat nafasni mo‘tadillashtiradi. Dengiz to‘lqini ovozini yodga oling.

Qorin mushaklari diafragma ostiga mujassamlashadi va tananing yuqori va pastki qismini bog'laydi. Bu mushaklar diafragma bosim beradi, u o'z navbatida tortiladi, tomoq, qizilo'ngachning tekis mushaklari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan va qobirg'a orasidagi mushaklarni kengaytiradi. Diafragma imkoniyati qancha kengaysa, ovoz-nutq a'zolari shunchalik erkin harakat qiladi.

Nafas chiqarganda qorin mushaklari umurtqaga qarab tortiladi, bu holat saqlanadi, so'ngra lablarni juftlab va jag'ni bo'shashtirib qorin mushaklari erkinlashtirilgach burun bilan nafas olinadi. Qorin mushaklari bo'shashganda diafragma (nafas olganda) erkinlashadi va bu lab, daxon, til kabilarning bo'shashishiga yetarli sharoit yaratadi.

### **9-mashq. «Nafas-ovoz a'zolari mushaklarini tekshirish».**

#### *1. Diafragma.*

Nafas-ovoz a'zolari mushaklarini tekshiramiz:

bir deganda – diafragmani umurtqaga torting;

ikki deganda – holatni saqlang;

uch deganda – diafragmani bo'shashtiring.

Diqqat: nafasga e'tibor bering:

bir deganda – nafas chiqaring;

ikki deganda – nafasni saqlang;

uch deganda – nafas oling.

#### *2. Qorin mushagi.*

Qorin mushagini tekshiramiz:

bir deganda – mushak umurtqa tomon-ga tortiladi;

ikki deganda – ushbu holat saqlanadi;

uch deganda – mushaklar bo'shash-tiriladi.

Diqqat: nafasga e'tibor bering:

bir deganda – nafas chiqariladi;

ikki deganda – nafas saqlanadi;

uch deganda – nafas olinadi.

#### *3. Beshinchi nuqta (bo'ksa).*

Bo‘ksa mushaklarini tekshiramiz:  
bir deganda – mushaklarni torting;  
ikki deganda – shu holat saqlanadi;  
uch deganda – mushaklarni bo‘shash-tiring.

Diqqat: nafasga e‘tibor bering:  
bir deganda – nafas chiqariladi;  
ikki deganda – shu holat saqlanadi;  
uch deganda – nafas olinadi.

Burun bilan nafas olishni o‘rganing!

Burun bilan nafas olish sog‘lomlik belgisi ekanligini unutmang!

Burun orqali o‘tgan havo isiydi, namlanadi va tozalanadi.



### **10-mashq. «Burun - burun».**

Bir deganda – o‘ng qo‘l barmog‘i bilan burunning o‘ng teshigini berkitib nafas oling; ikki deganda – holatni

saqlang (nafas tutiladi), qo‘lni almashtiramiz; uch deganda – chap qo‘l barmog‘i bilan burunning chap teshigini berkiting – nafas chiqaring.

Diqqat: yelkani ko‘tarmaslikka hamda faol ishlashi lozim bo‘lgan burun kataklariga e‘tiborni qarating.

Mashqni 3-5 marta takrorlang.

### **11-mashq. «Burun - og‘iz».**



Dastlabki holat: qomat tik, ko‘zlar to‘g‘riga qaragan. Bir deganda – o‘ng qo‘l barmog‘i bilan burunning o‘ng teshigini berkiting, bunda boshni chapga buring;

ikki deganda – og‘izdan nafas chiqaring. Qo‘llar tushiriladi;

uch deganda – mashqni boshqa tomonga bajaring;

to‘rt deganda – dastlabki holat.

Diqqat: mashqni 3-5 marta takrorlang.

### **12-mashq. «Burun kataklari».**

Nafas olganda barmoqlarning aylanma harakati bilan burun kataklaridan dimoq qadar o‘ting. Nafas chiqarish «f» simon holatda bo‘ladi. Nafas olish mashqida ovoz a‘zolarini isituvchi sassiz, iliq nafas chiqarishdan foydalaning.



### **13-mashq. «Iliq nafas chiqarish».**

Mashqni «PF» ga mo‘ljallangan nafas chiqarishdan boshlang:

bir deganda – burun bilan nafas olish;

ikki deganda – «XA» bilan sassiz, iliq nafas chiqarish.

*1-variant.* Iliq nafas bilan tananing butun bo‘g‘inlari va mushaklarini (panja-lar, tirsak, yelkalar, ko‘krak qafasi, qorin, tizza, to‘piq) qizdiramiz.

*2-variant.* Iliq nafas bilan atrofimizdagi havoni qizdiramiz.

Diqqat: mashqda butun tana ishtirok etadi. Og‘irlik markazi oyoqdan oyoqqa o‘tkaziladi. Jag‘ erkin, og‘iz keng ochilgan.

### **14-mashq. «Juftlik».**

Bir-biringizga qarab turing.

Birinchi ishtirokchi butun tana mushaklarini imkon qadar taranglashtiradi va shu holatni saqlaydi.

Ikkinchi ishtirokchi bosh, bo‘yin, ko‘krak qafasi, qo‘llar, qorin, oyoqlar singari tananing har bir qismiga iliq nafas yuboradi.

Birinchi ishtirokchi tana qismlarini asta-sekin bo‘shash-tiradi, qanday mushaklar tarang, qandaylari erkinligini nazorat qiladi.

Nutq a'zolari va nafas-ovoz a'zolari mushaklarining ishini faollashtiruvchi nafas chiqarishdan foydalaning.

### 15-mashq. «Belgili nafas chiqarish».



Maqsadni belgilang – ro'paradagi nuqtani belgilab oling, unga ko'zlaringizni qadang (kim yoki nima bilan ishlayotganingizni aniq belgilab oling).

Bir deganda – «PF» nafas chiqaring (go'yoki qorin mushaklaringiz siz tanlagan nuqtaga ko'rinmas iplar bilan bog'langan, bu iplarni o'zingizga torting, shunda qorin mushaklari umurtqa tomon tortiladi, nafas chiqarish esa siz tanlagan maqsadga aniq to'g'ri keladi);

ikki deganda – tanaffus, nafas chiqarishni maqsadga aniq yo'nalganini belgilang;

uch deganda – qorin mushaklarini darhol asta bo'shashtiring. Bunda jag'

nafas



nafas



bo'shashgan va lablar yumilgan bo'lishga e'tibor bering, shunda burundan o'z-o'zidan chiqadi. Shunday qilib, nuqtani belgilang, bilan maqsadga to'g'ri tushishga harakat qiling, nafas chiqarishda

qorin mushaklari tortiladi. Maqsadga tushganingizni belgilang, so'ngra qorin mushaklarini bo'shashtiring. Bo'shashgan jag' va yumilgan lablar holatida nafas olinadi.

1-variant. «Iliq» nafas, sassiz (go'yo sovuqda qo'llar isitiladi).

2-variant. Bir deganda – «PF» nafas chiqarish;

(1



ikki deganda – maqsad belgilanadi;  
uch deganda – yumuq lablarda qorin mushaklari bo'shashtiriladi – nafas olinadi marta).

Bir deganda – «SH» da nafas chiqariladi;

ikki deganda – maqsad belgilanadi;



uch deganda – yuquq lablarda qorin mushaklari bo'shashtiriladi – nafas olinadi (1 marta).

Bir deganda – «S» da nafas chiqariladi, ikki deganda – maqsad belgilanadi,

uch deganda – yuquq lablarda qorin mushaklari bo'shashtiriladi – nafas olinadi (1 marta).



### 16-mashq. Marom tasviri.



Ushbu mashqlar bilan nafas mushaklariga ishlov beriladi hamda e'tiborni jamlashga va keyingi mashqlarga tayyorlanishga imkon beruvchi ritmik nafas mashq qilinadi.

Qarsak bilan maromlang. Masalan: bir nafas chiqarishda (1 –), bunda (1 – cho'ziq nafas chiqarish, (-) esa qisqa nafas chiqarish.

Bunday marom mashqini undosh tovushlar yordamida bajaring:

«PF» orqali: PF-pf, pf (nafasni belgilash va qorin mushaklarini bo'shatish)

(3 marta) «SH» orqali; SH-sh, sh (nafasni belgilash va qorin mushaklarini bo'shatish).

(3 marta).

«S» orqali: S-s, s (nafasni belgilash va qorin mushaklarini bo'shatish)

(3 marta).

Diqqat: har bir marom guruhi o'rtasida qorin mushaklarini bo'shashtiring. Bu holda lablar yumuq, jag' esa erkin bo'lishiga e'tibor bering.

CHO'zib nafas chiqarib maromni o'zgartiring (ya'ni qisqa nafas chiqarish miqdorini ko'paytiring).

Masalan: - - yoki - - 1- yoki – 1 - - - - -

Maromni o'zgartiring, negaki agar yangi vazifa va mashqlar vujudga kelmasa, mashq samarasiz va ma'nosiz bo'lib qoladi.

### **17-mashq. «Yarim egilish».**

Mashqni «PF» ga belgilangan nafas chiqarishdan boshlang.

Bir deganda – burun bilan nafas olinadi – tana yarim egiladi, qo'llar oldinga uzatiladi – bosh bel tekisligida joylashadi;

ikki deganda – holat saqlanadi;

uch deganda – asta dastlabki holatga qaytiladi, qo'llar yonga ochiladi, 8 deganda «PF» da nafas chiqariladi.

Diqqat: mashq 5-6 marta takrorlanadi. Mashqlar orasida to'xtab qolmang – nafas maromini topish va uni saqlab qolish muhim.

### **18-mashq. «O'tirish».**

Mashqni «PF» da belgilang, nafas chiqarishdan boshlang.

Bir deganda – burun bilan nafas olinadi, qo'larni yuqoriga ko'tarib o'tiriladi;

ikki deganda – holat saqlanadi;

uch deganda – asta dastlabki holatga o'tiladi, qo'llar yonga uzatiladi, 12 deganda «PF» da nafas chiqariladi.

Diqqat: mashq 5-6 marta takrorlanadi.

Mashqlar orasida to'xtab qolmang, nafas meyorini topish va uni saqlash muhimdir.

### **19-mashq. «Ko'piklar».**

Bir deganda o'tirgan holatda dumaloqlaning, bosh pastga osilib turadi.

Nafas olish xohishi paydo bo'lishi bilan gavdani to'g'rilang va burun bilan nafas oling.

Diqqat: bu mashqni 5-6 marta takrorlang, nafas olmay qo‘ymang. Suv ostida havo tugashi bilanoq nafas olish zarurati paydo bo‘lishini yodda tuting.

### **20-mashq. Qisqa nafas chiqarish.**

To‘xtamasdan tinmay «PF» da nafas chiqaring, nafas – ovoz a‘zolari mushagi ishini kuzating. Nafas chiqarish nihoyat-da erkin bo‘lsin. Mashqni yurish yoki sakrash bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

### **21-mashq. «Sham».**



Qo‘lingizda yoqilgan sham turibdi deb tasavvur qiling.

*1-variant.* «F» da nafas chiqarib, sham olovini polga parallel qiling.

Burun bilan nafas oling.

*2-variant.* «F» da nafas chiqarib, shamni o‘chiring. Burun bilan nafas oling.

*3-variant.* Bir nafas bilan 3 shamni o‘chiring, yana nafas olib 5 shamni o‘chiring.

Diqqat: nafas-ovoz a‘zolari mushaklarining faol ishlashi va yelka ko‘tarilib qolmasligini kuzating.

Insonning nafas olishi uning hayot faoliyatini ta‘minlaydi. Nafas olganda tana



kislorod bilan boyiydi va meyorda ishlashi mumkin. Ma‘lumki, inson bir oy mobaynida ovqatsiz, bir necha kun suvsiz yashashi mumkin, nafas olmasdan esa

bir necha daqiqa xolos, undan so‘ng miyada jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Ovoz kishiga tugʻilganidan beriladi. Yangi tugʻilgan bola tabiat bergan, yaxshi yoʻlga qoʻyilgan «LYA» birinchi oktavasidagi notali ovoz bilan yigʻlaydi va butun hayoti davomida mana shu ovozdan boshqalar bilan muloqotda foydalanadi. Koʻpincha «meyorlash-tirilgan ovoz nima? U nimaga meyorlashtiriladi? Uni qanday meyorlashtiriladi?» singari savollarga duch kelamiz. Savollarga javob oddiygina, negaki ovoz nafas-tovush aʼzolari mushaklariga tayanadi (diafragma, qorinning



mushaklari) va unga toʻgʻri munosabatda boʻlinsa, mustahkamlanib va chidamli boʻlib boraveradi. Ovoz aʼzolari tomoqda ikki qatlam shaklida joylashganligini bilish lozim. Ular ovoz

tirqishidan havo oʻtayoganda tovush hosil qiladi.

Qaytargʻichlar – ovoz paychalarining tebranishi natijasida hosil boʻlgan tovushni kuchaytiruvchi manbadir. Unga koʻkrak qafasi, tanglay, burun boʻshligʻi, tishlar, bosh va peshona suyaklari kiradi.

Tovush turli (balandlik, kuch,



tembr) xususiyatlarga ega, ularni maxsus mashqlar yordamida rivojlantirish mumkin. Ayrim tovush xususiyatlarini rivojlantirish

uchun mashqlar bajarishga kirishishdan avval pedagog talabanning nutq aʼzosiga tibbiy aralashuv zarurati boʻlgan yetishmovchilik mavjud emasligiga ishonch hosil qilishi zarur.

## **22-mashq. «Tovushni tutish».**

Mashgʻulot yoʻnalishi: «Ochiq labdan yumuq labga».

Sassiz «A» unli tovushini talaffuz qilib lablaringizni oching. «M» tovushi bilan lablaringiz tebranishini his qiling.

Bu hisni saqlab qoling. Diqqat: tovush faqat lablar juftlanganda vujudga keladi.

O‘zingizga qo‘llar harakati bilan yordamlashing.

### **23-mashq. «Tovushni cho‘zib chiqarish».**

Bu mashq avvalgisining davomi hisoblanadi. Bir yoki har ikkala qo‘lingizni oldinga cho‘zing, «M» tovushini tutgandek bo‘ling, talaffuz qiling, tovushni jarangi bilan birga torting.

Diqqat: Tovush jarangi asta va cho‘ziq taralishi lozim.

### **24-mashq. «CHO‘ziq jarang».**

Bo‘yin-yelka qism mushaklarining erkinligini tekshiring.

Bosh yelkadan-yelkaga asta-sekin harakatlantirilib yopiq jarangda quyidagi undosh tovushlar juftligini talaffuz qiling:

«DN»,»GN»,»DL», «GL», «DM», «GM».

Diqqat: jarang tekis, uzviy bo‘lishiga e’tibor bering.



### **25-mashq.**

#### **«Tebranishli uqalash».**

Barmoq bilan asta paypaslab rezonator bo‘shliqlarini uyg‘oting:

1) peshona «M»; 2) burun yonlari «M», «N», «L», «R»; 3) yuqori lab «V», pastki lab «Z»; 4) ko‘krak qafasi «M», bel «M».

Diqqat: biror qismda tebranishni his qiling va belgilab qo‘ying, shundan so‘ng boshqa qismni tekshirishga kirishing.

### **26-mashq. «Yeskalator».**

Tovush zinasidan pastdan yuqoriga qarab rezonatorlarning qismidan-qismga jarangini tekshiring.



Diqqat: havо tebranishining to‘g‘riligiga, nafas-ovoz a‘zolari

mushaklarining faol ishlashiga e’tibor bering.

## 27-mashq. «Tovush juftliklari».

*1-variant.* Bir-biringizga qarab turing. O'ng qo'lingizni bir-biringizga uzating va kaftingizda tovush shari bor deb faraz qiling. Bir paytning o'zida «M» tovushini kaftlar orasidagi shu nuqtaga yuboring, umumiy jarangni davom ettiring:

Yetakchi qo'l bilan tovushni u yoqdan bu yoqqa yoki pastdan yuqoriga «yo'naltiradi».

Yetaklanuvchi shar shaklini saqlab, yetakchiga qo'li va tovushi bilan ergashadi.

Diqqat: jarang bir xil meyorda va bir butun bo'lishini kuzating. Burun bilan nafas oling, nafas-ovoz a'zolarining faol ishlashini kuzating.

*2-variant.* Yetakchi qo'l va tovush harakatini to'xtatadi. Yetaklanuvchi yetakchini diqqat bilan kuzatib, u ham to'xtaydi. Havo olish va mashqning davomi. O'rinlar almashtirilishi mumkin.

*3-variant.* Yetakchi tovushni turli yo'nalishlarda harakatlantirib qo'lini o'zi tanlagan nuqtaga olib keladi va asta uni ochib tovush sharini qo'yib yuboradi, tovush «A» unlisi bilan ochiladi.

## 28-mashq. «Undoshlar».

Undosh tovushlarini «A» unlisi bilan juftlikda talaffuz qiling:

BA, VA, GA, DA, JA, ZA, KA, LA, MA, NA, PA, RA, SA, TA, FA, XA, CHA,

SHA.



Diqqat: jag'ning erkin harakatiga va «A» unlisining aniq talaffuziga

e'tibor bering, bo'yin-yelka mushaklari erkinligi, burun bilan nafas olish va nafas-



ovoz a'zolarining faol ishlashiga diqqat qiling.

Qo'llaringizni faol harakatlantirib o'zingizga yordam bering.

### 29-mashq. «O‘rin almashinish».

Doira bo‘ylab aylanib «PF» nafas oling, 8 deganda «SH» nafas chiqaring, «S»



nafas chiqarish bilan to‘xtang.

Aylaning, nafas oling va mashqni takrorlang.

8 marta – «PF»,

8 marta – «SH»,

«S» da chuqur nafas chiqaring.

Diqqat: nafas chiqarish aniq va belgilangan bo‘lishiga e‘tibor bering.

Yumshoq, qattiq va nafasgacha singari uch turdagi tovush hujumi mavjudligini



yodda tuting.

Yumshoq hujumda tovush paychalarining qisilishi nafas chiqarishning boshlanishiga to‘g‘ri keladi, qattiq hujumda paychalar

nafas chiqarishdan avval juftlashadi.

Nafasgacha hujumda nafas chiqarishning boshlanishi tovush paychalarining juftlashuviga qadar ro‘y beradi. Meyordagi jarangda kekirdak kengayishi, tanglay ko‘tarilishi, og‘iz vertikal ochilishi zarur.

Shunda tovush kekirdakdan rezonatorlarga erkin o‘tishi imkoniyati bo‘ladi.

### 30-mashq. «Bulut».

Qo‘lingizda bulut bor deb tasavvur qiling. «M» berk tovushdan talaffuzni boshlang. Dastlab siz bu bulutni ko‘rishingiz, uning hajmiga baho berishingiz kerak bo‘ladi, shundan keyingina uni «A» raqamli iliq ochiq jarang bilan to‘latishingiz mumkin.

Diqqat: tovushni tortqilamang, jag‘ni oldinga cho‘zmang.

### 31-mashq. «Samolyot».

Uchib o‘tayotgan samolyot tovushiga quloq tuting:

*1-holat* – tovush uzoqdan yaqinlashayapti;

*2-holat* – tovush ustingizdan o‘tayapti;

*3-holat* – tovush sizdan uzoqlashib tobora yo‘qolib borayapti.

Buni «A», «O», «U» unlilari orqali navbatma-navbat tovushlang. Tovushni qo‘l harakatlari bilan kuzatib boring.

Diqqat: tovush bir nafasda asta va uzluksiz chiqishiga e‘tibor bering.



### **32-mashq. «Sassiz unlilar».**

Iliq nafas chiqarishda I, YE, A, O, O‘, U unli tovushlarini talaffuz qiling.

*1-variant.* Har bir unlidan keyin nafas oling.

*2-variant.* Unlilarni 3 donadan birlashtiring, nafas oling va yana bir marta qaytaring.

*3-variant.* Barcha unlilarni bir nafasda talaffuz qiling, nafas oling va bir necha marta takrorlang.

Diqqat: jag‘ingizni oldinga cho‘zmang, mashqda butun tana ishtirok etadi.

### **33-mashq. «Unlilarni yig‘amiz».**

Mashqni «PF» da nafas chiqarishdan boshlang. Nafas olish va talaffuzning boshlanishi:

I, E, A, O, O‘, U.

Mashq yo‘nalishi: cho‘ziq talaffuz va nutqni urg‘uni keyingi tovushga o‘tkazish bilan almashtirish, ya‘ni tovush qatoridagi bosh urg‘u har bir unliga almashtirib qo‘yib chiqiladi. Har bir tovush qatoridan keyin nafas olinadi.

Diqqat: unli tovushlarni aniq talaffuz eting!

### **34-mashq. «UOM».**

Mashqni «PF» da nafas chiqarish bilan boshlang. «U» tovushi bilan nafas olish va talaffuz boshlanishi, so‘ngra «O» ni talaffuz qiling, o‘zingizni tovush

bo'shlig'idaman, deb his qiling va «M» bilan talaffuzni to'xtating. Nafas oling va keyingi talaffuzni tovush zinasini bo'ylab ko'taravering.

Diqqat: mashq bir nafasda bajariladi. Nafas olish to'la bo'lishiga e'tibor bering!

### **35-mashq. «Bog'lash».**

Unli tovushlar bilan ishlaymiz.

Mashq yo'nalishi: diafragma va tovushli nafas chiqarish o'rtasida o'zaro aloqani ta'minlash. Ii Ii Ii-i; Ee Ee Ee – e, aa Aa Aa – a; Oo Oo Oo – o; O'o' O'o' o'o' – o' , uu Uu Uu – u;

Diqqat: oxiri og'iz orqali unli tovush bilan ulangan diafragma mahkamlangan ipni tasavvur qilib mashqni asta bajaring.

### **36-mashq. «Urg'u ko'chish».** Tasdiq intonatsiyasi.

Unli tovushlarni 6 marta talaffuz qiling va tovushlar qatoridan so'ng nafas oling.

Har bir qatorda urg'uning o'rnini o'zgartiring:

I – E – A – O – O' – U

I – E – A – O – O' – U

I – E – A – O – O' – U

va h.k.

Diqqat: urg'u tasdiq intonatsiyasi bilan mos kelishiga diqqat qiling!

### **37-mashq. «Kuchsiz - kuchli».**

Mashqni «PF» da nafas chiqarish bilan bog'lang. «A» unlisida iliq nafas chiqarishda havo olinadi va talaffuz qilinadi, daryoning dastlab tor, so'ngra keng joyda oqishi holatini tasavvur qiling.

Bu mashqni bir nafas chiqarishda 3 marta takrorlang.

A – A - a - A – a – A; o – O – o – O – o – o: u – U – u – U – u- u

Diqqat: bu mashqni bir martagina bajarmang, bir unlini bir necha marta takrorlang, so'ngra keyingisiga o'ting. Talaffuz ohangini belgilab oling.

Dastlab unli tovushni tasavvur qiling, so'ngra talaffuz qiling.

### **38-mashq. «Cheksiz talaffuz».**

«A», «O», «U» unli tovushlari va «M» undosh tovushi talaffuzini birlashtiring.

*1-variant.* Talaffuz unli tovushdan boshlanadi, soʻngra asta undosh bilan «qorishib ketadi» OʻM, OM, UM (xuddi sherning oʻkirishi kabi).

Uch juftlik tovush talaffuzidan keyin nafas oling va mashqni bir necha marta takrorlang.

*2-variant.* Talaffuzni davom ettiring, talaffuz unli tovushda kuchaytiriladi va undoshda pasaytiriladi: Oʻm, Om, Um.

*3-variant.* Talaffuzni davom ettiring, talaffuz unli tovushda pasaytiriladi va undoshda kuchaytiriladi: oʻM, OM, uM.

Diqqat: talaffuzni choʻzmang!

Kuchli talaffuzdan kuchsiziga oʻtishda asta bajarilishini kuzating!

Tovushlarning aniq talaffuz qilinishiga eʼtibor bering!

Talaffuz kengligini rivojlantirish nafas-ovoz aʼzolari mushaklarini mustahkamlaydi, ovozga jarangdorlik va rang-baranglik baxsh etadi.

### **39-mashq. «Arqon».**

Mashq yoʻnalishi: choʻziq №1 va nutq intonatsiyasi №2 ning boʻgʻin bilan muvofiqlashuvi.

MIM, MEM, MAM, MOM, MOʻM, MUM.

1. Arqon ushlab turganingizni tasavvur qiling va har bir «M» tovushida arqonni tortasiz.

Tovushlar qatorini bir nafasda talaffuz qiling. «M» undoshi tortiladi. Nafas olgach, mashqni takrorlang.

2. Qatordagi har bir boʻgʻinni bir nafasda talaffuz qiling:

MI, ME, MA, MO, MOʻ, MU.

Talaffuz maromini tezlatmang.

Diqqat: mashqning har ikkala variantini bir xilda bajaring!

Soʻngra talaffuzni oʻzgartiring, har gal tovush qatori boʻylab koʻtariling.

### **40-mashq. «Arqonni uzish».**

«M», «N», «L», «R» undoshlarini almashtirib ishlaymiz.

1. Talaffuz nuqtasini belgilang.

2. Arqonni o‘zingizga jadalroq torting, sonor tovushlarni I – E – A – O – U – O‘ unlilari bilan qo‘shib talaffuz qiling.

Diqqat: har ikkala holatni bir nafasda talaffuz qiling, tovushlar aniq chiqsin. Havo olgach, e’tibor markazini, ya’ni arqonni ushlab joyini o‘zgartiring.

**41-mashq. «Sehrlash».**

M, N, L, R sonor tovushlari bilan ishlashda davom etamiz.

Tovush qatori bo‘ylab ko‘tariling, bir nafasda tezlik bilan «undosh+unli» birligini talaffuz qiling.

MI – ME – MA – MO – MU – MO‘

NI – NE – NA – NO – NU – NO‘

LI – LE – LA – LO – LU – LO‘

RI – RE – RA – RO – RO‘ – RU

**42-mashq. «Tovush tebranishlari».** M,N,L,R sonor undoshlari bilan ishlashda davom etamiz.

Bir nafasda «undosh+unli» bo‘g‘inini talaffuz qiling, topshiriqni aniq bajaring:

- taklif qilish;
- maqtash (yashasin!);
- variantlarini o‘ylash yoki hisoblash.

**43-mashq. «Kulgi».**

Mashq yo‘nalishi: «M» yopiq va «a» ochiq tovush ketma-ketligi.

Bunda diafragma va tovushli nafas chiqarishning o‘zaro aloqasini ta’minlash muhim.

Diqqat: nafas-ovoz a’zolari mushaklarining faol ishlashini kuzating.

Mashqni ochiq tomoq, ko‘tarilgan tanglay, ochiq tishlar va nim tabassum hissi bilan bajaring.

**44-mashq. «Chaqiriq».**

Oldingizda odam turganini tasavvur qiling. «Hoy», deb uni chaqiring.

- kishi yaqin;
- biroz narida;
- juda uzoqda.

Diqqat: vazifani aniq bajaring, dastlab kishi tasavvur qilinadi, soʻngra chaqiriladi.

Koʻrinadiki, ushbu boʻlimda nutq harakat asosida oʻstirishga yoʻnaltirilgan. Har bir harakat maʼlum bir tovush ustida ishlashga moʻljallanadi. Bunda aktyor, soʻz ustasi, boshlovchi, suhandonlar uchun zaruriy qurol boʻlgan nafas va ovoz ham meyorga solib borilaveradi. Oʻylaymizki, ushbu boʻlim barcha xohlovchilarga nutq mahorati boʻyicha saboq olishga va oʻz nutqiy kamchiligini mustaqil ravishda tuzatishga, ijodiy imkoniyatlarining ochilishiga yordam beradi.

## QATRALAR

*Nilufar Omon*

### *Vatan*

So‘rashedi: Vatan nima?

Dedim: Vatan – men uchun Otam mozori, Onamning issiq quchog‘i, Opalarim mehri, suyanganlarim – akalarim yelkasi, ishonganlarim – ukalarim sevgisi, “ammajon”, “xolajon” deya, dunyolarni unuttirguvchi jiyanlarim kulgusi...

Meni bag‘ridan uchirma qilgan, bolaligimga guvox ostonam – orzularim tug‘ilgan joy, qasrlarga alishmaydiganim, kulbai koshonam – Uyimiz...

Jimirlab oqishlari bilan Umr nima ekanligi haqida xayol surishga undaydigan uyimiz oldidagi soy...

Soy bo‘yidagi meni katta dunyoga, xayot yo‘llari sari chorlagan, xumorimdan chiqquncha ustida yo‘rg‘alab charchamaganim, changlarini tabarruk deganim donishmand yo‘l...

Yo‘l yoqasidagi o‘tgan yo‘lovchilar mevasidan tatib, “Ekkanga raxmat” deyishadigan, duolarga to‘lgan otam ekan bir tup o‘rik...

Va uning soyasida tizzasigacha changga botib, osmonga uzoq boqib ko‘zlari qamashsayam quyoshga tik qarashga jazm qilib, go‘yoki u bilan:

- Hoy, Quyosh! Mayli, kuydirsang ham, kul qilsang ham, baribir bir kuni senga yetaman. Bag‘ringga singib ketaman. Men bir kuni Nur bo‘laman. Men bir kuni Quyosh bo‘laman! deb, qichqirayotgan sochlari paxmoq, usti – boshi changdan oppoq oyoqyalang, ko‘zlarida umid, ishonchga to‘la, osmonga qo‘llarini cho‘zib turgan mitti qizaloq – Bolaligim men uchun Vatandır!

### *OLCHA*

Esingizdami, sizga olcha gullarini yoqtirishimni aytgan edim.

Hovlimizdagi olcha oppoq bo‘lib gullabdi. Qurg‘ur yellar uning oppoq gulbarglarini yer bilan bir qilib sovurmoqdalar. Gulbarglarni bir-birlab yulqiydilar, go‘yo vaqtlaridan rom ochayotgandek.

Bechora olcha daraxtiga qiyin, har safar uning umid gullarini qismat yellari o'ynoqlab sovuradi. Har safar olcha ARMON mevalarini tugadi, qip-qizil yurak rangida.

Mening yuragim ham bir to'p olcha. Uning bokira gullari bodroqdek potirlab gullagandi sizning muhabbat bahoringiz faslida. O, bevafo bahor, sen ketding va endi qalbdagi ishq gullarimni yulqilab uzmoqda qismat yellari!

Endi, saraton fasli boshlanur qalbda...

### ***RUSTAMNING OXIRGI KUNDALIGI***

Kuz. O'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingradi... Erta bahordan bo'tana bo'lib, shosha pisha qirg'og'iga sig'may oqqan, ariqlar tiniqlashadi. Shuncha urinishlari zoye ketganini tushunib, olamga mayus boqadi...

Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko'milib yotadi... Yeru ko'kni kafandek oppoq tuman chulg'aydi.

...Erta-indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi-da, achchiq-achchiq ko'z yosh to'kadi. Sim-sim yomg'ir yog'adi. To'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, og'ir-oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi...

***O'tkir Xoshimov***

### ***Sevgi***

Avvaliga bir-birlarini tanimas edilar. Ularni Sevgi degan g'aroyib kuch topishtirdi. Ular ana shu sexrga maftun bo'lib qoldilar.

Ajab, Sevgi hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Unga Hijron degan alanga ergashib keldi. Ular ana shu alanga otashida baravar kuya boshladilar.

Nixoyat, Hijron alangasi so'ndi-yu, Sevgi, Visol degan entiktiruvchi tuyg'uni yetaklab keldi. Endi ular baxtiyor edilar.

Ajayu, Sevgi hech qachon yolg'iz yurmas ekan. Endi u Sinov degan to'siqni yetaklab keldi. Agar ular Sevgining qo'lidan mahkam tutishganida bu to'siqdan o'tishlari mushkul emasdi. Ammo unday bo'lmadi. Ular Sinov oldida chekindilar.

O'rtada Shubha, Rashk degan sharpalar o'rmalab qoldi. Shunda ular o'zlarini topishtirgan Segiga ilk bor ta'na toshi otdilar.

Sevgi shunda ham ularni kechirdi. Sabot Mehr degan kuchlarga oshno qilishga urindi. Ammo ular sabotni ham, Mehrni ham unutdilar. O'zlarini topishtirgan Sevgi degan «yovuz kuch»ga la'nat aytdilar!

Shunda... Ularning qismatiga Xiyonat kirib keldi! Ular Sevgini ayblay-ayblay, oxiri... ajralishdilar...

Qismat chorrahasida esa uchta begunoh go'dak chirqillab qoldi. Besh yashar o'g'il, uch yashar qizaloq va... yetim qolgan Sevgi...

***O'tkir Xoshimov***

### ***Yo'l bo'yidagi daraxt***

Katta yo'l bo'yida daraxt o'sardi... Ittifoqo uning tagiga bir yo'lovchi keldi. Kun issiq, yo'lovchi charchagan edi. Daraxt soyasida o'tirib dam oldi...

Yo'lovchi ochiqqan edi. Qarasa daraxtda mevalar pishib yotitibdi. U daraxtga chiqishga erindi: tosh otdi. Mevalar duv to'kildi. Yo'lovchi to'yguncha yedi...

Manzil olis edi. Yo'lovchi daraxt shoxini sindirib, tayoq yasadi...

Keyin... Zaxar tang qilib qoldi. Yo'lovchi daraxt panasiga o'tdi...

So'ng... yo'lga ketdi...

Daraxt boshqa yo'lovchini kuta boshladi...

Bu daraxtning nomi – Yaxshilik edi...

***O'tkir Xoshimov***

### ***Kamtarga... zavol***

Gulshan go'zal edi. Gullar turfa xil edi. Ayniqsa bittasi... Husni shu qadar o'tkir, xidi shu qadar anvoyi ediki... Gullarning biri unga xavas bilan, biri hasad bilan qarardi...

Antiqa gul «kamtarga – kamol» degan aqidaga amal qilar, boshqalardek o‘zini ko‘z-ko‘z qilmas, bir chekkada boshini quyi solib turardi...

Kunlarning birida bog‘bon gulzor oraladi. Hamma gullar «manaman» deb turibdi. Antiqa gulning esa boshi egik...

Bog‘bon uni so‘lib qolgan gumon qildi-yu, sug‘urib tashladi. Gulzor antiqa guldan judo bo‘ldi...

U kamtar edi.

Bog‘bon esa nodon edi...

*O‘tkir Xoshimov*

### **USTOZ VA SHOGIRD**

Ustoz yaxshi rassom edi. Nom chiqargan, asarlari mashhur...

Shogird yosh edi, sofdil edi. Ustozini sidqidildan sevar, o‘ziga ham, chizgan asarlariga ham xudoga sig‘ingandek sig‘inardi. Ustoz yosh shogirdning iste‘dodini sezdi...

Oradan oylar o‘tdi, yillar o‘tdi. Odamlar uning asarlaridan hayratga tushib, hech kimga o‘xshamagan, yangi musavvir tug‘ilganini e‘tirof etdilar.

Muxlislar shogirdni emas, Ustozni ham qo‘l siqib qutlashdi. Shunda, g‘alati ish bo‘ldi. Ko‘p yillardan buyon el o‘rtasida obro‘ topolmagan o‘rtacha rassom:

-Mana endi o‘rningizni shogirdga bo‘shatib beradigan bo‘ldingiz:-deganday piching qildi.

Ustoz, o‘ylanib qoldi. Ko‘nglini allaqanday noxush hayollar kemira boshladi. Oradan ko‘p o‘tmay yanayam g‘alatiroq ish bo‘ldi. Ustoz har yaxshidan bir yomonlik izlaydigan tanqidchini ishga soldi. Tanqidchi shogirdni asarlarini urib berdi". Hamma bir taraf, tanqidchi bir taraf.

Shogird esankirab qoldi. Najot tilab ustozning oldiga bordi. Ustoz shogirdning ko‘ziga qarab turib, kinoyali kulib qo‘ya qoldi.

Shogird hech narsaga tushunmasdi. U o‘zini o‘rtagan savollarga javob topolmas, oddiy bir haqiqatni bilmasdi. Ustoz bo‘lish qiyin emas, ustozlikni saqlab qolish qiyin.

*Yovvoyi gul qismati*

U, yovvoy gul edi: dashtda tug'ildi. Bahor yomg'irlari shivirlagan pallada yerni tirmalab, yorug" dunyoga chiqdi. Barq urib o'sa boshladi.

Biroq... Qurg'oqchilik boshlanib yer toshdek qotdi. U jizg'anak bo'lib, soldi. Ustiga-ustak allaqanday mol uni toptab o'tdi...

Ketidan achchiq-achchiq shamollar yesdi. Qor yog'di...

Tamom!

... Ammo u tirik edi! Yana bahor keldi. Illiq-illiq yomg'irlar yog'di. U jamiki ko'rgiliklari evaziga qaytadan bosh ko'tardi. Qaddini rostlab yana barq urib o'sdi. G'uncha tutdi...

Xuddi olov parchasidek yal-yal yondi. Shu qadar muattar bo'y tarata boshladiki, hamma hayratdan yoqa ushladi..!

Shunda...

Uni ko'chirib keltirdilar, qimmatbaho tuvakka o'tqazib, uyning to'riga qo'ydilar.

Qandoq yaxshi! Qurg'oqchilik qovjiratmaydi. Mol toptamaydi. Izg'irin shamollar vujudini qaqshatmaydi. Boshiga qor yog'maydi... Hammaga ko'z-ko'z qildilar.

Qiziq... Negadir u endi muattar bo'y taratmay qo'ydi...

Oradan kun oldi.

Hafta o'tdi.

Oy o'tdi...

... Uni uloqtirib yubordilar-da qimmatbaho tuvakka boshqa gul keltirib o'tqazdilar...

*Nargiza Adham kizi*

*Til*

Til, bugun sendan ranjidim. Chunki sen men uchun aziz bo'lgan qalbni ranjitding. So'zni o'q qilib, qalbinga beayov otding. Til bugun sendan ranjidim.

Qattiq ranjidim. Chunki sen men uchun aziz bo‘lgan inson og‘zidan uchding. O‘qing uchidagi og‘u zaharli edi. Ana shu o‘q bilan, shu og‘u bilan qalbimga nish urdin. Eh, til nimalar qilib qo‘yding. Zahar, og‘uning intihosi ne ekanligini bilarding-ku. Til sendan yalinmayman. Faqat chechaklar, malhamlar bilan so‘zla.

### ***JABRDIYDA GILOS***

Hovlining o‘rtasidagi gilos daraxti og‘riqdan seskanib ketdi. Oh, uning shoxlarini arra bilan arralashar. U zor qaqshab titrar, biror so‘z aytishga ojiz edi.

Eh uning tanasiga necha bor tig‘ urishdi, bo‘yniga arqon bog‘lab uchishdi. Jabriyda gilos esa shakardan shirin mevasini beraverdi. Evoh, nahot arra tortayotganlar shuni xayollariga keltirishmaydi. Mevasidan bahramand bo‘lganlar poyiga bolta ursa?! Ancha butoqlangan gilos gina qilmadi. Kelgusi yili yana savat-savat hosil beraverdi!...

### ***ORZU***

Orzu, sen barchaning vujudida, qalbida mujassam bo‘lgan mo‘jaz tuyg‘usan. Sen bilan hayot go‘zaldir. Sen bilan inson kelajakka intiladi. Sen shunday qudratga egasanki, ba‘zan odamlar seni qaniydi, shunaqa bo‘lsaydi deb ifodalashadi. Sen esa oppoq, parqu qanotingni yanada yuqori ko‘tarib parvoz qilasan.

Kimlardir seni parqu qanotingni silab erkalashga muyassar bo‘ladi, kimlardir esa yo‘q. Lekin barcha ishonadiki, bir kun senga yetadi. Sen har qachon inson qalbida eng go‘zal tuyg‘ular sarasi bo‘lib turasan. Ba‘zan sendek pok kabutarining armon otliq burgut changalida qiynalayotganigni ko‘rib, yordamga shoshilamiz. Sen esa bizlarning qalbimizdasan. O‘zingning shifobaxsh malhaming bilan armonning qora izlarini davolaysan.

Qaniydi, hamma ham o‘zining orzu atalmish oppoq kabutariga ega bo‘lib, u bilan hamnafas bo‘lsa.

## ***DUTOR***

O‘zining gohida mayus, gohida sho‘x kuylari bilan dil uyiga zavq ulashguvchi sozanda. Qulog‘ini burasang, yaxshi so‘zlab, qornin och qo‘ysang, yaxshi kuylaguvchi xonandadir u. Daraxtdan bino bo‘lgan bu musiqa asbobi shu qadar mingli kuy taratadiki, ko‘zingda yoshlar halqalanib, beixtiyor dardiga sherik bo‘lasan. Balki dutor ham o‘zining navnihol umrini damlarini yodlab, dilidagi sirlarini senga so‘zlayotgandir?!

To‘xta, sen uni tingla, tabiatni nolasi deb bil. Shundagina anglarsan kuyning mazmunini, uning shunchaki dutor emasligini.

## ***KUZ***

Kuz, u misli kelinchak. Boshidagi zarrin ro‘moli ostidan oydek balqib ko‘rinadi. Jilmayishi insonga xush yoqadigan go‘zal. U o‘zining yoshlik o‘ylari, istaklari xazon bo‘lganidan ba‘zan o‘kinib yig‘laydi, ba‘zan kelinchaklik davri oltindan-da bebaholigini, tabiat uyining aziz kelini ekanligidan xushnudlanib yal-yal tovlanadi. Atrofdagilarga o‘zining munis va tiniq chehrasini namoyon etib, ularga pokiza tuyg‘ular ato etadi.

## ***OYNISO***

### ***Oniy umr lazzati***

#### ***(Kapalak tilidan)***

Men dunyoga keldim. Keldimu ishqparast qalbim gulga qarab intildi. Erta tongdan gul vasliga oshiqaman. Ularning go‘zalligini qarang! Go‘yo dunyodagi jamiki tarovatu iforlar shu gullarda.

Mening maskanim - muattar ifor taratuvchi gullar bag‘rida. Umrin juda qisqa bo‘lsa-da, aslo afsus chekmayman. Negaki, dunyoga quvonch bilan kelamanu quvonch bilan ketaman.

Ana, bir to‘da bolalar meni quvlab kelmoqda... Men bo‘lsam tutqich bermay guldand-gulga uchib o‘taman. Bolalarning shodon chug‘urlashlari meni zavqlantiradi. Naqadar huzurbaxsh onlar bu!

... Mana dunyo bilan xayrlashmoqdaman. So‘ngi bor rango-rang gullar og‘ushiga sho‘ng‘iyman. Ana, odamlar... Biri qaygadir oshiqadi, yuzlarida jiddiylik... Bir yigit qip-qizil atirgulni uzib, yonidagi qizga taqdim etdi. Shu payt qiz meni ko‘rib qoldi: "Voy, ana u kapalak buncha ham chiroyli bo‘lmasa!" dedi u hayajon bilan. Ularning yuz-ko‘zida tabassum jilva qildi. Men baxtiyorman! Oniy umrimda ham inson tabassumi lazzatini tatib turibman. Ha, ha, inson tabassumi lazzatini!

*OYNISO*

### *HIJRON HASRATI*

Ishq... Visol... Orzu-umidlar... Barchangiz odamlar qalbida muqaddassiz. Biroq mening Hijron atalmish nomim hech kimga yoqmaydi.

Eh, avji navqiron yoshidagilar... Qaysi biringizga hamroh bo‘lishni ham bilmayman. Chunki, biringiz asil ishq og‘ushida sarxush bo‘lsangiz, biringiz o‘tkinchi hissiyotlar domida «baxtiyorsiz». O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: sevishganlar tez-tez uchrashib, ishq va visol soniyalaridan shod bo‘lishsin. Ammo men ularga hamroh bo‘lmasam, bir-birlarining qadriga yetarmikin? Agar men bo‘lsam-chi... Hijrondan keyingi visol lahzalariga ne yetsin! Shunda men ham, oshiqlar ham, visol ham... barcha-barchamiz shod bo‘lamiz.

...Qalbi ishq havosidan bahra olayotgan oshiq-ma’shuqlar, unutib qo‘ymang, men sizni baxt va shodlik chashmasiga yetaklayman. Ul chashma uzra barg yozgan Qadr otlig‘ daraxt esa sizni bir umr baxtsizlik dovulidan himoya qiladi. Axir, qadrsiz ishqning xas-cho‘pdan nima farqi bor?

## TASVIRIY (MANZARA) ADABIY PARCHALAR

*Chingiz AYTMATOV*

### *JAMILA*

Jarlik orqasidagi soy qirg'oqlaridan ivib suvga qulab tushayotgan tuproq chaqmoq yorug'ida ko'rinib turardi. Dastlabki yirik yomg'ir tomchilari somon ustiga shitirlab yog'a boshladi... Qora uy tepasiga yopilgan namatlar xuddi qanot qoqqan qushdek shamolda uchib ketdi. Goh qiyalab, goh tik quygan jala yerni orziqib kutgandek ustma-ust o'pard. Ketma-ket momaqaldiraq gumburlab, butun osmon qa'rini tilib o'tgandek bo'lardi. Uzoq-uzoqlardagi tog'lar bahor lolalaridek qizarib ko'rinardi... Yog'in ham, chaqmoqlarning yorug'i ham somon ostida yotgan joyimga yetib borardi, lekin men o'zimni juda yaxshi his etardim, uyquga ketar ekanman, o'zimcha kulimsirab qo'yardim. Qulog'imga chalingan sharpaning nimaligini bilmasdim. Bu Jamila bilan Doniyorning shivirlashimi yo bo'lmasa tinayotgan yomg'irning somonga shitirlab tushishimi?..

*Cho'lpon*

### *Kecha va kunduz*

Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k soch popuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday silkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qush bir yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqadi. Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'katlar! Erkaklarning gulli do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada, ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go‘zal va shirin bo‘ladi bahorda?

*Chingiz AYTMATOV*

*Sarvqomat dilbarim*

Tezda qosh qoraya boshladi. Ko‘kni bulutlar qoplab oldi, ko‘lga sokinlik cho‘kib, endi qorayib ko‘rinardi... Momaqaldiraq bosib kelayotgan edi. Oqqushlarning yo‘llarini o‘zgartirganlari ham bejiz emas. Tog‘da yog‘ingarchilikka duch kelishlarini oldindan sezganlar. Mana, momaqaldiraq gumburladi. Yomg‘ir sharros quya boshladi. Ko‘l chayqalib, to‘lqinlanib qirg‘oqlarga urila ketdi. Bu birinchi bahor momaqaldirag‘i edi... Bu - bizning birga o‘tkazgan birinchi tunimiz edi. Kabina ustidan, oynalardan yomg‘ir paqirlab suv quygandek oqib, sizib tushardi. Olis-olislariga cho‘zilgan och yashil yashinlar qop-qora ko‘lga suzib tushardi. Biz esa bir-birimizning pinjimizga kirib, shivirlashib gaplashardik. Asalning cho‘chiganidanmi yo sovuq qotganidanmi sal titrayotganini sezib turardim. Uni kamzulim bilan o‘rab, qattiqroq quchoqladim...

*Chingiz AYTMATOV*

*Erta qaytgan turnalar*

Mirzagulga, uning qanchalar go‘zalligini, ovuldagilarning hammasidan go‘zalligini va nafaqat ovulda, balki butun olamda tengi yo‘q ekanligini aytgisi kelardi. O‘zi uchun bir sinfda u bilan o‘tirish, uning go‘zalligini tomosha qilib termilishdan yoqimliroq hech narsa yo‘qligini aytgisi kelardi. Endi u qizni ahyon-ahyonda uchratar, shuning uchunmi juda-juda iztirob chekar va qattiq sog‘inar edi. Shunday sog‘inardiki, hatto ba’zida yig‘lagisi kelardi. Tanaffus paytlari bekorga va dabdurustdan, sal-pal shilqimsifatlikni ep ko‘rmas edi. Erkak kishi doim erkaklarcha ish tutishi kerak, biroq ko‘z yoshlari haqiqatan goho tomog‘iga kelib qolardi. Oldiga borayolmayotganligini, bekorga o‘zini olib qochib yurganini - xatda tushuntirishi kerak edi...

**FARG'ONA TONG OTGUNCHA**

Oydin kecha, hamma yoq oppoq-sutga chayib olinganday. Osmon g'uborsiz - bir parcha bulut yo'q. Jivirlashgan yulduzlar osmonni yana chuqur, yana ham qorong'u qilib ko'rsatadilar. Hayot uyqu oldidagi taronasi bilan mashg'ul. Uzoq-yaqinda itlar huradilar, ayniqsa bittasi kaltak yegandek hadeb vangillaydi. Kichkina kuchukchanning chinqiroq ovozchasi boshqalarnikidan ajralib turadi. Chigirtkalar-chi, shuncha ko'p, biri qo'yib biri chirillaydi. Uzoqda suthaq ovozi eshitiladi...

G'ulomjonlar katta yo'l bilan emas, dala yo'li bilan sekin-sekin gaplashib bordilar. Erkaklar - oldinda, ayollar - orqada boradilar. Gohi-gohida Hayotxonning bosiq kulgusi eshitiladi, shunda G'ulomjonning baxt bilan to'liq yuragi qinidan chiqar bo'ladi, quloqlarida nimadir: «Tezroq! Tezroq!» - deb zing'illaydi. Lekin G'ulomjon nima zing'illayotganini bilmaydi.

**PAUSTOVSKIY**

***Oltin gul***

Bahor kelgach, yaproqlari qizil xolli kashtanlar shaharga sarg'ish gullarini to'kdi. Ular shunchalik ko'p ediki, to'kilgan gullar yomg'ir suvini to'sib, ba'zi ko'chalarda kichik-kichik ko'llar paydo bo'lgandi... Bu vaqtlarda yuragimda dastlabki sevgi hislari uyg'ona boshlagan edi. Bu shunday ajib holatki, unda hamma qizlar ko'zingga go'zal ko'rinaveradi. Ko'chadami, bog'dami, tramvaydami, lip etib ko'ringan har bir qizning har qanday g'amzasi - uyatchan, biroq e'tiborli nigohimi, mushkning isimi, g'uncha lablar orasidan yalt yotgan durdona tishlarimi, shamol turganda bexos ko'ringan boldirmi, sovuq barmoqlarining sal tegib ketishimi - bari ertami-kechmi hayotda ishqqa muyassar bo'lishimni eslatardi. Bunga ishonchim komil edi. Men shuni hayol qilishni istar, shuni o'ylaganim-o'ylagandi.

**MEHR**

Har kuni saharda hali quyosh chiqmasidan sayr qilish odatim bor. Ko'chaga chiqaman, anhor labida aylanaman, keyin boqqa o'taman.

Erta tongda bog'ning husni o'zgacha bo'ladi. Havo muzdek, buning ustiga tiniq. Qushlar shoxdan-shoxga olib sayraydi, goh olisda, bog'ning orqa tomonida, goh shunday tepangizda kakku ku-kulaydi.

Chittak o'ynashib oyoqlaringiz orasida o'rmaydi. YO pir etib yuzingizni silab uchib ketadi.

Shunday tonglarning birida bog'da aylanib yurgan edim, katta sadaning tagida o'ziga tanish chol-bog' qorovulini ko'rib qoldim. U supurgiga iyagini tirab xomush turardi. Alla narsa jonholatda chirqillaydi. Ovoz goh tinadi, goh kishini seskantirib chirqillaydi.

Ancha quloq solib turdim. Chol ham joyidan qimirlamasdi. Ko'zlari o'ychan. Bir mahal supurgisini tashladiyu, sadaning orqasidagi ekinning ichini cho'kkalab olib tita boshladi.

Qancha vaqt titkiladi, bilmadim, o'rnidan turganda, qo'lida hali shundoq jish qush bolasi bor edi. Jonivor kichkina tumshuqchasini katta-katta ochib chirqilladi. Sadaning odam bo'yi keladigan butog'ida qandaydir qushning ini bor edi.

Chol shunga tikilib qoldi. Qushcha hamon chirqillardi. Chol bir oz o'ylanib turgach, qo'lini cho'zib uni iniga qo'ydi.

Qushchaning ovozi tindi, chol jilmaydida, supurgini yelkasiga tashlab, bog'ning ichkarisiga kirib ketdi.

*Jabbor RAZZOQOV*

**QOR YOG'MOQDA**

Sokin tun. Qor yog'yapti. Bolalarning beg'ubor qalbi to'lib-toshib oqayotgan daryoday jo'shqin. Bahorda ko'm-ko'k o'tloqlarda oppoq kapalaklarni ushlamoqchi bo'lganday har bir zarrachaga talpinishadi. Qanday zavqli-a! Ona tabiat shunday go'zal-ki uning chiroyi hech ham tugamaydi.

Ana, qorning bir parchasi qizchanning oppoq hovuchiga ohista qo'ndi. Quvonchdan uning yonoqlari shunday yashnab ketdiki, bu daqiqalar tasviriga til ojiz. Qor shunday beg'ubor qizchanning qo'liga tushganidan, birdan erib ketdi. Tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi. Bir zumdayoq hammayoq oq choyshabga burkandi. Haligina qor zarrachalarini ushlab intilayotgan bolalar, endi undan hovuchlab-hovuchlab olib, dumaloqlab, qorbo'ron o'ynashdi. Tun. Hamon qor yog'ardi.

*Murod XIDIR*

### **NAVRO'Z**

Olam yasharganda qahrabo yalpizlar ilk bor anhor labida bo'y taratadi. Chechaklar olis dalalardan shu anhorda oqib keladi. Bahor nashidasidan anhor mast bo'ladi, o'ziga sig'may, tolib-toshib oqadi. Jo'shqin oqadi, yo'rg'a to'lqinlari quvlashmashoq o'ynaydi.

Yaxshisi ana shunday pallada siz ham anhorga keling. Keling-da, shu qadar xayol suringki, o'ylaringizni anhor o'ziga qo'shib oqizsin.

Hadik olmang, ipakday mayin, buloq suviday tiniq, ezgu xayollaringizga hech kimsa xalal bermaydi. Yolg'iz qurbaqalargina, jag'lariga zo'r beradilar, basma-bas sayraydilar. Parvo qilmang, tudsiz xayollaringiz ular xonishini ko'mib yuboradi. Shirin o'ylaringiz tufayli bu sayrog'ni eshitmaysiz. Kishini bo'liq xayol toliqtiradi. Birdan oyoqqa qalqing, ha, qalqing oyoqqa! Axir, xayollaringizni suvga oqizib bo'ldingiz-ku!..

Anhor yoqasidan qaytar paytingizda sukunat cho'kadi. Qurbaqalarning «vaq-vaq»i tinganini payqaysiz. Oshiqmang, buning boisi o'zingizga darhol ayyon bo'ladi. Sambit tol shoxida bulbul xonish etayotganini ko'rasiz. Dilgir navodan yurak hapqiradi. Tabiatning bu jajji go'zalligi qurbaqalar tovushini bo'g'ib qo'ymadimikin! Ha, bulbul xonishi atrofni elitib yuborganda, qurbaqalar bir lahzada gumdon bo'ladi. Axir, «Qush yo'q joyda qurbaqa - bulbul», - deb bejiz aytishmagan-da.

*O'tgan kunlar*

Otabek do'kondorning ko'rsatishicha qutidorning tashqarisiga kirdi. Shu vaqt tasodifan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib kelguvchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirida Kumush nimadandir cho'chigandek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomon burdi. Bu burilishdan uning orqa o'ngini tutib yotgan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum hadya qildi... Yashiringan go'zal ikkinchi qayta ko'rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tomosha qilar edi...

*Robindranat TAGOR*

*Nur va soyalar*

Shoshibushon qayerga kelganini fahmladi. Uning yuragi qattiq ura boshladi. U ochiq derazaga qaradi. Hay hot, bu nima? O'sha - derazalari temir panjarali uy, o'sha o'nqir-cho'nqir qishloq yo'li, o'sha yo'l-yo'l sari kiygan qizcha... Bir tomoni changalzorga qarab ketgan tor, iflos yo'l ustida xafa bo'lib turgan qizchaning g'amgin, lekin mag'rur chehrasi uning ko'zi oldida xudoning qodir qo'li bilan yaratilgan eng go'zal suratday namoyon bo'ldi... Yengil qadam tovushi eshitildi. U boshini ko'tardi. Uning qarshisida kumush barkashda meva va shirinliklar ko'targan Giribala so'zsiz kutib turardi... Giribala uning oldida tiz cho'kdi va bosh egib ta'zim qildi. Giribala o'rnidan turgach, ozib-to'zigan Shoshibushonga muhabbat bilan nazar soldi. Ko'zlariga yosh to'lib, yuzlaridan oqib-oqib ketdi...

*Oltin zanglamas*

Aziza atlas ko‘ylagining etaklarini chiroyli hilpillatib burilib ketdi. Qodir ancha vaqt o‘tganini bilmaydi, xazinaga yo‘liqqan gadoydek shoshib qolgan edi. Bir mahal qiz gazetaga o‘ralgan kitob bilan yana o‘sha o‘zi turgan yerda paydo bo‘ldi.

- Kirmadingiz! Oyimlar nega ichkariga taklif qilmading, deb meni koyidilar, - deya erkalangansimon bir harakat qildi Aziza.

Qodir qiz bilan xayrlashayotib, unda ham til bilan aytib berish qiyin bir o‘zgarish sezdi. Uning qorachig‘i, yirik ko‘zlari ajib mayus nurlanib, kafti yonar, kaftida qandaydir mayin titroq ham bor edi. U Qodirning orqasidan yo‘l chizib qarab qoldi. Keyin har vaqtdagidek tetik sho‘xlik bilan emas, vazminlik bilan orqasiga mayus og‘irilib, tizzalaridan mador ketgan kishidek asta qadam tashladi. Uch-to‘rt odim yurgach, qandaydir ichki kuch uni yana orqasiga qarashga majbur etdi. Ana shunda tez yurib uzoqlashib ketolmayotgan Qodirning ko‘ziga ko‘zi duch keldi. Ikki o‘rtada o‘t chaqnagandek bo‘ldi. Ikkisining ham qinidan chiqib ketay deb turgan qalbi bir-biriga eshitilgudek gurs-gurs urardi.

*Rashod Nuri Guntekin*

*Choliqushi*

Senga chuqur muhabbatim bor edi. Har kuni ertalab uyg‘onganimda muhabbatim qalbimda yana ham ulg‘ayganini sezardim. Bundan ham uyalar, ham qo‘rqar edim. Gohi mahallar menga shunday qarar, shunday so‘zlar aytardingki, yuragim shirin umidlar bilan talpina boshlardi. Lekin sen darrov o‘zgarib olarding. Hamisha kulib, mazax qilib turgan bola ko‘zlaringda goho nozik, xassos qiz qalbi aks etardi-yu, yana darhol yo‘q bo‘lib ketardi. Sen balki meni ko‘rganingda o‘chgan rangingni, titray boshlagan shu chiroyli lablaringni yashirish uchungina mendan qochib yurgandirsan? Men esam buni Choliqushining yengiltakligi deb ich etimni yeb yurardim.

Menga qara, Farida, bunchalik toza vafoni, bunchalik ajoyib qalbni kichkina Choliqushining bag‘riga qanday qilib sig‘dirding?..

## KAM VOQEALI ADABIY PARCHALAR

*Frans KAFKA*

### *YOLG'IZLIK*

Bu noyabr oyining izg'irinli kunida yuz berdi. Men xuddi yuguriladigan yo'lakchadan yugurgandek, to'shalgan gilam uzra u yerdan bu yerga borib kelardim. Ko'chadan xonamga tushayotgan yorug'likka qarashga qo'rqardim. O'lik sukunat yuragimni siqardi. Hech qanday ovoz eshitilmasligini bilsam-da, qarshimdagi oynaga qarab, ovozim boricha baqirdim. Birdan devorda eshik paydo bo'ldi va u tezda ochildi.

– Sal sekinroq, namuncha baqirasiz? – dedi birov.

Ko'chadan ot tuyoqlarining dupur-dupuri eshitildi. Aftidan ular qayergadir oshiqayotgandi.

– Siz shunday kulgili va qo'pol tarzda baqirdingiz-ki, devorlar ko'chib tushishiga ozgina qoldi.

– Xona ham, uning devorlari ham meniki! Xohlasam baqiraman, xohlasam kulaman, xohlasam jim turaman! O'zingiz ham men bilan andisha qilmay gaplashyapsiz. Xonaning egasi ekanligimni faromush qildingiz chog'i? Menikida turganligingizni hisobga olib, muloyimroq so'zlashsangiz bo'larmidi? Qo'lingizdan keladimi?

– Oldin shunday edim.

– Balki, yana o'zgararsiz?

– Bilmayman!

Yozuv stoliga yaqinlashdim-da, suhbatdoshimni ko'rish maqsadida shamni yoqdim. Uyda na elektr va na issiqlik bor edi. Xonada mendan bo'lak tirik jon ko'rinmasdi. Demak, o'zim bilan o'zim gaplashibman. Bir muddat stol yonida o'tirdim. Bekorchilik jonimga tegdi. Bu qorong'i va sovuq xonada aqldan ozish hech gap emasdi. Nima qilarimni bilmay, paltomni kiyib, tashqariga chiqmoqchi bo'ldim. Zinada men bilan bir qavatda turadigan yon qo'shnimni uchratib qoldim.

– Nima yov quvdimi? Yana chiqib ketayapsiz, bekorchi, – dedi u men tomonga o'girilib.

– Xo‘sh, nima qilishni maslahat berasiz? – javob berdim men. – Hozir xonamda ruh bilan gaplashdim. Shuning uchun ketyapman.

– Nima bo‘pti? Bu haqda xuddi ovqatingizdan soch tolasi chiqqandek, norozi qiyofada so‘zlayapsiz.

– Hazil o‘z o‘rnida ishlatilsa yaxshi. Men sizga ruh bilan suhbatlashdim, deyapman. Bilsangiz u bilan hazillashib bo‘lmaydi.

– Men bir nima dedimmi? Nima bundan oldin ruhlarning borligiga ishonmasmidingiz?

– Ishonardim. Biroq ishonish yo ishonmasligim bilan nima o‘zgaradi?

– Bilasizmi, hamma gap ruh oldida o‘z qo‘rquvingizni yenga bilishda.

– Yo‘q men undan-ku cho‘chimayman. Uning nima uchun kelgani azoblaydi, – asabiylashganimdan nima qilayotganimga aqlim yetmasdi. Cho‘ntaklarimni titkiladim. Nimani izlayotganimni o‘zim ham bilmasdim. Qo‘shnim harakatlarimni kuzatib:

– Nega u holda o‘zidan so‘ramadingiz? – dedi.

– Aftidan, siz, umuman, ruhlar bilan muloqotda bo‘lmagan ko‘rinasiz? O‘zingiz o‘ylang, ulardan tayinli javob olish mumkinmi?

– Eshitimcha, ruhlarni mehmon qilish mumkin ekan.

– Juda yaxshi ma‘lumotga ega bo‘libsiz-da. Kim ham bunday bag‘rikenglik qilardi?

– Agar u ayol zotidan bo‘lsa, negaki mehmon qilish mumkin emas? – U shunday deya ortiga o‘girilib, zinadan ko‘tarila boshladi. Men nima deb javob berishni bilmay qoldim. Aqlimni yig‘ishtirib olganimda esa qo‘shnim yuqoriga ko‘tarilib bo‘lgandi. Shuning uchun egilib gapirishga to‘g‘ri keldi.

– Shunaqami? Hoy, ogohlantirib qo‘yay, yana ruhni o‘z xonangizga olib kirib ketishni xayolingizga ham keltirmang! U meniki! Agar shunday qilsangiz do‘stligimizga putur yetadi-ya! Ayab o‘tirmayman! – dedim baland ovozda.

– Hazillashdim, axir! – dedi u kulib

– Ha, u holda mayli, – dedim va sayr qilish uchun tashqariga chiqdim. Biroq ko‘chada bemalol yurish qo‘limdan kelmadi. O‘zimni shunchalar yolg‘iz his

qilganimdan o'sha sovuq xonamga qaytib, uxlashni lozim topdim. Odamlar buni haligacha anglab yetgani yo'q.

*Qo'chqor Norqobil*

*Ustun*

Sochimni oldirib keldim. Tap-taqir boshimga razm solib otam xo'rsindi.

— Ketayapman, degin.

— Ketayapman, ota.

— Qayergaligi ma'lum bo'ldimi?

— Ma'lum. Afg'onga deyishayapti. Yana... kim bilsin?

— Sovuq xabarning yolg'oni bo'lmaydi. Demak, urushga ketyapsan...

Otam boshini sarak-sarak qildi. Og'ir uh tortdi — o'pka-jigari uzilib ketganday ihradi.: “Hoy bola-ya, hoy bola...” Ichidan bir ixroq otildi. Ustunga suyanib, menga tosh qotib termulib turdi.

— Otamni urush o'ldirganini bilasan-a, — dedi nihoyat. — Uch yoshimda yetim qoldim. Otam meni yetim qildi. Lekin, lekin Sen meni yetim qilma, bolam,.. — Otam o'pkasi to'lib o'kirib yig'lab yubordi.

Oyoq-qo'lim bo'shshib, sillam qurib supaga o'tirib qoldim.

Nazarimda, shu ustun bo'lmaganda otam qulab tushardi, nazarimda, shu ustun otamning boshidagi osmonni ham suyab turardi.

Urushga ketdim. O't-olov, o'q ichida sargardon kezlarimda quloqlarim ostida bir yalinch jaranglab turdi: “...Sen meni yetim qilma, bolam!..” Gospitalda tig' ostida yotganimda o'sha iltijo jarangladi: “Sen meni yetim qilma, bolam...”

Dahshatli janglar oldidan Parvardigorga yalindim: “Ey, xudo, o'zing asra, men o'lmayin, otam yetim qolmasin...”

Men qaytdim. Men bir urushni ko'rdim. Otam ikki urushni — men va otasi tufayli ikki urushni ko'rdi. To'g'ri, urushning katta-kichigi bo'lmaydi. Faqat bir narsa taskin beradi: “Mening urushim” otamni yetim qilmadi.

Xudoga shukr, otajonim hayot! Umri uzoq bo'lsin, sakson yoshga qarab yurayapti. Hovlimiz o'rtasida o'sha ustun hali ham turibdi. Yaqinda men ustun

atrofiga to'rtburchak qilib odam beli barobarida marmar devor tortdim. Men bu ishni endi hech kim ustunga suyanmasin degan o'y bilan qildim. Chunki, ustunni ag'darib tashlashga jur'atim yetmadi. Chunki, u og'ir kunda otamni suyagan edi, men otamga ustun bo'lolmagan kez ustun otamga bir o'g'ilday suyanch bo'lgan edi.

### ***Bir burda non***

Umrining so'nggi kuni qazosi ko'ziga qir bo'lib ko'ringan dam keksa general o'g'lini yoniga chaqirdi.

— Ota, Sen hali ko'p yashaysan. Bu nima deganing. Tobing qochdi, xolos.

— Gapimga quloq sol, o'g'lim...

— Yo'q, gapirma! Xohlasang butun Voronejni oyoqqa turg'izaman, anqoning urug'i qo'shilgan dori-darmon bo'lsayam topib kelaman, xohlasang, hoziroq chet elga olib uchaman, o'sha yoqda davolataman. Faqat o'lim haqida gapirma, jon ota...

O'g'lon yig'lab tiz cho'kdi. Otasining to'shakda tobora holsizlanib borayotgan titroq qo'llarini o'pdi.

— Nima desam qilasan-a? — chol lablari tamshanib iltijoli boqdi.

— Ha, ota! Ayt. Faqat... faqat...

— Zog'ora non yegim kelayapti. O'zbek tandirida qip-qizarib, qotib pishgan zog'ora non...

O'g'il hayratlanib qaradi.

— Qirq ikkinchi yili xandaqda yotganimizda leytenant Sharapov yon cho'ntagidan olib beruvdi. Juda lazzatli, cheti biroz kuygan, lekin juda shirin, qotgan, qip-qizarib pishgan bir burda non. Zog'ora non.

O'g'ilning botinida bir o'krik to'lg'ondi. Ota davom etdi:

— Farg'ona degan joy bor. Tog' tagidagi qishloq. Tong chog'i quyosh qishloqqa juda yaqinlashib kelarkan. Tog'dan sharqirab tushgan Oqsoy suvi qishloqni ikkiga bo'lib oqadi. Odamlar hovli eshiklariga qulf solishmaydi. Har bir xonadonda tandir bor. Har bir uyda ertalab tandir yonadi. Har bir tandirdan oftobi non chiqadi — oftob chiqadi. Ana timqora sochini zanjir qilib o'rgan navnihol, go'zal o'zbek qizi tandirga o'tni tashlayapti. Hovlilarda ishkamlarda savatday-savatday bo'lib uzumlar osilib

yotibdi. Bog'larda mevalar g'arq... Ey-ey, Sharapov, senmisan og'ayni!? Ko'rishmaganimizda ham ancha bo'ldi. U-huv, o'zgarmabsan-a. Yurting chindan ham ertakdagiday go'zal ekan, birodar. Ey, bu zog'ora non-ku. Rahmat og'ayni, unutmabsan-a... Shu nonni sog'inganimni qayerdan bilding, Sharapov.

Bemor generalning xayoli uloqdi. Hamshira tomiriga ukol urdi. Ukol ta'sir qilmadi. Chol yana almoyi-jalmoyi gapirib alahsiy boshladi.

— Sharapov, doim bir gapni ko'p gapirasani: “Bir burda nonga odamning qorni to'yadi...” — deysan. Haq aytasan. Mana bir burda nonga qornim to'ydi-ku. Lekin... Odamzot nega shuni tushunib yetmaydi? Nega odamzot bir burda nonga qorni to'ysa ham ochko'zlik bilan urush qiladi, Sharapov?! Agar buni tushunganda edi yer yuzi tinch bo'lardi, yer yuzida urush bo'lmas edi... Sen bilgan oddiy gapni bugun butun dunyo tushunishini istayman, Sharapov.

Chol jimib qoldi. Xonaga og'ir sukunat cho'kdi. So'ng bir to'lg'onib, hansiradi, so'nib borayotgan nigohini tepasidagi o'g'liga tikdi.

Oligarx titrab-qaqshab turardi. Generalning so'niq chehrasida tuyqus mayin tabassum yoyildi. Yengil nafas olib:

— Bir burda non... Bir burda non hammamizga yetadi, — dedi horg'in va titroqli ovozd.

Bu uning so'nggi gapi edi.

*Rahima Shomansurova*

### *“Saodat”da “Kelinlar qo'zg'oloni”*

Oltmishinchi yillarning oxiri yoki yetmishinchi yillarning boshlari edi. “Saodat” jurnalining adabiyot bo'limini boshqarardim. Bir gal yangi hikoya tayyorlashda hech omadim yurishmadi.

Jurnal bosmaxonaga topshiriladigan kun yaqinlashgan sari hikoya yo'qligidan yuragim bezovta. Oxiri Zulfiya opamlarga aytdim. U kishi ham shu tashvishda, lekin sir-boy bermay:

— Qaysi yozuvchilar bilan gaplashdingiz? — deb so'radilar. Kattagina ro'yxatimni ko'rsatdim.

– Shuncha yozuvchimiz bo‘lsa-yu, xotin-qizlar jurnaliga bitta yaxshi hikoya topib bera olmasak, qiziq-ku! – dedilar. – Saidaxon, Said Ahmadlar bilan ham gaplashdingizmi? – deb so‘radilar.

– Saida opamlar bir turkum she‘r va‘da qildilar. Said Ahmad aka katta asar bilan band ekanlar...

Keyin Said Ahmad bilan bog‘lab berishimni iltimos qildilar. Telefonni Saida opa ko‘tardilar. Zulfiya opamlarga go‘shakni uzatdim va ikki katta ijodkor so‘zlashayotganda xonada bo‘lishni noo‘rin sezib, asta chiqib keta boshladim. Zulfiya opamlar “Qoling!” ishorasini qildilar.

– Saidaxon, eshitdim, yangi she‘rlar va‘da qilibsiz, – dedilar so‘rashib bo‘lgach, – juda xursand bo‘ldim. Ijodingizga baraka! Albatta, olib keling, qo‘sh sahifada chiroyli qilib beramiz. Telefon qilayotganim – zamondosh ayol haqida Said Ahmaddan ham bir mehrli hikoya undirib olmoqchi edik. Bormilar?

Saida opa Said Ahmad akani telefonga chaqirib berganlarida:

– Assalomu alaykum! Hormang! Katta ishlar bilan band ekansiz, qizlarim aytishdi. Xudo quvvat bersin! – dedilar. Keyin Said Ahmad aslo yo‘q deyishlari mumkin bo‘lmagan opalarcha erkalik va nazokat bilan:

– Jurnalga original hikoya masalasida Rahimaxon biroz qiynalib qolibdilar. “Said Ahmad akangizning stollarida, jilla bo‘lmasa, ko‘ngil bisotlarida hikoyalar ko‘p. Xayollaridagini bo‘lsa ham ertalabgacha qoralab beradilar”, deb ishontirdim. Haqiqiy yozuvchi qanday bo‘lishini bir ko‘rib qo‘yishsin-a yoshlar?!

Said Ahmad aka nimadir dedilar, shekilli, Zulfiya opamlar bir yoqimli kulib: – Bu boshqa gap! – dedilar. – Ertaga erta bilan kutamiz. Bilasiz-ku, rassomga hikoyaga munosib rasm chizishi uchun hech bo‘lmasa bir kun muhlat berishimiz kerak. Ha, indin – jurnalni bosmaxonaga topshiradigan kunimiz...

Yelkamdan katta tog‘ ag‘darilgandek bo‘ldi. Ertasi kuni bir kulganimizda hamma tashvishlar unut bo‘ldi. Chunki...

Ertasi erta bilan Said Ahmad aka Saida opa bilan birga bo‘limga kirib keldilar. Birgalashib Zulfiya opamning xonalariga kirdik.

– Hikoyani o‘zingiz o‘qib berasiz deb atay Saidaxonni ham boshlab keldim. Juda chiroyli o‘qiydilar-da! – dedilar Said Ahmad aka. Lekin o‘sha kuni hikoyani Saida opa ham, Said Ahmadning o‘zlari ham, men ham oxirigacha o‘qiy olmadik. Hammamizga kulgi kelaverdi. Yarimidan o‘tganda Zulfiya opamlar:

– Bo‘ldi-bo‘ldi! O‘zim o‘qib olaman... O‘zimga qoldiringlar! – dedilar kulgi oqibatida chiqqan ko‘z yoshlarini dastro‘mol bilan artar ekanlar. Ular ham kulgidan o‘zlarini arang ushlab turardilar. – Ayollarga bo‘lgan mehr-muhabbatingiz uchun rahmat! Ammo Farmonbibini juda topibsiz! Ko‘rasiz hali, hamma u kishini yaxshi ko‘rib qoladi. Rahmat! Hoziroq rassomga aytamiz, rasmlarni chizaversin... Yetti kelin, qo‘lida yetti xil samovar bilan ... A? Nima deysizlar?

Zulfiya opamlar hozirgina o‘qilgan hikoyani allaqachon jurnalda tasavur qilayotgan edilar. Yetti xil samovar ko‘tarib kelayotgan baland-past, semiz-oriq kelinlarni ko‘z oldilariga keltirdilarmi, hikoyaning o‘quvchilarimizga beradigan zavqidan sevindilarmi, yana kuldilar. Ertalabdan hammamizga yaxshi kayfiyat baxsh etgan yozuvchimizga rahmat aytib, hikoya ikki sonda bosilishini aytdilar.

Bu – “Kelinlar qo‘zg‘oloni” edi. Yo‘q, pyesa emas, Said Ahmad aka bir kechada yo‘qdan bor qilib, atay “Saodat” uchun yozib bergan yangi hikoya! Hammaning “ichak uzildi” kulgisiga sabab bo‘lgan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” spektakliga asos bo‘lgan umrboqiy hikoya!

Keyinchalik Saida opa hammamizni spektaklning taqdimotiga taklif etar ekanlar:

– Bu chiroyli narsaning dunyoga kelishida sizlarning ham hissangiz katta, axir! – deganlari esimda.

*Orziqul Ergash*

### *Shohsanam*

Kechasi qalin qor tushgan, havo xiyla sovuq edi. Ikkovimiz qir osha maktabga ketib borardik. Qorda yaqinda o‘tgan mashina izlari. Izlarning birida men, boshqasida sen. Parishonsan. Sababini bilib turibman. Boya ayam aytib bergan voqeaning tagiga yetolmayapsan. Oxiri bo‘lmadi, so‘rading.

– Mahmud aka, boya xolam nega unaqa dedilar? Tushunmayapman.  
– To‘g‘ri, hali tushunmaysan, yoshlik qilasan, – dedim jiddiy turib.  
– Vuy, katta odam-ey, – deding jahling chiqqan bo‘lib. – O‘zingiz nimani tushundingiz?..

Men javob bermay, yurishda davom etgandim, yo‘limni to‘sib olding.

– Qani ayting-chi, nimani tushundingiz?

– Hammasini, – dedim-da, seni chetlab o‘tib, yo‘limda davom etdim.

– Tushungan bo‘lsangiz, ayting, – deding orqamdan ergashib.

– Keyin yig‘lab yurmaysanmi? – dedim hamon senga qaramay.

– Hecham-da!

Endi men sening qarshingda turib oldim.

– Uyalmaysan ham, bo‘ptimi?

– Uyat gap bo‘lsa, ko‘rasiz! – deding mushtchangni o‘qtalib.

– Aytdim-ku, go‘daksan deb.

Senga endi mening “go‘dak” deganim kamsitishdek bo‘lib tuyuldi.

– Bekor aytibsiz, go‘dak emasman!

– Aytaymi, bo‘lmasa?

– Ayting!..

– Ayam, katta bo‘lganingda bilib olasan, deganlari... Katta bo‘lganingda seni...

Sen bilan meni...

Sen chiday olmading.

– Kerak emas! – deding qovoq uyub. – Hammasi o‘zingiz to‘qigan gaplar.

– Hali hech narsa demadim-ku!

– Baribir yolg‘onchisiz!

– Shunaqami?

– Ha, g‘irt yolg‘onchi!.. – shunday deya yugurib ketding.

Men iljaygancha ortingdan yurib boraverdim. Sen nariroq borib to‘xtading-da, menga o‘girilib qarading. Etikchang qorga ko‘mildi. Ortinga o‘girilib, yaqinlashib qolgan qizil “Moskvich”ga ko‘zim tushdi. Farmon brigadirning mashinasi. U mendan sal o‘tib, ikkimizning o‘rtamizda to‘xtadi. Qisqa signal berdi. Sen chopqillab yetib

kelding. Men orqa eshikni ochdim. Brigadirning yonida xotini, orqa o‘rindiqla o‘g‘li Kozim o‘tirardi. Kozim menga minnatli qarab qo‘ydi-da, surilib bir kishilik joy bo‘shatdi. Sen taraddud bilan menga qarading. Farmon brigadir toqatsizlandi.

– Tez bo‘linglar. Hoy, surilsang-chi! – deya o‘g‘lini jerkidi.

– O‘tir, – dedim senga. Aslida Kozim bilan yonma-yon o‘tirishingni istamayotgan edim.

Sen mashinaga chaqqon kirding-da yonlamachi o‘tirib, surilib menga joy bo‘shatding. Men bo‘lsam eshikni yopdim-da, yo‘lga tushdim. Meni qayta qistab o‘tirishmadi. Mashina bir sirpanib yo‘lga tushdi. Yonimdan xijolatli tikilib o‘tayotganingni sezsam-da, qaramadim. Lekin ich-ichimdan mashinaning to‘xtashini, sen undan otilib chiqib, oldinga chopib kelishingni, men ham siz bilan piyoda ketaman, deyishingni shunchalik xohlardimki...

Boshimni ko‘tarib qaraganimda qizil “Moskvich” oqish tutun chiqarib qirlikdan enib borardi. Qadamim sustlashib, oxiri yo‘l ustida turib qoldim. Oldinga yurishni ham, orqaga qaytishni ham bilmasdim...

Qarshimda velosiped qo‘ng‘irog‘i jiringladi.

Boshimni ko‘tardim. Orif pochtachi. Velosipediga suyangancha, qoq peshonamda iljayib turibdi. Egnida ming yillik paxtali kamzul. Sovuq o‘tkazgan shekilli, og‘zi-burni ko‘karib ketgan. Indamay ko‘rishib, yonidan o‘tayotsam, tirsagimdan tutdi. Keyin rulga osig‘liq sumkasini titkilashga tushdi. Nimanidir sezdimi, yuragim bir hapriqib oldi.

– Orif aka, nima gap?

U bamaylixotir bir xatjild uzatdi.

– Qo‘rqmasdan yuboraver deganmidim senga? Mana, marhamat, Toshkentdan, Asqad Muxtor domlaning shaxsan o‘zidan!.. – velosipedini shundoq qor ustiga yotqizdi pochtachi. – Qani, och-chi, eshittirib o‘qi. Yo‘q, avval ichingda o‘qi. Keyin menga aytasan.

Hayajondan qo‘llarim titrab xatni o‘qidim. Rangim andak oqardi shekilli, bunday qaragam Orif akaning dami ichiga tushib ketgan, shu tobda go‘yo meningmas, uning taqdiri hal bo‘layotgandek, mo‘ltirab turibdi. Qitmirligim tutdi:

qo‘limdagi xatga yana bir ko‘z tashlab oldim-da, hafsalasiz buklab, cho‘ntaginga soldim.

– Domla nima deptilar, Mahmudjon?

Orif akaga ta’nali tikildim. U aybdor boladek ko‘zini opqochdi.

– Aytardim-ku, baribir foydasi yo‘q, deb. Siz bo‘lsangiz, e!..

Orif akaning lab-lunji osilib ketdi. Endi chiday olmadim.

– Orif aka, ishlar zo‘r! – dedim-da, belidan dast quchib ko‘targan ko‘yi ikki-uch aylantirib, yerga qo‘ydim. Novcha va nimdosh pochtachi belini tutganча bukchayib qoldi.

– Belni o‘ldirding-ku, jiyan!.. Keyin inqillay-inqillay qaddini rostlab oldi-da:

– Domla nima deptilar? – dedi.

– Surat jo‘natishim kerak ekan. She’rlarimni tayyorlab qo‘yishibdi. Meni tabriklang!

– Yaxshi, yaxshi ish bo‘pti. Voy, belim-ey, bilasan-ku beltirim bor.

– Beltiringizni hozir tuzatib qo‘yaman, Orif aka! – deb yana quloch yozib unga yaqinlashdim.

Biroq endi u yaqiniga yo‘latmadi.

– Yaxshiman, yaxshi bo‘p qoldim.

Qorda ag‘anab yotgan velosipedini yerdan ko‘tardi-da, oldimga yetaklab keldi.

– E, jiyan, senga balli! Endi bu yog‘ini cho‘zib yurmagin-da, menga suratingni opkelib ber. Tez boradigan qilib jo‘natib yuboraman. Aytmoqchi, ikki enlik xat ham yozib ber. Rahmat, degin. Boshim osmonga yetdi, degin. Mening nomimdan ham salom degin. Xo‘p, deyaver, Orif akang bir narsani bilmasa gapirmaydi. Avvalam aytgandim-a, sen katta odam bo‘lasan, degandim. Mana, halitdan ulug‘lar nazariga tusha boshlading. Bilasanmi nima uchun? Zuvalang toza joydan olingan. Hamma gap shunda!..

– Orif aka, hali ko‘rsatib qo‘yamiz hammasiga! – dedim o‘z-o‘zimdanda jo‘shib ketib. Shu tobda ko‘z oldimga minnatli surilib senga joy berayotgan Kozim keldi.

Pochtachi angrayib qoldi. Tishlarim orasidan sovuq bir vajohat bilan chiqqan gapim uni gangitib qo‘ygan edi. Darhol o‘zimga kelib, iljaydim.

– Hammasi yaxshi bo‘ladi, deya, Orif aka, ko‘rasiz...

– E, albatta-da. Men bir narsani bilmasam gapirmayman. Mayli, jiyani, omon bo‘l, – deya yuziga fотиha tortdi-da, qishloq tomonga o‘tib ketdi. Orif akaning suyungani mayli-yu, lekin hozir men yonimda sen bo‘lishingni, ulug‘ yozuvchidan kelgan xatni sen ko‘rishingni, hayrat, hayajondan sakrab yuborishingni istayotgandim, juda-juda istayotgandim.

*Oybek*

### *Singan umid*

«Laylining tomiga chiqdim bir qizil olma uchun»

Xotin ovozi kabi ingichka silliq tovush kichkina do‘konxonani yangratardi. Pakana kursida o‘tirgan yigit tasmaga oyoqlarini tirab, qatim tortar va har gal mumlangan ipni qo‘llari ila dirillatib, pishitib berardi.

Yigitning ko‘ngli bu kun juda shod. Qo‘llar — chaqqon. Uning sarg‘aygan, oriq yuzida allaqanday kuch sezilib turadi. Boshqa vaqtlardagi kabi bitta payvandni tikib bo‘lgach, kerishib xomushlikka berilish yo‘q. Bachkana maxsilar uning tizzasidan tez-tez tushib, do‘konxona to‘rida o‘tirgan ustaning yonida yig‘ilmoqda edi.

Usta gazanni qayroqqa surtib-surtib:

— Aylanay, Egamberdim, bormisan, To‘ychi hofizning xuddi o‘zi-ya, — deb yarim hazil, yarim chin ohangda xalfasiga so‘z tashlab qo‘yardi.

Egamberdi bodom qovoqlari tagidagi qiyiq qora ko‘zlari ila ustasiga muloyim bir nigoh tashlardi, ortiqcha so‘z so‘zlamasdan yana ishiga berilardi.

Saxiy quyosh tuynukdan bir o‘ram oltin nurini yuborib, do‘konxona o‘rtasida yorug‘ bir murabba’ yasaydi. Bu murabba’ — Egamberdining soati. U vaqtni shu bilan o‘lchaydi. Ammo bugun Egamberdi qaraganda, murabba’ uning boshida unutilayozgan uzoq suratlarni uyg‘otdi: Egamberdi onasi ila birinchi marta do‘konxonaga kirganda ham xuddi mana shu murabba’ xona o‘rtasida iljayib yotgan edi. Bu yil o‘tsat to‘qqiz yil to‘ladi. To‘rt yil haftada 10-15 tiyin «juma puli» olib shogird bo‘lgan. Besh yildan beri xalfa. So‘ngra onasining yig‘i aralash mungli tovush ila: «Otasi yo‘q yetimcha. Qo‘lingizdan kelganini ayamang. Hunar o‘rgating.

Bu yil o'n uchga kirdi. SHo'xroq o'zi. O'z bolangizdak ko'rib otalik qiling», deganlari uning qulog'ida kechagina eshitilgan ovozdek tuyildi.

Egamberdi otalik qiladigan vaqt endi keldi, usta, degan kabi ko'z qirini maxsini shonalab o'tirgan oq aralash cho'qqi soqolli kishiga tashladi-da, yana allaqanday totli, mayin va qonlarga sur'at beruvchi xayollarga berilib, to'xtovsiz qatim tortarkan: «Hormasinlar», degan tanish, kuchli ovoz Egamberdini xayollaridan ayirdi. U kechasi chiroyli tushlarga qoniqmasdan uyg'ongan kishi kabi ko'nglida bir g'ashlik sezdi-da, yana bildirmasdan:

— E... E... Qoravoy, bormisan? Daladan tushging kelmaydi-ya, — deb o'rtog'iga kulib qaradi.

Yangi shovron etigidan changlarni artib o'tirgach:

— Uh, shaharing qursin, hammayoq yonyapti, — dedi Qoravoy.

— Ha, Boqi-toqi, yamoq bitdimi? Bitgan bo'lsa, darrov olib ber, ketaman.

Tayyor maxsilarni qoragul ila pardozi qilib o'tirgan shogird bola — Boqi «Allaqachon bitkazib qo'rganman-ku», — deb tokchadan bir juft qurishgan eski maxsini olib berdi. Qoravoy maxsini qo'lga olib:

— Boplabsan, uka. Roziya xolang juda xursand bo'ladi-da.

Qo'ynidan patillatib bir bedana chiqardi, Boqiga uzatdi. Qatta va semiz bedana Boqining kichkina qo'llariga sig'mas. Ingichka oyoqchalarini tipirlatib chiqib ketmoqchi bo'ladi. Sevingan Boqi bedananing xoldor bo'yniga ko'z solib.

— Vo'y-bo'... Makiyon ekan, — deya do'ppisining tagiga joyladi.

— Makiyondan zo'r chiqsa — tullakni qochiradi. — Usta bu so'zlari bilan Boqining ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ladi.

— Usta, ertaga dalaga chiqib borasiz, Egamberdi bilan.

— Xo'sh, nima gap?

Ustaning suyungan yuzida savol alomati chizildi.

— Akamning xotini o'g'il ko'rdi-ku, ertaga katta ziyofat.

Usta suyunganidan o'rnidan bir qo'zg'alib oldi, Qoravoy jonli, sho'x ko'zlari bilan:

— Albatta-ya, albatta, — deb Egamberdiga tikildi. — Yana o‘rtoqlar ko‘p bo‘ladi. Man sani ko‘rpachaga o‘tqazib qo‘ymayman. Axir, choy-poy qilib xizmatda turasan.

Egamberdi:

— Endi... o‘rtoq, qaydam... Uyda mayda-chuyda ishlar bor edi.

Usta g‘azablanib ketdi:

— Yomonga yog‘ yarashmas, xiyobonga dog‘ yarashmas. Juma kuniyam ish. Dalada bahri-diling ochiladi, ahmoq. Erta-indin uylanasan, kuch yig‘, — derkan, Qoravoy.

— O‘ho‘, to‘y yaqin desangiz-chi. Juda yaxshi, juda yaxshi. Qamishdan bel bog‘lar ekanmiz, — ha-ha-ha...

Egamberdi ham o‘zini kulgidan to‘xtatilmadi:

— Qarigan bo‘lsayam, usta shunaqa gaplarni yaxshi ko‘radi.

— Xayr, keyin! yana gaplashamiz, —deya Qoravoy chiqib ketdi.

Usta peshin namozini o‘qib kelib, kir sallasini qoziqqa ildi-da, tayyor dasturxonga o‘tirdi. Boqi qo‘lni kuydiradigan piyolani puflab-puflab tezdin bo‘shatdi. Burni puchuq choynakdan choy quyib, ustaga uzatdi. Usta mog‘orlangan chap-chap nonni to‘rt bo‘lib piyolaga soldi, shirach yuqi ketmagan barmoqlari ila bosib-bosib qo‘ydi. Egamberdi, kunning issiqligidanmi, nonga u qadar ishtaha ila qaramasa-da, nimrang choyli piyolani dam o‘tmasdan bo‘shatib turardi.

Usta ivitilgan nonni og‘izga solib, ustidan bir qultum choy ho‘plab:

— To‘yni, — deb gapira boshlagandi, qalqib ketdi. Moshdek non ushog‘i Egamberdining burniga qo‘ndi, — Uzoqqa cho‘zma, gap-so‘z chiqa beradi. Onang u kuni kelganida qiz kiyimi — raso, charx yigirib-yigirib xonatlas ko‘ylak, duxoba kamzul, amirkon kavush-maxsi olib qo‘yganman, biroz pul ham bor, — degandi. O‘zingdayam pul bor chiqar?

— Yetmas, deyman usta?

— Yetmasa pul topib beraman, ishlab vaqtida uzsang, bas... Oliy-soliqqa o‘zim boraman. Gap bilan tovlash kerak. Ha, kampirga yalina ber. Kampiring aqlli xotin.

Ustaning soʻzi Egamberdining tor, siqiq koʻkragini bosib turgan ogʻriqni olib tashladi:

— Kampir boyaqishga achinaman, usta. Shu kunlarda esi-hushi kelinda, kechasi bilan uxlamasdan chiqadi. Bugun patir yubormoqchiydi. Unim kam-bunim kam, deb xiyla mashaqqat chekdi.

— Inshoolloh, patir ketgan boʻlsa, qoʻlga ilindi, oʻgʻlim. Qiz qalay, tuzukkina emishmi, a...

— Obbo, borgan sari yosh boʻlib ketyapsiz, opogʻoyimga chaqmasam boʻlmaydi.

— Oʻzimiz qaridik. Koʻngil qarimaydi. Aytaber. — Kulib yubordi. Uning burushiq yuzlarida turli naqshlar paydo boʻldi. Dasturxonni yigʻishtirib turgan Boqi kulgidan choynakni agʻdara yozgan edi.

— Qosh-koʻzi popukdak. Oppoqqina, qaddi-qomati raso, — dedi oyim. Yana kelganda koʻrarmiz, — dedi-da, Egamberdi kulib yaktagini kiya boshladi. Oriq, ingichka yuzida beoʻxshov qoʻnqaygan uzun, katta burniga koʻzoynagini mindirib, usta ham teri kesishga oʻtirdi.

Zigʻir moyli palovdan shoshib-pishib ancha oshadi-da, Egamberdi qoʻlini artdi. Rangi oʻchayozgan amirkon etikni, har payshanbadagi kabi lok surkab parдоз qilmasdan oyogʻiga ildi. Qoziqdan tegdoʻz doʻppi ila bitta yuvilgan olacha yaktagini olib kiydi.

— Doʻkonni qulflab, kalitini berib ket, akasi, — deb Boqiga buyurdi.

Shom vaqti. Hamma yoq jimjit. Tor, changli koʻchalardan kunduzning issiq, yoqimsiz nafasi hali koʻtarilgani yoʻq. Egamberdi hech yoqqa boqmay gʻizillab ketar edi. Hech qanday hordiq sezmas, umid va sevinch ila qanotlanib uchar edi: «Kampir toʻrt koʻzi bilan kutib oʻtiribdi desang-chi. Bugundan boshlab hovlida endi toʻy. Katta ammalari qolgan boʻlishsa kerak. Kuyov-kuyov, deb bezor qilishadi hali». Egamberdi shunday fikrlar bilan mashgʻul boʻldi. Katta koʻchaga chiqqach, yoʻlkada qarshisidan keluvchilarga oʻzini bir qancha dafʻa urib oldi.

Uyiga yaqinlashganda nafasini rostlab olish uchun sekinroq yura boshladi. Qorong‘i yo‘lakdan o‘tib, hovliga kirdi. Atrofi buzuq, ikki tomoni past, qiyshiq paxsa devorlar ila o‘ralgan kichik hovli qorong‘i, jimjit. Hovlining o‘rtasiga yetgach:

— Oyi, oyijon! — Qichqirdi yigit.

Ayvondan:

— Onang o‘lsin! — degan tovush eshitildi. Egamberdi yugurib onasiga yaqinlashdi:

— Ha, kampir, nima bo‘ldi, gapir-gapir, — mungli tovush ila so‘radi Egamberdi.

Kampir piq-piq yig‘lardi.

— Muncha Xudo peshonamni baxtsiz yaratgan ekan, u hamma patirni, hamma meva-chevalarni qaytarib yuboripti, uying kuygur.

Egamberdi ham onasining yoniga cho‘qqaydi. Uning ko‘zlariga-da yosh to‘lgandi.

— Qizning amakisi o‘lgur allaqayoq yurtda savdogar ekan. Kelibdi. «Saodatni bir yetimcha kosibga beramanmi, o‘zim bosh bo‘lib obro‘li, badavlat joyga uzataman», debdi xonasallot.

Kampirning yig‘isi yana avjiga chiqdi. Egamberdi sekin o‘rnidan turdi. Faqat a‘zosi bo‘shashgan, bo‘sh qopdek yiqilishga tayyor edi. Ayvonning ustuniga borib suyandi. Uning yigit ko‘ngli kecha qadar qorong‘i, tubsiz, bo‘sh edi.

*Said Axmad*

### *Tolibjonning yoshlik xotirasi*

Yetim kishlokning kok urtasidan katta soy okardi. U kishlok etagiga yetganda yoyilib, urtasida unlab archalar xosil kilardi. Tolibjon bolaligida urtoklari bilan suv kechib, archalarda kumga kumilib, soatlab osmonga karab yotardi. Usha paytlarda osmon juda xam kum-kuk bulardi. Oppok budutlar sut kupigidek bulib, kishlok ustidan shoshilmay tokka karab suzib utib ketishardi. Kamishlar orasidan kurbakalarning kurillashi, urdaklarning gak-gak tovushlari kelib turardi. Tolibjon

kukka karab yotib, bir zumda dunyoni xayolda aylanib chikardi. Kechalari osmonni tuldirgan yulduzlarning imlashlariga tikilib tongni kutardi.

Mana xozir, u usha yoshligi utgan soy kuprigi ustida turinti. Endi u yalang oyok tanini oftob kuydirgan shux, olov bola emas sochlari okargan xayotning achchik-chuchigini totgan Tolibjon edi.

*Valentin Rasputin*

### *Sungi muxlat*

“Sokin kun”

Kun juda yaxshi boshlandi, xavo musaffo bulib, charaklab turgan kuyosh kishlok ustiga zarrin nurini soxiylik bilan tarotib, uni boshdan-oyok kuz-kuz kilib turardi. Daryo jivirlab tovlanardi, daryoning narigi yogidagi, tog yon bagridan yukoriga karab kutarilib ketgan urmon aslidagidan kura yakinrok kurinardi, ammo uning belgavrid kum-kuk rangi oftobda xirarok tovlanardi. Xamma yok tinch bulib, bir meyordagi nurda chumilardi, fakat kishlokda oyalar bir xilda korayib turardi, ammo ularni xatto itlar xam kokilib ketida kurkkandek aylanib utishardi.

*Toxir MALIK*

### *SHAYTANAT*

U mashq bulutlar ustida sarxush suzardi. Birdan bulut choki so‘kilib, pastga qarab sho‘ng‘idi. Yuragi shuv etdiyu ko‘zini ochdi. Chindan ham bulut ustida sayr qilarmidi, chindan ham pastga sho‘ng‘idimi - daf’atan idrok etolmadi. Hayolini jamlashga urindi. Ko‘rib turgani - naqsh bilan bezatilgan shift - demak, o‘z uyida. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan?

- Men hazil o‘yini deb o‘ylabman...

- Qimorda hazil bo‘lmaydi, erkak.

- ... To‘layman... faqat bugun emas. Bir-ikki yil ichida.

- Pulni-ku, to‘larsan-a, xotiningnichi? Xotiningni ham tikvorgansan-ku."

Bu xirilidoq ovoz boshiga gurzi bo‘lib urilib, sapchib tushdi. Beixtiyor.

- Noila! - deb baqirdi.

Javob bo'lmadi. "Olib ketishdimi?!" degan fikr vujudini parchalab tashladi. Bu safar tanholatda baqirdi: "Noila!!!" Ayvondagi qafasda mudrayotgan to'tiqush patirlab, bir chug'urlab qo'ydi-yu, tinchidi. Tashqarida it ulidi.

U seskanib, atrofga alazarak boqdi: o'ng tomondagi yotoq eshigi qiya ochiq. Ichkarida chiroq yoniq. Noila yolg'iz qolgan tunlari chiroqni yoqib yotardi. "Uyda ekan..." - shu fikr uning parchalangan vujudiga jon qaytardi. Eshik tomon yurdi. Ostona xatladi-yu, toshday qotdi: ikki kishilik karavotda, umrining eng shirin damlari o'tgan o'rinda Noila sochlari parishon holda yotardi. Agar choyshab qonga belanmagan, chap ko'kragiga pichoq qadalmagan bo'lganida uni shirin uyquda deb o'ylash mumkin edi. Achomlashgan uzun kipriklar pastki qovog'iga soya tashlagan, bejirim lablari kumtilgan, qaldirg'och qanotidan nusxa olgan qoshlari esa taranglashgan. U hozir xotining na kiprigiga, na qoshiga qaraydi. U hozir Noilaning bo'yni, baqbaqalari tishlanganini ham ko'rmaydi. Uning ko'zi hozir ko'krakka qadalgan pichoqda. Rastasi kiyik shohidan ishlangan pichoq jovonda saqlanar edi. Uni kim oldi? Kim Noilaning ko'kragiga sanchdi?

U bir necha daqiqa telbalarcha turdi. So'ng, esa o'ziga kelgach, shoshilib borib ko'krakdagi pichoqni sug'irib oldi...

*O'tkir Xoshimov*

### *Muhabbat*

Qizning soch tolalari Tirkashning yuziga tegib turar, allanechuk notanish, ammo totli is anqir, uning butun vujudi tarang tortilib, oyoqlari titrar, qizning ham yelkalari bilinar – bilinmas silkinayotganini his qilib turardi. To'satdan qiz siltanib qaddini rosladi-yu, zarb bilan itarib yubordi uni.

Tirkash laylak qilib qo'yilgan aravaga suyanib qoldi. U hamon o'ziga kelolmas, allaqanday ichki bir to'lqin borgan sayin qattiqroq jo'sh urardi.

- Dadam so'yib tashlaydi, - dedi qiz to'zib ketgan sochlarini kafti bilan tekislarkan. Ammo dadasidan hech qachon xayiqmaganligi, bunday keyin ham xayiqmasligi, bundan keyin ham xayiqmasligi uning ovozi bilan bilinib turardi.

Tirkash aravadan uch – to‘rt qadam narida maysalar ustiga tashlab qo‘yilgan bir parcha namat ustida uxlab yotgan cholga qaradi. Chol ola – bula xurjunga boshini tashlab, oyoqlarini kerganicha chalqancha yotar, qorong‘uda yuzi aniq ko‘rinmasdi. Undan ham nariroqda bir tup do‘lananing to‘kilgan xazonini shitirlatib sharpaday qop qora eshak o‘tlab yurardi.

Tirkash qaddini rostlab, qizga tikilib qoldi. Uning katta – katta ko‘zlari yonib turar, uzun – uzun kipriklari, qirra burni qorong‘uda yanayam jozibali ko‘rinar. Tirkash xali ham xayajonini bosib ololmas edi. Ikkovlari anchagacha jilmayib qolishdi. Arslonbob tog‘ining cho‘qqisi yonib ketdi. Zam o‘tmay dum dumaloq to‘lin oy chiqdi. Chor atrofga nur aralash sukunat seli quyilganday, hammayoq jim jit bo‘lib qoldi. Yaproqlari to‘kila boshlagan do‘lana soyaday qorayib ko‘rinar, xavoda xazon, go‘zapoya isi anqirdi.

Qiz sochini o‘rib, orqasiga tashladi. Tirkashning yoniga keldida, nixolday nozik gavdasini egib, arava ichidan paxtalik nimcha olib kiydi. Tirkashga bir qarab qo‘ydi-yu, oyoqlarini osiltirib, aravaga o‘tirib qoldi. U endi hamma narsani unutmanganday, Tirkashni ko‘rmayotganday edi. Boshini baland ko‘tarib, oyga tikilib o‘tirar, chexrasida beparvolik ko‘rinib turardi.

*O‘tkir Xoshimov*

### *Laylak*

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi. Bola g‘o‘r edi, bola go‘dak edi... Kunlarning birida ona-bola qishloqqa – uzoq qarindoshlarinikiga boradigan bo‘lishdi. Ona qaddini g‘oz tutib, tez-tez yurib borar, bola esa alang-jalang qilib atrofdagi manzaralarni tomosha qilar edi. Qishloq guzarida yarmini Yashin urib ketgan baxaybat chinor bor ekan. Bola daraxtni kurib angrayib qoldi: chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i , tumshug‘i uzun bir qush turar edi.

Bola mo‘jiza ko‘rgandek taqqa to‘xtab qoldi.

– Anavi nima, oyi? – dedi o‘sha tomondan ko‘z uzmay.

– Laylak, o‘g‘lim laylak! – ona o‘g‘lining boshini silab qo‘ydi. – Yura qol jonim.

Bola xech qachon bunaka qushni ko‘rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to‘xtab qoldi.

– Nima u, oyi? – dedi tag‘in chinor uchiga ko‘z tikib.

– Layla, o‘g‘lim laylak.

– Nimaga u bir oyoqlab turibdi?

Ona kuldi:

- Bir oyog‘i charchagandir-da. Yura qol, jonim.

Oyog‘i uzun qush negadir bo‘ynini cho‘zib, tumshug‘ini osmonga qratib silkitar, shunda «tarak-tarak» degan ovoz eshtilardi.

Bola tag‘in to‘xtab qoldi.

– Nima o‘zi u, oyi?

Uning ko‘zlarida quvuch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor. Hali shaharga qaytishi kerak.

– Laylak dedim-ku jinnivoy, - deb ohista egilib o‘g‘lining yuzidan o‘pdi. – Senga salom beryapti-da.

Ona yosh edi. Ona navjuvon edi.

... Oradan o‘ttiz yil o‘tdi. Bola yigit bo‘ldi. Ona keksayib qoldi. Oyog‘idan mador, ko‘zidan nur ketdi.

Kunlarning birida ona-bola ittifoqo Yana o‘sha qishloqqa borib qoldilar. Yigit qaddini g‘oz tutib tez-tez yurib borar, ona esa toliqqan oyoqlarini, og‘ir-og‘ir ko‘tarib bosganча harsillab kelardi. Guzardagi yarmini yashin urib ketgan chinor hali ham bor ekan.

Buni qarangki, chinorning tarvaqaylab o‘sgan shoxida hamon supradek kattakon uya qorayib ko‘rinar, uyada esa oyog‘i, tumshug‘i uzun laylak turardi. Yigit laylakka bir qarab qo‘ydiy qadamini tezlatdi.

Orqada kelayotkan ona nursizlanib qolgan ko‘zlarini chinorga, chinor shohida qorayib turgan uyaga tikildi. Shohda osilib turgan narsa ko‘ziga g‘alati ko‘rindi.

– Anavi nima, o‘g‘lim? – dedi to‘xtab.

– Laylak, oyi, laylak!

Ona yaxshi eshitmadi. Uch-to‘rt qadam yurib yana to‘xtab qoldi. Savatdek narsa ichida bir nima oqarib ko‘rinyapti. Tavba...

- Nima, o‘g‘lim? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

O‘g‘il taqqa to‘xtadi. G‘ashi keldi. O‘zi shoshib turibdi: mingta ishi bor! Odam qarigandan keyin ezma bo‘lib qolarkan-da!

– Laylak! – dedi jerkib. – Laylak deyapmanku karmisiz!

Shunday dedi-yu, jahl bilan tez-tez yurib ketdi.

Nachora, yigit yosh, yigit navqiron. Uning yumushi ko‘p. Hali shaharga qaytishi kerak... Uning ham g‘o‘r go‘dak bolalari bor...

*O‘tkir Xoshimov*

### *Dunyoning ishlari*

Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko‘p bo‘ladi Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzundan uzoq duo qiladi. Shundoq mexribon o‘g‘li borligini aytib qo‘shnilarga maqtanadi. Uning oyog‘i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og‘riydi.

Qo‘ni – qo‘shnilar ahvol so‘rasa, ularniyam o‘ziniyam yupatadi.

- Ha, endi keksalik-da, o‘rgilay, lekin onamning oyoq og‘rig‘i faqat keksalikdan emas, buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman. Bolaligimda ko‘p kasal bo‘lardim: qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak. Shuning uchun oshxonadagi mixda ko‘k qarg‘aning patidan tortib, gultojixo‘rozgacha ilig‘liq turardi. Ayniqsa, tomoq og‘rig‘i yomon qiynaydi. Oyog‘im zaxga tegishi bilan tomog‘im og‘rishga tushadi. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman.

O‘shanda necha yoshdaligim esimda yo‘q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan qorbo‘ron o‘ynab terlab ketdim. Terlab turib muz yedim. Kechqurun isitmam ko‘tarildi. Quv – quv yo‘talaman. Oyim tomog‘imni achchiqtosh bilan chayib ko‘rdi, bo‘lmadi, turshak qaynatib suvini ichirdi, bo‘lmadi... Oxiri tomog‘im

xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmaymanu nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es – es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi.

- Voy endi nima qilaman! Voy, bolam o'lim qoladi.

Keyin meni shosha – pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor yog'ayotganini bilib turardimu, biroq yuzimga qor tushmayotgandek edi. Onamning issiq nafasi urilib tura, u sirg'anib borar, og'ir xansirar edi.

Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. Ko'z o'ngim yana qorong'ulashib ketdi. Oyim xamon chirqillaydi.

- O'lib qoladi.

- Vahima qilmang, poshsha, dardini bergan xudo, davosiniyam beradi. Bu Xoji buvining ovozi ekanligini g'ira shira idrok etdim. Xoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib, chalqancha yotqazdi. Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi. Ko'nglim ag'darilib, tipirlagancha yig'lar, ammo Xoji buvining qo'lidan chiqib ketolmas edim. U tomog'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq bir pastdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochib qarasam. Xoji buvi jilmayib turibdi.

Keyin tepamga oyim engashdi. U xamon xansirar, sochlari to'zg'ib ketgan yuzi jiqqa xo'l edi.

Bir pastdan keyin qaddamni rostlab, oyog'imni tanchaga tiqib o'tirdim. Xoji buvi allaqanday taxir suyuqlik ichirdi. Keyin oyimga qaradiyu, birdan xitob qildi

- Voy poshsha-a-a-a! Nima qip quydingiz? Tamom bo'psizku.

Oyim talmovsiranib goh menga, goh Xoji buviga qarar edi.

- Oyog'ingizdan ayrilibsizku, dedi Xoji buvi boshini chayqab. – Shu axvolda qandoq keldingiz?

Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'liq edi.

- Sarpoychang kelaverdingizmi? – dedi Xoji buvi hamon o'sha vahimali ohangda. – Endi nima qilasiz? Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz.

Oyim tanchadan oyog‘ini chiqardi. Ikkala oyog‘i qip – qizil go‘sh t bo‘lib ketgan edi.

- Sovuq yegani yo‘q – dedi sekin. Qaytaga isib ketdi. Qorda o‘zi isib ketarkan.

Xoji buvi uning oyog‘ini uqalab ko‘rdi. – Sezyapsizmi?

- Nimani? – dedi oyim oyog‘iga emas menga qarab.

- Qo‘limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadida, piqillab yig‘lab yubordi.

Ertasiga u yotib qoldi. Uzoq yotdi. Dadam ataylabdan qarg‘ani otib keldi. Xoji buvi qo‘lidan kelgan dori – darmon qildi...

Keyin oyim tuzaldi. Biroq salqin tushishi bilan oyoqlari shishib azob beradigan bo‘lib qoldi...

Har yili dam olishga borganimda oamga gilam paypoq olib kelar edim. U xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek ketimdan uzoq duo qilar, bir pasda hamma qo‘shnilarga ko‘z – ko‘z qilib chiqar edi, shundoq mexribon o‘g‘li borligi uchun maqtanardi. Shunda qor gupillatib yog‘ib turgan mudxish kecha, onamning qip – qizil go‘sh tga aylanib ketgan oyoqlari ko‘z o‘ngimga keladi-yu, indamay chiqib ketaman.

*Tilab Maxmud*

### *Oppoq kuyov*

Hamma onalar bolalarining ko‘rinishiga qarab emas, yuragining bir parchasi bo‘lgani uchun suysalarda, xar qalay, ularning bo‘y basti, qosh – ko‘zi. Rang ro‘yiga befarq bo‘lmaydilar. Biri bolasini “Qoravoyimdan aylanay” deb erkalasa, boshqasi “Oppoqqinam” deb yupatadi. Kelin tanlashda ham “Oydakkina”sini yoqtirishadi.

Rashidaxonning qizlari ham bo‘y yetib qoldi. U qachon bo‘lajak kuyovlaridan gap ochilsa “Xudol xoxlasa, albatta, uzun bo‘yli, oppoq yuzli, kelishgan yigitlarni kuyov qilaman, bunaqa yigitlardan chiroyli nevaralar ko‘rishni orzu qilaman” deb qo‘yardi.

Katta qizini uzatish, uning ko‘nglini to‘ldirmadi. Erining uzoq bir tanishi sovchi bo‘lib kelaverdi – kelaverdi, oxiri rozilik berishga majbur bo‘ldi.

Xademay oradan ikki, uch yil o'tib ketdi. Rashidaxonning kenja qizi bo'yi yetmasidanoq sovchilar qadami ko'paydi.

Rashidaxon xar gal sovchilar kelganda qizini birrov ko'rsatib qo'yar, Gulgunoyni ko'rishlari bilan sovchilarning chexralarida balqiydigan quvonchlardan terisiga sig'may ketardi. O'n yettiga endi qadam qo'ygan Gulgunoyni mayus bodom ko'zlari, uzun – uzun kipriklari, mo'rtgina yelkalari, ingichka barmoqlari, quloqlari yonida osilib turgan bir tutam gajak tolalari, bo'ynilariga chirmashgan kim qora soch xalqari unga ko'zi tushgan xar qanday sovchilarni esankiratib qo'yardi.

Qancha – qancha sovchilar dog'da qolishdi.

Rashidaxon sovchilarga “Qizim hali yosh, izdan-ku” deb bir oz tarang qilib turar, oxiri xech bo'lmagach avval o'zi kuyovni ko'rib, so'ngra qizi bilan uchrashtirishga rozi bo'lardi. Kuyovlikka davog'lar ketma – ket o'zgarib turdi. Rashidaxon birini “Ko'zini ichi qizil”, boshqasini “Tagli pirli emas”, beshinchisini “Mamumojisiz”, oltinchisini “Burni katta”, yettinchisini “Ammamning buzog'i” deb yo'qqa chiqardi.

Oxiri Rashidaxonning ko'ngliga mos yigit chiqib qoldi. Oq sariqdan kelgan, bo'ydor – yelkador, qora charm kurtkasi o'ziga zap yarashgan. Olmoniyadan moshina olib kelib sotib yuradigan, maxallasidagi bir xovlini 60 min dollarga olib, uni fundamentigacha buzib tashlab qaytadan ikki qavatli qilib qurayotgan ekan. Bo'ynidagi tilla zanjiri kamida 100 gramm chiqadi. O'ng bilagida briliatnmiyey qimmatbaxo toshlar bilanmish qabariqlab ishlangan erkakcha bilaguzuk yaraqlab turardi.

Kuyov bo'lmish yigirma olti yoshlardagi qamchiday yigit edi. Uning oppoq yuzlaridan tashqari birinchi ko'rinishdayoq odamning ichiga kirib ketishi, o'zini juda erkin tutib, ochilib sochilishi, xushomadi o'rniga qo'yishi Rashidaxonning ko'nglini eritib yubordi.

Gulgunoyni otasi “Qizimiz yosh, endi o'qishga kirdi, qiynalib qolarmikan?” deyishiga qaramay qudalar “Biz kelin emas, qiz kerak, o'zimiz o'qitib olamiz, bilganini baxam ko'ramiz, bilmaganini o'zimiz o'rgatamiz, yolg'iz o'g'limizni uyga

bog‘lab qo‘ya olmaymiz, uning ham xaridorlari ko‘p, tezroq boshini ikkita qilsak ko‘nglimiz joyiga tushardi” deyishdi.

Rashidaxon murod maqsadiga yetdi. To‘ymisan to‘y bo‘ldi. Kelinni zaksga olib borish ularni eshigi oldiga “Jiguli”, “Volga” kelmadi, hammasi “Mercedes”, “Opel”, “Volva”, “Audi”.

Quda tomon nikoh bazmini “Zarafshon” restoranida o‘tkazdi. Bunaqa tantana, bunaqa o‘yin kulguni Rashidaxon qizni daxam ko‘rmagan edi. Qiz tarafdin kim o‘rtaga chiqib o‘ynasa, qo‘lini ko‘tarsa, bas, dollar yog‘iladi, xatto qizil kostyumli yigit dollar pochkasini sochib yubordi.

Hamma yayradi, Rashidaxon esa o‘ylanib qoldi. “Bugunku o‘tib ketar, indiniga chalar, qudalarga tenglashib bo‘larmikin?” xayolga botdi u. “Xudo poshsho, hammaning o‘ziga yarasha nasibasi bo‘ladi” o‘ziga o‘zi taskin berdi Rashidaxon.

Chalariga tayyorgarlik unaqa bunaqa bo‘lmadi. Boyning xayri kambag‘alning xayri deganlariday Rashidaxon topgan tutuganini hammasini sarfladi. Qudalar ham qarab turmadi. Nimta emas, dumbasini yerdan uzolmaydigan qo‘y yuborishdi, karobka – karobka muzqaymoqdan tortib, Amirqodan jo‘natilgan tovuqlarning oyog‘igacha olib kelishdi.

Quda tomondan xotin xalaj avtobuslarda emas, xorijiy yengil mashinalarda kelishdi.

Rashidaxonso‘limqiragan qizining mo‘rtgina yelkalaridan tutarkan, qizining ko‘zlaridan oqayotgan yoshlarni ko‘rib, paloponning inidan birinchi uchib chiqqan xurkinishga o‘xshatdi. Qarasa uning ko‘k rang qizining ko‘z yoshlari bilan tobora namlanib borayapti. Rashidaxonning ko‘nglini qandaydir qora sharpa egallab oldi. Karnay – surnay, qiz juvonlarning qiy chuviga qaramay ona bola bir vujud bo‘lib uyga kirib ketishdi.

- Ha tinchlikmi qizim – dedi tezroq gapir tashqariga chiqaylik degan ma’noda.

- Niyatingizga yetdingiz oyijon niyatingizga – dedi ko‘zida jiqqa yosh bilan.

Onasi qizining bu holatini tushunmay qoldi.

Hademay oradan ikki hafta o‘tib kuyov chaqiriq bo‘ldi. Bu gal ham Gulgunoy onasining yarasiga tuz sepib ketdi, u qo‘lidagi bir dasta rasmlarni onasiga berdi.

Rasmda “oppoq” kuyovning turli tuman ayollar og‘ushida dilxush onlari aks etgan bo‘lib birida u rus bir ayoli bilan dengiz to‘lqinlari belanchagida erkalayotganini, birida sochlari uzun bir tomoni sochlarini kuyovni boshi uzra sharsharadek yoyib turgani, uchinchisida do‘mboqqina ayol kuyovning tizzalarida o‘tirardi.

*Tilab Maxmud*

### *O‘ch*

O‘sar ovchi bo‘rilardan qutulish yo‘lini topgucha qish ham tugadi. Bo‘ri bolalaydigan palla edi, O‘sar ovchi otasining bir gapini eslab qoldi. Erta saharlab Mingbuloq tomonga jo‘nadi. Ovchilar qaysi hayvon qayerda tunab, qayerda yurishini yaxshi bilishadi. U yong‘oqzor, archazorlardan o‘tib, xarsang tosh, qoyalarning bag‘ridagi ungurlar g‘orlarga razm soldi. Mingbuloqqa yetay deb qolganda katta yapasqi qora toshning yonida bir nima qimirlaganday bo‘ldi. U avval tulki deb o‘yladi, keyin qoq tepasida turgan do‘lana tomonga boshini ko‘targan edi, do‘lana soyasida unga qarab turgan ko‘kimtir bo‘ri lip etib o‘zini panaga oldi. “Ha, bachchag‘ar, shu yerda ekansan - da”, dedi O‘sar ovchi miltig‘ini yelkasidan qo‘liga olib. U qora toshni aylanib o‘tayotganda toshning qoyaga yopishgan joyida qozonning ohziday teshikni ko‘rib qoldi. Teshikning oldida mayda – chuyda suyaklar yotardi. Hammayoq jimjit. Mingbuloq ustidan salqin shabada esib turar, hatto qushlarning sayrashi ham eshitilmas edi. O‘sar ovchi engashib teshikka qaradi. Qop – qorong‘u joyda nimadir qimirlaganday bo‘ldi. Birozdan so‘ng ichkarida ovoz chiqarmay unsiz irillab tishlarini qayrab turgan bo‘ri bolalarini ko‘rdi. U miltiq uchi bilan bo‘ri bolasini chalg‘itib turdi – da bir qo‘lini sekin cho‘zib uning yelkasidan mahkam ushladi.

Ana shunda bo‘ri bolasi jon jahdi bilan ingrab, irillay boshladi. Baribir u bo‘ri bolasi edi, itvachchalarga o‘xshab akillamadi, chinqirmadi, taqdirga tan berganday O‘sar ovchi qopining ichida jimib qoldi.

O‘sar ovchi bo‘ri bolasini uyga olib keldi. Otasining gapini yana esladi. Agar bo‘ridan qutilmoqchi bo‘lsang, - degan edi otasi, - uning bolasini tutib olasan,

orqasini tikib, bir – ikki kun boqasan. Bola emasmi, u nima bersang yeyaberadi. Chiqib ketadigan joyi tikilgach, uning qorni og‘rib g‘inshishga tushadi, qiynaladi. Keyin uni qayerdan olib kelgan bo‘lsang o‘sha joyga olib borib qo‘yasan. Uning ha deb g‘angshib. O‘zini u yoqdan – bu yoqqa urishini ko‘rgan ona bo‘ri bolasini opichlab tog‘ma – tog‘ ketaveradi – ketaveradi, bolasini emizib boqaveradi. Bola esa og‘riqqa chidolmay battar ahvolga tushadi. Bo‘ri bolasi ming azob bilan o‘lmaguncha onasining yelkasidan tushmaydi.

Bo‘ri esa bolasi shu alfozga tushgan joyga qayta kelmaydi...

O‘sar ovchi bo‘rivachchaning orqasini maxsi yamaydigan yo‘g‘on ipda chinqiratib tikdi, keyin Mingbuloqqa olib borib tashlab keldi.

Keyingi yillarda yog‘ingarchilik kam bo‘ldimi, yo haqiqatan O‘sar ovchi tadbiri kor qildimi, qishloq atrofida bo‘rilarning qorasi ko‘rinmadi.

Oradan ancha vaqt o‘tib yana qalin qor yog‘di. O‘sar ovchi kaklik oviga borib qaytmadi.

Qarindosh – urug‘lar uni qidirib borishsa, Mingbuloqqa yaqin joyda archaning tagidan chiqadigan buloq oldida uning jasadini topishdi. O‘sar ovchining bo‘yni chaynab tashlangan, sog‘ ko‘zi ham kosasida yo‘q edi.

*Zoir Ziy*

### *Tazarru*

Juvon suvday jilolanib turgan nafis ko‘ylagini kiydi-yu, tirik baliqqa o‘xshadi qoldi: ko‘ylak uning belida, tarang siynalariga, tekis yelkalariga yopishib, oqqush misol uzun va silliq bo‘ynini yanada ochib yubordi.

“Nimayam qilardim – bexol shivirladi ayol shiftga chayqalib turgan arqonga qarab. – Shu ko‘ylagimni erim juda yaxshi ko‘rardi. Uni kiygan kunim u meni quchib o‘pardim... Endi bo‘lsa... Mayli, endi o‘ligimni quchsa ham armonim yo‘q”.

Juvon kursining ustiga chiqib, sirtmoqni boshiga kiygizarkan, ko‘zlaridan beixtiyor duvillab yosh quyildi. So‘ng devordagi osig‘liq suratga qaradi. Badani jimirlab ketdi. Suratdagi erkak baxtiyor, o‘zi esa suv parisi misoli nozli va go‘zal...

Juvonning tomog'iga bir nima kelib tiqilganday bo'ldi, bo'g'ildi, ko'zlari achishdi: "Ayol kishi nega bunchalar ojiza bunchalar zaifa qilib yaratilgan – a?" Kutilmaganda .....

Lang ochiq eshigi derazalar shamol surganday taraqa turuq ovoz chiqarib, yopilib qoldi. Oynavand tokchasidagi chinni idishlar u yoqdan – bu yoqqa surilib, qandil toshchalari bir – biriga urila boshladi. Juvon tevarak – atrofga ro'y berayotgan sirli xodisalarni anglab ulgurmay, shitob bilan dukirlayotgan yuragi taqqa urishdan to'xtab, joni sug'urib olinganday gilam ustiga qulab tushdi.

Nogoh, ayol tirildi. Yurak qaytadan tepa boshladi. Ajabo, unga yana bir yurak tepkisi qo'shildi. Ular endi qo'sh soatday xamoxang tarzda dukirlashardi. Shovqin – suronlar goh pasayib, goh kuchaydi, yerda yotgan juvonning tanasi esa birdan kengaya bordi. Pufakday shishgan yana bir vujud bunyod bo'laverdi. Xonada qarsillashlar tinganda ikki tana cho'chib uyg'ongandek qalqib oyoqqa turishdi. Ayol dag' – dg' titrab, tilga kirdi:

- Kimsan, mendan nima istaysan? Jonimni olsang olib qo'yaqol, faqat meni qiynama!

Juvonning nusxadoshi miyig'ida kulib qo'ydi:

- Menga sening joning kerakmas. Men seni jazolagani keldim.

Juvon sapchib tushdi:

- Nega?

- Sen go'zallikni dorga osmoqchi bo'lding! Bunga esa haqqing yo'q! Sen axir Ayolsan-ku! Shuning uchun ham haqqing yo'q!

Juvon nusxadoshiga uni eri tashlab ketganligini, uni juda qattiq sevishini, uning uchun hamma narsaga tayyorligini aytdi.

- Bas qil! – dedi nusxa. Seni u shuning uchun tashlab ketgan. Axir ayol sevilish uchun, mard yigitning ko'z o'ngida qo'l yetmas yulduzga bokira orzuga aylanish uchun tug'ilgan-ku! Yigitlar esa sevishga va bu muxabbatlari yo'lida xar qanday to'siqni mardonavor yengib o'tishga yaratilgan – deya juvonning ko'zlariga tik boqdi. Juvon unga qaray olmay yuzini yashirmoqchi bo'ldi. Ikkisining o'rtasida lov etib olov yondi...

Juvon gilamga “shilq” etib yiqildi. Birozdan so‘ng ko‘zlarini ochdi. Ochdi-yu, sapchib tushdi. Tevarak – atrofni ko‘zdan kechira boshladi. Hamma narsa joyida. Shiftdagi arqon joyida yo‘q. Devordagi surat esa, qo‘yib bo‘lgandi....

*Ernest Xeminguey*

### *Chol va dengiz*

“Hamma ish xamirdan qil sug‘urganday borayotgan ediki, oxirigacha shunday davom etishi mumkin emasdi ham”, - deb o‘ylardi u.

Akulaning yaqinlab kelishidan ko‘zini uzmay, chol azim baliqqa nazar tashladi. “Bularning bari, nafsilairga, tush bo‘lib qolsa ham yomon bo‘lmasdi. Men uning o‘zimga hujum qilishini oldini olamayman, ammo, balki, uni gumdon qilish qo‘limdan kelar? Dentuso, - hayolidan o‘tkazdi u. – padaringga ming lanat!”

Akula naq quyruqning o‘ziga yaqinlashib kelib, baliqqa tashlanishi bilan chol o‘ppondek ochilgan og‘zini va favqulodda do‘laygan ko‘zlarini ko‘rdi, baliq dumidan sal yuqoriga sanchilgan tishlarining kartillab, qirsillaganini eshitdi. Akulaning boshi suvdan chiqib turar, uning ketidan ko‘p o‘tmay yelkasi ham ko‘rinib qolgan edi. Chol akula jag‘lari ulkan baliqning tanasini hunuk tovush chiqarib, nimta – nimta qilayotganini xiyarkan, uning boshiga, ko‘zlarini qo‘shib turgan chiziq tumshug‘idan yuqoriga ketgan chiziq bilan kesishgan joyning o‘zginasiga gapun urdi. Haqiqatda esa, bunday chiiziqlar yo‘q edi. Og‘ir, tig‘simon zangori kallasiyu, lo‘q ochilgan ko‘zlar va g‘ijirlagan, turtib chiqqan, nima to‘g‘ri kelsa, shuni g‘ajib tashlashga tayyor turgan jag‘largina bor edi. Ammo o‘sha yerda akulaning miyasi joylashganidan chol uni nishonga olib nayza urgan edi. Qiyilib – qirchilib ketgan, qonga buyalgan qo‘llarida mahkam qisilgan gapunni urdi, urganda ham jon jaxdi bilan urdi. Urarkan, zarbidan hech bir umidvor bo‘lgani yo‘q, ammo qat‘iyat va alamjon qaxru g‘azab bilan urdi. Akula to‘ntarilib tushdi, chol uning ko‘zlari so‘nganini ko‘rdi, keyin akula arqonni tanigi ikki qayta o‘ralashtirib, yana bir ag‘darildi. Chol akulaning jon berganini, hamon o‘lim bilan kelishishini istamayotganini tushundi. To‘ntarilib yotarkan, u dumi bilan urar, jag‘larini g‘ijirlatar, suvni poyga qayig‘iday ko‘pirtirar edi. Dengizning u dumi bilan savalagan

joyi oppoq bo‘lib ketgan edi. Akula gavdasini (uchdan bir qismi) to‘rtidan uch qismi suvdan ko‘tarilib chiqdi, arqon tarang tortildi, qiltillab – qaltiradi va oxiri cho‘rt uzilib ketdi.

Akula bir muddat suv betida qalqib turarkan, chol hamon undan ko‘zini uzmay, qaragani – qaragan edi.

## TO'LIQ ASAR YOKI MURAKKAB ADABIY PARCHALAR

*Sobit Do'nanov qissasi asosida*

### *Arvona*

Mana bir haftadirki, Arvona – ona tuya – olis safarni ko'zlaydi. Mash'um taqdir uni bu g'anim yurtiga o'lja qilib olib kelganiga ham oz emas, ko'p emas yetmish kun bo'libdi. Shundan beri unga bu sexrli kuch tinchlik bermaydi: ko'ngli olisda qolgan ona yurtini qumsaydi, qandaydir bir ilohiy ohangrabo uni o'sha tomonlarga betinim undaydi.

Arvona tag'in bir narsani esidan chiqarmaydi. Bu tug'ilgan yurtining tuprog'i. o'sha tuproqda o'sgan o't-o'langina totli, uning ta'mi hamon tanglayidan ketmaydi, boringki, jismidagi barcha fazilat ham o'sha sarta'm giyohlardan. Shuning uchun ham u ko'pdan beri o'sha sarta'm o'tlarga yetaklab boruvchi yo'lga intizor. Bu armon o'z yurtiga yetmay ushalmaligini u aniq tiniq his etadi.

Arvona o'zi tug'ilib o'sgan yurtning qaysi tomonda ekanini yaxshi biladi. Shuning uchun ham u o'sha tomonga entikib, termulib, alohida bir mehr bilan boqadi. U endi bunaqa entikish-u xo'rsinishlardan, qolaversa ko'z yoshlardan hech qanday naf yo'qligini, o'zida bir jur'at topishi lozimligini tushundi, bir yo'lini qilib bu yerdan (jo'nashni) juftakni rostlashga jazm etdi.

Shu soniyada uning boshiga yilt etib bir fikr keldi. Bo'tasini bog'lab turgan nuxta iplarini o'tkir tishlari bilan g'ajib-g'ajib uzib tashlasachi.

Arvon bo'talog'ining nuxtasini, nuxtaga bog'langan ipini tumshug'I bilan turtib ko'rdi. So'ng ipining qoziqqa bog'langan tomonini og'ziga olib g'ajiy boshladi. Shunaqa g'ajidiki, xuddi g'animning biror a'zosi og'ziga tushib qolganday, bamisoli hamma o'chini shu arqondan olayotgandek g'ajiy boshladi. So'ng bo'talog'ini gavdasi bilan itarib yubordi. Arqon haligi g'ajilib, omonat bo'lib qolgan joyidan chirs etib uzildi. Quvonganidan tuya bechoraning ko'zlarida yosh tirqirab ketdi. So'ng orqa oldiga qaramay yo'lga tushdi. Sho'rlik, oldiniga nima bo'lganini anglamay qolgan bo'talog'i, ma'sumona baqirdiyu, onasining ketidan ergashdi...

Arvona ko'kragi bilan kesib yelib borardi. Hozircha orqasidan quvib kelayotgan ot do'piri eshitilmasdi.

Jiqqa terga tushib ketdi, jonivor ko'z yoshlarimi, yo terlaganimi ko'z qorachig'idan tomchilab oqardi. Shu payt orqadan ot tuyoqlari do'piri eshitildi. Ha, bu o'sha tuyachi chol jahl ustida qamchisini havoda o'ynatib, baqir-chaqir qilib chopib kelardi.

*Gi de Mopassan*

***“Hayot” romanidan “Ayni haqiqat”***

Janning nazarida yuragi oydin kecha singari kengayib, shivir-shivirlarga to'lib borayotganday va nogahon tunda g'imirlashayotgan behisob mavjudotlar singari tasodifiy istaklarning galasi singari jonlanayotganday edi. O'zi bilan tevaragidagi ana shu jonli poeziya o'rtasida qandaydir mushtaraklik bor bo'lib, yoz oshqomining sexrli oydinida boshqacha jonsaraklik, tutqich bermas umidlarning junbishini, baxt shabadasiga yaqinroq bo'lgan nimanidir smezayotgan bo'lardi.

Qiz shundan keyin sevgini orzu qila boshladi. Sevgi! Uning vujudida yaqinlashib kelayotgan sevgining vahimasi ikki yildan beri kuchayib borardi. Endi unga sevish erki berilgan, faqat uning istqiboliga peshvoz chiqishi kerak. Uning!

U qanaqa odam bo'larkin? Janna buni o'zicha tasavvur qilib ko'rmagan va hatto xayoliga ham keltirmagandi. O'sha erkak, o'sha-da bor gap shu.

Janna bir narsani, uni bor vujudi bilan sevishini, u esa qalbining bor quvvatini bag'ishlayajagini bilardi. Mana shunaqangi yulduzlar chaqnaq turgan oqshomlarda ikkovlari aylanib yurishardi. Qo'ltiqlashib, bir-birlarining pinjlariga kirganlaricha sayr qilishadi, bir-birlarining yuraklari qanday urayotganini ayon eshitib, yelkalarining taftini aniq tuyishadi, shunda sevgilari ham haroratlari yoz oqshomining lazzatiga omuxta bo'lib ketadi va o'rtalarida shunday yaqinlik vujudga keladiki, ikkovlari osongina, birgina tuyg'u kuchi bilan bir-birlarining ezgu fikrlarini ilg'ab olishadi.

Bu esa boqiy sevgilari davomida betin davom etaveradi.

Janna to'satdan go'yo sevgilisi shu yerda, yonida turganday ko'yga tushdi. Shunda boshidan to tovonigacha qandaydir bir narsa jimirlab o'tganday bo'ldi. U go'yo orzusini og'ushiga olmoqchiday beixtiyor ravishda qo'lini ko'ksiga bosdi.

Noma'lum kimsa istiqboliga ochilgan lablari nimagadir tekkanday bo'ldi, sal bo'lmasa xushidan ketayozdi – bahor nafasi unga sevgining ilk bo'sasini armug'on etganday bo'ldi.

Shu on qorong'ulikning qayerdandir, uying orqasidan, yo'ldan qadam tovushlari kela boshladi. Shunda jonsarak vujudining harorati, noiloj narsaga, baxtli tasodiflarga, g'ayritabiiy sezgilarga, taqdirning sururli ustaliklariga bo'lgan ishonch kuchi unga: “Xo'sh, mabodo o'sha bo'lsachi?” degan fikrni uqtirardi. Qiz o'tkinchining bir meyordagi qadam tovushlariga quloq solarkan, hozir darvozani taqillatib, boshpana beringlar, deyishiga gubha qilmasdi.

Yo'lovchi o'tib ketganidan keyin qiz chindan ham umidsizlikka uchragandek mung'ayib qoldi. Biroq o'sha zahoti umidlari xayoliy ekanligini anglab, telbanamoligidan kulimsirab qo'ydi.

*Gi De Mopassan*

*Rozalii Pryudan*

*(novella)*

Haqiqatda ham bu ish hammaga qorong'u edi. Sud xay'ati, sud raisi, xatto prokurorning o'zi ham jon – jahdi bilan urinishiga qaramay, ishning tagiga yetib bo'lmadi.

Mantalik Varambo janoblarining Rozami Pryudan degan oqsoch qizi ikkiqatligini xo'jayinlaridan yashirgan, kechasi hech kimga bildirmasdan o'z xujrasida tuqqani bolani o'ldirib, boqqa ko'mib qo'ygan.

Sud qilinayotgan xotin chiroyli, barvasta, o'z tabaqasidan bo'lgan xotintlarga qaraganda hiylagina shahar aksi urgan, quyi normandiyalik bo'lib, ko'zlaridan yosh to'kkanicha jim o'tirardi.

Ko'pchilikning fikricha, bu vaxshiyona ishni u jaxl ustida qilgan, negaki, uning hamma ishi to'ng'ich bolasini o'stirish umidida ekanligini ko'rsatib turardi.

Sud raisi qizni iqror qildirish uchun yana uni gapirtirishga urinib ko'rdi va nixoyat, qizga bu yerga yig'ilishdan murod uni o'limga xukm qilish emas, aksincha, unga beriladigan jazoni yengillashtirish kerakligini muloyimlik bilan anglatdi.

Shundan so‘ng qiz bir oz jur‘at paydo qildi. Uning so‘zlashga mayli paydo qilganini payqagach sud raisi:

- Xo‘sh, qani, endi aytib beringchi, bolaning otasi kim? – dedi.

Qiz xammadan xam shuni jonu dili bilan yashirmoqda edi. Qiz xozirgina og‘izlarini ko‘pirtirib uning haqida so‘zlab bo‘lgan xo‘jayinlariga tikilganicha:

- Jozef janoblari, u Varambo janoblarining jiyani bo‘ladi, - dedi.

Kutmaganda bunday gapni eshitgach er – xotin irg‘ib tushishdi va baravariga:

- Yolg‘on! Aldayapti! Rasvo! – deyishdi.

Sud raisi ularni jim o‘tirishiga majbur qildi, yana aybdorga qarab:

- Marxamat, davom etavering, bor xaqiqatni sudga aytib bering, - dedi.

- Ha, shunda Jozef Varambo janoblari, u kishi o‘tgan yil biznikiga otpuskaga kelgan edilar.

- Jozef Varambo janoblari nima ish qiladilar?

- U kishi, afandim, artilleriyada unter – ofiser. Yozda biznikida ikki oy mexmon bo‘lib ketdilar. U kishi menga ko‘z tikib yurganida, afandim, bunaqa ish ko‘nglimda ham yo‘q edi. Xudoning bergan kuni xushomad qiladi, aldaydi, afandim: bo‘shlik qildim. Ayniqsa chiroylisan, yoqimtoysan, menga juda yoqasan, deyaverganidan keyin o‘zimni tutolmadim. Menga bo‘lsa, endi yashirib nima qilay, u juda ham ma‘qul bo‘lgan edi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, unga qaramay bo‘larmidi. Axir yolg‘izman, yetimman, so‘qqa boshman. Yorug‘ dunyoda hech kimim, na ikki og‘iz so‘zlashadigan, na xasratimni aytadigan odamim bor. Na ota – onam, na opa – singlim, na kak – ukam, - xech kimim yo‘q. U men bilan birinchi gapirishgandayoq, xuddi ko‘pdan ko‘rishmagan akam kelganday bo‘ldi. Shunday qilib, bir kuni kechqurun daryoning bo‘yiga chiq, o‘sha yerda, hech kim xalal bermaydigan joyda so‘zlashib o‘tiramiz, dedi... Bordim... Undan keyin bilmayman, o‘zim ham bilmayman. Quchoqladi, unamadim... yo‘q... ishonasizmi, axir bo‘lmadi. Xavo shunaqa yaxshimidi, o‘z – o‘zidan odamning o‘pkasi to‘lib ketardi, uning ustiga oy... axir bo‘lmadi, rost, axir bo‘lmadi. Bilganini qildi. Uch haftagacha, to ketgunicha shu axvol bo‘ldi. Men u bilan dunyoning narigi burchagiga desa ham ketaverardim... Ketib qoldi. Xomilador bo‘lib qolibman, bir oydan keyingina bildim...

Qiz o'zini tutolmay shunday achchiq – achchiq yig'lab yubordiki, to o'zini tutib olgunicha kutib turishga to'g'ri keldi.

Keyin sud raisi mexrobda turgan ruxoniydek:

- Xo'sh, xo'sh, undan keyin, - dedi.

Qiz davom qildi:

- Xomilador bo'lib qolganimni bilishim bilanoq, doya xotin Buden xonimning oldiga bordim. Ana, so'rang, o'zi ham shu yerda o'tiribdi. Unga hammasini aytib berdim va agar doyasiz tug'ishga to'g'ri kelsa nima qilishim kerakligini so'radim. Undan keyin bolaning narsalarini tikishga tushdim. Xar kuni yarim kechadan oqquncha ish tikadigan bo'ldim. O'zimga uy ham topib qo'ydim, axir, xo'jayinlarimning xaydab chiqarishlarini bilardim-da. Faqat shu, bir amallab oxirgi kungacha shu joyda turish va ko'proq pul yig'ishning payiga tushdim. Axir, hech narsam yo'q, bola boqishga pul kerak.

- Demak, o'ldirmoqchi emas ekansizda?

- Voy, afandim, nimasini aytay! Xudo haqqi o'ldirmoqchi emas edim.

- Nega bo'lmasa o'ldirdingiz?

- Bu shunday bo'ldi. Kutganimdan oldinroq to'lg'oq tutib qoldi.

Oshxonada idish – tovoq yuvib bo'layozganimda dard tutib qoldi. Xo'jayinlarim uxlab qolishgan edi. Panjarani ushlab zo'rg'a xujramga chiqdimu o'zimni yerga tashladim, ko'rpa to'shaklarimga bir narsa tegmasin deb shundoq quruq yerga yotaqoldim. Qancha vaqt qiynalдим bilmayman! Bir soatmi, ikki soatmi, balki uch soatcha ham cho'zilgandir, og'riqning zo'ridan hech narsani bilmay qoldim. So'ng kuchim boricha bir quchangan edim, bola yerga tushdi. Rostni aytsam, shunday sevinib ketdim. Yerdan olib, Buden xonim aytgan ishlarining hammasini qildim. Birontasi esimdan chiqqani yo'q. Endi to'shakka yotqizishim bilan yana og'riq boshlandi! Shunaqangi og'ridiki, dunyo ko'zimga qop – qorong'i bo'ldi! Sizlar ham shuni bir ko'rsalaring edi, bir umr bolani orzu qilmas edilaring! Oldin cho'qillab qoldim, keyin mukkam bilan yerga tushdim, yana to'lg'oq boshlandi. Yana bir soatli, ikki soatli; yonimda bironta odam yo'q. Ikkinchisi tug'ilsa bo'ladimi. Ikkinchi bola-Y... buni qarang, ikkita-Y... rost... rost... ikkita... uni ham xuddi birinchisiga o'xshatib

yerdan oldim, avvalgisining yoniga yotqizib qo'ydim... Shunaqayam bo'ladimi, o'zingiz ayting! Egizak-a! Oyiga yigirma frankkina olsam. Qandoq qilay, o'zingiz o'ylang! Bitta bo'lsa ham go'rga edi... o'zim yemasam ham.... ikkinchisini! Boshim qotib qoldi... nima qilsam bo'lardi, aytingchi? Bittasini olib qolib... shunday qilsam bo'larmidi? Qayoqdan bilaman! Ha endi ekanman dedim... jon achchig'iga ustlariga yostiq tashladim.... ikkalasini boqqa olmaganimdan keyin... Uning ustiga o'zimni tashladim: tong otguncha yig'lab, ag'nab chiqdim. Bu orada, albatta, ikkalasi ham yostiq tagida dimiqib o'lib qoldi. Shundan keyin ikkalasining o'ligini olib boqqa tushib, bog'bonning kuragini topdim va ikki joyga zo'rg'a ikkita go'r qazidim. Yana onalari to'g'risida so'zlashmasin deb, ikkalasini ikki joyga ko'mib qo'ydim. Kim biladi, dunyoni ko'rmay ketgan bolalar onasi haqida so'zlashadimi, yo'qmi. Undan keyin uyimga qaytib keldim, yotdim. Shunday yomon bo'ldimki, o'rindan turib bo'lmadi. Doktor chaqirishdi, u ko'rishi bilanoq hammasini bildi...

Mana sudya janoblari haq gap shu. Nima qilsangiz qiling, men hammasiga tayyorman.

Sudyalardan ba'zilar ko'ziga kelayotgan yoshni qaytarish uchun xadeb burun qoqishardi, zaldan xotinlar xo'ngrab yig'lashardi.

- Ikkinchisini qayerga ko'mgansiz! – dedi sud raisi.

- Xa o'sha otning tagidagisi.

- Xa bo'lmasa unisi quduqni yonginasida.

Shunda qizning ko'krigidan yig'i aralash, yurakni tilka – tilka qiladigan ingroq otilib chiqdi.

Sud Pryudanni oqladi.

*Erkin A'zam*

### *Chapdast*

Urushdan o'ng qo'lsiz qaytgan salom tog'amizni jangda o'qqa uchgan akasining xotini, ya'niki yangasiga uylantirdilar. Yo'qchilikmi yo o'zga sababmi, shunaqa udumlar ham bor ekanda.

Tog'amiz el qatori o'g'il-qizli bo'ldi, nevara-chevara ko'rdi. Shu birgina chap qo'libilanro'zg'or-u xonadonni eldan ziyoda qilib qo'ygan bo'lsa qo'ygandirki, asti kam emas. Shu juftsizginasi bilan qo'lidan kelmaydigan ish yo'q edi xisob.

Ro'zai ramazon kunlari shirindan shirin nisholda pishiradi, alomat shakllar berib to'y-hashamga rang-barang holva-yu qandolat yasaydi. Doshqozon boshida turib olib, yakka-yu yolg'iz qo'lida shop tayoq, gird aylantirib cho'lpi urganida qiyomning bixi ko'pirishini ko'rgan qo'shqo'llilar beixtiyor chapak chalib yubormasa, mana, meni aytasiz.

Salom chapdast el orasidagi laqabi, birgina qo'li bilan ana shunday mirishkor edi.

Shu odam biroq shom chorpoyada yon boshlab yotib kampiriga maslahat soldi.

-Mayramboybicha men bilan shuncha yil ro'zg'or qilib biror kamlik ko'rdingmi? Hovli joying, bola-chaqangdan gapir!

-Xudoga shukur, hammasi binoyi, esli-xushli.

-Bo'lmasa, gap bunday Mayramoy. Bizni endi biruylantiribqo'ysangiz!

-Tuzukturingchol, siznibirbalourama? Shu yoshgakirib-a?

-Ho'-o' bir vaqtlar o'zing va'da qilib eding. "Sizni uylantirmoqqa bir uylantiraman. Dunyoga kelib, siz ham axir bunday ko'rib keting-da degansan, esingdami?"

-Aytgan bo'lsam aytgandirman – til qurg'ur suyaksiz. Lekin kelib-kelib endimi? Xo'p, kimni olib beraylik ayting? – deb so'raydikampir ham ermakka.

-Guloyni olib berasan!

Guloy deganlari Mayram yangamizga jiyan – opasining qizi, ko'zi tug'ma ojiz, qirq yoshlarni qoralagan, lekinoq-oppoqqina, so'lqillamabirnarsa, eng muhimi – erkak zotining nafasi tegmagan; otasi o'lib, onasi bilan yolg'iz yashaydi.

-Tur, taraddudingni ko'r, ertaga opangnikiga so'rab borasan, tamom, deydi tog'amiz.

Cho'nqayib o'tirgan yangamiz o'rnidan turolmay bira to'la yerga yalpayib qoladi.

U ertasi kuni hech yerga borolmaydi. Eshitganlar o'zlari keladi. Hovli, bola-chaqa, qo'ni-qo'shni to'lib ketadi.

-Mayli, bir-ikki kun sabrqilaylikchi, balki, o'zigakelibqolarbuesiniyeganchol, - deydikampirbolalarinitinchlantirishxayolida.

Ishq dardiga muhtalo bo'lgan Salom chapdast esa ha deganda o'ziga kelavermaydi. Har oqshom guzardan qaytgach, chorpoyada yon boshlab olib o'sha g'alvani boshlaydi: "Borasancha, borasan! Bo'lmasa, qarab tur, bir kuni o'zim Guloyingni eshakka mingashtirib kelmasam – bu qo'limniyam chopib tashlayman" – deydi.

Anavi kata urushda karam qilmagan xudoning bus afar rahmi keldi – Salom tog'amizning arzanda qo'li omon qoladi. Chunki, shuncha yildan beri ko'z ko'rib, quloq eshitmagan ajab savdo yuz beradi: Oftob xolaning uyini ust-ustiga sovchi bosa boshlaydi. Xotini o'lgan ham shuyerd, keksabo'ydoq ham shuyerd, kar-u ko'r ham shuyerd!

Bu ishlarni kim qildi dersiz? Kim biladi xudodandirda. Nihoyat, issiq-sovuq marakalarda choy tashib yuradigan, telbanamo bir kimsaga fotixa qilib yuboriladi. Guloy! O'sha oqshom Salom chapdast, ko'p zamondan beri ichkilikni og'ziga olmagan mo'ysafid guzardan gandraklab qaytadi. Chorpoyasida yota-yota, bir mahal hovlini boshiga ko'targudek bo'lib fig'on aylaydi.

Mastligidagi shu qilmishidan nomusda Salom tog'amiz keyin talay kunlar birovning betiga qaray olmay gungurs yuradi.

Ko'p o'tmay alomat oshiq Salom chapdast eshakdan yiqilib bir kunda o'ladi – qoladi.

"Eshagi Oftob xolaning arig'iga toyib ketgan emish" degan gaplar ham chiqdi. Bunisini endi kim ko'ribdi deng! Azada Mayram yangamizning "Dunyoga kelib hech nima ko'rmay ketgan to'ramov" deya yig'i qilganini esa men o'z qulog'im bilan eshitganman.

Shu, shugina...

*Bo'ri*

Tog'ning narigi tomoniga o'tgan ham ediki, qishloq ustidan chiqdi. Kech kirib borardi. Bo'ri qalin o'sgan archazor ichiga kirib, nafasini rostladi. Qishloq molxonalarining ilim-iliq hidi dimog'iga urildi-yu, asta bog'qo'ralar ustidan oshib o'tdi. Ko'chada hech zog' yo'q. og'zidan so'lagi oqib, qo'raga qo'rqa-pisa o'zini uylar orasiga urdi. Shu zahoti o'q ovozi yangradi. U o'zini tutib, endi yugurmoqchi ham bo'lgan ediki, qarsillab ikkinchi o'q uzildi. O'q nishonga tekkandi, oqish qornining quyi qismidan yirik qon tomchilari tirqiray boshladi. Bo'ri bor kuchini to'plab, hakkalay-hakkalay nihoyat, narigi tarafga tog' bag'rida joylashgan o'rmonzorga yetib bordi. U yerda bir zum tevarak-atrofga diqqat bilan quloq solgan edi, ikkala tarafidan ham odamlarning ovozlari va qadam tovushlari eshitildi. Qo'rqa-pisa toqqa razm soldi. Tog' nishab, serdaraxt, unga chiqib borish ancha mushkul edi. Biroq, boshqa yo'l ham yo'q edi. Yaralangan bo'ri nimqorong'i archazor bo'ylab dir-dir qaltirab borar tanasidan jigarrang qon tizillab oqardi.

Holdan toygan, tinka madori qurigan bo'ri nihoyat tepalikka bir amallab chiqib oldi. U endi Mont Crosin degan joy yaqinida, o'zi arang qochib chiqib kelgan qishloq uzra cho'zilib ketgan yarim nishab, qalin qor qoplagan keng maydonda turardi. Ochlikni sezmas, biroq jarohati simillab og'rib benihoya azob berayotgandi. Osilib qolgan bo'g'zidan asta bilinar-bilinmas nido keldi, yuragi og'ir ura boshladi, muqarrar o'lim sharpasi zildek yuk bo'lib bosayotgandek bo'lib tuyuldi. Shunda bexosdan shoxlari tarvaqaylab o'sgan yolg'iz archaga ko'zi tushdi, archa tagiga borib g'ira-shira tun qa'riga ma'yus tikilib qoldi. Oradan yarim soat vaqt o'tdi. Kutilmaganda qor ustida g'alati va mayin xira qizil nur paydo bo'ldi. Bo'ri g'inshib joyidan qo'zg'aldi, yorug'lik tomon intildi. U janubi-sharq tomondan kata va qip-qizil bo'lib chiqqan, g'ira-shira osmon uzra tobora ko'tarilib borayotgan oy nuri edi. Ancha vaqtdan beri u bu qadar qizarib to'lishmagandi. Asta-sekin jon taslim qilayotgan jonivor xira, tussiz oy gardishida boqarkan, kuchsiz xirillagan ovozi unsiz tun qa'riga singadi. Chiqroqlar ko'tarib olgan odamlar paydo bo'ldi. Qalin palto kiygan dehqonlar, mo'yna telpak va beso'naqay issiq paypoqli poyafzal kiyib olgan

ovchilar, yosh-yalang yigitlar qorni bir-bir bosib kelishardi. Hamma shodon qiyqirardi. Harom qotayotgan bo'rini ko'rib qolib, unga ikki marta o'q uzishgan, ikkalovi ham tegmagan. Qarashsaki, o'zi jon talvasasida, shunda unga tayoq va so'yillar bilan yopirilishdi. Bo'ri buni ortiq sezmedi ham. Tilka pora bo'lgan bo'ri jasadini Sank-Immer tomon sudrab olib ketishdi. Hammalari kulishar, bir-birlariga maqtanishar, araq va qahva ichib xursandchilik qilishar, ashula aytishar, so'kinishardi. Qalin qor qoplagan o'rmon go'zalligini baland yassi tog' yog'dusini, ov miltiqlarining millari, billur qor zarrachalari hamda o'ldirilgan bo'ringning so'nik ko'zlarini g'ira-shira yoritib, Shasseral tog'i uzra osilib turgan yorug' oyni esa hechkim ko'rmas edi.

*A.P. Chexov*

### *Chiqdi*

Tushki ovqatni yeb bo'lishdi. Qorinlar to'yib, dimog'lar chog', esnash, shirin uyqi bosib, ko'zlar biyo – biyo. Er sigara chekdi, kerishdi va kushetkaga o'zini tashladi. Xotin uning bosh tomoniga o'tirib, mushukka o'xshab xirilladi... er – xotin baxtiyor edi.

- Gapirsangchi, - dedi er esnab.

- Nima deyin? Hm... Ha aytganday! Eshitdingmi? Sofiya Okurkova haligi oti nima edi-Y... Fon Trambga tegipti! Buni qara-ya!...

- Tegsa tegiptide, nima qipti?

- Tramb razil odam-ku, axir! Shunday ham yaramas... shunday ham vijdotsiz odam-ki! Hech tayini yo'q! Ahloq jihatidan mayib! Grafning ish boshqaruvchisi edi, shuning orqasida ko'p dunyo ortdirdi, endi temir yo'lda ishlab o'g'irlik qiladi... singlisini g'orot qildi... Qisqasi ko'p yaramas o'g'ri... Shunaqa odamga tegadimi kishi?! Shu bilan umr qiladimi kishi! Hayronman! Shunday binoyi qiz bo'lsa-Y... shunaqa qilib o'tirsa! Bunaqa odamga men o'la qolsam tegmas edim! Millioner bo'lmaydimi! Dunyoda yakka-yu yagona chiroylik bo'lsa ham aftiga tuflar edim. Toqatim bormi razil erga!

Xotin irg'ib o'rnidan turdi va qip qizargan holda uyda nari – beri yurdi. Uning ko'zlari g'azabdan yonar, uning so'zlari samimiy ekanligi ochiq ko'rinib turar edi...

- Bu Tramb shunaqa mahluq. Shunaqa janoblarga tegadigan xotinlar o'larday ahmoq, o'larday sharmanda xotinlar!

- Hm... Sen, albatta, tegmas eding... Hm... Bordi-yu men ham razil odam bo'lsam-chi? Shuni bilib qolsang nima qilar eding?

- Menmi? Sendan chiqar edim! Bir sekund ham sen bilan umr qilmas edim! Men faqat pok kishini yaxshi ko'ra olaman, xolos. Agar sen Tramb qilgan ishlarning yuzdan birini qilganingni bilib qolsam bormi... tamom!

- Hm... Hali shunaqaman degin... Men bilmagan ekanman. Ha – ha – ha... Baqrayib turib yolg'on gapiradi-ya!

- Men umrimda yolg'on gapirgan emasman! Qani, razillik qilib ko'rchi, nima qilar ekanman.

- Nima hojati bor? O'zing bilasan... Men o'sha sening fon Tramingni bir cho'qishda qochiraman! Trambni menga qaraganda kisavur desa bo'ladi. Nega ko'zingni lo'q qilasan? Ajib...

- Men necha pul oylik olaman?

- Bundan bir hafta burun olib berganim marvarid necha pulga keldi? Ikki ming... Shunday emasmi? Kecha olib bergan ko'ylagim besh yuz... dacha ikki ming... Ha – ha – xa... Kecha otaxonning bir mingni eplab ketdi...

- Axir, Pyer, boshqa daromadlar ham...

- Otlar... Xonaki doktor... Mashinachilarning schetlari. Bundan uch kun burun yuz so'mni o'zing kartaga boy berding...

Er boshini ko'tardi, chakkasiga mushtini tirab, butun boshlik bir aybnoma o'qib berdi: yozuv stolining yoniga borib bir necha dalil va xujjatlar ko'rsatdi...

- Mana, ko'rdingmi, jonim, mening oldimda sening fon – Traming chakana o'g'ri, kissavur. Minba'd birov to'g'risida bunaqa dema!

Men hikoyani tamom qildim. Ehtimol o'quvchi:

- Xotin eridan chiqdimi? – deb so'rar.

- Ha... narigi uyga chiqdi.

## HAJVIY ADABIY PARCHALAR

*Vasiliy Shukshin*

### *Dumbul*

Dumbul shaharliklarni hurmat qilardi. Hammasini emas albatta: bezori va sotuvchilarni hurmat qilmas, ulardan xayiqardi.

Uning navbati keldi. Konfet uch plitka shokolad, teshik kulcha sotib oldida, xarid qilgan narsalarni chemodanga joylash uchun chetroqqa o'tdi. Chemodanini yerga ochdi, sovg'alarini sola boshladi... Shu payt ro'pparasidagi pesh taxtaga ko'zi tushib qoldi. Yerda odamlarning oyog'i ostida 50 so'mlik pul yotardi. Qovurg'asi sinmagan shapaloqdek ko'p elliktalik shundoqqina yerda yotar xech kim ko'rmas edi. Dumbul quvonchidan titrab ketdi. Ko'zlarida o't yondi. Birortasi o'zidan oldin aytib ko'ymaslik uchun navbatda turganlarga buni mumkin qadar xushchaqchaq yo'sinda ma'lum qilish maqsadida shosha – pisha aqlliroq gap qidira boshladi.

- Ja...me'dalaring to'q ekan, grajdanlar! – dedi baland va quvnoq oxangda.

Hamma unga yalt etib qaradi.

- Masalan, biz tomonlarda bunaqa pullarni oyoq ostiga olib tepkilashmaydi – bu gapini eshitib xiyol xayajonga tushib qolishdi. – Uch so'mmas, besh so'mmas butun boshli elliktalik – a! Shuncha pulni topish uchun o'n besh kun ishlash kerak. Shundoq paytda pul egasiz bo'lib yotsa!

“Anavi shlyapali tushirgan bo'lsa kerak” deb taxmin qildi Dumbul.

Pulni besh taxtaning ko'zga ko'rinadigan joyga qo'yib kutishga qaror qildilar.

- Xozir egasi xovliqib kelib qoladi – dedi sotuvchi ayol.

Dumbul magazindan kayfi choq bo'lib chiqdi. “Masalan biz tomonlarda bunaka pulni oyoq ostiga olib tepkilashmaydi” – dedimmi. Bopladida. Gapning qo'yilmagan xadeb chiqqani xadeb unga zavq bag'ishlardi. Birdan taqqa to'xtadi. Omonat kassadan o'ziga shunaqa elliktalik va bitta yigirma besh so'mlik berishgani esiga tushdi. Beshtalikni xozir maydaladi, elliktalik cho'ntagida bo'lishi kerak. Cho'ntagiga qo'l suqsa – yo'q.

U yoq bu yoqni qaradi yo'q.

- O‘zinning pulim ekanku! deb yubordi Dumbul. – Voy onangni o‘zirniki ekanku!

Alam qilganidan yuragining tagidan bir narsa yig‘lab ketgandek bo‘ldi.

*Tohir Malik*

### *Navoiy qo‘y boqqanmi?...*

Xukmingizga havola etilajak bu voqea hozir uchramaydi. Endi zamon o‘zgacha. Yigirma – o‘ttiz yil avvalgi kunlarimiz esga tushsa yomon tush ko‘rganday cho‘chib ketamiz.

Oliy o‘quv dargohiga kirmoq uchun qanchalar azoblar chekkanmiz-a! Qanchalar og‘ir imtixonlardan o‘tganmiza. Olamga tatiydigan kitoblarni o‘qib sinovlarga tayyorlanganmiz-a! Bu azoblarsiz ham bo‘lar ekan-ku a? Mayli bu yog‘iga o‘tmaymiz. O‘tmishga mo‘ralamaymiz. Maqsadimiz: yoshlar bugungi imtixonlarning qadriga yetishsin. Yoshlar bu bayonimizni o‘qiguday bo‘lishsa ishonmasliklari aniq. Shu bois yozganimizni “hangoma” yoki “hikoya” emas “ertak” deb qo‘ydik.

Bu voqea Amerikadagi chuvalchanglar Angliyaga ko‘chgan yili sodir bo‘lgan edi.

O‘sha yili Dumbultoy maktabni bitirdi-yu “institut” deyilguvchi dargoxga o‘qishi zarurligi otasi tomondan iroda qilindi.

Maktab bilan xayrlashar chog‘larda “mustaqil hayotga qadam qo‘yapsizlar” deb muallimlaridan oq yo‘l tilagani olgan yigitchalar mustaqil hayotga qadamni samovarxonada qo‘ya boshlagan edilar. Dumbultoyning bir oz kech qolgani ularning tanbehi bilan “Oshga ham opazdat qilasanmi?” degan savolga “Ertaga imtixon, domlaga uchrab kelayapman” dedi. So‘ng do‘sti Sadirga yuzlandi:

- Sen adabiyotni yaxshi bilasan “Navoiy va Pushkin” nima degani o‘zi?

- O‘ barakalla, bu mavzuda yarim kun gapirish kerak dedi Sadir, keyin ko‘zlarini yumib, she‘r o‘qiy boshladi. “Menga Pushkin bir jaxoni menga Bayron bir jaxon, lek Navoiydek bobom bor”.

Sadir o‘qiy boshlagan she‘rni oxiriga yetkaza olmadi.

- Bobongni qo‘yib tur, bor, osh lanch bo‘lib ketmasin – dedi Jo‘raboshi. Navoi bu Pushkin masalasi shu joyda xal etildi. Oshdan keyin qayta so‘rash Dumbultoyning esiga kelmadi. Ertasiga ertalab boshi karaxtroq xolda turib, Sadirning gaplarini eslamochi bo‘ldi. “Menga Pushkin olam jahon” dedimi. Keyin nimaydi? Ha Vayron debdi. Nimani vayron qilishi kerak ekan? dumbultoy miyaga zo‘r berib. Satrni tiklaganday bo‘ldi: “Manga Pushkin olam jahon, tanga vayrondir jahon”. Dumbultoy o‘zi tiklagan satrga o‘zi ham ishonqiramay yana o‘yladi. “Balki “vayron” emas, “ayrondir?” Pushkin degani balki ayron ichgisi kelganda yozgandir buni. “Navoiy bobom bor” deb gapni chala qildi. Pushkin ayron ichmoqchi bo‘lsa “qo‘yib berishga Navoiy bobom bor” demoqchimidi?

Unda Navoiy ayronfurush bo‘ladimi? Dumbultoy uzoq o‘ylashni yoqtirmasdi. “Bir gap bo‘lar” deb shartta qo‘l siltadi-yu imtixoniga jo‘navordi.

Dumbultoy uchun uyalish, dovdirash, birovning salobatidan cho‘chish kabi odatlar begona edi. Shuning uchun tortinib o‘tirmay, imtixon xonasiga dadil kirdi. Dallol yigitni ko‘rsatmasiga amal qilib tiliga kelgan so‘zlarni qaytarmay, asosiy savollarga dadil – dadil “javob berdi”. Javob berishga navbat kutib o‘tirgan bolalarning xirgir – xirgir qilgisi e‘tiborga olinmasa uning javoblari diqqat bilan tinglandi. Ayniqsa, imtixon komissiyasi a‘zosi kiprik qoqmay diqqat bilan eshitdi. Nihoyat, navbat “besh” bahoni ta‘minlash lozim bo‘lgan qo‘shimcha savolga keldi.

- Navoiy va Pushkin... – dedi o‘qtuvchi Dumbultoyga xadiksirab qarab. Uning bu qarashida “Shoirlarning nomlarini eshitganmikin?” degan qo‘rquv bor edi: - Ularning ijodini qanday o‘rganamiz?

- Nishtyak qilib o‘rganib tashlaymiz – dedi Dumbultoy javobini xayallatmay. – shunaqa zo‘r o‘rganib tashlaymizki, ularning o‘zlari ham qoyil qolishadi. “Ko‘rib qo‘y Pushkin bratdan va bo‘ye bunaqasi bo‘lmagan” – deydi Navoiy.

Bu javobni eshitgan o‘qtuvchining peshonasi alam bilan silashdan o‘zga chora qolmadi. “Endi baloga qolishim aniq” degan qo‘rquvda komissiya a‘zosiga o‘g‘rincha qarab qo‘ydi. navoiydan, Pushkindan ikki satr she‘r aytib berishni ortiqcha edi. Dumbultoy esa xali beri gapni bas qiladigan emasdi. O‘qtuvchi o‘zini bosishga,

achigan gaplarni toqat bilan tinglashga qanchalik urinmasin, oxiri o'zini tutolmay piching bilan savol berib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi?

- Navoiy Pushkinni taniganmi? Savolni berishga berdi-yu, ilonning dumini bosib olganini anglab rosmanasiga qo'rqib ketdi. Komissiya a'zosiga yana qarab oldi. Xayriyat Dumbultoy bu jiddiy savoldan dovdirab qolmadi: qo'lini orqasiga qilib, boshini sal yuqori ko'tarib, javobni tezlashtirdi.

- Navoiy bilan Pushkin bitta ulfatda bo'lishgan. Institutda o'qib yurishganda Navoiy Pushkinga qarab: "Ke bratan she'r, per yozaylik" degan. Pushkin "Xop okaxon" degan. Xullas u – bu yozib gazetga yuborishgan. Shunaqa qilib statyalar chiqib turgan. Keyin zo'r shoir bo'lib ketishgan.

O'qituvchi Dumbultoyni so'zdan to'xtatish maqsadida komissiya a'zosi gapga chechan bu bolaga maxliyo bo'lib o'tirgandi. O'qituvchining murojatidan so'ng dovdiratib tashlaydigan savol bermoqchiday bir o'ylanib oldida. Dumbultoy qattiy tikildi.

- Aytingchi, birodar... qo'y boqishganmi?

Bu savol xonadagi barchani hatto Dumbultoyni ham gangitib qo'ydi. Qoyil qolish kerakmi, birinchi bo'lib Dumbultoy o'zini qo'lga oldi va yanada dadil gapirib ketdi. Qoyil qolish kerakmi:

- Rosayam boqishganda! – shu payt uning yodiga kecha samovarxonada Sadir aytgan satr tushdi:

- Ular ayron ichishni yaxshi ko'rishgan. Serka degan qo'chqorlarini oyilari sog'ib, ayron qilib bergan.

- Kimning oyisi, aniqroq ayting – dedi komissiya a'zosi.

- Pushkinning oyisida: u yoshligida kolxozga sut sog'uvchi bo'lib ishlagan.

Komissiya a'zosi "ma'qul" deb bosh irg'ib qo'ydi. O'qituvchi uning qulog'iga shivirladi.

- Javoblari durust, a? "Besh" qo'yamizmi?

"5"ga tortmay turibdi. Javobda bitta hatto qildi – dedi komissiya a'zosi. "Serka" degani qo'chqor emas, ishni bo'ladi.

O'qituvchi ajablanib turdi-da yana pichirladi.

- Navoiy bundan besh yuz qirq yil muqaddam yashagan zot. U davralarda “qo‘y”, “serka” she‘riy qofiyaga yaxshi tushadi. Akademik Rubenning asarlarida bu alohida qayd etilgan.

- Buni men ham bilaman, dedi komissiya a‘zosi qoshni chimirib.

- Men bugungi kun nuqtai nazardan aytayapman. Umuman... sizga qo‘shilaman. Bunaqa yigitlarga faqat besh qo‘yish kerak.

Dumbultoy imtixonni topshirdiyu, tashqarida kutib turgan og‘aynilariga shunday xisob berdi:

- Dogovor bitta bo‘lsa ham u nomardlar 2 ta qo‘shimcha savol berishdi. Rosayam ekan. Ammo qiyib tashladim, churq etolmay qolishdi, - Dumbultoy komissiya a‘zosining savoliga bergan jovobini to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligiga o‘zi ham gumonda edi. Gumonni aniqlashtirish uchun Sadirdan so‘radi:

- Navoiy qo‘y boqqanmidi?

Sadirga bu savol g‘alati tuyuldi. Dumbultoy xazillayapti deb, o‘ylab, xazil bilan javob berdi:

- Yo‘q u mol boqqan, xozir ham uncha – buncha boqib turadi.

Ilova: Har bir ertakning nihoyasida bo‘lgani kabi Dumbultoy ham murod-maqsadiga yetibdi. Biroq, komissiya a‘zosining qo‘shimcha savol bergani barcha uchun sir bo‘lib qolaverdi. Bu sirdan faqat kaminagina voqifdir. Agar qiziqsangiz, bayonni erinmay o‘qiganingizning mukofoti sifatida sizga aytishim mumkin: komissiya a‘zosining familiyasi Masoliyev, asosiy hunari zootexnik bo‘lib, Markaziy imtixon komissiyasi kotibasining xatosi tufayli adabiyot muallimi Mirsoliyevning o‘rniga yuborilgan edi. Adabiyot muallimi qayerda edi, deysizmi? Qayerda bo‘lardi, bo‘lajak mol do‘xtiri unga zoologiyadan imtixon topshirishayotgan edi.

*Salohiddin Sirojiddinov*

### *Olib qoling issiq non*

Teatrda spektakl namoyishiga oxirgi tayyorgarlik ishlari ketmoqda. Ma‘murjon spektaklda kichik bir rolda chiqishi kerak. Lekin bir to‘yni o‘tkazib berishga va‘da

qilgan. Ko‘a xamkasblaridan “Mening o‘rnimga chiqib ber”, deb iltimos qildi. Hammasidan rad javobini oldi. Oxiri direktorga murojaat qidi:

- Qodirjon aka, bilasiz, yordamchi truppada aktyorman. To‘ylarga yurmasdan iloj yo‘q. Bugun ham nozik joydan to‘y olib qo‘yganman. Birrovgina bozor sahnasida chiqadigan joyim bor, xolos. Ijizat bersangiz, shu sahnada chiqsam ham, chiqmasam ham hech narsa o‘zgarmaydi, - deya yolvordi Ma‘murjon.

- O‘ylab gapiryapsizmi? Teatr sizga o‘yinchoqmi? Gapni ko‘paytirmang. Yo‘q dedimmi, yo‘q. Tammom vassalom.

Direktor bilan ish bitmasligiga ko‘zi yetgan Ma‘murjon bosh rejissyor Qulmuhammad akaning yoniga kirib, u yerdan ham bo‘shashib chiqdi.

Ma‘murjon rejissyor yordamchisi Usmonga yaqinlashdi.

- Bugun siz spektaklni olib borasizmi?

- Ha, men, nimaydi? – so‘radi Usmon.

- To‘yim bor edi. Bozor sahnasida birrovgina o‘tib ketadigan joyim bor, xolos.

- O‘rningizga kim chiqadi? – dedi Usmon.

Ma‘murjon xuddi shu gapni kutib turgan edi. O‘sha rolni o‘zimdanda ham qoyil ijro etadigan odamni topib beraman, dedi. Usmon rozi bo‘ldi. Ma‘murjon shoshib zaldan chiqib ketdi. Qorovulxonaga yaqinlashib Mamat akaga quyruq salom berdi.

- Aka, faqat siz qutqara olasiz meni. Nozik joydan to‘y olib qo‘ygandim. Bormasam boshim baloga qoladi. Bugungi spektaklda bozor sahnasida chiqadigan joyim bor. O‘rnimga chiqib bersangiz. Qiyin emas, bir savat nonni ko‘tarib yoningizdagilarga “Issiq non, olib qoling” deb o‘tib ketasiz, tamom vassalom. Avval ham bir ikki spektakllarda ommaviy sahnalarda qatnashsangiz, shundaymi?

- Teatrga qiziqqanim uchun shu yerda ishlayapman-da uka, - dedi yuzi yorishib ketgan Mamat aka. – Rejissyorga ko‘p bora aytganman, menga mos rol bo‘lsa bering, deb, bermaydi.

- Yashang aka, yuring Usmonga uchrashaylik, - deya Ma‘murjon shoshib Mamat akani yetaklab Usmonga uchrashtirdi. Kiyim sexiga olib borib kiyintiring, rolingizni tushuntiring, kelishdikmi? – deya gapni qisqa qildi Usmon.

- Xo‘p bo‘ladi, rahmat Usmonjon.

Ma'murjon Mamat akani kiyimxonaga olib bordi, kiyintirdi, qo'liga bir savat non tutqazdi, rolini tushuntirib xayrlashib chiqib ketdi. Spektakl ruhiyatiga mos ravishda kiyinib olgan Mamat aka yonida bir savat non bilan qorovulxonada o'tirardi. Qo'chqor aka shoxmot bilan qorovulxonaga yaqinlasharkan, xayratlanib tikilib qoldi.

- Iye, iye, tinchlikmi, Mamat aka? – deya so'radi Qo'chqor.

- Ma'murjon iltimos qildilar, “bozor” sahnasida chiqaman. – Kerak paytda birovlarini qo'llasangiz, sizni Xudo qo'llaydi, - deya maqtab qorovulxonaga kirib keldi, shoxmotni stolga qo'yib so'radi: - O'ynaysizmi?

- Men haligi... – deya ikkilandi Mamat aka.

“Bozor” sahnasi ikkinchi pardada-ku, sizni bir ikki mot qilishga ulguraman, - deya Qo'chqor qitig'iga tegdi.

- Ko'ramiz, kim kimni mot qilarkin? – deya Mamat aka astoydil o'tirib shoxmot donalarini tera boshladi. O'yin qizib ketdi, Mamat aka rolda chiqishini unutdi. Kattabekov ularning yonidan o'tarkan, xayrlashdi. Shunda Mamat aka boshini ko'tarib shoshib so'radi:

- Iye, spektakl tugadimi?

- Yo'q, yana o'n daqiqacha bor. Mamat aka shoshib savatni olarkan, Qo'chqorga dedi:

- Siz terib turing, men darrov kelaman, va'da bergandim, chiqmabsiz, deb xafa bo'lib yurmasin. Qo'chqor donalarni tera boshladi. Mamat aka savatni ko'targanicha sahnaga kirib bordi. Buni Usmon ham payqmay qoldi. Sahnada hayajonli daqiqalar... Qorabotir bilan Tohir qilichbozlik qilishmoqda hammaning ko'zi sahnada. Mamat aka Zuxraga yaqinlashib, “Olib qoling, issiq non” dedi. Zuhra alam bilan nari ketdi. Malikaning qornilari to'q ekan deb o'ylab, Qorabotirga yaqinlashdi:

- Issiq nondan yeb oling uka! - deya savatni Qorabotirga tutdi.

Sahna chetida Usmon yuragini changallaganicha devorga suyanib qoldi. Kiyim sexida ishlovchi Mastura sahna chetida turib yig'lab spektakl ko'rayotgandi. U Zuxraga yuzlanib Zuhraxon, spektaklda bunaqa joyi yo'q edi-ku, dedi. Tohir qilichini

uloqtirib sahnadan chiqib ketdi. Mamat aka esa sahnaning boshqa tomonidan chiqib o‘zining qorovulxonasida yo‘l oldi.

*Ilhom Zoyir*

### *Ro‘molcha*

O‘sha kuni Otello ko‘chadan kayfiyati buzilib keldi. E yo‘q, be yo‘q, eshikdan kira solib oshxonada kuymalanib yurgan xotiniga baqira ketdi.

- Dezdemona, ro‘molcha qani?

- Qanaqa ro‘molcha? - dedi Dezdemona qo‘rqa pisa.

- To‘y kuni senga bergandim-ku!

- A, - dedi Dezdemona eslaganday bo‘lib, - o‘shani so‘rayapsizmi? Birorta bo‘g‘chaga tiqib qo‘ygandirman. Nimaga kerak bo‘lib qoldi? Ertalab cho‘ntagingizga tozasini solib qo‘ygandim-ku...

- Yo‘q! Menga o‘sha ro‘molcha kerak! Hozir topib ber!

- Sabr – toqat degan narsa yo‘g‘-a, sizda, - dedi Dezdemona erinchoqlik bilan javondagi bo‘g‘chalarni bir – bir bo‘g‘chadan chiqmadi. Kechgacha uyning barcha teshik – tuynuklari qarab chiqildi, lekin ro‘molcha topilmadi.

Toqati toq bo‘lgan Otello masalani ko‘ndalang qo‘ydi.

- Ertagacha ro‘molchani topib bermasang, bilib qo‘y – katta ko‘cha!

U yuzini devor tomonga burib, divanda g‘ujanak bo‘lib yotib oldi.

- Bitta ro‘molchaga shunchami! Hayriyat, kattaroq narsa emas ekan. Bira to‘lasi urib o‘ldirarkansiz-da, a, - degan Dezdemona, arazlagan bo‘lib yotoqxonaga kirib ketdi....

Otello tong saharlab xizmatga jo‘nadi. U qanchalik erta kelmasin, qo‘li ishga bormadi. Ich – etini nimalardir kemirar, lekin nimaligini o‘zi ham bilmasdi.

Kechadan beri tuz totmaganidan qorni tatalab ketdi. Biror yegulik yeb olgani qaxvaxona tomon yurarkan, yo‘lakda – o‘zini Otelloga yaqin do‘st deb yuradigan, doimo po‘rim kiyinadigan olifta Yago uch – to‘rtta yosh xodimni og‘ziga qaratib: “Fabrikaning yo‘lidan, ro‘molcha topib oldim”, deb aytgan gapi noxos qulog‘iga

chalindi va Dezdemonaning: “Fabrikadan ish qidirib ko‘rsammikin. Uyda o‘tiraveramanmi, ishlasam, harna ro‘zg‘orga foyda”, deganlari esiga tushdi.

Otelling qarashlariga dosh berolmagan Yago esa “topib olgan” ro‘molchani shosha – pisha cho‘ntagiga tikdi-da, baland ovozdada:

- Topib oldi demanglar, mexnatga sotib oldim, - dedi.

Yagoning avvaliga “topib oldim”, so‘ng “sotib oldim”, degan tuturiqsiz gapi Otelling xayolini ayqash – uyqash qilib yubordi.

Otelling tomog‘idan yana hech narsa o‘tmadi. Tushdan so‘ng mazasi qochayotganini bahona qilib ketdi.

- Dezdemon, kecha mendan nimani yashirding?! – dedi Otello eshikdan kira solib.

- Nimani yashiribman? – dedi hayrati oshgan Dezdemon. – Sizdan bemaslahat biror ish qilibmanmi?

- Kecha fabrikaga ish qidirib borganmiding?

- Yo‘q. Bormadim. Hozir fabrikada ish yo‘q ekan. Ishchilarga ham olti oydan beri maosh berolmayotganmish. Dugonamga qo‘ng‘iroq qilsam, shunaqa dedi.

- Kim u – dugonang?

- Siz bilan birga ishlaydigan, do‘stingiz Yago akaning singlisi – Nazmioy-da.

- Yago! – Otelling yana shaytoni qo‘zidi. – Yagoning singlisi fabrikada ishlarkanmi? Yolg‘on gapirma!

- Biror marta yolg‘on gapirmadim sizga?

- Gaplaring yolg‘on! Sen fabrikaga borgansan, singlisi bilan emas, Yago bilan uchrashgansan!

Bu gap Dezdemonani tamoman gangitib qo‘ydi.

- Tuhmat qilmang! Men hech qachon xiyonat qilmaganman. Bu gaplarni qayerdan oldingiz?

- Ro‘molchani Yagoning qo‘lida ko‘rdim! Hammaga maqtanib yuribdi! Dezdemonaning ich – ichidan allaqanday og‘riq bo‘g‘ziga keldi.

- Yolg‘on!!!!

- Yolgʻon boʻlsa, roʻmolcha qani? Ayt, qani roʻmolcha! – Otelloning koʻzlariga qon quyildi. Panjalari changakka aylandi. – Kechki ibodatni qilganmiding! Ayt, qilganmiding?!

- Nima qilmoqchisiz meni, Otello aka? – Dezdemona orqaga tisarilmoqchi edi, karavotga urilib, oʻtirib qoldi. – Arzimagan roʻmolchani deb, meni oʻldirmoqchimisiz hali?

- Men bilmayman! Kalimangni keltir! Seni boʻgʻmoqchiman!

Jazavaga tushgan Otello Dezdemona tomon bostirib borarkan, tuyqus eshik qoʻngʻirogʻi jiringlab qoldi. Dezdemona jon xolatda yugurib borib eshikni ocharkan, ostonada onasini koʻrdi va oʻzini uning bagʻriga otdi. Yelkalari titrab – titrab ketdi.

- Voy, onaginang girgitton! Koʻzlaringda nega gʻam? – dedi onasi Dezdemonaning koʻzlariga tikilarkan. – Tinchlikmi ishqilib?

- Tinchlik, - dedi Dezdemona qoʻli bilan koʻz yoshlarini artarkan, - sizlarni sogʻindim...

- Ma, obidiydangni artib ol, - dedi onasi, choʻntagidan roʻmolcha chiqarib berarkan. – Ol, oʻzingni roʻmolchang, uyga borganingda qoldirib kelgan ekansan.

Oʻljasiga yetolmagan sherdek bir chekada hansirab turgan Otello yugurib kelib, qaynonasining qoʻlidan roʻmolchani tortib oldi va yosh bolalardek sakrab ketdi.

- Roʻmolcha! Roʻmolcha! – Otelloning quvonchi ichiga sigʻmasdi.

*Ilxom Zoir*

### **BEDANA**

- Yana komediyami ? – dedi qoramagʻizdan kelgan, ozgʻin, peshanasi taram – taram chiziqli viloyat musiqali drama va komediya teatri direktori qoʻlimdan bogʻichli qogʻoz jiltini olarkan. – Hamma oʻzini komediyaga urgan! Nima balo, hammangni qorning toʻqmi deyman, kulgidan boʻshamaysanlar... Tashlab ket oʻqib qoʻyaman...

- Qachon xabar olay? – dedim iymanibgina.

- Senlar mingta, men bitta, - dedi go‘yo butun boshli teatrda undan boshqa kishi yo‘qday, - O‘qib qo‘yaman dedim- ku senga! Buncha iching tor bo‘lmasa! – U stol chetida uyilib turgan jiltlarga imo qildi.

- Mana shu papkalarining sakson foizi komediY. Bir o‘zim barini o‘qib chiqishim kerak. Bilmadim, mendan boshqa odam ham shularni o‘qiydimi , yo‘qmi? Senlar esa, tiqilinch qilganlaring, qilgan... Mayli, yo‘ling tushganda bir mo‘ralab o‘tarsan, ungacha qarab qo‘yarman...

Yana og‘iz ochsam, uning “portilab” ketishi turgan gap edi. Boshimni yelkalarim orasiga tortib, qanday kirgan bo‘lsam, xonadan shunday chiqib ketdim. O‘n kuncha o‘tib bir “mo‘ralamoqchi” edim, ishni buzib qo‘yamanmi deb fikrimdan qaytdim. Sabrim chidagancha kun sanadim. Oradan roppa – rosa ikki oy o‘tkazib, “aka” ning eshigidan mo‘raladim.

- Yana komediyami ? - o‘sha tanish ovoz yana yangradi, - Hamma o‘zini komediyaga urgan! Qani ber buyoqqa !

- Nimani ?

- Olib kelgan qo‘lyozmangni-da!

- Men sizga qo‘lyozmani tashlab ketganman. Shuning natijasini...

- Iching tor ekan, sen bolani ! Senlarni hammalaringni iching tor! Senlarga kecha tashlab ketgan narsalaring bugun sahnalashtirilsa-da, a? Men esa bir o‘zim...

- Men ikki oy oldin...

Gapimning yarmi og‘zimda qoldi.

- Sen ikki oyni gapirasana, - asabiy tarzda stol ustidagi jildlarni ko‘rsatdi, - Mana bu narsalarni tashlab ketishganiga bilmayman necha yil bo‘lgan. Sarg‘ayib ketganiga qara. Ana shularning egalari ham sabr qilib turishibdi-ku! Barakallo o‘shalarning sabriga! Sen bo‘lsa, ikki oyda yugurib kelibsana!.. Hay, mayli, nomi nima edi qo‘lyozmangni?

- “Jizg‘anak yurak”.

- Qayerga qo‘ygan ekanman? – dedi u ming‘irlagancha jildlarni ag‘dar – to‘ntar qilib, oxiri topdi.

- Topildi-e! Qurbon Qiron “Jizg‘anak yurak”... Mana o‘qib qo‘ygan ekanman-ku. Nima xaqda edi buningni o‘zi?

- O‘qigan ekansiz-ku, dedim qo‘rqa – pisa. Uning rangpar betiga qizillik tepdi.

- Xa, endi bir kunda bunaqa komediyalarni mingtasini o‘qib chiqaman. Qaysi biri esimda qoladi!...

Mayli o‘tir birpasta boshqattan o‘qib tashlaymiz.

Men ming istihola bilan uning ro‘parasidagi kursiga o‘tirdim.

- Him-m, Qurbon Quron. “Jizg‘anak yurak”. Komediya – dedi labini cho‘chchaytirib va o‘qishga tutindi... Chamada biror betlar o‘qiganidan keyin o‘zidan – o‘zi xiringlay boshladi. Uning hiringlashi rosti ko‘nglimga iliqlik bag‘ishladi. “Demak, asarimda nimadir bor”, dedim ichimda quvonib. U yana kuldi. “Xayriyat, yozganlarim yoqyapti” dedim yana ichimda.

- Bedana, - dedi junjukib.

Hayron bo‘ldim. Rostda, asarimda bedana haqida hech gap yo‘q edi. Uning hayolini buzmaslik uchun jim turdim. U esa, birov uni qitig‘layotgandek xiring – xiring kuladi. Odatda kulgi labda paydo bo‘lib, so‘ng butun tanani qamrab olardi. Buniki teskarisi, kulgi uning qornida jonlanib, so‘ng yelkasiga, undan keyin labiga indi.

- Vo – ha – ha – a ! Voy, qurmag‘ur bedana!

Jim turgan emasmanmi, beixtiyor gapirib yubordim:

- UZR, domla siz meni qo‘lyozmamni o‘qiyapsizmi ?

U birdan kulgidan to‘xtab, yuziga jiddiylik tusini berdi.

- Senikini bo‘lmay, kimnikini bo‘lardi? Qurbon Quron senmisan axir?

- Ha, men.

- Demak, senikini o‘qiyotgan ekanman-da.

Jim bo‘ldim. U mutolaani davom ettirdi. Hiyol o‘tmay yana qahqaha otib yubordi.

- Vo – ha – ha – a ! Voy, qurmag‘ur bedana-yey!

- Qanaqa bedana? – deb so‘radim o‘zimda jur‘at topib.

- Bedanaga o'xshagan bedana! – dedi bosh ko'tarmay.

- Yana bir bor uzr meni qo'lyozmamda bedana haqida gap yo'q edi-ku!

- Birpast jim o'tirasanmi, yo'qmi?! - norozi ohangda dedi u. - Odamning fikrini bo'lmay tursang-chi! Bedanani bedana desam, sen undan oshib tushding! Hi – hi – hi ...

- “Nahotki shunchalik kulgili yozgan bo'lsam?” ichimda yana o'yladim. Ishonqiramay, bo'ynimni cho'zib, uning oldidagi qog'ozga qaradim. O'zimning xatim. Menikini o'qiyapti...

U yana bir bor xuzur qilibolgach, oxiri qo'ynidan bir xaltacha chiqarib stol ustiga qo'ydi. Xaltachaning ichida nimadir tinimsiz tipirchilardi.

- Endi, uka, gap bunday. Mana shu bedanani deb qo'lyozmangni oxirigacha o'qiy olmadim, - dedi xaltachaning og'zini ochar ekan, - Toza havoga chiqqisi kelyapti jonivorning. Mening esa qitig'im bor. – U xaltacha ichidan olachipor bedanani chiqarib, ho'p siylab siypaladi. – Tinchlan jonivor, ana hozir toza havoga olib chiqaman...

Tilim aylanmaydi, nima deyishimni bilmayman. U bo'lsa hamon bedanani siypalaydi:

- Qo'ynimda bedana olib yurmasam, bir nimani yo'qotib qo'yganday sezaman o'zimni. Ishqibozlik yomon ekan-da... Sen biror haftalardan keyin xabar ol, qo'lyozmangni birgalashib qayta o'qib chiqamiz...

- Men garangsib tashqariga chiqqanimda, ichkarida bedanani sayragani eshitildi:

- Bit – bil – diq... Bit – bil – diq

**SAID AHMAD**

### **KARNAY**

Amaliy san'at muzeyini tomosha qilgani kelganlar “Muzey berk, remont ” degan yozuvni o'qib, qaytib ketaverishardi. Ammo soqoli ko'ksiga tushgan, ikki lunji filning qulog'iga o'xshab osilgan bir chol eshikni ochasan, kirib

karnayimni ko‘raman, deb ikki oyog‘ini bir etikka tiqib turib oldi. Qorovul tushintirsa ham tixirlik qilib turaverdi.

- Kiraman, ko‘raman, vassvalom!

Oxiri qorovul uni ichkariga kiritishga majbur bo‘ldi.

- Boring, direktor Bilan o‘zingiz gaplashing.

Chol ichkariga kirdi. Direktor qog‘ozlarga ko‘milib nimalarnidir yozib o‘tirardi. U boshini ko‘tarib cholga qaradi.

- Keling, otaxon!

- Men Buvaxon karnaychi bo‘laman.

- Juda soz, - dedi direktor. – Karnaychi chaqirganimiz yo‘q edi-ku. To‘y qilish niyatimiz ham yo‘q.

- Buvaxon karnaychini bilmasang, dunyodan bexabar odam ekansan-ku. To‘yga emas karnayimni ko‘rgani keldim.

Direktor qoshlarini kerdi.

- Qanaqa karnay?

- Muzeyingda karnay bormi axir?

- Bor, - dedi direktor.

- O‘sha meni karnayim bo‘ladi. Ellik yil chalganman uni. Darxaqiqat, muzeyda bitta eski karnay bor edi. Bu karnayning qayoqdan kelib qolganini, nima hosiyati borligini hech kim bilmasdi. Muzey ilmiy kengashi noma‘lum karnayni ekspozitsiyadan olib tashlamoqchi edi.

- E, shunaqa demaysizmi? Qani, o‘tiring, otaxon, - deb direktor unga termosdan choy quyib uzatdi. – Kelganingiz juda yaxshi bo‘ldi. O‘zingiz kimsiz, bu karnay qanaqa karomat ko‘rsatgan, bir boshdan aytib bering.

Direktor Buvaxon karnaychi piyoladagi choyni xo‘plaguncha stol chetida turgan magnitafonning tugmasini bosib qo‘ydi.

-Oh, otaginang aylansin, biz ko‘rgan karnaychilar endi qayoqda deysan. Hozirgilar karnay puflasa, lunji shishmay turib nafasi biqinidan chiqib ketadi. Karnay deganni puflaganda qorin chilimning belidan ingichka bo‘lib ketishi

kerak. Hozirgilar puflaganda kindigi pup etib ko‘ylagini turtib chiqadi. Yo‘q, bu bolalardan risoladagi karnaychi chiqmaydi.

Karnay degan to‘yda, xayit – marakalarda chalinadi. Azada chalib bo‘lmasa. Xonaki bazmlarda dutor – tanburlarga o‘xshatib ulfatlarni ko‘nglini olishga yaramasa. Kimga qiyin, karnaychiga qiyin. Ammo menga yil – o‘n ikki oy karnaybop ish topilib turgan. Otaginang aylansin, gapimga ishon. Lunjim biron kun bekor turganini bilmayman. Kechasi – yu kunduzi puflaganim-puflagan. Bir kuni nima bo‘ldi-yu, vokzaldagi temir yo‘l zovutining gudogi buzulib qoladi. U paytlarda odamlarda soat degan narsa bo‘lmasdi. Hamma ertalab o‘sha zovutni gudogi bilan uyg‘onardi. O‘sha payt zovutga Buvaxon akang kerak bo‘lib qolgan. Sahar paytida qo‘sh otli ishvosh bilan olib ketishardi. Vodaqashqaning tepasiga chiqvolib shaxarning to‘rt tarafiga qarab bir puflardim, yo bafarmoni xudo, bu tomoni Xastimom, bu tomoni Jarariq, bu tomoni Zangiota, bu tomoni Yalang‘och pirim alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib ketardi. Toshkent viloyatida qanchaki it bo‘lsa bab-barovar akillavorardi. To gudok tuzalguncha bir yarim oy Toshkentni o‘zim uyg‘otib turganman. E, senlar nimani bilasanlar...

Buvaxon karnaychi piyola tagida qolgan choyni ho‘plab, tomog‘ini namlab olgandan keyin gapini davom ettirdi:

- Sen nimani bilasan, ustalda o‘tiribsan, biz bo‘lmasak senga bu ustal qayoqda edi? Tekistil kambinati ishga tushganda ham Buvaxon akang karnayini chalib, odamlarni ishga chaqirgan. Hidroistansa ochilgandayam, Selmarsh zovuti bitgandayam, Qishloq xo‘jaligi Vistavkasi ochilgandayam shu. Muhiddinqori turuppasi bilan Farg‘ona vodiysini aylanib Tamaraxonimni yo‘rg‘alatgan ham mening karnayim bo‘ladi !

“Xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi” unvonini har kimgayam beravermaydi. Farg‘ona kanalining ikki yuz yetmish kilometr masofali trassasida karnay chalaverib, lunjlarim dirijabl bo‘lib ketgan.

Qo‘y bolam, meni ko‘p javratma. Eshikni och. Qadrdon karnayimni bir ko‘rib ketay. Iloji bo‘lsa, bitta puflab qo‘yay.

- Yo‘q, otaxon, mumkin emas, muzeyni yonboshida tug‘riqxon bor. Homilador xotinlar bola tashlab qo‘ymasin.

Direktor magnitafon tugmasini bosib, o‘rnidan turdi.

- Yuring, ota, o‘sha qadrdon karnayingizni ko‘rsatib qo‘yay.

Ular bo‘yoq va nam ohak xidi anqib turgan yo‘lakdan o‘tib “San’at tarixi” degan katta zalga kirishdi. Chol oynavand javonda yashil duxoba ustiga yonboshlatib qo‘yilgan karnayini darrov tanidi. Ko‘zlari yashnab, beixtiyor, bormisan qadrdon, deb yuborganini bilmay qoldi.

To‘qqiz kundan keyin muzey ochildi. Shu paytgacha noma’lum bo‘lgan karnay qo‘yilgan zalda har kuni bir necha marta Buvaxon karnaychining magnitafonga yozilgan ovozi yangraydigan bo‘ldi.

“Oh, otaginang aylansin, u paytdagi karnaychilar ...” – deb boshlanardi uning so‘zlari.

Oradan sal kun o‘tmay xoriждан kelgan bir turist muzeyning esdalik daftariga shunday yozuv qoldirdi: “... Oddiy karnaychisi shuncha ish qilgan bo‘lsa, olimi, ishchisi qanaqa ishlar qildiykin? Yo‘q, bunaqa xaqni yo‘ldan urib bo‘lmaydi...”

## RIVOYATLAR

*Malik Murodov*

*Muxarram Shayxova*

### *Qaytar dunyo*

Qadim zamonda bir chol bilan uning o'g'li bor ekan. Cholning xotini o'lib ketgan bo'lib, o'g'li bilan qolibdi. O'g'lini nixoyatda extiyotlab katta qilibdi. O'g'li voyaga yetgach uni uylantiribdi. "Xudoga shukur, endi tinchidim, qo'l oyog'imni uzatsam bo'ladi", - deb o'ylabdi.

Bu orada o'g'li o'g'il ko'ribdi. Cholning shodlikdan quvonchi ichiga sig'masmish. O'g'luga bir quvonsa, nevarasiga ikki bor quvonarmish. Ammo kelini xunar chiqara boshlabdi. Chol o'tirsa o'poq, tursa so'poq deyaveribdi. Buni cholning o'g'li payqamas ekan. Kunlardan bir kuni cholning qo'lidan ovqat tushib ketib, chinni sinib qolibdi. Kelinniki tutib ketibdi:

- Sassiqlikni yo'qotasanmi, yo'qmi? Shu otang tufayli idishlarim singani-singan. Agar uni tezroq ko'zimdan yo'qotmasang, o'zim ketaman bu uydan, - debdi. Yigit xotinini tinchlantiribdi. Kunlardan bir kuni chol yana ovqatni to'kib yuboribdi. Chinni idish yana sinibdi. Kelini yana janjal ko'taribdi. Chol uydan chiqib ketay desa, boradigan joyi yo'q ekan. Shu bolasi, kelini, nabiralaridan boshqa hech kimi yo'q ekan. Noilojlikdan yana o'g'linikida qolibdi.

Oradan bir necha kun o'tib, cholning qo'lidan yana kosa tushib ketibdi. Kelin yana jaxl otiga minibdi. Kilibdi janjal... Yigitning jonidan o'tib ketibdi, xovlisini to'riga kichik bir xona soldirib, otasini o'sha joyga ko'chirib qo'yibdida, ustaga borib yog'ochdan kosa, qoshiq qildirib kelibdi.

Ota bolasi qurib bergan kulbada yolg'iz o'zi yashab, yog'och qoshiqda, kelin ovqat bersa ichib, bermasa ichmay yashayveribdi. Bolasi ham bolalari bilan o'z xolicha yashayveribdi.

Kunlardan bir kuni cholning vaqti soati yetib qazo qilibdi. Bolasi bolalari bilan bo'lib, otasining o'lganini ham ikki-uch kundan keyin bilibdi. Maxalla-ko'y cholni ko'mibdi. Kunlardan bir kuni yigit ishdan qaytsa, katta o'g'li yog'och o'yib o'tirgan emish.

- Nima qilyapsan, bolam? – so‘rabdi u .
- Sizga atab yog‘ochdan kosa bilan qoshiq yasayapman. Qariganingizda bir uy qurib, unga sizni eltib qo‘yamanda, shu kosa bilan qoshiqda bergan ovqatlarimni yeb o‘tirasiz.

*Fors – tojik tilidan*

*N. Komilov tarjimasi*

### *Komil inson haqida to‘rt risola*

#### *Sulaymon va Chumoli*

Hazrat Sulaymon ham shox edi, ham payg‘ambar. Ul zotga insu jins, jamiki jonzot itoat qilar, Sulaymon esa qurtu qumirsqa, parrandayu darrandaning tilini bilar, ular bilan suhbatlashardi. Bir kuni Sulaymon dabdabayu xashamat bilan chumolilar to‘dasi yonidan o‘tdi. Barcha chumolilar uning xizmatiga yugurdilar, ming – ming chumoli xuzurida xozir bo‘ldi. Ammo bir chumoli uning oldiga bormadi. Ul chumolining uyasi oldida bir tepalik bor edi, u bir o‘zi yakka tan bo‘lib, shu tepalik tuprog‘ini boshqa yoqqa tashir, tepalikni butkul tashib, uyining oldini tekislash payiga tushgan edi. Sulaymon uni oldiga chaqirib, dedi:

- Ey chumoli, seni juda betoqat va tashvishli ko‘ryapman. Agar senda Nux umriyu Ayb sabri bo‘lsa ham bu ulkan tepalikni tashib bitkazolmaysan. Bu sening ishing emas, sening shu kichkina jussang, zig‘irdan ham mayday qo‘llaring bilan shu tepalikni tashib bitkazish mumkinmi?

Chumoli Sulaymonga qarab dedi:

- Ey shox, bu yo‘lda ximmat bilan ish ko‘rsatish kerak. Sen mening niyatimning o‘ziga emas, niyatimning kamoliga boqqil. Meni bo‘y olg‘a muxabbat boshladi. Men tepa naryog‘idagi bir chumoliga oshiqman, tepa meni undan ajratib turadi. Ul chumoli menga: shul tepani oradan ko‘tarsang, vaslinga yetib, baxtiyor bo‘lasan, dedi. Bu xijron devorini tashib tugatmasam bo‘lmas. Shu bois xozir bu ishga belim bog‘lab turibman, bundan boshqa narsani bilmasman. Agar tepalikni tashib yo‘lni tozalasam, yor vasliga yetib shodon bo‘laman, ammo agar iqtidorim yetmay, shu yo‘lda jon bersam – ming – ming roziman.

Ey farzand! Ishqni chumolidan o‘rgan, yor visoliga yetish oson emas, jon fido qil jonona kerak bo‘lsa. Ko‘klardan ko‘rishni, ojizlardan qaxramonlikni ta’lim ol. Chumoliga past nazar bilan qarama, chunki uning ham qalbida ishq inqilobi mavjud. Bu yo‘lda nimalar bo‘layotganini bilish qiyin, balki sher chumolidan tanbeh olar. Ha, ishq mo‘jizalar yaratar olamda!

Yoki mana bu hikoyani eshit. Ishq odamni ulug‘vor etar va ulug‘ maqsadlar sari olib borar ekan.

### *Ayol ishq*

Bir podshoxning go‘zal bir o‘g‘li bor edi. Shaxzoda haqiqatdan ham kelishgan, so‘lim yigit bo‘lib voyaga yetgan, xalq uning oy yuziga qarashdan istixola qilardi. Go‘yo uni dunyoning bir mo‘jizasi deysiz: ikki qoshi kamunday, ko‘zi, kipriklari ming qalbni vayron qilar, qarashlari oxangraboday o‘ziga sehrlab qo‘yardi. Tabassum qilsa, durday terilgan tishlari ko‘rinar, la‘l lablarining xushobi necha muftalolarni mastu bexush aylagandi. Shaxzoda go‘zal andomli bo‘lishi bilan birga mard va jasur, oriyatli va mag‘rur ham edi. Bir xotin shu go‘zal yigitga oshiq bo‘lib qoldi. Ko‘ngli ezilib, ko‘zlaridan qonli yoshlar oqizdi. Yigit firoqida barcha narsani, qarindosh – urug‘, balki dunyoni ham unutib, darvesh – qalandar bo‘ldi. Bechora xotin shaxzodaning yo‘lini tunu kun poylar, agar shaxzoda yo‘lga chiqsa, otining oyoqlarini quchoqlab o‘par, tuproqdagi izlarni ko‘ziga surtardi. Yoshi shashqator oqib, oshiqona nola chekardi. Pana – panadan, pastqam joylardan shaxzodaga boqar, diydoriga to‘ymasdi. Agar shaxzoda shaxarda yursa, shaxarda bo‘lar, bog‘u saxroga siqsa, orqasidan saxroga chiqar, izma – iz ta‘qib etib borardi. Tunlari uning yodida uxlamay chiqar, atrofdigilarga ham uyqu bermay, faryod chekardi.

Odamlar bu xolni ko‘rib, xayron qolardilar, gap – so‘z tarqalib, bora – bora butun shaxarga ovoza bo‘ldi. Ish shu darajaga yetdiki, oxiri shaxzoda nomus qilib, ayoldan qanday qutulishning ilojini topolmay, otasiga shikoyat etdi. Podsho xotinni tutib keltirishni buyurdi. Uni tutib keltirdilar. Podsho uni ko‘rib, badtar g‘azablandi va sochlaridan otning oyoqlariga bog‘lab, ezg‘ilab o‘ldirishga xukm etdi. Bu voqeani ko‘rgani odamlar to‘da – to‘da bo‘lishib, dalaga chiqdilar. Hamma narsa taxt qilib

qo'yildi. Xotinni olib keldilar. Shox taxtda o'tirardi. Shunda xotin o'limi oldidan podshoga murojaat qilib, agar shoxim izn bersalar, bir xojatim bor, deb so'z qotdi ta'zim ila. Shox dedi:

- Agar istaging joningni saqlash bo'lsa, rozi bo'lmasman, chunki qasdim sening joningni olishdir, agar sochimdan tortib sazoyi qilma deb iltimos qilmoqchi bo'lsang, bu ham o'tmaydi, chunki shu uzun sochlaringga o'ralib jon berishingni ko'rmoqchiman, magar otga bog'lamasdan o'ldirishni xoxlasang, bu ham rad etilajak, chunki otning tuyog'ini o'pishni xush ko'rganing mukofoti bu. Bundan boshqa qanday iltimosing bor? Yoki bir muxlat omonlik tilarsan? Bir soniya ham omonlik bermagayman. Yoki shaxzodani ko'rmoq tilarsan, balki? Uning yuzini endi hech ham ko'rolmaysan.

Xotin aytdi:

- Jonimni saqlash istamasman, jonim endi menga kerak emas. Bir laxza omonlik ham tilamayman, undan ayrilib omonlikda yashash o'limdan og'ir. Sochimdan sudratib, otning oyoqlari ostida ezg'ilab o'ldirmoqchi ekansan, ixtiyoring, buni qilma deb iltimos qilmayman. Ammo, ey saxovatli shox, sen aytgan talablardan boshqa bir talabim bor.

Shox aytdi:

- So'zla, bundan boshqa yana ne xojating bor? Agar men aytgan talablardan boshqa talab – xojating bo'lsa, muqarrar bu talabingni bajarurman.

Xotin aytdi:

- Ey saxovatli va sharofatli shox, bu kun meni ot oyoqlarida bog'lab sudratishga xukm qilgan ekansan, hojatim – iltimosim sendan shuki, sochimni shaxzodaning oti oyoqlariga boo'lab qo'y toki bu ishni u qilsin, uning oti oyoqlari ostida ezilay, tanimni sudrab rohatlansin. Men uning qurboni bo'lay ham abadiy umr topay. Ha, agar ma'shuq tomonidan o'ldirsam, ishq nuridan ruhim arshi a'loda bo'ladi. Bir ojiz xotinman, xushim o'zimda emas, bag'rimda laxta – laxta qon, tirikmanmi, o'likmanmi bilmayman.

Parvardigor podshoning ko'ngliga rahm soldi, ko'ngil ezilib ketdi. Xotinni avf etdi. Uning sidqu yonishlari, pokiza muxabbati, ilohiy ishq shoxning qalbini

yumshatgan edi. Podsho xotinni o‘z saroyiga olib bordi, o‘g‘liga xamrox etdi. Bu ishqni haqiqiydir, buni o‘rgan, ey farzand.

### *Cho‘pon sevgisi*

Qadim zamonda Chust tomonda bir kambag‘al cho‘pon bo‘lgan ekan. U shu yerlik bir boyning qo‘yini boqar ekan. Ertalab beliga ikkita nonni tugib meshga suv to‘ldirib, qo‘ylarni oldiga solib, qir – adirga qo‘y boqishga chiqib ketar ekan. Shu alpozda kunlar o‘tibdi, oylar o‘tibdi, yillar o‘tibdi. Qish kelibdi, yoz o‘tibdi. Kunlardan bir kuni boyning go‘zal qizini ko‘rib, sevib qolibdi. Oh, sevgi shunday kuch ekanki, odamni dovdiratib, esini kirdi – chiqdi qilib quyarkan. Bechora cho‘pon sho‘ring qurg‘ur qir – adirlarda yurib dardini, ishqini qo‘y qo‘zilarga aytibdi, cho‘l biyobonlar bilan “gaplashibdi”. Shamollar uning ohiga quloq solib, oldida bir nafas jim qolisharmish. Hatto yirtqich hayvonlar – bo‘ri, yo‘lbars, ayiqlar ham, yirtqich qushlar – burgut, lochinlar ham uning oxu fig‘onini qayg‘u – alamlariga chiday olmaganmishlar. O‘sha yorini deb “Oh” tortsa ohi tog‘dan oshibdi, “Voh” desa voxi qirni tebratibdi. Qiz ham cho‘ponni sevib qolgan ekan. Oh, ishq shunday qudratli ekanki, qizning “Ohiga” yer titrabdi, “Uf”iga arshi a’lo tebranibdi. Gullar yig‘labdi, bog‘lar chidolmay, daraxtlarni junbushga keltiribdi. Cho‘pon bir pas ko‘rolmasa hech ham chidolmasmish, tog‘dan qochib tusharmish. Qiz uyida bir daqiqa bo‘lsa ham turolmasmish, uyi, bog‘u rog‘i tor kelarmish, yigitni qumsarmish, hadeb ko‘rgisi kelarmish, uni ko‘rganda esa gul – gul ochilib yashnab ketarmish. Oh qani endi Xudo taolo rahm qilib ularni qovushtirib qo‘ya qolsa edi... Cho‘pon bilan qizning dunyo – dunyo bo‘lib, xalq xalq bo‘lib bilmagan, dunyoda hech bir elning qulog‘i eshitib ko‘zi ko‘rmagan muhabbatlaridan voqif bo‘lgan boy qizini so‘rab surishtirmay, dodu faryodiga quloq solmay, bir qo‘shni boyning dag‘al, qo‘pol, og‘zidan shodi kirib bodi chiqadigan sang‘i, jinnisifat o‘g‘liga nikohlab beribdi. Yor – yor aytishib, childirmalar baka – bang bo‘layotgan paytda sevganidan tiriklay ajrab, yosh muhabbati zavol topgan. Qalbi pora – pora bo‘lib vujudini bitmas – tunganmas azobu uqubatlar qoplagan qizning qon tomirlari birma – bir uzilibdi, jigari qonga to‘lib, chakkasidan tomibdi. Muxabbat rishtasi uzilgan, dunyoda boru yo‘g‘idan ajralgan

cho‘pon Xudodan o‘zini shamol bo‘ronga, qo‘y – qo‘zilarini shabboda – saboga aylantirib qo‘yishini astoyidil qilibdi. Qaltis, ammo juda shirin, xavfli, ammo juda lazzeatli, yoqimli muxabbat dardiga chalingallarni Xudo hamma vaqt qo‘llab – quvvatlar ekan.

CHO‘pon yigitning chekkan iztiroblari-yu, oh – voxlariga chiday olmagan xudo o‘zi yaratib, o‘zi bergan bu oshiq – ma’shuqlarga ham rahm qilibdi. CHO‘pon yigitning chekkan iltijosini inobatga olib, uni shamol – bo‘ronga, qo‘y – qo‘zilarni shabboda – saboga aylantirib qo‘yibdi. Ishq savdosida aqlu xushidan adashgan, sevgan yoridan ajrab, yorug‘ kuni qorong‘u tunga aylangan qizni esa daryoga cho‘ktiribdi. Shu – shu cho‘pon yigit – shamo – bo‘ron yaxshi ko‘rgan qizini sog‘inib ko‘rgisi kelsa, jumbushga kelarmish. Unga yetolmay, alamiga chidolmay, qasd olish maqsadida ko‘ringanni qahriga olarmish. Bo‘ron turib, dov – daraxtlar sinishi, daryo – ko‘llar chayqalishi, hamma yoq to‘s – to‘polon bo‘lishi shundan emish. Shunday paytda daryo xam jumbushga kelib, to‘lqinlanishi, shovqin – suron ko‘tarilishi, qirg‘og‘idan toshib – toshib hammayoqni buzib, xonavayron qilishi ham qizning alamidanda, yomonlardan qasd olishi emish. Ular tin chidimi, bir – birlariga tashnayu abgor odamlar tinch, osoyishta yashashi ham shundan emish. Sevishganlarni, bir – biriga suyanib, muhabbat qo‘yganlarni bir – biriga intizoru bog‘lanib qolganlarni o‘z panohida asrasin, nimaiki niyatlari bo‘lsa yetishsinlar, bir – birlarini ko‘rib, topishib – qovushib yurishsin. Yomon ko‘zdan, yaramas so‘zdan, joxilligu fisq – fujurdan saqlasin, deb duo – fotixa o‘qish o‘shandan qolgan ekan.

### *Qo‘shiq sehri*

Qadim o‘tgan zamonda bir podsho bo‘lib, qo‘shiqni mutlaqo yoqtirmas ekan. Shu sababli u kim qo‘shiq aytsa, o‘shani o‘limga buyurarkan. Bora – bora qo‘shiq haqida so‘z ochganni ham o‘sha zahotiyoyq daf qiladigan odat chiqaribdi. Kunlardan bir kuni podshoning vaziri bilmay bexosdan:

“Olampanox, bog‘ingizdagi bulbulning qo‘shiq aytishini qarang-a”, - degan ekan, podsho uni shu zahotiyoyq o‘limga buyurdi. Bulbulning kallasini uzib

tashlashga, bog‘iga o‘t qo‘yishga farmon beribdi. So‘ngra: “Kimda – kim qo‘shiq so‘zini tiliga olsa, o‘zi o‘limga, moli talonda” – deb jar soldiribdi.

Baribir, qo‘shiq to‘qilaveribdi, soz yangrayveribdi. Nima qilarini bilmay, garang bo‘lib qolgan podsho xadeb asabiylashvergach, kasalga chalinib qolibdi.

Podshoning yana bir dono vaziri bor ekan. Podsho uni o‘z xuzuriga chaqiribdi: “Nima qilsang qil kasalning davosini top”, - deb buyuribdi. Shunda vazir: “Kasalingizning birdan bir davosi - qo‘shiq”, - deb javob beribdi. Shunda podsho: “Bu menga shama qilayapti”, - deb o‘ylab, darg‘azab bo‘libdi va vazirni jallod qo‘liga topshirdi.

Tabib chaqirishibdi. Tabib ham podshoning qo‘shiq bilangina tuzalishini aytibdi. G‘azab otiga mingan podsho tabibni ham o‘ldirib yuboribdi. Shu – shu yurtga tabib qolmabdi.

Bir kun ko‘chadan bir musofir o‘tib qolibdi, uni tutib olib “tabib” deb saroyga keltirishibdi. Podsho unga qarab: “Ey, musofir. Seni menga tabib deb aytishdi. Mening kasalimni, bordi-yu, davolay olsang, kallangni tanangdan judo qilaman”, - debdi. Shunda xaligi musofir: “Men tabib bo‘lmasam, qanday qilib uni davolayman. Podshoning avzoyi juda ham buzuq. Baribir, o‘ldiradiganga o‘xshaydi, nima bo‘lsa bo‘lsin, o‘limim oldidan mazza qilib qo‘shiq aytib qolay”, - debdi ichida. So‘ng ovozi chiqarib, podshoga qaragancha: “Xo‘p, tuzatsam tuzata qolay”, - debdi. Musofir shunday debdi-yu xurjunidan do‘mbirasini olib, baland ovoz bilan qo‘shiq boshlab yuboribdi. U podshoning xay – xaylashi-yu baqir chaqiriga parvo qilmabdi. Podsho jallod chaqirishga chunonam xarakat qilarmish-u, ammo madori yetmashdi. Asta – sekin kuchdan keta boshlabdi. Nihoyat, butunlay xoldan to‘yib, qattiq uxlab qolibdi. Shu uxlaganicha to‘rt kechayu to‘rt kunduz uyg‘onmabdi. Musofir ham tinmay qo‘shiq aytaveribdi. Bir zamon podsho uyg‘onib qarasa, soppa – sog‘ bo‘lib qolgan emish. Podsho xursand bo‘lib: “Meni davolading, va‘damni bajaraman, ol, podsholigimni yarmisi seniki. Lekin bir shartim bor. Qo‘lingdagi do‘mbirangni sindirib ovozingni o‘chirasan. Boshqa qo‘shiq aytmaydigan bo‘lasan”, - debdi.

Shunda musofir: “Qo‘ymadingiz-da, ha, mayli, so‘rasam so‘ray qolay, kasalingizni tuzataman deb ovozimning yarmini yo‘qotdim, shu ovozimni topib bersangiz bo‘lgani”, - debdi.

Podsho qo‘l ostidagi kishilarni chaqirib, qo‘shiq aytiribdi. Bo‘lmabdi. Keyin hammaga birma – bir qo‘shiq aytiraveribdi, birining ovozi ikkinchisiga o‘xshasmish. “Podsholigimning hammasini ol, faqat meni bu mushkul ishdan qutqaz”, - deb yalinibdi podsho. Musofir bo‘lsa: “Olampanoh, men shoirman, ovozim shoir ovoz. Siz mamlakatingizdagi shoirlarning barchasini o‘ldirib yubormaganingizda edi, bunday kasalga duchor bo‘lmas edingiz. Endi shoir ovozigacha hech yoqqa ketmayman”, - deb turib olibdi.

Shu bo‘libdi-yu, podsho avvalgi farmonini bekor qilib, “Podshoni davolab, oyoqqa turg‘azgan shoir ovozigacha o‘xshash ovoz topilmaguncha shoirlar yashayversin, qo‘shiq aytaversin”, - deya farmon beribdi. Podsho amri vojib bo‘lib, qo‘shiq qaytadan qanot qoqa boshlabdi.

*X. Rizo*

*Har kim ekanin o‘rar*

Quloq os ey axli dunyo  
So‘zlarin bir xikoyat  
Juda qadim zamondan  
Qolgandir bu rivoyat.  
Qaldirg‘ochlar ovozi  
Yangraganda baxorda  
O‘g‘illik bo‘ldi Bashorat  
Ko‘klash kuni naxorda  
Ammo, o‘g‘li yuzini  
Ko‘rolmadi otasi,  
Ko‘z yumdi u farzandi,  
Tug‘ilgan kun ertasi.  
Bir – birini quvlashib,

Yil o‘tdi, oylar o‘tdi.  
Otasiz bola yoshi,  
Do‘stim sakkizga yetdi.  
Latif oyning nuridan  
Yorishganda kechasi,  
Shu kun unga ochildi  
O‘g‘rilikning darchasi.  
Qushning tovug‘in g‘ippa  
Bo‘g‘di u tomog‘idan  
Va uyga olib keldi,  
Qon qochib yanog‘idan.  
Ertasiga bozordan (o‘g‘irladi)  
O‘g‘irladi bir xo‘roz,  
Quvvatlaydi onasi  
“Bolajon bu ishing soz”.  
Bir kun qozi keltirdi  
Bir kun keltirdi uloq.  
Ona o‘g‘ri bolaga  
Tanbeh bermadi biroq.  
Keyin bitta sigirni  
Xovliga xaydab keldi,  
Shu kun o‘g‘ri bolani  
Keng qishloq axli bildi.  
Kengash qurgan keksalar  
Kelishdi bir qarorga,  
“Erta o‘g‘ri bolani  
So‘zsiz osamiz dorga”.  
Maydonda dor yonida  
Yig‘ildi liq – liq odam,  
Dor ostida bolaning,

Ko‘zlariga cho‘kkan g‘am.  
“Bir so‘zim bor” – dedi u:  
“Ot yondirar tanamni,  
Dorga osishdan avval  
Keltiringlar onamni”.  
“Mayli – dedi bir dono –  
Keltiring volidasin  
Bahriga bosib uni  
Sochlarini silasin”.  
Farzand oldiga ona  
Keldi ko‘zda yosh oqib.  
Ko‘ngil ne xol ro‘y berar  
Deya turardi boqib.

“Ona ko‘kragingni och  
Ko‘ksinga bosh qo‘yayin,  
O‘lim oldidan bir bor  
Diydoringa to‘yayin”.  
- Dedi bola onaga  
Ona ochdi ko‘kragin,  
Shunda bola qilbidan  
Sug‘urganday yuragin  
Tishlab uzdi onaning  
Oppoq bo‘liq siynasin.  
Bu xolat xayron etdi  
Odamlarnin barchasin.  
So‘z boshladi farzandi,  
“Nazar solinglar mana  
Oldingizda gunoxkor  
Turgan shu menga ona

O'g'riliknin yo'liga  
Kirganimda o'sha choq,  
Bu yo'l xatarli deya,  
Menga bermadi saboq,  
Shu boisdan turibman  
Bo'ynimda arqon sirtmoq.  
Bunday onaning suti  
Bo'lurmi xalol, oppoq  
Sut emas zahar ichdim  
Uning nopok ko'ksidan,  
Endi o'zgadan emas  
Xafa bo'lsin o'zidan".  
Keyin dorning ostiga  
Keltirdilar onani.  
Bu holat g'am g'ussaga  
To'ldirdi paymonani.  
Oldin osildi ona,  
Keyin osildi bola  
Uzoq – uzoq o'tmishdan  
Qolgan bu ma'shum nola.

## SHE'RIYAT

*Usmon Azim*

### *MILLIY TEATR TARONASI*

O, sahna! Hayotdan go‘zal hayotsan,

Kuylasa – baytsan, uchsa – qanotsan.

Ko‘nglimdan nur berib yoqqan chiroqsan,

Zulmatga javoban, nurga so‘roqsan

Teatr, eng yorug‘ tilaksan azizim,

Teatr, yuraksan, yuraksan azizim.

Qalbimga nur bergan yorug‘ ziyosan,

Xayotdan go‘zalsan, eng go‘zal dunyosan!

Nurlarga belanib shomda poylaysan,

Muxlisni dunyoga kulib chorlaysan.

Saxnada taqdirlar bir-bir ralgay,

Ilohning nafasi dilga taralgay.

Teatr, eng yorug‘ tilaksan azizim,

Teatr, yuraksan, yuraksan azizim.

Qalbimga nur bergan yorug‘ ziyosan,

Xayotdan go‘zalsan, eng go‘zal dunyosan!

*Usmon Azim*

### *Sevgimiz o‘ldimi? – libosingiz ko‘k,*

Sevgimiz o‘ldimi? – libosingiz ko‘k,

Ko‘nglingiz – begulxan, ko‘zingiz – becho‘g‘.

Bizdan borish yo‘qdir, sizdan – kelish yo‘q –

Kelishsiz dunyoda beg‘am, azizim,

Nega ko‘zlaringiz benam, azizim.

O‘t yetdi – qaqshatdi band – bandlarimni,

Tuproqqa sochdingiz balandlarimni,

Aqlimni, dilimni – bebaxtlarimni –

Borishsiz dunyoga otgan, azizim,  
Olisda oy kabi botgan, azizim –  
Chunki tunga aytar rost “oh”ingiz yo‘q,  
Falakda kezgani sha’n rohingiz yo‘q,  
Nechun kelmaystz, gar gunohingiz yo‘q –  
Boqaman: nigohim – gumon, azizim,  
Yo‘llaring tumandir, tuman, azizim.

Qarang, ming bir bargda kuzak uchadir,  
Qizil – sarig‘ida – yurak uchadir,  
So‘ngaklar uchadir, suyak uchadir –  
Bu to‘fon – xazonlig‘ menman, azizim,  
Sizsiz ming kuzakka tengman, azizim.

Ammo siz sarg‘aymang – gulli bog‘ bo‘ling,  
Yam – yashil ko‘karing, mudom sog‘ bo‘ling,  
Bahorning bag‘rida beadog‘ bo‘ling –  
Axir, qarg‘aganim sizmas, azizim,  
Ikki kuz dunyoga sig‘mas, azizim...

*Usmon Azim*

### ***Bir qishloqda yashaydi o‘g‘lon***

Bir qishloqda yashaydi o‘g‘lon,  
Oddiygina dehqonning o‘g‘li.  
U boqadi olamga xayron,  
Nelargadir to‘ladi ko‘ngli.

U boqadi zangor osmonga,  
Bir zumgina qoladi qotib.  
Zangor osmon dehqon o‘g‘longa  
Nimanidir qiladi tortiq.

Ma’ragancha qirlarda qo‘zi,  
Dikir – dikir yugurgani on,

Ne uchundir lovullar ko‘zi,  
Titroq ichra qoladi o‘g‘lon.

U quvonchdan hayqirar, ba‘zan  
Sharsharalar aqlini olar.  
Nimanidir sharshara birdan –  
Jajjigina yurakka solar.

Nasib bo‘lsa o‘sha “nimadir”  
Jajji qalbda boshlar talvasa,  
Tug‘iladi shunda bir shoir,  
She‘r misoli yuragi toza.

*Anvar Obidjon*

*Hayotning har laxzasi go‘zal*

Tun pardasi ochilar asta,  
Chiqib kelar sahnaga quyosh  
Kelinchakdek bo‘lib orasta  
Gul salomdan ko‘taradi bosh.

Xovli go‘yo yuvilgan chinni,  
Yo‘llar go‘yo artilgan oynak  
Qutlash uchun yangi bir kunni  
El oyoqqa turar jonsarak...

Hayotning har laxzasi go‘zal  
Umrning har dami g‘animat.

Qaymoq isi yayratar tanni,  
Dasturxonda issiq kulchalar  
Suv bosgandek qaqroq uzanni  
Odamlarga to‘lar ko‘chalar

Asli xatto go‘dak emizmoq  
Barobardir og‘ir yumushga  
Oshiqarlar, yuraklar, qaynoq  
Birov ishga. Birov o‘qishga

Hayotning har laxzasi go‘zal  
Umrning har dami g‘animat.

Duch keladi yuzlab chexralar  
Ko‘pin qaytib ko‘rmoqlik maxol  
Ular dilga yaqin naqadar  
Shuning o‘zi tunganmas iqbol

Barchinoylar nigohida sir  
Alpomishlar ko‘zida yashin  
Yoshlik qaytar qalbgga sochib nur  
Eslaylik ilk sevgi otashin...

Hayotning har laxzasi go‘zal  
Umrning har dami g‘animat.

Bir maxallar berishgan salom  
Endi esa olishar alik  
Tillarida duo xush kalom  
Saodatdir xatto keksalik

Kulib turgan munchoqko‘z bola  
“Tinchlik” so‘zin solar yodingga  
Sochlaringdan yulib oq tola  
Intilasan yana oldinga

Hayotning har laxzasi go‘zal  
Umrning har dami g‘animat.

*Anvar Obidjon*

### *Eski sahna*

Bu dunyoda hamma joy sahna,  
Bu dunyoda hammamiz artist.  
Dam saxiy – siz  
Men – tuban ziqna,

Dam odil – men, yovuz esa siz.  
– Sahnada biz doim yonma – yon,  
Goh almashar zumda o‘rnimiz.  
Soxta ingrab,  
Kuldirib yolg‘on  
Qizarganday xatto burnimiz.  
– Birov kuylar falsafiy o‘lan,  
Biro luqma tashlamoq bo‘lur.  
Birov  
Go‘zal xayqiriq bilan  
Olomoni boshlamoq bo‘lar.  
Kimdir solar fikrimga raxna,  
Kim uchundir o‘yinim qaltis  
Turaverar joyida sahna  
O‘ynaverar  
Galma – gal artist  
Gar jazava yuqsa bariga  
Yoppa javrar tinglaguvchi kam  
Changi chiqib fazo qariga  
G‘arq bo‘lishga sal qolar olam  
Ming shukurki,  
Biz axli o‘jar  
Jar labiga terilsak goxo  
Haq amrila sahnaga chiqar  
Chin iste‘dod, haqiqiy daho  
Daho baxsni bir chetga surib,  
“Tinglang!” so‘zin mixlar zaminga  
Bunday damda  
Sahnada turib –  
Aylanamiz tomoshabinga.

***Muhabbat***

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,  
Ey ko‘hna dard, ey ko‘xna tuyg‘u.  
Ko‘kragimga qo‘lingni tirab,  
Yuragimni to‘kib qo‘yding-ku.

Qancha ko‘zlar menga zor edi,  
Na g‘am, na anduhim bor edi.  
Qushday yengil ruhim bor edi,  
Chok – chokidan so‘kib qo‘yding-ku.

Ne qilarding menga tegib sen,  
Yengilmagan edim – yengib sen,  
Boshlarimni yerga egib sen,  
Qomatimni bukib qo‘yding-ku.

Sen men uchun bir xayol eding,  
Yaxshi bor yo yaxshi qol eding.  
Jon kerakmi – mana ol endi,  
Qiynar bo‘lsang qiynab to‘yding-ku.

Bilmam, nima edi maqsading;  
Menga bir juft guling asrading,  
Birin otin Kumush atading,  
Birin ismin Zaynab qo‘yding-ku.

Muhabbat, ey go‘zal iztirob,  
Ko‘chang kezdin sarson, dovdirab,  
Yuzlarimga yuzlaring tirab,  
Ko‘zlarimni boylab qo‘yding-ku!..

***Mening ertagimsan***

Mening shodligimsan, bolaligimsan,

Mening g‘ussam o‘zing, mening armonim.

Seni osmoningga olib ketaman,

Yerda bizga kun yo‘q, kun yo‘qdir jonim!..

Xato qildimmikin men erta kelib,

YO sen adashdingmi kelib keyinmi?

Goho kimliging ham bilmadi bilib,

Inim deni, sevgilim deymi?

Ket, deb xaydolmasam netaman,

Kel, deb aytomasam netaman.

Seni osmoningga olib ketaman,

Seni osmoningga olib ketaman...

O‘ylamay deymanu o‘ylamay bo‘lmas,

O‘tsang sen tomon bir bo‘ylamay bo‘lmas.

Sen meni xammadan yashirgan sirim,

Mening ertagimsan, so‘ylamay bo‘lmas.

Ket, deb xaydolmasam netaman,

Kel, deb aytomasam netaman.

Seni osmoningga olib ketaman,

Seni osmoningga olib ketaman...

*Abdulla Oripov*

### *Toqat*

Bozordan tutoqib qaytar uyga chol,

Go‘sht qayda? Yog‘ qani? Va‘da so‘zdami?

Kampiri xo‘rsinib yupatar darxol

- O‘kinmang, taqchillik aqat bizdami?!

Yonboshlab gazeta varaqlaydi chol,

To‘polon chiqibdi zavod, Vuzdami.

Kampiri yupatar surgancha xayol:

- O‘ylamang, janjal ham faqat bizdami?!

Oqshom televizor ko‘rayotib chol

Birdan sapchib tushar. Esi o‘zdami?

- Davlatga tosh otdi kimdir bemalol,

Kampiri yupatar: faqat bizdami?!

Toqatim toq bo‘ldi, deydi endi chol

Toqat yurakdmi? Toqat ko‘zdami?

Kampiri yer chizib shivirlar bexol

Chidangda, toqat ham faqat bizdami?!

*Iqbol Mirzo*

### *Qo‘shiq*

Olisdagi mahmadana, eski olchoq,

Menga qadam tashlamoqni o‘rgatmagin!

O‘zinga boq keyin mayli nog‘ora qoq,

Menga qanday yashamoqni o‘rgatmagin!

Tinchlik dech yurak-bag‘ri kuygan el bu,

Yaratganning qoshida eng suyuk el bu!

O‘tmishi ham, ertasi ham buyuk el bu,

Menga qanday yashamoqni o‘rgatmagin!

Dala-dashtlar o‘z-o‘zidan Eram bo‘lmas,

Lekin sendan beminnat bir karam bo‘lmas,

O‘zbek eli hech kimsaga qaram bo‘lmas,

Menga qanday yashamoqni o‘rgatmagin!

Kitobingda daxolarim so‘zlari bor,

Devoringda bobolarim izlari bor,

O‘zbek elin etu tirnoq do‘stlari bor,

Menga qanday yashamoqni o‘rgatmagin!

Yaltiragan hamma narsa emas tilla,

Hayf senga Naqishbanddan qochgan sala,

Ey xudoni tanimagan chalamulla,

Menga qanday yashamoqni o‘rgatmagin!

Hali baland davonlarga ot quyadirman,  
Kerak bo‘lsa osmonlarga ot qo‘yadirman,  
Loqaydligu nodonlikka o‘t qo‘yadirman,  
Menga qanday yashamoqni o‘rgatmagin sen!

Naqorat:

Agar jannat ko‘kda bo‘lsa, ostidadari O‘zbekiston,  
Agar jannat yerda bo‘lsa, ustidadir O‘zbekiston!

*Iqbol Mirzo*

### *O‘zbek o‘g‘li*

Ikki dunyo keng dasturxon,  
Tuz totgansan, tuzlig‘inni unutma.  
Dasturxonni belbog‘ qilib o‘stirgan  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Sadarayxon bukilgani – so‘lgani,  
Er yigitni egilgani – o‘lgani.  
Yo‘l bermagil dushmanlarga kulgani,  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

O‘zbek desam jaranglagan tor kelur,  
Undan oldin nomus ila or kelur.  
Burgut kelur, lochin kelu, sor kelur,  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Unutmagil nasabingni, zotingni,  
Umid bilan otang qo‘ygan otingni.  
Asra erta kuningni – zuryodingni,  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Bo‘shamasin zinhor yog‘och beshiging,  
Qulf ko‘rmasin darvozayu eshiging.  
Yig‘lamasin supadagi to‘shaging,  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Ko‘pga kelgan kulfatlarga chap berma,  
Mahmadana maynalarga gap berma.  
Ko‘ngil obod bo‘lsin, sirtga zeb berma,  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

Nochor qolsang nokas qo‘lini tutma,  
Arslonsan-ku tulki yo‘lini tutma.  
O‘zingdan o‘zgan marhamat kutma,  
O‘zbek o‘g‘li, o‘zligingni unutma!

*Iqbol Mirzo*

### *Uyg‘onish*

Xuvillagan dunyo, xuvillagan qalb,  
Na quvonch, na rayhon, na g‘am, na yalpiz...  
Qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab,  
O‘zim bilan o‘zim yashadim yolg‘iz.

Bir kuni oy bilan tillasha turib,  
His qildim yuragim og‘irligini.  
Ko‘lam sellaridek qonim gupirlab,  
Angladim yashashim zarurligini!  
Osmonni quchoqlab yotganim tunda  
Muxabbat, oy kabi kirding yodimga.  
Bulutlar oqquvga aylandi zumda,  
Yulduzlar to‘aillab tushdi yonimga.

Yelkamda yelkanday qanot barq urdi,  
Bir go‘zal qush bo‘ldim ertakdagiday.  
Yovvoyi shodlikda azot hayqirdim  
Titradi koinot etaklari-da!

Titradi koinot etaklarida  
Kiprikdek g‘ujanak bo‘lgan olmalar,  
Quyosh tag‘in charxlab yelkalarida  
Qip-qizil qum kechib yurgan odamlar...

Yumshoq shamollarni qo‘zg‘atib uchdim,  
Kahkashon – shiddatim qoldirgan oq iz.  
Sening olamingga bormayapman, kutgin,  
Osmonini quchoqlab yetgan g‘amgin qiz!..

*Farida Afro‘z*

***Kumush***

Kumush, seni tushundim bugun,  
Kumush, senga naqadar og‘ir!  
Zaynab, seni tushundim bugun,  
Zaynab, senga naqadar og‘ir!

Xo‘rlaganda taqdir beomon,  
Bir kun yig‘lab, bir kun kuldingiz.  
Otabekning xayoli bilan  
Bir kun muzlab, bir kun to‘ldingiz.

Kumush, holim sendan yomonroq,  
Zahar tutib Zaynabim kelmas.  
Oson o‘lmoq, telbalik, biroq,  
Men sevgan yor Otabek emas.

*Farida Afro‘z*

***Yig‘lasam***

Yig‘lasam gar tun qo‘ynida jim,  
O‘z holimga qo‘yib ber, yo rab.  
Boshim qo‘yay armon ko‘ksiga,  
Ro‘paramda turmagil qarab.

To‘yib-to‘yib yig‘lab olay men,  
Menga to‘yib oqarsin tonglar.  
Mayli, to‘lsin oyning ko‘ngli ham,  
Yoshlarimda suzar o‘rdaklar.

Qimmat tushdi seni sevmqlik,  
Sening bilan yolg'izman, biram...  
Sening bilan mushkul kulmoqldik,  
Haqqim yo'qdir yig'lamoqqa ham!

Senga oson, senga baribir,  
Yuraging tosh, diydalaring tosh.  
Meni esa o'ldirar sabr,  
O'zi yig'lab, ko'madi bardosh.

*Farida Afro'z*

*Ayol*

Ayolni sev,  
Ayolga yolbor,  
Ming bir kecha ertaklaring ayt,  
Alpomishlar tug'ib beradi.

Ayolni sev,  
Ostonasin o'p,  
Qasr qurma, ko'nglini so'ra,  
Balo kelsa turib beradi.

Ayolni sev,  
O'laman degil,  
Ishq yaratgan parvardigordan,  
Senga umr so'rab beradi.

*Zamira Egamberdiyeva*

*Siz mening holimdan forig' yashaysiz*

Siz mening holimdan forig' yashaysiz,  
Bilmam, kimlargadir sodiq yashaysiz.  
Shunchalar betashvish, shuncha beparvo,  
Mensiz ham balandlab, yorug' yashaysiz.

Sizga aytar so‘zim, rozlarim bekor.  
Qo‘limdagi yangroq sozlarim bekor.  
Ro‘zg‘or deganlari g‘ormikin chindan –  
Parvozim bekordir, nozlarim bekor.

Boshimni urishga bitta tosh yo‘qmi!  
Tubsiz ko‘zlarimda qatra yosh yo‘qmi!  
Ko‘nglim sahrosida adashgan jonman,  
Yo‘lovchiman, yo‘lda bir yo‘ldosh yo‘qmi!

Har jon ishqqa tashna, mehrga zordir,  
Muhabbat sharafmas – siz uchun ordir.  
Bu yorug‘ olamning ne‘matlari ko‘p:  
Ming shukur, o‘z ko‘nglim o‘zimga yordir.

*Zamira Egamberdiyeva*

### *Ko‘nglim*

Senlab so‘zlaganni zinhor sizlama,  
Ayovsiz yo‘llardan taskin izlama.  
Bir chetga qo‘yib tur xotiralarni,  
Seni unutganni sen ham eslama.  
Yaxshisi, gullarga uzoqroq tikil,  
Senga erkalanib, egilsa – egil.  
Tog‘lar poyidagi sharshara misol  
O‘zingni parchalab sochilma ko‘ngil.  
Dardlaring ko‘p bo‘lsa, yulduzlarga ayt.  
Tunlar kamlik qilsa, kunduzlarga ayt.  
Yozga, kuzga yoril, qishga yolvorgin,  
Qaldirg‘ochlar kabi navro‘zlarga ayt.  
Sen mening arazchi qizimsan, ko‘nglim.  
Ozurda ruhimsan, nazmimsan, ko‘nglim.  
Qaniydi, ko‘klarga ko‘tara olsam –

Sen mening farishtam, fayzimsan, ko‘nglim!  
Sen gulday titrama, uzib ketarlar.  
Daraxtday bo‘y cho‘zma, kesib ketarlar.  
Va yoki beozor musicha bo‘lma –  
Nogohon oroming buzib ketarlar.

Qushlardan chopqirroq shamol bo‘l, ko‘nglim.  
Gullarga yo‘g‘rilgan xayol bo‘l, ko‘nglim.  
Yulduzlardan baland, oydan yorug‘roq –  
Sen hammadan mag‘rur ayol bo‘l, ko‘nglim!

*Zamira Egamberdiyeva*

***Rashk***

Men sizni rashk qilsam ranjimang,  
Ko‘zlarim yosh yutib to‘ymaydi.  
Kutishdan shunchalar charchadim,  
Yuragim titrashin qo‘ymaydi.

Muhabbat baridan ulug‘dir.  
Men o‘zim aslida yo‘qdayman.  
Kunlarim siz bilan yorug‘dir,  
Nishonga otilgan o‘qdayman.

O‘stirgan gullarim yanchilib  
Dod sola boshlaydi g‘unchalar.  
Kimningdir ko‘ksiga sanchilib  
Yashamoq – og‘irdir shunchalar!

Muz bo‘ling, yiqilay sirg‘anib,  
O‘zimga tosh oting – chidayman.  
Men sizni kimdandir qizg‘anib –  
Rashk qilib yig‘lasam – ranjimang!

**Vatan**

Vatan – guldir, vatan – shamoldir,

Tushlarimni tinglagan irmoq.

Vatan – she’rdir, vatan – xayoldir,

Boychiborlar suv ichgan buloq.

Bir armonki, ko‘ksimga to‘lib –

Ko‘zlarimda aks etgan jola.

O‘yin bilan ovora bo‘lib –

Onasiga to‘magan bola.

Yo‘q, aslida vatan – quyoshdir –

Isitguvchi hammani birday.

Tog‘lar – tog‘mas, zo‘r yoriltoshdir –

Men poyida tiz cho‘kib yig‘lay...

Bu o‘lkada Alpomish bilan

Barchinoyning o‘g‘li, qizi bor.

Gul yuzida titrarkan shabnam

Demak – baxt bor, demak – sevgi bor.

Bo‘sh ko‘nglimni shamol to‘ldirar

Men tug‘ilgan uyning isiga.

Iltifoti shunchalik bo‘lar

Andijonning bitta qiziga!

Besaranjom ko‘nglimga malham

CHO‘li Iroq nolalaridir.

Atirgulning tikanlari ham

Shu vatanning bolalaridir.

Vujudimning bo‘lagi desam

Men she’r yozgan bir parcha qog‘oz.

Siz qizg‘anmang, jon qadar suysam –

Vatan menga bobomdan meros.

U mezbondir dunyoni kutgan,  
O‘tkinchidir tandagi jonim.  
Quchog‘imni gulga to‘ldirgan  
Vatan – mening O‘ZBEKISTONIM!

*Normurod Narzullayev*

*Umr – bir sahna*

Sahna aylanadi misoli yerday,  
Zamon ham aylanar bamisli sahna.  
Umr o‘taverar bevafo yelday,  
Birga aylanadi hatto toshoyna!

Oynaning betiga tushar goh soya,  
Nur tushsa ko‘zgu ham yaltirab ketar.  
O‘lim balosiga qalqondir doya,  
Go‘dak azob cheksa qaltirab ketar.

Eshik tirqishidan kiradi sharpa,  
Jinlar sho‘rvasiga sherik bo‘lgani.  
Oqqa duch keldimi qora har da’fa,  
Tunni buyoq qilib chaplasa qani?!

Zog‘ning bad niyati hammaga ayon,  
Bulbulni chamandan aylasa judo.  
Boyo‘g‘liga qiyshiq chordevor makon,  
Kirpidir kushanda ilonga ammo.

Kulgu ostonaga kirsa shod, mamnun,  
Yonida ko‘rinmay turarmish qayg‘u.  
Oshga zahar qo‘shib kun ko‘rar mal’un,  
Shirin jon zavoli hayotda og‘u.

Adovat jon bermas, adolat – jangda,  
Yovuzlik ezgulik yo‘lini poylar.  
Kurash davom etar hayotda, ongda,

Oqmay qolmas ammo daryolar, soylar....

Derlar – sahnaning o‘z farishtasi bor,  
Qalbim, farishtaga yaqin bo‘l, do‘st bo‘l!  
Sahnada shaytondan bo‘l ogoh, hushyor,  
Hayot ko‘zgisida chiroq bo‘l, ko‘z bo‘l!

*Normurod Narzullayev*

*Asra, xalqim*

Quyosh kulsa yorishar olam,  
Nur ulashar tunlari Oy ham,  
Yulduzlar-la osmon ham ko‘rkam,  
Asra, halqim hofizlaringni.

Jon rishtasi vo‘shiq, ohangdir,  
Jon jahonning – ko‘zi qorangdir,  
O‘g‘ling, qizing – jigarporangdir,  
Asra, xalqim, hofizlaringni.

Izhor aylar rozin sozida,  
Olloh bergan o‘z ovozida,  
Uchar ko‘ngil sho‘x parvozida,  
Asra, xalqim, hofizlaringni.

Insoniylik – eng oliy unvon,  
Hofizlar ham pokdomon inson,  
Ularga ham tutmang hech oson,  
Asra, xalqim, hofizlaringni.

Oy, kun borki – to‘ysiz o‘tmaydi,  
To‘y, ma’raka usiz o‘tmaydi,  
Karnay, surnay, kuysiz o‘tmaydi,  
Asra, xalqim, hofizlaringni!

Mehrli bo‘l, muruvvatli bo‘l,  
Saodatli, muhabbatli bo‘l,

El – yurtingga sadoqatli bo‘l,  
Asra, xalqim, hofizlaringni.

Jon o‘zbegin, bahring kengroq och,  
Oltin boshga kiydir tillo toj,  
G‘azalxon dil mehrga muhtoj,  
Asra, xalqim, hofizlaringni!

*A.S.Pushkin*  
*H. Olimjon tarjimasi*

*Sizni sevgan edim....*

Sizni sevgan edim: qalbdagi olov  
So‘nib bitmagandir hali, ehtimol;  
Ranjitmasin lekin, sizni ushbu hol,  
Koyitmayin aslo va bo‘lmayin yov.

Sizni sevgan edim: sokin, benavo,  
Jasoratsiz edim, g‘amda bedavo;  
Sizni sevgan edim, sodiq, vafodor,  
Endi Haq aylasin boshqaga dildor.

*Anna Axmatova*  
*Zebo Mirzo tarjimasi*

*Bog‘lanmadi yurak – yurakka*

Bog‘lanmadi yurak – yurakka,  
Istasang ket, qo‘y meni yakka.  
Yetish mumkin har bir tilakka,  
Bog‘lamasa kim o‘z yo‘lini.

Yig‘lamasman, navo qilmasman,  
Yo‘q, baxtingga da’vo qilmasman.  
O‘pma meni, charchadim, bas, man,  
O‘lim kelar o‘pgani meni!

Yashab o‘tdim g‘amboda, dilxun

Uzun qishlar oqshomi beun.  
Nima uchun, oh, nima uchun,  
Ortiq ko‘rdim hammadan Seni?!

*Shuxrat*

*O‘qituvchi qasidasi*

Har xunarning o‘zga shavqi, o‘zga shoni bor,  
Har umrning umid kutgan gulistoni bor.  
Ulug‘bekka muxlis tutar biri o‘zini  
Uzoq kunlar ko‘kka tikar jodu ko‘zini  
Biri vrach – el dardiga izlaydi davo,  
Biri kuychi – xonish qilar ming turli navo.  
Biri bog‘bon – yurtga tutar meva rango-rang,  
Biri rassom – xatga olar xillab bo‘yoq rang,  
Bastakori kuy saralar qalbi tubidan,  
Shoirona his qiladi har maktubidan.  
Qilich qayrab ot o‘ynatar biri maydonda,  
Biri lochin – parvoz qilar cheksiz osmonda,  
Biri yodlar Navoiyni – dil malhami deb,  
Biri bitar tarixlarning qolgan kami deb.  
Biri shoir – qalami tig‘, kuylar ko‘ngildan  
Shaxlo ko‘zu, shirin so‘zu sochi sunbuldan!  
Biri qurar bino, yo‘llar demak injiner,  
Tarixlarga nomin qo‘sharepchil, dono er!  
Barchasiga ta’lim bergan, savod bergan kim?  
Har avlodga ong berganu, hayot bergan kim?  
Umidining bo‘stoniga gullar ekan kim?  
Kelajagi – baxtli kunga ko‘zin tikkan kim?  
Kim ularning ustozi-yu, jafokashi kim?  
Ham sharafga muyassaru, chin yo‘ldoshi kim!

Kim beradi menga javob, qani, aying, kim!  
Barcha odam javob berar: udir muallim!  
Agar hayot bo‘ston esa, bog‘bon muallim,  
Gar hayot karvon esa, sog‘bon muallim,  
Agar hayot oltin bo‘lsa, zargar muallim,  
Agar hayot dengiz bo‘lsa, gavhar muallim.  
Agar hayot uzuk bo‘lsa, ko‘zi muallim.  
Agar hayot shoir bo‘lsa, so‘zi muallim.  
Chunki udir har insonga berguvchi ta’lim.  
Ta’lim so‘zi jamisidan chiqmish muallim.  
Sharaf unga, obro‘ unga, unga tantana!  
Matovlarga muyassarsan, ey ulug‘ ona.

*Shuxrat*

*Men shunday so‘z aytsam...*

Men shunday so‘z aytsam, mushkullar oson  
Bedavo dardiga topolsa shifo.  
Baxt istab tug‘ilgan har bitta inson,  
Har kungi umridan kashf etsa ma’no.  
Men shunday so‘z aytsam, urushqoq zotning  
Tepkini bosishga qo‘li kelmasa.  
Nainki tepkini, yovuz niyatning  
Hech qachon. Hech qayerda baxti kulmasa.  
Men shunday so‘z aytsam, kishilar tinglab,  
Qayg‘udan, alamdanda bo‘lsa mustasno.  
Ezgu bir niyatda ochsa doim lab  
Zavq bilan, shavq bilan o‘tsa har asno.  
Men shunday so‘z aytsam, sevishgan har yosh  
Hech qachon bilmasa ayriliq, firoq.  
Eng yorug‘ kunida fidokor yo‘ldosh,

Eng qora kunida bo'lolsa chiroq.

Oshiqlar kutganda visol onini

Yuragi zardobga to'lmasa sira.

Har kimsa ardoqlab halol nonini

O'zidan qoldirsa nurli xotira.

Men shunday so'z aytsam, na tilning farqi

Na teri ranglari bo'lolmasa g'ov.

Teng, erkin yashasa har yurtning xalqi

Do'stlikdan xilpirab qo'llarda yalov.

Men shunday so'z aytsam, do'stga xiyonat

Ko'zlagan kishining dili tosh qotsa.

Tosh qotgan diliga kirsam sof niyat

Insofga chaqirib, qayta uyg'otsa.

Men shunday so'z aytsam, xasis qalbida

Uyg'onsa Hotamning mehri, shafqati.

Gul unsa hamisha mardning qalbida

Dunyoda qolmasa nokaslar zoti.

Men shunday so'z aytsam, dunyoda alam,

Qayg'uni, kibrni bilmasa odam.

Bo'lmasa hech qachon ko'zlarida nam

Tong kabi sof bo'lsa niyatlari ham.

Men shunday so'z aytsam, ezgu tilaklar

Murodli umidlar har dilda yonib.

Nur bilan charaqlab yo'llar, istaklar

Har kimsa yashasa, hayotga qonib.

Ha, so'zning sehri bor – mehring tovlaydi.

Ha, so'zning tig'i bor – qilichdan keskir.

Ha, so'zning ishq bor – ko'ngil tovlaydi,

Bu jannat bog'iga ishonch bilan kir.

Ha so'zning tafti bor – quyoshday qaynoq

Hikmati dunyoni yoritsa yetar.  
Har soʻzga sen avval ixlos bilan boq  
Har soʻzni sen avval bayroqdek koʻtar.

Men soʻzning kuchiga keltirib imon  
Men soʻzning sehrini bilaman yaxshi.  
Haq soʻzning mehriga fido boʻlsin jon  
Ezgu soʻz sehrida yashasin kishi.

Tabiat inʼomi, moʻjizadir soʻz  
Soʻz – olov, soʻz – orom, soʻz – qaytmas botir.  
Soʻz deganda olisga hatto otmas koʻz  
Dunyoni qaytadan tuzmoqqa qodir.

*Maxmud Toirov*

*Men oftobga alishmagan ayollar*

Tomirimni tirnar koʻhna savollar,  
Yuragimda gullar shirin xayollar,  
Ey, siz oʻzbekoyim, oftobjamollar,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Millatning ertasi, millatning nasli,  
Siz atir nafasli, siz rayxon sasli,  
Ketmas boʻlib ketgan baxorsiz asli,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Oʻzbekiy ohang bor kulgularida,  
Durni talbintirar yogʻdularida,  
Orom orolanar tuygʻularida  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Sizlar borsiz, soʻzimizda sado bor,  
Sizlar borsiz, ishq ahlida gado bor,  
Sizlar borsiz, ming bir dardga davo bor  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Oftob ojiz asli onam oldida,  
Bibixonim yuragimning yodida,  
Siz yashaysiz Moxlaroyim dodida  
Men oftobga alishmagan ayollar.

Gul uzsam tutguncha qo‘lim gullaydi,  
Men sizga yetguncha yo‘lim gullaydi  
Poyingizda o‘lsam o‘lim gullaydi,  
Men oftobga alishmagan ayollar.

*Maxmud Toirov*

*Aziz ustozlar*

O‘qib siz o‘qigan xarfu ma’noni,  
Go‘dak shuur tanir ko‘hna dunyoni.  
Anglatasiz dilga solib ziyoni –  
Mag‘zi zamindan to bag‘ri samoni.  
Ilmu hunar, adab so‘ylaydi rozlar,  
Sizning mehnat ila aziz ustozlar.

Sizga timsol bilib Siz tutgan bo‘rni,  
Sizga loyiq deymiz yurakdan to‘rni.  
Shogird kamoli deb ayamaysiz hech –  
Ko‘zdagi nurniyu, qalbdagi qo‘rni.  
Qadamlar mustahkam, baland parvozlar,  
Sizning zahmat ila aziz ustozlar.

Otaday ulug‘siz, Onaday suyuk,  
Inson hayotida o‘rningiz buyuk.  
Qaydan yana Sizda muncha xoksorlik,  
Ey, beminnat kamtar, ey, bag‘ri kuyuk?!  
Umrimiz gulshani topar pardozi,  
Sizning himmat ila aziz ustozlar.

Mehr bilan dildan berganda ta’lim,

Quyoshday saxiysiz, dono muallim.  
Ranju zahmatingiz uchun tashakkur,  
Bardoshingiz uchun yana bir ta'zim.  
Ne ajab, aylasak mudom e'zozlar,  
Sizning hurmat ila aziz ustozlar...

*CHo'lpon*

*“Bahorni sog'indim...”*

Baxorni sog'indim, baxorni...  
Ko'rganda yerlar, odamlar to'la qorni,  
Qor... qor -  
Zaharli ninalar kabi  
Ko'zlarga qarab oqar...  
Qaydasan, qaydasiz  
Latif siynalar kabi  
Dalalarga singan baxor?  
Tala – tuz,  
Ekin – tekin...  
G'amgin – g'amgin  
So'la boshladi.  
Sayg'aygan yaproq.  
Bo'yanib tuproq  
O'la boshladi, o'la boshladi...  
Yo'q... o'lim yo'qdir...  
Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.  
Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor.  
Yana bahorlar,  
Yana lolalar,  
Yana siz, ey... erkin tilaklar!

*G'uncha gul bo'lay deb...*

Bahor...

Barqut kiyib bezandi bog'lar,  
Saxrolar ko'ksiga taqdi qizg'aldoq,  
Quyosh etagiga oq bulut bog'lab,  
O'rik shohlarida qovurdi bodroq.

Yellar olib qochdi qishning xobini,  
Barglar chapak chalib uyg'ondi shodon.  
Butoqlarga qo'nib, gul kitobini  
Varaqlashga tushdi bulbul-g'azalxon.

Butun koinotda ezgu bir tashvish,  
G'uncha gul bo'lay deb ko'zin ochadi.  
Musicha oldidan bir dona cho'pni  
Chumchuq uyasiga olib qochadi.

Haydagan daladan bir xas ortmoqlab –  
Chumoli yugurar – u ham tirik jon.  
Shoshilib chopadi tabib irmoqlar,  
Yerning tomiriga quymoq uchun qon...

Ona tuproq esa kuz tashvishida,  
Yuksak xirmonlarga siynasi yuklik.  
Uning sokingina tin olishida  
Bordir onalarga xos bir buyuklik.

*Saboxon Abdurazzoqova*

*ONA*

Tun. Sukunat. Borliq uxlar,  
Uyqu yo'qdir onada.  
O'ltiribdi aftodahol,  
Mayusgina, xonada.

Ne qilsinki, yolgʻiz qizi  
Yotar soʻlgan gul misol,  
Barno qizi, shu yolgʻizi  
Nafas olar bemajol.

Oʻylarining poyoni yoʻq,  
Poyoni yoʻq gʻaming.  
Qattol ajal soʻndirmoqda  
Qizning hayot shamini.

“Yoʻq, oʻlgum yoʻq, jon onajon!”  
Qiz toʻlgʻonib ingraydi.  
Soʻnayotgan qora koʻzlar  
Undan najot soʻraydi.

Zoʻraygandan zoʻrayar dard,  
Bu dard emas, bu – ofat...  
Uni hech daf etolmadi  
Na tabib, na tabobat.

Ona koʻkka qoʻlin choʻzib  
Nola qilar xudoga:  
“Karaming keng, rahming kelsin  
Mendek bahri adoga.

Kel, ajalni menga yubor,  
Olgin mening jonimni,  
Uning hayot tomiriga  
Quygil mening qonimni!

Axir umri bilan bersang  
Boʻlmasmidi bolani?!”  
Qarang, tangri qabul etmish  
Ona qilgan nolani.

Samovatdan sado kelmish:  
“Boʻlgay muroding hosil”.

Bemor qizi turib ketmish  
Yashnab yuzlari gul – gul!

Qiz onasin tegrasida  
Yuzin tirnab solar dod:  
“Falak, buncha zolimsan-a,  
Buncha qattolsan, hayot?!”

Bundoq yashab...  
                  mangu qaro  
Bo‘lmaydimi yuzlarim?  
Men o‘layin! Onajonim  
Ochsin faqat ko‘zlarin!”

Sabr ayla endi, farzand,  
Bardoshli bo‘l, qil toqat.  
Bolaningmas, onalaring  
Arzi bo‘lgan ijobat.

Qizning qalbi to‘lgan chog‘da  
Shirin – shirin tuyg‘uga,  
SHo‘rlik ona ketgan edi  
Poyoni yo‘q uyquga...

Ohlarimni tingla, tangrim,  
Sendan shuni tilarman,  
Men onamsiz bu dunyoda  
Yashab nima qilarman?

Bo‘zlay – bo‘zlay qiz boyaqish  
Haqqa qilar iltijo.  
Shu chog‘ birdan qaylardandir  
Eshitilmish bir sado:

Endi mushfiq onaginang  
Umrin davom qilgaysan,  
Bu sirlarni bir kun ona

Bo‘lganingda bilgaysan...

Ona. Ona! U buyuk zot,  
Farzandim deb yonadir.  
Eng ilohiy qudratlarga  
Qodir inson onadir!

*A.Navoiy, K.Yashin, S. Akbariy  
she'riyatidan*

Odamlar bor – yiqilganni suyab qo‘yarkan,  
Odamlar bor – bir gap bilan bo‘yab qo‘yarkan.

Odamlar bor – jon oshig‘i, amaling bir pul,  
Odamlar bor – mol oshig‘i, tark etar bir kun.

Odamlar bor – bo‘rini ham o‘rgatar qo‘lga,  
Odamlar bor – o‘z bolasin sololmas yo‘lga.

Odamlar bor – doim tayyor istiqbolingga,  
Odamlar bor – go‘ringda ham qo‘ymas holingga.

Odamlar bor – ko‘zsiz bo‘lib pay gilam to‘qir,  
Odamlar bor – ko‘zli bo‘lib, ko‘zingni cho‘qir.

Odamlar bor – butun umri falsafa, g‘oya,  
Odamlar bor – butun umri safsata, soY.

Odamlar bor – trikligida o‘likdir,  
Odamlar bor – o‘lganda ham tirikdir.

Odamlar bor – olg‘a bayroq ko‘tarib borar,

Odamlar bor – osh pishganda yo‘talib borar.

Odamlar bor – odamlar bor, turfa odamlar,  
Axir bitta bog‘da pishar turli bodomlar.

To‘g‘ri til tosh yorar, har egri til bosh,  
Osmondan yog‘ilmas, chalpak bilan osh.

Odam haqidagi fikringiz to‘g‘ri,  
Odam bor mehnatkash, odam bor o‘g‘ri.

Odam bor-ki, ketmon chopib to‘kar ter.  
Odam borki, chigirkaday tekin yer.

Odam bor-ki, qolur undan yaxshi ot,  
Odam bor-ki. Qolur undan ohu – dod.

Odami ersang, demagil odami,  
Onikim yo‘q xalq g‘anidin g‘ami.

Dedingiz taqdirni o‘zgartirib bo‘lmas,  
Bir inson balanddir, biri esa past.

Xo‘sh, mashoyix tashlang baytu g‘azalni,  
Inson o‘zgartirur taqdir azalni.

Insondir yerdagi ulug‘vor quyosh,  
Koinot, hayotga inson erur bosh.

*Shukur Burxon,*

*Shukur Burxon*

Zoti poki – o'zbek o'g'lon,

Teatri – saroy – qo'rg'on,

So'zlamasdan biron yolg'on

Dovrug' surg'on

Shukur Burxon.

Goh "Ulug'bek", goh Yalangto'sh,

Bo'lsa hamki burgutzot qush –

Ko'ngli edi go'dakday bo'sh.

Lokin polvon –

Shukur burxon.

Barchaga teng baxt tilardi,

Yomonni ham yaxshilardi,

Bu savobni kim qilardi?

Asl inson –

Shukur Burxon.

Sevar erdi ko'p shogirdin,

Yengillatar dilda dardin,

Artib qo'yar kiprik gardin,

Eng mexribon –

Shukur Burxon.

San'at taxti uzra yetib,

Bo'la oldi u shoh Edip...

Sahnalarda parvoz etib

Topgan-di shon –

Shukur Burxon.

Ko'tarmadi aslo burnin,

Yo'qotmadi obro'y – burdin.

El qalbidan topdi o‘rnin,  
Ahli davron –  
Shukur Burxon.

Kimlar uni unutdilar...  
O‘ta qabih yo‘l tutdilar.  
Ammo ko‘plar gul tutdilar,  
Urdu javlon –  
Shukur Burxon.

Tug‘ilgandi san’at uchun,  
Sarf ayladi umru kuchin,  
Alangalar sochgan uchqun –  
Yonar xamon –  
Shukur Burxon.

Mo‘min so‘zni dildan chizar,  
Ulug‘larni el yetkizar.  
San’at degan bog‘da kezar  
Shukur Burxon  
Shukur Burxon...

*Jumaniyoz Jabborov*

### *Abadiy yog‘du*

Xonim deymu yo erkam, jonim,  
Begim deymu yo deymu bonu.  
Ayol otlik buyuk jahonim,  
Sen men uchun abadiy yog‘du.  
Oyim deymu yoxud quyoshim,  
Barcha sifat ojiz qarshingda.  
Sening bilan ko‘kdadir boshim,  
Sen porlaysan ko‘ngil arshimda.  
Deydilarki,

Bu olam ichra  
Qolsa hamki bir dona ayol,  
Zargar zoti kunduzu kecha  
Bezagingni etarmish xayol.

Beshik emas, dunyo tebratgan  
Qo‘llaringni o‘psak bo‘lur oz.  
Oyog‘laring ostida erkan  
Jannat degan eng oliy E’zoz.

Bitta kulging – hayot quvonchi,  
Bitta g‘aming – jahoniy anduh.  
Jahonlarni qamrar quloching,  
Onalarda – eng qudratli ruh.

Sochlarining har bir tolasi  
Somon yo‘li qadar munavvar.  
Beshikdagi jajji bolasi –  
U kelajak atalmish gavhar.

Ayol nomi qoshida dunyo  
Ehtirom-la etgaydir ta’zim.  
U hayotning ramzidir go‘yo,  
U hayotday mangu va azim!

*Xurshid Davron*

### *Kulol muhabbati*

Sahardan to oqshomga qadar  
Ko‘kda porlab yonmaguncha oy,  
Ertak so‘ylar sarxush barmoqlar,  
Ertak tinglar qizil rangli loy.

Loyni silar barmoqlar,  
Ayol sochlarini silagan kabi.  
Loyga ko‘char quvonch va xayol,

Loyga ko‘char kulolning qalbi.

Sahardan to oqshomga qadar,  
Ko‘kda porlab chiqmaguncha oy,  
Sog‘inchlarin osmonga so‘ylab,  
Quyosh bilan birga kuylar loy.

Oqshom esa, charchagan kulol  
Chiqib ketgan payt choyxonaga,  
Oy chodraga o‘rangan ayol  
Kirib kelar ustaxonaga.

Yonoqlari quyoshdek qizib,  
Qo‘lga olar har bir ko‘zani  
va barmoqlar taftini sezib  
o‘pa boshlar ular izini.

## MASALLAR

*I.A.Krilov*

### *DEHQON VA ILON*

Dehqonning oldiga keldi-da Ilon,  
Der: “Inoq yashaylik endi, qo‘shnijon!  
Bundan buyon mendan cho‘chimagin sen,  
Qaragin, butunlay boshqachaman men:  
Bahor terimni ham o‘zgartdi hatto”.  
Ilonning so‘ziga ishonmay Dehqon  
Qo‘liga boltani oldi – da shu on  
Dediki: “O‘zgargan bo‘lsa – da tering,  
Baribir eskicha – yozuvdir diling” –  
Va Ilon boshini yanchidi u shartta.

Mabodo ishonchi yo‘qotsang agar,  
Ming niqob o‘zgartir, baribir bekor.  
Aldashning foydasi bo‘lmas mutlaqo,  
Xuddi Ilon kabi olasan jazo.

*M. Xudoyqulov*

### *KURKA TOVUQ NIMA DEYDI?*

Qushlarning makoni – katta to‘qayda,  
Qo‘shmaktab bo‘lardi – xushxavo joyda.  
Polapon bo‘lmagan qushchalar kunda,  
Parvoz etish ilmini o‘rganar bunda  
Bir kuni maktab direktori – O‘rdak  
Boshlab kelib qoldi Kurkani  
«Shu kundan boshlab, bu kishi dars berar, tinglang yaxshilab».  
Kurkavoy ochdida katta papkasini.  
Qog‘ozlarini ochib boshladi darsini

Mavzu: «Qanday qilib uchish osmonda...»  
Soʻzlay ketdi, bir vaqt, qadim zamonda  
Koʻkda qushlar qanday qilishgan parvoz.  
«Osmonda uchishlik... o naqadar soz!»  
Kurkavoy berilib gapirdi uzoq,  
Chalinay deganda, endi qoʻngʻiroq.  
Soʻzin tugatib der: «Mumkin boʻlsa gar,  
Bizga koʻrsatsangiz qanday uchishni».  
Ustoz bazoʻr bosib tishiga tishni  
Der: «Darsim qushchalar... faqat nazariy...  
Uchishnimi? Bilib oling oʻzlaring».

*M. Xudoyqulov*

#### ***FIL BILAN PASHSHA***

“Culton suyagini xorlatib qoʻymas,  
CHOʻng daraxting boʻlsa – yetgay soyasi.  
Bir qarindoshing “katta” boʻlsa bas –  
Ishqilib, bir kuni tekkay foydasi”, -  
Deya oʻzlariga izlashib tirak,  
Baʼzi akamlarning jonlari halak  
Bir kuni qoʻrada jonvorlar aro  
Ana shu mavzuda gap yurib qoldi.  
Xoʻsh, kimda nomdorroq xeshu aqrabo?  
Mosh mushuk birinchi boʻlib soʻz oldi:  
“E, bizning urugʻdan oʻrmonning shoxi,  
Yoʻlbarsbekni, axir hamma tanidi.  
Qalaysan, deb soʻrab turadi goho,  
YO qoʻrangga podsho qilaymi, deydi”.  
“Bizning qarindosh ham oʻrmonning zoʻri, -  
Deb qoldi kuchukvoy, - nomlari – boʻri.

Oldimga kel, deydi, mexmon bo‘l, deydi,  
Go‘shni suyak juda mo‘lu ko‘l, deydi”.  
“Qa – qa – qarang – a, - qo‘shildi tovuq, -  
Burgut bilan biz ham yaqinmiz juda,  
Katta ammamizga bo‘ladi quda,  
Faqat oramizda bordi – keldi yo‘q”.  
Shunda uchib o‘tib qoldi – ku pashsha,  
Sizga aralashdi u shosha - pisha:  
“E, bizning qarindosh hammadan zo‘rroq!”  
“Xo‘sh, o‘zi kim ekan, qani aytib boq?”  
“Kim bo‘lardi - Fil”.  
“E o‘l – ye, yolg‘onchi, sal andisha qil,  
Fil senga qarindosh? Qanaqasiga?”  
Pasha der kerilib: “Shunaqasiga, -  
Qarindosh bo‘lgan – chun o‘hshashmiz shuncha:  
Unda xartum boru menda - xartumcha”.

*M. Xudoyqulov*

### ***YO‘LBARS BILAN MOSH***

O‘zini ko‘rmagan bo‘lsa – da, garchi,  
Yo‘lbarsning dovrug‘ini eshitdiyu Mosh  
Dedi: “Bir o‘zimni sinab ko‘rsam-chi,  
Yo‘lbars siyoqliman bo‘lsam hamki yosh...”  
Orzuga ayb yo‘q, deydilar, ammo –  
Betayin orzu ham boshga bir balo...  
To‘qayga keldiyu, hullas kalom,  
Ta‘zim bilan dedi: “Ey, ustoz, salom!  
Shogird bo‘lay deya keldim men sizga,  
Kerakli yo‘l yo‘riq o‘rgating bizga”.  
Yo‘lbars qarasaki – g‘irvaygan mahluq,

Go‘layib turibdi, ikki ko‘zi lo‘q.  
Yelka qisib dedi: “Ho‘sh, ayt – chi, qani –  
Senga o‘rgatayin nimani?”  
Mushuk chapdast dedi: - “Yo‘lbarslikni – da...  
Yoshligimdan orzu qilaman juda!”  
“Hm... shunaqa degin... – Yo‘lbars qashlar bosh, -  
Oting nima edi? Ha, tushundim, Mosh,  
Gap bunday: ne qilsam – shuni qilasan,  
Ishimizning o‘zing ko‘rib, bilasan...”  
Qulluq qildi Mushuk, boshi osmonda,  
Yo‘lbars ov boshladi bir kuni o‘rmonda,  
“Ketimdan qolmagin” deya mushukni  
Quvlab ketdi ustoz uchqur kiyikni  
Jon holatda chopar shogirti halloslab,  
Ustoz o‘lja bila ketdi olislab.  
Xarchandiki qildi – yeta olmadi,  
Ustoz etagidan tuta olmadi.  
“Ehtimol, - der mushuk, - yanagi safar –  
Qattiqroq urunsam – meniki zafar...”  
Yana ov, va lekin Mushuk bechora  
To‘qayda uloqib, bo‘lib ovora,  
Qilolmay birorta yumushni udda –  
Holdan toyib abgor bo‘ldi – ku juda...  
“Ukam senga juda qiyin bo‘ldi – yov, -  
Der Yo‘lbars, - ilgari qilganmiding ov?”  
“Ha, - der dum siqib Mosh, - sichqon ovlardim...”  
“Shunaqa ekan –da, men ham payqadam,  
Yaxshisi o‘zingni ovingdan qolma,  
Bizning ish – og‘ir ish, ko‘nglingga olma...”  
Ustoz o‘gitini olib quloqqa,

Mushuk astagina qaytdi qaznoqqa.

Ulug‘lar shuhratin qil, mayli havas,  
Lekin o‘z ishingni qoyillatsang bas.

*M. Xudoyqulov*

### ***QARG‘A BILAN PISHLOQ***

*(Krilovdan yana boshqacha)*

Tulki bir kun o‘tayotsa daraxt ostidan  
Shohga qo‘nib qarg‘a turar, og‘izida pishloq.  
Ko‘zi tushib, ko‘ngli ketib to‘xtadi birdan  
Va qarg‘ani gapga solmoq bo‘ldi – ku shu choq:  
“E, bormisan, Qarg‘aginam, do‘mboqqinam – yey,  
Sening shirin ovozingni sog‘indim biram...”  
Qarg‘a tutib pishlog‘ini panjaga mahkam:  
“Ishingni qil, - dedi pinak buzmasdan turib,-  
Bu pishloqni topib bo‘psan ming zir yugirib,  
Olib qochgan – akang uni kechib jonidan  
“Supermarket” direktori dasturxonidan...”

*M. Xudoyqulov*

### ***BAROQ VA LAYCHA***

Meni ma‘zur tutsin uy hayvonlari,  
Yana ular haqda yozildi masal.  
Yana It va Mushuk – “qahramon”lari  
Lekin bu galgilar – boshqacharoq sal:  
Katta darvozali, hashamdor uyda  
Bir Laycha it bilan Mushuk bo‘lardi.  
Xo‘jayinga erka edilar juda,  
Yemog‘u ichmoqdan yo‘q o‘zga dardi.

Hay-hay, bu laychaning kerilgani-yey!  
Ko‘rmaganni derlar ko‘rgani qursin.  
Shiypanglardi bosar – tusarin bilmay,  
YO boshqalar tursin, yoki u tursin!  
Kerilmay bo‘larmi, axir, xo‘jayin  
Og‘zidan suyagin qilsa marhamat.  
Hech kimsa “Hayt!” deya olmasa tayin,  
Mehmonlar “siz” sirab eshitsa “hurmat”.  
Mushuk ham olifta, dumlari baroq,  
Bosaymi – bosaymi deb tashlar qadam.  
Non bersangiz yemay qilar noz-firoq,  
Xo‘jayin pinjida uxlardi har dam.  
(Lekin ikkovin ham bilgani – bilgan,  
Ikki oshar emish epini qilgan...)  
...Bir kun ular bekor, oftobshuvoqda  
O‘zaro “tajriba” o‘rtoqlashishdi:  
“Qalaysan?” – deb Laycha so‘rar Baroqdan.  
“Yomon emas, - deya Mushuk kerishdi, -  
Ishqilib, xo‘jayin bo‘lsin-da omon,  
Ko‘nglim biron narsa tusagan zamon –  
Kelib, biqiniga suykalib asta,  
Eritib, olaman uni bir pasda...”  
“Barakalla, - deya harsillar Laycha, -  
Bu borada mening ham hunarim ancha:  
Xo‘jayindan suyak kutsam, o‘sha zum –  
Ko‘ziga tikilib, silkitaman dum...”  
Laycha nimalardir g‘ingshidi uzoq,  
Mushuk boshin silkib asta xur-xurlar.  
Aytuvdim-ku, bular sal boshqacharoq:  
YA’ni, laganbardor edi qurg‘urlar!

***QARG‘A BILAN TULKI***

*(I.A.Krilovdan)*

Xushomadga uchmoq – qabohat , zarar,

Necha bor aytmishlar buni donolar.

Qilinmaski amal – bari befoyda,

Doim xushomadgo‘y pichog‘i moyda.

Qarg‘a bir kun allaqaydan

Jindak pishloq topib oldi.

Qo‘ndiq tanlab qarag‘aydan

Yemoqchiydi, o‘ylab qoldi.

Baxtga qarshi o‘sha yerdan

O‘tib borar edi Tulki,

Pishloq hidin sezib birdan

Joyida taq to‘xtadi – ku.

Qarasaki – luqmai pok

Turar Qarg‘a tumshug‘ida,

Tulki, axir, azaldanoq

Mazzaxo‘rak bunga juda.

Asta kelib daraxt tomon,

Dum o‘ynatib uyon – buyon,

Uzmagancha Qarg‘adan ko‘z,

Xushomad – la boshladi so‘z:

“Aylanayin, do‘mboqqinam,

Qoshi – ko‘zi munchoqqinam!

Biram go‘zal patu boling,

Bo‘yinlaring, qaddi-doling,

Ta’rifiga so‘z yo‘q netay,

Girgittingoning bo‘lib ketay!

Turishlaring ofatijon,

Tumshuqlaring nafis biram,  
Senday qushni hech bir zamon  
Ko‘rmagandir Bog‘i Eram!  
Hammasidan a’lodursan,  
Kuylashda ham balodirsan?  
Bir sayrab ber, qaroqqinam,  
Rohat qilsin quloqqinam.  
Tortinmasdan boshla, qani,  
Qushlar shohi derlar seni!”  
Bu maqtovdan bo‘lib shodmon  
Qarg‘a “qag‘!” deb og‘iz ochdi.  
Pishloq yerga tushgan hamon  
Ayyor Tulki ila qochdi.

*S. Mixalkov*

### ***IKKI DUGONA***

- «Aziz dugonaginam,  
Uylaring muncha shinam, -  
Dedi xasad bilan chiyillab Sichqon  
Kalamushnikida bo‘lganda mexmon –  
Qayoqqa qaramay ko‘zim qamashar,  
Jixozlar uyinga biram yarashar.  
Qara-ya, hammasi chet elniki-ya!»  
- «Ox jonginam hamsoya –  
Der kalamush tortib og‘ir» ux», -  
Mening didim senga ma’lum – ku!  
Uncha-muncha narsani suymayman sira,  
Chet-elniki bo‘lsa jonlarim kirar.  
Manovi turk divanining lattasi,  
Manov eron gilamining parchasi.

Manov yengil parquchi, kecha kelgan  
Afrikadan. Uni uni yubormish Pulkan»  
- «Bular-ku, juda soz, aytginchi faqat –  
Tomong‘ingdan o‘tmas biz yegan ovqat?»  
- «Nega, o‘rtoqjon,  
Hamma kabi yeyman saryog‘u, oq non...»  
O‘zimiznikini yerlarga urib  
Chetning lash-lushini maqtovchilar bor,  
Hamma narsamizni yomonlab turib  
Nonimizni yeyishdan qilishmaydi or.

*S. Mixalkov*

### ***AYYOR SICHQON***

Uyqusirabmiye, bir kuni nogox  
Pivo bochkasiga quladi Sichqon.  
Qarasa – cho‘kayapti, ko‘tardi ox-vox:  
Axir shirin jon:  
«Voy-dod! Qutqaringlar, yaxshilar!  
Kim bor?  
Jiguli pivoda bo‘lyapman xalok!  
Ba‘mani o‘limga bo‘libman duchor,  
Mushukning qo‘lida o‘lsam yaxshiroq»  
Ko‘rib turgan edi Mushuk xam shu choq,  
«Shundaymi? – Deya asta iljaydi  
Sizni qutqarishim mumkin-ku, ammo –  
Ovqat bo‘lasizda bizga shu asno?»  
«Qutqar, qutqar meni! Roziman, mayli!  
CHO‘kayapman, qolmadi sira darmonim,  
Bundan chiqib o‘lsam – yo‘qdir armonim!»  
Va nixoyat tortib olindi sichqon,

Endi yem bo‘lish yemasdi gumon.  
O‘zini ko‘rdi-yu o‘tkir tirnoqda  
Sichqon bechoraning joni ramaqda,  
Dir-dir titrar edi butun vujudi,  
Boz ustiga burqib pivoning xidi...  
Sichqon bir talpinib jon-jaxdi bilan  
Ura qochib qoldi mushuk qo‘lidan.  
«Ertam yoki kech – yemish bo‘lasiz» –  
Dedi panjasini yalarkan mushuk, -  
Shunday ekan nega aldamoqchisiz?  
Axir ikkalamiz kelishkandi-ku?  
Degandingiz: «Mayli yesangiz meni....»  
Qani vadangizu, lafzingiz qani?»  
«Uzur dedi sichqon kavakdan jilmay,-  
Vada berroribmiz mastlikda bilmay...»

*S. Mixalkov*

### ***TULKI VA QUNDUZ***

Tulki ko‘rib qoldi bir kun Qunduzni  
Kumushdek mo‘ynasi olardi ko‘zni  
Buning ustiga u qo‘li gul usta  
Qurigan uylariga hamma xavasda  
Xullasi kalom –  
Tulki oyni «Maftun» etdi u tamom  
Uxlamay, to‘lg‘onib chiqar tunlari,  
Nahotki yetmasa makri, hunari?  
«Boshqa tulkilardan bir joyim kammi,  
Qunduzni qo‘limda o‘ynatmasammi?»  
Dedi-yu Tulki oy boshlar o‘z ishin,  
Qunduzni ko‘rganda qoqadi qoshin,

Xiring-xiring kulib, ko‘zin suzadi.  
Dumin likillatib – ko‘nglin buzadi.  
Keksaygan Qunduzning boshi aylanib  
Tulkiga ilashib qoldi boylanib.  
Uni deb yugurdi, guldasta terdi,  
Qunduz bekasining javobin berdi.  
U «qarib qolgan» mish, «befarosat» mish,  
Endi Qunduzvoyga to‘g‘ri kelmasmish...  
Keksa Tipratikan –  
Pastdagi suvloqqa tushib kelarkan –  
Eski Qadirdoni Qunduzni ko‘rdi,  
Omonlashdi, yana axvolni so‘radi:  
«E, salom, Qunduzvoy, baxay  
Tulkivoy bilan turmushing qalay?»  
«E do‘stim xolimni so‘rama aslo...  
Der Qunduz, - tushunmas xuddi bir balo!  
Kutgani nuqul o‘rdaku, tovuq  
Daydib sanqimagan biror kuni yo‘q,  
Tunu kun bilgani pardozu yallo,  
Biram shallaqiki, biram bexayo  
Uning nayranglarin aytay qay birin  
O‘zimni o‘ldiray desam jon shirin,  
Xullas o‘rtoq,  
Toqat bo‘ldi toq!  
Mening axvolimga bir tushunib boq.  
Qanday bo‘lar ekan uyimga qaytsam  
Qunduzoy kechirar uzurimni aytsam...»  
«Tezroq uyiga chop – der Tipratikan –  
Axvoling bo‘lmasin besh battar yomon»  
Qunduz g‘irilladi o‘z uyi tomon:

Men keldim, eshikni och Qunduzoy,  
«Ochmayman, - der beka – yalinma bekor  
Tulkining uyida bo‘lgin qo‘shmazor!»  
Noiloj Tulkixonga chopdi tez,  
Qarasa o‘tirar boshqa bir Qunduz.  
Masalning mag‘zin asta chaqib bor,  
Oqsoch Qunduzlarga bo‘lg‘usi saboq!

*S. Mixalkov*

### ***ICHMAYDIGAN CHUMCHUQ***

Qushlarning ziyofati  
Avjiga chiqqan payti –  
Qarasaki, qizilishton – kosagul –  
Chumchuq aroq emas – suv ichar nuqul!  
Mehmonlar ko‘tardi shovqinu suron,  
Chumchuqqa “jarima” qo‘yildi shu on:  
- Ichmayman, og‘zimga olmovdim sira, -  
Chumchuq turib oldi oyog‘in tirab.  
- Qanaqasiga ulfatsan? – Bo‘g‘ildi Boyqush, -  
Men kasal bo‘lsam ham ichyapman-ku, xo‘sh?  
- O‘rmonimiz uchun, osmon uchun -  
Qani oq qilivor, ko‘rsat bir kuching!  
Har yoqdan boshlandi qiyin – qistovlar,  
Bechora Chumchuqvoy tokay bosh tovlar?  
Noiloj qadahdan bir ho‘plam oldi.  
- Noming o‘tmaydi! Tagida qoldi!  
Totgan ham, botgan ham bir, axir, ukam,  
To‘ldirib quyilsin unga stakan!  
Nimaga ham yetsin Chumchuqning kuchi?  
Hamma tarqaldi-yu, u qoldi “uchib”.

O'tib ketdi bundan necha yil, zamon,  
Ammo Chumchuqvoyga kun yo'qdir hamon.  
Bo'lgandek bo'lsa u qayerda paydo  
Boshlanib ketadi mish – mishu ig'vo:  
“Shunday icharmish-ki...” “Rasvoni qarang...”  
“Uyini ham topib borarmish arang...”  
“Xotinini tashlab ketganmish beor....”  
Chumchuq “ichmayman” deb chirqillar bekor...

Qoqilishi mumkin hayotda odam,  
O'lgundek pushaymon – o'zi biladi.  
O'ylab, o'z yo'lini topar, albatta,  
Doim to'g'rilikka amal qiladi.  
Ammo ba'zilar bor – kovlab eskini  
Unga ta'na toshin otmoqqa tayyor:  
Qachondir, qayerda, qishmi yo bahor –  
Qandaydir “ish” bilan ko'rganmish uni...

*Sami Abduqaxxor*

### ***BULBUL BILAN OLASHAQSHAQ***

Bulbul berdi ziyofat kecha,  
Tengqurlarini kutib oldi xush.  
Keldi Sa'va, Mayna, Qizilto'sh  
Qumri, Kakku, sho'x Chittakgacha  
Bazm qizg'in, dasturxon tugul  
Mo'l tortildi, nektar bilan gul  
So'ngra qo'shiq boshladi bulbul  
Shu choq uchib kelib bir Olashaqshaq  
O'zin urdi to'rdagi joyga  
Gap boshladi u Kakkuboyga

- Xol so‘ragil Bulbul boyaqishdan  
Bugun olib tashlandi ishdan  
Zaxcha bu yil chiqmaydi qishdan  
Va hokazo gapi poyma – poy  
Olashaqshaq valdirar tinmay  
Oldin qushlar qildi iltimos  
- Bas qil jonga teyding rost  
Olashaqshaq gapirar tinmas  
Xo‘roz kaltak yedi tovuqdan  
To‘rg‘ay mag‘lub bo‘ldi sovuqdan  
Bulbul to‘xtab qo‘shiq buzildi  
Yaxshi bazm sovub buzildi.  
Uchib ketdi Sa‘vayu, Mayna  
Xayrlashmay ketdi Bedana...  
Xech kim endi kulmas xushchaqchaq  
Faqat ichib, yer Olashaqshaq  
Shoxda turib yalinar mezbon:  
- Qara, tarqab ketyapti mexmon  
Yo‘qol bezbet uyimdan shu on  
Olashaqshaq ketmay shunda ham  
Dedi muttaxam  
- Bildim barin yaqin hamtumshuq  
Ichkilikboz, maishiy buzuq!  
Tegish joyga borar anokim  
Shuni bilib qo‘y inim!...

*Yusuf Miryusufzoda*

### ***NODONLAR XUKMI***

Xukmdor edi eshak  
Taxti ravon to‘shak

Ola qargʻa jarchisi  
Zagʻizgʻon xabarchisi  
Yashaylik deb farovon  
U chiqardi bir farmon  
Qargʻa tarqatdi tongda  
Yangi tartib oʻrmonda  
Hamma xayvonlar bilsin  
Bir – birin xurmat qilsin  
Xech kimni oʻldirmasin  
Xayotin sundirmasin  
Kim birovga qast qilsa  
Nazarini past qilsa  
Oʻlinga xukm boʻlur  
Xayoti yakun boʻlur.  
Shunday qilib oʻrmonda  
Parranda-yu darranda  
Yangi xukm boʻyicha  
Yashabdilar bir kecha  
Zagʻizgʻon esa tongda  
Gap tarqatdi xar yonda  
Badnafs yoʻlbars yaramas  
Tartibga ham qaramas  
Oʻylamay oʻrmon shanin  
Toʻkibdi kiyin qonin  
Shum xabardan shu lahza  
Dillarga tushib larza  
Xayvonlar koʻplanishib  
Bir yerga toʻplanishib  
Muxokama boshladilar  
Turfa fikr tashladilar

Eshshak taxtda o'tirar  
Maslaxatchi tutilar  
Bug'u der: Ey kazo  
Yulbarsga o'lim jazo  
O'rtani yorib kirib  
Tulki der tomoq qirib  
Gapingiz to'g'ri ammo  
Bor bunda bir muammo  
Yo'lbarsni qilsak gumdon  
Yo'lbarssiz qolar o'rmon  
Bittagina u axir  
Afsus qilmaylik oxir  
O'rniga ey xaloyiq  
Qatl etilsin ayiq.  
Doroz, jiraf va xo'roz  
Dedi: Bu juda soz.  
Bu gapda ham beshak  
Muammo bor der eshak  
O'ylamaylik biz kalta  
Ayg'imiz ham bitta  
Ma'lumki bizda shoxdor  
Ikkita bug'imiz bor  
Biz shunday yo'l tutaylik  
Birin qatl etaylik  
Daroz, jiraf va xo'roz  
Dedi: Bu juda soz.

## G‘AZALLAR

*Lutfiy*

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,  
Qondur jigirim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,  
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoqi qilich kelsa boshimg‘a eshikingdin,  
Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko‘zung ashkolina har nazar etsam,  
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

YA‘qub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz,  
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzingga ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla,  
Yo‘qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,  
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

*Alisher Navoiy*

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas.

Ne bahra topqamen ondinki, mendin istagay bahra,  
Chu ulkim, bahraye ondin tilarmen bahramand etmas.

Netay huru pari bazminki, qatlim yo hayoting‘a,  
Ayon ul zahrchashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, xusnu malohatdin,  
Ichim ul chok – chok etmas, tanim bu band – band etmas.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,  
Buzug‘ ko‘nglimdin o‘zga yerda javloni samand etmas.

Ko‘ngul uz charxi zolidin, firibin yemakim oxir.  
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a kamand etmas.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, navoiy tegmasun deb ko‘z,  
Muhabbat tuxmudin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

*Alisher Navoiy*

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,  
Ko‘nglima har birining dardi balosinmu deyin?!

Ko‘zi qahrinmu deyin, kpiriki zahrinmu deyin,  
Bu kudurat ichra ruxsori safosinmu deyin?!

Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,  
Bu qatliq dard aro vaslining davosinmu deyin?!

Zulfi dominmu deyin, la‘li kalominmu deyin,  
Birining qaddin, yana birining adosinmu deyin?!

Turfa xolinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,  
Moviy ko‘nglak uzra galrangi qabosinmu deyin?!

Charx ranjinmu deyin, daxr shikanjinmu deyin,  
Jonima har birining javru jafosinmu deyin?!

Ey Navoiy, dema qoshi ko‘zining vasfini, ayt  
Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin?!

*Alisher Navoiy*

Xil’atni to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,  
Shu’layi ohim esar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Gulshan etdim ishq saxrosin, samumi ohdin,  
Kim esar ul dasht aro har on qizil, sorig‘, yashil.

Orazi, xoling oila xatting xayolidin erur,  
Qo‘llarimning oldida davron qizil, sorig‘, yashil.

Shishadek ko‘nglimdadir gulzori husning yodidin  
Tobadoning aksidek alvon qizil, sorig‘, yashil.

La’lgun may tutqil oltin jom birlan sabzada,  
Kim bulardin yaxshi yo‘q imkon qizil, sorig‘, yashil.

Faqr aro beranglik dushvor erur behad, valek,  
Hirqada tikmak erur oson qizil, sorig‘, yashil.

Ey, Navoiy, oltinu shingarfu zangor istama,  
Bo‘ldi nazming rangidin devon qizil, sorig‘, yashil....

Har labing o'lganni tirguzmakda jono, jon erur,  
Bu jihatdan bir birisi birla jonojon erur.

Jonim andoq to'ldi jonondinki, bo'lmas fahmkim,  
Jon erur, jonon emas, yo jon emas, jonon erur.

Bo'lsa jonon bordudur jon ham, chu jonon qildi azm,  
Jon ketib jonon bila, jondin menga hijron erur.

Jon manga jonon uchundir, yo'q jonon jon uchun,  
Umr jononsiz qotiq, jonsiz vale oson erur.

Borsa jon jonon yitar, gar borsa jonon jon ketar,  
Kimsaga jononu jonsiz umr ne imkon erur.

Xushdurur jonu jahon jonon bila, jonon agar  
Bo'lmasa, jon o'ylakim o'lmas, jahon zindon erur.

Jonim ol, ey hajru jononsiz manga ranj aylama,  
Chunki jononsiz Navoiy jonidin ranjon erur.

Ko'nglum ichra dardu g'am avvalg'ilarg'a o'xshamas,  
Kim ul oyning hajri ham avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Ne sitamkim qilsa rahmi maxfiy ermas zimnida,  
Emdi qilsa har sitam, avvalg'ilarg'a o'xshamas.

Demangiz Shirinu Layli oncha bor husn ichrakim,

Xo‘bluqda ul sanam avvalg‘ilarga o‘xshamas.

Javridin erdi alamlar emdi tutmish o‘zga yor,  
O‘lmishamkim, bu alam avvalg‘ilarga o‘xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnunga o‘xshatmang meni,  
Kim bu savdoyi dijam avvalg‘ilarga o‘xshamas.

Qo‘yining ehromidin ko‘nglimni man’ etmang yana,  
Kim anga azmi haram avvalg‘ilarga o‘xshamas.

Ey Navoiy, qilma Jamshidu Faridun vasfikim,  
Shoh G‘oziyg‘a karam avvalg‘ilarga o‘xshamas.

*Sa’diy Sheroziy*

Ey sorbon, ohista yur, oromi jonim boradur,  
Tandin dilu jonim olib, ul dilsitonim boradur.

Qolurmumen olis bo‘lib, bechorayu mayus bo‘lib,  
Qalbim firoq tig‘i tilib, to ustixonim boradur.

Derdim qilib nayrang-fusun, sirrim etay pinhon bu kun,  
Pinhon bo‘lolmas chunki xun, dildan nihonim boradur.

Sarkash nigorimdin judo, ayshu qarorim bebaqo,  
Manqalda otashdek qaro dud birla qonim boradur.

Cheksamda zulm bedodini, ham va’dalar barbodini,  
Ko‘ksimda tutgum yodini, toki zabonim boradur.

To'xtat bir oz, ey sorbon, karvonni qilma tez chunon,  
Sarvi ravon ishqida jon, ruhi ravonim boradur.

Qayt, ko'zlarimga qo'y oyoq, ey dilfirib, ketma yiroq,  
Ey nozanin, ko'kka bu choq ohu fig'onim boradur.

To subhki, uyqu bilmadim, nosihni ko'zga ilmadim,  
Ammo ataylab qilmadim, qo'ldan inonim boradur.

Sabr ayla der menga jaras, yor vaslini qilma havas,  
Bu menga loyiq ish emas, chun honumonim boradur.

Unday chiqar jonu bu tan, sabil qolur deb, ko'p suhan,  
Tinglagan erdim, endi man ko'rdimki jonim boradur,

Qilma fig'on, ey Sa'diyo, hech arzimas ul bevafo!  
Toqatni qo'ymas bu jafo, aqlu imonim boradur.

*Hofiz Sheroziy*

Agar ko'nglimni shod etsa, o'shal Sheroz jononi,  
Qaro xoliga baxsh etkum Samarqandu Buxoroni.

Sun, ey soqiy, mayin oxirgacha, jannatda topmaysan  
Bu Ruknobod qirg'og'idagi so'lim Musalloni.

Shu aldoqchi, qiziqchi, fitnachi sho'xlar qo'lidan dod,  
Ko'nguldan eltdilar sabrim, qilib turklarcha yag'moni.

Mening nuqsonli ishqimga uning husni emas muxtoj,  
Go'zal yuz hech talab qilmas bo'yoq ham zebu oroni.

Gapir cholg'uchidan, maydan, jahon sirrini kam izla,  
Yecholmas hech kishi hikmatla bu og'ir muammoni.

Men ul Yusufdagi cheksiz go'zallikdan aniq bildim  
Chiqormish ishq nomus pardasidan ul Zulayxoni.

Yomon deding, quvondim men, Xudo haqqi so'zing to'g'ri,  
Go'zalroq ayladi achchiq so'zing la'li shakarxoni.

Nasixat tinglagil, jono, tuturlar jonu dildan do'st  
Aqlli baxtli yoshlar hurmat aylab keksa dononi.

***Bobur***

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?  
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'!

Bu zamonni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,  
Ko'rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig'!

Dilrabolardin yamonliq keldi mahzun ko'ngluma,  
Kelmadi jonimg'a hech oromi jondin yaxshilig'!

Ey ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yamonliq asru ko'p,  
Emdi ko'z tutmak ne ma'ni har yamondin yaxshilig'?

Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q  
Kim, deganlar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,

Kim, ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?!

**Bobur**

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?

Kimki, ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘!

Bu zamonni nafy qilsam, ayb qilma, ey rafiq,

Ko‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘!

Dilrabolardin yamonliq keldi mahzun ko‘ngluma,

Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilig‘!

Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yamonliq asru ko‘p,

Emdi ko‘z tutmak ne ma‘ni har yamondin yaxshilig‘?

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q

Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.

Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi,

Kim, ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?!

**Bobur**

Yor yuzumni ko‘rub dardu g‘amim bilsa kerak,

Yuz ko‘rub dardu g‘amim chorasini qilsa kerak.

Ey sabo, jonu ko‘ngulni o‘zining chun qildi,

Ko‘ngli birla degasen joni uchun kelsa kerak.

Vaslini ne qilayin g‘ayrdin ayrilmadi hech,

Yor vasli manga, u ag‘yordin ayrilsa kerak.

Vaslining qadrini chun bilmadi bu telba ko'ngul,  
Hajrining tiyg'i aning yuragini tilsa kerak.

Shukur, Bobirni bilurmen degan ermish ul oy,  
Lojaram bandalarin shohlari bilsa kerak.

### *Mashrab*

Agar oshiqligim aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar,  
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishiga ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon,  
Bo'lub besabru betoqat, yurak – bag'ri chunon o'rtar.

Nechuk toqat qilay, do'stlar, bu dard ila bo'lub hayron,  
G'amim boshqa, alam boshqa, yuragimni fig'on o'rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub har dam firoqingda,  
“Nigoro!” deb oting aytsamki, shavqindin zabon o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, sening vafing bayon aylay,  
Tilim lolu ko'zum giryon, so'ngaklarni nihon o'rtar.

Na qattig' kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo'lmoq,  
Mening ohim o'tig'a bul zaminu osmon o'rtar.

Yurakda dardu g'am qat – qatki, menda qolmadi toqat,  
Agar bir zarrasin bul vaqt desam, ishq bayon o'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,  
Unum chiqsa yurakdin, bu tanu jon, ustixon o'rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, hech kim boshigʻa solma,  
Agar mahsharda oh ursam, behishti jovidon oʻrtar.

*Furqat*

Surmadin koʻzlar qaro, qoʻllar hinodin lola rang,  
Gʻozadin yuzlarda tobu oʻsmadin qoshlar tarang.

Zaʼfaroniy koʻylak uzra argʻuvoniy kamzihur,  
Roʻyimol ogʻushidin peshonaning ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltin uzukdin zebnok,  
Qoʻl bilarzuqdan muzayyan, nuqradin ogʻizda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogoʻshida band,  
Koʻrinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

Gʻamza birla oʻlturur, gah jilvalar, birla yurur,  
Turfa bir noz, ofarin, pur ishva tannozi satang.

Aql, hush eltar agar tursa paridek silkinib,  
Odamizod ichra ham mundogʻ boʻlurmi shoʻxu shang.

Yoʻq qutulmogʻligʻ manga, ul ofati jon dastidin,  
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar hadang.

Ul parivash ishqidinki, telbadurmen, goh sogʻ,  
Chunki bordur oramizda goh sulhu gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul shoʻxi jafajoʻ ayladi,  
Muncha bedodu sitam qilmas musulmongʻa farang.

Beshyagʻoch bozorida yurgʻon edim tinglab gʻovur,  
Bir musofir surdikim qayta deb Shayxontovur.

Man dedim: shundin yurib, shungʻo borib, shundogʻ buril,  
Uchragʻay bir toʻp baqa bulbul boʻlib turgʻon zovur.

Koʻfrigim taslim etib, oʻtgʻoch zovurdin nariga,  
Toʻgʻri yur xushtakfurush attori bor joyga dovur.

Soʻng buril chaproq yana sertoshu tufrogʻ koʻchadin,  
Toʻxtama kelguncha duch lagʻmon choʻzib turgʻon povur.

San oning lagʻmonidin bir quloch yutqon boʻl-u,  
Asta yoʻl soʻrsang keyin soʻylaydi rostin, haytovur...

Ketdi ul qulluq ila, boqsamki – choʻntak qup – quruq,  
Vaysatib Gulmatni, vah, kartmonni urdi kissavur.

\*\*\*\*\*

Quloqqa xush yoqar, dilbar, yiroqlardan tovush qilsang,  
Kelib koshki bu xujramga mani bir poy kovush qilsang.

Sani qoʻyga alishmasmen, sani qimorga tikmasmen,  
Rizomasmen mani san ham boʻlak yora ovush qilsang.

Qoshing mayli kamon boʻlsun kipriging ignalar otsun,  
Chidar erdim vujudimni tugal koʻrpaqovush qilsang.

Ochiq go‘rga tiqib jussam nechun mendin yiroq ketding,  
Netar bir dam tamog‘imga sochingni chirmuvush qilsang?

Agar sal – pal tutab tursang bo‘lur erdim o‘zim gulxan,  
Manam dilni qilurman muz o‘zing ko‘ngilsovush qilsang.

Tuni birla yozib madhing yotur devonai Gulmat,  
To‘yodirman jamolingga ko‘kragimni bolush qilsang.

## MONOLOGLAR

*Vilyam Shekspir*  
*G.G'ulom tarjimasi*

### *Otello*

#### *Yago monologi*

Mening asl va pokiza nasixatlarim  
Mavrni yana qayta boshdan o'rga tortish—chun  
To'g'ri yo'lga yetaklarkan, qani aytingiz,  
Meni razil deb atashga kim botinadi?  
Xayr ishlarga tortish uchun Dezdimonani  
Hech qiyinlik tortilmaydi, juda ham o'ng'ay.  
O'zi kabi saxiy qilib tuqqan tabiat.  
U ko'p oson ko'ndiradi erin bu ishga  
Eri unga shuncha ishq—la bog'lanib qolgan,  
U bu yerga uning joni dildan kechadi  
Xotin uni yechadi ham, tugoladi ham.  
Agar biror orzuni istasa dilbar,  
O'z erining boshlig'iga bo'lar xukmron.  
Shunday ekan, kim aytadi meni mudroq deb  
Kassioning hojatlari chiqajak joyga  
Boradurgan to'ppa – to'g'ri yo'l aytdim, axir?  
Xudoyimning do'zaxlari, qora shaytonga  
Biror ulug' gunoh juda zarur bo'lganda  
Xuddi shu topdagi kabi ular har maxal,  
Avval –bizga ko'k yuborar namuna – xaykal  
Qachonki bu Kassio, haqparast axmoq,  
Iltimoslar qilar bo'lsa Dezdemonadan  
U ham borib Otelloga –yalina boshlar.  
Men ham uning qulog'iga zahar quyaman  
“Xotiningni buzuq yo'li uchun Kassio

Kerak bo‘lsa kerak” deyman. Xullas ish tamom,  
Xotin unga zo‘rlik bilan yolvorgan sari  
Otelloning ishonchi ham shuncha tugalar  
Dezdemona shafqatiga qoramoy surib,  
Shu shafqatdan to‘r to‘qiyman, tuzoq to‘qiyman,  
Hammasi ham bu tuzoqqa tushmay qolmaydi.

*Vilyam Shekspir*  
*J.Kamol tarjimasi*

*Makbet*

*Makbet monologi*

O bir yo‘la tugasaydi tugatolsaydik  
Hammasini bir sirada. Agar yovuzlik  
Inobatga olib barcha oqibatlarni,  
Omad sari boshlasaydi va bir zarb bilan  
Hal etsaydi hammasini loaqal, shunda,  
Cheksiz baxrulhayot aro sayoz shu yerda,  
Kim o‘ylardi ertasi-yu istiqbolini?  
So‘roq kutar u dunyomas, shu dunyoda ham.  
Kimki qonli dars o‘qitmish, uning boshiga  
Ag‘darilur o‘sha saboq... Qasos intiqom  
Biz o‘zimiz qo‘ygan zahar to‘la kosani  
O‘zimizga tutar... Bunda To‘xtamish qirol  
Ikki hissa oshirilgan posboni bilan.  
Men – qirolning aqrobasi, fuqarosiman,  
Demak, uni muhofaza etmog‘im darkor.  
Yo‘q, nainki, uy sohibi bo‘la turib men  
Qotillikka sad chekmasam, yana ustiga  
Xanjarimni mexmonimga botirsam xunxor.  
Insof bilan amru farmon yuritan Dulkan,

Sof – musaffo qolib o‘sha yuksak poyada,  
O‘ldirilsa, uning fazlu fazilatlari  
Farishtadek bong urarlar qasos haqida.  
YO shamolda uchib yurgan go‘dak misoli,  
YO samoviy otda uchgan malak misoli  
Yeru ko‘kka dod solurlar, solurlar fig‘on,  
Qora xabar diydalarga, dillarga singlar,  
Ko‘z yoshlardan yer yuzida qo‘zg‘alur to‘fon,  
Bas, qaroru qat‘iyatni qayramoq bekor:  
Apil – tapil sakrab chiqib shaxrat otiga,  
Yer tishlamoq nega darkor.

*Vilyam Shekspir*  
*J. Kamol tarjimasi*

*Afinalik Timon*

*Timon monologi*

So‘nggi marta solmoqdaman shahrimga nazar!  
Ey devorlar, bo‘rilarga panohdirlsiz, bas.  
Qulab tushing, Afinani etmang himoya!  
Ey onalar, foxishaga aylaning tokim  
Nazar – pisand etmay qo‘ysin sizni bolalar.  
Qullar va tentaklar, oting mansablaridan  
Yuzi ajin, kalondimog‘ senatorlarni,  
Hokimiyat jilovini oling qo‘llarga.  
Sen, ey ma‘sum yoshlik, o‘zni loy g‘ balchiqqa ur,  
Uyalmasdan, ota – ona ko‘zi o‘ngida –  
Xirsu xavaslariga to‘lib, nafsingni qondir.  
Qarzdor, oyoq tira, olgan qarzingni berma,  
Pichog‘ingni qarz berganning bo‘g‘ziga botir!  
Sodiq malay, xo‘jayining molini tala,

Bir o'g'ridir o'sha kibor xo'jayining ham,  
Faqat yirik va qonunga suyangan o'g'ri!  
Xo'jayining bilan birga yotaver cho'ri;  
O'qnashmoqqa ketdi uning xotini bo'Y.  
Sen, arzanda o'g'il, mayib, qomatin bukik  
Otang hassasini tortib qo'ldan ol-da,  
Ayamasdan tushir, uning boshin majaqla.  
Toki haqiqatu taqvo, tinchlik – axillik,  
Gunoh qarshisida titrab, qo'ruvga tushish,  
Dinu diyonatu qonun, insof adolat.  
Oila – xonadon burchi, bir – biriga hurmat,  
Odob, xeshu aqrabolik, ilmu ma'rifat,  
Rasm – rusum, urf – odat, savdo – tijorat  
Zavol topib, chappasiga aylansin tamom!  
Ha, qiyomat qoyim bo'lsin! Balo – ofatlar,  
Qo'rqinch, maraz va illatlar, shum qabohatlar  
Shu zavolli Afinaning boshiga yog'sin:  
Bod, sen bukib tashla qari amaldorlarni,  
Oqsoqlanib yursin ular vijdonlaridek!  
Zino, baloyi nafs, barcha yosh – yalanglarning  
Qoniga kir! Toki ular kechib nomusdan,  
Razolatga botib ketsin! Qichima, yara –  
Urug'lari, ko'kraklarda ko'karing, aynab,  
Maxovga aylanib keting keyin, maxovga!  
Nafas boshqa nafaslarni tinmay zaxarla,  
Do'stlik, mehr – muhabbatga sochaver og'u!  
O, la'nati shahar! Seni tark etarkanman,  
Faqat faqirlikdir bugun boylik – bisotim,  
Istaymanki, yana yuz bor ziyodabo'lib,  
Mening la'natim–la senga nasib etsin u!

Timon endi o‘rmonlarga ketar bosh olib:  
Og‘zi qon yirtqich ham unga insondan afzal.  
Ey tangrilar, yolvoraman, chekaman fig‘on:  
Yakson eting Afinani, bir yo‘la yakson!  
Yuragimda toshavergil, nafrat! Endi men  
Odamzotga dushman bo‘ldim, beomon dushman!  
Omin!

*Vilyam Shekspir*  
*G‘. G‘ulom tarjimasi*

*Qirol Lir*

*Edmund monologi*

Yaratilish! Mening tangrim sengina xolos,  
Sening hamma qonuninga xizmat qilaman  
O‘z akamdan bir yil yoki ikki yil keyin  
Tug‘ilgan-chun merosdan maxrum emishman  
Bu odatga, bu xildagi bid‘at zulmga  
Odamlarga rasm bo‘lgan riyokorlikka  
Nega xop deb, bo‘yin egib qolar ekanman?  
Qonunsizmish? Bu gap o‘zi nima degani?  
Nega men past bo‘larkanman, mening vujudim  
Bilak kuchim, tetik ruhim, raso qomatim  
Or – nomusli er – xotinlar tug‘dirib qo‘ygan  
Bolalardan zarragina kamligi yo‘q-ku,  
Nega bizga kim ko‘ringan tana so‘z bilan  
“Past”, “qonunsiz” laqabini tamg‘a qiladi?  
Biz, “qonunsiz” “zoti pastlar” – zoti pastlarmiz?  
Ammo bizni yaratishda joniga tekkan  
Uxlayverib yaloq bo‘lgan ko‘rpa – to‘shakda  
Uyqusirab bo‘yida bo‘lib, tug‘ilib qolgan

Jinni – sang‘i kattalarga nisbatan ko‘proq  
Ixtirosli yashirin ishrat zavqi aralash  
Katta kuchlar alangali zo‘rlik sarf bo‘lgan!  
Senga meros tegadigan yeru suvlarni  
Men olaman, bilib qo‘ygil, qonuniy Edgar:  
Otamizga sen qonuniy o‘g‘ildan ko‘ra  
Men qonunsiz kam qimmatga ega emasdir  
“Qonuniy-a!” jakangloshini eshitib qo‘ying  
Burunda bil, xay qonuniy ekam, mobodo  
Xat orqali qilgan makrim o‘rinlay qolsa, -  
Xaligacha kamsitilgan ukang Edmund  
Qonuniy deb taniladi. O‘sib unaman  
Qonunsizlar ishi uchun xudo madadkor.

*Vilyam Shekspir*  
*J.Kamol tarjimasi*

*Makbet*

*Makbet monologi*

Qirol bumish – xech narsa emas,  
Qurollikda chin, ustivor turish – boshqa gap,  
Yuragimda qo‘rquv oshar Bannoni ko‘rsam  
Shoxona bir talab bordur tabiatida  
Ki xar laxza xadiksirab, qo‘rqmoqqa undar  
U dovyurak, u donishmand, unda pulat rux  
Va sovuqqon bir (donishmand) tafakkur – maqsadga peshrov  
Mening uchun kim qo‘rqinchli? – O‘sha begumon  
Sezar ruxi Antoniyni qayirganidek,  
Uning ruxi yegib turar mening ruximni.  
Menga Shatland toju taxtin bashrat etgan  
Bebelarga bir xayqirib, bilib oldi u.

Qirollarga buzruqvorlik nasibasini...  
Bundan chiqdi – omonatdir boshimdagi toj,  
Bundan chiqdi – belimdagi shamshir besamar  
Bular mening avlodimga bo‘lmas muyassar  
Yot – begona qullar meni etarlar ixroj  
Demak, qon to‘kibman Banko zuryodi uchun  
O‘shani deb Dunkanni ham etibman zabun.  
Og‘u qo‘shib oromimni paymonasiga  
O‘shani deb ag‘daribman boshimga g‘avg‘o,  
Iblisga qo‘l berib, jondan bo‘libman judo.  
Davlat nasib etsin debman Banko nasliga!  
Yo‘q – yo‘q! Qismat solisharmiz xali, qaror shu  
YO o‘lish yo qolish bordir bu kurashda!

*Vilyam Shekspir*  
*CHO‘lpon tarjimasi*

### *Gamlet*

#### *Gamlet monologi*

Oh, men qanday yaramas, olchoq bandaman!  
Bu qanday gap: o‘tkinchi bir aktyor munda –  
O‘z xayoli to‘qigan sezgilariga  
Shu o‘rini munchalik qaram qiladikim –  
Mengzidan qon o‘chdi ko‘zi yoshlandi,  
Tovushlari bo‘g‘ildi, butun turishi –  
Yuragini qaqshatgan dardlarga oyna  
So‘rasangiz: ne uchun shuncha dard alam?  
Gekuba bu kimdir?  
YO Gekuba bunga kim?  
Ammo buni noliydi shunga yurakdan  
Agar mening dardlarim bo‘lsaydi unda

Ne – ne mudxish to‘fonlar og‘ularim ul?  
Xuno bo‘lib zorlagan bo‘lardi saxna  
Uning rolini ko‘rganda mot bo‘lib darxol  
Aqlidan ozar edi gunoxkor kishi  
Begunohlar, kamtarlar ibrat olardi  
Quloqlar ham, ko‘zlar ham poymol bo‘lardi. A – menchi  
Ayanch, anqov, maxluqman, daydi, sarsari,  
Uyqu aro yuraman. Bkorchi tanbal  
Na o‘z haqqim to‘g‘rali bir og‘iz gap bor  
Na qirolning qasosi uchun karakan  
Axir uni tojidan, uni jonidan  
Ko‘p jirkanch nayrang ila ajratdilarku!  
Yoki men qo‘rqoqmanmi? Kim jur‘at bor?  
Qani menga shapaloq urmoqchimilar?  
YO berurlar boladay o‘git nasixat?  
Burnimdan ushlaydilar yoki bemalol –  
Meni beburd yolg‘onchi ataydilarmi?  
Kim bu ishga ishqivoz? Dadil so‘ylasin?  
Hammasiga xo‘p deya tilxat beraman.  
Chunki mening jigarim kaptar jigari  
Chunki yo‘q jigarimda safroyu zarda  
Bo‘lmasa men bu battol yirtqichni so‘yib,  
Jasadini qo‘zg‘unlarga tashlamasmidim!  
Oh, muttaxam, badaxloq! Qonxo‘r yolg‘onchi  
Zipo qilib yuruvchi nomard, badkirdor!  
Oh, intiqom  
Qanday eshak ekanman o‘zim darvoqe!  
O‘ldirilgan otaning farzandi bo‘lsam  
Meti, qasos ol desa, falakning o‘zi  
Menchi, buzuq xotinday xasrat qilaman

Yoki dashnom beraman oqsochlar kabi!  
Tfu, la'nat! Uyg'ongin ey mening zexnim!  
Qaydadur eshitgandim: go'yo o'tmishi  
Qorong'u bo'lgan kishi o'z qilmishiga  
O'xshashlik bir o'yinni tomosha qilsa –  
Serpayib o'z aybiga iqror bo'larkan  
Qotil qancha indamasa, jim tursa ham  
Bildirib qo'yar ekan o'z jinoyatini  
Aktyorlarga topshiray tomosho chog'i  
Otamning o'limiga o'xshashmi biroq  
Voqea o'ynasinlar amakim uchun  
Amakiimdan ko'z olmay qarayman men o'zim  
Agar bo'lsa bezovta – u yog'i ma'lum  
Biroq, ko'rgan arvoxim balki iblisdur  
Istagan qiyofaga kira olur iblis  
Balki shayton majolsiz xolimni bilib,  
Meni xalok qilgali qasd qilgan!  
Ko'rganimdan ham yaqqol dalillar lozim  
Ular bu yozuvlarda. Endi saxnada  
Qirolning vijdoniga quraman tuzoq tamom

*V.Shekspir*

*“Gamlet”*

*Ofeliya monologi*

Ochiq edi tobuti,  
Olib ketishdi darhol  
Ko'p yig'lashdi odamlar  
Qo'zichog'im yaxshi qol!

Tangri sizni yorlaqasin! Deydilarki, boyqushilgari nonvoyning qizi bo‘lgan ekan. Peshonaga nima yozilganini bilmas ekansan, kishi! Xudovandi karim dasturxoningizga baraka bergay!

Bu aytganlarim shu yerda qolsin. Maboda buning ma’nisini sizdan so‘rasalar, aytasizki!

Ochiq edi tobuti,

Olib ketishdi darhol

Ko‘p yig‘lashdi odamlar

Qo‘zichog‘im yaxshi qol!

Qo‘shilib aytmysizmi, siz ham: “chuqurga tushdik, tobutga yetdik! Aylanib-aylanibcharxi bir paqir ekan narxing”

Mana bu razmarin guli... bu xofiza qobiliyatini kuchaytirish uchun. Oling do‘stim, meni yod qiling

-Mana bu binafsha: bu o‘ylash uchun. Mana bu kashnich, sizga. Mana sizga sudob chechagi.

-Mana bu gul bandlarini o‘zimga olib qolaman. Buni “Maryam giyoh” desa ham bo‘ladi.

-Mana bunisi moychechak. Men sizga binafshaning asl bermoqchi edim. Biroq otam

o‘lganida ular hammasi so‘lib ketdilar

Deydilarki, u qiynalmay o‘lgan emish.

U nahotki kelmas emish

U nahotki kelmaydi.

Yo‘q u o‘lgan

Va ko‘milgan endi navbat seniki

Oppoq edi sochlari

Qorday oppoq sochlari

Ammo o‘ldi

Bizlar endi –

Unga o‘qib fotiha ruhini shod etaylik  
Barcha Iso dinidagilarning arvohlarini yorlaqagin iloyim!  
Tangri madadkoringiz bo‘lsin, omin!

Ochiq edi tobuti,  
Olib ketishdi darhol  
Ko‘p yig‘lashdi odamlar  
Qo‘zichog‘im yaxshi qol!

Rostlik, haqiqat va poklik sharoitida o‘sib ungan qiz umuman teskari hayotga aqli yetmaydigan sharoitga tushib qoldi. U bilgan qirol, u bilgan Gamlet endi yo‘q. Endi uni hech kim yaxshi ko‘rmaydi, endi uni hech kim sevmaydi. Endi uning gapiga hech kim quloq solmaydi. Endi u hech kim emasligidan, uning gapiga hech kim quloq solmaganidan telba bo‘lib qoldi.

*V.Shekspir*

*Jamol Kamol tarjimasi*

**“Yuliy Sezar”**

***Brut monologi***

Tinchlik saqlang, men so‘zimni tamom qilgunga qadar. Rimliklar, hamshaxarlar va do‘stlar! Men o‘zimni oqlamoqchiman, quloq soling. So‘zlarimni tinglash uchun tinchlik saqlang. Vijdonim haqqi, menga ishoning va menga inonmoq uchun vijdonimni xurmat qiling. Mening haqimda o‘z bilganlaringizcha hukm yuriting va yaxshi hukamo bo‘lish uchun aqlingizni qattiq shga soling. Agar bu majlisda Sezarni astoydil sevgan biror odam bo‘lsa, men unga Brut Sezarni sendan kam sevmas edi deb ayta olaman. Va agar u mendan, axir Brut, qanday qilib Sezarga qarshi bosh ko‘tardi deb so‘rasa, beradigan javobim tayyor: men Sezarni kam sevganligimdan emas, balki, Rimni ko‘proq yaxshi ko‘rganligimdan isyon ko‘tardim. Xo‘sh, siz nimani afzal ko‘rar edingiz. Sezar yashasa-yu, siz hammangiz ko‘ppakcha o‘lsangiz afzal bo‘larmidi yoki Sezar o‘lsa-yu siz hammangiz ozod odamlar bo‘lib yashasangiz afzal bo‘larmidi? Sezar meni sevardi, men unga yig‘layman. U baxtiyor edi, men uning uchunshodman, u dovyurak edi, men uni xurmat qilaman. Ammo u

shuxratparast edi, men uni o‘ldirdim. Shunday qilib ko‘z yoshi uning sevgisi, shodlik uning baxti, xurmat uning dovyurakligi, o‘lim esa, uning shuxratparastligidir. Orangizda ko‘p bo‘lishni istagan biror olchoq bormi? Agar unday odam bo‘lsa, nomini aytsin, chunki men uni xafa qildim. Bu yerda Rimni bo‘lishni istamagan bironta befarosat bormi? agar bor bo‘lsa ismini aytsin, negaki men uni xafa qildim. Orangizda, o‘z vatanini sevmaydigan biror tuban kishi bormi? Bor bo‘lsa, nomini aytsin. Men uni xafa qildim.

Javob kutaman. Demak, men hech kimni xafa qilmabman. Siz Brutga nisbatan qanday muomala qila olishingiz mumkin bo‘lsa, men ham Sezarga nisbatan faqat shunday muamala qildim xalos. Ha, bu o‘limdan kim manfaat ko‘rmaydi deysiz? Mening sizga aytadigan oxirgi so‘zim mana bu: agar vatan uchun mening o‘limim lozim bo‘lib qolsa, Rim manfaati deb, o‘zimning eng yaqin do‘stimni qandoq qilib o‘ldirgan bo‘lsam, o‘zini ham huddi shundoq qilib va o‘sha xanjar bilan o‘ldiraman.

*Lope de Vega*

*Xamid G‘ulom tarjimasi*

### *Qo‘zibuloq*

#### *Laurensiya monologi*

Sabolari ko‘p  
Va lekin asosiy sabab shudirki  
Sen qizingni zo‘ravonlarga  
O‘g‘irlatting, qasos olmading  
Meni yirtqich panjalaridan  
Ota bo‘lib, sen qutqarmading  
Erta tegib frondosa erim bo‘lmagan  
Shuning uchun umas, balki sen  
Nomusimni saqlashing kerak;  
Chimildiqa kirganimcha yo‘q  
Shuning uchun er emas, ota

O'z qizini yoqlashi kerak  
Gavharga pul to'lagan bilan  
Uni qo'lga olish shart, chunki  
O'g'ri ura, olinmagan mol  
Davosi ham bo'ladi kulgi  
Meni esa, Fernando Gomos  
Olib ketdi ko'z oldingizda  
Qo'rqqoq cho'pon qo'zichog'ini  
Och bo'riga topshirib qo'ydi  
Boshimga ne savdolar tushdi  
Xanjar bilan siynamni tilishdi  
Iffatimni xirs-shaxvatiga  
Qurbon qilish uchun u mal'un  
Do'qlari kor qilmagan so'ng  
Ko'kragimga quydi qaynoq mum  
Mana, sochlarimga bir qarang  
Chakkalarim qontalash yara  
Yuzimga ham silqib oqar qon  
Shunday azob berdi beoman  
Otalarim, qarindoshlarim  
Maqtanchoqlik jongategdi bas  
Kulfatimning payoni yo'qdir  
Alamlarga bag'rim to'liqdir  
Aytay bersam aslo tugamas  
Bosh ko'tarib, qanday yuribsiz  
Siz kuylarsiz, qo'ylarday qo'rqqoq  
Shuning uchun bu qo'zibuloq  
Sizlarga eng munosib yotoq  
O'zim qo'lga qurol olaman  
Sizlar toshsiz, sovuq marmarsiz

Tishi tushgan qari sherlar  
Yo‘q she’r emas. Sherbachchalarni  
Tozi olib ketsa, qaysi sher  
Quvlamasdan, qarab turadi  
Sher yovini quvib yetadi  
Va dengizga yetkazmay turib  
Qirg‘oqdayoq tutib yirtadi  
Yovdan qattiq qasos oladi  
Sizlar ispan emas qurqoqlar  
Yuragi yo‘q yovvoyilarsiz  
Quyonlardan chala tug‘ilgan  
Uyati yo‘q maqtanchoqlarsiz  
Siz sevimli xotiningizni  
Yot erkakka qo‘shib qo‘yasiz  
Yana qilich taqib yurasiz  
Yeching uni; O‘rniga urchiq taqingiz  
Xotinlardan , ro‘mol taqingiz  
Sizlar ayolsifat qo‘rqoqlar  
Xotinlarning rasmin tutasiz  
Bir chekkada qolib ketasiz  
Shimingizni yeching, o‘rniga  
Uzun ko‘ylak kiyib olingiz  
Sizga qalpoq o‘tirishmaydi  
Shohi ro‘mol o‘rab olingiz  
Qizil surib yuzlaringizga  
Surma qo‘ying ko‘zlaringizga  
Hukm qildi Fernando Gomos  
Fronrosa sudsiz, hukmsiz  
Dorga osishadi, sizniham  
Qo‘yday sudrab dorga tortadi

Men tantana qilaman, chunki  
Qishloqdagi barcha ayollar  
Erkaklarga aylanadi - da  
Sizni butkul uyatga qo'yib  
Ko'p qadimgi zamonlardagi  
Sohib ayo – amazonkalar  
Davri yana qaytib keladi.

*Yevripid*

*Asqar Qosimov tarjimasi*

*Medeya*

*Medeya monologi*

Oh bolalar, bolalar! Endi sizlarda  
Shahar ham bor, uy-joy ham faqat to abad...  
Manglayi sho'r onangizsiz, yasharsiz bunda...  
Men jo'nayman o'zga yurtga quvg'inda bo'lib,  
O, munchalar dunyo g'addor, falak kajraftor  
O, qandog'am peshonang sho'r, qaysar Mediya!  
Nega sizni to'qqiz oylab parvarish qildim?  
Nega sizni oppoq yuvib, oppoq taradim?  
Qariganda ko'zimga nur belimga darmon  
Bo'lursiz, deb sizga umid bog'lagan edim  
Ko'marsiz deb o'ylagandim o'ligimni ham  
Barbod bo'ldi o'sha shirin-shirin orzular  
Shuv etdiku yurakkinam – muz qotgan qalbim!  
Yo'q, men jur'at qilolmayman, madh bo'l batomom,  
Vahimali qarorimning mash'um g'azabi!  
O'zim bilan olib ketgum bolalarimni...  
Nima qildim dard ustiga chipqon orttirib?  
Yason bergan dard ham yetar, o, sho'rim qursin...

Sharmandalik, yo rabbona, qanday tubanlik!  
Zaifgina yuraklarning soʻzidan qoʻrqish...  
Siz bolalar uyga kiring, bu qurbonlikda  
Qatnashmoqqa balki sira yoʻl bermasvijdon  
Ont ichgayman Aid bilan dushmanlar ortiq  
Koʻrmagaylar tark etilgan, mazax qilingan  
Medeyaning har ikkala farzandini ham!  
Reja aniq, hammasi hal, qaytish yoʻq endi  
Qirolicha boshidagi tillaqosh bilan  
Liboslarga men tomondan qoʻshildi zahar  
Bilamanki, u muqarrar til tortmay oʻlar...  
Menga esa keng ochildi yangi ufqlar...  
Yangi ...Shunday... Lekin oldin vido vojibdir...  
Koʻzlarim, beri keling, qani bir nafas  
Qoʻlchangizni lablarimga bosmoq istayman  
O, qandu bol ogʻush, nafis yonoqlar, xayxot  
Koʻngillarni shod etuvchi nafaslaringiz...  
Qani joʻnang, tezroq boring, qarab turmoqqa  
Quvvatim yoʻq. Xasrat bilan ado boʻlgʻonman  
Nimaga qoʻl urishim oʻzimga ayon;  
Yolgʻiz gʻazab mendan ustun, mendan kuchliroq  
Foniylarning urugʻ yohud aymogʻi uchun  
Bundan ortiq baxshiylik yoʻq; badkirdorlik yoʻq...

Aqlli, farosatli, irodali, or-nomus uchun hech qanday sulhga koʻnmaydigan Mediya eri Yason tomonidan qilingan hiyonatga duch keldi. Uni jabrini Mediyaning 2 farzandi tortdi. Mediya bunday vaziyatdan 2 bolasini oʻldirib chiqib ketadi.

*Qaroqchilar*

*Karl Moor monologi*

Menga qarang! Moor gapiryapti, men qotillarning, qaroqchilarning atamaniman. Reyxlgafingizni men o'ldirganman, ibodatingizni talon – taroj qilgan ham menman, bu xoinlar shaxrining porox minorini men portlatganman. Lekin bugun emas, men juda ko'p ishlar qilganman.

Barmoqlarimdagi mana bu to'rtta qimmatbaxo uzukni ko'ryapsizmi? Odamlar hayot – mamotining soxibi bo'lgan o'sha xakamlaringizga borib ayting: Mana bu yoqutni bir vazir barmoqg'idan shilib olganman. U eng pastkash bir odam bo'lib, podshoxning tovonini yalagani uchun vazirlik unvoniga yetishgan, yetim – yesirlarning ko'z yoshi evaziga boyigan edi. Men uni podshox oyog'iga tiz cho'kib turganida otib o'ldirdim. Mana bu olmosni bir badavlat sudxo'r qo'lidan oldim. Bu odam amal mansab olib sotardi, el yurti sevgan jafobashni taxqir etardi. Mana bu aqiqni sizga o'xshagan bir ruxoniyning “xurmatiga” ta'qib yuribman. U odamlarni jazolab o'ldirish kamayib ketdi deb Cherkov minbarida yig'lardi. Shuning uchun uni o'z qo'lim bilan bo'g'ib o'ldirdim. Men bu uzuklarim to'g'risida yana ko'proq voqealar aytib berishim mumkin edi, ammo sizga shu aytganlarim ham xayf...

*A.S. Pushkin*

*G'.G'ulom tarjimasi*

*Bog'chasaroy fontani*

*Zarema monologi*

“Kimsen?” Tunda, tanxo nichun sen.

Bu yerdasen? – “Senga keldim men”

Meni saqla: taqdirim uchun

Menga faqat qoldi chora...

Rahm aylasang, yo'qolsa zora

Umrin ufqin qoplagan tutun.

Na qayg'uni, na g'amni bildim...

O‘tdi orom bergan u soya,  
Tingla, xalok bo‘lmayin zoye.  
Men bu yerda tug‘ilganim yo‘q  
Mening yurtim yiroqdir, yiroq...  
O‘tgan kunlar, u dardli firoq  
Yodimdadir hali ham to‘liq  
Yodimdadir gullagan bog‘lar  
Osmon bilan o‘pishgan tog‘lar,  
Tog‘dan oqqan irmoqlar soylar,  
O‘tib bo‘lmas o‘rmon – to‘qaylar;  
Yodimdadir kechgan saodat  
O‘zga qonun, o‘zga bir odat.  
Ammo, qanday taqdir-la nechun  
O‘z yurtimdan ayrilganimni,  
Bu yoqlarga qayrilganimni  
Bilmayman men: faqat, qor tun  
Yelkan uzra turgan odamu  
Hamda dengiz esimda xolos...  
Shu choqqacha qo‘rqinch va qayg‘u,  
Alamlardan men edim xolos.  
G‘avg‘odan chet tinglikdaxandon.  
Xarati ichra gullab yurardim,  
Itoatli ko‘ngilla xar on  
Ishq darsini kutib turardim;  
Bu yashirin orzularim tez  
Ushaldilar. Qonli urushdan  
Charchab daxshat qochgan yurishdan

*Mirzo Ulug‘bek*

*Gavharshodbegim monologi*

Ko‘p yil bo‘ldi, kelmagandim shaxringizga men  
Sohibqiron Temurbekning vafotidan so‘ng  
Shoxrux Mirzo poytaxt qilib oldi Hirotni  
Ammo sizga haqiqatni ochiq aytayin  
Chunki, bunga joy bo‘lishgan mening qizlarim  
Tirik yoki marhum bo‘lgan farzandlarimning  
Kelinlari, qayliqlari yo qizlaridir.  
Xudovandim marxumlardan asrasin sizni  
Samarqandni azizligi saqlang, qizlarim!  
Samarqandni iffatpanoh shaxar deganlar  
Ammo bazi noxush gaplar yetdi quloqqa  
Maoz Ollox, maoz ollox, eshitishimcha  
Shu dargohda ayshu ishrat ovchiga chiqqanmish  
May ichishar ekan bazi xonimlar xatto  
Jannat makon Shoxrux Mirzo zamonasida  
Gunox edi ichmoqlik Hirot shahrida  
Hatto sulton o‘zi xuddi muxtasib kabi  
O‘g‘illarin o‘ylarini qidirib, shoyad  
Sharob topsa do‘pposlardi ularni o‘zi  
Shoxrux davri Hirot edi musulmonobod  
Hamma yoqqa o‘rnashmadi afsus, shu odat!  
Ha, shndaymi? Demak paydo bo‘libdi shundo  
Samarqandda ikkinchi bir Gavharshod xotin  
Ammo biling: Temurbekning saltanatida  
Faqat bitta malika bor: Gavharshod begim  
Sohibqiron o‘zin barcha kelinlaridan  
Meni tojim gavhari, deb siylardi mudom

Bu maqomga Firuzaga xali yo‘l bo‘lsin!  
Ha, seni-ku ishontirish oson gap emas!  
Ha, yarashar jasur boshga salnanatlik toj!  
Birovlardan kechmoq kerak! Yo‘q boshqa iloj!  
Na o‘g‘limga ko‘nglim moyil, na nabiramga  
Qaysi biri shoh bo‘lmasin, meni keksa deb,  
Bir chekkaga chiqaradi bu Mirzolarim  
Ammo, bular o‘rtasida boshlansa nizo,  
Taxt ustiga kelib qolar boshqa bir Mirzo.

*M. Shayxzoda*

*Mirzo Ulug‘bek*  
*Ulug‘bek monologi*

Birodarlar, g‘oyat og‘ir o‘ynashlarda so‘ng,  
Qat’iy qaror chiqarmoqqa majbur bo‘ldimmi.  
Bilamanki, ko‘p – ko‘p do‘stlar ranjiydi shundan,  
Bilamanki tole menga ulagan.  
Arboblarda bezovtalik boshlanur a’lon  
Amir Temur himatidan Ulug‘bek so‘zim  
Birodarlar eski do‘stlar og‘ir bo‘lingiz.  
Balki bunga kengash bergan javoblarga ham  
Bu qarorim tuyulgusi nogah balodek  
Men taxtimdan vos kechmoqqa jazm ettim bugun.  
Sokit bo‘ling, og‘ir bo‘ling, izzatli do‘stlar  
Hech bir kimsa tug‘ilmabdi boshda toj bilan.  
Temurbekdan og‘ir meros bu qalqon xolos  
Bilamanki, shu kungacha temuriylardan  
O‘zi xoxlab xech kim tojni tashlagan emas  
Podshoxlik xammasidan kim ham ajralgay?  
Ammo, menchi, ko‘pyovvoyi dashtlar ortidan

Nur qo‘shig‘im xavosida bog‘lar ko‘raman,  
Ilmu urfon zamonasida bog‘lar ko‘raman,  
Insoniyat saroyining dabdabasini  
Ufdlarning tumanida gulgin yo‘llarda  
Feruzarang baxt mexriga o‘sib boruvchi  
Ilm ahlim sin qanotli aravasini  
Tirik qolib ko‘rmasamda hozir ko‘raman  
Olislardan sanabgina sayr etish emas  
Yulduzlarga oyoq bosib, qo‘l bilan ushlab,  
Qaytib kelgan sayyohlani ravshan ko‘raman  
O‘tib ketar bu daxshatlar, bu marakalar  
Urush, vabo va jaholat o‘tib ketadi.  
Oh naqadar saodatli bo‘lur dunyomiz  
Va naqadar aziz bo‘lur erkin odamzod  
Bu jahonda birodarlar qolurku axir  
Bir so‘zimiz yo izimiz. U oydin elda  
Zora meni va bizlarni eslasalar bas!  
Shunday do‘stlar!  
Ammo hanuz sulton ekanman  
Saltanatning muhri mening qo‘limda ekan.  
Buyurishga ham borki salohiyatim  
Bu mansabda qilib qo‘yay so‘nggi yaxshilik  
Aziz o‘g‘lim, Ali Qushchi olgin qalamni  
Farmoyish yoz!  
Amir Temur himmatidan Ulug‘bek so‘zim:  
Avaxtadan bo‘shatilsin Piri Zindoniy  
Tayyorlab ber!

*Oq kema*

*Nurg‘ozi monologi*

Sen uni gapiga ishonma, Bobom unaqa emas. Uning sira shumligi yo‘q, shuning uchun ham undan kulishgani kulishgan. Chunki quvlik –shumlikni bilmaydi. U biz ikkimizni maktabga olib borib yuradi. Sen xali maktab qayerdaligini bilmaysan–a? U unchalik uzoq emas. Men senga uni –qayerda ekanligini ko‘rsataman. Biz unga qorovultog‘dan du–rbinda qaraymiz, men yana, senga oq kemani ko‘rsataman. Men durbinda buzoqchamni kuzatib turishim kerak, lekin men, xar kuni oq kemani ko‘rishga chopaman. Buzog‘imiz katta bo‘lib qoldi, tortib ketsa to‘xtatolmaysan, sigirni emib qo‘yadigan odat chiqargan. Sigir uning onasi sutini undan ayarmidi? Tushundingmi? Onalar hech qachon, hech nimani aytmaydi.

ke–l men senga maktabimizni ko‘rsataman. Oq kema– xali ko‘rinmayapti. Oq kema... Oq kema... Salom oq kema bu menman! Durbindan xar doim senga qaragan menman “Salom dada men sizni o‘g‘lingizman”. Men sizni oldingizga suzib keldim. Siz meni o‘z oldingizga, kemaga chiqarib oling, men shunda sizni o‘g‘lingiz bo‘lib qolaman.

Dada men aytayotgan buvi –bu ilgarigi emas, siz uni, dada, balki bilmassiz ham bu boshqa buvi. O‘z tug‘ishgan buvim yoshligimda vafot etgan. Bu buvi bo‘lsa keyin kelgan. Bizning –xavolarga tushunib bo‘lmaydi — Bir qarasang ochiq, bir qarasang bulut, bir qarasang yomg‘ir aralash do‘l. –buvi ham xuddi shunday, tushunib bo‘lmaydi. –bir qarasang mexribon, bir qarasang berahm, hech tushunolmaysan. Jaxli chiqqanda – naq yeb qo‘yadi. Biz bobom bilan jim bo‘lamiz. Buvimni “Begonani qancha yedirma, qancha ichirma, undan yaxshilik ko‘rmaysan”, deydi. Men, axir bu yerda o‘gay emasman, dada. Men hamisha bobom bilan birga yashab keldim. Uning o‘zi o‘gay– bu yerda, u bizga keyin kelib qo‘shildi. Endi esa meni o‘gay deydi.

Oq kema ketma ortingga qayt. Meni ham olib ket. Dada .... dadajon meni tashlab ketmang.... Oq kema.

*Rustam*

*Rustam monologi*

Kosani to‘ldiring ayting alyorni  
Shu pulning, shu qulning sog‘lig‘i uchun.  
Aysh qilib o‘ltirgan yigitlar bilan  
Majlisda qizlarning borligi uchun.  
Ichaylik shu pulning salobatiga  
Pul ko‘p zo‘r azamat, paxlavon bir kuch  
Agar pul bo‘lmasa butun dunyoda,  
Odam yo‘q, turmush yo‘q, xatto yashash kuch  
Pul bo‘lsa, pul berib bazm olasan,  
Pul bo‘lsa, pul berib vijdon olasan,  
Pul bo‘lsa, vijdon pul, xotinlar ham pul  
Shariat, qoshi – ko‘z, shirin so‘z ham pul  
Jonlar pul, tanlar pul, ko‘kraklar ham pul  
Hattoki muxabbat, yuraklar ham pul.  
Bilmadim, Xudoning o‘zi dunyoni  
Yaratsa, pulni ham o‘ylaganmidi?  
Shu pulning o‘zidan kuchli ekanin  
Xudoning o‘zi ham bilganmi edi.  
Pul bo‘lsa, pul uchun tizni cho‘ksalar,  
Pul bo‘lsa, pul uchun yerni o‘psalar,  
Pul bo‘lsa, pul uchun odamni so‘yib  
Qonidan ko‘chaga suvlar sepsalar.  
Ayting-chi? Kim kuchli Xudomi yo pul?  
Minglarni darbadar, sargardon qilgan  
Ayting-chi, bu jonlar qizlarmi yo tul?  
Bir marta ochilmay gul kabi so‘lgan,  
Ichaylik ko‘zini qo‘ydan ajratib,

Bolani otadan ajratgan uchun.  
Ichaylik singilni ona qo‘ynidan  
Ajratib faxshlarga irg‘itgan uchun,  
Ichaylik og‘aga singilni qo‘shib  
Singilni sharmanda qilgani uchun  
Begunoh, beaql, mas‘um jonlarning  
Qo‘lma – qo‘l gul kabi yurgani uchun  
Ichaylik, ichaylik bu aroqlarni,  
Kosani to‘ldirib suzing poshshoxon,  
Qattiqroq qichqiring alyor bo‘lsin deb,  
Ichamiz kosasida mayli bo‘lsin qon.

*Mirzakalon Ismoiliy*

*Farg‘ona tong otguncha*

*Xoji Otin monologi*

Men otamning kenja qizi edim. Kenja bola har vaqt shirin bo‘ladi. Otam meni jonidan ortiq ko‘rar edi.

Onamni bilmayman – yoshligimda o‘lib ketgan. Otam bebosh, sho‘x –o‘tgan odam. Otam qilmagan sho‘xlik yo‘q bo‘lsa kerak. Qimor o‘ynagan, uloq chopgan, nashavandlik qilgan, xotinbozlik ham qochib quyilmagan deyishadi. Xullas: to‘ppi ol desa, kalla oladigan dovkor bo‘lgan. Men o‘n oltiga qadam qo‘yib endi chiroy ochib kelayotganimda, otam meni qimorda yutqazib qo‘ydi. CHO‘tir bedavo bir qimorboz qalinsiz, sepsiz, to‘ysiz meni o‘ziga nikoh qilib oldi. Men yig‘lab – yig‘lab ketdim. Arzimni kimga aytay, kimga dod deyar edim. Men axir otam tomonidan eski kiyim – kechaklari qatorida yutqazilgan qimorbozning mulkiga aylangan joriya edim. Aslida peshonam sho‘r bo‘lsa nima ham qila olar edim? Otam o‘yin qizig‘ida yutkazishga yutkazib qo‘yib keyin o‘zini urdi, peshonasini yordi, yig‘ladi, dod soldi lekin foydasi qonga? – bo‘lar ish bo‘lgan, meni qimorboz nikoxlab olgan edi. Otam el la‘natidan, yurt nadomatidan ko‘chaga chiqolmay qoldi. Meni borib ko‘rishga yuzi chidamas, ko‘rmay desa sog‘inch qo‘ymas edi. Bir kun erimning uzoq saylga ketganini eshitib

uyimga yetim boladek bo‘ynini qisib kirib keldi. Avvalgi otam emasdi, so‘lishibdi, nurishibdi, qaribdi, ranglari sarg‘ayibdi. Menga yetkazgan ozori uni shu kuyga solganda. Ko‘rib raxmim keldi. Nima qilay? – men qimorbozning yutib olgan dovi bo‘lsam, qo‘limdan nima ham kelardi. Otam yurak yuragidan ezilib yig‘ladi. Men ham yig‘ladim. Oh qani edi yig‘i bilan qayg‘ular keta qolsa! Men “Peshonamga yozilgani bo‘ldi”, dedim. Men buni otamni ko‘nglini ko‘tarish uchun aytdim. Otam ko‘z yoshlarini artdi, peshonamdan o‘pib uyga qaytdi.

*Turob To‘la*

*Nodirabegim*

*Nodirabegim monologi*

Amir!

Sohibqiron!

Diqqat bilan tinglang!

Meni sizcha qilib aytganimizda saltanatga nojins bir zaifaning bunday jur‘atiga hayron bo‘lmassiz! Halqi, vatanini bilgan har bir inson boshida halokat buluti turib meni axvolimni anglashi lozim.

Yashirincha maxfiy chiqdim o‘rdadan. Na o‘rda biladi, na shahar buni. Hatto bilishmaydi xos navkarlarim. Xudo xayringizni bersin olam panoh. Hali O‘ra tepa, Xo‘jand, Shaxrisabzing sovigani yo‘q–ku, kul tepalari. Toshkent Farg‘onaning, Xo‘jand Turkistonning bir yillik hirojini bag‘ishladik–ku... Tag‘in nima kerak bo‘ldi Amirgp?!

Hayri exson emas, insof so‘rab keldi Xo‘qon shoirasi sizdan: faqat insof va shafqat!!!

Bosqinni bas qiling Amir!

Uyatga qo‘ymang musulmon yurtini dunyo oldida. Ketingiz bundan!!!

Razil kishilarda aql bo‘lmaydi. Imon ham. Bu sizga ayon.

Baxud saroni obro‘yi maraka nest,

Ba ittifoq kunatkori zulfikor angusht.

Qachon asqotibdi zoʻrlik zafari?! Qonli qilichlarning qonli safari Amiri Aʻzam?!

Hoʻqon tiz choʻkmaydi oson! Kalomulloda ham, shariatda ham inson – inson boʻlib yashasin degan. Gʻofil – joxil boʻlib emas, amirim!

Ha men shoiramen.

Shoirlar hamma zamonlarda, hamma tasarrufda taxqirlanib kelganlar zoʻravonliklardan. Ayol idrokini – fahsh ataganlar.

Yoʻq! Amir Al Muslimin, ayol – borliq, ayol bu – nafosat, ayol bu – goʻzallik! Uni baxti – eli, yurti meni kamolim – deydi.

Hamma hammasi Amir siz tahqir qilgan, siz haqorat qilgan avoli kashf etgan. Shak keltirmang unga.

Men u kishining muborak, dilhun nomini besh vaqt namoz oldi va xutbalarda tilga olishlarin istayman qatʻiy!

*Togʻay Murod*

*Oydinda yurgan odamlar*

*Qoplon monologi*

Ey Xudo, sen oʻzi qayerdasan, qaylardasan? – deya xayollandi. – Sen oʻzi, bormisan? Bor boʻlsang, javob ber, yuzaga chiq! Mendayin bir shoʻrpeshona bandang bilan yuzma – yuz boʻl! Mendayin bir xokisor bandang halinikoʻr!

Ayt, oʻzi, men bandangni nima uchun yaratding? Shu bechora-da dunyoda yursin, shu gʻaribda oʻz kunini oʻzi koʻrib yursin, deb yaratdingmi? Undan, men bandangni-da xor qilma-da, men bandangni yolgʻiz qilmada.

Bandangni yarat – yarat, pushti kamari bilan yarat-da.

Esimni taniganimdan buyon xudoga sigʻinib keldim, xudoga topinib keldim, xudoga ishonib keldim.

Shunday ekan, harne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey xudo!

Dunyodan necha – necha podsholar oʻtdi, necha – necha xokimlar oʻtdi, necha – necha kattalar oʻtdi...

Pushtsiz umrim mobaynida ko‘p – ko‘p podsholardan qaytdim, ko‘p – ko‘p kattalardan qaytdim...

Ammo... ammo yolg‘iz sendan qaytmadim. Dilimda-da xudo bo‘ldi, tilimdada xudo bo‘ldi! Shunday ekan, harne qilsang qil, pushti kamarim qildi.

Bandalaring qay bir podsholarga sig‘inmadi, bandalaring qay bir kattalarga sig‘inmadi, bandalaring nimalarga sig‘inmadi, bandalaring nimalarga topinmadi...

Bandalaring dinidan qaytdi, bandalaring xudosidan qaytdi, bandalaring imonidan qaytdi!

Sen aynan shu bandalaringni zurriyotli qilib yaratding.

Ojiz qolishlarimda chor – nochor qolishlarimda, xokisor qolmishlarimda: - Ey, xudo, o‘zing saqla! Ey, xudo, o‘zing madad ber! – dedim.

Men bandangni shayton yo‘ldan ozdirgan vaqtlar bo‘ldi, shayton yomon yo‘lga boshlagan vaqtlar bo‘ldi: shunda o‘zimga – o‘zim: - Ey, banda, xudodan qo‘rq! – dedim-da, yo‘ldan qaytdim.

Dinidan qaytmishlar nechov bo‘ldi, xudodan qaytmishlar nesov bo‘ldi!

Sen aynan ana shularga zurriyot berding, ey xudo, qator – qator zurriyot berding! Meni bo‘lsa... Men bandangni bo‘lsa, zurriyotsiz qilding.

Chin, bilib – bilmayin gunoh qilib qo‘ydim. Dardimni birovga aytolmadim. Dard bo‘lsa, imonni kuydira berdi... Shunda men gunohlarimdan forig‘ bo‘lish uchun tovba – tazarru qildim:

- Ey, xudo, o‘zing kechir! – dedim.

men bo‘lsam, dilimda-da xudoni qo‘ymadim, tilimdada xudoni qo‘ymadim!

Men yolg‘iz xudoni dedim!

Shunday ekan, bir sodiq bandangni bunchalar xo‘rlama-da, ey xudo! Bir sodiq bandangni bunchalar oyoq osti qilma-da.

Har ne qilsang qil, pushti kamarli qil-da, ey Xudo!...

*Yulduzlar mangu yonadi*

*Bo‘ri polvon monologi*

Otaginam, men xamisha sizning nasixatlaringizga amal qilib keldim. Siz aytar edingiz: polvon o‘zini uch balodan asrasin, eng birinchi – ayolbozlik, derdingiz.

Otaginam, yoshim o‘ttizga yetibdiki, oyog‘imni qiyshiq bosmadim. Xarom – xarij yo‘llarga yurmadim. Xali uylanmadim ham!

Ikkinchisi – ikchilikbozlik, degandingiz.

Otaginam, men xaligacha og‘zimga aroq olmadim, aroqdan xazar qilaman!

Uchinchisi – polvon o‘zini nafs balosidan asrasin, deguvchi edingiz. Otaginam men mol – dunyo uchun olishmadim. Mol dunyo xarsidan o‘zimni hamisha saqlab keldim.

Bo‘lmasa, nimaga bunday bo‘lyapti, otaginam? Gunohimni ayting, gunoximni?

Men Ismoil polvondan o‘zimni olmoqchiman. Bo‘lmayapti, otaginam, bo‘lmayapti...

Ushlagan barmoqlarim bo‘shab ketyapti. Oyog‘imda darmon yo‘q. O‘pkam og‘zimga tiqilib qolyapti... Bu qanday ko‘rgilik bo‘ldi, otaginam? YO qaridimmi-a?...

Ux, qismat, qismat, zulming qursin, qismat!

Otaginam, men endi davralarni mag‘lub bo‘lib tark etamanmi-a? Kelib – kelib, Ismoil degan bir yapaloq boladan-a? Yo‘q otaginam, yo‘q, men davralarda xamisha zo‘r edim – davralarni zo‘rlarcha tark etaman!

Otaginam, oxirgi davramda meni bir qo‘llang!

So‘nggi, so‘nggi bor cho‘llang, otaginam!....

*Shuxrat Rizayev*

*Iskandar*

*Iskandar monologi*

Butun dunyoni titratgan, zabt etgan. Ajal qo‘lida pajmurda farzanding Iskandar so‘zlarini tingla onajon.

Buzilgan tanamning joni, vujudim, lalining bebaho koni Onajon. Men seni uzoq ayriliqlarg'a tashlab, yiroq ketib, firoq o'tida qiynadima.

Boshimg'a bexuda andisha va orzular tushib olamni fatx etish g'araziga tushdima.

Ta'suf, meniki o'ylagan, xayol qilgan bo'lsam, hammasi xafas uchun ichilgan may kabi befoyda ekan. Aslida esimni tanib Aqil boshimg'a harorat bergan kundan boshlab senga o'g'illik qilsam quling bo'lib xizimatingda tursam bo'larkan. Aslida ostonang tuprog'iga aylansamu, men uni shoxlik deb bilsam baxtiyor bo'lmasmu edim. Endi o'lar chog'imda pushaymon chekib, o'zni takror o'ldirmoqdan ne foyda. G'am bilan ezilgan bolangdan rozi bo'l, magar rozi emassan, men bechoraning holiga voy, ming qatla voy.

Men xoh yaxshing xoh yomonning edim, o'g'ling edim. O'tinchim, meni qabrga eltar chog'ingda bir qo'limni tobutdan chiqarib qo'y toki bu xolga odamlar xayrat vale ibrat ko'zi bilan qarasin.

Mana shu qo'llar, shuncha mulku mamlakatlarni zabt etib u dunyoga rixlat chog'ida shol kishining qo'lidek qup – quruq ketayotganingni ko'rsinlar, toki odamlar mol – mulk, dunyo orttirish mashg'ulotdan qo'l tortsinlar.

O'tinchim, mening motamimda yog'i zoring bilan olamni g'am tunidek qaro qilma, mendan umidingni uzu ko'nglingni tangri irodasiga bog'la.

Baxtiyor daqiqalaring Muhaqqq majud yo'lida toatu ibodat birla o'tsin. O'shal damlarda bu marxum g'aribingni ham yod aylagil, duo birla ruximni shod aylagil Onajon.

*V.N. Gogol*

*A.Qaxxor tarjimasi*

### *Uylanish*

#### *Podkolyosin monologi*

Rostdan ham shu vaqtgacha nima degan odam edim, dunyoning ma'nosini bilardimmi? Bilmas edim, hech baloni bilmas edim, bo'ydoqlikda o'tgan umrimqanday edi? Nima bilar edim, nima qilar edim? Tirikchilik, xizmat

deportamentga borar edim, ovqat yer edim, qisqasi olamda eng bexuda, eng oddiy odam edim. Uylanmagan odamlarning axmoqligi endi ko‘rsan bitmni, bir o‘ylab qancha bitm shu xilda ko‘r bo‘lib o‘tiradi, agar men podsho bo‘lsam hamma uylansin deb farmon chiqarar edim, hamma uylansin toki mamlakatda birorta odam qolmasin ham bo‘ydoq qolmasin. Qara-ya bir necha daqiqadan keyin xotinli bo‘lasan, birdaniga afsonalardagiday bir roxatga erishasan, bu shunday rohat ta‘rif qilib bo‘lmaydi, ta‘rif qilgani so‘z topolmaysan. Ammo xar narsa bo‘lganda ham shu to‘g‘rida, yaxshiroq o‘ylasa yuraging orqaga urib ketadi. Qandoq bo‘lmasin umrbod to o‘lgunimcha deb qo‘shilasan kishi keyin xech qanday gap sig‘maydi. Pushaymon, sud as qotadi, hatto mana xozirning o‘zida ham qaytishning iloji yo‘q, bir pastdan keyin nikoh ketib xam bo‘lmaydi eshikni tagida xam arava tayyor xamma yo‘q taxt, rostan ham ketib bo‘lmaydi? Albatta tabiiy ketib bo‘lmaydi. Eshikning tagida xammayoqda odam turibdi, qayoqqa deb so‘rasa, yo‘q bo‘lmaydi, deraza ochiq-ku? Derazadan chiqib ketsam-chi? Yo‘q bo‘lmaydi. Qanday bo‘ladi, odobdan ham emas, baland ham. Ammo uncha baland ham emas poydevorning o‘zi xolos u ham pastdekkina ekan, yo‘g‘ye bo‘lmaydi ham biror boshqa kiyadigan narsa ham yo‘q. Shlyapasiz-a? O‘ng‘aysiz? Shlyapasiz iloji yo‘qmikin, bir urinib ko‘rsam qalay bo‘larkan-a. Bir ko‘rsammikin.

Voy! Baland ekan.

*N.V. Gogol*

*Revizor*

*Xlistakov monologi*

Nimasini aytasiz. Stolda, masalan, tarvuz, yetti yuz so‘mlik tarvuz; sho‘rva to‘ppa – to‘g‘ri Parijdan bidirlab qaynab turgan xolda qozoni bilan paroxodda olib kelingan bo‘ladi. Qozonning qopqog‘i ko‘tarilsa shunday bug‘i chiqadiki, tabiat olamida bunday bug‘ni ko‘rgan emas. Men xar kuni balda bo‘laman. Karta o‘ynaydigan ulfatlarim ko‘p: biri tashqi ishlar ministri, biri frangiz safiri, biri Angliya safiri, biri nemis safiri va xokazo. Karta o‘ynab shundoq ham charchaymanki, nimasini aytasiz. To‘rtinchi qavatda arang chiqamanu oqsochimga: “Ma, Mavrushka,

shinelimni ol” deyishga zo‘rg‘a darmonim yetadi. E, e esimdan chiqipti, ikkinchi qavatda turaman. Bitta zinadan chiqaman xolos... Ertalab men xali uyqudan turmasimdan burun mexmonxonamni ko‘rsangiz: graflar, knyazlar g‘ij – bij o‘tirishadi; ariday go‘ng‘illashgani – g‘o‘ng‘illashgan... Ba‘zan ministr ham keladi. (Xokim va boshqalar o‘ti yorilib, o‘zinlaridan turishadi) Menga yuborilgan xatlarning ustiga ham: “janob oliylariga” deb yozishadi. Bir vaqt hatto departamenti ham boshqarganman. Qiziq: direktor ketib qoldi, qayoqqa ketgani ma‘lum emas. Turgan gap, bu o‘ringa kim o‘tiradi deb shov – shuv bo‘lib qoldi. Ko‘p generallar talabgor bo‘lib keldi-yu, lekin xech qaysisi uddasidan chiqolmadi. Chetdan qaraganda oson ko‘rinadiyu, lekin, haqiqatda qiyin ish. Xech kim udda qilolmagandan keyin menga murojaat qilishdi. Kuryer ketidan kuryer, kuryer ketidan kuryer, qani endi keti uzilsa. O‘ttiz besh ming kuryer kelsa bo‘ladimi! O‘zi nima gap deb so‘radim. “Ivan Aleksandrovich, marxamat qilib departamentni boshqaring” deyishdi. Rostini aytsam biroz ishonib qoldim, ustimda xalat chiqib, “yo‘q” demakchi bo‘ldimi, lekin poshshoning qulog‘iga yetib qolsa, deb, “ha, mayli, afandilar, qabul qilsam qabul qila qolay, lekin bilib qo‘yinglar, mening qulog‘im deng, men ish boshida bo‘lganimdan keyin unday – bunday gaplar bo‘lmasligi kerak dedim. Haqiqatan ham departamentdan shunday o‘tsam, xuddi zilzila bo‘lganday, hamma dag‘ – dag‘ titrardi”. (Xokim va boshqalar qo‘rqib qaltirashadi. Xlestakov qizishib ketadi) Men xazil – pazilni bilmayman. Xammasiga zarbimni o‘tkazib olganman. Mendan davlat kengashi ham qo‘rqadi. Ha, nima? Shundoq odamman o‘zim. Men xech kimni rioya qilmayman. Hammaga: “O‘zimni o‘zim bilaman, o‘zim” deyman. Xech qayerda, xech ish mensiz bitmaydi. Saroyga xar kuni borib turaman. Xohlasam ertaga feldmarshal bo‘laman (Sidirib yerga yiqilay deganda, boshqalar xurmat bilan tushib qolishadi).

## GLOSSARIY

- Adabiy til** – Muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va meyorlashtirilgan, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli.
- Aktyor nutqi ifodaviyligi** – So‘zlardagi unlilarni kerakli joylarda cho‘zib aytish va bir so‘zda oxirgi undosh tovushlarni aniq talaffuz qilish orqali erishiladigan samara.
- Artikulyatsiya** – Nutq a‘zolarining meyoriy harakati
- Badiiy so‘z ustasi** – Adabiy asar yoki dramatik parchani tinglovchilarga asar mohiyatini badiiy ta’sirchan qilib yetkazuvchi so‘z ijrochisi.
- Badiiy so‘z** – So‘z ijrochiligi san’atining yanada takomillashgan barkamol ifodaviyligi
- Badiha** – Xalq og‘zaki ijodi an’analari asosida tuyqusdan, birdaniga aytilgan so‘z, she’r yoki qo‘shiq.
- Diksiya** – (lot. – dictio – talaffuz) – so‘zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, so‘zlash usuli. Nutq madaniyatining asosini tashkil etadi. Aktyorlik san’atida, shuningdek, xonanda, diktora, notiq, o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.
- Intonatsiya** – Tovushning past-baland bo‘lib o‘zgarib turishidan iborat ritmik-melodik nutq tuzilishi, ohang
- Kulminatsiya** – Biror voqea yoki hodisa rivojlanishidagi eng yuqori nuqta, avjiga chiqish.
- Mimika** – Sahnaviy harakat jarayonida aktyorning tabiiy yuz ifodasi.
- Ovoz** – Ovoz – markaziy organ oliy nerv sistemasining mahsuli
- Pauza** – (yun. Pausis – to‘xtash, tugash) – nutq jarayonida biror mantiqiy ehtiyoj yoki maqsad tufayli tinim saqlanib

- qolgan vaqt birligiga aytiladi
- Poeziya** – (yun. – poieo – yarataman) – badiiy ijodning asosiy turlaridan biri – she’riyat
- Roman** – (frans. roman) – nasriy asar janri; muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning shakllanish va kamol topish jarayoni badiiy makon va zamonda tasvirlangan asar.
- Ruboiy** – (arab. – to’rtlik) – SHarq xalqlari she’riyatida keng tarqalgan poetik janr.
- Saj’** – (arab. – qumri, bulbul, to‘tilarning sayrashi) – badiiy so‘z san’atlaridan biri: bir yoki bir necha gapdagi ayrim so‘zlarning vazn yoki raviyda (yoki har ikkalasida) mos kelishi.
- Sahna nutqi** – Teatrda badiiy obraz yaratish, qahramon xatti-harakatlari, his-tuyg‘ularini tomoshabinga yetkazishda asosiy ifoda vositalaridan biri.
- Sonet** – (ital. sonetto) – 14 misradan iborat turg‘un she’riy shakl.
- She’riy nutq** – Badiiy nutqning nasriy (sochma) va she’riy (tizma) tarzidagi ikki shaklidan biri bo‘lib, tilning muayyan ichki o‘lchamga solingan, ma’no ko‘chishiga asoslangan, hissiyotga to‘yingan alohida ko‘rinishi.
- She’riyat** – Poeziya – she’riy asarlar majmui.
- Ertak** – Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri.
- Hijo** – (arab. – bo‘g‘in) – aruz vaznidagi ifodaning ritmik birligi, ya’ni so‘zning bir nafas zarbi bilan aytiladigan qismi.
- Orfoepiya** – Orfoepiya so‘zi yunoncha (ortphos – to‘g‘ri, epos - nutq) to‘g‘ri gapirish to‘g‘ri talaffuz
- Nafas** – Xavo oqimining inson vujudida almashinish jarayonidagi biologik xodisa

- Til** – Tovushlarning hosil bo‘lishida ishtirok etadigan og‘iz bo‘shlig‘idagi faol a‘zo.
- Burun bo‘shlig‘i** – Nafas va ovoz yo‘nalishida ishtirok etadigan yo‘laklardan iborat bo‘shliq.
- Registr** – Ovoz balandligi va kuch darajasining ma‘lum meyorda paydo bo‘lish o‘rnining cheklanuvi
- Ovoz markazi** – Insonning o‘ziga xos va ravon, bevosita jaranglaydigan tovush darajasi
- Ohang** – Tovushlarning ma‘lum bir tartibda uyg‘unlashib, musiqiy butunlik tashkil etgan birikmasi.
- Qaytargich** – Kuchaytirgich, ovozni shakllantiruvchi asosiy manba.
- Diafragmal nafas** – Ko‘krak qafasi qovurg‘alarini ko‘tarib (ijro va nutq) ikki tomonga suradigan mushaklar uchun eng qulay nafas olish turi
- Fonatsionnafas** – Tovushbilan uyg‘un nafas
- Ko‘krak qafasi** – o‘pka, bronx, troxeyalardan iborat bo‘lib, ular nafas chiqishda yo‘naltiriluvchi vazifasini bajaradi va tovush naydo bo‘lishda ko‘maklashadi.
- Tovush kuchi** – Tovushning qattiq eshutilish darajasi
- Pichirlash** – Yuz (maskada) og‘iz va burunga yaqin jaranglab turuvchi ovoz
- Urg‘u** – Nutqdagi biror bo‘lakni kuchliroq talaffuz etish xodisasiga aytiladi

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 48-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi. 2017 yil 4 avgust.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. 176-b
5. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. 304-b.
6. Nosirova A. Jonli so‘z san‘ati. – Toshkent: Musiqqa, 2009.
7. Imomov K., Mirzayev T. va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. 304-b.
8. O‘zbek folklor ocherklari. B.Sarimsoqov muharrirligida. – Toshkent: Fan, 1989. 320-b.
9. Aliyeva N. San‘atdagi hayotim. - T.1978.
10. Qodirov M.X. Navoiy va sahna san‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – 167 b.
11. K.S.Stanislavskiy. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.Xo‘jayev tarjimasida. S.Muhamedov muharrirligida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 468 b.
12. Rahmonov M. O‘zbek teatri tarixi XVIII asrdan XX asr avvaligacha. – Toshkent: Fan, 1968. – 430 b.
13. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. –T.: Tafakkur qanoti, 2014.
14. Inomxo‘jayev S.Badiiy o‘qish asoslari. - T.1973.
15. Po‘latov I. Sahna nutqi. - T.1994.
16. Inomxo‘jayev S. Notiqlik san‘ati asoslari. - T.1982.
17. Sayfutdinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. - T.Fan.1980.
18. Hojiahmedov A. She‘r san‘atlarini bilasizmi? –T. Sharq, 2001.
19. Xoliqulova G.E. Sahna nutqi (tarixiy spektakllar misolida). – T., O‘zDSI, 2008.
20. Qodirov R.T. “Rejissura asoslari” (O‘zbekiston xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev ijodi misolida). – T.: Navro‘z, 2015.
21. Xojimatova M. Sahna nutqi. –T., Yangi asr avlodi, 2011.
22. Jumanov I. Sahna nutqi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
23. Qodirov M.X. Tomosha san‘ati o‘tmishidan lavhalar. – Toshkent: Fan, - 1991. – 203 b.
24. Rizayev Sh. Sahna ma‘naviyati. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2000. – 176 b.

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	7
<b>I BOB. FANNING NAZARIY ASOSLARI</b>	
Sahna nutqi faniga kirish	15
Orfoepiya. O‘zbek orfoepiyasining asosiy qoidalari	24
Nutq tovushlari va talaffuz me‘yori	42
Ifodali o‘qish qoidalari. Tinish belgilari va ularning mohiyati	67
Tasavvur va fantaziya. Ta’sirchan so‘zga erishish omillari	87
Adabiy parchalar ustida ishlashning ilk bosqichlari	103
Barmoq vaznidagi she’rlarning tahliliy, nazariy va amaliy ijroviy, uslubiy hususiyatlari	108
Kichik voqeali badiiy matnlar, ertaklar olami	113
Turli mavzudagi matnlarda tahlil va talqin	123
Nutqni takomillashtiruvchi texnik mashqlar	144
Murakkablashtirgan voqeli tez aytishlar	154
Talaffuz aniqligi, faolligi mashqlari	157
O‘zbek mumtoz she’riyati. tuzilishi va asosiy yo‘nalishlari	159
Voqealar tizimida so‘z harakati ta’sirchanligi	176
Sahnaviy asarlarda obrazlar va obrazlilik	205
Monolog. monolog turlari	213
Monologlar haqida. tahlil va talqin	216
Monologlarda so‘z xatti harakati	219
<b>II BOB. AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI YUZASIDAN TEXNIK MASHQLAR VA MATNLAR MAJMUUI</b>	
Nutq a‘zolarining tuzilishi	221
Artikulyatsiya mashqlaridan namunalar	223
Til mashqlari	226
Tez aytishlar	228
Nafas, ovoz, talaffuz va orfoepiya (harakatli mashqlar asosida)	233
Qatralar	254
Tasviriy (manzara) adabiy parchalar	262
Kam voqeali adabiy parchalar	269
To‘liq asar yoki murakkab adabiy parchalar	298
Hajviy adabiy parchalar	309
Rivoyatlar	325
She’riyat	336
Masallar	369
G‘azallar	385
Monologlar	397
Glossariy	428
Adabiyotlar ro‘yxati	430

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>Введение</b>	7
<b>Глава I. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕДМЕТА</b>	
Введение в предмет “Сценическая речь”	15
Орфоэпия. Основные правила орфоэпии	24
Звуки речи и нормы произношения	42
Правила выразительного чтения. Знаки препинания и их особенности	67
Воображение и фантазия. Факторы достижения выразительности слова	87
Начальные этапы работы над литературным отрывком	103
Аналитические, теоритические, практическо исполнительские и методические особенности стихотворения	108
Художественный текст с маленькими событиями, мир сказок	113
Анализ и интерпретация текстов на разные темы	123
Технические упражнения усложняющие речь	144
Скороговорки с усложненными событиями	154
Упражнения на активность и точность произношения	157
Основы стихосложения. Восточная поэзия	159
Словесное действие в цепи событий	176
Образы и образность в сценических произведениях	205
Монолог. Виды монологов	213
О монологах. Анализ и интерпретация	216
Словесное действие и выразительность в монологах	219
<b>Глава II. СОДЕРЖАНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ И ТЕКСТОВ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ</b>	
Строение речевого аппарата	221
Примеры артикуляционных упражнений	223
Упражнения на подвижность языка	226
Скороговорки	228
Дыхание, голос, произношение и орфоэпия (на основе комплексных упражнений)	233
Короткие рассказы	254
Прозаические отрывки описательного характера	262
Отрывки с одним событием	269
Сложные литературные отрывки	298
Юмористические отрывки	309
Притчи	325
Поэзия	336
Басни	369
Газели	385
Монологи	397
Глоссарий	428
Список литературы	430

## CONTENT

<b>Introduction</b>	7
<b>Chapter I. THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE SUBJECT</b>	
Introduction to the subject “Stage Speech”	15
Orthoepy. Basic rules of orthoepy	24
Speech sounds and pronunciation rates	42
The rules of expressive reading. Punctuation marks and their features	67
Imagination and fantasy. Factors for achieving expressiveness of the word	87
The initial stages of work on a literary passage	103
Analytical, theoretical, practical performing and methodological features of the poem	108
Fiction text with small events, fairy tale world	113
Analysis and interpretation of texts on various topics	123
Technical exercises that improve speech	144
Complicated tongue twisters	154
Exercise activity and pronunciation accuracy	157
Basics of versification. Oriental poetry	159
Verbal action in the chain of events	176
Images and imagery in stage works	205
Monologue. Types of Monologues	213
About monologues. Analysis and interpretation	216
Verbal action and expressiveness in monologues	219
<b>Chapter II. CONTENTS OF TECHNICAL EXERCISES AND TEXTS ON ACTIVITIES</b>	
The structure of the speech apparatus	221
Examples of articulation exercises	223
Language stiffness exercises	226
Tongue Twisters	228
Breathing, voice, pronunciation and orthoepy (based on complex exercises)	233
Short stories	254
Prose narrative passages	262
Single Event Excerpts	269
Complex literary passages	298
Humorous passages	309
Parables	325
Poetry	336
Fables	369
Gazelles	385
Monologues	397
Glossary	428
List of references	430